В русском языке окончание как словоизменяющий (формообразующий) суффикс состоит только из одной морфемы, в которой может быть заключено несколько грамматических значений. Учащемуся-узбеку такие сложные грамматические явления не знакомы, поскольку в узбекском языке каждый словоизменяющий суффикс в большинстве случаев имеет стандартную форму с одним, и притом вполне определённым, грамматическим значением. Поэтому, с точки зрения учащихся-узбеков, многозначность окончаний русского слова-очень трудное и сложное явление.

Возьмём, например, узбекский суффикс *-ga*. Этот суффикс как показатель дательного падежа не меняет своей формы ни в единственном, ни во множественных числах; но во множественном числе *-lar*. Так, слова *talabaga* означает *студенту*, а *talabalarga-студентам*. В русском же языке каждое окончание слова включает в себе сразу несколько грамматических значений. В самом деле, наличествующие в словах *институту* и *институтам* окончания *-у* и *-ам*, отдельно взятые, не имеют определённого значения, а в сочетании с конкретным словом указывают сразу и число, и падеж. Русское окончание (например, *-ам*) нельзя разложить на отдельные показатели числа и падежа, как это наблюдается в узбекском языке, когда говорят *institutlarga* (*институтам*) или *institutlarning* (*институтов*) В этих узбекских формах основой является институт, а словоизменяющий суффиксы *-larga* или *-larning* разлагаются на отдельные показатели, легко распознаваемые по их грамматическим значениям: *-larga=lar+ga* (множественное число+дательный падеж) или *larning=lar+ning* (множественное число+родительный падеж).

Сказанное выше позволяет сделать следующие выводы и дополнения.

1. По своему составу большинство русских слов, имеющих формы словоизменения, даже в исходной форме делится на две части: основу и окончание.

В узбекском же языке начальная форма любого слова не делится на такие части; узбекское слово в такой форме не имеет окончания; поэтому в грамматике узбекского языка подобного термина не существует. Исходная форма любого узбекского слова состоит либо только из корня (непроизводной основы), либо из корня, к которому присоединены соответствующие словообразующими суффиксы, образующие вместе с корнем производную основу.

Несмотря на то, что в русском языке большинство знаменательных слов в своей исходной форме делится на основу, выражающую лексическое значение слова, и на окончание, указывающее на связь между этим словом и другими словами сама основа без окончания (хотя бы нулевого) не может употребляться в предложении и не является вполне оформленным словом.

В узбекском же языке основа любого слова является вместе с тем полноценным и оформленным словом, которые может употребляться в предложении.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Андриянова В.И. Развитие русской устной речи учащихся в узбекской школе .Т Шарк. 2002.
2. 2.Карабаева Л.И. Методика преподавания русского языка в национальной школе. Л. Наука, 2001.
3. Азизов А.А. Сопоставительная грамматика русского и узбекского языков. Ташкент, 1990.
4. Протченко И.Ф. Русский язык: проблемы изучения и развития. М., 1989.
5. Абрежев, А. И. Сравнительный анализ грамматического строя русского и узбекского языков [текст]: (Фонетика, морфология и синтаксис): Учеб. пособие для студентов–заочников / Самарк. гос. Ун–т им. Алишера Навои. – Самарканд: [Изд–во СамГУ], 1962. – С. 76–80 .
6. Алимova, А. Т. Словоизменение и словообразование узбекского и русского языков в свете типологического контраста // Преподавание языка и литературы. – Ташкент, 2001. –С.21–29.

BOSIM QUVURINI GIDRAVLIK ZARBANI SO'NDIRISH HISOBI

Sarmonov Nodirbek O'tkir o'g'li

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti asisstenti*

Toshmurodov Ma'rufbek Orif o'g'li

*“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar
instituti talabasi*

Anatatsiya: *Hozirgi vaqtda resurs tejamkor hisoblangan qurilmalarga gidravlik zarba sundirgichlari kiradi. Bunday gidravlik zarba sundirgichga –universal havoli gidravlik qalpoqlarni kiritish mumkin. Bu universal havoli gidravlik qalpoqning optimal hajmini hisoblash dolzarb masala hisoblanadi. Bu sundirgichning universalligi shundan iboratki, u gidravlik zarba bosim kamayishidan (salbiy gidravlik zarba) yoki bosim ortishidan (ijobiy gidravlik zarba) hosil bo'lishidan qat'iy nazar juda yuqori darajada sundiradi (70 foizgacha). Bu gidravlik zarba sundirgich-universal havoli gidravlik qalpoqning optimal hajmi uni asosiy bosim quvuriga ulaydigan ikkita ulash quvurlaridagi napor yo'qolish qiymatlariga bog'liq. Gidravlik zarba sundirgichini – universal havoli gidravlik qalpoqni hisoblashda bosim va ulanish quvurlarida napor yo'qolishini hisobga olish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *gidravlik zarba, gidravlik qalpoq, zarba sundirgich, stansiya, resurs tejamkor, quvur, napor yo'qolish, gidravlik qalpoq, bosim quvuri.*

Hozirgi kunda sanoatda, qishloq xo'jaligida, sug'orishda, suv ta'minotida va neftni o'zlashda nasos stansiyalaridan va qurilmalaridan keng foydalaniladi. Nasos stansiyalari va qurilmalarining asosiy inshootlaridan biri ancha uzun bo'lgan bosim quvurlari hisoblanadi. Bu uzun bosim quvurlari suv, neft va boshqa uyuqliklarni isrofsiz uzatishda asosiy ishni bajaradi. Bosim quvurlari har xil armaturalar (qulfak, teskari klapan va boshqalar), ya'ni jihozlar bilan ta'minlanadi. Bu armaturalar normal ishlamas, nasos stansiyalari va qurilmalarining me'yordagi ish rejimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Elektrodvigatellar nasoslarni harakatga keltiradi, ya'ni nasoslar elektr energiyasining ist'emolchisi hisoblanadi. Elektrodvigatellarga tusatdan elektr ta'minotining uzilishi natijasida nasos stansiyasi yoki nasos qurilmalari bosim quvurlarida nabarqaror harakat jarayoni, ya'ni gidravlik zarba jarayoni yuzaga keladi. Bu gidravlik zarba jarayoni juda havfli jarayon bo'lib, nasos stansiyalari va nasos qurilmalari bosim quvurlarida hosil bo'ladi. Bu havfli gidravlik jarayon nasos stansiyalari va qurilmalarining normal ishlashini izdan chiqaradi. Bu havfli hodisa vaqtida bosim quvuri, teskari klapan, nasos va nasos vali ishdan chiqishi mumkin. Bundan tashqari yozning jazirama issiq kunlari qishloq xo'jalik o'simliklarining bir-necha kun

suvsiz qolishi, hosildorlikning pasayishiga sabab bo'ladi, ya'ni iqtisodiy zarar kuzatiladi. Bu noxush hodisaning oldini olishda har xil qurilmalar, usullar va tadbirlardan foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda resurs tejamkor hisoblangan qurilmalarga gidravlik zarba sundirgichlari kiradi. Bunday gidravlik zarba sundirgichga –universal havoli gidravlik qalpoqlarni kiritish mumkin. Bu universal havoli gidravlik qalpoqning optimal hajmini hisoblash dolzarb masala hisoblanadi. Bu sundirgichning universalligi shundan iboratki, u gidravlik zarba bosim kamayishidan (salbiy gidravlik zarba) yoki bosim ortishidan (ijobiy gidravlik zarba) hosil bo'lishidan qat'iy nazar juda yuqori darajada sundiradi (70 foizgacha). Bu gidravlik zarba sundirgich-universal havoli gidravlik qalpoqning optimal hajmi uni asosiy bosim quvuriga ulaydigan ikkita ulash quvurlaridagi napor yo'qolish qiymatlariga bog'liq [1]. Bu universal havoli gidravlik qalpoq bosim quvuri boshida teskari klapandan keyin, ya'ni gidravlik zarba uchog'iga o'rnatiladi. Har ikkala ulash quvurchalari teskari klapan va jumrak (ventil) bilan jihozlanadi.

Jumraklar yordamida ulanish quvurchalarida napor yo'qolishining optimal qiymatlari aniqlanib, universal havoli gidravlik qalpoq bosim quvuriga ulash quvurchalari yordamida o'rnatiladi. Har ikkala ulash quvurchalari uchun napor yo'qolishini aniqlash bo'yicha tarirovka grafiklari quriladi. Bu napor yo'qolishining optimal qiymatlari tarirovka grafigidan aniqlanadi. Bu qiymatlar o'z navbatida universal havoli gidravlik qalpoqning eng kichik hajmini aniqlashga imkon beradi. Masalani yechishda o'lchamsiz ko'rinishdagi to'lqin tenglamalaridan foydalaniladi [1,2]:

$$\left. \begin{aligned} \frac{d\bar{V}}{dt} &= \frac{2\pi}{\sqrt{2\pi\sigma}} \left[h-1 - \left(\bar{h}_{mro} + \bar{h}_{do} \right) \bar{V} \left| \bar{V} \right| \right] = f_1 \left(\bar{t}, \bar{V}, \bar{h} \right) \\ \frac{d\bar{h}}{d\bar{t}} &= -2n\bar{h}^{\frac{1-n}{n}} \pi \sqrt{\frac{2\sigma}{n}} \bar{V} = f_2 \left(\bar{t}, \bar{V}, \bar{h} \right) \end{aligned} \right\} (1)$$

bunda

$h - t$ vaqt davomida diafragmali havoli gidravlik qalpoqning o'lchamsiz absolyut gidrodinamik napor;

n - politropa ko'rsatkichi;

σ -xarakteristik kattalik bo'lib quyidagiga teng:

$$\sigma = \frac{\omega L V_0^2}{2gH_{ga} W_0}$$

H_{ra} - absolyut geodezik napor;

L - bosim quvuri uzunligi;

V - t vaqt davomida bosim quvuri o'lchamsiz tezligi;
 h_k - bosim quvurida barqaror harakat vaqtida o'lchamsiz napor yo'qolishi;
 $h_{\sigma} - V_0$ tezlikda diafragmada napor yo'qolishi;
 $W \square$ absolyut gidrodinamik napor H_a qiymatiga mos diafragmali havoli gidravlik qalpoqda havo hajmi;
 $h_0 - V_0$ tezlikda bosim quvurida napor yo'qolishi;
 V_0 - bosim quvurida barqaror suyuqlik harakat tezligi bo'lib uning qiymati hajmiy usulda aniqlanadi.

(1) tenglamalar quyidagi boshlang'ich shartlar asosida yechiladi

(2)

$$\left. \begin{aligned} h &= h_0 = 1 + \bar{h}_k \\ \bar{V} &= V_0 = 1 \end{aligned} \right\} \quad (2)$$

(1) tenglamalarni boshlang'ich shartlar (2) asosida yechiladi. (1) tenglamalar sistemasi Runge – Kutta sonli usulida [3,4] yechiladi. Keyin universal havoli gidravlik qalpoqning o'lchamlarini aniqlash mumkin.

Xulosa qilish mumkinki, gidravlik zarba sundirgichini – universal havoli gidravlik qalpoqni hisoblashda bosim va ulanish quvurlarida napor yo'qolishini hisobga olish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Sababi universal havoli gidravlik qalpoqning eng minimal o'lamlarini aniqlashga imkon beradi. Bu universal havoli gidravlik qalpoqni yasashda sarflanadigan metall miqdorini tejashga olib keladi. Universal havoli gidravlik qalpoqning “qattiq” model asosida o'lchamlari aniqlangandan keyin suyuqlikning va quvur devorining deformatsiyalanishini hisobga olib gidravlik zarbaning kuchini aniqlikda hisoblash mumkin.

АДАБИЁТЛАР:

1. Жонқобилов У.У., Жонқобилов С.У. Суғориш насос станцияларининг напорли қувурларини гидравлик зарба таъсиридан ҳимоя қилиш. Монография. Қарши, ҚарМИИ босмахонаси, 2020. – 131 б.

2. Сурин А. А. Гидравлический удар в водопроводах и борьба с ним. – М. – Л., Трансжелдориздат, 1946, - 371 с.

3. Демидович Б. П., Марон И. А. Основы вычислительной математики. М., Наука, 1970, 664 с.

4. Шуп Т. Решение инженерных задач на ЭВМ . (пер. с англ.). М., Мир, 1982, 235 с.

**ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ИНФОРМАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯГА ОИД
ТЕРМИНОЛОГИЯ БЎЙИЧА ЛИНГВИСТИК ТАДҚИҚОТЛАР**

Д.У.Исмаилова

Н.К.Аббасова

Фарғона давлат университети

Аннотация: *Мақолада информацион технологияга оид терминларнинг пайдо бўлиши, инглиз, рус ва ўзбек тилларида тадқиқотлар ўтказилганлиги ҳақида сўз юритилади.*

Таянч сўз ва иборалар: *компьютер, маълумот, термин, технология.*

ЛИНГВИСТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ ТЕРМИНОЛОГИИ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Исмаилова Д.У

Аббасова Н.К

Ферганский государственный университет

Аннотация: *В статье обсуждается вопросы использования терминов информационных технологий на английском, русском и узбекском языках и целью исследования.*

Ключевые слова: *компьютер, информация, термин, технология.*

LINGUISTIC STUDY OF INFORMATION TECHNOLOGY TERMINOLOGY IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

D.U. Ismailova

N.K. Abbasova

Fergana State University

Annotation: *In the article, the use of information technology terms in English, Russian and Uzbek languages, the origin of them is discussed.*

Key words: *Computer, reference, term, technology.*

Бугунги кунда компьютер ва информацион технологияларга асосланган турли хил қурилмалар жамиятимизнинг барча жабҳаларида қўлланилади, шунинг учун терминология мутахассислар лексикасидан умумий луғат тоифасига ўтади ва улардан фойдаланиш частотаси ҳам кенгайиб бораверади. Маълумки, тилшунослик бўйича олиб борилган тадқиқотларда терминларнинг таърифи борасида турлича ёндашувлар мавжуд экан, мазкур масала ўз долзарблигини йўқотмайди. Терминга берилган кўплаб таърифларда унинг махсус предмет ва тушунчаларни ифодалашини,

махсус вазифани бажариш билан чеклангани, илмий тушунча тўғрисида маълумот бериши, махсус соҳага оид тушунчаларни англатиши, экспрессивлик ва эмоционалликка эга бўлмаслиги каби хусусиятлари қайд этилади.

Кечагина терминологик маънога эга бўлган сўзлар бугунги кунда шунчалик кенг қўлланилмоқдаки, бу уларни қайта кўриб чиқишга ва "махсус" маъносини йўқотишга олиб келади. Бу фан ёки технологиянинг айрим соҳаларининг жадал ривожланиши билан содир бўлади, чунки компьютер технологиялари соҳасида бўлгани каби, индивидуал терминларнинг профессионалдан кундалик фойдаланишга босқичма-босқич ўтиши бошланади. Замонавий лингвистикада одатда бир хил номдаги дастурий платформага асосланган техник маҳсулотни (планшет, мобиль телефон) "аналоглари", омонимлари кўп соҳаларда ишлатилмоқда.

Шу билан бир қаторда, шунга ўхшаш бошқа мисолларни ҳам келтириш мумкин: кўк экран - кўк фон, зангори ойна атамаси бунинг яққол исботидир. Бугунги кунда "кўк экран" атамаси стандарт кўрсатмалар ва дастурий таъминот қўлланмаларида рус ва ўзбек тилларида сўзлашувчи компьютер фойдаланувчилари учун тушунарли атама сифатида аста-секин умумий луғатга ўтиб бормоқда. Шунингдек, инглиз тилида ушбу атама учун янги лексик-семантик вариант шаклланди -*user* (компьютер билан шуғулланадиган ҳар бир киши) - фойдаланувчи. Кўриб турганимиздек, юқоридаги мисоллар компьютер технологиялари соҳасидаги луғатни терминология - детерминациялашнинг параллел жараёни бўлиб, миллий тил муҳитида бу жараён сезиларли ижобий тенденцияга эга. Ушбу жараён терминология соҳасининг прогрессив ривожланишга ҳисса қўшади.

Замонавий информатсион технологияларга оид терминология соҳасидаги тадқиқотларнинг долзарблиги компьютер терминологиясининг статик эмаслигидан келиб чиқади. Аксинча, у доимо динамик ривожланишда, ривожланиб, янги терминлар билан бойиб боради.. Компьютер луғати ва унинг таржимасига бағишланган кўплаб илмий ишларга қарамасдан (В. Акуленко, Ф. Баранов, И. Болшаков, Д. Кристал, Н. Гритсак, В. Карабан, О. Медвид, Р. Пронин, А. Савина, В. Табаканова, А. Федоров, М. Чернишов ва бошқалар), терминларнинг структуравий фарқланиши (Д. Баранник, Р. Дубук, К. Гаивенис, Т. Кияк, З. Куделко, С. Павел, Э. Еникиева, М. Кочерган ва бошқалар), сўз ясаиш усуллари ва термин тизимлари (Н. Безгҳолова, Л. Вербa, Н. Виноградова, М. Володина, О. Галичкина, В. Даниленко, А. Николаева ва бошқалар) ҳақида тўлиқ маълумот йўқ.

Компьютер терминлар тизимининг ривожланишига таъсир этувчи турли ҳил омиллар, жумладан, экстралингвистик омилларга ахборотлаштириш, инглиз тилида сўзлашувчи жамиятлар ва бутун дунё ҳамжамиятини компьютерлаштириш, интернетни яратиш ва тарқатиш кабилар ушбу соҳанинг глобаллашув жараёнларига, инглиз тилининг кенгайишига, тушунчаларни лингвистик кодлаш устуворлигига олиб келади.

Компьютер сўзи тизимли терминлардан иборат бўлиб, уларни қуйидаги гуруҳларга бўлиш мумкин:

1. Умумий сўзлар билан боғланган терминлар. Бундай терминлар тез-тез ишлатиладиган сўзларнинг ИТ (информацион технологиялар)га хос маъноларга эга бўлишидан ҳосил бўлади. Бундай ҳолда, термин умумий сўз маъносини ифодалайди (масалан, *card-карта, chat-суҳбат, break-манаффус, driver-ҳайдовчи, standard-стандарт, key-тузма, copy-нухалаш, delete-ўчириш, page-саҳифа, programme-дастур, cookie-коокие файллари, error- хато*).

2. Нафақат компьютер технологиясига оид термин тизимида, балки фан ва техниканинг бошқа соҳаларида ҳам фаолият юритувчи умумий терминлар (масалан, компьютер контекстида ахборотни киритиш ва чиқаришни бошқарадиган дастурни билдирувчи *driver* термини).

3. Фақат компьютерга тегишли махсус терминлар қуйидагиларни ташкил этади. Масалан, кибер-хавфсизлик, кибернетика, аппарат, киберпрофиллар, техномедиа, электрон кабинет, электрон пул, гиперҳавола, гиперматн, кибермакон, микроблог, киберкоммутер. Бундай ҳолларда сўз маъноси билан термин маъноси бир-бирига мос келади, чунки сўз фақат биргина махсус тушунчани ифодалаш учун хизмат қилади, яъни термин ва сўзнинг семантикаси термин маъносига адекват бўлади.

4. Компьютер саноатида икки ёки ундан ортиқ маънога эга бўлган терминлар. Мисол учун, "сервер" термини интернетга кириш учун қурилма сифатида компьютернинг номи, шунингдек, интернетга киришни таъминлайдиган дастур; "демонстрация" термини феъл сифатида кўрсатмоқ, от сифатида эса экран ёки монитор маъносини билдиради; "Файл" ҳужжат, маълумотларнинг алоҳида бирлиги ва файл операциялари учун масъул иловаларнинг стандарт менюсини билдиради.

Компьютер терминларининг янада кенгроқ тарқалишида унинг ясаши хам катта рол ўйнайди. Сўз ясашининг турлари қуйидагилардан иборат: морфологик (аффиксация қўшимчаси, олд қўшимчаси ва суффиксация), қисқартмалар ва бошқалар), синтактик (терминологик бирикмаларнинг ҳосил бўлиши) ва морфологик-синтактик.

Сўз ўзагига аффикс (қўшимча, олд қўшимча, интерфикс, инфикс ва ҳоказо) қўшиб, янги лексик бирлик ҳосил бўлиши фиксация дейилади. Компьютер терминларини бириктиришнинг энг кенг тарқалган усуллари:

1. Префиксация, лексик бирликни яшаш усули бўлиб, ўзак олдидаги қўшимча, яъни олд қўшимчанинг қўшилиши билан тавсифланади, энг кенг тарқалган мисоллар "кибер-", "э-", "гипер-" дир. , "микро-", "мини-", "мулти-", "суб-", "супер-", "техно-" (масалан, *kiberaddict, deactivate, e-banking, гиперҳавола, interface, macroassembler, microblog, minicomputer, multiaccess*, ортиқча юклаш, қайта йўналтириш, пастки каталог, суперкласс, технофеар ва бошқалар).

2. Суффиксация, сўзнинг ўзаги ва охири ўртасида жойлашган, энг кенг тарқалган қўшимчалари "-эр", "-варе" бўлган қўшимчанинг қўшилиши билан ифодаланадиган

янги лектик бирлик ҳосил қилиш усули. , “-исе”, “-инг”, “-(а)тион”, “-иш”, “-эсе” (масалан, сканер, веб-дастур, процессор, хакерлик, смайлик, боофер, кернинг, илова, курсор, почта дастури, авторизация, минималлаштириш ва бошқалар).

3. Префикс-суффикс, ҳам префикс, ҳам қўшимчанинг қўшилиши билан тавсифланган лектик бирликни ҳосил қилиш усули (масалан, қайта тайинлаш, воситачиликни йўқотиш, биргаликда рўйхатдан ўтказиш, ташқи кўриниш, рефакторлаш, кодловчи, суперсэмплинг, деструктор, авторизациядан чиқариш, блокировкадан чиқариш, кибер-хакерлик, мулътинет ва бошқалар).

Кўриниб турибдики, компьютер терминларини ўрганиш ва ҳосил қилиш бир неча босқичлардан иборат мураккаб жараён бўлиб, уларнинг ҳар бири компьютер терминологиясининг маълум бир томонини ўрганишга қаратилган ва умумий илмий ва лингвистик усулларни ҳар томонлама қўллаш билан биргаликда синчковлик билан таҳлил қилишни талаб қилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Акулинина Т.В. / Экстралингвистическая обусловленность особенностей английской терминологии компьютерной информатики: автореф. дис.канд. филол. наук // Т. В. Акулинина. – Омск, 2003. – 23 с.

2. Ўзбек тили лексикологияси – Тошкент., “Фан”, 1981.-86 с.

3. Неъматов Ҳ, Расулов Р. / Ўзбек тили систем лексикологияси асослари// - Тошкент: Ўқитувчи, 1995.-84 с.

4. Алиева П. / Состояние лингвистической терминологии в современном русском языке // 2011.-78 с.

5. Фуломов С. / Ахборот тизимлари ва технологиялари // Тошкент, 2000.-137 с

6. N.Khoshimova, A.Ruzimatova //METHODS OF LEARNING A FOREIGN LANGUAGE// O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 10-SON. 20.08.2022 74-77 betlar.

7. Н Ахмаджонов, А Рўзиматова //ФРАЗЕОЛОГИЗМЛАР НЕМИС ХАЛҚИ МИЛЛИЙ МАДАНИЯТИНИНГ КЎЗГУСИДИР// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 10-SON. 20.08.2022. 104-109

8. N AKHMADJONOV //Phraseological units is a mirror of the German national culture// Scientific journal of the Fergana State University, 2018 №2. 83-85.

9. Rakhmatillo Shukurov Mirzatillayevich, Ahmadjonov Nurbek Zokirjonogli //Precedent names in the artistic text as allusive names// ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137 Vol. 11, Issue 8 August 2021 Impact Factor: SJIF 2021 = 7.492. P. 46-52 page

АНАЛИЗ УСТОЙЧИВОСТИ СЕТКИ ПРИ ИСПЫТАНИЯХ НА УПРУГОСТЬ ОЧИСТИТЕЛЕЙ ВОЛОКНА

**Якубов Ином Даниярович
Якубова Нигора Мамадиёр кизи**

Ферганский государственный университет

Аннотация: В статье приведены новая эффективная конструктивная схема принцип работы очистителя волокнистого материала от крупных примесей. На основе теоритических исследований определены закономерности колебательного движения и графические зависимости параметров колосника очистителя. Анализом были определены рекомендуемые значения параметров колосника.

Ключевые слова: хлопок-сырец, расчетная схема, диссипативная функция, метод Рунге-Кутты.

Для увеличения надёжности и равномерности подачи и транспортирования волокнистого материала, повышения очистительного эффекта по крупному сору, а также снижения поврежденности волокон совершенствована конструкции транспортирующих щеточных барабанов, колосников очистительной пильчатой секции очистительного агрегата. При этом за счет увеличения линейной скорости выходного транспортирующего щеточного барабана обеспечивается своевременная равномерная подача и транспортировка хлопка. За счет дополнительных вибраций колосников с необходимой частотой и амплитудой увеличится очистительный эффект хлопка от крупного сора.

Очистительная пильчатая секция хлопкоочистительного агрегата работает следующим образом. Засоренный хлопок-сырец транспортируемое в хлопкоочистительном агрегате (на рис. показана только одна секция) поступает к транспортируемым щеточным барабанам 2 и 3, которые в рабочем режиме набрасывают хлопок на поверхности пильчатых барабанов 4,5. Зубья пильчатых барабанов 4,5 захватывая летучки хлопка протаскивают их по колосником 6 и 7. При этом сорные примеси выпадают через зазоры между колосниками 6,7 и отводятся шнеком 10. транспортирующий щеточный барабан 3 позволяет своевременно и непрерывно набрасывать летучки хлопка к пильчатому барабану 4 за счет дополнительной скорости ($d_1 < d_2$). В транспортирующем режиме (вращение против часовой стрелки) работы очистительного агрегата за счет увеличенного диаметра транспортирующего щеточного барабана 3 ликвидируется торможение хлопка между барабанами 2 и 3, обеспечивается равномерная транспортировка хлопка минуя очистительной пильчатой секции хлопкоочистительного агрегата.

Учитывая, что колосник совершает сложные колебания, но, на процесс очистки хлопка в основном влияет вертикальные колебания колосника. Поэтому колосник принимаем, как одномассовую систему, совершающая вертикальные колебания (см.рис.1).

При этом потенциальная и кинетическая энергии колосника имеют вид:

$$T = \frac{1}{2}m\dot{x}^2; \quad \Pi = \frac{1}{2}cx^2 \quad (1)$$

где, m -масса колосника, x, \dot{x} -перемещение и скорость колосника; c -коэффициент жесткости резиновой втулки.




Рис.1. Расчетная схема колебаний колосника на резиновых опорах

Диссипативная функция Рэля имеет вид:

$$\Phi = \frac{1}{2}b\dot{x}^2 \quad (2)$$

где, b -коэффициента диссипации резиновой втулки колосника.

При этом частные производные:

$$\frac{\partial T}{\partial \dot{x}} = m\dot{x}; \quad \frac{\partial T}{\partial x} = 0; \quad \frac{\partial \Pi}{\partial x} = cx; \quad \frac{\partial \Phi}{\partial \dot{x}} = b\dot{x}; \quad (3)$$

Кроме того

$$\frac{d}{dt} \left(\frac{\partial T}{\partial \dot{x}} \right) = m\ddot{x}; \quad Q = F_x = F_1 \sin \omega t \pm \delta F_1 \quad (4)$$

Подставляя (1), (2), (3), в уравнение Лагранжа II-рода получим дифференциальное уравнение колебательного движения колосника на резиновых втулках в следующем виде:

$$m\ddot{x} + b\dot{x} + cx = F_1 \sin \omega t \pm \delta F_1 \quad (5)$$

где, F_1 – среднее значение возмущения от хлопка; δ – случайная составляющая возмущения.

Данная задача в упрощенном виде была решена в работе [5]. Но, для рассматриваемых колосников очистителя УХК при различной толщине резины для обеих зон очистки и с учетом исходных параметров целесообразным считается установление закона колебаний колосника очистителя и зависимостей параметров, приводим численное решение (5). Численное решение (5) приведено методом Рунге-Кутта при следующих исходных значениях параметров системы: $m = (2,0 \div 3,5)$ кг; $c = (0,6 \div 1,6) \cdot 10^3$ Н/м; $F_1 = (3,0 \div 10)$ Н; $\delta F_1 = (0,3 \div 1,0)$ Н; $b = (2,5 \div 6,5)$ Нмс. При решении задачи случайное составляющее технологической нагрузки осуществляли использованием генератора случайных чисел, применяя известную методику [6].

На рис. 3 приведены закономерности изменения вертикальных перемещений и скорости колосника на резиновых втулках рекомендуемой модернизированной пильчатой секции хлопкоочистительного агрегата. Анализ закономерностей показывают что при максимальном значении перемещения колосника X , скорость \dot{X}


будет нулевым и наоборот. При этом влияние на закон перемещения и скорости колебаний колосника незначительно влияет случайное составляющее сопротивления от хлопка. При производительности очистителя машины 3,5 т/ч и исходных значениях параметров колосника, амплитуда его перемещения находится в среднем в пределах $0,24 \cdot 10^{-3}$ м и соответственно амплитуда колебаний скорости колосника находится в пределах $(3,5 \div 5)$ м/с.

С увеличением производительности очистителя до 7,5 т/ч, A_x доходит до $(0,8 \div 0,9) \cdot 10^{-3}$ м и $A_{\dot{x}} = (7,1 \div 8,5)$ м/с.

На основе обработки полученных результатов были построены графические зависимости изменения перемещения и скорости колебаний колосника для верхней и нижней зоны очистки, которые представлены на рис. 4. Анализ графиков показывает, что увеличение технологической нагрузки хлопка-сырца от 1,5 Н до 10,0 Н приводит к увеличению амплитуды колебаний колосника от $0,45 \cdot 10^{-3}$ м до $1,26 \cdot 10^{-3}$ м при массе колосника 2,0 кг. При массе колосника 3,5 кг амплитуда колебаний перемещения колосника доходит только до $0,97 \cdot 10^{-3}$ м (см. рис. 4, кривая 1). Подобным образом изменяется и скорость колебаний колосника (см. рис. 4, кривые 3,4). При массе колосника 2,0 кг, амплитуда скорости возрастает от 9,9 м/с до 27,6 м/с при увеличении нагрузки от 1,5 Н до 10,0 Н. При массе колосника 3,5 кг амплитуда скорости колебаний колосника доходить до 24,8 м/с.

Получены закономерности изменения перемещения и скорости колосника при изменении коэффициента жесткости резиновой втулки колосника. Анализ полученных закономерностей показывает, что с увеличением коэффициента жесткости резиновой втулки происходит уменьшение амплитуды колебаний перемещения колосника. При этом частота колебаний в некоторой степени увеличивается (рис. 5).


Это объясняется тем, что увеличение жесткости приводит к возрастанию собственной частоты колебаний. При этом согласно этого, пропорционально увеличивается значение ωt , что позволяет увеличению вынужденных колебаний колосника. Случайное составляющее Δ не превышает $(7,0 \div 8,0)$ % от амплитуды нагрузки от хлопка-сырца.



1,2- $A_x = f(F_c)$; 3,4 - $A_{\dot{x}} = f(F_c)$; 2,4 – при $m_k = 2,0$ кг 1,3 – при


$m_k = 3,5$ кг, отклонения $\Delta = (7,0 \div 8,0)\%$

Рис. 2. Графические зависимости изменения амплитуды колебаний перемещений и скоростей колосника на резиновых подушках от технологической нагрузки хлопка-сырца



1,2- $A_x = f(c)$; 3,4- $A_{\dot{x}} = f(c)$; 1,3—при $F_c = 3,0 \sin \omega t$ 2,4—при $F_c = 10 \sin \omega t$; отклонения $\Delta = (7,0 \div 8,0)\%$

Рис.3 Графические зависимости изменения амплитуды перемещения и скорости колебаний колосника от вариации коэффициента жесткости упругой резиновой втулки колосника



1,2 - $A_x = f(m)$; 3,4 - $A_{\dot{x}} = f(m)$; 1,3 – при $c = 1,6 \cdot 10^3 \text{ Н/м}$ 2,4 – при $c = 1,2 \cdot 10^3 \text{ Н/м}$; отклонения $\Delta = (7,0 \div 8,0)\%$

Рис.4. Графические зависимости изменения амплитуды перемещения и скорости колебаний колосника от изменения массы колосника на резиновых подушках

На рис. 3 приведены графические зависимости изменения перемещения и скорости колебаний колосника от вариации коэффициента жесткости резиновой втулки опоры, из которых видно, что увеличение жесткости резиновой втулки приводит к снижению амплитуды колебаний перемещений и скорости колосника по нелинейной закономерности (см. рис. 2). При увеличении “С” от $0,35 \cdot 10^{-3} \text{ Н/м}$ до $3,0 \cdot 10^{-3} \text{ Н/м}$ A_x снижается от $1,8 \cdot 10^{-3} \text{ м}$ до $0,26 \cdot 10^{-3} \text{ м}$, а амплитуда скорости уменьшается от $26,3 \text{ м/с}$ до $9,7 \text{ м/с}$ при технологической нагрузке от очищаемого

хлопка с амплитудой 3,0 Н (см. рис. 4, кривые 1,3). При возрастании технологической нагрузки от хлопка с амплитудой 10,0 Н значение A_x снижается от $2,38 \cdot 10^{-3}$ м до $0,53 \cdot 10^{-3}$ м, а амплитуда колебаний скорости уменьшается от 31,7 м/с до 11,4 м/с. Исследования показали, что оси колосников при деформации резиновых втулок перемещаются параллельно вниз. Известно, что увеличение амплитуды и частоты колебаний колосников приводит к увеличению очистительного эффекта. Но, при этом увеличивается поврежденность хлопка, а также за счет значительного изменения технологических зазоров между колосниками увеличивается уход летучек в отходы. При этом увеличение амплитуды и частоты колебаний колосников приводит к увеличению очистительного эффекта. Поэтому, для обеспечения амплитуды колебаний колосника в верхней зоне крупной очистки хлопка в пределах $A_x \leq (1,5 \div 2,3) \cdot 10^{-3}$ м целесообразным является выбор значений коэффициента жесткости резиновой втулки в пределах $C = (1,0 \div 1,3) \cdot 10^{-3}$ Н/м.

Для нижней зоны очистки обеспечение значений $A_x \leq (0,8 \div 1,2) \cdot 10^{-3}$ м рекомендуется $C = (1,8 \div 2,2) \cdot 10^{-3}$ Н/м, при которых происходит повышение очистительного эффекта, снижается повреждения волокон хлопка и уменьшается уход летучек хлопка с сором.

На рис. 4 представлены графические зависимости изменения A_x и $A_{\dot{x}}$ от вариации массы колосников на резиновых втулках.

С увеличением массы колосника уменьшение амплитуд колебаний перемещения и скорости колосника происходит по нелинейной закономерности. При этом увеличение массы от 0,6 кг до 4,5 кг приводит к снижению A_x от $2,62 \cdot 10^{-3}$ м до $0,47 \cdot 10^{-3}$ м и $A_{\dot{x}}$ от 32,5 м/с до 10,2 м/с при коэффициенте жесткости резиновой втулки $1,2 \cdot 10^{-3}$ Н/м. Увеличение коэффициента жесткости до $1,6 \cdot 10^{-3}$ м приводит к снижению A_x от $1,83 \cdot 10^{-3}$ м до $0,22 \cdot 10^{-3}$ м, а также к уменьшению $A_{\dot{x}}$ от 28,4 м/с до 6,1 м/с.

Для обеспечения амплитуды колебаний колосника в верхней зоне очистки хлопка от крупного сора очистителя в пределах $A_x \leq (1,5 \div 2,3) \cdot 10^{-3}$ м рекомендуется выбрать $m = (1,5 \div 2)$ кг, а для нижней зоны для обеспечения $A_x \leq (0,8 \div 1,2) \cdot 10^{-3}$ м рекомендуется масса колосника в пределах $(3,2 \div 3,6)$ кг.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Ш.Ш.Шухратов и др. «Очистительная секция хлопкоочистительного агрегата». Патент Республика Узбекистан UZFAP 00947. 19.09.2013 г.
2. Sh Shukhratov, R Milašius, I Yakubov, R Maksudov, A Djurayev // Determination of parameters of grates on rubber brackets of fiber material cleaners // International Journal of Engineering and Advanced Technology. 2019

3. Камолиддин Ибрагимович Ахмедов, Хосият Тухтаевна Нуруллаева, Ином Дониярович Якубов // ОПРЕДЕЛЕНИЕ ДЛИНЫ ПЛАСТИЧЕСКИХ ЗОН И РАЗРЫВНОЙ НАГРУЗКИ УПРУГОЙ НИТИ В ДРУГОЙ СРЕДЕ // ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ОБРАБОТКИ И ОБОРУДОВАНИЯ В МАШИНОСТРОЕНИИ. 2017.p27-30
4. Inam Yakubov, Nigora Yakubova // DEVELOPMENT OF EFFECTIVE DESIGN AND SUBSTANTIATION OF PARAMETERS OF THE COTTON CLEANER FROM LARGE LITTLE // Scientific Collection «InterConf». 2022/7/8.p303-308
5. Djuraev A., Rajabov O.I. // Experimental study of the interaction of multifaceted and cylindrical spinky cylinder in cotton cleaner from small waste // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 6, Issue 3, March 2019 p.8376-8381
6. Razzoqov Baxtiyor Xabibullaevich Yakubov Inomjon Daniyarovich // MILLIY OQUV DASTURI ASOSIDA INNOVATSION KASBGA YONALTIRISH // IJODKOR O'QITUVCHI. 2022/7/1.p86-89
7. Nigora Mamadiyor qizi Yakubova, Mahammadjon Axmadaliyevich Axmadaliyev // Paxta lintini qayta ishlash asosida polikompozitlar olish // Bioorganik kimyoning dolzarb muammolari. 2021
8. Ином Якубов, Шароф Шухратов, Рустам Мурадов // НОВАЯ КОНСТРУКЦИЯ РАБОЧИХ АГРЕГАТОВ ХЛОПКОСЕПАРАТОРА И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИВОДНЫХ МЕХАНИЗМОВ // Universum: технические науки. 2022.p54-59
9. Ахмадалиев Махаматжон., Якубова Нигора // САМОКОНДЕНСАЦИЯ ФУРФУРОЛЫ В ЩЕЛОЧНОЙ СРЕДЕ // Науке и мир. 2022/5.p19-21
10. Якубов Даниярович Ином, Саломова Машхура, Маматқулов Орифжон // Чигит шикастланишини камайтириш мақсадида сепаратор конструкциясини такомиллаштириш // Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2021/11/23.p647-649
11. Axmadaliyev Maxamadjon, Yakubova Nigora // ISHQORIY MUHITDA FURFUROLNING KONDENSATSIYALANISHI // FarDU ilmiy xabarlar. 2022.p169-174
12. Tashpulatov D.Sh., A.F.Plkhanov A.F., Djuraev A. Kolosnik oscillations on elastic supportswith nonlinear rigidity with random resistance from cotton-raw maternity // European Sciences review Scientific journal № 5–6 2018 p. 353 -355.
13. Nigora Mamadiyor qizi Yakubova, Mahammadjon Axmadaliyevich Axmadaliyev // Mochivina furfulol asosidagi polikompozitlar olish // Kimyo texnologiya fanlarining dolzarb muammolari. 2021
14. R.X.Rosulov, D.V.Norbaeva, A.Djuraev Study of air flows in th cross wine zone r.h. // Academicals: An International Multidisciplinary Research Journal. ISSN: 2249-7137. Vol. 8/ Issue 8, August 2018. p. 33-39. www. saarj.com.
15. Nigora Mamadiyor qizi Yakubova, Mahammadjon Axmadaliyevich Axmadaliyev // Paxta lintini kimyoviy qayta ishlash usullari // Kimyo fani va ta'limning dolzarb muammolari. 2019

16. Якубов Ином Данияровоч, Шухратов Шароф Шухратович, Муродов Рустам Муродович //ПАХТА-ТЎҶИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИДА ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МАҚСАДИДА ЯНГИ СЕПАРАТОР ИШЛАБ ЧИҚИШ.// Халқаро анжуман маърузалар тўплами//2022/5/27. p101-105

17. Sh.Sh.Shuxratov, Abdullayeva Mushtariy Obidjon qizi // TEXNOLOGIYA TA'LIMIDA MILLIY HUNARMANDCHILIKNING SPEKTRAL-VARIATIV KOMPONENTLARINI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODLARI// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 687-693

18. Sh.Sh.Shuxratov, Mamatojiyeva Barnoxon Alisherovna, Yusupova Karima G'ofurjon qizi //YOG'UCH MATERIALLARDAN MURAKKAB BO'LMAGAN DETALLAR VA BUYUMLAR TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 717-721

19. Sh.Sh.Shuxratov, N.Raxmatova //UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TEXNOLOGIK KOMPETENTSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 722-726

20. Sh.Sh.Shuxratov, Maxmudova Muxtasarxon Abdubannob qizi //FREZALASH STANOKLARIDA METALLARGA ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYALARI VA UNI INNOVATSION USULDA O'QITISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 767-771

21. Sh.Sh.Shuxratov, Raxmonjonov Xasanboy Akbarovich //ZAMONAVIY ELEKTR JIXOZLARINI O'QITISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH// O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 12-SON. 19.10.2022. 772-777

ЖИНСНИНГ МОРФОЛОГИК УСУЛДА ИФОДАЛАНИШИ

Шоҳруҳ Рўзиқулов
ГулДУ Магистранти

Аннотация: *Мазкур мақолада ўзбек тилида жинснинг морфологик усулда ифодаланиши хусусида фикр юритилди, жумладан, - ғай аффиксининг жинс ифодалашда тутган ўрни кўрсатиб берилди.*

Калит сўзлар: *морфологик усул, аффикс, сўз ясовчи, жинс, аёл, эркак, қуда, қудағай, диалект, қариндош тиллар.*

Тил доимо инсон ҳаёти, унинг ижтимоий фаолияти билан боғлиқдир. Лисоний белгининг қандай ижтимоий вазифа ўташи, ундан қандай фойдаланишни билиши учун инсоннинг қайси ижтимоий тузумда яшашини ҳам эътиборга олиш бугунги кун тилшунослигининг асосий вазифаларидандир. Бугунги куннинг янги парадигмаси бўлган гендеро-лингвистика ўзи билан бир қатор ўрганиш объектларни олиб кирди. Бадиий асарни гендеролингвистик жиҳатдан таҳлил қилиш, ундаги образларнинг гендер хусусиятлари ўзига хос мураккабликни юзага чиқаради.

Тилшуносликда гендер параметрларининг қўлланилишини тадқиқ этиш тилшуносликнинг аёл ёки эркакларга хос конструктив тамойилларини ўрганишда ҳам муҳим эканлиги ўз исботини топди. Лингвистикада гендерологик тадқиқотлардан кўзланадиган асосий мақсад аёллар ва эркаклар нутқида хос бўлган, шунингдек, ҳар иккала жинс вакилларида хос услубда воқеланган ёзма ёки оғзаки матнларни фарқлаш кўринишидаги “лисоний асимметрия” ҳодисасининг турлари ва сабабларини аниқлашдир. Оғзаки сўзлашув нутқидан тортиб, ёзма матнларгача турли тарздаги ўзига хосликлар мавжуддир. Матнларнинг тузилиши текширилганда, аёллар ва эркаклар нутқининг фонетик, лексик-фразеологик, стилистик ва бошқа турдаги фарқлари яққол кўзга ташланади. Аёл ёки эркаклар нутқидаги, уларнинг лисоний фаолиятидаги индивидуал хусусиятларни аниқлаш, бу борада самарали таҳлил ва тадқиқ ишларини олиб бориш талаб этилади.

Мутахассислар ҳақли равишда таъкидлаганидек, исталган турдаги матн гендерология нуқтаи назаридан ўрганилганда, муаллиф томонидан амалга ошириладиган тил бирликлари танловининг социал, этномаданият сабабларини аниқлашга имконият яратилади.

Тилшуносликда анъанавий таҳлил усулларида кузатишлар олиб борилиши билан биргаликда, уни социология, психология ҳамда бошқа фанлар билан боғловчи янги таҳлил усулларида қизиқиш кучаймоқда. Бу таҳлил усуллари билан боғлиқ тилшуносликда янги замонавий йўналишлар пайдо бўлмоқда. Ана шундай йўналишлардан бири – лингвогендерологиядир. Бу фанинг тадқиқ манбаи- тилнинг гендер хусусиятларини ўрганиш бўлиб, бунда иккита масала: аёллар ва эркаклар

нутқининг тафовутлари ҳамда ўзига хос хусусиятлари; тил тизимида эркаклик ва аёллик белгилари билан боғлиқ тушунчаларни ифодаловчи тил бирликларига эътибор қаратилади.

Ўзбек тилида жинс тушунчасининг ифодаланиши узоқ ўтмишга бориб тақалади. Буни қадимги туркий, эски туркий тил материаллари мисолида кўриш мумкин. Нафақат ўзбек тилида, балки дунёнинг барча тилларида жинс тушунчаси лисоний ифода этилади. Фақат уларнинг ифодаланиш усулларида ҳамда ушбу усулларнинг у ёки бу тилда қай даражада акс этишида фарқланишлар мавжуд, холос.

Ўзбек тилида жинс ифодаланишининг грамматик, синтактик ва лексик усуллари қайд этилади. Айрим ўринларда жинсни ифодалашда бу усулларнинг қоришиқ шакллари ҳам кўриш мумкин.

Биз қуйида ўзбек тилида жинснинг морфологик усулда ифодаланиши хусусида фикр юритамиз.

Ўзбек тилининг луғат бойлигида “қуда”, “қудағай” лексемалари мавжуд бўлиб, улар тилда қариндошликни ифодалашга хизмат қилади. Ҳар икки лексемага “Ўзбек тилининг изоҳли луғати” (1981)да шундай изоҳ берилган: 1.Қуда – куёв ва келиннинг ота-оналари бир-бирига нисбатан (Э, бўлмағур гапни қўйинг, қуда!-деб ғудранди отам. П.Турсун. Ўқитувчи);

2.Қудағай – хотин қуда (Қиз билан йигитни кўрган қудағайлар гап-сўз чувалмаслиги учун тез орада унашиб қўйишга эрларини қистай бошладилар. Ҳ.Нўъмонов, А.Шораҳмедов. Ота).

азкур лексемаларнинг изоҳидан маълум бўлмоқдаки, эркак жинсига нисбатан “қуда”, аёллар жинсига нисбатан “қудағай” терминлари ишлатиб келинмоқда.

Айтиш мумкинки, “қуда” лексемаси туб, “қудағай” лексемаси ясама, унинг таркибида –ғай сўз ясовчи аффикс иштирок этмоқда. Мазкур аффикс янги сўз ҳосил қилиш билан бирга, жинсни ифодалашга ҳам хизмат қилмоқда.

Шу ўринда тасдиқ маъносида бир манбага мурожаат этамиз. Тилшунос Б.Владимирцев “Следы грамматического рода в монгольском языке” номли мақоласида бошқа аффикслар қаторида –хан ва –гуй аффиксларига тўхталиб, мўғул тилида уларнинг сўз ясовчи аффикслар эканлигини, шу билан бирга, аёллар жинсини ифодалашга хизмат қилишини таъкидлайди, шу жойда қуйидаги мисолларни келтиради: нўян-нўён (князь, жаноб), нояхан (ёш қиз); худа – қуда (эркакларга нисбатан) –худагуй (аёлларга нисбатан) (1).

Худди шундай фикрни қозоқ тилшуноси Ш.Сарыбаевнинг “К вопросу о монгольско-казахских языковых связях” номли мақоласида ҳам учратиш мумкин.У ёзади: қозоқ тилида сўз ясовчи –ғи, ғарбий диалектларда –ғай аффикслари мавжуд, масалан: қудағы, ғарбий диалектларда қудағай. Мўғул тилида қозоқ тилидаги –ғи/ғай (қудағы// қудағай) аффиксларига мос равишда –ги/гуй (худаги//худагуй) аффикслари сақланиб қолган (2).

Шуни айтиш мумкинки, -ғай сўз ясовчи аффикс туркий ва мўғул тиллари учун умумий бўлиб, аёл жинсини ифодалашга хизмат қилар экан.

Турк – мўғул тилларининг қариндошлиги ҳақида гапирганда, биз асосий эътиборни бу тилларнинг умумий, мос грамматик категорияларига қаратишимиз лозим бўлади.

Рус тилшуноси А.Смирницкий аффикслар ҳақида гапириб, шундай дейди: “Генетик қариндош грамматик аффикслар одатда қариндошликнинг асоси бўлади, шунинг учун улар тилларнинг қариндошлигини асослашда энг асосий далил сифатида қаралади” (3).

Юқоридаги фактлардан маълум бўладиги, -ғай аффикс (қипчоқ диалекларида -ғий шаклида талаффуз қилинади: қуда+ғий) сўз ясовчи бўлиб, ҳозирги ўзбек адабий тилида кammaҳсул ҳисобланади, шу билан бирга, жинсини ифодаловчи аффикс сифатида қаралади.

Ўзбек тилида гендер жиҳатдан ўзига хос маънога эга лексик ва грамматик бирликларнинг қўлланилиши анча узоқ тарихга бориб тақалади. Ўзбек тилидаги гендер мазмундаги воситаларни илмий нуқтаи назардан тадқиқ қилиш, улардаги хусусий ва муштарак хусусиятларни аниқлаш гендер тилшунослиги учун амалий ва илмий аҳамиятга эга.

Гендер тушунчаси эркак ва аёл ўртасида нафақат биологик фарқни, балки жамиятнинг жинсий тақсимоотида ижтимоий ва маданий тавсифларни тўлиқ қамраб олади. Эркак ва аёлларга тегишли ижтимоий боғлиқлик, хулқ- атвор ва ўзига хос стереотипларда ифодаланади.

Инсон жинсда нафақат физиологик жиҳатдан фарқланади, балки унинг атрофидагилар билан муомаласи, нутқи, ва, ҳатто, дунёқарашда ҳам жинсдаги ўзига хос, фарқли ёки муштарак жиҳатлар намоён бўлади. Уларни илмий тадқиқ қилиш гендер тилшунослигининг янада бойиши ва ривожланишига хизмат қилади.

XX асрнинг 90-йилларига келиб дунё тилшунослигида гендер тилшунослиги борасида изланишлар олиб бориш қизғин тус олди.

Асримизнинг бошларидан Ўзбекистонда гендер тилшунослигининг алоҳида илмий соҳа сифатида шаклланиши ва ривожланиши аҳамиятга молик.

Шу ўринда тилшунос Ф.Мўсаеванинг қуйидаги фикрини эслатиш ўринлидир: “Дунёда жинс у ёки бу тарзда лисоний ифода этилмаган бирорта тил мавжуд эмас. Тилда маълум бир номинал классификациянинг мавжудлиги ёки унинг мавжуд эмаслиги ушбу тилнинг тирик мавжудодлар жинсини ифодалаш имкониятига асло таъсир кўрсатмайди ва турк, мўғул ва бошқа қатор тиллар каби ҳеч қандай номинал классификацияга эга бўлмаган тиллар жинсини фарқлашда икки ёки уч жинсли тиллардан сира қолишмайди. Бундан хулоса чиқадики, биологик жинс дунёнинг барча тилларида ифода этилади. Фақат уларнинг ифодаланиш усулларида ҳамда ушбу усулларнинг у ёки бу тилда қай даражада акс этишида фарқланишлар мавжуд, холос” (4).

Хулоса қилиб айтганда, фонетика, лексика ва грамматика нуқтаи назаридан гендер муаммоларини ўрганиш жараёнида тилшунослар жамиятда аёллар ва эркеклар бажараётган функциялар хусусида тасаввур ва тушунчалар

ўзгарганлигини ҳисобга олган ҳолда нутқий ва тилга оид турланишни, тил ва нутқнинг бошқа шаклга киришини аниқлаш, қайд этиш ва таҳлил қилишга алоҳида эътибор қаратишлари лозим бўлади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Владимирцев Б.Я. Доклады Российск. Акад.наук. –Л., 1925,стр.31-34.
2. Сарыбаев Ш.К. К вопросу о монгольско-казахских языковых связях.Қазақ тілі тарихы мен диалектологиясының маселелері. 2-шығыуы.Алматы, 1960.Стр.55-56.
3. Смирницкий А. Сравнительно-исторический метод и определение языкового родства.-М., 1955. стр. 48.
4. Мусаева Ф. Ўзбек тилида биологис жинсни ифодалашнинг лексик-семантик усули // Тилшуносликнинг долзарб масалалари (илмий мақолалар тўплами, 1-китоб). Тошкент, 2011.

УДК:634.8

**МИНЕРАЛ ЎҒИТЛАРДАН ФЙДАЛАНИШНИНГ ТОК КЎЧАТЛАРИНИНГ ЎСИБ
РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ**

Ўринов Дилмуроджон Мирзамахмудович
(Академик М.Мирзаев номидаги БУ ва ВИТИ
Андижон ИТС бўлим бошлғи)

Исмоилова Зулайхо Абдулхамид қизи
АҚХИ УЗУМЧИЛИК таълим
йўралиши 2-босқич талабаси

Аннотация: Мақолада узумнинг кишмишбоп навларидан Хўраки узум навларидан Хусайни ва Келин бармоқ навига органик ва минерал ўғитлар қўллаш меъёрларининг ток кўчатларининг ривожланиши бўйича маълумотлар берилган.

Калит сўзлар: узум навлари, органик ва минерал ўғитлар, каламча кучат ривожланиши.

КИРИШ

Қишлоқ хўжалик маҳсулотларини етиштириш ҳажми йилдан-йилга ошиши орқали таъминот бозорида маҳсулот турлари сонининг кўпайиши баробарида уларни истеъмолчиларга нобуд қилмасдан етказиб бериш долзарб масалалардан бири бўлиб келмоқда. Юқорида келтирилган кўрсаткичларни ошириш ва узумчилик йўналишини ривожлантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан шу соҳага оид бир қанча қарор ва фармонлар қабул қилинди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 мартдаги “Мевасабзавотчилик соҳасида қишлоқ хўжалиги кооперациясини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4239- сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 28 июлдаги Узумчиликни ривожлантиришда кластер тизимини жорий этиш, соҳага илғор технологияларни жалб қилишни давлат томонидан қўллаб қувватлашнинг қўшимча чора-тадбирлари тўғрисидаги ПҚ -5200-сонли қарорига мувофиқ Ушбу фармон ва қарорларга кўра, фермер, деҳқон хўжаликлари ва томорқа ер эгалари кенгашининг мева-сабзавот ва узум маҳсулотларини етиштириш, қайта ишлаш ва экспорт қилишда кластер ва кооперация тизимини ривожлантиришнинг янги механизмларини жорий этиш тўғрисида чора-тадбирлар белгилаб берилган. Дунё қишлоқ хўжалиги амалиётида сўнгги йилларда экинларнинг биологик хусусиятлари эътиборга олиниб,

тупроқ ва иқлим шароитига мос келадиган агротехнологик тадбирлар қўллаш натижасида турли экинлардан мўл ва сифатли ҳосил етиштириш тизими яратилди.

Ҳозирги давр шароитида узумчиликни ривожлантиришни асосий вазифалари сохани бошқаришни турли шаклларида қатъий назар, унинг юқори рентабеллиги ва даромадлигини таъминлашга қаратилган самарали ташкилий-иқтисодий механизмни яратиш, уни бошқариш шунингдек, ишлаб чиқариш, илмий-тадқиқот ишлари тизимини такомиллаштириш, янгича шароитда ишлашга қадар малакали кадрларни тайёрлашдан иборат. Бу мослашувни ҳал этиш эса мазкур сохани маромида ишлашни таъминлаш ва имкониятлар яратилишига ёрдам беради.

Ток илдизларининг озуқага бўлган талаби узумнинг нави ва ҳосилдорлигига боғлиқ. Токнинг авж олиб ўсган навлари минерал ўғитларни кўпроқ талаб қилади. Ток тупининг минерал ўғитлар билан қондирилиши нормал ривожланган каламчалар ва кўчатларининг шаклланишига ҳамда келгуси йил ҳосил туғиш учун мева куртакларини вужудга келтиришига ёрдам беради. [3] Тажиба ўтказиш учун узумнинг Хусайни ва Келин бармоқ нави танлаб олинди. Хўжалиқда ток қаламчалари 90x10см схемада экилиб, етиштирилади.

Кейинги вақтларда минерал ўғитларнинг мочевино, суюқ ўғитлар, аста секин таъсир этадиган ўғитлар (мочевинани альдегидлар билан помирлаш маҳсулотлари ва ўғитларни капсуллаш ёки тупроқда секин парчаланадиган донатор ўғитлар), тўла концентрацияланган ва кўп компонентли ўғитлар, яъни комплекс ўғитлар тобора кенг қўлланилмоқда.[1]

Минерал ўғитларни ишлаб чиқариш технологиясини ривожлантириш ва улардан фойдаланишда улар таркибидаги азот, фосфор ва калий концентрациясини кўпайтириш, мураккаб ўғитларга бўлган талабнинг ўсиб бораётганлиги ҳамда турли тупроқ ва экинларга татбиқан шу ўғитлар таркибини кўпроқ даражада дифференциациялаш жуда муҳимдир. Келгусида магний ва олтингугуртли ўғитларни яратиш ҳамда микроэлементларни кўпроқ ишлаб чиқариш зарурияти туғилмоқда.[2]

Тадқиқот услублари Маълумки, минерал ўғитлардан азотли, фосфорли ва калийли ўғитлар айниқса кенг қўлланилмоқда. Ишлаб чиқаришда фойдаланиладиган азотли ўғитларга: аммиак селитраси, мочевино, аммоний сульфати, аммофос ва шу кабилар; фосфорли ўғитларга: аммонийлашган супер фосфат, оддий донатор суперфосфат; калийли ўғитларга; калий хлорид, калийли туз, калий сульфат ва калий магний сульфат киради. Ҳосилдор токзорларга микро ўғитлардан бор, рух, марганец, мис, магний, темир ва шу кабиларни солиш тавсия этилади. 1 гектар токка солинадиган ўғит миқдори ўғит турига ва тупроқдаги озиқ моддаларнинг мавжудлигига боғлиқ.[4]

Минерал ўғитларнинг энг тўлиқ ўзлаштирилиши учун уларни бериш меъёрларини муайян шароитларга мувофиқ ҳолда тўғри аниқлаш жуда муҳимдир.[3]

Суғориладиган типик бўз тупроқларда узум минерал ўғитларнинг ҳар хил таъсир этиши шуни кўрсатадики, мазкур тупроқлар ўзининг унумдорлиги бўйича турличадир. Бу тупроқларда минерал ўғитларни бериш меъёри тупроқ унумдорлиги ва олинадиган ҳосил ўлчамини ҳисобга олган ҳолда дифференциацияланиши лозим.

Бу масалани ҳал этиш учун суғориладиган типик бўз тупроқларда тажрибалар ўтказилди. Бу тажрибаларда азотли, фосфорли ва калийли ўғитлар қуйидаги меъёрларда ўрганилди, яъни (1 гектарга кг): азот 25, фосфор 40, калий 20;

Ўғитлар қуйидаги мудатларда берилди.

Қаламчаларнинг яхши ривожланиши учун, улар ўсув даврида 2-3 марта озиклантирилади.

Дастлабки озиклантириш бошланғич ўсиш даврининг бошларида амалга оширилиб, бунда гектарига соф ҳолда 20-25 кг. азот, 35-40 кг. фосфор, 15-20 кг. калий берилди. Жадал ўсиш даврида эса, ўғитлар миқдори бунда гектарига соф ҳолда 40-45 кг. азот, 60-70 кг. фосфор, 25-35 кг. калий берилди учинчи озиклантиришда (новдаларнинг пишиши даври бошларида) фақат 15-20 кг. фосфор, 15-20 кг. калий берилди.

Тадқиқот натижалари Мазкур тажриба натижалари азотли, фосфорли ва калийли ўғитларни биргаликда қўллашнинг юқори самарали эканлигини кўрсатди (1-жадвал). Бўз ўтлоқи тупроқларда мазкур ўғитларни ҳар хил меъёрларда қўллашнинг самарадорлик ўлчамлари турлича бўлди. Суғориладиган типик бўз тупроқларда азот меъёрини 20 дан 25 кг/га гача ошириш, мос ҳолда фосфорни 35 дан 40 кг гача ва калийни 15 дан 20 кг гача ошириш узум қаламчаларнинг етилиши таъминлади

1-жадвал

Минерал ўғитлар қўллаш меъёрини узум кўчатларнинг ривожланишига таъсири

Оз уқа элемен т лари	Суғориладиган типик бўз тупроқлар							
В последние годы наблюдается серьезный прогресс в развитии технологии и методов диагностики, послуживший основой для становления нового направления в развитии науки, связанного с получением и исследованием наноразмерных структур. Трудно сказать, что является первичным в развитии этого направления: технологические возможности или аналитические методы, позволяющие изучать свойства такого рода объектов. Вероятно то и другое. Однако если технологии в каждом конкретном случае могут различаться (и различаются) самым кардинальным образом, то методы исследования наноструктурированных объектов различного происхождения и назначения общие и должны характеризоваться определенными аналитическими параметрами. В этом смысле развитие методов диагностики поверхности и границ раздела является доминирующим и определяющим успехи современной микро и наноэлектроники. Поэтому в работе значительное внимание уделялось совершенствованию методик, их адаптации к получению сложных по составу гетерофазных систем, разработке новых методов диагностики поверхности.

Известно, что наиболее высоким коэффициентом тензочувствительности обладают пленочные гетерофазные системы на основе тройных полупроводниковых соединений (Bi,Sb)Te. Гетерофазные системы теллуридов висмута-сурьмы способны накапливать информацию в виде изменения сопротивления, по способам приложения и величине нагрузок, которые они воспринимают. Это позволяет использовать такие пленки для создания датчиков-преобразователей механических величин в электрические сигналы, в частности использовать их для получения чувствительного элемента датчика накопленной

усталостной повреждаемости (ДНУП).

В данной работе описан способ автоматизации технологического процесса изготовления ДНУП на основе полупроводникового соединения $(\text{BiSb})_{2-x}\text{Te}_{3-x}$. Контроль параметров процесса напыления и управления отдельными узлами установки осуществляется по технологической карте, составленной заранее.

Для получения нанокристаллических образцов из полупроводникового соединения теллуридов висмута и сурьмы методом термовакуумного напыления, необходимо специальное технологическое оборудование - модернизированная однопостовая типовая вакуумная установка УВН-73П. Она является базовым вакуумным оборудованием, позволяющим при напылении нанокристаллических плёнок контролировать сопротивление образцов по свидетелю.

С помощью вакуумной установки со штатным оборудованием, снабженной дополнительной системой для автоматического регулирования температуры по заданной программе мы получали гетерофазные плёнки теллуридов висмута-сурьмы, содержащих наногранулы с воспроизводимыми характеристиками [4-7].

В качестве исходных материалов при получении соединения Bi_2Te_3 , Sb_2Te_3 использовался гетерогенный материал со следующим процентным содержанием: 40 % Bi_2Te_3 + 50 % Sb_2Te_3 + 10 % Bi . В испаритель закладывают навеску весом ~ 6 грамм. Ранее полученные подложки, с напыленными контактными площадками закладывают вместе с масками в подложкодержатели, которые помещают в вакуумную установку, после чего устанавливают основной и вспомогательный свидетели. При получении нанокристаллических тензоплёнок $\text{Bi}_x\text{Sb}_{2-x}\text{Te}_3$ расстояние между испарителем и подложкой варьировалась в пределах 80÷150 мм.[8-11]

После завершения подготовительного периода камера герметически закрывается и в подколпачном объёме устанавливается высокий вакуум с давлением $1,33 \cdot 10^{-2} \div 1,33 \cdot 10^{-3}$ Па, так как наилучшие деформационные свойства независимо от других параметров технологии обеспечивают при остаточном давлении в вакуумной камере в пределах $6,7 \cdot 10^{-2} \div 6,7 \cdot 10^{-4}$ Па.

Следующий этап является ионная очистка, разогрев и поддержание температуры подложек 343,15 ÷ 348,15 К. Испарение части навески исходного материала проводится при закрытой заслонке при температуре испарителя 623 ÷ 643 К, при этом сопротивление вспомогательного свидетеля должно достигнуть величины ~ 7000 Ом за время 27 мин. Испарение исходного материала при открытой заслонке проводится при температуре испарителя 643÷1073 К. При завершении испарения сопротивление свидетеля должно быть ~ 150 Ом. Время испарения 7-8 мин. После остывания подложек производится напуск воздуха.[12-15].

Каждая исходная структура плёнки имеет свою «автономию» формирующую историю процесса перестройки её электронной подсистемы. Структуры, имеющие одинаковую «автономию», воспроизводятся в узком технологическом интервале.

Поэтому необходимо использовать высокий уровень автоматизации технологического процесса получения плёнок.


Для стабильности характеристик получаемых пленок, необходимо обеспечить определенную скорость вращения карусели над испарителями. Соблюдение этого условия позволяет ожидать воспроизведения структуры напыляемых пленок. В системе предусмотрено непрерывное измерение и регулирование скорости вращения карусели по заданному закону.

Контроль за процессом получения плёнок обеспечивают два свидетеля - вспомогательный и основной. Вспомогательный свидетель расположен на технологической заслонке. С помощью измерения сопротивления вспомогательного свидетеля задается начальная фаза напыления пленок. После достижения заданного сопротивления на вспомогательном свидетеле технологическая заслонка открывается и начинается процесс напыления на подложки.

Процесс напыления завершается по достижении заданной величины сопротивления на основном свидетеле. Если скорость вращения карусели соответствует заданной, напряжение на двигателе поддерживается на прежнем уровне. Если же произошло отклонение от заданной скорости по какой-либо причине, то напряжение на двигателе меняется так, чтобы скомпенсировать это отклонение.

В процессе работы необходимо изменять протокол работы в зависимости от величины вспомогательного и основного свидетеля. Во время работы Система начнёт отрабатывать, заданные величины и отображать соответствующие им измеренные значения. Можно редактировать данные, заданные в Протоколе и во время технологического процесса. Во время процесса программа запоминает все измеренные величины.

На рис.1.1.а и рис.1.1.б приведены зависимости среднего значения сопротивления плёнок и их среднеквадратичного отклонения от числа циклов наложенной деформации по партиям (DNUP7) и (DNUP 6LD).



а

б

Рис.1. Зависимость среднего значения сопротивления плёнок, и их среднеквадратичного отклонения от числа циклов наложенной деформации по партиям: а – партия (DNUP7) и б – партия (DNUP 6LD)

На рис.1.а и рис.1.б приведена зависимость среднего значения сопротивления плёнок по маскам от числа циклов наложенной деформации (маски от 1-10). В результате сопоставлений значений среднего сопротивления по маскам до и после наложения 64 циклов относительной деформации (10^{-4} отн.ед) видно, что среднее значение сопротивлений, после наложения свыше 60 циклов относительной деформации (10^{-4} отн.ед) во всех масках увеличивается. Особенно оно заметно увеличивается в масках №5, №8 и №9. Среди приведенной партии именно эти маски и находящиеся на ней чувствительные элементы обладают наилучшими тензорезистивными характеристиками. Поэтому необходимо использовать высокий уровень автоматизации как для технологического процесса изготовления ЧЭ, так и для процесса калибровки полученных тензоплёнок.

Таким образом, с помощью использования эффектов самоорганизации наноструктур и автоматизации технологического процесса получения нанокристаллических полупроводниковых плёнок, а также автоматизации процесса их отбраковки можно обеспечить ~10 процентную воспроизводимость свойств чувствительных элементов.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Catalytic activity of Au nanoparticles. // Nanotoday. -August 2007-. V. 2, № 4. PP. 14-18.
2. Охотин А.С., Пушкарский А.С., Горбачов С, Теплофизические свойства полупроводников.- Атомиздат, 1972
3. Атакулов Б., Афузов А.Я., Билялов Э.И., Олимов Х. Полупроводниковый плёночный тензодатчик. – Авторское свидетельство № 307288 с приор. от 3.11.1969.
4. Мухамедиев Э., Шамирзаев С., Онаркулов К., Юсупова Д., Смирнов В. Технологические установки для получения чувствительных элементов ДНУП на основе $(\text{BiSb})_{2-x}\text{Te}_{3+x}$. // Международная конференция, посвященная 90-летию академика С.А.Азимова «Фундаментальные и прикладные вопросы физики» : - Toshkent, 18-19 ноября 2004. № 3. 429 с.
5. Юсупова, Д. А. (2019). Исследование влияния деформации на изменения концентрации поверхностных состояний, уровня Ферми и заряда поверхности раздела нанокристаллических пленок теллуридов висмута и сурьмы. *Проблемы современной науки и образования*, (12-2 (145)), 8-12.
6. Юсупова, Д. А. (2021). СПОСОБ АВТОМАТИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ ТЕНЗОЧУВСТВИТЕЛЬНЫХ ПЛЁНОК ТЕЛЛУРИДОВ ВИСМУТА-СУРЬМЫ. *Universum: технические науки*, (12-1 (93)), 23-25.
7. Юсупова, Д. А. (2022). ИЗУЧЕНИЯ РОЛИ ЭФФЕКТИВНОЙ ПЛОТНОСТИ ЭЛЕКТРОННЫХ ПОВЕРХНОСТНЫХ СОСТОЯНИЙ В НАНОКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ПЛЕНКАХ ПРИ НАЛОЖЕНИИ ЦИКЛИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 416-424.
8. Юсупова, Д. А., & Насретдинова, Ф. Н. (2017). Автоматизация процесса получения тензочувствительных плёнок теллуридов висмута-сурьмы, содержащих наногранулы с воспроизводимыми характеристиками. *ББК 74.58 С 30 Международная редакционная коллегия*, 100, 88.
9. Yusupova, D. A., & Tadjiboyeva, X. B. Q. (2021). KO'P KOMPONENTLI BIRIKMALARDAN YARIM O'TKAZGICHLI SEZGIR ELEMENTLARNI OLISH METODIKASI. *Scientific progress*, 2(1), 247-251.
10. Юсупова, Д. А. (2018). Изучение электрофизических свойств нанокристаллических пленок $\text{Bi}_2\text{Te}_3\text{-Sb}_2\text{Te}_3$. *Интеграция наук*, (4), 52-54.
11. Юсупова, Д. А. (2022). ИЗУЧЕНИЯ РОЛИ ЭФФЕКТИВНОЙ ПЛОТНОСТИ ЭЛЕКТРОННЫХ ПОВЕРХНОСТНЫХ СОСТОЯНИЙ В НАНОКРИСТАЛЛИЧЕСКИХ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ПЛЕНКАХ ПРИ НАЛОЖЕНИИ ЦИКЛИЧЕСКОЙ ДЕФОРМАЦИИ. *Involta Scientific Journal*, 1(6), 416-424.

12. Шамирзаев, С. Х., Онаркулов, К. Э., Юсупова, Д. А., & Мухамедиев, Э. Д. (2006). Простые модели усталостной повреждаемости гетерогенных материалов с очень сложной динамикой. *Фізична інженерія поверхні*, (4, № 1-2), 91-96.

13. Юсупова, Д. А., & Фозилова, М. Д. Қ. (2021). ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ И ОСОБЕННОСТИ ПОЛУПРОВОДНИКОВЫХ ПЛЕНОЧНЫХ ТЕНЗОРЕЗИСТИВНЫХ ПРЕОБРАЗОВАТЕЛЕЙ. *Scientific progress*, 2(1), 441-447.

14. Карабаев, М. К., Онаркулов, К. Э., Ахмедов, М. М., & Юсупова, Д. А. Обоснован способ использования полупроводникового пленочного элемента как индикатора усталостных повреждений. Описаны методы его изготовления. *Описаны методы его изготовления*.

15. Юсупова Д.А. СПОСОБ АВТОМАТИЗАЦИИ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ПОЛУЧЕНИЯ ТЕНЗОЧУВСТВИТЕЛЬНЫХ ПЛЁНОК Теллуридов висмута-сурьмы // *Universum: технические науки: электрон. научн. журн.* 2021. 12(93).

АЛКОГОЛЛИ ГЕПАТИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА ДАВОЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ДИНАМИК БАХОЛАШДА ЖИГАР ЭЛАСТОГРАФИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ

Мавзунинг долзарблиги. Замонавий гастроэнтерология ва гепатологиянинг энг долзарб ва эътиборни талаб қиладиган муаммоларидан бири бу асосан спиртнинг гепатотоксик таъсиридан келиб чиқадиган токсик жигар шикастланиши. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, дунё аҳолисининг ҳар йили 3,7% алкоголь билан боғлиқ касалликлардан вафот этади ва 140 million одам алкогольга боғлиқликдан вафот этади ва уларнинг ярми жигар касалликларига чалинади.

Спиртли ичимликлар истеъмолининг доимий равишда 1,4 мартага кўпайиши туфайли, 21-асрнинг бошларига келиб, Россия истеъмол қилинадиган ичимликларнинг ўта ноқулай тузилиши билан дунёда спиртли ичимликларни истеъмол қилишда етакчи ўринни эгаллаб турибди [20]. Алкоголли гепатит (АГ) нинг ривожланиши жигар фиброзининг (ЖФ) ривожланишига, сўнгра жигар циррозига (ЖЦ) ўтишга олиб келади; бундан ташқари, гепатоцеллюляр карцинома (ГЦК) ривожланиш хавфи сезиларли даражада ошади. Шунини инобатга олган ҳолда, эрта ташхис қўйиш жуда муҳим аҳамиятга эга, у ёки бу даражада, жигар паренхимасида некроз жараёнларнинг оғирлигини ва ЖФ нинг дастлабки босқичларини аниқлашга имкон беради.

Умумий баҳолаш мезонлари йўқлиги сабабли жигар фибрози даражасини аниқлаш учун ултратовуш, магнит-резонанс томография ва жигар томографиясини (КТ) натижаларини талқин қилиш қийин. Бир қатор диагностик тестлар мавжуд: биокимёвий кўрсаткичлар (трансаминазалар - АСТ, АЖИТ, гаммаглутамил транспептидаза - ГТПП ва бошқалар), ўткир фаза оқсиллари кўрсаткичлари (алфа-2-макроглобулин, гаптоглобин ва бошқалар), шунингдек фиброгенез воситачилари ва ҳужайрадан ташқари матрицанинг таркибий қисмлари. Ушбу усулларнинг ночорлиги жигарда фиброгенез жараёнларининг ўзига хослиги пастлиги уларни спиртли ичимликлар таъсирида, айниқса циррозгача бўлган босқичда қўллаш самарасизлигини кўрсатди.

Ҳозирги вақтда жигар зарарланиш табиати ва унинг ҳолати тўғрисида тўлиқ маълумот жигарни морфологик текшируви билан таъминланиши мумкин, аммо пункцион жигар биопсиясини кенг жорий етиш бир нечта муаммоларнинг мавжудлиги билан чекланади: меъёрий ҳужжатларнинг етишмаслиги, малакали морфологларнинг етишмаслиги, асоратларнинг юзага келиш хавфи ва бошқалар.

Замонавий инвазив бўлмаган диагностиканинг жигар биопсиясига нисбатан муҳим афзалликлари соддалиги, арзонлиги, ахборот таркиби, жараён динамикасини кузатиб бориш қобилияти, хавф гуруҳидаги беморлар учун скрининг усули сифатида фойдаланиш қулайлиги билвосита ултратовушли жигар эластографияси усули энг

катта қизиқиш уйғотмоқда. Ушбу тадқиқотда жигар паренхимасининг эхозичлигининг ўртача даражаси тўқима текшируви ҳажми билан белгиланади, бу жигар пункцион биопсиясидан бир неча баравар юқори.

Тадқиқот мақсади.

Давом этаётган терапия фонида алкогольли гепатитда ултратовушли эластография орқали жигар фиброзининг динамикасини аниқлаш ва гепатопротекторлар самарадорлигини қиёсий баҳолаш.

Тадқиқот вазифалари.

1. Жигар фибрози билан алкогольли гепатитнинг клиник кечишини тавсифлаш.
2. Жигар фиброзини аниқлаш ва унинг динамикасини баҳолаш учун ултратовушли жигар эластографияси усулидан фойдаланиш имкониятларини баҳолаш.
3. Адеметионин, Урсодезоксихоли кислотаси ва муҳим фосфолипид дориларининг самарадорлигини қиёсий баҳолаш, уларнинг антифибротик таъсирга эга эканлигини аниқлаш.

Тадқиқот объекти ва материаллари

Тадқиқот объекти АДТИ клиникаси гастроэнтерология ва гепатология бўлимида ва поликлиникасига стационар ва амбулатор даволанишга мурожат қилган тасодиқий намуна олиш йўли билан танланган эркаклар бўлади.

Тадқиқот материаллари – алкогольли гепатитлар, гепатопротекторларнинг терапевтик самарадорлиги ва жигар эластографиясини динамик баҳолаш.

Текширув усуллари

1. Паспорт маълумотларини, клиник ташхисни, лаборатория ва биокимёвий маълумотларни ўз ичига олган анкетани таҳлил қилиш: умумий қон, умумий сийдик тахлили, Умумий билирубин, АлАТ, АсАТ, мочевино, қолдиқ азот, креатинин, Иммунофермент анализда (ИФА) – HbsAg, HCV, HDV маркерлари манфий натижаси ва бошқалар.

2. Инструментал текширувлар: Ултратовуш текшируви, ЕКГ, қисқа муддатли эластография ва клиник ташхисни тасдиқловчи бошқа тадқиқотлар.

3. Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш Statistica 6.0 дастурий пакетининг стандарт вазифалари, Стюдента–Фишер ишонч мезони ёрдамида амалга оширилади.

Истисно мезонлари: HbsAg ва HCV учун ижобий тестлар;

Ҳар қандай этиологияли жигар циррозлари, шу жумладан жигар зичлигининг юқори қийматлари Скрининг ултратовушли жигар эластографияси (12.4 КПА дан юқори) аниқланиши;

Ултратовушли жигар эластографияси (5.8 КПА дан жигар эхозичлиги камроқ).

ID ,EGO VA SUPEREGO KOMPONENTLARI

Ro'ziyeva Dilyayr Nurmurodovna

Buxoro Davlat Universiteti

Adabiyotshunoslik (ingliz) fakulteti

2-bosqich magistranti

Jo'rayev Murodali To'yboy o'gli

BMTI, TJBACT 2-bosqich

magistranti

Annotation: *Bu maqolada, Avstriyalik nevroptolik, psixiatr, psixolog Freyd Zigmundning kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelishi sabablarini o'rgangani va tahlili bayon etilgan .*

Kalit so'zlar: *Id, Ego, Superego, komponent, tushuncha , nazariya.*

Psixikani moddiy sharoitlardan ajratib, mustaqil ong doirasidan tashqaridagi holat deb hisoblagan psixolog Freyd Zigmund 1856-yil Avstriyada dunyoga kelgan. 90 –yillarning boshlarida fransuz maktabi ta'sirida asab kasalliklari, ularni psixoterapevtik davolash uslubi va psixologiya asoslari bilan shug'ullandi. 1907 yilda ongsizlikning klassik ta'rifini bayon qildi va qator asarlarni chop etdi. Shulardan “ Men va u”, “ Omma psixologiyasi”, “Madaniyatdagi qayg'urish” va boshqalar. Freydning psixoanalitik falsafasi inson borlig'ini vujudga kektirgan asoslarni aniqlashga harakat qilgan. Ayniqsa, inson shaxsi tarkibining asosiy komponentlari, elementlarini aniqlab berishga, kishi xulq-atvori, xarakterining yuzaga kelishi sabablari, individ turmush tarsi printsiplarining hosil bo'lishini tushuntirishga intildi. Uning ta'kidlashicha, inson shaxsida bo'ladigan o'zgarishlar borliqning o'ziga xos, muhim xususiyat va xossalarga ega bo'lgan shaklidir.

Freydning psixoanaliz uslubiga muvofiq, inson shaxsi uchta asosiy komponentdan tashkil topadi. Id, Ego va Superego birlashib, bir butun inson shaxsini vujudga keltiradi. Inson shaxsining asosiy komponentlaridan biri Id- kishi tug'ilgan paytida mavjud bo'lgan barcha psixologik holatlar, instinkt (tug'ma his-tuyg'ular) ning yig'indisidir. Shuning uchun ham Id inson shaxsi tarkibidagi markaziy komponentdir. Ushbu komponent inson tanasining ichki ehtiyojidan kelib chiqadi. O'z navbatida, xuddi shu komponent shaxs tarkibidagi boshqa komponentlar; Ego va Superegolarning faoliyat ko'rsatishi uchun ham imkoniyat yaratib beradi. Id, o'z navbatida, shaxs energiyasining zaxirasidir. Lekin unda hech qanday zamon ta'siri bo'lmaydi, zamonga qarab o'zgarmaydi. Unda hech qanday yaxshilik ham, yomonlik ham, axloq ham yo'q, qadriyatlarining ta'siri ham sezilmaydi. Idning mazmuniga ongsizlik hukmronlik qiladi. Chunki Id o'zida insondagi barcha tug'ma ruhiy-psixologiya holatlarini birlashtiradi. Uning barcha psixologiya holatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Inson shaxsi tarkibidagi eng muhim ikkinchi komponent Ego dir.

Freydning tushuntirishicha, Ego va Idni birgalikda qo'yishib, rivojlanib borishi natijasida odam bolasi asta-sekin o'zini taniy boshlaydi. Ego Iddagi ba'zi xususiyatlar va xossalarning takrorlanib turishi uchun ko'mak beradi, uni turli-tuman xavf-xatarlardan himoya qiladi va buning uchun zarur bo'lgan kuch- quvvatni Iddan oladi. Uning fikriga ko'ra, Ego shaxsdagi hissiy tuyg'ular bilan fikriy xatti-harakatlarini o'zaro bog'laydi. Shaxsning beixtiyor, ongsiz qiladigan xatti-harakatlarini ham jilovlab turadi. Chunki bu komponent beixtiyorlik, ongsizlik sharoitida hamshaxs o'zligini saqlab qolishi uchun xizmat qiladi. Ego dastlabki paytda Id tomonidan bunyod etiladi. Id Ego yordamida o'zida mavjud bo'gan turli noxushliklarni kamaytiradi va hattoki bazan oldin ola oladi. O'z navbatida Ego faoliyatini nazorat qilib turishi, uning rivojiga yangi turtki berishi darkor.

Shaxs tarkibidagi uchinchi muhim komponent- Superegodir. Superego Ego zaminida vujudga keladi. Shbu komponent shaxs faoliyatiga fikr mulohazasini hakami yoxud nazoratchi vazifasini bajaradi. Shaxsdagi barch axloqiy me'yorlar, konstruktsiyalar, xulq atvor talablari ushbu komponentda mujassamlashadi va ma'naviy-axloqiy ta'qiqlar qatlamini hasil qiladi. Superego uchta muhim funksiyalarni bajaradi;

-vijdon

-o'zini-o'zi kuzatish

-turli ideallarni shakillantirish.

Superegodagi vijdon shaxs faoliyatini jilovlab, uning kundalik ehtiyojlari qanday qondirilayotganligini nazorat qilib boradi. Insondagi turli ideallar va orzu-umidlarning qaror topishi ham Superegoning rivojlanish darajasi bilan o'zaro bog'liq. Shuningdek, Superego shaxs xulq-axloqini uning otasi yoki onasining xulq-atvori bilan bog'laydi. Shaxsning xulq-atvorini yangicha mazmun bilan boyitadi. Qadriyatlarini ajdodlardan avlodlarga yetkazadi. Freyd shaxsning psixoanalitik konsepsiyasini yaratishda ulkan hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Jey, M. (2019). Zigmund Freyd | Biografiya, nazariyalar, psixoanaliz, kitoblar va faktlar. [onlayn] Britannica entsiklopediyasi. Mavjud: britannica.com [Kirish 29 oktyabr 2019].

2. Uslar Braun, A. (2005). 100 kishiga qadar. Karakas: Los Libros de el Nacional, s.61-63.

3. En.wikipedia.org. (2019). Zigmund Freyd. [onlayn] mavjud: en.wikipedia.org [2019 yil 29 oktyabrda].

УДК 621.3. 004.424

МАТЕМАТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РЕГУЛИРОВКИ РЕЗЕРВНОГО УРОВНЯ ВОДЫ В СИСТЕМЕ АВТОМАТИЧЕСКОГО ПОЛИВА

Шарифов Хусен Шухратович

*ассистент кафедры “ Автоматизация и
управление производственными процессами”*

Бухарского института управления природными ресурсами НИУ «ТИИИМСХ»

Бухара, Узбекистан.

Аннотации: *В этой статье объясняется, как управлять резервным потоком воды из автоматизированной системы полива, и приводится его математическая модель. В сельском хозяйстве важно использовать оптимальный метод полива, при котором постоянно контролируется уровень воды. В проекте также используются датчики уровня и исполнительные механизмы.*

Ключевые слова: *Объект управления, датчик уровня, исполнительный механизм, модель.*

Все процессы управления, включая корректировку, имеют общие законы, не зависящие от конкретного объекта или цели. В произвольном изменении расхода жидкости мы видим процесс регулировки расхода воды в резервуаре как первый пример, объясняющий эти общие принципы. В зависимости от разницы между уровнем и заданным значением можно стабилизировать уровень на заданном значении, изменив поток жидкости в резервуар.

Чтобы воздействовать на выходные сигналы, входные сигналы, называемые параметрами управления (регулировкой), изменяются направленным образом, а их целевое изменение называется эффектом управления (регулировкой). Уровень жидкости называется параметром регулировки производительности, а скорость потока жидкости - регулировкой. В STOST наиболее распространенными параметрами контроля являются потребление веществ (жидкости, пары, взвеси, отложения) и энергии (тепло, электричество и т. Д.).

Другие АСУ выполняют те же пять функций, например, метантенк имеет систему контроля температуры. Из приведенных примеров ясно, что для управления любым СТОСТ необходимо получить информацию о его заданном и фактическом состоянии, определить разницу между фактическим состоянием и данным состоянием и на этой основе разработать и внедрить целенаправленное воздействие на объект.

Как уже упоминалось, любой процесс управления состоит из пяти основных действий, выполняемых техническими устройствами в АСУ. Устройство, получающее

информацию о состоянии контролируемого объекта, называется датчиком значения счетчика или параметра. Устройство, определяющее разницу между измеренным значением параметра и заданным значением, называется сумматором. Он выполняет алгебраическое сложение - вычитает измеренное значение из заданного значения. Устройство, воздействующее на объект, называется регулятором. Именно корпус регулирует передачу этого эффекта на объект, а для его перемещения используется специальное устройство - актуатор. Все эти устройства, а также объект управления, будут элементами АСУ (в некоторых системах некоторые из устройств могут использоваться вместе, например, сумматор может быть частью регулятора, а исполнительный механизм может быть объединен с регулятором). Например, в этом примере резервуар с притоком и оттоком жидкости является объектом регулирования уровня, пена - измерительным устройством, рычаг действует как сумматор и регулятор, а клапан действует как регулирующий орган.

Теперь рассмотрим математическую модель процесса, в которой мы принимаем в качестве важного параметра следующее

Математическое уравнение:

на основе закона бернулли $1) pgh = \frac{\rho v^2}{2}$

v-скорость потока $2) V = \sqrt{2gh}$

$g=9.81 [m/c^2]$ ускорение свободного падения

ρ - плотность жидкости

q- расходы пото ка $3) q = s_0 \times h$

По этим основным параметрам можно получить математическую модель процесса, расход воды варьируется в зависимости от стадии, при этом внешние воздействия не учитываются.

Мы предполагаем, что наш процесс является линейным, обычно процессы в природе нелинейны.

Линейная функция: $4) y = kx + b$

отсюда расход воды: $5) q = kh + b$

мы можем получить математическую модель процесса, если получим дифференциальную функцию из полученной формулы. Можно сделать вывод, что математическая модель процесса очень важна для определения стабильности процесса.

ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Убайдуллаева Д.Р, Хайитов А.Н, Абдуллаев Ҳ.Ҳ, Шарифов Ҳ.Ш.ъСув таъминоти ва оқава сувлари тизимларини автоматлаштириш.ъ2021 Бухоро
- 2.АУТОМАТЕ ТҲЕ ПРОСЕСС ОФ АУТОМАТИС АДЖУСТМЕНТ ОФ ЛИҚУИД ЛЕВЕЛ/Экономика и социум" /№11(78) 2020 (1447-1452) www.иупр.ру
3. Хусен Шухратвич Шарифов/ АВТОМАТИЗАЦИЯ ОЖДЕВАНИЕ ОРОШЕНИЯ НА МАЛЫХ ФЕРМАХ / 2020/ СОВРЕМЕННЫЕ ИНСТРУМЕНТАЛЬНЫЕ СИСТЕМЫ, ИНФОРМАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ/ 349-351
4. Хайдарова З.Р., Салиева О.К /ДИСТАНЦИОННЫЙ КОНТРОЛЬ ТЕМПЕРАТУРЫ ЗЕРНА В СИЛОСАХ ЭЛЕВАТОРОВ/ 2018/ Молодежь и системная модернизация страны Сборник научных статей 3-й Международной научной конференции студентов и молодых ученых./ 402-405
5. Убайдуллаева Ш.Р, Шарифов Ҳ.Ш, Хайдарова З.Р/К вопросу автоматизированного управления горячим водоснабжением в фермерском хозяйстве с использованием возобновляемых источников энергии/Тҳе Вай оф Ссиенсе Интернационал ссиентифис жоурнал/(№ 2 (72),/ 39-42
6. Прогрессивные технологии и процессы (машиностроительные технологии, материаловедение, автомобильная промышленность, мехатроника)

(vaf. 701/1301)

**ALLOMA RUKNUDDIN UBAYDULLOH IBN MUHAMMAD
AS-SAMARQANDIY ROHIMAHULLOH**

Avliyoxonov Avvalxon Obidxon o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi, "Islomshunoslik" – 2-kurs magistranti

Allohning nazari tushgan muqaddas diyorimizda o'z tadqiqotlari, aql-zakovati bilan nom qozongan allomalar ko'p o'tgan. Shulardan biri alloma, buyuk faqih, shayx Abu Muhammad Ruknuddin Borshoh Ubaydulloh ibn Muhammad ibn Abdulaziz as-Samarqandiydir. Allomaning Samarqandda dunyoga kelgani aniq bo'lsada, tug'ilgan sanasi haqida aniq bir ma'lumotlar yo'q. Rivoyat qilinishicha, u zot "Barshoh" nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Uning nisbasidan ma'lumki, u zot samarqandlik bo'lib, hijriy VII (milodiy XIII) asr o'rtalarida tavallud topgan deb tahmin qilinadi.

U zot ulamolar orasida "Alloma", "Ruknuddin", "Valiyyuddin", "Zakiyyuddin", "Zaynuddin" kabi taxalluslar bilan mashhur bo'lgan. Ubaydulloh as-Samarqandiy rohimahulloh Bag'doddagi 1233-yili Abbosiylar xalifasi Abu Ja'far "al-Mustansir billah" tomonidan asos solingan "Mustansiriyya" madrasasida tahsil olgan. U yerda mashhur alloma, shayx Muzaffaruddin ibn as-Soatiyga xos shogird bo'lgan. Hijriy 690-yilning 8-rajab oyida (1291-yil 7-iyul) ustozidan "Majma'ul-bahroyn va multaqon-nayyiroyn" asarini rivoyat qilishga va u kitobdan talabalarga dars berishga ijoza oladi. So'ngra Shom diyoriga borib joylashdi. Dastlab masjidida imom bo'lib faoliyat yuritadi. Bir qancha vaqt o'tib "Zohiriyya" madrasasida mudarris bo'lib ishlagan, keyinroq "Nuriyya" madrasasiga mudarris etib tayinlangan.

O'z davrida hanafiy mazhabining muhim va yetuk olimlaridan biri sifatida tanilgan Ubaydulloh Samarqandiy kalom, fiqh, tafsir, hadis va tasavvuf ilmlari bo'yicha puxta ta'lim olgan va bu sohalarda bir qator kitoblar ta'lif etgan. U zot o'z asarlarini taolibi ilmlar foyda oladigan, tushinishi yengil usulda yozgan. Fiqhda hanafiy, kalomda moturidiyya mazhabiga e'tiqod qilgan. Kitoblarida Abu Mansur al-Moturiydiyni "Imam al-huda" ya'ni "Hidoyat imomi" nomi bilan tilga olib, ba'zi fikrlarini bayon qilib, keltirib o'tgan. Abu Hanifa, Abul Lays Samarqandiy, Abu Yusr al-Pazdaviy, Abu Mu'in Nasafiy kabi buyuk olimlardan asarlarida naqlar keltirib o'tgan.

Ahli sunna val-jamoa mazhabini muxolif mazhab va oqimlardan himoya qilar ekan, Moturidiyya yo'lini mahkam tutgan, shuning uchun u o'z davridagi Moturidiyyaning asosiy vakillaridan biri sifatida qabul qilingan²⁵. Shayx Ubaydulloh Samarqandiy usulul-fiqh ilmiga oid, Hanafiylik va Shofiylik mazhablari o'rtasidagi ziddiyatlarni, farqli o'rinlarni jamlagan

²⁵ <https://islamansiklopedisi.org.tr/maturidiyye>

“Jome’ul-usul fiy bayani qovaidil-hanafiyyati vash-shafe’iyyati fiy usulil-fiqh” asarini yozgan. Ushbu kitob tahqiq qilingan bo’lib, ikki mujalladdan iborat.

Obid va zohid shaxs sifatida tanilgan Ubaydulloh Samarqandiy tasavvuf ilmiga ham qo’l urgan. Ta’lif qilgan kitoblarida mashhur tasavvuf shayxi Junayd Bagdodiydan iqtiboslar keltirgan, “Asmo-i Husna” ya’ni Alloh taoloning go’zal ismlari haqida yozgan sharhlarida tasavvufiy kayfiyatda, tariqat uslubidan foydalangan xolda fikrlarini bayon qilgan. Samarqand va Buxoro o’lkasining diniy tasavvurlari bilan yetishib chiqqan Imom Habboziy, Burhoniddin Nasafiy, Abul-Barakot an-Nasafiy kabi allomalarning so’fiylik an’analarini davom ettirgan Ubaydulloh Samarqandiy, shari’atga zid e’tiqodlarni qabul qilgan mutasavvurlarni tanqid qilgan, ularning noto’g’ri tushunchalariga qarshi raddiyalar bergan.

U zot doimiy kitob mutolaa qilishga va tinimsiz ta’lim olishga “yuzi bilan yiqilgan” ya’ni juda ham haris kishi bo’lgan. Doimiy zikrda yurgan, juda ham ko’p viridlari bo’lgan. U kishining bir kecha-kunduzdagi viridlari orasida yuz rakat namoz ham bo’lgan deyishadi. U zotning o’z ilm halqalari bo’lgan²⁶. Unda ko’plab shogirdlarga hanafiy fiqhi, aqida, tasavvuf va tafsir ilmlaridan dars bergan.

Shayx Rukniddin Borshoh Ubaydulloh as-Samarqandiy hijriy 701-yilda (milodiy 1301-yil) vafot etgan.²⁷

Shayx Ruknuddin Ubaydulloh as-Samarqandiy rohimahulloh bir qancha kitoblar ta’lif etgan. Quyida ushbu kitoblar haqida tanishamiz:

1. "عقيدة الشيخ ركن الدين السمرقندي" - "Aqiydutush-shayx Rukniddin as-Samarqandiy". Bu kitob muallifning aqida ilmiga oid eng katta hajmli asaridir. Kitob muallif tomonidan aqida masalalari va tasavvufni birlashtirgan uslubda tasnif qilingan. Bizlarga ushbu asarning yagona qo’lyozma nusxasi ma’lum bo’lib, hozirda bu qo’lyozma asar Turkiyaning Sualymoniyya kutubxonasi, Jarulloh Afandi kolleksiyasida, 1248-raqam ostida saqlanmoqda. Qo’lyozmaning ba’zi qismlari o’qib bo’lmaydigan holga kelib qolgan. (Suleymaniye Ktp., Carulloh Afandi, nr. 1248).

2. "العقيدة الركنية في شرح لا إله إلا الله محمد رسول الله" "al-Aqiydatur-Rukniyya fi sharhi laa ilaha illalloh Muhammadur-rosululloh". Bu asar shahodat kalimasining sharhiga bag’ishlangan bo’lib, ko’pgina o’rinlarda asar nomi “Sharhu kalimatish-shahaadah” deb ham yuritiladi^{28, 29}. Shuningdek bu asar “Xodiviyya kutubxonasi” katalogida “al-Aqiyda” nomi bilan qayd etilgan³⁰. Yevropa olomlaridan A.J.Vensink bu asarni o’zining “The Muslim Creed” asarida “Sharh la ilaha illa’llah” nomi bilan zikr qilgan³¹. Ushbu kitobga

²⁶ Imom Abu Abdulloh Shamsiddin az-Zahabiy. “Siyaru a’lamin-Nubalo”: Baytul-afkor.

²⁷ Imom Abu Abdulloh Shamsiddin az-Zahabiy. “Siyaru a’lamin-Nubalo”: Baytul-afkor.

²⁸ Hoji Xaliyfa, Mustafu ibn Abdulloh. “Kashfuz-zunun”: Daru ihya at-turos al-arobiy, Bayrut. 2008-yil. II jild/1043-bet

²⁹ Ismoil Poshsho al-Bag’odiy. “Hadiyyatul-orifiyn asma al-maullifin va asar al-musonnifin”: Daru ihya at-turos al-arobiy, Bayrut. 2008-yil. I jild/472-bet

³⁰ Usmon Abdur-Roziq. “Fihristu al-kutubxonayi al-Xodiviyya”: Misr. 2016-yil. II jild 43-bet

³¹ A.J.Vensinck. “The Muslim Creed”: Cambridge, 1932-yil. 284-bet.

asoslanib yetuk olim Karl Brockelman ham o'zining "Geschichte der arabischen litteratur" asarining ikkinchi juz, 946-sahifasida, 174-raqam ostida aynan shu nomni takrorlagan³².

3. "Sharhu al-asmâ al-husna" - "شرح الأسماء الحسنى - المستخلص من المقصد الأسنى".³³ Bu asarda Ubaydulloh Samarqandiy Alloh taoloning ism-sifatlarini aqidaviy va tasavvufiy uslubda sharhlab, bayon qilgan. Bu qo'lyozmaning bizlarga ikkita nusxasi ma'lum bo'lib, hozirda ular Turkiyadagi "Sulaymoniyya" kutubxonasining "Darul-masnaviy" kolleksiyasida 178-raqam ostida, va shuningdek, "Istanbul Universiteti" kutubxonasida, 3109-raqam ostida saqlanib kelinmoqda.

4. "رسالة في الإيمان والكفر" - "Risala fiy al-iyman va al-kufr". Ushbu asarda muallif rohimahulloh Alloh taoloning borligini bilish, shuningdek iymon va kufrga bog'liq masalalarni bayon qilishga e'tibor qaratgan. Ushbu asarning uchta qo'lyozma nusxasi aniqlandi. Ulardan biri "Sulaymoniyya" kutubxonasidagi As'ad Afandi kolleksiyasida, 1695-raqam ostida saqlanayotgan bo'lsa, ikkinchisi ushbu kutubxonaning Hekimo'g'li Ali Poshsho kolleksiyasida, 933-raqam ostida saqlanmoqda. Yana bir qo'lyozma esa "Köprülü" kutubxonasiing Mehmed Asim Bey kolleksiyasida, 244-raqam ostida saqlanmoqda.

5. رسالة العبودية - "Risala al-ubudiyya" kitobi. Bu asar ibodatning va ilohiy amrlarga itoat qilishning haqiqiy bo'lishi, uning shartlari va turlari haqidadir.³⁴ Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari "Sulaymoniyya: kutubxonasining "Beshir Aga" kolleksiyasida, 387-raqam ostida, shuningdek, "Bursa Eski Yazma ve Basma Eserler" kutubxonasining "Ulucami" kolleksiyasida, 1674-raqam ostida saqlanmoqda.³⁵

6. "رسالة التوبة" - "Risala at-tavba" kitobi. Ushbu asarda Shayx as-Samarqandiy ruhiy tarbiyaning asosiy mavzularidan bo'lgan tavba xususida so'z yuritgan. Ushbu qo'lyozma asar "Sulaymoniyya" kutubxonasining "Ayasofiya" fondida 2354-raqamda, va "Bashir og'a" fondida 387-raqam ostida saqlanmoqda.

7. Risale fi'r-ruh. Unda ruhning tabiati haqida ilohiyot va tasavvuf nuqtai nazaridan ko'plab qarashlar zikr qilingan.³⁶

8. "الرسالة الإنسانية" - "ar-Risala al-insaniyya" asari. Ushbu asar borliqda insonning o'rni, ruhi va nafsi haqida kichik bir risoladir.

9. "رسالة في علم الحقيقة" - "Risala fiy ilmi al-haqiqo" kitobi o'z ichiga turli hil masalalarni jamlagan, masalan: iymon, kufr, payg'ambarlarning yuborilish hikmatlari, Alloh taoloni tushda ko'rish masalasi va shunga o'xshash bir qator masalalarni o'z ichiga olgan. Kitobning qo'lyozma nusxalari "Bashir og'a" kolleksiyasida 387-raqam, "Hakimog'lu Ali Pashsho" fondida 933-raqam ostida saqlanmoqda.

³² Prof. Dr. Carl Brockelman. "Geschichte der arabischen litteratur": Leiden. 1938-yil. II jild. 946-bet.

³³ <https://www.atlaskitap.com/el-akidetur-rukniyye-fi-serhi-la-ilah-illallah-muhammedun-resulullah-271941.html>

³⁴ Necmettin Erbakan Üniversitesi Kültür Yayınları. "Şehir ve Alimleri Sempozyumu Kitabı". 2016. 412-bet.

³⁵ <https://islamansiklopedisi.org.tr/semerkandi-ubeydullah-b-muhammed>.

³⁶ Sulaymoniyya kutubxonasining "Hakim o'g'li Ali Poshsho" fondida, 387-raqam ostida saqlanmoqda.

10. "جامع الأصول في بيان القواعد الحنفية والشافعية" – "Jame'ul-usul fiy bayani al-qovaidi al-hanafiyya va ash-shafe'iyya" bu asar "Xilof ilmi"ga oid asar bo'lib, kitobini muallif rohimahulloh bu kitobni madrasa talabarlari uchun darslik sifatida ta'lif etgan. Kitobda shofeiylar va hanafiylar o'rtasidagi ixtiloflar umumiy ma'noda ko'rib chiqilgan. Bu kitob shayx Ismat G'ariybulloh Shimshak tomonidan ikki mujallad holida tahqiq qilingan. Keyinchalik muallif Ubaydulloh Samarqandiy bu asarni "Talxiys al-jami' al-usul" nomi ostida muxtasar va umumlashtirib qayta ta'lif qilgan.³⁷

11. "رسالة في القواعد الفقهية" – "Risola fiy al-qova'id al-fiqhiyya" asarida ba'zi asosiy fiqhiy tamoyillar ikkinchi darajali masalalar bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi (Sulaymoniya Ktp., Esad Afandi, 3896; Fotih, 1318).

12. "إعجاز القرآن الكريم" – "E'jaz al-Qur'an al-Karim". Bu kitobning muqaddimasida muallif rohimahulloh kitobni ta'lif etishidan maqsadni bayon qilgan: "Ushbu mu'jaz kitobni Qur'oni Karim ma'nolarining qanchalik ajoyib ekanligini, uning bayonini, ba'log'atini, yashirin foidalarini yoritib berish maqsadida ta'lif etishni istadim"³⁸.

13. "تفسير غرائب معاني القرآن" – "Tafsir g'aroibi ma'onil-Qur'an". Bu kitob "Tafsiru Samarqandiy" nomi bilan mashhur bo'lgan. Asar komil xolatda bo'lib, hozirgi unda uning qo'lyozmasi "Sulaymoniyxa kutubxonasi"da "As'ad Afandi" fondida, 3896-raqam ostida saqlanmoqda. Hozirda bu asarning tahqiq ishlari bilan tadqiqotchilari, doktor Ahmad Josim Muhammad Avvod hafizahulloh shug'ullanmoqda.

14. "ملخص شرح معاني الآثار" – "Mulaxxos Sharhi Ma'onil-Osor". Bu asar hadislar o'rtasida ziddiyat bor degan da'voni rad etish uchun Abu Ja'far at-Tahoviy rohimahulloh tomonidan yozilgan asarning qisqacha mazmunidir. Ushbu asar hozirda Turkiyaning "Millet" kutubxonasi, "Fayzulloh Afandi" fondida 931-raqam ostida saqlanmoqda.

Shayx Ubaydulloh Samarqandiyning eng mashhur shogirdlaridan biri Yahyo ibn Sulaymon ibn Ali ar-Rumiy al-Arzanjoniy rohimahulloh hisoblanadi. U kishi faqih imomlardan bo'lgan. O'z davrining "dinni tiriltiruvchisi" nomini olgan. U zot hijriy 665-yili tavallud topgan. Vafot etgan sanasi esa hijriy 728-yil Ramazon oyining 3-kuniga to'g'ri keladi.³⁹

Shayx Rukniddin as-Samarqandiyning bizlarga qoldirgan merosi buyuk va sermaxsul. Biz avlodlar ushbu qoldirilgan meroslarni dunyo yuziga chiqarmog'imiz lozim.

³⁷ Ismat G'ariybulloh Shimshak rohimahulloh. "Jame'ul-usul fiy bayani al-qovaidi al-hanafiyya va ash-shafe'iyya": Vaqf ad-diniyya at-turkiyya. Islom taqdiqot markazi. 2020-yil.

³⁸ Rukniddin Ubaydulloh Barshoh as-Samarqandiy. "E'jzul-Qur'on": Sulaymoniyxa kutubxonasi, "Laleli" fondi. 168-raqam ostidagi qo'lyozma.

³⁹ Muhyiddin Abu Muhammad Abdulqodir Al-Quroyshi al-Hanafiy. "al-Javahir al-mudiyya fiy tobaqot al-hanafiyya": "Dar al-ulum" ar-Riyod. 1993-yil. III jild, 589-bet.

**XORAZM VOHASINING "SURNAY LAZGI"SI, SURNAY CHOLG'USI TARIXI HAQIDA
MULOHAZA**

Shahanov Bobur Choriyevich

*O'zbekiston Davlat Xoreografiya Akademiyasi
Urganch filiali "Lazgi" bo'limi boshlig'i.*

Yusupboy Yusupov Mansur o'g'li

Bosh mutaxassisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm diyorining "Surnay lazgisi" hamda cholg'u ijrochiligida muhim ahamiyat kasb etuvchi qadimiy "Surnay" cholg'usi haqida batafsil ilmiy-nazariy ma'lumotlar bayon etilgan. Shuningdek, "Surnay" ijrochiligi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Xorazm musiqa madaniyati, cholg'u ijrochiligi, Surnay, nay, musiqashunoslik, folklor, musiqa, raqs, diopozon, diatonik*

**A REVIEW ON THE HISTORY OF THE "SURNAY LAZGI" OF THE KHORAZM OASIS,
THE TRUMPET INSTRUMENT**

Shahanov Bobur Choriyevich

*State Academy of Choreography of Uzbekistan
Head of the "Lazgi" branch of the Urganch branch.*

Yusupboy Yusupov Mansur son

Chief specialist

Abstract: *This article provides detailed scientific and theoretical information about the "Trumpet" of the Khorezm region and the ancient "Trumpet" instrument, which is of great importance in the performance of the instrument. Also, comments were made about the performance of "Surnay".*

Key words: *Khorezm musical culture, instrument performance, Trumpet, flute, musicology, folklore, music, dance, diopozone, diatonic*

РАЗМЫШЛЕНИЯ ОБ ИСТОРИИ ОАЗИСА ХОРЕЗМА "SURNAY LAZGI", SURNAY ИНСТРУМЕНТА

Шаханов Бобур Чориевич

*Узбекская Государственная Академия Хореографии
Начальник отделения "Лазги" Ургенчского филиала.*

Юсупбой Юсупов Мансур оглы

главный специалист

Аннотация: В данной статье изложены подробные научно-теоретические сведения о "сурнай лазги" Хорезмской земли, а также о древнем инструменте "сурнай", имеющем важное значение в инструментальном исполнительстве. Также были отзывы об исполнении "трубы".

Ключевые слова: Хорезмская музыкальная культура, инструментальное искусство, труба, флейта, музыковедение, фольклор, музыка, танец, диопозон, диотоника

Mustaqillik yillarida milliy va nomoddiy merosimiz bo'lgan Raqs san'ati uchun ham juda ko'p imkoniyatlar paydo bo'ldi. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020-yil 4-fevraldagi "Raqs san'ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq, Toshkent davlat milliy raqs va xoreografiya oliy maktabi negizida davlat OTM shaklida Madaniyat vazirligi tizimida O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi tashkil etilganligi ham yurtimizda raqs san'atiga juda katta e'tibor qaratilayotganligining belgisidir. Milliy Raqs san'ati haqida so'z yuritilganda qadimiy raqslardan biri bo'lgan Xorazm vohasiga mansub Lazgi raqsi o'z o'rniga egaligi bilan butun dunyoda ajralib turadi. Bu raqs turining 9 xil turi mavjud bo'lib, shulardan eng qadimiy raqslaridan biri "Surnay lazgi" raqsi hisoblanadi.

"Surnay lazgi" raqs kelib chiqish tarixiga qaraydigan bo'lsak raqsning kelib chiqishi to'g'risida malum bir davr bayon qilinmagan, ammo tarixiy yodgarliklarga qaraydigan bo'lsak uzoq tarixga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin. O'rta Osiy hududida (Navoiy viloyatida) joylashgan Sarmish to'g'lariga tasvirlangan suratlar olimlar tomonidan eramizdan avvalgi birinchi ming yillik yodgorliklardan biri hisoblanishi isbotlangan. Bu suratlar ichida raqqoslarning turli xil kompozitsiyon hara



katlar olib borayotgan tasviri ham bor.

“Sarmish tog’larida Mirrix (Urush xudosi) suratda qurollangan, baquvvat yigit sifatida tasvirlangan. Bu suratlar o’sha davr qahramonlik raqslarini xarakterlab berish jihatidan barcha uchun katta qiziqish uyg’otdi. Ularning belida kalta qilich osilgan bo’lib, jo’shqinlik, shiddatkorlik bilan o’yinga tushmoqda. Raqqoslarning qo’l, oyoq, tana harakatlari, imo-ishoralari bir xil va bir-biriga monand bo’lib, ular qandaydir bir ma’noni anglatadi. Bu o’yinlar bir tomondan go’zallik baxsh etsa, ikkinchi tomondan bahodirlikni, jasurlikni, qahramonlik kayfiyatini aks ettiradi yoki jangga kirishish oldidan, tayyorgarlik ko’rayotganliklarini eslatadi”⁴⁰

Bu raqslarning qo’l, oyoq, tana, harakatlaridan keskin va aniqlik bilan qo’lni yuqori cho’zgan holatda, tizza bir oz bukibroq o’ynashi, sakrab shiddatli harakat qilishi, huddi hozirgi Lazgi o’yinlariga o’xshab ketadi. O’z xarakteri bilan bu o’yin harbiy qahramonlik raqsi bo’lgan desak mubolag’a bo’lmaydi.

Xorazmshohlar davrida ham Lazgi raqsi sunray cholg’usida ijro qilingan va qo’shinlarni jangga kirish oldidan raqiblarni yengib, g’alaba kuyi sifatida chalinigan va lashkarlarning madhiyasi bo’lgan ekan. Surnay lazgisi kim tomonidan o’ynalmasin, jangovorlik holatida mag’rur, shiddat bilan o’ynalib g’alabaga erishish uchun faqat yengish maqsadidagi raqs harakatlarini tanlaydi.

Surnay lazgi o’yinida raqqos qo’llarini yuqori ko’tarib asta-sekin barmoqlarni musiqa mukammalligiga soladi, o’zi esa go’yo raqibiga qaragandek gavdasini qimirlatmay tutib turadi. Bir necha vaqt o’tgach harakatiga gavda harakatini qo’shadi. Keyin birdan dushmanga o’zini safarbar qilgan jangchiday mayda qadamlar bilan yugurib qo’l barmoqlarini o’ynatab, charsillatib qars urishni tezlashtirib, lashkarlarning jang qilayotgan holatini ifodalaydi, raqs oxirida raqib ustidan qozonilgan g’alaba jadal kurashni harakatlarda ifodalab beradi.

“Surnay so’zi forscha sur – to’y, bayram, nay – qamish, to’yda chalinadigan nay degan ma’noni bildirib, Teshiklarini barmoqlar bilan ochib-yopib, puflab chalinadigan musiqa asbobi degan ma’noni anglatadi.⁴¹ Surnay cholg’usining kelib chiqishi juda qadimiy bo’lib, bu haqdagi ma’lumotlar miloddan oldingi qal’alar devorlaridagi tasvirlar va o’rta asr minatyuralarida aks etgan. Surnay harbiy yurishlar, to’y, sayil va bayramlarda asosiy cholg’u sifatida foydalanilgan. Karnay, nog’ora va doiralar ishtirokidagi cholg’ular ansamblida qo’llanilgan.

O’zining tuzilishi va tovush hosil qilinishi jihatidan goboyga ibtido bo’lgan surnay tanasi 400-450 mm uzunlikdagi mevali (o’rik, tut, yong’oq) yog’ochdan yasaladi, ba’zan konussimon shaklda, karnaychasi kengaytirilgan holda yasaladi. Uning barmoq bilan bosiladigan 8 ta teshigi bor. Shulardan bittasi asosiy teshiklarga qarama-qarshi, ya’ni orqa tomonida joylashadi. Ba’zilarida teshiklarining oralari mis halqachalar bilan halqalangan.

⁴⁰ Gavhar Matyoqubova, Sharqiya Eshjonova “Lazgi”- Urganch- 2017 y 43 bet

⁴¹ “O’zbek tilining izohli lug’ati” Maskva-1981 y

Surnay tili – dudiki oddiy qamishdan ip bilan qattiq bo'g'ilib, bir-biriga qapishtirib yasaladi va surnay miliga kiygiziladi. Mil o'z navbatida cholg'u tanasiga o'rnatilgan bechka (bachcha – bolacha, surnay yog'och tanasiga nisbatan boshqacha mevali yog'ochdan ishlangan narsa)ga kiygiziladi. Milda esa aylana yoki bukik ellips shaklidagi (hayvon shoxi, suyak, sadaf yoki metallan ishlangan) ijrochi labiga tiralib, nafasni tashqariga chiqishidan muhofazalab turadigan xalqa o'rnatiladi.

Surnay bir yarim, ikki oktava hajmidagi diopozon va diotonik tovush qatorga ega bo'ladi. O'zbekistonda surnay ijrochilik uslubi ikki xil bo'lib, bunda Farg'ona-Toshkent surnayi menzurasi kengroq bo'lganligi sababli tovushi mayin va nolali, Xorazm surnayi esa menzurasi nisbatan torligidan tovushi keskin va chiyildoq. Ikkala surnayda ham tovush ko'lami bir xil. Pastki tovushi birinchi oktava dodiezdand boshlanib, nafas bosimini kuchaytirish natijasida ikkinchi oktavasi (uchinchi oktava do) tovushgacha bo'lgan diopozonni o'z ichiga oladi.

Surnayning tovushi keskin va juda o'tkir bo'lib, unda tovush hosil qilish murakkab hisoblanadi. Bu jarayon uzluksiz nafas bilan ijro qilish mahoratini talab etadi. Uzluksiz nafas bilan chalishning mohiyati shundan iboratki, qadimgi ulamolar sozni vaqtning uzviy bo'lagi, ya'ni vaqtda uzilish bo'lmaganidek musiqada ham qisqa bo'lsada uzilish bo'lmashligi kerak deb hisoblashgan. Shuning uchun ham, ayniqsa Xorazm surnaychiligida uzluksiz nafas bilan chalish qabul qilingan va bugungi kunda ham davom etmoqda. Shuningdek, Xorazm dutor cholg'uchiligida ham, uzluksiz rez bilan chalish bugungi kungacha o'ziga xos uslub hisoblanadi, o'z navbatida ularning surnay ijrochiligi bilan uzluksizligi o'xshashdir. Uzluksiz nafas aylantirish yoki qaytarma nafas Xorazm surnaychilariga xos bo'lib, hozirgi davrda ham qo'llaniladi, ammo, boshqa hududlarning xususan, Toshkent-Farg'ona surnay yo'llarida bunday ijro uslubi uchramaydi. Xorazm surnaychiligida ijrochi lunjini shishirgan holda zaxira havoni lunjda saqlaydi va burundan nafas olayotgan paytida zaxiradagi havoni chakka mushaklari yordamida surnay naychasiga yo'llaydi. Natijada o'pkaga havo ham olinadi va surnayga yuborilayotgan nafasda ham uzilishga yo'l qo'yilmaydi. Qaytarma nafasni o'rgatish uchun mashhur Xorazmlik surnaychi Xudak ota – Xudoybergan Qurbon o'g'li o'z shogirdlarini qo'llariga nay qamish berib dam aylantirish tamoyilini tushintirgach, boshlovchi surnaychini ariqcha chetiga yotqizgan holda naychani suvga tiqib puflatar va suvda pufakchalar hosil bo'lishi uzluksiz davom etsa, ya'ni nafas aylansa shogird surnayni qo'lga olgan. Agar dam aylanishida uzilish ro'y bersa, suvda uzluksiz pufak chiqqunicha mashg'ulotni yana davom ettirgan.

Xorazmda surnay ijrochiligining rivojlangan davri Muhammad Rahimxon Feruz hukumronlik qilgan (1863-1910) davriga to'g'ri keladi. Bu vaqtda Yoqub bulamonchi, Sariq Mehtar, Bobojon (Buva bulamonchi) surnaychi, Xudoybergan Qurbon o'g'li va 40 nafar surnaychidan tashkil topgan surnaychilar, karnay va nog'oralar jo'rligidagi ansambl «Xon chiqar» (Xorazm Navo maqomining saqili)ni xon chiqish paytida chalishgan.

Bunda Xon otining va uni yetaklab yuradigan shotirlarning oyog'iga turli hajmdagi zanglar taqilgan bo'lib, ular kuy usuliga monand oyoqlarini tashlab yurgan paytda mahobatli tomosha-ko'rinish hosil bo'lgan. Bu davrda mashhur bo'lgan Turdi karnaychi nomi ham ko'p tilga olinadi. Xiva xonligida g'assollardan olinadigan soliqni Ashur mahram karnaychilarga oylik, ya'ni maosh qilib berar ekan. Shuning uchun ham ushbu kasb eng past hunarlardan hisoblangan va hozirgacha O'zbekistonning boshqa joylariga qaraganda Xorazmda karnaychilar deyarli yo'q, karnay esa juda kamdan-kam hollarda istifoda qilinadi. XX asrda mashhur bo'lgan surnaychilardan Xudoybergan Qurbon o'g'li, Matniyoz ota, Jumaniyoz ota, Abdusharif Tog'anov, Matyoqub do'xtir Ollayorov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Qodir Bobojonov, Fayzullo Matchonov, Yo'ldosh Tojiev va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, «Do'stlik» ordeni sohibi Matrasul Matyoqubovlar el orasida taniqli ustoz sozandalardan hisoblanadi.

Xorazm sunray yo'lida chalinadigan kuylar bor. Ularning aksariyati raqs kuylari bo'lib, turkumli "Orazibon", "Norim-norim", "Ushurni uforisi", "Birolloyim" (oxirgisiga o'xshagan qo'shiqlar ovozi kuchli xonandalar tomonidan surnay jo'rligida kuylangan va bunday jo'rlikda kuylash faqat Xorazmgagina xosdir) va ayniqsa "Surnay lazgisi" xalqaro miqyosda dong'i ketgan raqs kuylaridan hisoblanadi. Raqs kuylariga ko'pincha qayroq jo'rligida o'ynaladi.

"Surnay lazgisi" xalqimizning yaxshi kunlarida, to'y-u tantanalarida, turli bayram va bazmlarda hammani o'ziga jalb qiladi. Surnay lazgisi chalinganda jamoa bo'lib o'ynaladi yoki yakkaxon raqqosalar ham o'yin ko'rsatishi mumkin. Surnay lazgisi hozirgi davrga kelib katta sahnalarda o'ynaladi. Keyingi vaqtlarda surnay lazgisini yakka o'ynovchilar ham juda ko'p. Shuni aytish kerakki hozirgi davrda surnaychilarimiz "Sunray lazgisi"ni dunyo sahnalarida ijro etib, raqqosalarimiz bu kuyga raqsqa tushib butun dunyo e'tiborini jalb qilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Avdeeva L. "O'zbek milliy raqsi tarixidan" T. 2001 y.
2. Matyoqubova G. "Ofatijon lazgi" - T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti
3. Matyoqubov B. "Xorazm doston ijrochiligining zarxal sahifalari". – Xorazm. Urganch nashriyoti. – 1999.
4. Jabborov I. "Yuksak madaniyat va noyob ma'naviyat maskani".– Toshkent. O'zbekiston nashriyoti.- 2012.
5. Matyoqubov B. "Doston navolari". – Toshkent. "BUILDING PRINT" nashriyoti. – 2009.

Yangiboyeva Mushtariybonu Shoymardon qizi

Denov Institute of Entrepreneurship and pedagogy 2nd student

Abstract: *The emphasis on the educational implications and applications of research on child development Abstract, cognitive science, learning, motivation eaching, and evaluation has not changed in the thirteenth edition.*

In the text, theory and practice are not treated separately but rather jointly. The purpose of the book is to demonstrate how knowledge and concepts derived from educational psychology research may be used to address common teaching issues. These pages contain a plethora of examples, lesson plans, case studies, recommendations, and even helpful hints from veteran instructors to aid you in your exploration of the relationships between research and practice.

20. Э.Мирзажонова, А.Хомидов, Г.Мамажонова //АКТУАЛЬНОСТЬ ПЕРЕВОДА ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДИК// О'ЗБЕКISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIIY TADQIQOTLAR JURNALI. 2022 y 9-SON. 211-218 betlar.

21. Eleonora Topvoldievna Mirzajonova, Khomidov Abdullajon Adham oglu // To study the practical problems of attention and memory processes in children with speech defects// Texas Journal of Multidisciplinary Studies. Vol. 9. 06-2022. 130-135 page.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СЛУЖБЫ РАННЕЙ МЕДИКО-РЕАБИЛИТАЦИОННОЙ, ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ, СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ ПОМОЩИ ДЕТЯМ С ОСОБЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ

Алимова Ирода Анваровна

*ассистент кафедры Педиатрии Ферганского медицинского института
общественного здоровья; Врач педиатр Ферганского регионального филиала
республиканского центра социальной адаптации детей*

Пулатов Рузимухаммад

*студент 4 курса Ферганского медицинского института общественного
здоровья. Волонтер Ферганского регионального филиала республиканского
центра социальной адаптации детей.*

Цель исследования: в статье отмечаются развитие и обеспечение медицинской и социальной защитой детей с особыми потребностями с раннего возраста в Республике Узбекистан. Диагностика психофизических нарушений у детей и предупреждение развития вторичных физиологических и психологических проблем с раннего возраста. Необходимость развития службы ранней медико-реабилитационной, педагогической и психологической помощи в семейных поликлиниках и сельских врачебных пунктах. Включение в процесс раннего развития ребенка с особыми потребностями не только системы здравоохранения, но и систему образования и других структур, а также их родителей и родных.

Материал и методы: Специалистами с 2013 по 2021 гг. были исследованы и оказаны медико-реабилитационные (лечебная физкультура, массаж, водные процедуры в бассейне, иппотерапия), психолого-педагогические (занятия в кабинетах по методике монтессори, сенсорном кабинете, песочной, АРТ терапии, сказкатерапии) услуги в командном составе 4683 детям. В первой группе 1368 дети с рождения до 3 лет, 1423 дети с 4 до 7 лет (1933 детей), во второй группе 1382 детей от восьми до восемнадцати лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг.

Результаты: из 3301 детей с рождения до 7 лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг., явные положительные психофизические изменения (я/и) в динамике наблюдалось у 40,6%, относительное улучшение (о/и) – 47,3% и у 12,1% детей изменений не отмечалось (б/и). Из 1382 детей от восьми до восемнадцати лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг., явные положительные психофизические изменения (я/и) в динамике наблюдалось у 18,19%, относительное улучшение (о/и) - 44,11% и у 37,7% детей изменений не отмечалось (б/и).

Ключевые слова: *Сильная социальная политика; инклюзивное образование; дети с особенностями в развитии; служба раннего вмешательства; командный, комплексный, подход по раннему вмешательству.*

Одним из приоритетных направлений государственной политики в области медицины, образования и социальной защиты является поддержка детей с особыми потребностями и с инвалидностью. Республика Узбекистан является государством, в котором социальная политика занимает не последнее место. Осуществление сильной социальной политики является важнейшим принципом национальной модели рыночных реформ в Узбекистане. К механизмам обеспечения социальной защиты в республике относятся всесторонне обоснованная система правовых норм, правоохранительные органы, государственные и муниципальные органы, органы здравоохранения и образования, призванные оказывать материальную и моральную помощь нуждающимся, финансирование системы пенсионного обеспечения детей, поддержка многодетных и малоимущих семей через бюджетный механизм и гарантии государства. Исходя из основных направлений развития инклюзивного образования в Узбекистане, принятые законы Республики Узбекистан «Об охране здоровья граждан», «Об образовании», «О гарантиях прав ребенка», «О социальной защищенности инвалидов в Республике Узбекистан», «О социальном партнерстве» гарантируют получение бесплатной медицинской помощи детям, бесплатного начального и среднего специального, профессионального образования, в соответствии с умственными и физическими возможностями ребёнка, как в специальных, так и в общеобразовательных учреждениях.

Численность детей с инвалидностью, к сожалению, не уменьшается, темпами какими хотелось бы. Ухудшение экологии, высокий уровень заболевания матерей во время беременности, социально-экономические, психолого-педагогические проблемы способствуют увеличению количества детей с ограниченными возможностями, делая эту проблему особенно актуальной.

Чтобы организовать адекватную защиту и поддержку детей с особыми потребностями, обеспечить их качественным медико-психологическим обслуживанием и образованием каждый врач педиатр, педагог, социальный работник работающий в команде должен знать основы закономерностей развития ребенка. Многие проблемы ребёнка с особыми потребностями возникают из-за невнимания и незнания единства основных закономерностей психофизического развития в норме и в патологии. Исходя только из поставленного диагноза, формируется прогноз, объем и характер медицинской помощи. К сожалению, педагогическая, психологическая помощь детям с особыми потребностями и их родителям остаётся за стенами медицинского учреждения. Ребенок с рождения со стойкими нарушениями здоровья имеет возможность постоянно лечиться, но не

всегда имеет возможности учиться, полноправно участвовать в жизни общества. Детей с особыми потребностями продолжают только «лечить» а развивать и адаптировать приходится родителям, не имеющим опыта в интеграции детей. В дошкольные и школьные учреждения направляют того, кого можно «вылечить», а детей с «малым реабилитационным потенциалом» признают «необучаемыми» и помещают в институциональные учреждения или эти дети остаются дома под опекой родителей. В раннем возрасте теряется драгоценное время, необходимое для развития ребенка

Начиная с начала 2014 года в рамках проекта, во исполнении Приказа Министра Здравоохранения Республики Узбекистан № 172 от 16 мая 2016 года усилиями сотрудников РЦСАД, сотрудниками областных хакимиятов, управления здравоохранения Ферганского региона в рамках проекта была апробирована Служба раннего вмешательства в многопрофильных центральных поликлиниках Ферганской, Наманганской и Андижанской вилоятах. К сожалению, после окончания проекта в многопрофильных поликлиниках эта служба прекратила свое существование. Специалисты системы здравоохранения планируют и проводят лечебные мероприятия детей с особенностями в развитии, но этого недостаточно. Исходя только из поставленного диагноза, формируется прогноз, объем и характер только медицинской помощи. К сожалению, педагога-психологическая помощь детям с особыми потребностями и их родителям остаётся за стенами медицинского учреждения. Ребенок со стойкими нарушениями здоровья не имеет возможность полноправно участвовать в жизни общества.

Учитывая опыт работы ИКС РЦСАД Ферганского филиала, где ведется служба раннего вмешательства, применяются методики психолого-педагогической диагностики детей с 2-х недельного возраста до 3-х лет и далее. Продолжается работа и командный подход по раннему вмешательству и дальнейшее сопровождение детей состоящий из дефектолога, психолога, педиатра, невропатолога, инструктора ЛФК, социального работника.

Возможность восстановления повреждённых основных жизненных навыков и адаптация при психофизических нарушениях усиленно происходят до трех и слабее до семи лет. Нейрофизиолог Глен Домман, который разрабатывал систему реабилитации детей с тяжелыми поражениями центральной нервной системы, пришел к выводу, что наиболее эффективно на развитие мозга можно влиять в период его активного роста до 3-7 лет. Причем уже после трех лет этот процесс замедляется, а после семи практически прекращается. Как показывают приведенные данные, чем младше ребенок, в том числе в возрасте до одного года, тем проще проходит процесс его реабилитации и обучения.

Мы должны учитывать, что в фокусе здравоохранения должна находится не только психопатология, но и адаптивные способности детей, используемые для ускорения выздоровления или адаптации ребенка с особыми потребностями. Чтобы

организовать адекватную защиту и поддержку детей с ограниченными возможностями, мы должны обеспечить их не только качественным медицинским обслуживанием, но и образованием, и каждый специалист работающий в команде должен знать основы закономерностей развития ребенка в условиях патологии и сообща составлять план дальнейшей реабилитации детей. Из этого следует, что служба раннего вмешательства должна работать в семейных поликлиниках, сельских врачебных пунктах по оплачиваемым штатным единицам вместе с педиатром, детским неврологом в составе, которого должен быть социальный работник, специальный педагог-дефектолог, детский психолог и реабилитолог.

Учитывая опыт работы, информационно консалтинговой службы Ферганского регионального филиала республиканского центра социальной адаптации детей, где с 2014 года ведется служба раннего вмешательства, применяются методики ранней медицинской и психолого-педагогической диагностики детей с 2-х недельного возраста до 3-х лет и далее. Специалистами филиала разработаны и применяется на практике специализированные вопросники, где полностью оценивается психофизическое состояние ребёнка на медико-психологической и педагогической комиссии, планируется объём оказываемой помощи. За последние исследуемые 2016-2021гг Специалистами с 2013 по 2021 гг. были исследованы и оказаны медико-реабилитационные (лечебная физкультура, массаж, водные процедуры в бассейне, иппотерапия), психолого-педагогические (занятия в кабинетах по методике монтессори, сенсорном кабинете, песочной, АРТ терапии, сказкатерапии) услуги в командном составе 4683 детям. В первой группе 1368 дети с рождения до 3 лет, 1423 дети с 4 до 7 лет (1933 детей), во второй группе 1382 детей от восьми до восемнадцати лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг.

Из 3301 детей с рождения до 7 лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг., явные положительные психофизические изменения (я/и) в динамике наблюдалось у 40,6%, относительное улучшение (о/и) – 47,3% и у 12,1% детей изменений не отмечалось (б/и). Из 1382 детей от восьми до восемнадцати лет, получивших курсы комплексной медико-педагогической реабилитации за период с 2013-2021 гг., явные положительные психофизические изменения (я/и) в динамике наблюдалось у 18,19%, относительное улучшение (о/и) - 44,11% и у 37,7% детей изменений не отмечалось (б/и).

Как видим количество родителей обратившихся в раннем возрасте детей увеличилась и данная служба, оказалась востребована. К сожалению статистика, показывает, что родители детей, проживающие в отдаленных районах, обращаются к нам после 3-4 лет. Это говорит о том, что, проводя только лечебные мероприятия со стороны врачей, упускается драгоценное время медико-педагогической реабилитации и адаптации в чем нуждаются в этот период дети и их семьи.

Чтобы эти дети смогли посещать общеобразовательные дошкольные учреждения. После посещения ИКС филиала по рекомендации МППК более 120 детей с особыми потребностями, считавшимися необучаемыми, пошли в общеобразовательные учреждения.

Дети с особыми потребностями и их родители были активно вовлечены в процесс в комплексные реабилитационные мероприятия лечебной физкультурой, массажем и занятия в бассейне совмещаются с занятиями психолога и дефектолога. Для этого полностью оснащены кабинеты лечебной физкультуры, массажа, специализированный бассейн с поручнями и гидромассажем, кабинеты монтессори, АРТтерапии, сенсорный кабинет, песочной терапии, При этом все специалисты филиала пользуются новейшими методиками и технологиями.

Совместно с ассистентами Ферганского медицинского института общественного здоровья и сотрудниками филиала разработаны более 20 методических рекомендаций с целью повышения компетентности родителей по уходу и развитию детей. На регулярной основе проводятся реабилитационные мероприятия детей и обучающие семинары с родителями, воспитывающими новорожденных детей и детей до 3 лет и более. Занятия проводятся по индивидуально-развивающим программам развития ребенка, предполагающих развитие когнитивных, социально-личностных, коммуникативных и других аспектов личности в соответствии с его психофизическими возможностями и потребностями. Кроме этого, регулярные занятия лечебно-психологической иппотерапии помогает детям с особенностями развития. Более 500 детей в год проходят курсы иппотерапии на базе Ферганского областного Ипподрома. Специалисты работают в направлении – адаптировать ребёнка с его навыками в жизнь.

Семья является средой, в которой формируется личность ребенка. Для того чтобы ребенок успешно развивался, необходимо помнить не только о его физическом здоровье, но и о том, что с самых первых дней жизни он нуждается в общении, для него важно играть и активно исследовать внешний мир, учиться и развивать свои способности. Показывая, необходимость охватить все стороны развития ребенка и представить родителям и родным наиболее полную информацию о развитии ребенка с инвалидностью позволит лучше понять роль семейного окружения для благополучного развития. Необходимо подключать родителей к инициированию обучения своих детей, готовить их к активной взрослой жизни в обществе, воспитывать уважение к культурным традициям и ценностям народа, но не после 3-х лет, а с рождения.

Но даже несмотря на это вероятность остаться без образования для детей с инвалидностью остается значительно высокой. Большинство оказались в плену нынешних экономических забот. Люди теряются в таких случаях и теряют уверенность в себе, надежду в лучшие перемены. Важно знать, куда можно обратиться со своими проблемами. К сожалению, в республике недостаточно

развита сеть медико-реабилитационных и педагогических детских организаций детям до 3-х.

Несмотря на это, в данное время остроте этой проблемы уделяется особенно много внимания со стороны нашего государства. Если раньше работа с детьми осуществлялась в специальных интернатах изолированно от общества, то сейчас совместно с Международными фондами, ННО, Министерством Здравоохранения, Министерством образования многие специалисты работают над разрешением комплекса проблем детей со специфическими нуждами в целях интегрирования их в общество приняв на законодательном уровне в «Законе об образовании», утверждение положения об инклюзивном обучении в школах.

Процесс реабилитации детей с особыми потребностями носит не только медицинский, но и социальный характер, и успешность положительного результата зависит от времени ее начала и помощи, в создании системы работы в затруднительных ситуациях. Чем раньше обнаружено то или иное психофизическое нарушение (сенсорное, интеллектуальное, психическое, физическое) тем эффективнее и продуктивнее будут усилия окружения ребенка - родителей, команды специалистов, которые занимаются этим ребенком. Исходя из этого, проблема ранней диагностики и распространение модели Службы всесторонней ранней медико-педагогической помощи по коррекции остаётся в центре внимания, от решения которой зависит дальнейшая реализация на ряду с медицинской помощи, процесса обучения детей с особыми потребностями.

Особенно необходимо учитывать психологический аспект проблемы «Службы раннего вмешательства». Когда родители узнают об инвалидности ребенка или его хроническом заболевании, они вступают на путь эмоциональных переживаний, взаимодействия с различными специалистами и постоянной потребности в информации и услугах. Эффективность лечебно-педагогических мероприятий определяется своевременностью, преемственностью в работе всех звеньев службы раннего вмешательства. Важна согласованность действий всех специалистов различного профиля, службы раннего вмешательства, врачей, педагогов, воспитателей и самое главное семьи, родителей и родных ребенка. Существует острая необходимость в понимании проблем, уважение и признание права на образование, желание и готовность включить их в детское сообщество, а не спрятать за стенками специального учреждения или оставить дома у окна.

Для решения этих проблем необходимо переместить фокус на устранение различных барьеров в обществе, которые препятствуют социальному включению и обеспечению «нормальной жизни» детей с особыми потребностями.

В Узбекистане только начинает набирать темпы работа по разработке специальных индивидуальных программ для детей с ограниченными возможностями, создаются различные модели реабилитационных, адаптационных учреждений, внедряются инновационные технологии социальной работы. Всё это

способствуют восстановлению детей с ограниченными возможностями, к созданию независимого образа жизни, помогают им определять свои социальные роли в обществе, способствующие их полноценному развитию.

Рекомендации:

- Дальнейшее совершенствование механизмов оказания медицинской помощи детям и их семьям;
- Создание условий для предоставления социальной, психологической, медицинской и педагогической помощи детям раннего возраста;
- Повышение адресности социальной защиты инвалидов, включая детей, путем внедрения эффективных технологий социального обслуживания;
- Активное включение в процесс раннего развития ребенка с особыми потребностями системы образования, здравоохранения и других структур, а также их родителей и родных.
- Формирование позитивного общественного мнения по отношению к людям с особыми потребностями;
- Создание в семейных поликлиниках, сельских врачебных пунктах по оплачиваемым штатным единицам «Службы раннего вмешательства».
- Расширять сеть медико-реабилитационных и педагогических образовательных учреждений детям до 3-лет.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Чичерина Я.Е., Исаева Д.И., Бондарева Е.В. Ранняя диагностика и вмешательство. Ташкент 2010 РЦСАД. 14-16.
2. Муминова Л.Р., Чичерина Я.Е., Нуркелдиева Д.А., Назарова Э.Н. и др. Диагностика психофизического развития детей первых трёх лет жизни. / Методическое пособие. Ташкент 2008. 21-24
3. «Состояние и перспективы взаимодействия ННО с государственными структурами в реализации защиты прав детей» Материалы круглого стола. Ташкент 2013 РЦСАД. 8--9
4. <http://nashidetni.narod.ru> «Серия реабилитационных и развивающих методик для детей с задержками развития ».
5. Методика раннего развития Глена Доммана от 0 до 4 лет – ЛитРес. litres.ru [https:// litres.ru>chat-oniayn](https://litres.ru/chat-oniayn)
6. Министерство Высшего и среднего специального образования РУз. РЦСАД. unicef. Курсы переподготовки по социальной работе с детьми и семьями для практиков системы социальной защиты детей РУз. 2009.
7. М.Карамян. Сохраняя здоровье детей. Бола ва замон. №4/2009 45-47

8. Муминова Л.Р. ва бошқалар., «Ривожланишда камчилиги булган болалар билан олиб бориладиган коррекцион-ривожлантирувчи технологиялар» Мажмуавий монография. «Matrix», 2020

9. Левченко И. Ю., Ткачева В. В. Психологическая помощь семье, воспитывающей ребенка с отклонениями в развитии - М.: Просвещение, 2008г.

10. Юртайкин В.В., Комарова О.Г. Семья и ребенок с особыми нуждами // Школа здоровья. 1996. - №1. – с.17 - 25

HUQUQIY ONG , HUQUQIY MADANIYAT TUSHUNCHALARINI TALQIN ETISH ZARURIYATI

Shomurodov Alijon Turayevich

*Mehnat va ijtimoiy munosabatlar akademiyasi" nodavlat ta'lim muassasasi
umumkasbiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada demokratik jamiyat qurish asosi sifatidagi yuksak huquqiy ong va madaniyatga ilmiy asoslangan baho tahlil qilingan hamda mutafakkirlarning fikri asosida o'rganib chiqilgan.*

Kalit so'zlar: *huquqiy madaniyat, huquqiy ong, fuqarolik jamiyati, huquqiy vijdon, siyosiy va huquqiy tizim.*

KIRISH

O'zbekiston xalqi intilayotgan ideal jamiyat asosini, undagi munosabatlar poydevorini yuksak ma'naviyat va ilg'or rivoj topgan siyosiy-huquqiy madaniyat tashkil etadi. Zero, huquqiy davlat va ma'rifiy jamiyatning huquqiy madaniyati ham shunga munosib bo'lishi lozim. Huquqiy madaniyat fuqarolik jamiyati ma'naviy kamolotining, davlatchilik rivoji va huquqiy tizim yetuklarining muhim ko'rsatkichi, undagi munosabatlarning mohiyatini ifodalovchi omil hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqning ma'naviy va madaniy qadriyatlarini qayta tiklash, o'z navbatida, belgilangan ezgu maqsadlar sari sabot-matonat bilan intilishni, hozirgi va kelgusida erishilishi mo'ljallanayotgan huquqiy ong va madaniyat darajasini chuqur tahlil etish hamda unga ilmiy asoslangan xolis baho berishni taqozo etadi. Shu bois, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishda huquqiy ong va madaniyatni yuksaltirish davlatimiz oldida turgan dolzarb masalalardan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Fuqarolarimiz huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularning siyosiy faolligini oshirishda ham Konstitutsiyaning o'rni va ahamiyati beqiyos ekanini alohida ta'kidlash joiz [1, b. 100].

Ayniqsa bir tuzumdan o'tib, yangi demokratik davlat barpo etish jarayoni benihoya murakkab ekanligi hamma boxabar bo'lgan holat. Murakkab o'tish davrida insonlar ruhiyatida, ongida jiddiy o'zgarishlar sodir bo'lib, unda eski qadriyatlardan voz kechish va yangilarini qabul qilish jarayoni yuz beradi va u og'riqli, o'tkir palladir. Rossiyalik taniqli huquqshunos olim V. S. Nersesyans ta'kidlaganidek, bu davrda, bir tomondan, odamlarda tezgina huquqiy ijtimoiy davlat qurish, insonlarni byurokratlashgan amaldorlarning hamda jinoiy tuzilmalarning o'zboshimchaligi va qonunni mensimasligidan himoya qila oladigan chinakam huquqiy tizimni yaratish imkoniyatiga nisbatan bo'lgan ishonch kamaya bormoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ikkinchi tomondan esa, bugungi huquqiy ongda hali rivojlanmagan, ko'p jihatlari bilan madaniylasha olmagan bozor g'oyasining ta'siri katta. Ayni paytda, shu narsa ayonki, ma'rifiylashgan bozor munosabatlari uchun rivojlangan individual huquqiy ong, huquqning insonlar tomonidan qadrlanishi, individning huquqiy madaniyatga asoslangan mustaqil harakatlar sodir etishga, o'zini-o'zi tartibga solishga qodirligi juda zarurdir" [2, b. 396–397].

Huquqiy ong tushunchasiga oid manbalar va fikrlar ko'pligiga qaramasdan, bu masalaga yondoshuvda muayyan noaniqliklar, turli fikrlar mavjudligi va ba'zan esa ularning bir-biriga zidligi holatini kuzatish mumkin. Shu bois, bugungi kunda huquqiy ong tushunchasi bo'yicha huquq nazariyasida aytilgan fikrlarni tanqidiy bir nazardan o'tkazib, ularda umumiylik va o'zgacha yondoshuvlarni aniqlashga harakat qilishimiz lozim.

Huquqiy ongga manbalarda berilgan ta'riflarga e'tibor qaratamiz: professor Z. M. Islomov huquqiy ongga shunday ta'rif beradi: "Huquqiy ongni mamlakat fuqarolarining ham amaldagi huquqqa, yuridik amaliyotga, fuqarolar huquqlari, erkinliklari, majburiyatlariga, ham orzu qilingan huquqqa va boshqa huquqiy hodisalarga munosabatini ifodalovchi huquqiy sezgilar, g'oyalar, baholar, tasavvurlar tizimi sifatida ta'riflash mumkin" [3, c. 537]. Bu ta'rifda huquqiy ong nimalar, ya'ni qanday omillar asosida shakllanishi masalasi e'tibordan chetda qolgan.

Professor Yu. A. Dmitrievning ta'rificha, "huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari, hislari yig'indisidir" [4, b. 547]. Ushbu ta'rifda huquqiy ongning muhim funksiyasi bo'lgan, Z. M. Islomov ta'kidlab ketgan baholash faoliyati e'tibordan chetda qolgan.

Rossiyalik huquqshunos olimi A. N. Golovistikovning huquqiy ongga bergan ta'rifi Y.A.Dmitrievning ta'rifi bilan bir xil, ya'ni "huquqiy ong bu insonlarning va ularning turli birliklarining hamda butun jamiyatning amaldagi huquq va huquqiy hodisalarga nisbatan qarashlari, g'oyalari, tasavvurlari, hislari yig'indisidir" [5, b. 658]. Bu ikki muallifning ta'rifi tasodifan aynan bir xil bo'lib, unda insonlarning kutilayotgan, xohlanayotgan, Z. M. Islomov ta'biri bilan aytganda "orzu qilinayotgan huquqqa" nisbatan munosabatlari hamda huquqiy ong shakllanishining omillari nazardan chetga qolgan.

R. A. Romashov va A.G.Indiklarning ta'rificha, "huquqiy ong insonlarning ijtimoiy hayotning yuridik ahamiyatli hodisalariga (amaldagi qonunchilikka, yuridik amaliyotga, insonlar va fuqarolarning huquq va erkinliklariga) nisbatan baholovchi ruhiy munosabatini ifodalovchi huquqiy tasavvurlari, qarashlari, g'oyalari, hislari, hayajonlari majmuidir" [6,b. 346]. Bu ta'rifda ham insonlarning kutilayotgan huquqqa munosabati hamda huquqiy ongni shakllantirish omillari e'tibordan chetda qolgan.

Ayni paytda, yuqoridagi ta'riflarning barchasida jiddiy yaqinlik mavjudligini e'tirof etish zarur. Shunday bo'lishiga qaramay, ushbu bayonetilgan ta'riflar ichida Z. Islomovning ta'rifi ushbu ijtimoiy hodisaning muayyan jihatlari batafsil qamrab olgan. Unda

insonlarning nafaqat amaldagi huquq balki, istalayotgan, “orzu qilinayotgan” huquqga nisbatan munosabati ta’kidlangan.

Yuqoridagilarga asoslangan holda, huquqiy ongga quyidagicha ta’rif berish mumkin: Huquqiy ong bu jamiyatning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadigan ijtimoiy ongning muhim bir tarkibiy qismi bo’lgan, insonlarning huquq, siyosiy-huquqiy hodisalar, yuridik amaliyot, huquqiy tizim va istalayotgan, kutilayotgan huquq haqidagi fikrlari, o’ylari, his-tuyg’ulari, qarashlari, iztirob-kechinmalari hamda baholari va tasavvurlari majmuasidir.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib aytganda jamiyatning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish yuzasidan davlatimiz rahbari Sh. M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “...qonun ustuvorligini ta’minlashda huquqiy madaniyatni yuksaltirish, fuqarolarni qonunga hurmat ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi” [13, b. 108]. O’z navbatida bu boradagi faoliyatni takomillashtirish qonunni hurmat qilish, huquqiy jamiyatning, siyosiy va huquqiy tizimlarning samarali faoliyatko’rsatishining asosiy talablaridan biri bo’lib qoladi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo’lini qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko’taramiz. 1-jild.-Toshkent.: “O’zbekiston”, 2017. –B.100.
2. Azizxo’jaev A.A. Davlatchilik va ma’naviyat. –Toshkent: Sharq, 2014. –B.97-98; Проблемы общей теории права и государства. –Moskva: Izd. Gruppya. NORMA-INFRA, 2014. – S.396-397.
3. Islomov Z.M. Davlat va huquq nazariyasi. –Toshkent: Adolat, 2017. –B.537.
4. Dmitriev Yu.A. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. / Hukumat va huquqlar nazariyasi. ostida. ed. Pigolkin. -Moskva: Yurayt-Izdat, 2016. -547-bet.
5. Golovistikova A.N. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat. / Davlat va huquq nazariyasi muammolari. - Moskva: EKSMO nashriyoti, 2015. - S. 658.
6. Davlat va huquq nazariyasi. ostida. ed. prof. R.A. Romashova. - Sankt-Peterburg: R. Aslanova nashriyoti. “Yuridik markaz matbuoti”, 2015. -S. 346.

VOLEYBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TEXNIK-TAKTIK HARAKATLARINI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI VA TEXNOLOGIYALARI

Meliboyev Azamat Abduraxim o'g'li

Jizzax Davlat pedagogika universiteti magistranti

Eshquvatov Abdumo'min Keldibek o'g'li

Jizzax Davlat pedagogika universiteti magistranti

Anqaboyev Dilmurod Baxtiyorovich

Jizzax Davlat pedagogika universiteti magistranti

Annotatsiya: *Voleybolchilarning texnik-taktik harakatlari va bajarilayotgan usullarning qanday aniq va maksimal tezlikda bajarilishi kerakligi haqida yetarlicha ma'lumotlar maqolada berilgan. Usullarning qanday darajada aniqlik bilan bajarilishi va uning bosqichma bosqich amalga oshirish tartibi keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *Texnika, taktika, usul, hujum, himoya, blok, sakrash, zarba, uchish, faza, maydon, zona.*

Voleybolchi faoliyati maydon bo'ylab harakatlanish, joy almashtirish, to'p qabul qilib olish va uzatish, to'pni o'yinga kiritib berish, hujum qilish va to'pni to'sish (blok qo'yish) kabi usullar yordamida amalga oshiriladi. Hujumdagi o'yin texnikasi maydonda harakatlanish va to'p bilan harakatlanish usullari yordamida amalga oshiriladi. O'yindagi hujum texnikasi harakatlanishi o'yinchining maydonda joy tanlashdagi harakatlari. Bunga harakatanish va chalg'ituvchi (aldamchi) harakatlar kiradi.

Holat - bu o'yinchining biror usul qo'llash uchun qabul qilgan boshlang'ich holati. Joy va harakat to'riga qarab, hujumchi qulayroq yuqori holatni qabul qiladi. To'pni qabul qilib olish va uzatish uchun o'yinchilar ko'pincha keyingi harakatga o'tish uchun puxta tayyorgarlik ko'rish imkonini beruvchi o'rta (asosiy) holatni qo'llaydilar. (Son va boldir orasidagi burchak bu holatda 130° ni tashkil qiladi). O'yinchining ilk holati va boshlang'ich harakatlari usul samaradorligiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Voleybolchining maydoncha bo'ylab harakatlari yurish, yugurish va sakrash kabi holatlarini o'z ichiga oladi. O'yinchi harakatlari boshida yurib, asosiy holatni qabul qiladi, bu o'nga to'pga aniq chiqishga va tana avvalgi holatiga qaytishiga imkon beradi. Ko'pincha voleybolchilar to'pga tezlik bilan intilishlariga to'g'ri keladi. Bunday harakatlar hujumkor zarba berish, sakrab to'p uzatish, blok qo'yish maqsadida qo'llaniladi. Ushbu yugurishda oxirgi qadam to'xtalish harakati bilan qo'llaniladi va bu to'pga aniq chiqish, ushbu usul qo'llanilib bo'lgandan so'ng tezda avvalgi holatga qaytish imkonini beradi.

Balandga sakray bilish voleybolchi uchun juda muhimdir. Sakrashning asosiy usuli ikkala oyoq yordamida deysinib sakrashdir. Ushbu usul hujumkor zarba, sakrab to'p uzatish, blok qo'yish kabi usullarning asosi hisoblanadi. Ikki oyoqlab sakrash usuli voleybolchi joyidan turib yoki qisqa masofadan yugurib kelib amalga oshirishi mumkin.

To'xtatuvchi harakatning bajara turib, voleybolchi oxirgi qadamni yugurishining gorizontaal tezligini tikka iloji boricha balandroqqa sakrashga aylantira bilishi lozim. Uning uchun u oldinga qo'yilgan oyog'iga suyanib, ikkinchi oyog'ini qo'yadi. Qo'llar bilakdan bukilgan holda orqaga yo'naltirilgan bo'lishlari lozim. Keyingi jonli harakat bilan qo'llarni oldinga tepaga yo'naltirgan holda, tanasi va oyoqlarini bukkan holda, yerdan deysinib sakraydi.

To'pni tepadan, yondan va pastdan o'yinga kiritish. Bu usul to'pni o'yinga kiritishning eng faol usuli. Boshlang'ich holat o'yinchi to'rga yoni bilan turadi oyoqlar bir chiziqda yelka kengligida bo'ladi. To'p chap yelka oldida yuqoriga otilib, bir vaqtning o'zida o'ng qo'l tushiriladi va tana o'ng oyoq tomon egiladi. To'p pastlay boshlashi bilan zarba beruvchi harakat boshlanadi: oyoqlar bukilib, tana to'g'rilanadi, qo'l yoysimon harakat bilan pastdan tepaga zarba beradi. Zarba kuchi oyoqni birdan to'g'rilash, tana og'irligi va tanani zarba tomon egish hisobiga oshiriladi. To'pni tepadan kiritib berish zarbasining kuchi shuningdek, o'yinchining oldindan yugurib kelishi va qo'l siltash kuchi hisobga ham oshirilishi mumkin. To'pni uzatish usuli o'yinchilar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlaydi. Qo'llarning boshlang'ich holati va bukilishiga qarab yuqoridan yoki pastdan to'p uzatilayotganligini aniqlash mumkin. To'pni yuqoridan uzatish usulidan ko'proq to'roidan hujumkor zarba berish maqsadida foydalaniladi. Bu usul o'yinchidan o'z vaqtida va aniq chiqib borishni talab etadi va to'p uzatish uchun qulay joyini, holatni tanlay bilish zarur bo'ladi. Bunda oyoqlar tizzadan bukilgan va yelka kengligida qo'llar bukilgan va oldinga uzatilgan, bo'g'inlar orqaga olingan bo'ladi. To'pni uzatish oyoqlar, qo'llar va tanani to'g'rilashdan boshlanadi. (To'p tezligini kamaytirish va to'pni to'g'ri yo'naltirish uchun). To'p uzatishda katta ko'rsatgich va o'rta barmoqlar muhim ro'l o'ynaydi. Barmoqlarning egiluvchan harakati to'pni to'g'ri yo'naltirish imkonini beradi. O'yinchi to'p uzatish xarakteri o'z harakatlarini doimiy ravishda o'zgartirib turishi lozim. Masalan, to'p uzatish katta masofaga amalga oshirilsa, tana va oyoqlar jonliroq to'g'rilanishi lozim. Sakraganda to'p uzatish hujumini tezlashtirish va raqib blokini dog'da qoldirish maqsadida amalga oshiriladi. Uni joyida yoki qisqa masofadan yugurib kelib bajarganda qo'llar faol yozilish lozim. «Yopiq» to'p uzatish usullaridan bir to'pni boshi uzra oshirib, orqaga uzatish. So'nga to'rga qo'llar tekkan chog'da, tana va bosh sal orqaga egilgan bo'lishi lozim. Ushbu usulni sakrab turib bajarganda hujum uchun yaxshi imkoniyat paydo bo'ladi. Hujumkor zarba. Zarbaning asosiy usuli hisoblanadi. Ushbu zarba kombinatsiyani tugallash vaqti ochko yutish yoki to'pni o'yinga kiritish huquqini qo'lga kiritish maqsadida amalga oshiriladi.

Hujumkor zarbaning ikki to'ri mavjud: to'g'ridan va yonlama hujumkor zarabalar. Hujumkor zarbaning har qanday yo'nalishida va maksimal kuch bilan bajarish mumkin. Mazkur zarbani berish quyidagi bosqichlardan iborat: yugurib kelish, sakrash, zarba beruvchi harakat va yerga tushish. Ko'p hollarda ushbu zarba ikki-uch qadam tashlagan holda beriladi. Oxirgi qadam katta tashlanishi lozim. Sakrash vaqtida harakatlar mutanosibli, ayniqsa, yerdan siltanish chog'ida muhim. Zarba tanani burish va qo'lni oldiniga harakatlantirish bilan beriladi. Zarba kuchi to'pni yuqoridan berkituvchi qo'lning

yakuniy harakatiga bog'liq. Zarba to'pga pastdan oldinga qarab beriladi. Zarba bergandan so'ng o'yinchi sal bukilgan oyoqlariga yumshoqqina tushadi, tana va yelkalar bo'shashgan holatda bo'ladi.

Yonlama hujumkor zarba. To'r oldida o'tkir burchakdan beriluvchi eng unumli zarba hisoblanadi. Qo'l siltanganda tana zarba beruvchi qo'l tomon yegilib, qo'l pastga yonga tushiriladi. O'ng qo'l zarba berilganda tana to'g'rilanib, yelkalar chapga buriladi, chap qo'l tushirilib, o'ng qo'l yoysimon harakat bilan to'pga yo'naltiriladi. Zarba chog'ida qo'l to'g'ri bo'lishi lozim. Malakali voleybolchilar yonlama zarbani tanani burgan holda amalga oshiradi.

Voleybol texnikasining boshqa sport o'yinlarinikidan asosiy farqi — o'yin harakatlarining jamoaviyligida bo'lib, jamoa bo'lib harakat qilishini o'yinning asosiy qoidalari talab qiladi, chunki bu qoidalar o'yinchidan to'pni ko'p ushlab to'rmasdan tezda himoyadan hujumga (yoki aksincha) o'tishni talab qiladi. Himoya taktikasi hujum taktikasidan farq qiladi.

Hujum taktikasi. Hujumda jamoa bo'lib harakat qilish bu o'yinning ma'lum bir tizimi. Jamoaning asosiy vazifasi- to'p uzatish yoki ochko olish uchun imkon yaratishi quyidagicha hujum to'rlari mavjud: birinchi chiziq o'yinchisining ikkinchi to'p uzatishidan so'ng hujumga o'tish, orqa chiziq chiquvchi o'yinchining ikkinchi to'p uzatishidan so'ng hujumga o'tish va birinchi to'p uzatishidan so'ng zarb berishga yo'naltirilgan hujum. Birinchi chiziq o'yinchisining ikkinchi to'p uzatishidan so'ng hujumga o'tish. Bu hujumda to'p oldidagi sherigi to'p uzatgandan so'ng ikkita o'yinchi ishtirok etishi ko'zda tutiladi. Hujumning bu usuli oddiy bo'lib, to'pni qabul qilib olish va hujumkor zarba berish chog'ida o'yinchilar o'zaro harakatlarining ishchonchiligini oshirishga omil bo'ladi. Ushbu usulning kamchiligi barcha taktik kombinatsiyalar yakunida faqat ikkita o'yinchi ishtirok etadi. Bu esa tarkibga ustunlik qilish imkonini beradi. Ushbu hujumning uch xil turi mavjud: 2-zona orqali, 4-zona o'yinchisi orqali. Birinchi ikkita variant asosiy hisoblanib turli toifadagi voleybolchilar tomonidan keng qo'llaniladi, uchinchi variant esa kamroq qo'llaniladi. 4- zonada to'p uzatuvchi to'rgan vaqtda 4 va 3-zona o'yinchilari joy almashadilar. O'yindagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan birinchi va ikkinchi chiziq o'yinchilarining kelishgan harakatiga bog'liq.

Guruh bo'lib harakat qilish. Hujum chizig'ining kombinatsiyalari to'p uzatish balandligi, tezligi, masofasiga qarab o'zgartirgan holda, shuningdek, hujumchilarning joy o'zgartirishlari, aldamchi harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Hujumni zarba berish bilan yakunlaydi. 4 —zona o'yinchisi uzun to'p uzatishdan so'ng zarba berish uchun hozirlik ko'radi. Bu hujum to'ri uchun «Eshalon» kombinatsiyasi xos. Bunda 4- zona o'yinchisi hujum qilayotgandek 3 —zona harakat qikidi. 2-zona o'yinchisi uz xonasida zarba berishga tayyorlanadi, hujumni esa 3 - zona o'yinchisi bevosita sherigi orqasida turib yakunlaydi. Birinchi to'p o'z o'tishdan so'ng hujumga o'tish. Bu hujumning keyingi usuli hisoblanadi. Shu bilan birga vaqtda, Ushbu usullni qo'llab jamoa sur'atini o'stirish va hujum kutilmaganda uyushtirilishi evaziga yuqori samaradorlikka erishish mumkin.

Hujumning qiyinligi to'pni zarb berish uchun aniq uzatib berish zarurligida. Hozirda uzatilayotgan to'plarni qabul qilib olishning qiyinligini ushbu hujumni muntazam qo'llashni cheklab qo'ymoqda. Ushbu hujumda hujumchilar hujum chizig'ida joylashadilar. Mazkur joylashuv qisqa masofadan yugurib kelib muvaffaqiyatli yakunlash imkonini beradi. Shuningdek, hujumning barcha zonalariga xatosiz to'p uzatishni kafolatlaydi. To'p chetidagi kombinatsiyalar nisbatan oddiy hisoblanadi: 1-2-zonadagi hujumchiga yo'nalgan birinchi to'p uzatish. Ushbu hujumchi to'p tomon siljiydi va qo'yilgan raqib to'sig'iga qarab hujum qilish (bitta raqib to'p yo'lini to'sganda) yoki to'pni 3 yoki 4 — zonadagi sheriklariga uzatish (2 ta raqib to'p yo'lini to'sganda) qarorini qabul qiladi, 4 —zona o'yinchisi agar birinchi to'p o'nga uzatilgan bo'lsa xuddi shtmday harakat qiladi. 2. Uchinchi zona o'yinchisining boshi uzra uzatilgan to'pga 2 —zona yugirib kirishi. Birinchi to'p 2 va 3 —zonalar oralig'iga yo'naladi. 2 — zona hujumchisi zarba berish uchun siljiydi va sakrab, ikkitalik to'siq bo'lganda to'pni boshi uzra orqaga yoki 4 —zonaga uzatadi. Agar hujum chizig'idagi 3 —zona o'yinchisi chapaqay bo'lsa, ushbu kombinatsiyani 4 — zonada muvaffaqiyat bilan qo'llash mumkin. Hujumkor zarba taktikasi — hujumni hal qilishning asosiy vositasi. Raqiblar to'sig'i hujumchidan, jismoniy — texnik taktik, ruhiy tayyorgarlikni talab qiladi. Yakka taktika zarba kuchi emas, uning kutilmaganda berilishi asosida tashkil etiladi. Hujumchi texnik jihatdan mahorati, u turli o'yin vositalaridan osonlikcha chiqib keta oladi. Hujum yo'nalishini aniqlay turib, hujumchi raqib maydonchadagi vaziyatni tezda to'g'ri baholab, hujumning samarali usulini tanlay bilishi lozim. Chekka zonalarda harakatlana turib, u kuchli zarbalar, qiyshiq zarbalarni qo'llaydi. (4 — zonadan, 4 —zona bo'ylab, 2 —zonadan, 2 —zona bo'ylab) to'p markazda hujumchi qiyinroq — tanani burib aldamchi, to'p uzotganday qilib zarba berish usullarini qo'llaydi. Yakka harakatlar. O'yinda muvaffaqiyat qozonish uchun to'pni o'yinga kiritish, o'z o'tish hujumkor zarba berishni qo'llagan holda harakatlanish maqsadga muvofiq. Hujumdagi yakka taktik harakatlarning samaradorligi o'yinchi faolligiga, tashabbuskorligi maydonni ko'ra bilish, o'yindagi vaziyatni to'g'ri baholab, o'z vaqtida kerakli qarorni qabul qila olishga bog'liq. Joy tanlay bilish voleybolchi taktik faoliyatining asosi. Hujumkor zarbalarning samarasi to'g'ri tanlangan joyga bog'liq. Ikkinchi to'p uzatish uchun joy tanlab turib, o'yinchi o'z jamoadoshlari va to'siq qo'yuvchi raqiblari turgan holatini yaxshi ko'ra bilish va doim to'p qabul qilishi chog'ida yo'l qo'ygan xatoni tuzatishga tayyor turishi lozim. Hujumkor zarbalarga tayyorgarlik harakatlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, tayyorgarlik holatini qabul qilish va zarba berish holatlarini o'z ichiga oladi. Hujum ikkinchi to'p uzatishdan so'ngra uyushtirilayotgan vaqtda hujumchi to'pdan 4-5 m uzoqlikda, iloji boricha uzoqroqdan yugurib kelib, zarba berishi lozim. Birinchi to'p uzatishdan so'nggi hujumda chekka zonalar (4 va 2) hujumchilari hujum chizig'ida turishi lozim.

To'pni o'yinga kiritish taktikasi. Ko'proq to'pni o'yinga kiritish usuli qo'llaniladi. Bu usulda voleybolchi usulni kuchli va aniq zarba bilan raqib maydonidagi bo'sh, bunday to'pni qabul qila olmaydigan o'yinchi tomoniga yo'llashga harakat qiladi. Ushbu zarba raqib uchun kutilmagan bo'lsa muvaffaqiyat keltiradi.

To'p uzatish taktikasi: Ushbu usulni qo'llay olish tufayli hujum samaradorligiga erishish mumkin. Usulni qo'llayotgan o'yinchining asosiy maqsadi — sherigi uchun taktik kombinatsiyani davom ettirish yoki hujumni yakunlashga sharoit yaratib berish, shuningdek, raqib holatini qiyinlashtirishdir. To'p uzatayotgan o'yinchi o'z jamoadoshlari va raqiblari o'yinini diqqati bilan kuzatib to'pni yakuniy zarba berish uchun qulay vaziyatda turgan sherigiga uzatadi.

Jamoa harakatlari. Jamoani himoya harakatlari ikki yo'nalish bo'yicha amalga oshiriladi: kuchli, hujumkor zarbalarni to'sish va to'p o'yinga kiritilgandan so'ng uni qabul qilib olish, himoyachilar vazifasi to'pni o'z maydonchalariga tushirmaslik va qarshi hujumlar uchun sharoit yaratish. Jamoa taktikasi asosini raqib hujum vaqtida olti o'yinchining maydonchada joylashuvi tashkil etadi. Quyidagi joylashuv to'rlari mavjud: ikki himoyachi — 2 — 2 — 2 uch himoyachi — 2 — 1—3 va aralash himoya tizimi. Ikki himoyachi tizimi b —zona o'yinchisining oldinda turishi to'siq qo'yuvchilarni qo'llab turish, himoyada hujumga o'tish sharoitini ta'minlaydi. Ushbu himoya qo'llanganda quyidagi holatlar yuzaga keladi. 1. raqib 4 —zonadan hujum qilayapti. Bunda 3 va 2 — zona o'yinchilari to'siq qo'yib, to'pning asosiy yo'nalishini to'sadilar. 4 —zona o'yinchisi turganda hujum chizig'iga siltab, qiyshiq berilgan hujumkor raqib zarbasini qabul qilishga tayyor turadi. 5 —zonaning asosiy o'yinchisi to'siq bilan himoyalangan hududga siljib yo'llanma va sheriklari to'sig'idan qaytgan to'pni qabul qilishga tayyor turadi. Birinchi zona himoyachisi yon chiziq yonida harakat qiladi. Oldinga siljib u chiziq bo'ylab va o'z hududiga berilgan zarbalarni qabul qilishga tayyor turadi. Hujumkor zarba 2 —zonadan berilayapti. To'siqni 3 va 4 —zona himoyachilari qo'yadilar. Boshqa o'yinchilar maydoncha bo'ylab joylashib variantdagidek haraktlanadilar. Uch himoyachi tizimi: (2— 1—3) Ushbu usul hozirgi kunda to'siq ustida zarba bera oluvchi baland bo'yli, kuchli voleybolchilar ko'payganligi bois qo'llanilmoqda. Usulning o'ziga xosligi orqa chiziqda uch himoyachi joylashishidir. Bunday joylashuv kuchli hujumkor zarbalarni yaxshilaydi, lekin to'siq va markaz zaiflashib koladi. Bu himoyada 3 xil qo'llash usuli mavjud: -chekka himoyachi tomonidan qo'llash; -to'siq qo'yishda ishtirok etayotgan birinchi chiziq o'yinchisi tomonidan qo'llash; -aralash qo'llash. Guruh bo'lib himoyada harakadanish. Himoyachilarning o'zaro hamjihat harakatlanishi. Hujumkor zarbami qabul qilib olish sifatida himoyachining turli zonalarda o'ynay olish va to'siqsiz, to'siq ustidan o'tgan hujumkor zarbami qabul kila olishiga bo'lib. Bu doimiy diqqat, texnik mahorat va o'zaro kelishib o'ynashni talab etadi. Himoyani kuchaytirish uchun o'yin vaqtida zonalarni almashish foydalidir.

To'siq qo'yish va o'zaro harakatlar. Guruh bo'lib to'siq qo'yishning asosiy shakli bu ikkitalik to'siqdir. Guruh bo'lib to'siq qo'yish taktikasi asosiy va yordamchi to'siqchilarning harakatli va yordamchi zona to'sig'ini qo'yishdagi o'zaro harakatlaridan iborat. Asosiy to'siq qo'yuvchi vazifasi koptok 3-zona himoyachisiga yuklatiladi. Yordamchilar bo'lib 4 va 2 — zona o'yinchilari turishadi. Bunday taktika to'pni sekin o'yinga kiritish va yuqoridan

hujum taktikasi javob beradi. Tez va kombinatsiyali o'yinda kuchli to'siqlar chekka zonalarda joylashadilar, to'p markazida faol to'siqchi harakatlanadi.

- asosiy to'siqchi to'siqni tayyorlash uchun javobgor bo'lib, zarbaning xavfli yo'nalishini to'sadi. U sakrash vaqti va joyini aniqlaydi, qo'llarni to'siq uchun qo'yish usulini tanlaydi va sherigi harakatini boshqaradi. Yordamchi to'siqchi o'z qo'llarini asosiy to'siqchi qo'llari yoniga qo'yib, zarba yo'lini to'sadi;

- himoyachilarning to'siqchilar bilan o'zaro harakati. Ushbu harakatlar tanlangan himoya tizimiga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda to'siqchilarni qo'llashda ikkita asosiy (himoyachi), yordamchi (to'siqchida ishtirok etuvchi hujumchi) ishtirok etadi. Uchtalik to'siq chog'ida uchinchi to'siqchi harakatlari butun hujum chizig'i bo'ylab kengayadi.

- qo'llovchilarning o'zaro harakatlari to'siq vaqtida, o'yinga kiritilgan to'pni, hujumkor zarbani qabul qilib olish chog'ida kuzatiladi. O'yinni qabul qilib olingan to'pni qabul qilishda ushbu to'pni qabul qilmaydigan o'yinchilar qo'llaniladi;

- bu hollarda ushbu o'yinchi joylashgan zona to'siladi. Bunda noto'g'ri qabul qilingan to'pni o'yinga qaytarish muhim. Hujumga o'tish vaqtida zonasidan hujumkor zarba berayotgan o'yinchi qo'llaniladi.

Yakka harakatlar. Joy tanlash, himoya harakatlari samarasi o'z vaqtida, to'g'ri joy tanlay bilish va himoyalash usullarini samarali qo'llashga bog'liq. Joyni to'g'ri tanlay bilish o'z sheriklari va raqiblari joylashishini kuzatish, to'p tezligi va kuchini aniqlay bilish mahoratini talab etadi. To'p tomon siljib, o'yinchi o'z harakat zonasi, jamoasi taktikasi va himoya bo'yicha sheriklarini imkoniyatlarini aniq tasavvur qila bilishi lozim. O'yinga kiritilgan to'pni qabul qilib olish o'yindagi eng ma'suliyatli jarayondir, chunki har qanday xato ochko yo'qotishiga olib keladi. Shu bilan bir vaqtda qabul qilishning sifatligi jamoani samarali hujumiga sabab ham bo'lishi mumkin. Shuning uchun qabul qiluvchi to'p yo'nalishi, kuchini aniqlay bilishi, to'g'ri joy tanlashi lozim. Shu bilan birga u o'z harakatlari bilan jamoadoshlariga halal bermasligi lozim. Hujumkor zarbalarni qabul qilish himoyachidan chaqqonlik va yaxshi moslashuvchanlikni talab qiluvchi qiyin usuldir. Himoyachi buning raqib hujumi chog'ida uning harakatlarini kuzata turishi lozim. Zarbani qabul qilish usuli va joyini tanlay turib, himoyachi vazifasini hisobga olishi lozim. Tanlangan joy himoyachiga to'p va raqib hujumchisi harakatlarini kuzatish imkonini berishi lozim. Asosiy vazifadan tashqari himoyachi zarbani yaxshi qabul qilib olgan chog'da to'pni o'z hujumchilariga uzatish kerakligini unutmasligi lozim.

Hujumkor zarbalarga o'rgatish-bu voleybolchilarni o'qitishning eng murakkab usullaridan biri. Ushbu zarbani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun voleybolchi tezlik, jismoniy kuch, chaqqonlikka ega bo'lishi lozim. Hujumkor zarbani o'rganishning birinchi bosqichida yugurib kelish va zarba berish uchun sakrash, yerga tushish holatlari alohida o'rganiladigan usul qo'llaniladi. Buning uchun tayyorlovchi mashqlar qo'llaniladi. Barcha mashqlar yugurib kelish sur'atiga yo'naltirilgan. Bir vaqtning o'zida zarba beruvchi harakatlari soddalashtirilgan variantda mashq qilinadi. To'g'ridan beruvchi hujumkor zarbani 4, 2, 3 - zonalarda yuqori o'rtacha va qisqartirilgan to'p uzatishlar yordamida

takomillashtirishni raqibni asta-sekin kuchayib borayotgan qarshiligida taktik vazifalarini yechgan holda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Hujumkor zarba berishdagi hatolar. 1. Kechikib va noto'g'ri yugurib kelish. 2. Yerga chuqur o'tirish va sekin siltanish. 3. Zarba kuchsizligi, bukilgan qo'l bilan zarba berish. To'siq qo'yishga o'rgatish usuli. Ushbu usulni o'rgatish bittalik to'siq texnikasini egalashdan boshlanadi. Yosh sportchi to'r yonida tez harakatlanishi sakrashi, qo'llarini yozib to'siq qo'yish usullarini egallaydilar. Shu bilan birga yakka texnika zarbaga uzatiluvchi to'p yo'nalishini aniqlash joyni to'g'ri tanlash o'z vaqtida sakrab qo'llarni to'siq etish usullari o'rgatiladi. Shu maqsadda quyidagi mashqlardan foydalanish mumkin: 1. To'p ortida shaxdam siljib to'siq qo'yayotgandek harakat qilish. 2. Xuddi shu mashq faqat qimirlamasdan to'pga to'siq qo'ygan holda. 3. To'p ustida oldindan belgilangan yo'nalishda oshirilgan holatda uzatish. 4. Turli zonalarda yuqori o'rta qisqartirilgan to'p oshirishlardan so'nggi turidan beriluvchi hujumkor zarbalarni to'sish. 5. Turli zonalarda yuqori oshirishlardan so'ng 5 -zonada hujumkor zarbalarini to'sish. Ushbu kamchiliklarni tuzatish muntazam ishlashni va buning uchun mashqlar tanlab olishni talab qiladi. Murabbiy, o'yinchidan o'yinni, vaziyatni tez va to'g'ri baholay olishni talab qilishi lozim. Ikkinchi guruh holatlarini tuzatish usuli to'siq qo'yuvchining sakrash va qo'lini to'siq qilish texnikasi bilan bog'liq. U o'z navbatida yerdan siltanish oldidan boshlang'ich holat va qo'l oyoq tananing faol ishlashiga bog'liq. To'g'ri oyoqda turish va to'g'ri turgan tana sakrash balandligi va to'siq sifatini ancha pasaytiradi. Bu holatlarni bartaraf etish uchun to'p bo'ylab harakatlangan holda sakrash va to'p ishtirokidagi maxsus mashqlardan foydalaniladi. O'yinchining butun diqqat-e'tibori sakrash va qo'llarini to'siq uchun qo'yish chog'idagi aniq va o'z vaqtidagi harakatlarga qaratish lozim. Jamoa va guruh taktikasiga keyingi o'qitishni takomillashtirish jamoa tarkibida musobaqalar jarayonida amalga oshiriladi.

Xulosa: Voleybol o'yinining bunday texnik-taktik harakatlarining to'g'ri va aniq bajarilishi o'yin shiddatini keskin jadallashtiradi, o'yinchilar faolligini oshiradi, tomoshabinlar qiziqishini kuchaytiradi. Alohida shuni ta'kidlash joizki, musobaqa qoidalarining tubdan o'zgarishi o'yin mazmunini yanada boyitdi, o'yin usullarining tamomila yangi avlodlarini vujudga kelishiga asos bo'ldi. Jumladan, himoya zonalaridan zarba berish diagonal sakrash sifatini o'zlashtirish zarurligiga e'tibor qaratdi, «libero» o'yinchisini ta'sis etilishi himoyani yanada kuchaytirdi, yugurib kelib sakrab to'p kiritish hujumkorlik sur'atini oshirdi va hokazo. Ushbu o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan yangi o'yin elementlari, maxsus sifatlari, harakat usullari o'quv-trenirovka mashg'ulotlari mazmuniga yangicha yondoshish, tarkibiga yangi mashqlarni kiritish va mashg'ulot-musobaqa birligini ta'minlash muhimligini belgilaydi. Bunday zaruriyat so'nggi yillarda olingan rasmiy ma'lumotlarga asoslanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Pulatov A.A. Voleybolning rasmiy qoidalari. O'zDJTI nashriyot-matbaa 27 bo'limi. T.: 2002. - 53 b.
2. Pulatov A.A., Isroilov Sh.X., Qurbanova M.A. Voleybol. // JTI II kurs talabalari uchun ixtisoslik fanidan ma'ruza matnlari. T.: 2003. - 44 b.
3. Pulatov A.A. Voleybol. //JTI I kurs talabalariga mo'ljallangan ma'ruzalar to'plami. T.: 2004. - 71 b.
4. Pulatov A.A., Israilov Sh.X. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. //O'quv qo'llanma. T.: 2007. – 148 b.
Diniy ekstrimizm va terrorism o'zi nima? Bu savolga hamma har xil javob beradi. Chunki hammaning o'z dunyoqarashi, ongi, fikrlash doirasi har xil bo'ladi. Men bu ikki so'zni eshitganimda ko'z oldimga islom dinini niqob qilib, dinimizga zid bo'lgan g'oyalari bilan qabih niyatlarini musulmonlar orqali amalga oshiruvchi kimsalar keladi. Yana bilib-bilmasdan bu yo'lga kirib qolganlardan foydalanib, ularni hech kimni tan olmaydigan, faqat ularning g'oya va mafkuralariga bo'ysunadigan, hatto o'z ota-onasidan voz kechtiruvchi manqurt qilib tayyorlaydigan kishilar yoki kishilar jamoasini tushunish mumkin.

Fan nuqtayi nazaridan ekstremizm va terrorism so'zlariga ta'rif beradigan bo'lsak, ekstremizm (lotincha extremus-o'ta) - ijtimoiy-siyosiy xarakterdagi muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-qarashlarni yoqlovchi nazariya va amaliyotdir. Ekstremizm tushunchasi muayyan sharoitda, biron-bir g'oya yoki tamoyilga qat'iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni, boshqa sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko'r-ko'rona qo'llashga urinishdir. Diniy ekstremizm esa

bu har qanday dinning teskari uslubda namoyon etilishi, boshqa din yoki mazhab vakillariga nisbatan murosasizlik, noto'g'ri talqin etilgan diniy aqidalardan siyosiy qurol sifatida dunyoviy davlat va konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qo'llash, diniy nizo va qarama-qarshiliklar keltirib chiqarish orqali davlat suvereniteti va hududiy daxlsizligini buzish yoki davlat hokimiyatini kuch bilan egallash yoxud mavjud tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishdir. "Terrorizm" atamasi esa (lotincha. terror – qo'rquv, dahshat) – ma'lum yovuz maqsadlar yo'lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo'q qilishdan iborat bo'lgan g'oyaga asoslangan zo'ravonlik usuli. Terrorizm – terror bilan amalga oshiriladigan siyosiy harakat bo'lib, bir necha asrlar oldin shakllangan, geografik jihatdan barcha mintaqa va mamlakatlarda uchrashi mumkin bo'lgan murakkab hodisa hisoblanadi. U xalqaro munosabatlarni chigallashtirish, suverenitet va hududiy yaxlitlikni buzish, davlatlarning xavfsizligiga rahna solish, urush va qurolli to'qnashuvlar keltirib chiqarish, ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, aholini qo'rqitish yoki qasos olish maqsadida jismoniy yoki yuridik shaxslarni biror bir faoliyatini amalga oshirishga yoki amalga oshirishdan tiyilishga majburlash uchun qilmish ko'rinishida yoki uni amalga oshirish bilan qo'rqitish tarzida oshkora sodir etiladigan, shaxsga yoki mulkka xavf tug'diradigan harakatdir. "Xalqaro terrorizm" tushunchasi esa davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U og'ir jinoyatlardan bo'lib, uzoq davom etgan jarayonlarning hosilasi hisoblanadi. Umuman olganda terrorizm siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy jinoiy maqsadlarda aholini qo'rqitish hamda davlat, hokimiyat va boshqaruv organlariga ruhiy tazyiq o'tkazishga qaratilgan zo'ravonliklar sodir etishda u yoki bu dinni, mazhabni o'ziga niqob qilib oladi. Qo'rqitish va dahshatga solish orqali o'z hukmini o'tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g'oyaviy, irqiy, milliy, gruppaviy, individual shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Ta'qib, zo'ravonlik, qo'poruvchilik va qotillik terrorchilikning har qanday ko'rinishi uchun umumiy xususiyat bo'lib, gumanizm, demokratiya, adolat tamoyillariga ziddir. Shuning uchun terrorizm qanday "bayroq" ostida amalga oshirilmasin, mohiyatan insoniyatga, taraqqiyotga, ezgulikka qarshi jinoyatdir. Iqtisodiy manfaatlarni ko'zlovchi va moddiy boyliklarni o'zlashtirishni maqsad qilib olgan terrorchilik keng tarqalgan. Unda raqiblarini yoki ularning yaqinlarini jismoniy yo'qotish, o'g'irlab ketish, zo'ravonlik, tajovuz bilan qo'rqitib, o'z hukmini o'tkazishga urinish, boyliklarini o'zlashtirib olish yo'llaridan foydalaniladi. Keyingi yillarda intellektual va ommaviy axborot sohalarida terrorchilik elementlaridan foydalanilmoqda. Muayyan mafkuraviy poligonlarning muttasil tarqatayotgan axborotlaridagi yovuz va zararli g'oyalar oqimi, teleekranlar orqali doimiy namoyish etiladigan jangari filmlar, bolalarga mo'ljallangan, buzg'unchi g'oyalar asosida ishlangan o'yinlar, kompyuter tarmoqlari dasturlarini ishdan chiqaradigan "viruslar"ni tarqatish bunga misol bo'la oladi. Shu o'rinda Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning "Bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega" – degan so'zlari yodimga tushdi. Darhaqiqat, bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tazyiq bo'lsa, buni sezish,

ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tazyiqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab yetish nihoyatda qiyin. O'zlarining yovuz niyatlariga erishish uchun hokimiyatni qo'lga kiritishni ko'zlovchi kuchlarning zo'ravonligi va qo'poruvchiligi siyosiy terrorga misol bo'ladi. Siyosiy terrorism nafaqat jinoyatchi guruhlar, hatto ba'zi reaksion agressiv ruhdagi rasmiy siyosiy doiralar va kuchlar tomonidan uyushtirilishi va qo'llanishi ham mumkin.

Ekstremizm mazmuniga ko'ra - diniy va dunyoviy, namoyon bo'lishiga ko'ra-hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Ekstremistik qarashlar juda chuqur ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan. Dunyoviy ekstremizmning siyosiy, iqtisodiy, mafkuraviy ko'rinishlari mavjud bo'lgani holda, diniy ekstremizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstremistik ruhdagi qarashlarni katoliklar, protestantlar, provoslavlar orasida ham uchratish mumkin. Bunday holat sobiq sho'rolardan qolgan makonda ham kuzatildi.

Diniy ekstremizm islom olamida ham keng tarqalgan. Diniy ekstremistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi islom davlatini barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali, ya'ni qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

Bu esa, mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lda ular eng jirkanch usullardan foydalanadilar. Terror – lotin tilidan olingan bo'lib, qo'rquv, dahshat degan ma'noni anglatadi. Terrorism – aholini qo'rqitish hamda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga tazyiq o'tkazish orqali jinoiy, siyosiy, mafkuraviy va shaxsiy maqsadlarni ko'zlash jarayonidir.

Terrorizm olamida 3 ta asosiy ko'rinish bor:

1. Terrorchilik harakatlarining jangarilik yo'li (qurol ishlatish yo'li).
2. Jinoiy yo'li.
3. Ijtimoiy-siyosiy yo'llar bilan amalga oshirishdir.

Terrorchi va diniy ekstremistik guruhlardan tashkil topgan mazkur jinoiy tashkilot o'z g'oyalariga ergashmagan insonlarni ommaviy ravishda o'ldirib, aholi punktlarida hamda jamoat joylarida jangarilar tomonidan o'z joniga qasd qilish yo'li bilan o'zini portlatib, tinchlik va xavfsizlikka, insonlarning hayoti va sog'lig'iga qarshi o'ta og'ir jinoyatlarni sodir etmoqdalar.

Terrorizm xavfsizlikka va ijtimoiy–siyosiy barqarorlikka doim tahdid soladi. Unga qarshi kurash olib borishda siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, mafkuraviy va qolaversa maxsus chora-tadbirlar ko'rilishi lozim. Bu kurashning muhim elementi – bu terrorismning oldini olishga qaratilgan harakatlardir. Bu masala mamlakatimiz uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Terrorchilik harakatlari, ya'ni odamlarni garovga olish, davlat va jamoat arboblari, diniy yoki boshqa guruhlar hamda xorijiy davlatlar va tashkilotlar vakillarining hayotiga tahdid solish, yirik obyektlarni egallab olish, portlatish, odamlarning sog'lig'iga, hayoti va mulkiga tahdid solish kabi harakatlar mamlakat tinchligiga putur yetkazadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ekstremizm va terrorizm insoniyat bilan birga XXI asrga kirib kelgan eng xavfli ijtimoiy illatlardan biriga aylandi. Ekstremizm bag'rikenglik, rang-baranglik va hamfikrlilikni rad etishi bilan mamlakat taraqqiyoti va fuqarolararo hamjihatlikka rahna soladi. O'zbekiston ekstremizm va terrorizm tahdidlari va zararlarini boshidan kechirgan mamlakat hisoblanadi. Yurtimizda ushbu illatlarga qarshi kurashish, uning sabablarini oldini olish bo'yicha jahon hamjamiyatiga namuna bo'la oladigan darajada o'ziga xos tajriba shakllangan. mintaq va umuman dunyodagi vaziyatning murakkabligiga qaramay, mamlakatimizning yangi islohotlar va rivojlanish davrida Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirib kelinayotgan oqilona ichki va tashqi siyosat hamda xalqimizning kuchli irodasi, mehnatsevarligi, bag'rikengligi va ma'rifatparvarligi tufayli mamlakatimizda tinchlik va barqarorlik ta'minlanib kelinmoqda. Shunday ekan, yurtimizda hukm surayotgan tinch va osuda hayotni asrash, uning mustaqilligi va barqarorligiga munosib hissamizni qo'shish – har birimizning, shu aziz Vatanda yashayotgan turli millat va din vakillarining eng asosiy vazifalaridan bo'lmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusamedov A.E. Dinlar tarixi. - Toshkent: O'zMU, 2004. -208 b.
2. Ochildiyev A. va boshqalar. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). - Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot matbaa birlashmasi, 2013.
3. Xasanov A. va boshqalar. Islom tarixi (Darslik). - Toshkent: Toshkent islom universiteti matbaa-nashriyot birlashmasi, 2008.
4. Mo'minov A. va boshqalar. Dinshunoslik. - Toshkent: "Mehnat" 2004.
5. Yo'ldoshxo'jayev X., Rahimjonov D., Komilov M. Dinshunoslik. - Toshkent: ToshDShI nashriyoti, 2000.

**PSUCHOLOGICAL AND AESTHETIC ASPECTS OF EDUCATING
SCHOOLCHILDREN USING SONG MATERIALS IN THE PROCESS OF TEACHING ENGLISH
IN SECONDARY SCHOOL**

Qodirova Zarrina Baxramjanovna

*Deputy director for the education part of the secondary
school № 1 of the city of Tashlak*

Nurmatov Xurshidbek Muzaffarovich

*English teacher of the secondary school
№ 1 of the city of Tashlak*

Islamov Hamidjon Ismailovich

*English teacher of the secondary school
№ 1 of the city of Tashlak*

Absrakts:*The article presents current issues of using song material in classes of English as a foreign language. The main advantages of using song material, which help to reveal the main competencies in teaching a foreign language are highlight. The criteria for selecting songs, presented for complex work on the use of song material in the lessons of English as a foreign language, are considered. Examples of using various songs. In accordance with the language level of foreign pupils are given.*

Keyword:*English as a foreign language, song material, competence based, funny lines, historical songs, The Beatles*

In the strategic development of the Republic of Uzbekistan, oriented for 2022-2026 years out of seven strategic directions the formation of a civil society, the creation of a truly democratic, people-powered state, is in first place [1]. In the context, the educational process and upbringing of the young generation acquires special significance.

Song art occupies a special place in the spiritual life of people. Especially historical songs reflect the historical events of a particular people. For example, the tribes of the Anglo-Saxons and Britans captured the British isles, many Celts were forced

to leave the Kent region. The historical song of the Celts describes how they ended up in Armorica, the current Brittany region of France (5th century A.C.) [2]. In general, a song is a product that embodies human thought, ideas and worldviews.

In the process of studying the song art of various peoples, researchers divided song art into the following types:

- 1) songs that have great educational value-patriotic
- 2) family and mourning songs
- 3) labor songs

4) songs, that reflect social injustice

5) historical songs and melodies

Among the variety of tools used in teaching English one of the most effective is use of song material. Lessons with the use of a song are usually need in a special form, different from ordinary lessons. For example, pupils can sit in a circle it also possible to conduct similar rooms, assembly halls. Songs same principle texts for extracurricular reading, they must be authentic, accessible in terms of information and language plans, problematic relevant and also melodies, ut most importantly, they must correspond to the age characteristics of pupils [3]. Properly selected song material, taking into account the positive emotional impact on children affects their motivational tone and emotional sphere. The texts of the selected songs must correspond to the topic of the lessons. Among with the studied vocabulary they should contain new lexical units.

According to researchers there are various advantages in learning a foreign language:

1. Songs, as one of the types of verbal communication, are a means of stronger assimilation and expansion of vocabulary since it includes new expressions. In songs already familiar vocabulary there are proper names, geographical names. The realities of the country of the language being studied poetic words. This contributes to the development of a sense of language in schoolchildren knowledge of its stylistic features.

2. In songs grammatical instructions are better absorbed and activated. In some countries, grammatical constructions are being studied and activated. They are written in a modern rhythm, accompanied by a text with explanatory comments as well as tasks the purpose of which is to check the understanding and discussion of the content [4]. Songs contribute to the improvement of foreign language pronunciation skills, the development of musical ear. It has been established that musical ear, auditory attention and auditory control are in a dark relationship with the development of the articulatory apparatus, learning and performing short songs that are simple in terms of melodic pattern with frequent repetitions help to fix the correct articulation of the pronunciation of sounds the rules of phrasal stress, rhythm features, etc [5].

3. Songs contribute to the aesthetic education of pupils, inclusion of the team, a more complete of the creative abilities of each. Thanks for music, a favorable psychological climate is created in the lesson, the psychological load decreases, language activity is activated, emotional tone increases and interest in a learning a foreign language is maintained [6].

4. Songs and other musical works stimulate monologue and dialogic statements, serve as the basis for the development of the speech-cognitive activity of schoolchildren, contribute to the development of stress, rhythm features, etc.

But the question arises is any song material suitable for learning a language? Obviously, this is not true at all. It should be noted that when selecting song material, it is extremely important to take into account the age characteristics and interests of pupils. Consider as an example an excerpt from the song of the Beatles - "Yesterday".

All my troubles seemed
so far away,
No it looks as though
they're here to stay.
Oh, I believe in yesterday
Suddenly,
I'm not half the man
I used to be.
There's a shadow hanging over me,
Oh, yesterday came suddenly [7].

As you can see, the text is simple and easy to understand. There are no complicated

constitutive and unusable words. Indeed the songs of the Beatles are considered to

be good material for teaching English. Songs and music with texts in English increase the

motivation to learn a foreign language, contribute to the formation of the cultural competence.

Special attention should be paid to the selection of songs. Schoolchildren should like the melodies the musical accompaniments should be modern and lively.

And yet we should not forget about one feature of the song, pupils will sing songs not only in the classroom, but also when the lesson is far behind and they will sing them

for their own pleasure. Songs are not forgotten unlike grammatical structures that disappear from the head at the end of the lesson songs can live long and become

part of someone's culture [8].

Songs in the lessons can be used for various purposes:

1. Some songs we can use to practice grammar structures;
2. You can dramatize the song;
3. Change direct speech to indirect;
4. Convey the content of the song in your own words;

5. Write a play, create dialogues on a basis, imagine the characters are talking to each other according to the song;

6. "Funny lines". These exercises are possible already at the elementary level. After the pupils have worked out the song, write the lines from the song in a different order.

7. Create a research project, dedicated to the song being studied [9]

In our methodological study, some aspects of the use of song material in English lessons were touched upon. In our opinion, the use of song material in English classes not only enriches pupils' grammatical knowledge and vocabulary, but influences the formation of the aesthetic taste of pupils.

REFERENCES:

1. Стратегия развития Республики Узбекистан на 2022-2026-годы. Газета «Народное слово». Ташкент., 12-январь, 2022 г.

2. История Средних веков. Учебник истории для 7-классов. Ташкент., 2017-год.

3. Kirpichenkova E.P. The role of music and song in learning English. Журнал «Иностранный язык в школе». № 5, Москва., 1990 год.

4. Ibid page-45

5. Ibid page-47

6. Ibid

7. D. Klarck. Music legends of all time. (Biography of The Beatles). L., 1995 y.

8. Gaibulbayevich J. Methodological requirements for the selection of Bukhara folk songs in music education. WEB of Scientist International Scientific Research, 6049-6056.

9. Ibid, 6054.

THE LIST OF LITERATURE:

1. Стратегия действий Республики Узбекистан на 2022-2026-годы. Ташкент., 2022

2. Речь Президента Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёева по случаю празднования Дня Учителя. Ташкент., 30-сентября, 2022 год. Газета «Народное слово». от 3 октября 2022 г.

3. Constitution of the Republic of Uzbekistan. Article 41, 42. Tashkent., 8.12.1992 year.

4. Law of the Republic of Uzbekistan on education. Tashkent., 23.09.2020 year

5. J. Adamson. Methods of teaching vocabulary in elementary classes. New-York, 1997

6. Kirpichenkova E.P. The role of music and song in learning English. Moscow, 1992 y.

7.Нуруллаев Ф.Г.Роль фольклорных песен в воспитании учащихся.Проблемы педагогики.Москва.,2014 г.

7.On the use of song material in the study of English (Electronic resource).URL;
<http://www.maam.ru>

1 VA 2 SINFLARDA MILLIY DASTUR ASOSIDA O'QITISHNING AVFZALLIKLARI

Mukhtasarkhon Obbosova

Farg'ona viloyati O'zbekiston

Tumani 46-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda talabalarga boshlang'ich sinflar ta'limi mazmuni, tuzilishi xususiyatlariga oid ko'nikma va malakalarini mustahkamlash, boshlang'ich sinflar uchun milliy dastur asosida o'qitishning avfzalliklari haqida fikrlar yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Davlat ta'lim standarti, fan, o'quv dasturi, darslik, metod, metodika, o'rgatish, o'qitish, bilim, ko'nikma, malaka, predmet, maqsad, vazifa, fanlararo bog'liqlik.*

Bugungi kunda ta'limning eng asosiy tayanch bo'g'ini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilayotgani va "Milliy o'quv dasturi" deb nomlanishining o'zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o'zbek tilini intensiv o'rgatishni ta'minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

1-2-sinflardagi matematika darslari umumiy o'rta ta'lim maktab matematika fani uchun asos, poydevor ekan, bu sinflarda matematika o'qitilishini eng zamonaviy talablar darajasiga ko'tarmoq zamon talabidir. Chunki. bolalarga keyinchalik matematika va boshqa fanlar uchun zarur bo'lgan elementar, tushunchalar shu sinflarda singdiriladi.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'lim maktablarining uzluksiz rivojlanishi uchun iqtisodiy, siyosiy, huquqiy shart-sharoit yaratildi. Jumladan, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator me'yoriy hujjatlarda o'qitishni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish sohasida qator tadbirlar boshlab qo'yilgan. Xususan, boshlang'ich ta'limda o'qitishga alohida e'tibor qaralib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muammolaridan biri sanaladi. Shuni hisobga olgan holda O'zbekiston Prezidenti SH.M.Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: "Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur.

Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standarti davlat ta'lim standartining maqsad va vazifalarini, asosiy prinsiplarini, tarkibiy qismlarini, davlat ta'lim standartlarini joriy etish hamda davlat ta'lim standartlari talablariga rioya etilishini nazorat qilish tartibini belgilaydi. Davlat ta'lim standartini ishlab chiqish quyidagi hujjatlarga asoslanadi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi; «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni; «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni;

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida darsliklar yaratishga jiddiy e'tibor qaratish zarurligini ta'kidladi. Undan kelib chiqqan holda o'zimizga kelajakda amalga oshirishimiz lozim bo'lgan bir qator vazifalarni belgilab oldik. Darhaqiqat, fanlarni o'qitish metodikasi, nazariy va amaliy bilimlar muvofiqligi, dasturlar uzviyligi, darsliklar mazmuni va sifatida talay kamchilik va muammolarimiz bor. Darslik va o'quv-metodik qo'llanmalarni nashrga tayyorlashda ularni mazmun va sifat jihatidan xalqaro talablarga qay darajada javob bera olishiga yana-da jiddiy e'tibor qaratishimiz, amaliyotchi o'qituvchilar, fan metodistlari hamda salohiyatli olimlar tomonidan chuqur ekspertizadan o'tkazishimiz lozim. Darsliklar ekspertiza xulosalari asosida uning mualliflari, nashriyot xodimlari hamda fan metodistlari hamkorligida qayta ishlansa, mazmuni va illyustratsiyalariga tegishli o'zgartirishlar kiritilsa yana-da mazmunli va sifatli bo'ladi. Darsliklarni yana-da takomillashtirish uchun jahon tajribasini kengroq o'rganish,

loyihalarimizga Respublikamizdagi eng tajribali mutaxassislarni, xorijiy ekspertlarni keng jalb qilish maqsadga muvofiq.

Darsliklarni tayyorlashda o'quvchilarning yoshi va psixo-fiziologik xususiyatlari alohida inobatga olinadi. Darslik mazmunida mavjud bo'lgan takrorlanishlar bartaraf etiladi, xalqaro tajribaga tayangan holda darslikning dizayni va foto-illyustratsiyalariga o'zgartirish kiritiladi. Yana bir e'tiborli holat shuki, fanlar kesimida fanlararo bog'liqlik hamda sinflararo uzviylik ta'minlanishiga yana-da jiddiy e'tibor qaratiladi. Darslik va o'quv-metodik adabiyotlarning yangi avlodini yaratishda ular mazmuniga xalqaro baholash dasturi —TIMSS, PIRLS talablari o'quvchilar yoshiga mos tarzda yana-da chuqurroq singdiriladi. Shuningdek, mavzularni qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish maqsadida barcha darsliklarga QR kodlar o'rnatiladi.

Umumiy o'rta ta'limning tarixida ilk bor joriy etilishi kutilayotgan Umumiy o'rta ta'limning Milliy o'quv dasturi amaldagi davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini tanqidiy tahlil qilish, keng jamoatchilikning darsliklarning mazmuniga nisbatan bildirgan fikr-mulohazalari, ta'limning keyingi bosqichi hamda zamonaviy mehnat bozorining real talablari asosida, xorijiy davlatlarning ta'lim sohasida erishgan natijalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilmoqda.

Mazkur dastur 6 ta komponentdan iborat bo'ladi:

- 1) umumiy o'rta ta'limning malaka talablari;
- 2) umumta'lim fanlarining konsepsiyalari;
- 3) umumiy o'rta ta'limning o'quv rejasi;
- 4) umumta'lim fanlarining o'quv dasturlari;
- 5) umumta'lim fanlarini o'qitish metodologiyasi;
- 6) baholash tizimi.

O'quv dasturi ta'lim qaysi yo'nalishda ketishini belgilab beradigan, muayyan fan mazmunini ta'lim bosqichlari, umumta'lim sinflar kesimida uzviylik va uzluksizlikda taqsimlangan tarzda yoritilishini belgilab beradigan me'yoriy hujjat sanaladi. Shundan kelib chiqib, umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini hisoblanuvchi ta'lim boshqa tillarda olib

boriladigan maktablar uchun o'zbek tili fani bo'yicha tuziladigan o'quv dasturi mazmun-mohiyati bilan o'zidan avvalgi maktabgacha ta'limning davomi bo'lishi va ayni vaqtda o'zidan keyingi ta'lim bosqichlari uchun tayanch bo'lishi kerak. Bugungi kungacha o'zbek tili fanidan tuzilgan o'quv dasturlarida ta'limning kommunikativ-nutqiy yo'nalishiga mos ravishda kompetensiyaviy yondashuv asosida yildan yilga takomillashtirib kelindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 dagi "O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 08.12.2018 dagi Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida" 187-son qarori.

UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA UMUMIY O'RTA TA'LIM ASOSIY TAYANCH

Mukhtasarkhon Obbosova

*Farg'ona viloyati O'zbekiston
Tumani 46-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda mamlakatimizda davlat tili to'g'risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o'zbek tilining xalqimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi va xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini oshirishga xizmat qiladigan milliy dasturlar haqida bilib olasiz.,*

Kalit so'zlar: . *Ta'lim, maktablar, tehsil, millat, o'zbek, til, o'qitish, xalq og'zaki ijodi, zamonaviy, mumtoz adabiyoti namunalari, adabiy, qaror, umumiy o'rta ta'lim maktablari, Milliy o'quv dastur*

Respublikamiz uzluksiz ta'lim tizimida umumiy o'rta ta'lim asosiy tayanch bosqich bo'lib, bu bosqichda o'zbek tilidan o'quvchilarga kundalik ijtimoiy hayotda davlat tilida og'zaki va yozma muloqot olib bora olishlariga qaratilgan tayanch bilimlar beriladi va o'qitishning kommunikativ-nutqiy tamoyili asosida o'quvchilarda o'zbek tili bo'yicha egallangan bilim va ko'nikmalarni muloqot faoliyati jarayonida qo'llash malakasi shakllantiriladi. Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda tahsil oluvchi turli millat vakillariga esa o'zbek tilini o'qitish bilan bir qatorda o'zbek xalq og'zaki ijodi, zamonaviy va mumtoz adabiyoti namunalari bilan tanishtirib boriladi. Shu maqsadda ushbu maktablarda adabiy o'qish darslari uchun qo'shimcha soatlar ajratilgani ham nihoyatda to'g'ri qaror bo'ldi. Bugungi kunda ta'limning eng asosiy tayanch bo'g'ini hisoblanuvchi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun Milliy o'quv dasturi ishlab chiqilayotgani va "Milliy o'quv dasturi" deb nomlanishining o'zi bizga katta umidlar baxsh etmoqda. Shuningdek, o'zbek tilini o'qitish metodikasini tubdan isloh qilish, ayniqsa mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millatlar va elatlarga o'zbek tilini intensiv o'rgatishni ta'minlaydigan zamonaviy darsliklar yaratish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biriga aylandi.

Ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar, ayniqsa o'qituvchi obro'sini ko'tarishga qaratilgan sa'y-harakatlar va hukumatimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlardan juda xursandmiz. Biroq tan olish kerakki, ta'lim samaradorligi ko'p jihatdan o'quv-uslubiy dasturlar va darsliklar saviyasiga ham bog'liq.

Xususan, respublikamizda keyingi yillarda til savodxonligi va nutq madaniyatining keskin pasayib ketganligi, nafaqat og'zaki, hatto yozma nutqda ham o'zbek adabiy tili me'yorlariga amal qilinmayotganligi, husnixatga umuman e'tibor qaratilmayotganligi, o'quv dasturlaridan insho, bayon, diktant kabi yozma ish turlarining deyarli chiqib ketganligi, darsliklarda faqat tayyor matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlari

berilayotganligining mevasi emasmi?! Yakuniy nazorat ishlarining test shakliga o'tkazilishi o'quvchilarni ijodiy fikrlash, bog'lanishli nutq tuzish, savodli va chiroyli yozish ko'nikma-malakalarini egallashga bo'lgan intilishlarini umuman yo'qqa chiqardi.

Shu bois, yangilanayotgan o'quv dasturlariga katta umid bilan qaralmoqda. Milliy o'quv dasturlari saytlarga qo'yilishi bilan uning mazmuni va uslubiy yo'nalishi bilan tanishib chiqishga harakat qildik. "Oqtosh" sanatoriysida dam olayotgan bir guruh maorif xodimlari, til va adabiyot o'qituvchilari va o'z farzandlarining yaxshi ta'lim olishi tarafdori bo'lgan ota-onalar shu masala ustida suhbatlashib qolishdi. Oromgohning salqin ayvonchasida o'zaro fikrlashishdan boshlangan davra suhbatlari tobora kengayib, aytish joiz bo'lsa, ilmiy-amaliy seminar tusini oldi. Tasodifiy uchrashib qolgan ushbu jamoa tarkibida 40 yildan ortiq pedagogik tajribaga ega bo'lgan maorif xodimlari, o'zbek tili o'qituvchilari, olimlar, o'z farzandining taqdiriga befarq bo'lmagan ota-onalar, o'quvchilar bor edi. Ular bir maqsad uchun birlashib, ikki kun davomida ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun "O'zbek tili" fanidan tuzilgan Milliy o'quv dasturini o'rgandilar va bandma-band tahlil qildilar.

Suhbatning avvali ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar va o'rta maxsus ta'lim bo'g'inlarida davlat tilining o'qitilishi, amaldagi "O'zbek tili" dasturlari va darsliklaridagi mavjud kamchiliklar, ularni yaxshilashga qaratilgan taklif va tavsiyalardan boshlandi. Farzandlarini rus maktabida o'qitayotgan ota-onalar shu maktablar uchun yozilgan darsliklardagi matnlarda kam qo'llanadigan so'zlarning ko'p uchrashi, bolalar yoshiga mos she'rlarning kamligi, qo'yilgan topshiriqlarning murakkabligi kabi kamchiliklarni sanay ketdilar. Suhbatimizga quloq tutib turgan bir guruh yoshlar esa maktabda o'qib yurgan vaqtlarida o'zbek tili fani ular uchun eng oson fan hisoblanganligi, faqat qoidalarni o'zlashtirishda biroz qiyinchilik sezishganligini, o'zbek tili o'qituvchisi ko'p vaqtini shu sinfdan o'qiydigan boshqa millat vakillari bilan alohida shug'ullanishga sarflaganligi tufayli ular yangi bilimlar ololmaganliklarini aytishdi.

— Men o'zbek tilining o'z tuzilishi, orfoepik va orfografik me'yorlari bor ekanligini kollejga kirganimdan so'ng bildim va ularni o'zlashtirish uchun rosa qiynaldim. Agar maktabda bu fanni o'quvchilarning tilni bilish darajasiga qarab tabaqalashtirib o'qitishganda, shuncha vaqtimni besamar o'tkazmagan va ayni kunlarda bunchalik qiynalmagan bo'lardim.

Ushbu fikr-mulohazalar yig'ilganlarni yangi dasturda bu kamchiliklar qanday yechim topdi, bolalarimiz oson va qulay yo'l bilan o'zbek tilini egallashlari uchun qanday o'zgarishlar joriy etildi, degan savollar girdobiga tortdi va yangi dastur loyihasini sinchiklab o'rganishni boshlashdi.

YANGI MILLIY O'QUV DASTURI ASOSIDA ONA TILI O'QISHTISH

Mukhtasarkhon Obbosova

Farg'ona viloyati

O'zbekiston tumani

46-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolqmda, o'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslublari haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalar, matnlar, yangilik, darslik, she'rlar, ijtimoiy, hayot, ko'mak, badiiy, informativ, ilmiy-ommabop, uslub.*

Shu paytgacha Ona tili va O'qish fanlari alohida o'qitilgan. Endi esa ushbu ikki fanni birlashtirgan "Ona tili va o'qish savodxonligi" deb nomlangan yagona fan dars soati saqlab qoling holatda tashkil etiladi.

O'qish fani, asosan, badiiy uslubdagi, mavhum tushunchalarni tashiydigan matnlardan iborat edi. Yangi darslik uchun tanlangan matnlar va she'rlar esa bolaning ijtimoiy hayotga kirishib keta olishida ko'maklashadigan, ham badiiy, ham informativ, ham ilmiy-ommabop uslubdagi matnlardan iborat.

Amaldagi darsliklarda tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun topshiriqlar ajratilmagan bo'lsa, yangisida bu kompetensiyasini rivojlantirish uchun har bir mavzuga alohida topshiriqlar ishlab chiqilgan.

O'qib tushunish kompetensiyasini rivojlantirish uchun ajratilgan topshiriqlar esa, asosan, matnda ochiq ifodalangan ma'lumotlarga, yoki didaktik elementlarga qaratilar edi. Endi esa darslikda o'qib tushunish kompetensiyasining barcha qismlarini qamrab oladigan savol va topshiriqlar bo'ladi. Shu paytgacha ona tilini o'qitishdan maqsad tilning grammatikasini o'rgatish, til strukturasi qoidalarni yod oldirish edi. Yangi darslikda eng muhim qoidalargina qoldirilgan. Rang-barang tasvirlar va qiziqarli topshiriqlarga ko'proq urg'u berilgan. Ahamiyatli tomoni endi o'qituvchilar uchun "O'qituvchi kitobi", o'quvchilar uchun esa "Mashq daftari" ham bo'ladi.

Eski darsliklar til strukturasi o'rgatishga qaratilgan. Yangi darsliklarda esa til strukturasi ko'ra, tilning leksikologik, semantik tomonlariga urg'u berilgan. Ya'ni asosiy e'tibor so'z, uning ma'nolari, o'rindoshlari, qo'llanish o'rinlari, lug'at boyligi kabi tomonlarga qaratilgan. Amaldagi darslikdan o'rin olgan matnlarda bola yoshiga mos bo'lishidan ko'ra, didaktik ahamiyatiga urg'u berilgan. Taqdim etilayotgan didaktika esa yoshga mos, qiziqarli mavzulardagi matnlar hamda she'rlarga singdirilgan. Yozuvchilar bilan birgalikda matnlar qayta ishlab chiqilgan.

Darsliklardagi tushunarsiz bo'lishi mumkin bo'lgan so'zlar izohsiz qoldirilar edi. Yangi darsliklarda bolaning tushunishi uchun qiyin bo'lgan so'zlar darslikning orqa qismida maxsus lug'atga joylashtirilgan.

Bundan tashqari ular ustida alohida mashqlar ishlab chiqilgan. Tayyorlanayotgan darslikda gapdan to yaxlit matn yaratishgacha bo'lgan jarayon tizimli ravishda ishlab chiqilgan. Avval gaplardagi bo'sh o'rinlarni to'ldirishni boshlagan bola ma'lum mavzu doirasida kichik matn yarata olish darajasiga olib chiqiladi.

Shuningdek, darslikda o'quvchilarning eng og'riqli muammosi bo'lgan og'zaki javob beriladigan, og'zaki tarzda bajariladigan alohida topshiriqlar ham ishlab chiqilgan. Yodlash uchun berilgan she'rni aytib berishlari uchun alohida vaqt ajratilgan.

Yangi darslikda uyga vazifalar mavjud emas. Nutqiy mavzular asosida izchillikda bir-birini to'ldiradigan, o'zi izlanib topishga qaratilgan nostandart mashq va topshiriqlar ishlab chiqilgan. Ma'lum mavzu doirasida assotsiativ tasavvur darajasidan og'zaki yoki yozma matn yaratish darajasiga olib chiqishga qaratilgan ta'lim mazmuni ishlab chiqilgan. Badiiy matnlar bilan ishlashda muallifning so'z qo'llash mahorati amaliy topshiriqlar orqali ochib berilgan. Biz pegagok sifatida ulardan astoyidil foydalanmog'imiz lozimdir.

BOSHLANG'ICH SINFDA O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Mukhtasarkhon Obbosova

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
46-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolamda, ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lasiz.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, maqsad, jamiyat, ehtiyoj, ta'lim-tarbiya, mutanosiblik, ilmiy lik, adabiyot, ta'limning maqsadi, imkoniyat, aniq ko'nikma, malaka, mantiqiy-ijodiy, tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitish.*

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinli foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo'ladi.

Ulug' donishmandlardan biri «... kelajak tashvishi bilan yashasang, farzandlaringga yaxshi bilim ber, o'qit», degan ekan. Yurtimizda ta'lim-tarbiya tizimida amalga

oshirilayotgan islohotlar haqiqiy ma'noda bir-ikki yillik yoki qisqa davrda samaraga erishishga qaratilgan ish emas, balki chin ma'noda bir necha yuz yillarga tatiydigan o'zgarish bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Bu prezidentimizning kelajagimiz, kelajak avlodimiz haqida qayg'urib, yurtimizning barcha farzandlari – mening farzandlarim, ular bizlardan ko'ra kuchli, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari kerak, degan g'oyasi zamirida donishmandlarcha siyosat yotganini ko'rsatadi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Bugungi kunda ta'limda «Aqliy hujum», «Fikrlar hujumi», «Tarmoqlar» metodi, «Sinkveyn», «BBB», «Beshinchisi ortiqcha», «6x6x6», «Bahs-munozara», «Rolli o'yin», FSMU, «Kichik guruhlarda ishlash», «Yumaloqlangan qor», «Zigzag», «Oxirgi so'zni men aytay» kabi zamonaviy texnologiyalar qo'llanmoqda.

Dars mashg'ulotlarida o'yin-topshiriqlarni takrorlash yoki mustahkamlash darslarida foydalanilsa ijobiy natija beradi. O'yin-topshiriqning qaysi bir turini tanlash darsning turiga, sinf o'quvchilarining o'yin-topshiriqlarni bajarishga o'rgatilganlik darajasi, ularning bilim saviyasi, mustaqil ijodiy ishlash imkoniyatlari, o'rganilganlarni xotirada tez tiklay olishi, ijodkorlikning qay darajada shakllanganiga ham bog'liq bo'lishi kerak.

Ta'limda o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgaralar fikrini anglash va shu fikrni og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon eta olishga o'rgatish masalasiga e'tibor qaratilgan bo'lib, mustaqil fikrlaydigan, nutq madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish asosiy o'rin egallaydi. Millatning turmush tarzi, madaniy yaratuvchanligi uning boy tarixiy merosi asosida o'rganiladi.

BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIY METODIKALARI

Mukhtasarkhon Obbosova

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani

46-umumiy o'rta ta'lim maktabi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolamda, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Metodika, metod, sinf, o'qituvchi, o'quvchi, ilg'orlik, pedagogic, pedagog, yangi axborotlar, texnologiyalar, o'quv jarayoni, tajribalar, dars mashg'ulotlari, interfaol metodlar, ta'lim-tarbiya, fikr, o'quv mashg'ulotlar, samaradorlik.*

Bugungi kun o'qituvchidan ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalaridan o'quv jarayonida foydalanishni talab etmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tajribalarimiz asosida dars mashg'ulotlarida interfaol metodlarni qo'llash orqali ta'lim-tarbiya berish yo'llariga doir fikrlarimizni bayon etamiz. O'ylaymizki, u o'quv mashg'ulotlari samaradorligini oshirishda hamkasblarimizga amaliy yordam beradi.

Shuningdek, o'quvchilarni o'z yo'nalishini tanlash va mustaqil hayotga tayyorgarlik ko'nikmalarini shakllantirishdek mas'uliyatli vazifani bajarishda ularning yaqin ko'makchilardan biriga aylanadi. Quyida sinflar kesimida ayrim mavzular asosida o'qitishning zamonaviy usullarini tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar beramiz. Siz undan ijodiy yondashgan holda foydalanasiz va birinchi prezidentimizning: «*Har qarichi muqaddas bo'lgan ona yerimizga nisbatan farzandlarimizda g'urur va iftixor, sadoqat tuyg'ularini uyg'otish uchun biz bugun nima qilyapmiz, degan savolga javob izlab ko'raylik*» - degan fikrlariga javoban ta'lim va tarbiya berishning zamonaviy usullarini tatbiq etish orqali ko'zlangan maqsadga erishishga o'z hissangizni qo'shasiz degan umiddamiz.

O'quvchilar mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metodikalar alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- O'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tizimini shakllantirish;

- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan to'rtta (beshta, oltita, ...) va taalluqli bo'lmagan bitta tushunchaning o'rin olishiga erishish;

- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lmagan tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;

- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham

izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni asoslashlarini talab etish lozim).

Mazkur metod o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;

- o'quvchilar mavzuga (bo'lim, bob) oid va oid bo'lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

1-sinf darsligidagi «Oshxona jihozlari», «Qushlar», «Uy hayvonlari va parrandalar» kabi mavzularini o'rganishda yangi mavzuni mustahkamlash uchun mazkur metodni qo'llash ijobiy natija beradi. Bunda mavzuga oid to'rtta va taalluqli bo'lmagan (ortiqcha) bitta so'z (tushuncha, fikr) beriladi.

O'quvchilar ana shu so'zni (tushuncha, fikr) aniqlaydilar.

Masalan, 1-sinf darsligidagi 1-mashqda berilgan topshiriqni bajarishda quyidagicha qo'llash mumkin. Yozuv ekranda ko'rsatiladi. O'quvchilar ortiqcha so'zni aniqlashadi.

Uy hayvonlari: sigir, qo'y, toshbaqa, ot, it.

So'ng bu so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi va tuzilgan gaplar asosida axloqiy tarbiya beriladi.

Namuna: Ot - insonning eng ishonchli do'sti.

O'quvchilar tomonidan tuzilgan gaplar asosida o'quvchilar qalbida ona tabiatga muhabbat uyg'otiladi, uy hayvonlariga nisbatan ijobiy munosabatda bo'lishga o'rgatiladi.

Hozirgi kunda pedagogik faoliyatda turli axborot vositalari (kompyuter, televideniye, radio, nusxa ko'chiruvchi qurilma, slayd, video va audio magnitofonlar) yordamida ta'lim jarayoni tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'qituvchilar oldida ta'lim jarayonida turli axborot vositalaridan o'rinli va maqsadga muvofiq foydalanish vazifasi turibdi.

Videotopishmoq metodidan foydalanishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'quvchilar e'tiboriga o'rganilayotgan mavzu mohiyatini tasviriy yoritishga yordam beruvchi izohlarsiz bir nechta videolavha namoyish etiladi;

- o'quvchilar har bir lavhada qanday jarayon aks ettirilganini izohlashadi;

- jarayonlarning mohiyatini daftarlariga qayd etishadi;

- o'qituvchi tomonidan berilgan savollarga javob qaytarishadi.

Mazkur metod asosida mavzuga doir kompyuter orqali videolavha namoyish etiladi. O'quvchilar videolavha mavzusi, unda ifodalangan mavzu haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirishadi.

Masalan, «Elektr jihozlari» (1-sinf), «Yil fasllari» (2-sinf) kabilar asosida o'quvchilarga milliy an'analarimiz, urf-odatlarimiz, iqtisodiy munosabatlar haqida tushunchalar beriladi.

Navro'z udumlari (foydalanish uchun matnlar)

Navro'z kuni odam ota-onasi, yaqin kishilari bilan diydorlashadi. Ginali odamlar Navro'z kuni yarashadi.

Navro'z arafasida keksalar maxsus idishlarga yetti xil don ekib, ularning unib chiqishiga qarab, kuzda olinadigan hosil cho'g'ini chamalashgan.

Ba'zi joylarda esa Navro'z kunlarida paydo bo'lgan kamalakka qarab yerga suv sepiladi. Shunday qilinsa, go'yo yil seryog'in va barakali bo'lar ekan.

Navro'z kunlari bog'dagi o'rik daraxtlariga arqon solib arg'imchoq yasaladi. Qizjuvonlar yig'ilishib, navbatma-navbat arg'imchoq uchadilar. Navro'zda arg'imchoq ucha bir yillik gunohi to'kiladi deyilgan.

Bu metodni 2-sinfda o'quvchilarning unli va undosh tovushlar haqidagi bilimlarini sinash, uni mustahkamlash maqsadida ham qo'llash mumkin. Masalan, ekran orqali unli tovushlar ko'rsatiladi. Galma-galdan shu tovush bilan boshlanadigan so'zlarni ifodalaydigan rasmlar ko'rsatiladi. O'quvchilar rasmlardagi narsa, buyum nomlarini daftarlariga yozadilar. Bunda o'quvchilarning xotiralari mustahkamlanadi, so'z boyligi oshadi.

Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar va ta'limiy o'yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o'rganganlarini hayot bilan bog'lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradi. O'qituvchilarning bunday zamonaviy talablar asosida yaratilgan sharoitlardan samarali foydalanib, darslarni ilg'or pedagogik hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilishi ta'lim-tarbiya jarayonini sifatini kafolatlaydi.

Bizningcha, ta'limiy o'yinlarga qo'yiladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilar yoshiga mos bo'lishi kerak;
2. O'yinlar o'tilayotgan mavzu mazmun-mohiyatiga mutanosib bo'lishi lozim;
3. Ta'limiy o'yinlarni o'tkazish vaqti aniq belgilanishi shart;
4. Ta'limiy o'yinlar ham ta'limiy, ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak;
5. Ta'limiy o'yinlarning o'tkazilish maqsadi, ahamiyati belgilanishi lozim.

Yuqoridagi talablarga amal qilingandagina dars samaradorligi ortadi va zamonaviy texnologiyalar ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

SIFATLI TA'LIM-TARBIYA BOSH VAZIFAMIZ

Mukhtasarkhon Obbosovia

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
46-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqola O'zbekiston o'tgan 25 yil ichida qo'lga kiritgan salmoqli yutuqlari bugun jahon ahlini hayratga solmoqda. Qayta tiklangan qadriyatlarimiz, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlar, ta'lim tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlarni guvohi bo'lishingiz mumkin.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, tarbiya, qadriyatlarimiz, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy, soha, o'zgarishlar, ta'lim tizimi, takomillashtirish, islohotlar, yurtimiz shuhratini yanada oshirib, yuksaklik.*

Mamlakatimiz mustaqilligining yigirma besh yilligi arafasida o'tkazilayotgan an'anaviy avgust kengashlari "Go'zal va betakrorimsan, muqaddas Vatanim, jonim senga fido, O'zbekistonim!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etib, "Sog'lom ona va bola yili" Davlat dasturi doirasida ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar mazmun-mohiyatini pedagoglarga yetkazish, o'sib kelayotgan yosh avlodni vatanparvar, har tomonlama yetuk, bilimdon, jismonan baquvvat, ma'nan barkamol etib voyaga yetkazish, o'quvchilarni kun sayin kengayib borayotgan axborot-ta'lim muhitida mustaqil faoliyat ko'rsatish hamda axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishni o'z oldiga maqsad qiladi.

O'zbekiston o'tgan 25 yil ichida qo'lga kiritgan salmoqli yutuqlar bugun jahon ahlini hayratga solmoqda. Qayta tiklangan qadriyatlarimiz, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy sohalaridagi tub o'zgarishlar, ta'lim tizimini takomillashtirish borasida olib borilayotgan izchil islohotlar yurtimiz shuhratini yanada oshirib, yuksak imkoniyatlar mamlakati degan nomga munosibligini ko'rsatmoqda.

Ayni paytda o'qitish samaradorligini oshirish, o'quvchilarning davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni to'la egallashlariga erishish, mustaqil bilim olishlarini ta'minlash, iqtidorli, iste'dodli hamda ayrim fanlarni o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilarga individual yondashish, bolalarning eng yaxshi fazilatlarini rivojlantirish, yoshlarning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyati, intellektual xususiyati va shaxsiy sifatlarini aniqlagan holda darslarni tashkil etishga jiddiy e'tibor qaratish dolzarb vazifalardandir.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda ta'lim mazmunini yangilash, takomillashtirish, o'qitish samaradorligini va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirish, ilg'or tajribalarni keng ommalashtirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilayapti.

Xususan, mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim jarayonini ilmiy-metodik jihatdan ta'minlash, yangi avlod darsliklarini yaratish, DTS va o'quv dasturlarini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi orqali qonuniy asosga ega bo'ldi. Barcha fanlardan yangidan-yangi ta'lim texnologiyalari va interfaol usullar ishlab chiqilib, muntazam modernizatsiyalashtirilmoqda. Yurtimizda xorijiy tillarni o'rganishga qiziqish tobora ortib borayotganini e'tiborga olib, chet tili o'qituvchilarining kasbiy malaka va mahoratini oshirish maqsadida 2015-yildan buyon Britaniya Kengashining O'zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda ingliz tili o'qituvchilari uchun noan'anaviy tarzda "Yilning eng yaxshi chet tili o'qituvchisi" ko'rik-tanlovi o'tkazib kelinmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimida chet tillarni kompetensiyaviy yondashuv asosida o'rgatish tajribasidan kelib chiqib, umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi umumta'lim fanlarining o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari loyihalari tayyorlanib, hududlarda tajriba-tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Shuningdek, 18ta umumta'lim fani bo'yicha ijodiy guruhlar tomonidan dunyoning rivojlangan davlatlari, xususan, Germaniya, Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarning davlat ta'lim standartlari o'rganib chiqildi va tahlil etildi. Natijada o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan davlat ta'lim standartlari loyihalarining takomillashtirilgan varianti tayyorlandi.

Iqtidorli bolalarning qobiliyatini erta aniqlash va rivojlantirish, iste'dodli, izlanuvchan, ijodkor pedagoglarni qo'llab-quvvatlash, ularning ilg'or tajribalarini ommalashtirish, ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida tashkil etilishini ta'minlash, o'qituvchilarning pedagogik mahoratini oshirish maqsadida fan olimpiadalari, bilimlar bellashuvi, "Ingliz tili bilimdonlari", "Prezident asarlarini o'rganamiz", "Huquq bilimdonlari", "Soliq bilimlari — bolalarga", "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" kabi ko'rik-tanlovlar va fan oyliklari o'tkazilib, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy izlanishi uchun keng imkoniyat yaratilmoqda.

Boshlang'ich ta'lim sifatini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, yurtimizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlarning mazmun-mohiyatini pedagoglarga yetkazish maqsadida joriy yilning 13–14-iyul kunlari "Boshlang'ich ta'limni modernizatsiyalash orqali o'quv-tarbiya jarayonining sifati va samaradorligini oshirish" mavzusida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun respublika forumi o'tkaziladi. Barcha ta'lim sohasidagi ziyolilar ushbu forumda eshtirok etdilar va o'zlariga kerakli bilimlarni oldilar.

PEDAGOGIK MAHORAT HAQIDA TUSHUNCHA. PEDAGOGIK MAHORATNING MAZMUNI VA MAQSADI

Mukhtasarkhon Obbosova

*Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani
46-umumiy o'rta ta'lim maktabi
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolamda, pedagogik mahorat qolaversa, Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassisligi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Pedagog, mahorat, tarbiya, o'qitish, fan, san'at, yoshlar, psixologiya, tarbiya, metod, metodika, madaniyat, mutaxassis.*

Agarda pedagogning kasbiy mahorat dasturiga amaliy qaralsa, u holda birinchi o'ringa uning integral sifati – o'qituvchining mahoratidan iborat bo'ladi. Pedagogik mahoratga berilgan ta'riflar shuncha ko'p bo'lishiga qaramay, ularda mahoratning qaysidir tomonlari albatta ifodalanadi.

Mahorat - bu yuqori va doimo yuksalib boruvchi tarbiya va o'qitish san'atidan iborat. Pedagog – o'z ishining ustasi, o'z fanini chuqur biluvchi, fan va san'atning mos sohalari bilan yaxshi tanish, amalda umumiy va yoshlar psixologiyasini yaxshi tushunuvchi, o'qitish va tarbiyalash metodikasini har tomonlama biluvchi hamda yuqori madaniyatga ega bo'lgan mutaxassis.

Pedagogik nazariyada o'qituvchi mahoratini ikki xil tushunish mavjud. Birinchisi, pedagogik mehnatni tushunish bilan bogliq bo'lsa, ikkinchisi tarbiyada pedagog shaxsi asosiy o'rin tutadi.

Mahoratni egallash uchun ko'p narsani bilish va qila bilish zarur. Tarbiya printsiplari va qonunlarini hamda uning tashkil etuvchilarini bilishi zarur. O'quv-tarbiyaviy jarayon va uning tashkil etuvchilarni samarador texnologiyalardan foydalanish uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. "Men faqat «buyoqqa kel»ni 15-20 xilda gapira olganimdan, aft, tashqi qiyofa va ovozni 20 ko'rinishda bera olganimdan sunggina xakikiy masterga aylandim,- deydi buyuk pedagog A.S. Makarenko.

Pedagogik mahorat – shaxsning pedagogik sifatlari majmui va o'qituvchi tomonidan kasbiy pedagogik faoliyatni mustaqil ravishda samarali tashkil etishni ta'minlash bo'lib, u pedagogning faoliyat mohirligini eng yuqori choq-isiga erishganligini bildiradi.

O'qituvchilik kasbi o'z mohiyatiga ko'ra o'ta individualdir. Har bir o'qituvchining muhim hayotiy o'rni, uning o'z ishining ustasi bo'lishdir.

O'qituvchi mahorati uning faoliyatida ko'rinadi. O'qituvchi avvalo pedagogik jarayonning qonuniyatlari va mexanizmlarini yaxshi egallagan bo'lishi lozim. Shu ma'noda pedagogning umumlashgan malakalari va uning pedagogik texnikasi katta ahamiyatga molik bo'ladi.

Biroq mahorat — bu alohida qudrat. Yuqori va kichik darajada Usta bo'lishi mumkin emas. Mahoratga erishish ham, erishmaslik ham mumkin. Haqiqiy usta mehnat faoliyati chohidagina go'zaldir.

Pedagogik mahoratga etishish o'qituvchining muayyan shaxsiy sifatlari bilan amalga oshadi.

Pedagogik mahorat yuksak darajadagi pedagogik faoliyatning taraqqiy etishini, pedagogik texnikani egallashni, shuningdek, pedagog shaxsi, uning tajribasi, fuqarolik va kasbiy mavqeini ifodalaydi.

«Pedagogik mahorat» bir kategoriya sifatida o'zining ilmiy asoslariga ega. Turli tadqiqotchilar ishlarida ayni bir hodisani tavsiflash uchun turlicha tushunchalardan foydalanish boshqacha ma'no va mazmun tomonlariga ega.

Turli muallif asarlarida pedagogik mahoratning yagona, tan olingan ta'rifining yo'qligi uni tadqiqotning jonli jarayoni deb xulosa chiqarishga asos bo'ladi.

Tushunchalar, fikrlaming turli-tumanligi bu hodisaning murakkabligi va ko'p qirraliligidan dalolat beradi. Barcha ta'riflarda urg'u shaxsga beriladi va shu tariqa ular pedagogik mahoratning sotsial mohiyatini aks ettiradi.

I.A.Zyazyun va NA.Lebedniklar shaxsning sotsial etukligi va kasbiy mahoratining o'zaro bog'liqligini isbotlab berdilar.

Mahorat talabalar tomonidan ularning sotsial etuklikka erishish darajasiga qarab bosqichma-bosqich egallanadi. Sotsial etuklik komponentlari pedagogik mahorat komponenti bilan quyidagi nisbatda bo'ladi.

Bo'lg'usi pedagogning sotsial etuklik komponentlariga ushbular kiradi:

sotsial o'z-co'zini belgilash - o'zining pedagogik qobiliyatlari va e'tiqodini namoyon qilish;

sotsial faollik — odamlar bilan ishlay qilish va boshqalarni tarbiyalash tajribasini takomillashtirish;

sotsial masuliyat - o'qituvchining bilimdonligiga aylanadigan bilimlar.

Pedagogik mahorat asoslariga: kasbiy pedagogik bilimlar, insonparvarlikka yo'nalganlik, pedagogik texnika, kasbiy pedagogik faoliyatni amalga oshirish tajribasi, pedagog shaxsi taalluqlidir.

Mahoratning shakllanish bosqichlariga:

reproduktivlik (boshlang'ich),

ijodiylik, ijodiy-novatorlik kiradi.

Pedagogik mahorat darajalari o'qituvchi ish darajasining davomi hisoblanadi:

reproduktiv (o'ta past);

moslashuvchan (past);

lokal (chegaralangan)- modellashtirish (o'rtacha qoniqarli).

Pedagogik mahorat komponentlari kasbiy faoliyatga kasbiy vazifalarini bajarish uchun zarur bo'lgan malaka nuqtai nazardagi qarashlarni aks ettiradi.

Pedagogik mahorat komponentlarini hosil qiladigan quyidagi malaka guruhlari farqlanadi:

loyihalash;

konstruktsiyalash;

tashkilotchilik;

muloqot;

bilish va reflektivlik.

Pedagogik mahoratning asosi pedagogik bilimdonlikdir.

Pedagogik bilimdonlik, deganda konkret tarixiy davrda qabul qilingan me'yorlar (normalar), standartlar va talablarga muvofiq pedagogik vazifani bajarishga qobillik va tayyorlik bilan belgilanadigan integral kasbiy-shaxsiy tavsifnoma tushuniladi.

Pedagogik bilimdonlik pedagogik sohada mahorat bilan ishlayotgan kishining ta'lim va tarbiya ishida insoniyat to'plagan barcha tajribalardan ratsional foydalanish qobiliyatini ko'zda tutar ekan, demak, u etarli darajada pedagogik faoliyat va munosabatlarning maqsadga muvofiq usullari va shakllarini egallashi lozim bo'ladi.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlikning bosh ko'rsatkichi bu insonga, shaxsga yo'nalganlikdir.

Kasbiy-pedagogik bilimdonlik pedagogik voqelikni izchil idrok eta bilish va unda izchil harakat qila olish malakasini qamrab oladi. Bu xislat pedagogik jarayon mantiqining yaxlitligicha va butun tuzilmasi bilan birgalikda ko'ra olish, pedagogik tizimning rivojlanish qonuniyatlari va yo'nalishlarini tushunish imkoniyatini ta'minlaydi

SEMANTIC FEATURES OF ECONOMIC METAPHORS

N.N. Xayrullayeva

doktorant, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada ingliz va o`zbek tillari nutqida ishlatiladigan iqtisodiy metaforalar va ularning semantik tahlili, o`rganilganlik darajasi kabi muammolar yetarlicha ochib berilgan. Maqolada shuningdek, yetakchi olimlarning metaforalar haqidagi fikrlari ham joy olgan. Keltirilgan misollar O`zbekiston iqtisodiy axborotnomasi hamda bir qator ingliz tilida yoritilgan jurnallardan olingan.*

Kalit so`zlar : *siyosiy iqtisod, rivojlanish tendensiyalari, leksik qarz olish, hissiy obrazlar, ijtimoiy–siyosiy lug`at*

Аннотация: *В статье содержится достаточно информации об экономических метафорах, используемых в английской и узбекской речи, и их анализе, об уровне изучения. В статье также представлены взгляды ведущих ученых на метафоры. Примеры взяты из Экономического бюллетеня Узбекистана и ряда англоязычных журналов.*

Ключевые слова: *политическая экономия, тенденции развития, лексические заимствования, эмоциональные образы, социально-политический словарь.*

Abstract: *This article sufficiently describes the economical metaphors used in English and Uzbek speech and their analyses, the level of study as well. The article also contains the views of leading scholars on metaphors. The examples are taken from The Economic Bulletin of Uzbekistan and a number of English magazines and newspapers*

It is known that existence is formed on the basis of a whole system. Its constituent elements are mutually dependent and mutually conditioned. In the words of Sh. Iskandarova, a point scientist, "The elements that make up the universe surrounding us are united into classes according to certain common signs, and the elements united into a class are separated according to their different signs in the structure of this class." In the language system, lexemes also require each other, they are combined into certain groups based on their specific meanings. Each lexeme forms a connected group of other lexemes with a specific unit... Such groups are called lexeme semantic groups (LSG). LMGs together form a topic group of lexemes (LST). Learning language units based on field theory is important in learning vocabulary. Also, considering the lexicon of the Uzbek language as a macrofield, dividing it into microfields is very effective in creating ideographic and thesaurus dictionaries. Field theory allows to look at the language as a whole system consisting of certain units and to study it. Famous scientist D. According to Rothbart, metaphor theory relies on semantic field theory. The study of the economic

metaphors listed in our study by dividing them into meaningful groups opens the way to a deeper study of their semantic properties.

Metaphor researcher R. Hoffman expressed the following opinion about the use of metaphor in the speech of representatives of all fields: "Metaphor is very practical. ... It can be used as a descriptive and explanatory tool in any field: in psychotherapeutic conversations and conversations between airline pilots, in ritual dances and programming language, in art education and quantum mechanics ... Metaphor, wherever it is used, human behavior, knowledge and enriches his understanding of the language. It is understood that the metaphor is also used in the field of economics.

Economic discourse is essentially metaphorical in nature, and at the same time economics serves as a model for metaphorically conceptualizing other fields.

Natalya Striuk, a researcher at the Donetsk National University, in her article on metaphors reflected in inscriptions on clothes and their semantic grouping, notes that metaphors can be divided into the following semantic groups:

- 1) anthropomorphic metaphors;
- 2) zoomorphic metaphors;
- 3) botanomorphich metaphors;
- 4) creature-based metaphors;
- 5) artifactomorphic metaphors;
- 6) ecomorphich metaphors;
- 7) emotional metaphors.

A.P. And Chudinov groups metaphors as follows:

- a) anthropomorphic metaphor (means transferring human qualities);
- b) metaphor related to nature (used to describe animals, plants, natural phenomena, person or subject);
- c) social metaphor (concepts are given a new meaning, social environment, including crime, war, game, sports, theater, economy, etc.);
- d) artifact metaphor (mainly materials, buildings, technical tools, household items, other forms).

Economic metaphors, which are the object of our research, are included in the group of social (sociomorphich) metaphors from the above classification.

Russian scientist N. While researching the language of the economic sphere, Karpova notes that economic metaphors can be semantically divided into three thematic groups:

1. Economic metaphors describing general economic phenomena (economic situation of the country, individual manifestations of economic development, specific economic policy, etc.).
2. Economic metaphors describing various aspects of business.
3. Economic metaphors describing business relations in the field of entrepreneurship.

When dividing economic metaphors into certain lexical-semantic meaning groups, the following two different approaches can be taken as a basis:

1. Economic metaphors based on formal affiliation;
2. Economic metaphors based on semantic affiliation.

In economic metaphors based on formal affiliation, the main criterion is to unite metaphors that have formal commonality, that is, that have a common component in the structure, into one thematic group. Based on this criterion, it is quite easy to divide economic metaphors into thematic groups. Therefore, the unity that unites them is clearly reflected in the expression plan of such metaphors. For example: ENGLISH EXAMPLE SIMILAR TO THIS Similar examples can be seen in English. For example: debt crisis, milestone of debt, the liquidation of government debt, the mountain of debt, the walking debt. In these examples, we can see that the unifying unit is debt and indebtedness. In another example, we can find economic metaphors related to the word economy: stifle the knowledge economy, strangling attempt to economy, economy is slowly strangled, to help resuscitate the economy, "breathing space" for the economy, economies need the kiss of life, breathe life into the economies, economy should feed, the gulf eating up the economy, energy step to economy, environmental step to economy, economy is thirsty, economy is starving, nurturing an economy, economy is taking medicine, fuel-hungry economy, feeding the black economy, feeding the wider economy, FEEDING BACK LOCAL ECONOMY, ECONOMY WEANING THE PROFIT, AN INVESTMENT-STARVED ECONOMY, AN ECONOMIC BOOM, ECONOMY IS BITING, ECONOMY SHOULD SWALLOW THE OFFER, THE ECONOMY WAS HUMMING, THE ECONOMY SPLUTTERED SUCKING ECONOMY, THE SLOW –GRILLED ECONOMY, PROMOTIVE A CIRCULAR ECONOMY.

In the economic metaphor of the Uzbek language, the presence of a monetary component in each of the economic metaphors, such as money circulation, money flow, money circulation, money mass, nature of money, electronic money, unites them into the thematic group of economic metaphors related to money. In English, you can also find a number of metaphors that combine the theme of money, such as monetary snake, monetary storm, monetary flexibility, monetary offensive. Market relations, labor market, foreign market, domestic market, wholesale market, online market, market economy, in English. Similarly, in economic metaphors such as bear market, to flood the market, keep the market afloat, buoyant markets, to conquer the market, marketing tactics, market ills, the unifying component is the market unit, and these metaphors belong to the thematic group of economic metaphors related to the market.⁴⁶

In economic metaphors based on semantic affiliation, formal similarity is hardly observed. Here, semantic generality is taken as the main criterion. Economic metaphors

⁴⁶ Теория метафоры: Сборник: Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой; Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. — М.: Прогресс, 1990. — С. 6.

based on semantic affiliation are united into a thematic group based on semantic (spiritual) commonality.⁴⁷ For example: economic metaphors such as black market, falling dollar rate, breaking money, currency exchange semantically merge into the lexical thematic group of financial services.

REFERENCES :

1.Искандарова Ш. М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони). Филол. фан. доктори дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – Б. 6.

2.Колотнина Е.В. Метафорическое моделирование действительности в русском и английском экономическом дискурсе. Дисс.... канд.филол.наук.- Екатеринбург, 2001. - 261с. –стр.4

3.Махмараимова Ш. Ўзбек тили метафораларининг антропоцентрик тадқиқи (номинатив аспект): Фил.фанлари доктори дис. – Самарқанд, 2020;

4. Nematillokizi, K. N., Nematillokizi, K. N., Khabibulloeva, K. S., & Salimovna, N. G. (2020). Professional proficiency progress in a foreign language on the example of students of tourism. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1249-1255.

5. Nematilloeva, K. N. (2017). Frazologizmlar va ularning semantik va qiyosiy tahlillari. *Интернаука*, 11(15) Часть

⁴⁷ Striuk N. Semantic Classification Of Metaphors In Ukrainian And English Inscriptions On Clothing. *Orbis Linguarum*, Volume 19, Issue 1. P. 23-33. doi: <https://doi.org/10.37708/ezs.swu.bg.v19i1.3>

YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASI-MA'NAVIY-MAFKURAVIY ISLOHOTLAR ASOSI SIFATIDA

Islombek Sodiqov

O'zMU 2-kurs magistranti

Mazkur ishda Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ma'naviy yangilanishlar, mafkuraviy o'zgarishlar hamda islohotlar o'ziga xos tahlil qilingan. Ma'naviy-mafkuraviy islohotlarning metodologik bazasi sifatida Yangi O'zbekistonning zamonaviy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan strategiyaning mafkuraviy, ijtimoiy va siyosiy masalalarga doir ayrim muammolarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, Renessans, Taraqqiyot strategiyasi, ma'naviy makon.

“Mening nazarimda, insoniyat dunyosining buyuk bir yoritqichi-ma'naviyat chirog'i bor. Bu chiroqning boshqalardan farqi shuki, u insonning ongi va tafakkurini yoritadi, qalbi, vijdonini uyg'otadi, odamiylik hissini kuchaytiradi.

O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishgan ekanmiz, har bir yurtodoshimizning qalbi va ongida ana shunday ma'naviyat shu'lasini porlashi va bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etishi zarur”

XXI asr insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bashariyat taqdirida inson va jamiyatni ozod etishning yangi bosqichi, yalpi yangilanishlar jarayoni amal qila boshladi. Bunday tarixiy o'zgarishlar dunyo iqtisodiy, ma'naviy hamda mafkuraviy jarayonlarining keng miqyosli yangilanishlar pallasiga kirganligining ravshan ifodasidir.

Umumjahoniy yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, oxir-oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayoniga har bir davlat o'z taraqqiyot ko'lami, ilmiy-ma'rifiy va ma'naviy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qo'shila boshladi.

Yangilanayotgan O'zbekiston jahon hamjamiyati oqimida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-mafkuraviy yangilanishlar dasturini ishlab chiqqan mamlakat sifatida o'ziga xos va o'ziga mos mavqe egallab bormoqda. Bu borada Yangi O'zbekistonda ma'naviy makonni rivojlantirish tub ezgu maqsadlarimizdan biri bo'lib qolmoqda. Xo'sh, ma'naviy makonni o'zi nima?

“Yangi ma'naviy makon nima? Mening nazarimda, u-biz orzu qilayotgan Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'naviy jamiyatdir.”

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, “Islohotlar xalq uchun” tamoyili asosida mamlakatimizda yangilanishlar jarayoni boshlanishiga nazariy poydevor qo'yildi. Davlat tizimi, jamiyat qurilishi va shaxs ma'naviy dunyosini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o'zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini bermoqda.

Davlat, jamiyat va shaxsni yangilash jarayonlari, bu jarayonlarni maqsadli boshqarish nechog'li aqliy shijoat, siyosiy iroda hamda qat'iy matonatni talab etganligiga bugungi kunda amin bo'lib turibmiz.

Yangi O'zbekiston tanlagan yo'l inson qadri ustuvor bo'lgan, huquq va erkliklari huquqiy kafolatlangan xalqparvar davlat va jamiyatni shakllantirish yo'lidir. Bu albatta, inson ongi va tafakkurini o'zgartirish, turmush tarzini yangilash orqali vujudga keltirishning yaxlit tizimini ishlab chiqishni, mazkur tizimni ijtimoiy amaliyotga qo'llash chora-tadbirlarini amalga oshirishni taqozo etib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renesans poydevori" g'oyasini amalga oshirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish va milliy g'oyani rivojlantirish omili ekanligidan dalolat beradi. Bu jihatdan, hozirgi davrda keng tarqalayotgan va aholi ongiga singib borayotgan "Inson qadri" degan konseptual tamoyilni amalga oshirishga qaratilgan islohotlar tahlili muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida strategik rivojlanish bilan bog'liq yo'nalishlar Yangi O'zbekiston strategiyasida quyidagicha o'z aksini topgan:

- erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta'minlash;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy va ma'rifiy sohalarda islohotlarni amalga oshirish;
- global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan iborat.

Ma'naviy hayotni yangilash, mafkuraviy tamoyillarni aniqlab olishda "inson – jamiyat – davlat" omili hozirgi davr zaruratini aks ettirmoqda.

Bu jihatdan Yangi O'zbekiston strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari va mezonlarini quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonining dasturilamali bo'lgan taraqqiyot strategiyasini to'liq amalga oshirish jamiyat a'zolarining islohotlarga daxldorlik tuyg'usi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, mamlakatda islohotlar va yangilanishlarning keng ko'lamda olib borilishi, raqobatbardosh va ochiq pragmatik makonni yaratish, barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang rivojlanishni ta'minlash kabi paradigmalariga asoslanadigan Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renesans poydevorini barpo etish g'oyasi millatni jipslashtiradi;

uchinchidan, jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvining yangilanishi, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi tamoyillariga amal qilinayotganligini ko'rsatadi;

to'rtinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning qadri, ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgani, ularning asl qadriyatga aylanayotgani o'zgarishlar hamda yangilanishlarning tub mohiyatini ifodalaydi;

beshinchidan, mulk huquqiga egalikning yangi shakli vujudga kelayotganligi, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari uyg'unligi tamoyili e'tirof etilayotgan kuchli fuqarolik jamiyati, demokratik boshqaruv, raqibatbardosh bozor iqtisodiyoti mamlakat va xalq ravnaqi asosiga aylanmoqda;

Milliy tiklanishdan milliy yuksalishga o'tish davrida uchinchi Renessans poydevorini qurishga qaratilgan islohotlar markazida milliy g'oya turishi zarur. Chunki, milliy g'oya muayyan xalqning kelajakka intiluvchi maqsadini o'zida mujassamlovchi shiordir. U millatni o'sha maqsad atrofida birlashtiradi, safarbar etadi. Barcha sa'y-harakatlar, intilishlar, bunyodkorlik faoliyati unga muvofiqlashadi. Iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlar, huquqiy, siyosiy, mafkuraviy asoslar, ta'lim-tarbiya tizimi chuqur isloh qilinishi milliy g'oyaning asosiy vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" Toshkent:"O'zbekiston" nashriyoti,2022.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi Farmoni. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" // Veb-sayt O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumot;ari milliy bazasi-www.lex.uz

3. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" O'zbekiston 2017 y

XONQA TUMANIDAGI JOY NOMLARI TOPONIMLARI

Rajabova Dilnoza Maqsud qizi

Urganch Davlat Universiteti

Geografiya yo'nalishi, 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: *Xonqa tumani va undagi geografik obyektlarga qo'yilgan nomlarning kelib chiqish tarixi va ularning ma'no-mazmuni haqida.*

Kalit so'zlar: *Xonqa, Darxos, Kantxo, toponimlar, geografik sharoit, adres.*

TOPONYMS OF KHONKA DISTRICT

Abstract: *About the history of the origin of the names in the Khonka district and the geographical objects in it and their meaning.*

Key words: *Khonka, Darkhos, Kantho, toponyms, geographic conditions, adress.*

Geografik nomlar-yer-suv nomlari, ya'ni toponimlarni, ularning ma'no-ma'zmoni, kelib chiqishi va tarixini o'rganishga tobora ko'p ahamiyat berilmoqda. Har bir toponimda qandaydir ma'no-tarixiy, lisoniy ma'lumot yashiringan. Chunki har qanday geografik nom qandaydir ma'noni anglatadi, afsuski, ko'pgina hollarda toponimlar hozirgi aholi uchun tushunarsiz bo'lib qolgan. Aslida, ma'nosiz nom bo'lmaydi. Joy nomlari chuqur ilmiy, siyosiy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Jamiyat tarixida bo'lib o'tgan xilma-xil voqea-hodisalar joy nomlarida muxrlanib qolgan. Ko'pgina geografik nomlar joylarning geografik sharoiti (relyefi, o'simlik va hayvonot dunyolari), aholining xo'jalik faoliyati (mashg'ulotlari) dan axborot beradi. Hozirgi jamiyatni, zamonaviy sivilizatsiyani, xalqlar va mamlakatlar o'rtasidagi har qanday aloqalarni geografik nomlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Madaniyat va fanning rivojlanishi, tobora avj olayotgan xalqaro aloqalar tilimizda geografik nomlarni borgan sari ko'proq ishlatilishni taqozo qiladi. Bu toponimlarning faqat bir jihati-adreslik funksiyasidir. Yer kurramizda har qanday geografik obyektning o'z adresi bor. Har bir kishi uchun bu adres tug'ilib o'sgan joyidan boshlanadi. Toponimlarning ahamiyati shundagina iborat emas. Bunday deb tushunish geografik nomlar mazmunining qirralarini va xilma-xil axborotlar manbai ekanligini ko'rsata olmaydi. Geografik nomlar-toponimiya asrlar osha xalq ijodining bebaho mevasidir.

Har bir shaharning o'z qiyofasi, o'z tarixi va qismati bor. Ma'lum va mashhur shaharlar bilan bir qatorda kichik shaharlar ham mavjudki, ularni ko'pchilik bilmasligi ham mumkin. Har qanday shaharning shon-shuxrati, avvalambor, uning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Xonqa-shaharcha, Xonqa tumani markazi. Xonqa-“Zikrxona” so'zidan olingan. Xonqa X asrda Darxos deb atalgan. V.B.Bartold “xonaqo” forscha “xona” so'zining so'g'diylar tilida talaffuz qilinishidir, degan.

Xonqa ko'hna va hamisha navqiron Xorazmning qadimiy qal'alaridan biri bo'lgan. U asrlar davomida Quyi Amudaryo mintaqasida voxaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Tumanning geografik jihatdan qulay joyda joylashganligi, ya'ni Buyuk Ipak yo'llari hamda ko'hna Xorazmning qadimiy poytaxtlari-Qo'yqirilgan qal'a, Kat va Xiva shaharlariga yaqinligi, iqtidorli va mehnatkash kishilari uning gullab yashnashiga sabab bo'lgan.

Xorazm tarixini keng va chuqur biladigan S.P.Tolstov, V.B.Bartold, Yaxyo G'ulomov, Bo'riboy Axmedov, Axmadali Asqarov kabi olimlarimiz bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni o'rtaga tashlaganlar. Masalan, Akademik Yaxyo G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilishi tarixi" nomli asarida "Xonqa atamasi "Xonaqoh"so'zidan kelib chiqqan va mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilib, faqat bitta Xonaqoh saqlanib qolgan edi. Bu Xonaqoh atrofida keyinchalik hayot tiklangan va o'sha vaqtdan boshlab shahar Xon-(a)-qo (Xonqa) deb atalgan",-deb ko'rsatadi.

1981-yilda Moskvada nashr etilgan "O'zbek tilining izohli lug'ati" nomli ikki jildlik yirik ilmiy asarda "Xonaqoh" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan:"Xonaqoh" –fors-tojik atamasi bo'lib, masjidning namoz o'qiydigan keng va katta xonasiga aytiladi.

Tilshunoslik fani nuqtayi nazaridan "Xon(a)qo" so'zining Xonqa atamasiga aylanib qolishi tabiiy holdir. Lekin masalaga tarixiy nuqtayi nazardan qaraladigan bo'lsa va dunyoning turli joylarida Anqa, Xonqa, Qanxa, Kangxa, Safardiz nomi bilan ataluvchi joy nomlarining mavjudligi masalaning ancha munozarali ekanligidan dalolat beradi.

Urganch Davlat Universitetining professori, filologiya fanlari doktori Zarifboy Do'simov "Xonqa" atamasi masalasiga aniqlik kiritib, bunday deb yozadi: "Xonaqo so'zining Xonqaga aylanishi hodisasini fonetik jihatdan izohlash qiyin. Chunki "a" harfi so'z o'rtasida puxta o'rnashib qolgan. Umuman turkiy tillarda undoshlar orasidan unli tovush tushishi deyarli uchramaydi. Shunday ekan, Xonqa eron tillariga xos "Kantxo"-qishloq, mustahkamlangan shahar so'zi bilan bog'liq. (Z.Do'simov. "Xorazm toponimlari". Toshkent. Fan nashriyoti. 1985,26-bet).

Eramizdan oldingi II asrlarda Kangxa-Xonqa termini tilga olingan. Shuningdek, Xonqada qishloqlarning nomlari ham turli vaqtlarga borib taqaladi. Tumandagi Qoraqosh, Madir, Tomadurg'adik, Navxos, Namuna, Sarapayon, Olaja, Qirqyop, Amudaryo qishloqlarining toponimikasi bilan qiziqqanimizda har bir qishloqning nomlanishining o'zi bir tarix ekanligiga guvoh bo'lamiz.

Jumladan, Olaja-tumanning qadimiy qishloqlaridan biridir. Xonqa shahridan 10 kilometr uzoqlikda joylashgan. Qishloq aholisi azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, kosibchilik bilan shug'ullangan. Xiva xonligi davrida qishloqda to'qimachilik yaxshi rivoj topgan. Ko'pincha olacha-bez to'qish va undan chopon tikib kiyish rasm bo'lgan. Xalq orasida avloddan avlodga o'tib kelayotgan rivoyatlarga qaraganda, shu qishloqdan olacha chopon kiygan bir paxlavon yetishib chiqqan. Bu paxlavon Xiva xonligiga bo'lgan dushman xujumlarini daf qilishda juda katta mardlik ko'rsatgan. Ana shu pahlavonni Xiva xoni "Olajali" deb atagan va katta in'om-ehsonlar hadya qilgan. Shundan olachali atamasi kelib

chiqqan va qishloq nomi ham “Olaja” deb ataladigan bo’lgan. Madir toponimikasiga to’xtaladigan bo’lsak, Madir qishlog’i-Xonqa shahrining janubiy chegaralarida joylashgan. Bir vaqtlar qishloq o’rtasidan Madra-G’oziobod kanali oqib o’tgan va unda kemalar qatnab turgan. Aytishlaricha qishloq nomi “Mard el” atamasidan kelib chiqqan. Bir paytlar Xorazmni bosib olayotgan yov shu yerga kelganda, qattiq qarshilikka uchraydi. Qishloq yigitlarining jasoratiga qoyil qolgan bosqinchilar bu o’lkani mardlar eli ekan deb ta’riflaydilar va qishloq shu nom bilan ataladi. Keyinchalik Madir shaklida talaffuz etiladi. Bundan tashqari Xonqa tumani markaziy qismidan janubroqda Qoraqosh qishlog’i joylashgan. Bu qishloq nomi tarixiga to’xtaladigan bo’lsak, rivoyatlardan birida aytilishicha Qoraqosh qishlog’i aholisi qo’shni qishloqlar bilan juda yaxshi munosabatda bo’lgan. Ular o’zaro ahillikda mehnat faoliyatini olib borganlar. Qishloq ahli insonlardan qo’lidan kelgan yordamini ayamagan. Bundan mamnun bo’lgan yon-atrofdagi qo’shnilari bu qishloq insonlariga mehri-muhabbati oshib “Sizlarni ko’zimiz ustida, ya’ni Qora qoshimizdek asrasak arziydi” deya hurmat ko’rsatganlar. Shu tariqa qishloq nomi “Qoraqoshliklar” deb atalgan va keyinchalik bu ibora qishloq nomiga aylangan. Qishloqning yarmidan ko’p hududi g’arbiy qismiga to’g’ri keladi. Ba’zan Jirmiz yoki Katta Jirmiz deb yuritiladi. Bu nomning paydo bo’lishi haqidagi rivoyatga ko’ra bu yerda bir buzruk (ulug’ zot) yashab o’tgan. Uning bir qancha shogirdi bo’lgan ekan. Buzruk shogirdlaridan biriga ko’proq mehr qo’yib “Sen Jirimsizsan” (o’ta yuvosh) der ekan. Shundan keyin o’rtoqlari uni “Jirimsiz shogird” deb atay boshlaganlar. Shogird yillar o’tib, keksayib vafot etgach uning hurmati uchun qishloqqa nomi berilgan. Yillar o’tib “Jirimsiz” nomi Jirmiz shaklida talaffuz qilina boshlagan. Tumanning kunchiqar tomonida Tomadurg’adik qishlog’i joylashgan. “Toma” atamasining ma’no-mazmuni haqida turfa xil fikrlar mavjud. Ayrim qariyalarning aytishicha, hozirgi “Toma” aholi punkti o’rnida odamlar yashamagan, bu joylar faqat o’tloq va qamishzorlardan iborat bo’lgan. Odamlar bu joylarga asta sekin chorva mollarini olib kelib boqishgan, dehqonchilik qilishgan. Toma-toma ko’l bo’lur, deganlaridek, odamlar bu yerni obod diyorga aylantirganlar. Xalq rivoyatlarida Durvadik yoki Durg’adik so’zining ma’nosi “durlar, durdonalar vodiysi”, “dur, durdona, qimmatli, qimmatbaxo” bo’lib, “gadik” ikki yopning (ariq) torayib, kichrayib oqqan joyiga “gadik”, ya’ni Durgadik (dur-gadik) deyilgan. Qishloqning kunchiqarida “Olchin” degan aholi punkti bor. Bu ham o’zbek urug’larining qadimiy nomlaridan bo’lib, ular ham Chingizxon boshliq mo’g’ul bosqinchilariga qarshi fidokorona jang qilganlar.

Hozirgacha nashr etilgan matbuot asarlarida va qo’lyozmalarda Xonqaning mukammal tarixi, geografik o’rni, etnografiyasi, ijtimoiy kelib chiqishi to’la yoritilmagan yoxud yoritilgan bo’lsada, bizgacha yetib kelmagan. Chet ellik sayyohlar Istaxriy, Maqsudiy, Ibn Rusta, Chjan Kan, Xerman Vamberi, V.B. Bartold, S.P. Tolstov va boshqalarning yo’l xotiralarida, o’zbek olimlari Abul G’oziy, Ogaxiy, Munis, Bayoniy, Y.G’ulomov, M.Yo’ldosheva, A. Fateyev, R. Jumaniyozov, S. Navro’zov, A. Sotliqov, N. Qalandarov, o’lkashunos O’. Xo’janiyozovlarning ilmiy-ommabop maqolalari va kitoblarida Xonqa qal’a manzilgohi to’g’risida gap boradi. Lekin u bizga Xonqa to’g’risida

to'liq ma'lumotlar bera olmaydi. Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, hali bizning tariximizda, toponimikamizda o'rganishimiz lozim bo'lgan taraflari juda ko'p.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- 1.С.П.Толстов, Древний Хорезм. М-Л.1948.
- 2.Do'simov.Z. Xorazm toponimlari.Toshkent.1985.
- 3.G'ulomov.Y.G'.Xorazmning sug'orilish tarixi.-Toshkent:."O'zbekiston Fanlar akademiyasining nashriyoti",1959.
- 4.So'najon Hakimova, O'rinboy Ho'janiozov, Komil Nurjonov, Po'lat Safojev. Xonqa tarixi.Urganch, "Xorazm"-1995 yil.
- 5.Бартольд.В.В.Туркестан в эпоху мангольского нашествия.-М.,Соч.,т.1.,1963
- 6.www.ziyo.com.

FARISHTAM ONAM, YANGIQO'RG'ONIM, MEHRIBONIM.

G'ofurova Feruza

9-maktab targ'ibotchisi

Anotatsiya: *ushbu maqolada Farishtam onam, yangiqorg'onim, mehribonim G'ofurova Feruza tomonidan kengyoritildi.*

Kalit sozlar: *Farishtam onam, Meribonim onam, Yangiqo'rg'onim,*

Xotiring jam bo'lsin sokin hayol,
Farzandlar dog'ida kuydiku ayol.
Biri tog'ing, biri jamoling edi,
Ularning hijroni bag'ringni yedi.
Tog'ing edi umr yo'ldoshing,
Qizlar edi sirdoshing.
Yetarmu endi bardoshing,
Onajon, omon bo'lsin bu boshing
Hayot ekan beshavqat beayov,
Oramizdan ketdilar yurib yayov.
Jannatlarda bulgandir joyingiz,
Izlab toparmizmi poyingiz.
Onajonim bag'rini huvvilatdingiz,
Jigarlar ko'z yoshin duvvilatdingiz
To'rt avlon qayga shoshib ketdingiz
Shosha pisha ul jannatga yetdingiz
Yuzlaringiz nur so'zlaringiz dur edi
Farzandlaringiz bo'lsa xali g'o'r edi
Farzandlarin tashlab ketgan to'rt avlon
Farzandlaring mehri sizga zo'r edi
O'nta bo'lsa o'rni bor edi
Jigarlarga mehri zo'r edi
Mehribon suyukli yor edi
Takrorlanmas to'rt avlon edi
Farishtalar fayzi bor yuzingizdan
Arimasin endi quvonch ko'zingizdan
Bag'ringizni o'rtamasin hech armonlar
Bo'laylik joningizga darmonlar
Nabirayu, chevaralar suyukli momosisiz
Shirin so'zu dillarni oromisiz
Omon buling, buling omon onjon

O'rtamasin hech endi hijron.
Yangiqo'rg'onim
Maqtovlaring zo'r diyorimsan,
Mevalarga kon makonimsan.
Bag'ri qaynoq ota makonim,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Bog'laringda xurriyat shamoli,
Hilpiraydi bog'bon qizning ro'moli.
Kurimlidir qishlog'imning jamoli,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Mehnat qilib tolmas xalqing bor,
Mevalaring hech narsaga qilmas zor.
Atrofig turli-tuman mevazor,
Bu mening Yangiqo'rg'onim!
Kelajak uchun oltin makonsan,
Istiqbolli farzand konisan.
Ming yillar yashasang ha,
Mangu yangi bulib qolasan.
Ox Yangiqo'rg'onim!
Mehribonlarim
Onam mening gul bog'im,
Otam mening qalb tog'im.
Hayotim mazmunlarin,
Asragin ey ollohim.
Dardlarga malham berguvchi
Shifokorim onamsiz
Ilmu ziyo tarqatguvchi
Ziyokorim otamsiz
Qani endi dardingizga
Darmon bo'lsam
Belingizga quvvat
So'zlashga zabon bo'lsam
Bir umr bolam-chaqam deb yashadingiz
Bir umr kuyib pishdingiz mushtipar onam
Ollohim asragin bog'u rog'imni
Asragin ollohim ko'z qarog'imni

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mustaqil izlanuvchi tomonidan yoritildi.

**IJODIY-MADANIY MASALALAR BO'YICHA TARG'IBOTCHILARNING YILLIK ISH REJASI
UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA MA'NAVIY TA'SIRI**

G'ofurova Feruza

9-maktab targ'ibotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada targ'ibotchilik va targ'ibotchilar faoliyati, ularning vazifalari haqida so'z bo'ribgina qolmay targ'ibotchilarning yillik ish rejasi umumta'lim maktab o'quvchilariga ma'naviy ta'siri qanday samar berishi va nima maqsadda ma'naviyatga, ma'rifatga boy ish rejalar tuzilganligi haqida ma'lumot keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *Ijodiy-madaniy, ma'naviyat, ma'rifat, intellektual qobiliyat, targ'ibot tashviqot va hk.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyo-qarashi o'zgarib boryapti. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda "Milliy tiklanishdan- milliy yuksalish sari" va "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz!" degan hayotbaxsh g'oyalarning ahamiyati tobora ortib boryapti.

Bolani yoshligidan badiiy tafakkur qilishga o'rgatish, iste'dodini yuzaga chiqarish uning intellektual rivojida muhim omil sanaladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qaroriga muvofiq, o'tgan o'quv yilidan boshlab o'rta umumta'lim maktablarida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

Ushbu lavozim ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, iqtidorli o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini aniqlash, uni ro'yobga chiqarishni ko'zda tutadi. Aytaylik, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning qattiq belgilangan yillik ish rejasida bajarilishi shart bo'lgan ma'naviy, ma'rifiy, badiiy-adabiy salohiyatga boy bo'lgan yosh o'quvchilarga ijodkorlik eshigining yo'llarini yoritadigan va ularning ma'naviy salohiyatini, tafakkurini, kitobxonlikni maktabda ma'naviy muhitni boyitishga xizmat qiladi.

Ma'naviy muhitda ulg'aygan har bir shaxs albatta vataniga, ona xalqiga, oilasiga fidokorona o'z hissasini qo'shishi barcha ma'rifatli, ziyoli kishiga tafakkuran ma'lumdir.

Targ'ibotchilarning muhim vazifalaridan biri maktabda "Yosh ijodkorlar" to'garagini tashkil qilish va reja asosida mahorat darslarini o'tish ijodkor o'quvchilarga ma'naviy tasir o'tkazibgina qolmay yoshlarning ortidan ulg'ayib kelayotgan murg'ak qalblarga o'rnak bo'lishiga be'minnat xizmat qiladi.

Yosh ijodkorlar to'garagiga "Nutq madaniyati", "Kamoliddin Begzod izdoshlari", "Mohir qo'llar", "Ilhom", "Yosh jurnalistlar" kabi to'garaklarini o'zi ichiga oladi. Bu to'garaklar faoliyati to'la-to'kis tashkillashtirilsa maktab o'quvchilariga ma'naviy kuch bo'ladi va hayot yo'llarini ilim bog'ining so'nmas gullari bilan bezaydi. Hozirgi kunda

Respublikamiz maktablarida tashkil qilingan to'garaklar ma'naviy kuch bo'lib xizmat qilmoqda.

Targ'ibotchilarning yana biz vazifasi shulki, ijodkor o'quvchilarni nafaqat ijodkor o'quvchilarni adabiyotga qiziquvchi barcha o'quvchilarni to'garakka qiziqtirib, kitobxonlikni oshirish to'garakning asosi bo'lib xizmat qiladi.

Shul nuqtayi nazardan shuni aytish joizki, o'quvchilarni kitob mutolaasiga bo'lgan qiziqishini oshirish maktab ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Istedodli o'quvchilarni atoqli adiblar nomidagi ijod maktablari faoliyati bilan yaqindan tanishtirish ham muhim vazifa sanaladi. Bu orqali ijodkor o'quvchilarni kelgusida ijod maktablarida ta'lim olishlariga motivatsiya bo'ladi.

Targ'ibotchilar ijod maktablari faoliyati bilan ijod maktab haqida uslubiy qo'llanmalar, videoroliklar, kirish imtihonlar shartlari haqida ma'lumotlar bazasini shakllantirish va o'quvchilarga tanishtirish orqali o'quvchilarning ijod maskanlari haqida ma'lumotga ega bo'lishga sabab bo'lmoqda.

Ijodkor o'quvchilar o'rtasida turli adabiy, ijodiy tanlovlar, festivallar tashil etish va o'tkazish o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari qanday darajada ekanligini bilish ularning bilimni yanada oshirishga sabab bo'libgina qolmay targ'ibotchilar o'z faoliyatini baholash imkoniga ega ekanligini barcha targ'ibotchilar bilishadi.

Maktabga taniqli yozuvchi shoirlarni jalb qilish orqali adabiy-badiiy kechalarni tashkil etish maktabda ma'naviy muhitni yanada yorqinlashtiradi va o'quvchilarda havas tuyg'usining rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Targ'ibotchilar O'zbek va jahon adabiyoti eng sara durdonalarini targ'ib qilish orqali kitobxonlikni yanada rivijlanishga sabab bo'ladi. O'zbek va jahon adabiyoti eng sara durdonalari bilan o'quvchilarni tanishtirish kitob asosida suratga olingan badiiy kinofilimlarni ota-onalar uchun yaratilgan ijtimoiy tarmoqqa joylashtirib borish va badiiy kinofilimlarni oilaviy ko'rish va kitobdagi asar va badiiy kinofilimni tahlil qilishni tavsiya etish maqsadga muvofiq ish ekanligini bilamiz.

Yana shuni takitlash kerakki, maktab o'quvchilar orasidan "Targ'ibotchi kitobxon o'quvchi" tadbirlarini tashkil etish orqali targ'ibotchi o'quvchilar bilan alohida shug'ullanishga yana bir zamin yaratilgan hisoblanadi.

Targ'ibotchilarning yana bir vazifalaridan biri shuki, o'quvchilarning ijodiy ishlarini va adabiy-badiiy tadbirlarini OAV keng targ'ib etish orqali o'quvchilarga berilayotgan e'tibor deb o'ylasak adashmaymiz. Bunday vazifalar maktablarda faoliyat yuritayotgan ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning vazifasidir. Shuni aytish o'rinlidir o'tgan yilning 22-23-noyabr kunlari Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida targ'ibotchilar ishtirokida o'tkazilgan amaliy seminar-trening targ'ibotchi lavozimida ishlayotgan ma'rifatli kishining yo'lini yanada yoritib aniq maqsad va vazifalarini mukammal tushunishga yechim bo'lgan edi.

Ikki kun mobaynida targ'ibotchilarga o'z sohasining yetuk mutaxassislari, jumladan, xalqaro sertifikatga ega trenerlar, yozuvchi-shoirlar tomonidan mahorat darslari o'tkazildi, taqdimotlar uyushtirildi. Mashg'ulotlarda targ'ibotchilar ham amaliyot davomida orttirgan tajribalari va taklif-mulohazalarini hamkasblari bilan o'rtoqlashdi. Tayyorlangan trenerlar 13-28-dekabr kunlari oralig'ida barcha hududlarda targ'ibotchilar uchun seminar-treninglar tashkil etishdi. Endilikda trenerlar tomonidan qishki ta'til davrida tuman (shahar)larda targ'ibotchilarni jadval asosida, o'qitish ishlari olib borildi. Xalq ta'limi vazirligi, Jurnalistlar ijodiy uyushmasi va Yozuvchilar uyushmasining takliflari hamda joylardagi targ'ibotchilar bildirgan fikrlar bir yerga jamlanib, uslubiy qo'llanma loyihasi ham tayyorlandi. U joriy yilda chop etilib, barcha targ'ibotchilarga tarqatiladi.

Ayni paytda har bir hududda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilarning o'z telegramm guruhlari yoki kanallari (masalan: Sherobod tumani ijodiy targ'ibotchilar maktablarda ham Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi hokazo) ochildi. Ushbu guruhlar jami 72 nafar targ'ibotchini qamrab olgan. Targ'ibotchilar o'rtasida har yili "Yilning eng namunali ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchisi" tanlovi tashkil etilmoqda.

XULOSA qilsak; bu joriy etilgan lavozimda ishlayotgan ziyoli kishilar o'z vazifasini to'laqonli bajaradi va yurtimizga ma'naviy kuch bo'ladi.

So'zim yakuni shuki, maktab ijodiy madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar albatta umid qilamiz yoshlarning ma'naviyatiga ma'naviyat qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston respublikasi prezidenti qarori: " "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli
2. Internet saytlaridan foydalanilmadi.
3. Mustaqil izlanuvchi tomonidan yoritildi.

PLANNING AND CONDUCTING FOREIGN LANGUAGE CLASSES IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTION

Usmonov Abdulhakim Yashnarjon son

*Is a student of the 4th stage of the National University of Uzbekistan named after
Mirzo Ulugbek*

Abstract: *Primary school students in rural areas usually grow up in conditions far away from the English language environment, and children's thinking remains abstract, the process of acquiring new knowledge is always based on emotions. Therefore, English teachers of kindergarten age make full use of materials around students, flashcards, and other teaching aids in teaching English through easy methods. When teaching words like "banana" and "apple", teachers can simultaneously teach new words for color by showing fruits like banana and apple.*

Key words: *MTT, foreign language, children, information, technique, methodology, method, educator.*

Children learn how to use them in a foreign language through classroom objects to organize educational activities.

Of course, the teacher's methodology plays a big role in the use of materials during teaching. For example, when teaching related words, you first show the object to the child and encourage the child to say it, the students pronounce the words, and repeat the new word again using the pictures on the cards to reinforce what they said. pronounced. In the teaching of words, teachers can determine the content of the text, and in order to attract the attention of students, the educator can draw their picture on the board by pronouncing the words together with them.

Therefore, currently in China, a teacher is required to have drawing skills. This not only reduces the difficulty of teaching, but also helps students to gradually consolidate the knowledge they have learned. In order for students to feel their progress in the process of learning the English language, it is necessary to have a perfect approach to each educational activity. This is the only way children will be motivated to learn. Today, Chinese kindergarten-aged children are more capable of receiving new knowledge, so the training programs in kindergartens have been intensified accordingly.

1.2 Using songs and action games to improve the classroom environment.

Creating a flexible classroom atmosphere is sometimes more important than any teaching method. In the class, at the beginning of the lesson, all the children, led by the teacher, sang a song together with a nice English song and danced a little to its tune. This in itself will help them exercise their bodies, become more energetic and memorize the lyrics of the song faster. The English environment, importantly, allows for a natural entry into a good learning atmosphere. Children's ability to self-control is weak, and it is

difficult for them to concentrate and hold their attention during the whole lesson. Therefore, the teacher should provide songs that children like to listen to, poems or quick sayings to practice the language, or if not, an animated cartoon that children like.

Differensial hisob — matematikaning hosilalar va differensiallarni hisoblash, ularning xossalarini o'rganish hamda funksiyalarni tekshirishga tatbiq qilish bilann shug'ullanadigan bo'limi. 17-asrga kelib Yevropada ishlab chiqarish kuchlarining o'sishi, turli mashina va inshootlarning yaratilishi, kemasolikning rivojlanishi, ballistika (umuman, harbiy ish) talablari aniq fanlar, jumladan matematika oldiga juda ko'p yangi masalalarni qo'yganligi munosabati bilann differensial hisob va integral hisob g'oyalari vujudga keldi. Differensial hisobning vujudga kelishidagi dastlabki ishlar egri chiziqqa urinma o'tkazish masalasini yechishda Ferma, René Descartes va boshqa matematiklar tomonidan qilingan. Isaac Newton va Gottfried Leibniz o'zlaridan avvalgi matematiklarning bu boradagi ishlarini nihoyasiga yetkazdilar. 17-asr oxiri va 18 asr boshlarida matematik analiz mustaqil fan sifatida shakllandi. Hosilalar bilan bog'liq bir necha tushunchalar qadimdan ma'lum bo'lgan bo'lsa ham, ularning hozirgi holini fanga kiritgan deb Isaac Newton (1643-1727) va Gottfried Leibniz (1646-1716) tilga olinadi. Ular mustaqil ravishda (bir-biridan alohida) differensial hisob va hosilalar haqida yozishgan. Ular qo'shgan eng katta hissa bo'lsa integral hisob bilan differensial hisob orasidagi bog'lanishni ko'rsatib berish bo'lgan. Ikkalasi Isaac Barrow (1630-1677), René Descartes (1596-1650), Christiaan Huygens (1629-1695), Blaise Pascal (1623-1662) va John Wallis (1616-1703) kabi matematiklar ishiga tayanishgan. Hosilaning birinchi rivojlatirgan odam deb Barrow tilga olinadi, ammo Newton va Leibniz hosila tarixidagu eng muhim shaxslardir. Chunki ularning hissasi eng katta bo'lgan. Newton differensial hisbodan nazariy fizikda birinchi qo'llangan, Leibniz bo'lsa hozirda ishlatiladigan belgilashlarning katta qismini ishlab chiqqan. Hosilalar ko'p maqsadlarda ishlatiladi. Hosilada funksiyaning turli qiymatlarida o'zgarish tezligini o'rganishda keng qo'llaniladi. Yana hosilalar yordamida optimizatsiya masalalari yechiladi. Bunday masalalarda berilgan funksiyaning maksimum yoki minimum qiymatlari topiladi. Optimizatsiya masalalari iqtisod fanida juda keng ishlatiladi. Differensial va integral hisob bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Integrallar egri chiziq ostidagi yuzani va tekislik ostidagi hajmni hisoblashda qo'l keladi

Integral hisob — integrallar va ularning xossalarini, hisoblash usullarini, tatbiqlarini o'rganuvchi matematika bo'limi. I. h. taraqqiyoti va mazmuni differensial hisob taraqqiyoti va mazmuni bilan uzviy bog'liq. I. h. differensial hisob bilan birga cheksiz kichik miqdorlar analizini (qarang Matematik analiz) tashkil qiladi. 17-asrga kelib, texnika va tabiiy fanlarning taraqqiyoti matematika oldiga juda ko'p yangi masalalarni, jumladan,

murakkab geometrik shakldagi jismlarning yuzini, hajmini, og'irlik markazini hisoblash masalalarini qo'ydi. Bularni aniqlashning qadimgi eski usullari o'rniga yangi va kuchli matematik usullar yaratish zaruriyati tug'ildi. Shu davrda I. h. vujudga keddi. I. h.ning asosiy tushunchalari aniq va aniqmas integral tushunchalaridir. I. h.ning turli tatbiklarida bu aniqmas integrallarga mos aniq integrallarning ahamiyati katta bo'lgani uchun ular yaxshi o'rganilgan va qiymatlari hisoblangan jadvallar tuzilgan.

Integral tushunchasi bir necha haqiqiy o'zgaruvchining funksiyalari uchun ham, kompleks o'zgaruvchining funksiyalari uchun ham aniqlangan va xossalari yaxshi o'rganilgan

Nyuton-leybnits formulasi, aniq integralda o'zgaruvchini almashtirish va bo'laklab integrallash

Aniq integrallarni integral yig'indining limiti sifatida bevosita hisoblash ko'p hollarda juda qiyin, uzoq hisoblashlarni talab qiladi va amalda juda kam qo'llaniladi. Integrallarni topish formulasi Nyuton-Leybnits teoremasi bilan beriladi.

Teorema. Agar $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning $[a,b]$ kesmadagi boshlang'ich funksiyasi bo'lsa u holda aniq integral boshlang'ich funksiyaning integrallash oralig'idagi orttirmasiga teng ya'ni

(1)

tenglik Nyuton-Leybnits formulasi deyiladi.

Isbot. $F(x)$ funksiya $f(x)$ funksiyaning biror boshlang'ich funksiyasi bo'lsin, u holda 1-teoremaga ko'ra funksiya ham $f(x)$ funksiyaning boshlang'ich funksiyasi bo'ladi. Berilgan funksiyaning ikkita istalgan boshlang'ich funksiyalari bir-biridan o'zgarimas S qo'shiluvchiga farq qiladi, ya'ni $F(x)=F(x)+S$

Shuning uchun: C -o'zgarimas miqdorni aniqlash uchun bu tenglikda $x=a$ deb olamiz:

Bo'lgani uchun $F(a)+C=0$. Bundan $S=-F(a)$. Demak

Endi $x=b$ deb Nyuton-Leybnits formulasini hosil qilamiz:

Yoki integrallash o'zgaruvchisini x bilan almashtirsak: belgilash kiritib, oxirgi formulani qo'yidagicha qayta yozish mumkin:

Teorema isbotlandi.

Integral ostidagi funksiyaning boshlang'ich funksiyasi ma'lum bo'lsa, u holda Nyuton-Leybnits formulasi aniq integrallarni hisoblash ushun amalda qulay usulni beradi. Faqat shu formulaning kashf etilishi aniq integralni hozirgi zamonda matematik analizda tutgan o'rnini olishga imkon bergan. Nyuton-Leybnits formulasi aniq integralning tatbiqi sohasini ancha kengaytirdi, chunki matematika formula yordamida xususiy ko'rinishdagi turli masalalarni yechish uchun umumiy usulga ega bo'ldi.

Misollar.

O'zgaruvchini almashtirish
Bizga aniq integral berilgan bo'lsin, bunda $f(x)$ funksiya $[a,b]$ kesmada uzluksizdir. deb ya'nio'zgaruvchi riritamiz, bunda va uning hoailasi kesmada uzluksiz bo'lsin. Faraz qilaylik bo'lsin. Bu shartlar bajarilganda qo'yidagi tenglik o'rinli bo'ladi:

(2)

Bu tenglikni isbotlash uchun (2) formulaning o'ng va chap qismlariga Nyuton-Leybnits formulasini qo'llaymiz:

Aniq integral (2) formula bo'yicha hisoblaganda yangi o'zgaruvchidan eski o'zgaruvchiga qaytish kerak emas, balki eski o'zgaruvchining chegaralarini keyingi boshlang'ich funksiyaga qo'yish kerak.

Misol.

integralni hisoblang.

Yechish. $x+1=t^2$ deb almashtirsak, $x=t^2-1$, $dx=2tdt$ bo'ladi/ integrallashning yangi chegaralari $x=3$ bo'lganda $t=2$.

$x=8$ bo'lganda $t=3$ u holda

integralni hisoblang.

Yechish. $x=\sin t$ deb almashtirsak, $dx=\cos t dt$, $1-x^2=\cos^2 t$ bo'ladi. Integrallashning yangi chegaralarini aniqlaymiz: $x=0$ bo'lganda $t=0$

$x=1$ bo'lganda

U holda:

РОЛЬ ВИЗУАЛЬНОЙ ГЕОМЕТРИИ НА ЗАНЯТИЯХ ИНЖЕНЕРНОЙ И КОМПЬЮТЕРНОЙ ГРАФИКОЙ

Боймуратов Фаррух Хамзаевич
КарИЭИ. ассистент

Аннотация: *Мақолада, ўқув-муҳандислик масаларини ечишда талабада фазовий тафаккур ва фазовий тасавурни ривожлантиришга ёрдам берувчи усуллар ҳақида фикр юритилади.*

Калит сўзлар: эпюр, фазо, тафаккур, геометрик образ, текислик, тасвир.

Аннотация: В статье изложены, о методах которые помогают развитию пространственного мышления и пространственного представления студентов при решение учебно-инженерных задачах.

Ключевые слова: *эпюр, пространство, мышления, геометрический образ, плоскость, изображения.*

Annotation: *In the article expounded, about methods that help development of the spatial thinking and spatial presentation of students at decision educational-engineering tasks.*

Keywords: *epures, space, thinking, geometrical character, plane, images.*

Предметом начертательной геометрии, как известно, является научная разработка и обоснование, теоретическое и практическое изучение способов графического построения изображений пространственных форм на плоскости и графических способов решения различных позиционных и метрических задач.

Способы построения изображений трёхмерных объектов на плоскости – ортогональных проекций, получивших название эпюр Монжа (*Épure* – от фр. чертёж, проект) и изучаемых в начертательной геометрии – основаны на методе проецирования (образование чертежа по методу Г. Монжа). Метод позволяет по чертежу воссоздавать пространственные образы предметов, определять их взаимное расположение и размеры, моделировать и исследовать различные технические формы и конструкции. Начертательная геометрия развивает пространственное воображение и мышление геометрическими образами, необходимое для профессиональной деятельности инженера при решении различных технических задач, выполнении и чтении чертежей.

Начертательная геометрия – первая инженерная дисциплина, с которой начинается техническое образование будущего инженера. Трудности в ее изучении связаны с особым соединением логического мышления и пространственного воображения, которое, по словам выдающегося русского геометра Н.А. Рынина, «является ... таинственной и мало поддающейся изучению точными науками способностью человеческого духа...». Соединение этих двух возможностей

человеческого ума создает новый уровень мышления – пространственное мышление, которое дает возможность оперировать образами в пространстве и без которого невозможны любая инженерная деятельность, инженерное творчество и технический прогресс.

При изучении начертательной геометрии решается несколько основных учебно-инженерных задач:

усвоение понятий начертательной геометрии и создание графической базы данных изображений геометрических элементов;

усвоение способов и правил построения изображений пространственных форм на плоскости;

развитие навыков создания пространственных образов предметов на основе логического анализа их изображений, т.е. развитие пространственного мышления;

усвоение способов и алгоритмов графических действий для решения различных практических метрических и позиционных задач на плоскости;

получение навыков применения методов и понятий начертательной геометрии в решении задач геометрического конструирования в практике автоматизированного выполнения чертежей инженерного компьютерного трехмерного моделирования.

Умение выполнять чертежи и решать различные практические технические задачи в компьютерных графических системах возможно только на базе начертательной геометрии, поскольку программное обеспечение основано на теоретических положениях, понятиях и способах решения геометрических задач, изучаемых исключительно в начертательной геометрии.

Решение первых трех задач требует знания теоретических положений начертательной геометрии и умения выполнять умственные операции абстрагирования и анализа элементов изображаемого предмета, а также умения по заданному чертежу создавать пространственный образ изображенного предмета, что требует навыка выполнять операции графического анализа изображений и графического их синтеза для создания цельного представления о предмете. Графический анализ геометрических элементов предмета или его заданных изображений возможен в том случае, если сформирована база графических данных об изображениях отдельных геометрических образов и их взаимных положениях, используемых при выполнении чертежа – точке, прямых, плоскостях, поверхностях и т.д. Графическая база данных в памяти дает возможность изображать любые геометрические элементы и их всевозможные комбинации, а ее создание возможно только на основе графических характеристик проекций этих элементов, которые мы назвали графическими опорами.

Графический синтез изображений предмета на чертеже на основе графической базы данных позволяет считывать с помощью графического анализа заданную информацию и включает работу пространственного воображения, объединяя

плоские проекции предмета в его объемный цельный образ. Эта сложнейшая умственная работа и есть пространственное мышление, развитие которого и происходит в процессе изучения начертательной геометрии. Сформированная база графических опор и развитое пространственное мышление позволяют сократить процесс графического анализа и синтеза изображений и создают возможность быстрого и грамотного выполнения и чтения чертежей.

Решение четвертой учебной задачи требует теоретических знаний, наличия графической базы данных и достаточного уровня пространственного мышления, поскольку для решения любой задачи начертательной геометрии необходимо предварительно выполнить анализ текстового условия и графический анализ заданных изображений, построить мысленную образную модель задачи, определив тему задачи и графический алгоритм ее решения, и выполнить графические построения на чертеже.

Усвоение начертательной геометрии наряду с неумением большинства студентов выполнять графические логические действия в умственном пространстве затрудняется также обширностью и новизной теоретического и графического иллюстративного материала. Проверка студенческих конспектов показывает, что графические иллюстрации выполняются плохо и с ошибками, а текстовый материал записывается сокращенно и часто вообще отсутствует. Это говорит о том, что конспект графической дисциплины вести трудно. По учебникам усвоить предмет также непросто, так как материал перегружен поясняющими графическими иллюстрациями и описаниями.

Решение всех пяти учебно-инженерных задач в процессе обучения начертательной геометрии требует изменения традиционной методики изложения курса, позволяя активизировать и развить логические свойства ума и его возможности пространственного воображения.

Основой вводимых в данной статье является тематическая модульная структуризация материала начертательной геометрии с четкими графическими характеристиками геометрических элементов и алгоритмизацией графических действий по задачам каждой темы : определение модульной структуры каждой темы начертательной геометрии; определение графических характеристик каждого модуля; построение графических алгоритмов для выполнения чертежей и решения типовых задач по каждой теме; разработка модульных графических структурных схем по каждой теме.

Структурные тематические схемы, доведенные до каждого студента, позволят сократить время на конспектирование излагаемого материала и увеличить время на выполнение чертежей и пояснений к ним. Структурные схемы также можно выдавать студентам для ознакомления с темой каждой последующей лекции, чтобы они были подготовлены к восприятию нового материала, что, безусловно, повысит результативность обучения.

Практика применения данной методики, включающей первые четыре из перечисленных пункта, повышает усвоение начертательной геометрии студентами, о чем свидетельствуют владение ими материалом и подход к решению экзаменационных и зачетных задач и оценки студентов с относительно небольшим количеством неудовлетворительных баллов. Составление модульных структурных тематических схем является следующим шагом в разработанной методике изложения начертательной геометрии, и мы надеемся, что их внедрение в практику обучения, наряду с уже наработанными методами, позволит повысить качественный уровень усвоения начертательной геометрии и развития пространственного мышления, необходимых для изучения дальнейших разделов инженерной графики, специальных технических дисциплин и профессиональной деятельности.

Начертательная геометрия как основополагающий раздел учебной дисциплины «Инженерная графика» изучается вначале. Последующие разделы дисциплины – «Проекционное черчение», «Машиностроительное черчение», «Инженерная компьютерная графика и моделирование» – изучаются позже в названном порядке, но могут изучаться и параллельно с начертательной геометрией. Таким образом, инженерная графика, является объединительным курсом, неся основную нагрузку в графической подготовке инженера как важного компонента его общепрофессиональной подготовки. Глубина изучения отдельных тем начертательной геометрии может быть различной, что устанавливается учебными программами по инженерной графике в зависимости от направления и профиля специальности, количества часов, выделяемых на изучение дисциплины, её расположения в учебном плане.

Традиционное изучение разделов инженерной графики и особенно раздела компьютерной графики и моделирования должно быть согласовано с изучением предшествующего им или изучаемого параллельно раздела начертательной геометрии. На протяжении всего периода изучения дисциплины должна постоянно подчёркиваться взаимосвязь обоих разделов черчения и компьютерной графики с начертательной геометрией, а изучение тех или иных тем должно вестись после окончательного изучения соответствующей темы начертательной геометрии.

Основные выводы. Начертательная геометрия развивает пространственное воображение и мышление геометрическими образами, необходимое для профессиональной деятельности инженера при решении различных технических задач, выполнении и чтении чертежей.

Графическая база данных в памяти студента дает возможность изображать любые геометрические элементы и их всевозможные комбинации, а ее создание возможно только на основе графических характеристик проекций этих элементов.

Основой вводимых в данной статье является тематическая модульная структуризация материала начертательной геометрии с четкими графическими характеристиками геометрических элементов.

СПИСОК ЦИТИРОВАННЫХ ИСТОЧНИКОВ:

1.Сторожилов, А.И. Обучение студентов решению геометрических задач с использованием трехмерного компьютерного моделирования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.02 / Бел. гос. пед.ун-т. – Минск, 2002, 166 с.

2.Свичкарева, Г.Н. Оптимизация структуры и содержания графических дисциплин с позиции модульно-компетентностного подхода / Г.Н. Свичкарева, Т.В. Андрюшина, В.А. Ковалев // Геометрия и графика. – 2013– Том 1. Вып.1. – С. 77-79.

3.Бубенников, А.В. Начертательная геометрия. Задачи для упражнений / А.В.Бубенников. М.: Высш. школа, 1981- 296 с.

4.Рукавишников, В.А. Геометрическое моделирование как методологическая основа подготовки инженера. – Казань: Изд-во Казан. ун-та, 2003. –184 с.

5.Монж, Г. Начертательная геометрия: учебник. – М.: Изд-во Академии наук , 1947. – 291 с.

"RAHBAR SHAXSI PSIXOLOGIYASI VA MULOQOTINING SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI"

Nurmuratov Erkin Boymurodovich

TerDu magistranti

Annotatsiya: *Maqolada boshqaruv faoliyatining psixologik jihatlari muhokama qilinadi, rahbarlarining bugungi kundagi faoliyati, uning psixologik xususiyatlariga alohida e'tibor beriladi, rahbar va boshqariladigan obyektning o'zaro munosabatlaridagi ta'siri, ularni optimallashtirish shartlari, umuman olganda boshqaruv faoliyati samaradorligini ta'minlash borasidagi yo'l yo'riqlar batafsil bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *boshqaruv, faoliyat, professionalizm, ob'ekt, sub'ekt, samaradorlik, psixologik.*

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi ko'p jihatdan rahbarlarga, ularning boshqaruv sohasidagi professional mahoratiga bog'liq. Bu borada birinchi navbatda rahbar kadrlarning, davlat xizmatchilarining fuqarolik jamiyatlari institutlari hamda odamlar bilan ishlay olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor berish zarur.

Bunday qobiliyat va malakani esa maxsus ta'lim tadbirlari orqaligina rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan, bugungi kunda boshqaruv sohasi, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o'ta muhim masala sifatida o'z natijasini kutmoqda. Ushbu sohadagi konkret natijalarga yo'nalgan tadbirlar esa aynan pedagogika va psixologiya fani oldiga dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Masalan, turli boshqaruv sohalarida lavozimlarga rahbar kadrlarni tayinlashda munosib nomzodlarni tanlash, ularning boshqaruv salohiyati va qobiliyatini adolatli baholash zarurati doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Aniqlangan qobiliyat va shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish esa, yana bir muhim pedagogik va psixologik tadbir sifatida o'z ahamiyatiga ko'ra avvalgisidan qolishmaydi. Zamonaviy rahbarlarga xos bo'lgan professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislat va fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim va malakasi hamda qobiliyatini integratsiyalash zarurati tug'iladi. Axir pirovard maqsad – yaxlit, bir butun va o'zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo'lgan rahbar shaxsini shakllantirishdan iboratdir.

TADVIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI. Bunday qobiliyat va malakani esa maxsus ta'lim tadbirlari orqaligina rivojlantirish mumkin. Shu munosabat bilan, bugungi kunda boshqaruv sohasi, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasidagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish o'ta muhim masala sifatida o'z natijasini kutmoqda. Ushbu sohadagi konkret natijalarga yo'nalgan tadbirlar esa aynan pedagogika va psixologiya fani oldiga dolzarb vazifalarni qo'yimoqda. Masalan, turli boshqaruv sohalarida lavozimlarga rahbar kadrlarni

tayinlashda munosib nomzodlarni tanlash, ularning boshqaruv salohiyati va qobiliyatini adolatli baholash zarurati doimo dolzarb masala bo'lib kelgan. Aniqlangan qobiliyat va shaxs imkoniyatlarini rivojlantirish esa, yana bir muhim pedagogik va psixologik tadbir sifatida o'z ahamiyatiga ko'ra avvalgisidan qolishmaydi. Zamonaviy rahbarlarga xos bo'lgan professional va shaxsiy sifatlarni tarkib toptirishda shaxsning xislat va fazilatlarini, uning tajribasi, mavjud bilim va malakasi hamda qobiliyatini integratsiyalash zarurati tug'iladi. Axir pirovard maqsad – yaxlit, bir butun va o'zaro muvofiqlashgan ichki tizimga ega bo'lgan rahbar shaxsini shakllantirishdan iboratdir.

TADQIQOT NATIJALARI. Umuman olganda, boshqaruv tarixini boshqaruv sub'ekti va ob'ekti o'zaro raqobatining rivojlanishi sifatida tasavvur etish mumkin. Bu raqobatda ob'ekt, ya'ni xodim doimo rahbardan o'zishga intiladi, uning murakkab faoliyatini o'zlashtirgisi va o'z pozitsiyasini kengaytirib borish niyatida bo'ladi. Rahbar esa, xodimni o'z itoatida ushlab uchun boshqaruvning yangidan – yangi va murakkab uslublarini "o'ylab" topadi va avvalambor, ilm hamda qonuniy vakolatlar asosida o'z pozitsiyasini mustahkamlashga intiladi. Bunday "bellashuvda" rahbar nafaqat g'olib bo'lishi, balki yutqazib qo'ymasligi eng muhim boshqaruv shartidir. Buning uchun esa rahbar boshqaruv sohasida yuksak mahoratga erishishi, professionalizmning yuqori darajasiga chiqishi lozim. Boshqaruvni raqobat sifatida qabul qilish albatta boshqaruv mohiyatidan chetlashish bo'lardi. Har holda boshqaruvning asosiy maqsadi tashkilot maqsadlariga xodimlar yordamida erishish ekan, raqobatdan ko'ra hamjihatlik va hamkorlikka suyanish anchagina o'rinli. Demak, bunda "raqobat" tushunchasidan ham murakkabroq hodisa, ya'ni xodimga ta'sir ko'rsatish, unda xayrixohlik uyg'otishva uni hamkorlikka chorlash masalasi yetakchi o'ringa chiqadi.

MUHOKAMA. Nazarimizda, rahbar faoliyatini tahlil etuvchi ilmiy psixologik izlanishlarning aksariyat qismi aynan shu mavzuga tegishli. Bunda rahbarni eng mukammal shaxs sifatida namoyon bo'lishi uchun yordam beruvchi kouching texnologiyalardan tortib, jamoani ahil komandaga aylantirish treninglarigacha to'xtalib o'tish mumkin. Zamonaviy boshqaruvga e'tibor berilsa, bugungi tashkilotda eng ishonchli va itoatkor boshqaruv ob'ekti sifatida faqatgina ofisdagi moslama va uskunalarni sanab o'tish qoldi. Bevosita boshqaruv ob'ekti sifatida tushuniluvchi xodimlar esa murakkab boshqaruv jarayonining "ehtimoliy" elementiga aylangan. Mana shu "element" bilan o'zaro ta'sirda bo'lish, doimo uni maqsad sari undash va bir og'iz so'z bilan aytganda, bugungi boshqaruv samarasi, asosan, rahbarning psixologik uquviga bog'liq. Boshqaruvni yanada mukammallashtirish borasidagi izlanishlarning ko'lami shunchalik kengki, ular bir qaraganda faqat bir mavzu atrofida jamlanib, o'ta birikib ketgan ko'rinsa-da, lekin ularning rang-barangligi boshqaruv ilmida o'zaro ziddiyatli g'oyalarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Boshqaruvning spesifik jihatga egaligi haqidagi fikrni davom ettirish psixologiya, xususan, boshqaruv psixologiyasining predmetli sohasini aniqlab olish imkonini beradi. Qator tahlillar asosida shunday xulosaga kelamizki, boshqaruvdagi psixologik hodisalarni uch asosiy guruhga kiritish mumkin:

Boshqaruv subyekti – rahbar.

Boshqaruv obyektini – xodim.

Boshqaruv subyekti va ob'ekti o'rtasidagi munosabatlar.

Boshqaruvga oid psixologik hodisalarning bunday guruhlanishi shartli bo'lib, ularning har birini tadqiq etish muqarrar tarzda qolgan ikkitasini ham o'z ichiga qamrab oladi. Xususan, rahbar shaxsi boshqaruv sub'ekti sifatida ko'pchilik tadqiqotlarning asosiy mavzusiga aylanar ekan, uning har bir harakatida xodim nazarda tutiladi, va albatta, muayyan munosabat doirasida talqin etiladi. Hatto rahbarning o'z shaxsini mukammallashtirishi yo'lidagi faolligi ham ichki psixologik munosabat, o'z –o'ziga bo'lgan munosabat sifatida ta'riflanadi. Boshqaruv mavzusini bunday cheklash, bir tomondan, psixologiya fani uchun o'z predmetini aniqlash imkonini bersa, ikkinchi tomondan, boshqaruv ilmiga tamoman yangi qarashlarning shakllanishi bilan ifodalanadi. Xususan, boshqaruv va rahbar faoliyatiga fenomenologik yondashuv tarafdorlari taklif etgan g'oya va fikrlar, darhaqiqat, psixologiya fanining nafaqat izlanish sohasi va yo'nalishi, balki "nuqtasini" ifodalab bera oldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Zamonaviy rahbar hayotiga bunday texnik vositalarning kirib kelishi boshqaruv professionalizmini takomillashtirishni texnologizatsiyalash masalasiga yangicha mazmun bag'ishlaydi. Nazarimizda, har qanday soha kabi boshqaruvni professionallashtirish va rahbarlar professionalizmini yuksaltirish masalasi bundan keyin ham turli ilmiy yo'nalishlar integratsiyasi va faolligi asosidagina hal etilishi mumkin bo'lgan masaladir.

XULOSA Xulosa qilib aytganda boshqaruv muammosi psixologiya sohasidasida juda keng o'rganilgan bo'lib, ularda turlicha nazariyalar, konsepsiyalar, yondashishlar, pozitsiyalar, yo'nalishlarga asoslangan holda tadqiq qilingan. Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimi rahbar va lider bir shaxsda ifodalanishi ayni muddao hisoblanadi hamda rasmiy rahbar iloji boricha tashkilot maqsadlarini xodimlar manfaati bilan uyg'unlashtirgan holda boshqaruv jarayonini tashkil etishi lozim. Aynan shu omil, ayniqsa, kasb sohasidagi yuqori malaka rahbarni liderlik darajasiga ko'tarilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

- 1.Zubov N. O'qituvchilarni qanday boshqarish kerak. 2-nashr. M.: ARKTI, 2013. 144 b.
- 2.Klimov E.A. Kasbiy o'zini o'zi belgilash psixologiyasi. 4-nashr. M.: "Akademiya" nashriyot markazi, 2010. 304 b.
- 3.Lusenko L.I. Ta'lim muassasasini boshqarishning ijtimoiy-psixologik jihatlari // Tula davlat universiteti yangiliklari. Gumanitar fanlar. 2012. № 1-2. 313-319-betlar.
- 4.Lvova T.V. Boshqaruv faoliyatining psixologik jihatlari. 2016. 24-b.
- 5.Morozov A.V. Biznes psixologiyasi. Moskva: Akademik loyiha, 2015.

BEHINING INSON SALOMATLIGIGA IJOBIY TA'SIRLARI

Marimova Iroda Abduraximovna
*Urganch Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatligi texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada behining shifobaxsh xususiyatlari yoritilgan bo'lib, uni istimol qilish va undagi vitaminlar haqida ma'lumot berilgan. Ushbu maqola behi mevasining inson a'zolarining qaysi biriga qanday foyda qilishi haqidagi ma'lumotlarni ham o'z ichiga oladi.*

Kalit so'zlar: *behi, shifobaxsh, meva, kuz, vitamin.*

ПОЛОЖИТЕЛЬНОЕ ВЛИЯНИЕ АЙВЫ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА.

Маримова Ирода Абдурахимовна
*Преподаватель техникума общественного
здравоохранения Именем Ургенча Абу Али ибн Сины*

Аннотация: *В данной статье описаны целебные свойства айвы, ее употребление и витамины. В этой статье также содержится информация о пользе плодов айвы для каких органов человека.*

Ключевые слова: *айва, лекарственная, плоды, осень, витамин.*

POSITIVE EFFECTS OF QUINCES ON HUMAN HEALTH.

Marimova Iroda Abdurakhimovna
*In the name of Urganch Abu Ali ibn Sina
Teacher of the technical school of public health*

Abstract: *This article describes the healing properties of quince, its consumption and vitamins. This article also contains information about the benefits of quince fruit for which of the human organs.*

Key words: *quince, medicinal, fruit, autumn, vitamin.*

Ona tabiat in'omi hisoblangan mevalarning turlari ko'p. ular inson arganizmi uchun zarur bo'lgan turli vitaminlarni o'zida jamlagandir. Shular qatori kuz faslida ayniqsa foydali vitaminlarga boy mevalar ko'plab pishib yetiladi. Shulardan biri hisoblangan behi ham ser-vitamin mevadir. Ushbu ajoyib mevadan xalq tabobati va kosmetologiyadan ham foydalanish mumkin.

Bitta behini ikkiga bo'lib, urug'idan ajrating. Alohida idishda 100-150 gr suv bilan aralashtirib, olovga qo'ying. O'rtacha olovda quyuqroq ko'rinishga kelgunicha qaynating. So'ng olovdan olib, iliq holatda 1osh qoshiqdan kuniga 3 maxal ovqatdan oldin ichishingiz mumkin. Har kunga damlama yangidan tayyorlanadi. Quruq yo'tal, bronxlar shamollashida tavsiya etiladi.

O'rtacha kattalikdagi behini urug'idan tozalab, 2 choyqoshiq asal bilan to'ldiring. So'ng 15 daqiqaga gaz pechiga qo'yib, yumshatib pishiring. Asalli behini bir kunda bir marotaba iste'mol qilish kifoya. Kamqonlik, hazm qilish faoliyati bilan bog'liq muammolarda asqotadi.

Behi mevasining bir oshqoshiq quritilgan bargi va shuncha miqdorda tozalangan urug'ini 200 ml qaynagan subga damlab, olovga qo'ying. 5-6 daqiqa o'rtacha olovda qaynagach, tagini o'ching-da, biroz sovuting. Ta'bga ko'ra asal bilan aralashtirib, 1 oshqoshiqdan kuniga 3-4 mahal qabul qiling. Bu damlama peshob haydovchi hususiyatga ega.

3 ta behi mevasini tog'rab, sharbatsiqqichdan o'tkazing. Ta'bga ko'ra asal bilan aralashtirib, oz-ozdan kun davomida qabul qiling. Asal qo'shilgan behi sharbati qabziyatni oldini olishda foydali bo'lib, immunitetni mustaxkamlashga yordam beradi. Agar sizni tistit qiynayotgan bo'lsa, kuniga 50-80 gr yangi siqilgan behi sharbatini iste'mol qiling. Tarkibidagi foydali moddalar peshob ajralishini yaxshilasa, bakteriyalarga qarshi hususiyati kasallikda ko'makchi vositadir.

Bir hafta davomida mana bu usulga rioya qilishingiz mumkin: har tanovuldan so'ng asal bilan bug'da tayyorlangan yarimta behi bo'lagini iste'mol qiling.

Agar asalga allergiyangiz bo'lsa, 1 oshqoshiq behi murabbosini bilan aralashtirish mumkin. Meva tarkibidagi foydali hususiyatlarga ko'ra asabni tinchlantirishga yordam beradi. Kun ora yarimta behi mevasini ozroq sariyog' va ta'bga ko'ra asal bilan bug'da tayyorlab, asosiy tanovuldan so'ng desert sifatida iste'mol qiling. Behining bu ko'rinishda iste'mol qilinishi ishtaxani yaxshilab, shirinlik o'rnini bosa oladi. Behi mevasi tarkibida oshlovchi moddalar bo'lgani bois ich ketishi holatlari, tez-tez ich buzilishlariga moyilligi borlar, shuningdek kichik yoshdagi bolalar uchun xomligicha yeyish tavsiya etilmaydi. Ozroq asal yoki sariyog' bilan bug'da yoki gaz pechida pishirilgan ko'rinishda oz-ozdan iste'mol qilish kerak.

Behining bir bo'lagini qirg'ichdan o'tkazib, hosil bo'lgan sharbati bilan yuz terisini arting-da, 15 daqiqadan so'ng iliq suvda chaying. Bu mevali losyon yog'li yuz terisida yog'lashishni oldini oladi. Qirg'ichdan chiqarilgan behi bo'tqasidan yuzga husnbuzarlar toshishida foydalanish mumkin. Buning uchun meva bo'tqasini namlangan yuz terisiga tekis surtib, 15 daqiqadan so'ng iliq suvda chayiladi.

Behi urug'ini 100 gr qaynagan suvga damlab 5 daqiqa davomida chayqatib turing. So'ng aralashmani dokadan o'tkazib, quyoshda qoraygan yoki qizargan teri yuzasini yengil artishingiz mumkin. Hususiyatiga ko'ra behi urug'idan tayyorlangan aralashma terini oqartirib, me'yoriy holatini tiklaydi.

Bir dona tuxum oqini ko'pirtirib, teng miqdorda behi sharbati, odekolon va kamfara spirti bilan aralashtirib, yuz terisi artiladi. 15 daqiqadan so'ng iliq suvda chayiladi. Bunday niqob yuz terisini oqartirish va turli harakterli toshmalardan xoli etishda qo'llaniladi. Behi daraxtining tozalangan cho'plariga g'osht qiymasidan lo'la kaboblarni yasab, o'simlik yog'ida qovuring. So'ng archilgan sabzavotlar bilan qozonga terib, dimlang. Bunday usulda tayyorlangan lo'la kabob behining o'ziga xos ta'mi bilan birlashib, taomingiz yanada hushxo'r va mazali bo'ladi.

Ulug' hakim Abu Ali ibn Sinoning "Tibbiy o'gitlar" kitobida behining yuz bir xosiyati sanab o'tiladi va shunday yoziladi:

"...Cho'qqa ko'milgani yengilroq va foydaliroq. U shunday pishiriladi: ichini kovlab urug'i chiqariladi va ichiga asal solib usti loylanadi, so'ng qo'rga ko'miladi. Behi yog'i kal yaralarida ishlatiladi, siqib olingan suvi astmada foydali. U qon tuflashni ham to'xtatadi. Urug'i tomoq qirilishini yo'qotib, o'pka nayini yumshatadi. Shuni ham aytish kerakki, behini juda ko'p iste'mol qilish asab og'riqlarini keltirib chiqaradi. U chanqovni bosadi, siqib olingan suvi siydik yo'lga tomizilsa, peshob achishtirib tushishida foyda qiladi". Biz yuqorida keltirgan ma'lumotlar ilm-fan aniqlagan ma'lumotlardir, lekin ishonamizki kuzgi mevalarning inson salomatligiga ijobiy ta'sirlari juda ko'pdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Oripov. "Urug'li intensiv meva bog'lari" 2013-yil.
2. Xolnazar Urolov Yoqubov Xayriddin. "O't-giyohlar va mevalar xosiyati" 2011-yil
3. Xolmatov H.X., Habibov Z. H., Farmakognoziya [Darslik], T., 1967;
4. Nabiyev M, Shifobaxsh giyoxlar, T., 1980;
5. Hojimatov Q., Olloyorov M. , O'zbekistonning shifobaxsh usimliklari va ularni muhofaza qilish, T., 1988;
6. Xoliqov K., O'zbekiston janubidagi dorivor o'simliklar, T., 1992;
7. Hoji matov Q.H., Yo'ldoshev K.Y., Shogulomov U.Sh., Hojimatov O.Q., Shifobaxsh giyoxlar dardlarga malham (Fitoterapiya), T., 1995;
8. M urdoxayev Yu.M. Kultura lekarstvennix rasteniy v O'zbekistane, T., 1988.

KASBIY YO`NALTIRUV ISHLARINI AMALGA OSHIRISHDA PSIXOLOGNING O`RNI

Shoxobiddinova Mohidil Shamsitdin qizi

Namangan davlat universiteti psixologiya yo`nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxsning kasbga yo`naltirishda psixolog kasbining ahamiyati, o`rni va amalga oshiradigan ishlari haqida fikr yuritilgan.*

Tayanch so`zlar: *kasb-hunar, professional targ`ibot, kasbiy maslahat, kasbga yo`naltirish, psixolog, kasbiy axborot.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются значение, роль и роль профессии психолога в профориентации.*

Ключевые слова: *профессия, профессиональная адвокатура, профессиональное консультирование, профориентация, психолог, профессиональная информация.*

Annotation: *This article discusses the importance, role and role of the profession of psychologist in career guidance.*

Keywords: *profession, professional advocacy, professional counseling, career guidance, psychologist, professional information.*

Shaxsning kasbiy rivojlanishi bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi, ular orasida kasb tanlash jarayoni muhim o'rin tutadi. Bu insonning hayot yo'lining bir qismi, uning keyingi kasbiy taqdirini belgilaydigan bir qator qarorlarni qabul qilish jarayoni. Kasb tanlash jarayoni har doim shaxs hayotidagi hal qiluvchi daqiqadir va bu qandaydir psixologik yordamni talab qiladi. Kasbiy yo'l-yo'riqlar tizimi bunday ko'makni ta'minlashga mo'ljallangan.

Kasb-hunarga yo'naltirish deganda insonni ijtimoiy foydali mehnatga tayyorlashga, uning qiziqishlari, moyilligi va qobiliyatlariga muvofiq ravishda va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb tanlashda yordam beradigan chora-tadbirlarning ilmiy asoslangan tizimi tushuniladi.

Kasb-hunarga yo'naltirishning aniq yaqin maqsadlari jonli mehnatdan oqilona foydalanish, ishchilar sifatini oshirishda ifodalanadi; tibbiy qarshi ko'rsatmalarni aniqlash va kasbiy rejalarini tuzatish orqali yoshlarning sog'lig'ini saqlashda; kelajakdagi kasbiy sohaga eng mos keladigan shaxsning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish.

Kasb-hunar ta'limi talabalarning kasblar dunyosi, kasbiy tanlov qilish usullari va shartlari haqidagi bilimlarini rivojlantirishga qaratilgan. Kasbiy ta'limning ikki shakli mavjud: kasbiy ma'lumot va kasbiy targ'ibot.

Professional ma'lumot bu yoshlarga asosiy kasblar va mutaxassisliklar haqida ma'lumot. Maktab o'quvchilariga mehnatning mazmuni, moddiy va ijtimoiy muhit sharoitlari, moddiy rag'batlantirish tizimi, mehnat va dam olish tartibi, ushbu kasbni

rivojlantirish istiqbollari, o'qitish shakllari va muddatlari, rasmiy va malakaviy o'sish imkoniyatlari to'g'risida ma'lumotlar taqdim etiladi. Ushbu kasb inson salomatligi holatiga, uning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarining rivojlanish darajasiga, shaxsiy xususiyatlariga va umumiy ta'lim va maxsus tayyorgarlik darajasiga qo'yadigan asosiy talablarni yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kasbiy axborot faoliyati nafaqat passiv tanishish, balki faol ta'lim funksiyasini ham bajaradi. Shuning uchun, ba'zi hollarda, nafaqat kasblar haqida ma'lumot almashish, balki ularning ayrimlarini targ'ib qilish ham muhim o'rin egallaydi.

Professional targ'ibot ishlab chiqarish hajmining ko'payishi yoki rekonstruksiya qilinishi sababli kadrlar etishmasligi yoki ularning tayyorgarligini kengayishi kutilayotgan kasblar bilan shug'ullanadi. Professional targ'ibot, agar to'g'ri shakllantirilgan bo'lsa, o'z vaqtida kasbni tanlash muammolariga faol munosabatni shakllantirishga, yoshlarning o'z tanlovini qilish istagini faollashtirishga yordam beradi.

Davlat va xususiy korxonalar, universitetlarning ish jarayonida turli xil bosma materiallarni nashr etish, ochiq eshiklar kunlarini tashkil qilish, ommaviy axborot vositalarida turli kasb vakillari chiqishlari, televizion filmlar va reklama roliklarini yaratish va namoyish etish kabi kasbiy ta'lim shakllari eng keng tarqalgan. Jamiyat hayotining keng kompyuterlashtirilishi Internet-resurslarni ushbu ish bilan bog'lashga imkon berdi.

Shu bilan birga, ta'lim ishlarining samaradorligi axborotni taqdim etish sifati va shakliga bog'liq. Ushbu turdagi ishlarda xatolikka yo'l qo'ymaslik uchun professional ma'lumotlarga qo'yiladigan bir qator talablarga rioya qilish kerak. Ma'lumot:

keng qamrovli. Kasb haqidagi bilimlarning sarhisobida kasbiy hayotning barcha jabhalariga e'tibor berish kerak, alohida e'tibor - ushbu professional sohada o'sish istiqbollari;

- ishonchli. Kasblar haqida ma'lumot ishonchli manbalardan olinishi kerak, ular bosma nashrlar, mutaxassislardan olingan ma'lumotlar, faoliyatni psixologik tahlil qilish ma'lumotlari va hk.;

ob'ektiv. Kasbning barcha afzalliklari va qiyinchiliklari bilan haqiqiy rasmini berish kerak. Kasb-hunarga mavjud bo'lmagan xizmatlarni ta'kidlab, ayrim partiyalarning haddan tashqari reklamasi qabul qilinishi mumkin emas.

Kasbiy konsultatsiya insonga kasbiy faoliyat sohasini tanlashda yordam berish uchun uni psixologik tekshirish tadbirlari tizimini o'z ichiga oladi. Kasbiy maslahatlashuvning asosiy maqsadi insonning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini, uning har xil sharoitdagi xulq-atvorining xususiyatlarini o'rganishdir. Professional konsultatsiya bir qator funksiyalarni bajaradi, ular bir tomondan uning asosiy maqsadini aks ettiradi, boshqa tomondan uning faoliyatining asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi.

Kasbiy maslahatning uchta asosiy vazifasi mavjud:

o'quvchiga kasbning o'ziga xos xususiyatlari, ularning kasbiy rejalarini amalga oshirish usullari va usullari to'g'risida ma'lumot berishni o'z ichiga olgan axborot;

diagnostika - sog'liqni saqlash holatini va insonning psixologik xususiyatlarini rivojlanish darajasini kasb talablariga muvofiq ravishda tekshirish;

tuzatuv, bu tegishli kasbiy faoliyat sohasi va undagi aniq kasblar bo'yicha optik mutaxassisni (kasbni tanlagan kishini) tavsiya etish, shuningdek, kasb talablari va shaxsiyat xususiyatlari o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda professional rejalarni tuzatishdan iborat.

Biror kishi bilan professional maslahatchining o'ziga xos ishi individual ravishda amalga oshiriladi va bir qator majburiy bosqichlarni o'z ichiga oladi.

Kommunikativ bosqich optik bilan aloqa o'rnatishni, maslahat berish jarayoniga ijobiy munosabatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning samaradorligi, bir tomondan, maslahat berishga kelgan maktab o'quvchilarining munosabatiga, boshqa tomondan, kommunikativ mahoratga va maslahatchining psixologik taktik darajasiga bog'liq.

Kasbiy konsalting ishining psixodiagnostik bosqichi - bu sub'ektning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini ifodalash darajasini o'rganishga asosiy e'tibor beriladigan bosqich. O'quv predmetlari:

qiziqishning xususiyatlari, qiymat yo'nalishlari va optant sifatida kasb tanlashning boshqa motivlari, ularning mazmuni, chuqurligi va barqarorligi berilgan shaxsning motivatsion sohasi;

sub'ektning qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlari. Asosiy aqliy jarayonlar (xotira, diqqat, fikrlash) xususiyatlarining namoyon bo'lish darajasi, psixomotor fazilatlar, shaxsiy xususiyatlar o'rnatiladi;

shaxsiyatning tayyorligi. Ilm-fan va amaliyotning aniq yo'nalishlari bo'yicha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar baholanadi. Faqatgina bilimlarni ko'paytirishga emas, balki uni muayyan muammolarni hal qilishda qo'llash qobiliyatiga ham alohida e'tibor beriladi;

o'zini o'zi qadrlash va kasbiy rejalarni shakllantirish xususiyatlari. Bunday holda, o'z-o'zini hurmat qilish haqiqati, hayotiy rejalarning mazmuni va asosiligi, ularni qurishda mustaqillik darajasi aniqlanadi.

Tuzatish bosqichi uning o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq professional sohani topish nuqtai nazaridan optant bilan ishlashni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichning asosiy nuqtasi - bu faoliyat printsiptiga rioya qilishdir, unga ko'ra kasb tanlash bo'yicha qarorni optikning o'zi qabul qilishi kerak va maslahatchining vazifasi uni bunga olib borishdir. Ushbu bosqichda kasb talablarini shaxsiy xususiyatlar va optantning kasblar dunyosidagi yo'nalishi bilan yanada samarali ravishda bog'lash uchun kasb tasniflari keng qo'llaniladi.

Kasblarni tasniflash quyidagi sabablarga ko'ra kasbiy maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarida muhim bosqich hisoblanadi:

kasblar dunyosi haqidagi ma'lumotlarni tizimlashtirishga va unda yo'naltirishning asosiy usullarini belgilashga imkon beradi;

yangi kasblar va mutaxassisliklarni barpo etish uchun zamin yaratadigan ularning rivojlanish tarixi va asosiy yo'nalishlarini ko'rsatadi;

amaliyotchiga professional maslahat narxini sezilarli darajada minimallashtirishga imkon beradi. Masalan, optikning istaklari yoki imkoniyatlari bilan u tanlagan kasb o'rtasida nomuvofiqlik bo'lgan taqdirda, psixolog boshqa psixodiagnostik tekshiruv o'tkazmasdan unga tegishli kasbni tavsiya qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.A.V.Batarshchev Yoshlarni o'qitish va kasbiy rag'batlantirish: darslik Akademiya 2009.

2.Klimov E.A Professional o'zini o'zi aniqlash psixologiyasi Rostov-Don 1996.

3.Klimov E.A Kasbni qanday tanlash kerak –M. Ta'lim, 1990

4.Rogov E.I Kasb tanlash: Professional bo'lish. –M. Vlados 2003.

5.WWW.instudy.uz

6.www.info-tashxis.uz

WEB DASTURLASH HAQIDA TUSHUNCHALAR

Boranbaeva Aqbayan

Muhammed Al Xorezmiy nomidagi TATU Nukus filiali, Kompyuter injiniringi fakulteti

4 – kurs talabasi

Web dasturlash brauzeringiz orqali ko'rishingiz va foydalanishingiz mumkin bo'lgan barcha web dasturlarni tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Web dasturlash ham juda qiziqarli va katta daromad keltiradigan soha hisoblanadi. Malakali dasturchilarga bo'lgan talab bugungi kunda har doimgidan ham yuqori. Web dasturlash nima ekanligi bilan qisqacha tanishib chiqdik. Endi hozir siz bilan Frontend haqida qisqacha tanishib chiqamiz



Avvalo "frontend" va "backend" so'zlarining o'zbek tilidagi ma'nolari bilan tanishib chiqaylik. "Frontend" (front end, front-end) o'zbek tilida "Oldindagi (ustki) tomon" degan ma'noni anglatadi. Biz bu so'z bilan u yoki bu narsaning tashqi, hammaga ko'rinib turadigan qismini nazarda tutamiz. Backend (back end, back-end) esa Frontendning aksi hisoblanib, qaysidir narsaning ichki, yoki orqa tomoni degan ma'noni anglatadi. Bu bilan biz qaysidir narsaning hammaga ko'rinmaydigan, yashiring, ichki yoki orqa tomonini nazarda tutgan bo'lamiz.

Frontend - Bu o'zi nima va yuqoridagi gaplarga buning nima bog'liqligi bor?» dersiz, bu savolingizga ushbu maqolada javob topasiz degan umiddamiz.

Frontend - «tashqi interfeys degan ma'noni bildirib, veb texnologiyalarning biridir. Bu texnologiya yordamida veb sahifalarning insonga ko'rinib turuvchi, ma'lumot beruvchi vizual qismi yaratiladi. Frontend texnologiyalarini o'rgangan inson o'z ijodkorligi, kreativ yondoshuvi orqali turli g'oyalarini veb sahifalar, dasturlar shaklida ro'yobga chiqarishi mumkin bo'ladi.

Bugungi kunda shaxsiy veb sahifaga ega bo'lish o'ziga xos elektron vizitka, passport vazifasini bajaribgina qolmay, balki sayt orqali ko'plab foydali ishlarni amalga oshirish mumkin bo'lib qoldi. Masalan, jurnalist, shoir, yozuvchi o'z ijodi va izlanishlarini veb sahifasi orqali yoritib borishi mumkin. Tadbirkor o'z sahifasida mahsulot va xizmatlarini keng targ'ib qilishi va daromadini oshirishi mumkin.

Umumiy qilib aytadigan bo'lsak Frontend texnologiyalarini o'rganish - internet xazinasining kalitini qo'lga kiritish demakdir, bu xazinadan xohlagan narsangizni olishingiz, foydalanishingiz, boshqarishingiz mumkin.

Qanday texnologiyalar o'rganiladi? Nimadan boshlash kerak?

Frontend dasturlash sohasi bir necha til va texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Uning asoslari HTML, CSS va JavaScriptdir. Vaqt davomida saytlarning ko'rinishi va ishlashiga bo'lgan sifat talabi o'sishi tufayli shu texnologiyalar asosida bir qancha freymvork va kutubxonalar tuzib chiqilgan. Ulardan ko'zlangan asosiy maqsadlardan biri sayt tuzishga ketadigan vaqtni qisqartirishdir. CSS asosida Less, Less oldindan ishlov beruvchi (preprocessor), foydalanuvchi interfeysini tuzishda yordam beruvchi Bootstrap, Materialize, Foundation, Bulma va Tailwind freymvorklari tuzilgan bo'lsa, JavaScript asosida hozirgi kunda trendda bo'lgan Angular, Vue freymvorklari, jQuery va React kutubxonalari tuzib chiqilgan. Malakali frontend dasturchilarga dunyoning ko'plab davlatlarida talab bor. Ularning bilimi va tajribasiga qarab turlicha ish haqi to'lanadi. Bugungi kunda O'zbekistonda malakali frontend dasturchilar oyiga o'rtacha 300\$ dan 1000\$ gacha o'rtacha daromad topishlari mumkin. Quyida frontend dasturlash sohasiga kiruvchi til va texnologiyalar haqida batafsil ma'lumot berib o'tamiz.

Asosan o'rganish kerak bo'lgan manbalar bo'lar(Frontend uchun)

Front-End quyidagi texnologiyalar o'rganiladi (mana shu ketma ketlikda):

Html5

Css3

JavaScript (Es6)


Bootstrap

jQuery yoki Js framework Vue.js, React.js, Angular

Sass

HTML va CSS

HTML va CSS veb sahifalar asosini tashkil qiladi. HTML saytda aynan nimalar joylashishi kerakligiga mas'ul bo'lsa (matn, rasm, video), CSSda ularning qaysi tartibda joylashuvi va qanday ko'rinishda bo'lishi yozib chiqiladi. Sayt foydalanuvchilarga ko'rinadigan elementlar HTML va CSSda tuzilgani uchun bu ikkisisiz sayt tuzib bo'lmaydi. Shuning uchun ham frontend sohasini o'rganish aynan shu texnologiyalardan boshlanadi. Bularda bor imkoniyatlarga qo'shimchalar va yangiliklar qo'shib, HTML5 va CSS3 standartlari ishlab chiqilgan.



JavaScript va jQuery

JavaScript ham yuqorida aytib o'tilgan texnologiyalar kabi frontend dasturlashning ajralmas qismidir. JavaScript brauzerlarda ishlovchi dasturlash tili bo'lib, u yordamida veb sahifaga interfaollik imkoniyatini berish mumkin bo'ladi. Misol uchun biron tugma bosilganda yoki foydalanuvchi saytning biror qismiga kelganda yangi oyna ochilishi yoki biron xabar ko'rinishi. Birmuncha vaqt oldin sayt elementlariga interfaollik qo'shishda JavaScriptning o'zidan foydalanish dasturchi uchun nisbatan qiyin bo'lgan, ba'zi vazifalarni bajarishning imkoni bo'lmagan. O'sha vaqtda jQuery kutubxonasi tuzilgan bo'lib, u yordamida dasturchi JavaScript tilida mavjud bo'lmagan imkoniyatlardan qulay yo'l bilan foydalana olgan. Hozirgi kunda JavaScriptda jQuery kutubxonasi kiritgan yangiliklar tatbiq qilingan bo'lsada, dasturchilar jQueryni ishlatishni tashlab qo'yishgani yo'q. Statistika ma'lumotlariga ko'ra JavaScript 2017 yilning eng ommalashgan dasturlash tili deb tan olindi.

JavaScript haqida

JavaScript nima? - Bu savolga har xil javob berish mumkin. Bu dasturlash tili, to'g'rirog'i veb dasturlash tili, undan ham to'g'rirog'i klient tomonda ishlaydigan dasturlash tili, ya'ni bu veb dasturlash tili ishlashi uchun hech qanday server kerak emas, oddiy brauzerda ishlayveradi.

JavaScript veb dasturlash tilini qachon o'rgangan ma'qul? - Bu dasturlash tilini HTML, CSS kabilarni o'rganib olgandan keyin boshlagan yaxshi. Shunda o'rganish ham oson bo'ladi. Ko'pchilik darhol PHP veb dasturlash tilini o'rganishni boshlab yuborishadi, keyin qiynalib qolishadi, mani fikrimcha dasturlash tilidan dastlab Javascript'ni o'rgangan yaxshi va yengil.

JavaScript dasturlash tilining rivoji va kelajakdagi o'rni qanday? - Hozirgi kunda ushbu dasturlash tili dasturchilar orasida alohida xurmatga egadir. Jumladan ushbu dastur yordamida web-sayt yaratish, telefonlar uchun dasturlar yaratish va boshqa muhim va katta dasturlash yaratish mumkin.

JavaScript dasturlash tili orqali qancha daromad topsa bo'ladi? - Hozirgi kunda dasturchilik kasbiga bo'lgan extiyoj va e'tibor kun sayin ortib bormoqda. Daromadiga kelsak, O'zbekistonda 1000\$ dan 6000\$ gacha. Chet elda 8000\$ dan 500000\$ gacha oylik topishadi.

Less va Sass

Less va Sass oldindan ishlov beruvchi freymvorklari CSS asosida yaratilgan bo'lib, dasturchilar uchun CSS bilan ishlashda anchagina qulayliklar va qo'shimcha imkoniyatlarni yaratib beradi. Uning yordamida sayt tuzishga ketadigan vaqtni tejab, nisbatan kamroq kod yozish mumkin bo'ladi. Hatto, bu ikkisi yordamida sayt stillarini yozishga dasturlash tillari kabi yondashish mumkin.

Bootstrap, Materialize, Foundation va boshqa CSS freymvorklar

Bu freymvorklar dasturchiga deyarli tayyor ko'rinishdagi sayt elementlarini taklif qiladi. Ular yordamida odatda ko'p ishlatiladigan elementlarni bir necha daqiqalar ichida tuzish mumkin. Ularning har biri o'ziga xos stildagi elementlarga ega. Material va yassi

stillar ham shular jumlasidandir. Hatto saytni qog'ozda qo'lga chizilgandek ko'rinishga keltiradigan freymvork ham bor - <http://www.getpapercss.com>.

AngularJS, ReactJS va VueJS

Bugungi kunda qandli diabet kasalligi tabiiy xastaliklar sifatida qabul qilinyapti. Qandli diabet - Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti mutaxassislarining fikricha, bu metabolik moddalar almashinuvining buzilishi hisoblanadi. Diabet (yunoncha diabaino - o'taman, o'tib ketaman) deganidir. Oshqozonosti bezining malum bir qismida tiklanmaydigan holat kuzatilishidan kelib chiqadi. Oshqozon osti bezi oshqozon ortida bo'lib, 1, 2 - bel umurtqalari ro'parasida joylashgan. Uzunligi 10- 15 sm, qalinligi 2-3 sm, og'irligi 70-100 gramm. Oshqozon osti bezi 3 qismdan iborat: boshi, tanasi, dumi. Oshqozon osti bezining asosiy qismini tashqi sekretor apparati tashkil qilib, asosan pankreatik sharbatning asosiy qismlarini ishlab chiqaradi. Bezning 1-3 % ini endokrin qismi, ya'ni langergans orolchalari tashkil qiladi (1- 1.5 mln gacha). Har birining diametri - 150 mkm. Bitta orolchada 80 dan 200 gacha hujayra bor. Langergans orolchalarida bir necha xil hujayralar mavjud: A - glyukagon 25 % ni tashkil qiladi; B - insulin markazida joylashgan, 60 - 70 % ni tashkil qiladi; D - somatostatin 10 % ni tashkil qiladi, qolganlari - 5 % ni tashkil qilib, VIP (Vizoaktiv intersitsial polipeptid, gastrointersitsinal polipeptid) ishlab chiqaradi. Insulin yuqori darajada faol bo'lgan kimyoviy modda (gormon) bo'lib u to'planib orolchalariga guruhlanadi.

Inson yashashi, harakatda bo'lishi va mehnat qilishi uchun energiya sarflaydi. Bu energiyani ovqatdan oladi. Energiya moddalar almashinuvi natijasida hosil bo'ladi. Uglevodlar va yog'lar esa energiyaning asosiy manbaidir. Non, don, sut mahsulotlari, meva va sabzavotlarda uglevodlar ko'p bo'ladi. Ovqat yordamida kirgan glukozaning bir qismi insulin yordamida hujayralarga o'zlashtiriladi. Insulinni hujayra qulfini ochib beradigan kalitga taqqoslasa bo'ladi. Quvvat hosil qilish uchun sarflangan glukozaning bir qismi insulin ishtrokida glikogenga aylanadi hamda quvvat zaxirasi sifatida jigar va mushaklarda yig'iladi. Ovqatlanishlar orolig'ida tashqaridan glukozaga kelmagan paytda glikogendan glukozaga hosil bo'ladi va u energiya hosil bo'lishiga sarflanadi. Agar jigar va mushaklarda to'planganidan so'ng glukozaning ma'lum bir miqdori ortib qolsa, insulin uning yog'ga aylanishiga ko'maklashadi.

Qonda qand miqdori ko'tarilsa, sog'lom odamda beta hujayralar insulin ishlab chiqarishni ko'paytiradi va qaytadan qand miqdorini jigarga zaxiralab, pasaytiradi. Insulin yetarli darajada ishlab chiqarilmasa yoki yetarli ta'sir ko'rsata olmasa qonda qand miqdori oshadi. Insulin esa beta hujayralar shikastlanganda yetarli darajada ishlab chiqarilmaydi.

Chunki beta hujayralar tiklanmaydigan hujayralardir. Bu hujayralar qattiq stress, ko'p siqilish, qattiq qo'rquv natijasida tormozlanib, tiklanmaydigan holatga kelishi mumkin. Natijada insulin chiqarilishi ozayib ketadi. Bu esa qondagi qand miqdori ortib ketishiga olib keladi. Sog'lom odam qonida qandning normal miqdori 80 - 120 mg % bo'ladi. Qandli diabet kasalligida esa uning miqdori 150 - 250 mg % ga ko'tarilib, undan ham ortib ketishi mumkin. Qondagi qand miqdori normal bo'lganda, u buyrak orqali siydik bilan tashqariga chiqarilmaydi, ya'ni so'lom odamning peshobida qand mutlaqo bo'lmaydi. Qonda qand miqdori 140 - 150 mg % dan oshaversa, u siydik bilan tashqariga chiqarila boshlaydi. Bunday paytda odam tez chanqaydi va ko'p suv iste'mol qiladi. Iste'mol qilingan ovqat tarkibidagi uglevodlar hujayra va to'qimalarga o'zlashtirilmasdan, siydik bilan tashqariga chiqib ketishi tufayli tez och qoladi va tez - tez ovqat iste'mol qilishga majbur bo'ladi. Aks holda teri ostidagi yog' zaxira yog' moddalari parchalanib, glukozaga aylanadi, hatto hujayra va to'qimalar tarkibidagi oqsil, yog' moddalari ham glukozaga aylanib, qonga o'tadi va undan siydik bilan tashqariga chiqariladi. Buning oqibatida be'mor ozadi, kuchsizlanadi, ish qobilyati pasayadi. Respublikamiz aholisining 15 % da qandli diabet uchraydi, ular muntazam parhez taomlar iste'mol qilib, qonda qand miqdorini pasaytiruvchi dorilarni ichib yuradilar. Qabul qiladigan dori vositalaridan qat'iy nazr qandli diabetga chalingan inson parhez tutishi, sog'lom turmush tarziga rioya etishi, zararli odatlarni tark etishi, yengil jismoniy mehnat yoki badantarbiya bilan shug'illanishi, shaxsiy ozodalikka rioya amal qilishi, o'zi uchun to'g'ri kasbni tanlay bilishi, eng muhimi oqilona davolanishi, uzoq vaqt mehnat qobilyatini va sog'ligini saqlab qolishi uchun ushbu kasallik haqida tibbiy bilim va madaniyatga ega bo'lishi lozim.

Qonda qand miqdorining oshishi og'ir asoratlarga olib kelishi mumkin, ular ba'zan bir necha yildan so'ng yuzaga chiqishi mumkin. Bu asoratlar kechki asoratlar deb ataladi va ko'z, asab, buyrak, qon - tomirlari kabi hayot uchun muhim a'zolar - u tizimlarni zararlaydi. Ba'zan birinchi marta aniqlangan qandli diabetda ham kechki asoratlar aniqlanishi mumkin. Faqat qondagi qand miqdorini me'yorlashtirishgina qandli diabetning kechki asoratlari rivojlanishining oldini oladi. Qandli diabetning asorati borligini aniqlash uchun to'laqonli tekshiruvdan o'tish zarur.

Qandli diabetda quyidagi asoratlarni kuzatish mumkin: Retinopatiya 1,2; nefropatiya 1,3; kuchli og'riq sindromisiz hamda trofik yaralarsiz, periferik polineyropatiya. Og'ir darajasi uchun retinopatiyaning 2,3; nefropatiyaning 4,5 darajalari, periferik nefropatiyaning kuchli og'riq sindromi, trofik yaralar, ensefalopatiya, vegetativ neyropatiyaning og'ir darajalari, ketoatsedozga moyillik, qaytalangan komatoz holatlar noturg'un kechishi xos. Qayd etilgan asoratlar kuzatilganda og'irlik darajasini belgilash uchun insulinning va qondagi qand miqdorining ahamiyati inobatga olinmaydi

Qandli diabet rivojlanishida quyidagi asosiy omillar hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Birinchi omil qandli diabet kasalligiga nisbatan irsiy moyillik bo'lib, otaonalarning har ikkalasining qandli diabet bilan kasal bo'lishi, tug'ilgan bolalarda 65- 70% hollarda qand kasalligi rivojlanishida sabab bo'ladi.

Ikkinchi omil tana vaznining oshib ketishi - semirish bo'lib, bu omil katta yoshdagi odamlarda qandli diabetni keltirib chiqaradi. Ma'lumki inson organizmi 25 yoshga yetganda asosan o'sishdan to'xtaydi. Shu sababli 25 yoshdagi tana vazni me'yoriy vazn deb qabul qilingan. Har bir inson ushbu yoshdagi vazn miqdorini to umrining oxirigacha saqlab qolishiga erishish lozim. Zotan shu yoshdagi vaznga insulin moddasi yetkazib berishga moslashgan me'da osti ba'zi tabiiyki, bundan ortiqchasini yetkazib berolmaydi. Natijada qand almashinuvi izdan chiqadi. Insulin yetishmasligi sababli organizmda ehtiyoj uchun foydalanilmayotgan yoki o'zlashtirilmayotgan ortiqcha qand eng avvalo qonda to'planadi. Qondagi qand miqdori ortadi va o'zining me'yoriy chegarasidan chiqadi hamda peshob orqali chiqarila boshlaydi. Qonda qancha qand to'plansa uni chiqarib tashlash uchun shuncha ko'p suv ichish va shuningdek, ko'p peshob chiqarish talab qilinadi. Shu tariqa qandli diabetning asosiy belgilari ko'p suv ichish (chanqash) va ko'p peshob haydash kabi belgilarda bilinadi.

Ayni paytda qand moddasining insulin kam ishlab chiqarilishi yoki yetishmovchiligi oqibatida organizmning yaxshi o'zlashtirmasligi bemorda ochlik hissini ham uyg'otadi. Lekin bemor ko'p ovqat iste'mol qilolmaydi, chunki ovqatlar insulin yetishmasligi oqibatida hazm bo'lmaydi, bemor ozib keta boshlaydi. Ko'rinib turibdiki, qandli diabet kasalligining barcha belgilari o'zaro yagona patofiziologik zanjir bilan bog'langan va vositalangan.

Surunkali, uzoq yillar davom etadigan ushbu kasallik muhim ta'na a'zolarni, to'qima va qon tomirlarni zararlaydi va ularga o'zining asoratlarini ko'rsatadi. Eng avvalo bu asab tizimi faoliyatida ko'rinadi. Oyoq-qo'llar qaqshab og'riydi, yaxlaydi yoki qiziydi. Og'riqni sezish pasayadi, polineyropatiya deb ataluvchi kasallik asorati rivojlanadi. Buyrak faoliyatini izdan chiqaradi, natijada buyraklar o'z vazifasini bajarolmay qoladi. Ko'zning ko'rish qobiliyati pasayadi, organizm immun holati pasayishi oqibatida terida yiringli yaralar jiddiy kasalliklar (og'riqsiz kechuvchi miokard infarkti va boshqalar) oyoqlarda esa qorason rivojlanadi. Ko'rinib turibdiki, qandli diabet o'zining asoratlari bilan xavfli.

Inson, hatto qarindoshlarining yordami bilan ham, yuzaga kelgan muammoga har doim ham to'liq qarshi tura olmaydi va barcha kerakli protseduralarni to'g'ri va kerakli ketma-ketlikda bajaradi.

Nima uchun diabetni nazorat qilish kerak? Hamshiralik jarayoni va ahvolni nazorat qilish nafaqat bemorga va uning qarindoshlariga yordam, balki ilmiy ma'lumot olish usulidir. Bu, asosan, ilmiy ish amaliy usulda amalga oshiriladi. Bemorning ahvolini barqaror qadriyatlarda saqlash uchun tibbiyot xodimlarining nazorati zarur. Davom etayotgan jarayonning asosiy maqsadi tashxis qo'yish uchun maqbul hayot sifatini ta'minlashdir. Inson jismoniy, ma'naviy va hissiy holati jihatidan o'zini qulay his qilishi kerak. Hamshiralik jarayoni bemorga kerakli hajmdagi xizmatlarni ko'rsatish jarayonida uning madaniy qadriyatlarini hisobga olishi muhimdir.

Faol yordamni faqat ishning barcha nozikliklari va o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi biladigan mutaxassis amalga oshirishi kerak, chunki bir qator chora-tadbirlarni amalga

oshirish orqali hamshira va uning bemorlari kerak bo'lganda amalga oshiriladigan tadbirlar rejasini tuzadilar.

Jismoniy mashqlar paytida hamshiraning vazifalari hamshiralik jarayoni va nazorat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Sog'liqni saqlash buzilishlarining umumiy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan odamning holatini dastlabki tekshirish (tekshirish).

2. To'liq klinik ko'rinishni olish uchun kasallik tarixi, tekshiruv natijalari, odam va uning qarindoshlari bilan suhbatlar kabi ma'lumot manbalaridan foydalanish.

3. Bemor va qarindoshlarni xavf omillari to'g'risida ogohlantirish - yomon odatlar va asabiy haddan tashqari kuchlanish.

4. Vaziyatni dastlabki baholash natijasida olingan barcha ma'lumotlarni "Hamshiralarni baholash varag'i" deb nomlangan maxsus shaklda qayd etish zarurati.

5. Bemorning sog'lig'i to'g'risida olingan ma'lumotlarni umumlashtirish va tahlil qilish.

6. Topilmalar va aniqlangan qiyinchiliklar yoki aniq muammolar asosida parvarish rejasini tuzish.

7. Ilgari tuzilgan parvarishlash rejasini amalga oshirish.

Bemorlarni parvarish qilishning asosiy vazifalari.

Bemorlarga sifatli xizmat ko'rsatish tibbiy va ilmiy asoslangan, yaxshi rivojlangan texnologiya bo'lganligi sababli, asosiy vazifalar:

- maksimal qulaylikni ta'minlash;
- salbiy holatni olib tashlash;
- asoratlarni rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik.

Hayot sifatini yaxshilash, shuningdek, nafaqat dolzarb muammolardan xalos bo'lishga, balki yangilarining oldini olishga qaratilgan tibbiy tadbirlar majmuini ta'minlash hamshiralik jarayoni oldiga qo'yilgan asosiy maqsadlardir.

Vazifalar va maqsadlarga, shuningdek so'rov ma'lumotlariga va bemor yoki uning qarindoshlaridan kelib tushadigan shikoyatlarga asoslanib, u yoki bu bosqichda yuzaga keladigan diabetning 1 yoki 2 turi uchun hamshiralik jarayonining batafsil xaritasi tuziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бутрова С.А. От эпидемии ожирения к эпидемии сахарного диабета // Междунар. эндокринолог. журнал – 2013. № 2 (50)

2. Ismoilov S.I. Endokrinologiyadan tanlangan ma'ruzalar. –Toshkent, 2005.-B. 105-183.

3. Лолтарёв С.С., Курцина И.Т. Физиология пищеварения. Учебн. Пособие. М.: “Высшая школа”. 1984. –С. 87-100.

4. Мак-Мюррей У. Обмен веществ у человека. М.: “Мир”, 1980. –С. 35-43.

5. Матохина З.П. Основы физиологии питания, гигиены и санитарии. Учебник. Москва, 2002. –С. 198-233.

HAMSHIRANING DEONTOLOGIK XATTI-HARAKATLARI ASOSLARI

Olimjonava Maxfuza Muxitdinovna

*Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatlik texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada hamshiraning deontologik xatti-harakatlari asoslari hamda tibbiyot deontologiyasining asosiy vazifalari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Deontologiya, tibbiy faoliyat, verbal muloqot, nonverbal muloqot, tibbiyot hamshirasi.*

Deontologiya (yunoncha deontos zarur, lozim bo'lgan narsa) aniq vaziyatda hamshiraning axloq-odobi, o'zini tuta bilishi va muomalasini amaliy faoliyatida qo'llanishidir. Qadimdan ilmiy tibbiyotning asoschisi Buqrotning mashhur «Qasamyod»i tibbiyot xodimining xulq-atvori rivojiga katta ta'sir qilgan.

Tibbiyot deontologiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Tibbiyot xodimlari xulq-atvorining davolash natijasini yanada oshirishga qaratilgan qoidalarini o'rganish;
2. Tibbiyotdagi noqulay omillarga chek qo'yish;
3. Tibbiyot xodimlari bilan bemor o'rtasidagi o'zaro munosabatlar majmuini o'rganish;
4. Samarali bo'lmagan tibbiy faoliyatning zararli oqibatlarini tugatish.

Deontologiya qoidalarini takomillashtirishda shifokorning o'rni muhimdir. U bemorni tekshiruvdan o'tkazib, unga tashxis qo'yadi, dori-darmon tayinlaydi, kasallik kechishini kuzatadi va boshqalar. Vrach topshiriqlarini, ko'rsatmalarini (venaga dori yuborish, inyeksiya, haroratni o'lchash, dori-darmon berish, banka qo'yish va shu kabilar) sifatli va o'z vaqtida bajarish o'rta tibbiyot xodimining asosiy deontologik vazifalaridan biridir. Tibbiyot hamshirasi bemor bilan muomala qilishda axloq qoidalariga amal qilish bilan birga, sabr-toqatli bo'lish va o'zini tuta bilishi ham kerak. Hamshira shifokor bilan bemor o'rtasida ishonch vaziyatini yaratishi, shifokor va kasalxonaning obro'-e'tiborini oshirishga hissa qo'shishi, davolash jarayonida bemorga tegishli sirni saqlay bilishi shart. Hamshiraning ishi kun davomida turli taassurotlar ostida kechadi, bu bemorlar bilan mumomala qilish chog'ida yuzaga keladi. Bemorlar bilan tezroq muloqotga kirishish ishonchini shakllantirish juda muhimdir. Yoqimli va shirin so'z bilan murojaat qilishda, samimiy tabassumda hamshiraning o'z bemorlariga g'amxo'rliqi va diqqat-etibori ifodalanadi. Bemorlar bilan muloqot (kommunikatsiya)ning ikki xil usuli bo'lib, ularni albatta hisobga olgan holda o'z faoliyatini tashkil etishi lozim.

1. Verbal muloqot - faol eshitish, savollar berish, javob qaytarish va reaksiya ko'rsatish san'ati.

2. Noverbal muloqot - gavda holati, yuz, (mimika), ko'z ifodasi, so'zlash ohangi va boshqalar.

Verbal muloqot noverbal muloqot asosida amalga oshiriladi. Shuning uchun «insonning nimani gapirayotganligi emas, balki qanday gapirayotganligi muhim»dir deb bejiz aytilmagan.

Yuqoridagilarni shakllantirishda albatta bemorlarning ham o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, bemorlar bilan ish olib borishda ular yoshining ahamiyatini unutmaslik kerak. Shu maqsadda bemorlarning ayrim, shartli ravishda ajratib olingan guruhlarida uchraydigan xususiyatlariga to'xtalib o'tamiz.

1. Maktabgacha yoshdagi bolalar guruhi

- a) o'z kasalliklarini his qilmay, kasal ekanliklarini tushunib yetmaslik;
- b) shikoyatlarini umumlashgan holda bayon eta olmaslik;
- d) kasallik belgilaridan kuchli ruhiy ta'sirlanish;
- e) davolash va diagnostika muolajalarini qo'rquv bilan qabul qilish;
- f) kasallik davomida tarbiya va tabiatidagi o'zgarishlarning (nuqsonlarning) kuchayishi.

Tibbiy hamshira bu guruh bemorlar bilan iliq munosabatda bo'lishi, avvalambor bolalar bilan yaqindan aloqa o'rnatishi, ularni kasalligidan chalg'itishi, bolaning ota-onasi yoki qarindosh-urug'lari bilan mutaxassis sifatida muloqotda bo'lishi lozim.

2. O'smir yoshidagi bemorlar

- a) kattalarga taqlid qilishlik;
- b) mardlik, shovvozlik;
- d) o'z-o'zini himoya qilish;
- e) kasallikka va uning kechishiga befarqlik;
- f) salomatligiga, xavfli omillarga ehtiyotsizlik bilan qarash.

Bu guruh bemorlar bilan ish olib borishda hamshira juda ehtiyot bo'lishi, so'zlariga, yuz imo-ishorasiga katta e'tibor berib, o'smirlik yoshining nozik pallasi-balog'atga yetish va uning o'smirlariga xos ta'siri borligini ham yodda saqlashi lozim.

3. Mehnat qobiliyatiga ega bemorlar

- a) bemorning shaxsiyati;
- b) o'ziga xos (individual)xususiyatlari;
- d) kasalligining ijobiy yo'nalishda borayotganini kuzatish;
- e) xodimlar faoliyatini, bajarilayotgan muolajalarning nechog'lik to'g'riligini tushunish, kuzatish va xulosa chiqara olish. Bu guruh hamshiraga o'ta yuksak mas'uliyat yuklaydi. Bunday bemorlar bilan ish olib borishda har bir so'zga, yurish-turishga, yuz imo-ishorasiga ehtiyot bo'lish, bajarilayotgan muolajaga qunt bilan yondashish lozim. Har bir bemorning ijtimoiy kelib chiqishini, kasb-korini, tabiati va ruhiyatini tezda ajrata bilish hamshiraga ancha yengillik yaratadi. Hamshiraning asosiy deontologik vazifasi bunday guruh bemorlarni mehnat jarayoniga, ijtimoiy hayotga qaytarishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

4. *Katta yoshdagi va keksa bemorlar guruhi*

- a) «o'tib ketgan umr», «oshib borayotgan zaiflik», «yolg'izlikni his etish», «o'limning yaqinlashuvi» holatlarining qariyalar ruhiyatida ustunlik qilishi;
- b) eshitish, ko'rish, eslash qobiliyati va hayotga qiziqishning pasayishi;
- d) tezda dil og'rishi (xafa bo'lish);
- e) kasallikni qarilikka yo'yib, davolanish va sog'ayishga ishonmaslik.

Hamshira bu guruhdagi bemorlarga samimiy, sabr-toqat bilan iliq muomala qilishi lozim, chunki qariyalarga xos injiqlik, ko'p savollar berish, tushunmovchilikdan kelib chiqadigan turli holatlarga bosiqlik bilan chidash muhim hisoblanadi. Tibbiyot hamshirasining asosiy deontologik vazifalaridan biri, shifokorlik sirini qat'iy saqlashdir.

Shifokorlik siriga:

1) bemor to'g'risidagi ma'lumotlar, bu ma'lumotlarni hamshira bemorning o'zidan yoki davolash jarayonida bilib oladi va ular jamoatchilik orasida ma'lum qilinmaydi;

2) bemorning kasalligi to'g'risidagi ma'lumotlar(xastalikning nohush yakuni, bemorga ruhiy ziyon yetkazuvchi tashxis va boshqalar), bu ma'lumotlar ham bemorga aytilmaydi. Lekin davolash sirini saqlash jamiyatga va bemor atrofidagi kishilarga zarar keltiradigan bo'lsa (masalan, tanosil kasalliklari, yuqumli, ruhiy xastaliklar), tibbiyot xodimi bemorga ruhiy ziyon yetkazmagan holda zarur choralar ko'rishi lozim. Hamshira endoskopiya, zondlash, inyeksiyalar qilish va boshqa diagnostika muolajalariga tayyorlashda nazariy va amaliy bilimlarini to'la ishga solishi, bajarilayotgan muolajalar yetarli natija berishiga erishishi va laboratoriya- diagnostika muolajalaridan aniq ma'lumot olinishini ta'minlashi lozim. Ba'zi xijolatli muolajalar (huqna qilish, siydik yo'llarini kateterlash, bemorlarga tuvak tutish, ginekologik muolajalar) ni bajarishda bemorga sharoit yaratish, juda odobli va mulohazali bo'lish zarur. Hamshira bilan bemorlar muomalasida hamshiraning shaxsi ham muhim ahamiyat kasb etadi. U o'z kasbini sevishi, ajoyib texnikaviy qobiliyat va ko'nikmalarga ega bo'lishi mumkin, lekin hamshira o'zining shaxsiy xususiyatlariga ko'ra bemorlar bilan tez-tez ixtiloflar chiqarib tursa uning kasb fazilatlarini yetarli samara bermaydi. Haqiqiy mahorat yo'li hamisha uzoq va mashaqqatli bo'ladi. Zarur ish uslubini yaratish va bemorga yaxshi ta'sir ko'rsatish san'atini puxta egallash tibbiyot xodimi uchun muhimdir.

I. Xardi «Vrach, hamshira, bemor» degan kitobida hamshiralarning 6 xilini tariflab beradi:

1. Qotib qolgan hamshira. Uning eng asosiy xususiyati - o'z vazifalarini quruq bajarishidir. Bunday hamshira o'ziga berilgan vazifani juda aniq, puxta bajaradi, bunda g'ayrat va mahorat ko'rsatadi. Bemor parvarishi uchun kerak bo'lgan hamma narsa bajariladi, lekin bunday parvarishning o'zi ko'zga tashlanmaydi, chunki hamshira befarq ishlaydi, bemorlar bilan birgalikda qayg'urmaydi, ularga xayrixohlik ko'rsatmaydi. Bunday hamshira uxlab yotgan bemomi faqat unga shifokor yozib bergan uyqu dorisini berish uchun uyg'otadi xolos.

2. Yodlab olingan rolni ijro etuvchi hamshira. Bunday hamshira ish jarayonida qandaydir rol o'ynashga, muayyan g'oyani amalga oshirishga urinadi. Bordi-yu, ularning xulq-atvori yo'l qo'yiladigan chegaradan nari o'tsa, bevositalik yo'qoladi, nosamimiylik paydo bo'ladi. U altruist, ya'ni muruvvatli kishi rolini o'ynaydi, «artist»lik qobiliyatlarini namoyish etadi. Uning xulq-atvori sun'iy, ko'zbo'yamachilik uchun qilinadi.

3. Asabiy hamshira. Bu hissiy jihatdan o'zgaruvchan, nevrotik reaksiyalarga moyildir. Buning natijasida u ko'pincha jahldor, jizzaki qo'pol bo'lishi mumkin. Bunday hamshira doimo qovog'i soliq, norozi qiyofada yuradi. U g'oyat ipoxondrik bo'lib, kasallik yuqishidan yoki «og'ir kasallik» bilan og'rishdan qo'rqadi, zimmasidagi topshiriqlarni bajarishdan bosh tortib, turli sabablarni ro'kach qiladi, bu holat ko'pincha bemorlarga zararli ta'sir ko'rsatadi.

4. Erkaklarga o'xshagan, irodasi kuchli hamshira. U qat'iyatli, keskin, ozgina tartibsizliklarga ham murosasiz bo'ladi. Ko'pincha unchalik saranjom- sarishta bo'lmay, bemorlarga qo'pollik va hatto do'q-po'pisa ham qiladi. Qulay sharoitlarda bunday hamshira yaxshi tashkilotchi bo'lishi mumkin.

5. Jonkuyar hamshira. Bunday hamshira o'z ishini fidoiylik va bemorlarga mehribonlik bilan bajaradi. U chaqqon va uddaburon, bemorlarga g'amxo'r bo'ladi. Uning shaxsiy hayoti ham boshqalarga qayg'urish, yordam berish va kuch-g'ayratini ayamalikdan iborat.

6. Mutaxassis hamshira. U o'ziga xos xususiyatlari va alohida qiziqishlariga ko'ra, maxsus vazifaga tayinlanadi. Bunday hamshira murakkab, masalan, maxsus laboratoriyalardagi vazifalarni bajaradi. U o'zining tor mutaxassislik faoliyatlariga nihoyatda berilgan bo'ladi. Sanab o'tilgan bu toifalar shartli bo'lib, ular tibbiyotimizning qaror topish yillarida, ikkinchi jahon urushi sharoitida va urushdan keyingi davrda yetishib chiqqan hamshiralardir. Yuksak g'oyaviy yo'nalish, vatanparvarlik, o'rtoqlik va jamoa tuyg'usi hamshiralarning o'ziga xos xususiyatlaridir. Tibbiyot hamshirasining shaxsi, uning ish uslubi va usullari bemorlarga ruhiy ta'sir ko'rsatish mahoratini egallash va ular bilan muomala qilishni bilish - bularning hammasi davolash jarayonini ta'minlovchi murakkab tadbirlar asosi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

4. С.А. Мухина, И.И. Тарновская. Атлас по манипуляционной техники сестринского ухода. - АНМИ, 1995.

5. М.А. Fozilbekova, N.A. Nurmatova. Hamshiralik ishi nazariyasi asoslari. - «O'qiluvchi», 2002.

6. Q.S. Inamov. Hamshiralik ishi asoslari. - T., 2007.

7. T.I. Umarova, M.A. Q ayumova, M.Q. Ibrohimova. Hamshiralik ishi. - T., «Zarqalam», 2005.

8. M.I. Musayeva, A.Q. Bayjanov. Yuqumli kasalliklar epidemiologiyasi va parazitologiyasi.

9. M.F. Ziyayeva. Terapiya. - T., «Ilm Ziyo», 2004.

BEMORLARNI (ULTRATOVUSH, ENDOSKOPIK VA RENTGENOLOGIK) INSTRUMENTAL TEKSHIRUVLARGA TAYYORLASH TARTIBI VA QOIDALARI

Razzakova Gulbaxor Kadirberganovna

*Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatlik texnikumi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Tekshirishning laboratoriya usullari muhim ahamiyatga ega. Ular faqat tashxisiy jihatdan emas, balki davo usuli sifatida ham qo'llanadi va ulardan bronx, qizilo'ngach, me'da va o'n ikki barmoq ichak, siydik chiqarish a'zolari kasalliklarini davolashda foydalaniladi. Laboratoriya tekshiruvlar malakali shifokorlar tomonidan o'tkaziladi. Apparaturlarni maxsus o'rgatilgan tibbiyot hamshiralari kuzatib turadilar. Hamshira bemorni tekshiruvga tayyorlashdan tashqari, birmuncha murakkab bo'lgan apparaturani ishlata olishi va muolaja vaqtida uni tez muvofiqlashtirishni uddalashi kerak.

Kalit so'zlar: Rentgenologik tekshiruv, yo'g'on ichakni rentgen tekshiruvi, o't chiqaruv yo'lini rentgen tekshiruvi, muolaja, xoletsistografiya.

Bola statsionarga kelganda avvalo maxsus tekshiruvlar talab qilinadi. Tibbiyot hamshirasi tayyorgarlik darajasini oldindan ko'rishi kerak. Asboblarning sozligini muolaja uchun etarililigini doimo nazoratga olib borish kerak chunki bu bemorning tashxisi va to'g'ri davolanishi sog'ayib ketishi yoki asoratlarning oldini olishga qaratilgan chora tadbirlardir.

Oshqozon va ichakni rentgenologik tekshiruvga tayyorlash. Bolalarni rejali tekshiruvlarda gaz va meteorizm ko'zg'atuvchi moddalar dietadan olib tashlanadi: qora non, kartoshka, dukkaklilar, sut. Bola 20:00 da kechki ovqat istemol qilinishi kerak. Kunduzi bola xech narsa emaydi va ichmaydi. Kechqurun va kunduzi 2 marta tozalovchi xuqna qilinadi. Muolajadan 30 minut oldin katta miqdordagi gazlarni xaydash uchun qayta klizma qilinadi. SHoshilinch xollarda oldindan tayyorlanish o'tkazilmaydi. Tezkor xuqna qilinib muolaja bajariladi.

Qizilo'ngachni rentgen tekshiruviga tayyorlash. Tekshirishni oshqozon va ingichka ichakni tekshirilayotgan vaqtdan oldin tezkorlik va sinchkovlik bilan tekshiriladi. Tekshiruvni shifokor bajaradi. Tekshirishga tayyorlashni o'sha zaxotiy oq boshlash kerak. Bunda tekshiruvni o'tkazish uchun bola Trendelenburg xolatini egallaydi ya'ni, bolaning chanoq qismi boshdan balandroqda joylashadi.

Yo'g'on ichakni rentgen tekshiruviga tayyorlash. Tekshiruvni kontrast modda ichilganidan 24 soatdan so'ng bajariladi. Bunday tekshiruv kuchli tayyorgarlik talab qilmaydi. Irrigoskopiyada, yo'g'on ichak bariy bilan to'lg'aziladi. 2-3 kun gaz xosil qiluvchi moddalar ratsiondan chiqaziladi. Meteorizmدا bolaga 3 marta kuniga romashka nastoykasi beriladi, kechki ovqatdan keyin el xaydovchi nay o'rnatiladi. Irrigoskop qo'yishda peshindagi ovqatdan oldin kastora yog'i (5-15gr) beriladi, kechqurun 1 soat

interval bilan 2 marta el xaydovchi naycha qo'yiladi. Ertalab yengil ovqatdan so'ng 30 minut oralig'idan 2 marta el xaydovchi nay o'rnatiladi.

O't chiqaruv yo'lini rentgen tekshiruvi. Bunday tekshiruvda organizmga kontrast modda kiritiladi.

Oral (muolaja boshlagan vaqtda tarkibida yod tutuvchi dori moddalarni to'xtatish mumkin emas) va tomir ichi xoletsistografiyasi farq qilinadi. Kontrast moddalarni tomir ichidan yuboriladi. Muolaja vaqtda kontrast moddalarga bemor sezuvchanligi ortganda dori moddalarni to'xtatiladi. Qichishish, titrash, bosh og'rig'i, toshma paydo bo'lishi bemor yod moddasini ko'tara olmayotganidan darak beradi. Bunday xolda xoletsistografiya o'tkazilmaydi.

Siydik ajratish tizimini rentgen tekshiruvi. Siydik yo'llarini rentgonologik tekshiruvdan o'tkazish uchun kontrast moddaning 0,5 – 1,5 ml sinamasi yuboriladi. Doriga sezuvchanlik kuzatilmasa tomir ichiga jo'natiladi. Tibbiyot hamshirasi sinchkovlik bilan reaksiya alomatlarini tekshirib borishi kerak. Tana xarorat ortishi, bosh aylanishi, ko'ngil aynish, qayd qilish, yurak o'ynashi, eshak emi paydo bo'lishi va boshqalar kuzatilganda shifokorga murojaat kilinadi.

Kechqurun va kunduzi tekshiruvdan 2 soat oldin el chiqaruvchi nay o'rnatiladi. Tekshiruvdan oldin bola siyib olishi kerak . Agar ichak faoliyati buzilgan bulsa ichaklarda katta miqdorda gaz paydo bo'ladi, bunday xollarda qaytadan klizma qilinadi.

Ezofagogastroduodenoskopiya. Tekshiruv kuni bola xech narsa iste'mol qilmaydi va ichmaydi. Shoshilinch xolatlarda oshqozon ichaklardan qon ketayotganda yoki tezkor tekshiruvlarda tayyorgarliksiz zudlik bilan ezofagogastroduodenoskopiya o'tkaziladi. Tekshiruvdan 1,5 -2 soatdan so'ng ovqatlanishga ruxsat etiladi.

Kolonoskopiya. Bolalarni tekshiruvdan 2-3 kun oldin tayyorlash boshlanadi. Gaz chiqaruvchi oziq ovqatlar taqiqlanadi. Agliadinliy dieta buyuriladi, u go'sht, baliq, guruch va grechkadan iborat. Tekshiruv kunida peshindan keyin kastora yog'i ichiriladi, kechkurun 1-1,5 soat oraliq bilan gaz xaydovchi nay o'rnatiladi. Kechki ovqatni qantli diabete bor va ichak tizimi faoliyati buzilgan bolalarga tavsiya etiladi. Ertalab tekshiruvdan 2 soat oldin tozalovchi klizma qilinadi va el xaydovchi naycha o'rnatiladi. Yoshi kattalarga «Endofalka» per os (nazogastral) sxema bilan: 200 ml xar 10 minutda yoki 1 litrdan xar soatiga buyuriladi. Oshqozon va yug'on ichakdan qon ketishda xech qanday tayyorgarliksiz olib boriladi.

Rektoromanoskopiya. Bu muolaja bajarishda kechasi va kunduzi tozalovchi xuqna qo'yiladi. Ich qotganda (15% magniy sulfat eritmasi 0,5-1,0 osh qoshiqdan 3 maxal kuniga), xar kuni klizma qilinadi.

Kapsulali endoskopiya. Bu muolajani tayyorlashda o'smir yoshdagi bolalarga maxsus tayyorgarlik shart emas. Asosiy maqsadi kapsulani yutishdan 8 soat va yutgandan 2 soat so'ng xech narsa eyilmaydi.

Videokapsula - «tabletk» o'lchami juda kichik shakli silindr shaklda 11x26 mm, biopolimer. Bu asosan oshqozon ichak trakti izga tushishi uchun bu kapsuladan

foydalaniladi Bu muolajani bir marta qo'llanish tavsiya etiladi. Tibbiyot hamshirasi maxsus muolajani tayyorlashda kamarni bemorga kiygizib 8 datchikni keraklicha qilib o'rnatadi. Kapsula ichakda erimasdan yutilgan xolatida ichaklar peristaltikasiga uchrab organizmdan chiqib ketadi va bunda xar daqiqasiga 2 tadan kadr olishga ulgurish kerak. Ushbu ma'lumotlarni sensorlar orqali moslamaga yuborilib ulgurish lozim. Videokapsula olish vaqtida bemor katta kuchga ega tok oldida turmasligi tavsiya etiladi.

Laparoskopiya. Bunda oshqozon-ichak tizimi rentgen tekshiruvidan o'tkaziladi, qonning ivuvchanligi kuzatiladi, protrombin indeksi belgilanadi. Kechqurun klizma qilinadi va kunduzi xech narsa eyilmaydi. Bunda bemorning umumiy xolatidan kelib chiqib ovqatlantiriladi.

Bronxoskopiya. Bemorlar muolajadan 2-3 soat oldin engil ovqatlanib oladi. Bu muolaja och qoringa yoki ovqatlangandan 2-3 soat keyin o'tkaziladi. Muolajadan so'ng bemorning vaziyati va undagi reaksiyalar va og'riksizlantirish usullari xamda qon ketish sabablariga oydinlik kiritiladi.

Muolaja vaqtida bemorlarda xushdan ketish, turli og'riqlar, qon ketishi, noxush xolatlar kuzatilishi mumkin.

Qorin bo'shlig'i UTTsi. Bemorlarni tayyorlashdan maqsad kuchli metiorizm kuzatilganligi sababini aniqlash uchun va tekshirishda 2 kun gaz xosil qiluvchi maxsulotlar chegaralanadi (qora non, sirli sabzavotlar no'xat, mevalar), sut maxsulotlari cheklanadi. Sutkasiga 3 va 5 maxalgacha karbolen, polifepan (1 /2 choy qoshig'ida granulari 1/4 (0,25 stakan suvga solinadi), espumizan, poliferment preparatlar buyuriladi. Shifokor ko'rsatmasiga binoan alabatta kun davomida muolajalar o'tkazilib boriladi. Muolaja och qoringa o'tkaziladi. Muolaja ertalabda o'tkazilishi shart.

3 yoshgacha bo'lgan bolalar 3-4 soat ovqat emasligi etarli, 3-5 yosh bolalar 4-6 soat, 6 yosh yuqori yoshdagi bolalar 6 soat.

Ko'krak qafasi Ultratovushi. Bu muolajaga maxsus tayyorgarlik talab etilmaydi. Bu muolaja asosan och qoringa kunduz kuni o'tkaziladi.

Siydik qopini va buyrakni UTT qilish. Och qoringa qovuq siydik bilan to'la xolatda o'tkaziladi. Bunda bemorning 1- xolati axamiyatga ega. Agar siydik pufagida suyuqlik yig'ilsa uni natijasini aniqlash shunchalik oson bo'ladi.

Qizlardagi bachadon va tuxumdon UTTsi. Bachadon va tuxumdonlarni ultratovushga tekshirishda tozalovchi xukna utkazilishi shart. Ichakdagi gazni elni xaydash uchun aktiv ko'mir ichkiziladi va siydik pufagi to'la xolatda UTT o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Баранов А.А Детские болезни – тахрири остида, 2010
2. Daminov T.O., Xalmatova B.T., Boboyeva O'.R Bolalar kasalliklari, 2013
3. Запруднов А.М., Григорьев К.И. Общий уход за детьми – Учебное пособие, - М.; -2012 й
4. Исаева Л.А Детские болезни. -. тахрири остида, 1994
5. Каримжонов И.А Педиатрия ва неонатологияда ҳамширалик иши – Т., 2012

TIBBIY TA'LIMDA O'QITISHNING NOAN'ANAVIY METODLARI

Nigora Atxambekovna Nurmatova

*Yunusobod Abu Ali ibn Sino nomidagi
Jamoat salomatlik texnikumi direktori*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Abu Ali ibn Sino nomidagi Jamoat salomatlik texnikumi o'quvchilari uchun mo'ljallangan. Kasbiy pedagogika shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni shuningdek, ulardagi mavjud tushuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada kasbiy pedagogika fanining o'rganuvchining tadqiqot metodlari va kasb pedagogikasining mazmuni, usullari, innovatsion va zamonaviy ta'lim usullari va shunga doir ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *didaktik vazifa, an'anaviy dars, interaktiv metodlar, davra suhbat, munozarali masalalar.*

Bugungi kunda o'qitishning noan'anaviy zamonaviy metodlari ta'lim jarayonida keng qo'llanilmoqda. O'qitishning noan'anaviy zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Ta'lim metodlarini tanlashda har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq sanaladi. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tumantalabalar faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish talabalarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ustoz murabbiylar tomonidan talabalarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va talabalarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi. Bu metodlar noan'anaviy interfaol yoki interaktiv metodlar deb ham ataladi. Noan'anaviy interfaol metodlar deganda talabalarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazidatalabalar bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda O'qituvchi talabalarni faol ishtirok etishga chorlaydi. talabalar butun jarayon davomida ishtirok etadi. Talabalar markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- talabalarning yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini talabalarning ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- talabalarning tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llab-quvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodi – talabalar ni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlariga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda tibbiy talabalar kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolda bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda O‘qituvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki O‘qituvchi bir vaqtning o‘zida barcha talabalarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.

2. Kichik guruhlar belgilanadi. talabalar guruhlariga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.

3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.

4. O‘qituvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.

5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.

6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining afzalligi:

➤ o‘qitish mazmunining yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;

➤ muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;

➤ vaqtni tejash imkoniyati mavjud;

➤ barcha talabalar jalb etiladi;

➤ o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

“Kichik guruhlarda ishlash” metodining kamchiliklari: ba‘zi kichik guruhlarda kuchsiz talabalar bo‘lganligi sababli kuchli talabalarning ham past baho olish ehtimoli bor; barcha talabalarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi; guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin; guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

“Davra suhbat” metodi – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan talabalar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir. “Davra suhbat” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir talabalarning bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida Ustoz murabbiylar mavzuni boshlab beradi vatalabalar dan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har birtalabalar o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan talabalarni barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa talabalarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.

Davra stoli tuzilmasi - yozma davra suhbatida ham stol-stullar aylana shaklida joylashtirilib, har birtalabalarga konvert qog‘ozi beriladi. Har birtalabalar konvert ustiga

ma'lum bir mavzu bo'yicha o'z savolini beradi va "Javob varaqasi"ning biriga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi. Shundan so'ng konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagitalabalarga uzatadi. Konvertni olgantalabalar o'z javobini "Javoblar varaqasi"ning biriga yozib, konvert ichiga solib qo'yadi va yonidagitalabalarga uzatadi. Barcha konvertlar aylana bo'ylab harakatlanadi. Yakuniy qismda barcha konvertlar yig'ib olinib, tahlil qilinadi.

"Davra suhbatii" metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. Mashg'ulot mavzusi e'lon qilinadi.

2. O'qituvchi talabalarni mashg'ulotni o'tkazish tartibi bilan tanishtiradi.

3. Har birtalabalarga bittadan konvert va javoblar yozish uchun guruhda nechatalabalar bo'lsa, shunchadan "Javoblar varaqalari"ni tarqatilib, har bir javobni yozish uchun ajratilgan vaqt belgilab qo'yiladi. talabalar konvertga va "Javoblar varaqalari"ga o'z ismi-sharifini yozadi.

4. Tibbiy talabalar konvert ustiga mavzu bo'yicha o'z savolini yozadi va "Javoblar varaqasi"ga o'z javobini yozib, konvert ichiga solib qo'yadi.

5. Konvertga savol yozgantalabalar konvertni soat yo'nalishi bo'yicha yonidagitalabalarga uzatadi.

6. Konvertni olgan tibbiy talabalar konvert ustidagi savolga "Javoblar varaqalari"dan biriga javob yozadi va konvert ichiga solib qo'yadi hamda yonidagitalabalarga uzatadi.

7. Konvert davra stoli bo'ylab aylanib, yana savol yozgan talabalarning o'ziga qaytib keladi. Savol yozgantalabalar konvertdagi "Javoblar varaqalari"ni baholaydi.

8. Barcha konvertlar yig'ib olinadi va tahlil qilinadi.

Ushbu metod orqali talabalar berilgan mavzu bo'yicha o'zlarining bilimlarini qisqa va aniq ifoda eta oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali talabalarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Bunda talabalar o'zlari bergan savollariga guruhdagi boshqatalabalar bergan javoblarini baholashlari va ustoz murabbiylar ham talabalarni ob'ektiv baholashi mumkin.

"FSMU" – (fikir, sabab, misol, umumlashtirish) metodi munozarali masalalarni hal etish hamda o'quv jarayonining bahs-munozarali o'tkazishda qo'llaniladi, chunki bu metod talabalarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash, o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga hamda shu bilan birga bahslashish madaniyatiga o'rgatadi. Bu metod yangi mavzuni chuqur o'rganishdan avval talabalarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o'tilgan mavzuni mustahkamlash, o'zlashtirish, umumlashtirish, talabalarni shu mavzu bo'yicha tasavvurlarini yozma shaklda, dalil va isbotlar bilan ifodalashga undaydi.

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya talabalardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan

mavzuni so‘rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg‘ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.



Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- talabalarga mavzuga oid bo‘lgan yakuniy xulosa yoki g‘oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog‘ozlarni tarqatiladi;
- talabalarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili talabalarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o‘zlashtirilishiga asos bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Niyozov G., Axmedova M. E. Pedagogika tarixidan seminar mashg‘ulotlari. – T.: Noshir, 2011.
2. Axmedova M.E. Pedagogika nazariyasi va tarixi (O‘quv qo‘llanma) – T.: Tafakkur bo‘stoni, 2011.
3. M.X.Toxtaxodjaevaning umumiy tahriri ostida. Pedagogika darslik. T.: O‘zbekiston faylasuflari Milliy jamiyati, 2010.
4. Hoshimov K., Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – “A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi 2001.

BOQUVCHISINI YO'QOTGAN OILA FARZANLARINING IJTIMOYIY JARAYONGA MOSLASHUVI PSIXOLOGIK MUAMMO SIFATIDA

Mo'minova Sevara Faxriddinovna

*Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi magistranti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola ijtimoiy muassasalarda joylashtirilgan bolalar: yetim bolalar, otaona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy himoyalash masalalari va ularning ijtimoiy psixologik xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni qamrab oladi.*

Kalit so'zlar: *yetim bolalar, ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, ijtimoiy himoya, ijtimoiy ishchi, Mehribonlik uylari, ijtimoiylashuv, bolalar muassasalari, ishtimoymoslashuv.*

Har qanday davlatning ijtimoiy siyosatining ajralmas qismi bu yetimlik muammosini hal qilishdir. Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya qabul qilingandan so'ng, birinchi navbatda, muammoning dastlabki bosqichida yordam ko'rsatish va yordam olish uchun bolaning oilaviy muhitda yashash va o'sish huquqini ta'minlash, oilani davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega.

Birlashgan Millatlar tashkilotining ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, urushlar, tabiiy ofatlar, talofatlar, ijtimoiy kaos, iqtisodiy muammolar kabi tobora keng tarqalgan global voqealar dunyodagi yetim soniga ta'sir etib, 2015-yilda 140 milliondan oshib ketgan. Islom fiqh adabiyotiga ko'ra, balog'atga yetguncha otasidan ayrilgan bolalarni tasvirlash uchun "yetim" atamasi ishlatiladi. Holbuki, zamonaviy xalqaro adabiyotlarda "etim" atamasi 18 yoshga yetmasdan ota-onasidan bir yoki ikkalasini ham yo'qotadigan bolalarni belgilaydi. Jahon aholisining 2,2 milliarddan 7,6 qism bolalardan iborat ekanligini hisobga olsak, dunyodagi bolalar umumiy sonining 6.5% yetim deb taxmin qilinadi; va afsuski, bu raqam aytilgan sabablar tufayli ortib bormoqda. Dunyo bo'ylab katta qiyinchiliklar mavjudligiga qaramay, UNICEF xodimlari har bir bolaning ovqatlanish, tabiiy ofatlardan va zo'ravonliklardan himoya qilinish va tenglik huquqlarini amalga oshirish uchun ishlaydi. YuNISEF va global sheriklar yetim bolalarni ota-onasidan birini yoki ikkalasini har qanday o'lim tufayli yo'qotgan 18 yoshga to'lmagan bolani aniqlab kelmoqdalar. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hukumati yetim bolalar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalarni ijtimoiy muhofazasini yaxshilash bo'yicha turli tadbirlarni amalga oshirmoqda. Faqat 2019 yilda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tashabbusi bilan ikkita asosiy hujjat qabul qilindi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 11- fevraldagi "Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni ijtimoiy himoya qilishni kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-4185-sonli qarori va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 30 sentyabrdagi 824-sonli qarori "Yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni joylashtirishning

muqobil shakllarini tanlash, oila institutini mustahkamlash hamda ijtimoiy yetimlikning oldini olish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorlar qabul qilingan. Ushbu maqolani yozishimdan asosiy maqsad ijtimoiy muassasalarga joylashtirilgan bolalarning ijtimoiy 'psixologik xususiyatlari haqidagi o'rganishlarimni yoritib berishdir. Psixologlar va o'qituvchilar ma'lumotlariga ko'ra, bolalar uylarida, mehribonlik uylarida, internat, boshpanalar bolaning asosiy ehtiyojlarini qondirmaydi, bu uning jismoniy va aqliy rivojlanishining buzilishiga aylanadi. Bularning barchasi bolaning identifikatsiyasini shakllantirish jarayonida salbiy oqibatlarga olib keladi. Bunday bolalar mustaqil hayotga tatbiq etilishadi, o'z oilalarida yashash, hordiq chiqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. P.D. Pavlek va M.Ya. Rudneva bunday bolaning portretini tashkil etishga yordam beradigan bolalar uylarida ko'tarilgan bolalarning shaxsiy xususiyatlarini ajratdi:

1. Mehribonlik uylari o'quvchilarining ijtimoiy holati: ular ota-onalardan, tashvishlardan mahrum bo'lganlar, ular to'liq psixologik va hissiy qo'llab-quvvatlanmaydilar va ota-onalardan to'g'ri xulq-atvorni ko'rmaydilar. Ularning xatti-harakatlari shartli ravishda rasmiy qabul qilingan normalarga qaratilgan. Bularning barchasi ularning umumiy rivojlanishiga salbiy ta'sir qilmoqda.

2. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ko'pincha jismoniy va aqliy rivojlanishda og'riyapti, bu irsiy omillarning oqibati bo'lishi mumkin. Bunga aqlning past darajasi, nutqni rivojlantirish va umuman shaxsiy rivojlanish muammolari kiradi.

3. Yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar ota-onalar mehri yo'qligi tufayli, atrofdagi odamlarni ta'kidlash qobiliyati kam rivojlanmoqda. Ularda bolalar ruhiy noqulayliklarga ega bo'lishadi, ular o'zlarini keraksiz his qilishadi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarida tengdosh va kattalar bilan aloqa qilish ko'nikmalari sekin shakllantiriladi.

4. Oiladan tashqarida bolalar o'zlarini tarbiyalash uchun o'zlarini qabul qilmaydilar, shuning uchun o'zlarini ijtimoiy muhitda tasdiqlash uchun ular ko'pincha kuch, tajovuzlardan foydalanadilar, ularning xatti-harakatlari ko'pincha o'ziga xosdir. Ular xatti-harakatlarning axloqiy me'yorlarini hisobga olmaydilar, ularning huquq va majburiyatlarini jamiyat uchun tushunmaydilar. Ularning hayotiy qiyinchiliklarida, asossiz bo'lmagan holatlarni ya'ni o'zlarining ijtimoiy muhitini ayblashadi.

5. Ushbu toifadagi bolalarning o'z kelajagini taqdim etishi qiyin. Jamiyatdan ajratilganligi sababli, ular kelajakdagi kasbni tanlash, qarama-qarshi jinsdagi munosabatlarni tanlash, ularning oilasini yaratish va bolalarni tarbiyalashda qiyinchiliklarga olib keladi.

Ijtimoiy muassasalarga joylashtirilgan bolalar tengdoshlardan farq qiladi, ularning rivojlanishi va sog'lig'i har bir shaxsni shakllantirishning har bir bosqichida juda salbiy xususiyatlarga ega, bu esa uning katta qismiga, ijtimoiy moslashuviga ta'sir qiladi. Ota-ona qaramog'isiz qolgan yetim bolalar ijtimoiy moslashuvining alomatlarini aniqlash bilan ixtisoslashtirilgan muassasalar bitiruvchilarining ijtimoiy muhitga moslashish jarayonida

muammolarni ajratib ko'rsatish mumkin. P.D. Pavlek va M.Ya. Rudneva quyidagi muammolarni ajratdi: Muammolardan biri sog'liqning oldini olishdir. Maxsus muassasalarda, yetimlar va ota-ona qarmog'isizqolgan bolalar tibbiy nazoratga olinadi va tegishli tibbiy yordam olishadi. Keyingi muammo - uy-joy. Ko'pchilik paydo bo'lganida, yoshlar mustaqil hayotni olib, fermalarini boshqarish va o'z oilalarini qurishni boshlashlari va o'z oilalarini qurishni boshlashlari kerak. Davlat qurilishi ulushi kamayadi, bu etimlar va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar uchun tashkil etilgan bolalarning ahvolini yomonlashtiradi. Vasiylik va vasiylik organlari fuqarolarning ushbu toifasi uchun yashash joylarini ta'minlash majburiyatlarini to'liq bajarmaydi. Yana bir muammo - bu o'quvchilarning shaxsiyatining xususiyatlariga mos keladigan va mehnat bozorining talablariga javob beradigan professional faoliyat sohasini tanlash muammosi. Oliy o'quv yurtlarini kiritishning murakkabligi tufayli bandlik muammosi yuzaga keladi. Har bir yosh bosqichi va ular orasidagi o'tish davri ma'lum kimning shaxsini o'zgartirish, psixologik neoplazmlarning shakllanishi va ma'lum bir bosqichda o'qitish va ta'limning natijasi bo'lgan etakchi faoliyat turini o'zgartirishga olib keladi. Agar bola yaqinlarini e'tiborsiz, sevgi, tushunish va qo'llab-quvvatlamasa, shaxsning rivojlanishi qonuniy muhitga moslashuv sharoitlariga olib keladigan qoidabuzarliklarga olib keladi.

Ota-ona qaramog'isiz qolgan yetim bolalar holati jamiyatning holatiga ta'sir qiladi. Tajovuz, g'azab, qayg'u, asabiylashishning avj olishiga xos bo'lgan bolalarning xattiharakatlari bularning barchasi yoshlarni buzish, huquqiy, axloqiy, ma'naviy va ijtimoiy normalarga undashi mumkin.

Ajratilgan muammolar yetim va ota-ona qaramog'isiz qolgan bolalar, maxsus muassasalarda, quyidagi sohalarni o'z ichiga olgan maxsus muassasalarda, ota-ona qaramog'isiz qoldirishni tashkil qilish orqali hal qilinishi mumkin:

- Tibbiy yordam;
- Ijtimoiy-yuridik maslahatlar;
- Kasbiy yo'naltirish;
- Ijtimoiy-psixologik konsalting;
- Ijtimoiy va pedagogik yordam.

Yetimlarni ijtimoiylashtirishda qiyinchiliklar. Sotsializatsiya jarayonida uchta vazifalar hal qilinadi: moslashish, avtomatlashtirish, shaxsiyatni faollashtirish. Ushbu vazifalarni hal qilish, qarama-qarshi va birlashtirish, sezilarli darajada tashqi va ichki omillarga bog'liq. Bolalar uyida yashash rejimi qattiq tartibga solinadi (qachon turish, o'ynash, o'rganish, yurish, uxlash, uxlash), bolaning individik xususiyatlariga yo'l qo'ymaslik. Kamdan kam hollarda, to'shakning devorlari bola o'z xohishiga ko'ra bezatilishi va shaxsiy buyumlar jadvalini shaxsiy buyumlar va mazmunga ega bo'lgan shaxsiy makon deb hisoblash mumkin. Bolalar uyidagi hayot majburiy oshkoralikni so'raydi. Bolalar uylarida bolalar turmush tarzini tashkil etish shartlari muvaffaqiyatli ijtimoiylashning tashqi qiyinchiliklarini yaratadi, bu guruh bolalar o'zlarining aqliy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan ichki qiyinchiliklar mavjud.

Ijtimoiylashtirishdagi qiyinchiliklarni engish mezonlari:

- -Ijtimoiy moslashuv - mavjud munosabatlar tizimiga moslashish qobiliyati;
- -Salbiy ijtimoiy ta'sirlar (avtonomiya), ularning individual sifatlarini saqlash;
- -Rivojlanayotgan qiyin vaziyatlarda (ijtimoiy faoliyat), o'zini o'zi belgilash qobiliyati.

To'liq ijtimoiy moslashuv fiziologik, boshqaruv, iqtisodiy, pedagogik, psixologik va professional moslashuvni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy moslashuv tizimda bir martalik o'zgarish emasligi sababli, jarayon o'z vaqtida sodir bo'ladi, keyin savol uning bosqichlari haqida bo'ladi. Bu yerda ijtimoiy moslashuvning to'rtta sifatli bosqichlari haqida gaplashish mumkin:

- Birinchi (boshlang'ich) bosqich, moslashuvchan individual faqat xatti-harakatlar qoidalarini ushlaganda, ammo jamiyatning ichki qiymatlari tizimi tan olinmaydi;

- Ikkinchi bosqich (bag'rikenglik), ijtimoiy muhit va shaxs bir-birlariga nisbatan xattiharakatlarning standartlari mavjudligini tan oladi;

- Uchinchi bosqich - bu o'zaro imtiyozlar bilan bog'liq: shaxs ekologik ahamiyatga ega bo'lgan tizimni tan oladi va qabul qiladi, shuningdek, ushbu muhitning vakillari uning ba'zi qadriyatlarini tan oladi;

- To'rtinchi bosqich - bu to'liq moslashish, shaxs avvalgi rasmlar va qadriyatlarni rad qilganda, "Assimilyatsiya".

Shunday qilib, ijtimoiy moslashuv shaxsning ijtimoiy moslashuvidir, bu uning tarkibiy funktsiyalarini o'z ichiga olgan ba'zi bir qismlarni o'z ichiga olgan ba'zi biosktiv funktsiyalarni amalga oshirish qobiliyatini aks ettiradi: atrofdagi voqelikni va o'z organizmini yetarli his qilish; munosabatlar va boshqalar bilan muloqot qilish tizimi; ishlash, o'rganish, dam olish va dam olish qobiliyati; oiladagi va jamoadagi o'z-o'zini xizmat qilish va aloqa qilish qobiliyati; Boshqalarning roliga muvofiq xattiharakatlarning o'zgaruvchanligi.

Xulosa qilib aytganimizda, yuqorida aytib o'tilganlar natijasida biz ijtimoiy ish sohasidagi ushbu mavzuning dolzarbligi shubhasiz degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ijtimoiy moslashuv muammolari eng qiyin. Ularni hal qilish va muvaffaqiyatli birlashtirish uchun, mustaqil hayotda, ijtimoiy me'yorlar bilan bog'liq bo'lgan bolalarning ijtimoiy me'yorlari, ijtimoiy muhitingiz va o'zingiz bilan munosabatlarni o'zgartirishingiz kerak. Ular javobgar. Afsuski, yetimlik hissi ixtisoslashgan muassasalar bitiruvchilari o'z hayotlari davomida ixtisoslashgan muassasalararo muassasalarni tark etmaydilar, ular o'zlarining muammolari yolg'izlik, boshqalarga nisbatan nuqtai nazarga ega bo'lishiga ishonishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Every child needs the love of family, Global Child Advocates, <https://globalchildadvocates.org/socialorphans>
2. Kuznetsova L.P. Asosiy ijtimoiy ish texnologiyalari: tadqiqotlar. Qo'lda / I.p. Kuznetsova. Vladivostok: DVG Tning nashriyoti, 2002 yil
3. Pavlek P.D. Aholining turli guruhlari bilan ijtimoiy ish texnologiyalari: tadqiqotlar. Qo'llanma / P.D. Pavlenok, M.Ya. Rudneva. M.: Infra-M, 2009.
4. Kon I. Erta yoshlar psixologiyasi. - M., 1989 yil
5. Orphans, UNICEF, <https://www.unicef.org/media/orphans>

O'ZBEKISTON QONUNCHILIGIDAGI SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARNING SIR SAQLANISHI KAFOLATLARI

Ramazonov Temurbek Farxod o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

Mehnat huquqi mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi shaxsga doir ma'lumotlarning sir saqlanishi kafolatlari va ular noqonuniy ravishda oshkor etilgan taqdirda beriladigan jazo choralari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *fuqaro, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni, Davlat xizmatchilarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari.*

Milliy qonunchiligimiz bilan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, har qanday shaxsning sha'ni, obro'si tajovuzlardan himoyalangan va u shaxsiy hayotga aralashishdan himoyalaniş huquqiga egadir (Konstitusiyaning 27-moddasi). Biroq, afsuski, ayrim shaxslar tomonidan, jumladan, mahallada, boshqa yashash joylarida, shuningdek, ish joylarda g'arazlik, ko'ra olmaslik yoki boshqa past niyatlarda, o'zga shaxslarga qanday usuldan qat'i nazar ma'naviy yoxud moddiy zarar yetkazish maqsadida, ular haqida noqonuniy tarzda ma'lumotlarni yig'ish va bu ma'lumotlarni o'zgartib, bo'hton va tuhmatlarni qo'shib tarqatish holatlari uchrab turadi.

Axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya xizmatlarining jamiyat hayotiga tatbiq etilishi, ijtimoiy tarmoqlar, internet saytlari va internet messenjerlarida shaxsga oid ma'lumotlarni uning roziligisiz olinishi hamda tarqatilishiga har qadamda guvoh bo'lyapmiz.

Bugungi kunda, yuqorida qayd etilgan fuqarolarimizning konstitusiyaviy huquqlarini, jumladan, sha'ni va qadr-qimmatini himoyalashga oid, mamlakatimizda bir qancha qonunlar ishlab chiqilgan va o'z samarasini bermoqda. Jumladan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi va jinoyat qonunchiligi tuhmat, haqorat qilish, yolg'on axborot tarqatish va boshqa bir qancha huquqbuzarliklar uchun javobgarlik va jazolarni nazarda tutadi.

Shaxsning sha'ni, obro'si va uning shaxsiy hayotga aralashishni himoyalaniş huquqini ta'minlashga qaratilgan qonunlar qatorida 2019-yil 2-iyulda qabul qilingan "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni muhim ahamiyatga egadir. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, shaxsga doir ma'lumotlar deb, muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron tarzda, qog'ozda va (yoki) boshqa moddiy jismda qayd etilgan axborotlar tushuniladi. Qonun mazmun-mohiyatidan kelib chiqib, bunday ma'lumotlar deb, masalan, jismoniy shaxsning ismi, familiyasi, otasining ismi, tug'ilgan vaqti, tug'ilgan joyi, telefon raqami, vaqtincha yoki doimiy yashash joyi, oilasi, ijtimoiy holati, ma'lumoti, kasbi,

lavozimi, ish joyi, daromadlari, mulkiy holati, shaxsiy fotosurati va boshqa shaxsiy xayotiga oid ma'lumotlarni ham tan olish mumkin.

Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 462-moddasiga asosan ma'muriy javobgarlikni yoki Jinoyat kodeksning 1412-moddasiga muvofiq jinoiy javobgarlikni keltirib chiqaradi. Mazkur qilmishlar shaxsga doir ma'lumotlarni qonunga xilof ravishda yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo'q qilishda namoyon bo'lishi nazarda tutilgan. Bunda, Jinoyat kodeksi 1412-moddaning birinchi qismi bo'yicha javobgarlik sharti sifatida, aybdor shaxsning ilgari xuddi shunday qilmish uchun ma'muriy jazoga tortilganidan so'ng qilmishni qayta sodir etilishi hisoblanadi. Jinoyat kodeksi 1412-moddaning ikkinchi qismi bo'yicha jinoiy javobgarlik, mazkur harakatlarni bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib sodir etilgan bo'lsa, takroran yoki xavfli residivist tomonidan sodir etilgan bo'lsa, g'arazli yoki boshqacha past niyatlarda sodir etilgan bo'lsa, xizmat mavqeyidan foydalangan holda sodir etilgan bo'lsa yohud og'ir oqibatlariga sabab bo'lganda kelib chiqadi. Qonun, shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish bilan bog'liq ma'muriy huquqbuzarlik uchun fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima jazosini nazarda tutadi, jinoiy qilmish uchun esa bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash yoxud uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazolarni nazarda tutadi.

Mazkur qilmishlarni ish joyida sodir etilishi, ayrim paytlarda manfaatlar to'qnashuvi vaziyatlariga ham olib kelishi tabiiydir. Bunday qilmishlarni xodimlar tomonidan ish joylarida sodir etilishining oldi olinishida, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 2-martdagi 62-sonli "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan ilovaga muvofiq tasdiqlangan "Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalari" muhim o'rin tutadi. Mazkur, Namunaviy qoidalarning II-bobida ("Davlat xizmatchilarining xizmatdagi xulq-atvorining asosiy prinsiplari va qoidalari") davlat xizmatchisi tomonidan o'z kasbiy faoliyatini fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik prinsiplariga asoslanib, o'z xizmat vazifalarini bajarishda fuqarolarning huquqlari, majburiyatlari va qonuniy manfaatlarini hisobga olish, kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik, o'z xizmat vazifalarini bajarishiga to'sqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarining ta'siri bilan bog'liq bo'lgan xatti-harakatlarga barham berish majburiyatlari belgilangan. Odob-axloq namunaviy qoidalarining 17-bandida "Davlat xizmatchisi tomonidan Odob-axloq qoidalarining buzilishi uni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'lishi mumkin" degan qoida keltirilgan.

Ko'rib turibmizki, mamlakatimizda shaxsning huquqlari nafaqat asosiy qonunimiz bilan, balki boshqa qonun va qonunosti hujjatlar bilan ham himoyalangan. Bu, o'z navbatida, fuqarolarimizning tinch hayot qurishga va ish joylarida samarali o'z xizmat vazifalarini amalga oshirishga imkon beradi.

Shuningdek, internet messenjerlarda, saytlarda va ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchi akkauntini qayd etish, guruhlar yoki kanallar tashkil etishda shaxsga doir ma'lumotlardan, ya'ni shaxsning fotosurati, ism-sharifi, ish joyi, lavozimi va boshqalardan uning roziligisiz foydalanish va tarqatilishi holatlari keskin ko'payib ketayotganligi kuzatilmoqda. Buning natijasida ko'plab internet foydalanuvchilari o'z shaxsiy hayotiga va shaxsiga oid ma'lumotlar tarqatilishiga oid huquqbuzarliklardan jabr ko'rmoqda.

Shu sababli, shaxsga oid ma'lumotlarni himoya qilish va xavfsizligini ta'minlash eng dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan masala sifatida qaralmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida» gi Qonun qabul qilindi va bu qonunda inson va fuqaroning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklariga rioya etish, shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berish maqsadlari va usullarining qonuniyligi, shaxsga doir ma'lumotlarning aniqligi va ishonchligi, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligi va himoya qilinganligi, sub'ektlar, mulkdorlar va operatorlar huquqlarining tengligi, shaxs, jamiyat hamda davlatning xavfsizligi asosiy printsiplar sifatida mustahkamlangan.

O'zbekiston Respublikasining «Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida» gi Qonunga ko'ra, jismoniy shaxsning ismi, familiyasi, otasining ismi, tug'ilgan vaqti, tug'ilgan joyi, vaqtincha yoki doimiy yashash joyi, oilasi, ijtimoiy holati, ma'lumoti, kasbi, lavozimi, ish joyi, mulkiy holati, telefon raqamlari, fotosurati, elektron pochta manzili, biometrik va genetik ma'lumotlar hamda boshqa ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlar hisoblanadi.

Shu bilan birga, Qonunda shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish mexanizmlari aniq belgilanishi, shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha huquqiy, tashkiliy va texnik choralar ko'rishni nazarda tutadi. Bu sub'yektning o'z shaxsiy hayotiga aralashuvdan himoya qilinish huquqi amalga oshirilishini, shaxsga doir ma'lumotlarning yaxlitligini va but saqlanishini, shaxsga doir ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya etilishini, shaxsga doir ma'lumotlarga qonunga xilof ravishda ishlov berilishining oldi olinishini ta'minlaydi.

Shuningdek, Qonunda bunday ma'lumotlarning maxfiyligi, ularning hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalariga kiritish uchun sub'ektning yozma roziligini olish, shuningdek sub'ektning shaxsga doir ma'lumotlarini hamma foydalanishi mumkin bo'lgan manbalardan uning murojaatiga ko'ra chiqarib tashlash ko'rsatilgan.

Shaxsga oid ma'lumotlar bilan bog'liq huquqbuzarliklarga misol qilib, uyali aloqa kompaniyalarining abonent raqamlarini dilerlar tomonidan rasmiylashtirishda va uyali aloqa vositalarini UZIMEI tizimidan ro'yxatdan o'tishida ayrim nopok tadbirkorlar tomonidan turli yo'llar bilan qo'lga kiritilgan fuqarolik pasporti ma'lumotlaridan foydalanish holatlari ko'plab kuzatilmoqda. Shuningdek shaxsga oid ma'lumotlarning

noqonuniy savdosi uyushgan jinoyatchilikning elementlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Shaxsga doir ma'lumotlar bilan ishlovchi jismoniy yoki yuridik shaxslar ya'ni, uyali aloqa operatorlarining dilerlari, aviakassalar, turistik agentliklar, mehmonxonalar, xususiy klinikalar, sug'urta tashkilotlari va boshqa tadbirkorlik sub'ektlari hamda davlat tashkilotlarida ishlovchi shaxslar tomonidan ma'lumotlarni moddiy mablag' evaziga sotish holatlari, ya'ni «ma'lumotlar qora bozori» yuzaga kelgani ham kuzatilmoqda.

Shuningdek, internet tarmog'ida xakerlar tomonidan yaratilgan, shaxsga oid ma'lumotlarni o'g'irlashga qaratilgan Windows, MacOS, Linux, Unix, Android, IOS va boshqa shu kabi operatsion tizimlar muhitida ishlovchi ilovalar hamda niqoblangan elektron dasturlar tarqatilmoqda.

Internet foydalanuvchilari zararli dasturlarni o'yinlar, qo'llanmalar, fotosuratlar, elektron hujjatlar, elektron xatlar va boshqa ko'rinishlarda qabul qilib olishadi va natijada shaxsga oid deb qaralayotgan abonentlar kontakt ro'yxati, kirish va chiqish qo'ng'iroqlar tarixi, akkauntlarga tegishli parollar, bank hisob raqamlari, bank kredit/debit kartalari ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar zararli dastur muallifiga yashirin tarzda yuboriladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, barcha fuqarolar tomonidan axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Chunki, har birimiz bank karta raqami, pin-kodini boshqalarga aytishda, shaxsimizni tasdiqlovchi hujjatlar nusxalarini ijtimoiy tarmoqlar orqali yuborilishida ehtiyotkorlik choralari ko'rmasak, o'zimiz to'g'rimizdagi shaxsiy ma'lumotlarni oshkor etilishiga sababchi bo'lgan hisoblanamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Tursunov Y., Usmanova M. Mehnat huquqi. O'quv qo'llanma. T., "Moliya", 2001 yil.
2. Tursunov Y., «Mehnat huquqi», Darslik. T., «Moliya», 2002 yil
3. <https://lex.uz/docs/-142859?ONDATE=24.07.2018>
4. <https://lex.uz/docs/-4396419>
5. <https://advice.uz/oz/document/2116?keyword=>

O'QUVCHILARNI KASB -HUNARGA YO'NALTIRISHDA OTA-ONALAR VA MAKTAB JAMOASINING MA'SULIYATI

Sh.M.Kenjajev

Xorazm VPYMO'MM

*“Amaliy fanlar va maktabdan tashqari ta’lim
metodikasi” kafedrasini mudiri*

Kasb-hunarga yo'naltirish o'quvchiga uning shahs xususiyatlarini inobatga olgan holda beriladigan yordam, uning bir tomondan jamiyat uchun kerakli bo'lishi ikkinchi tomondan o'zining shaxsiy harakatlariga erishishi, hayotiy sharoitlarining o'zgarishi davomida ta'lim va mehnat sohalarini mustaqil va ongli tanlay olishi uchun imkoniyat yaratishdir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish umumta'lim fanlari va texnologiya fani o'quv jarayonida o'quvchilarni turli mehnat faoliyatlari bilan tanishtirish orqali, ularning qiziqishlari, layoqatlari, qobiliyatlari va individual xususiyatlarini rivojlantirish hisobiga amalga oshiriladi.

“Komil inson” tarbiyasi hamma zamonlarda ham dolzarb masala bo'lib kelgan. Dunyoda birorta ota-ona yo'qki, farzandining jamiyatda o'z o'rniga, mustahkam mavqega ega bo'lishini istamagan va shu farzand orqali boshini baland ko'tarib, g'ururlanib yurishni orzu qilmagan bo'lsa. Sharq xalqlarida bunga qadimdan alohida e'tibor berilib, o'ziga xos ahamiyat kasb etib kelgan.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab yoshlar va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasi hukumatimiz siyosatining doimiy kun tartibidadir. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinib, qator hukumat qarorlari asosida amalgam oshirilayotgan sohadagi islohotlar natijasida, ta'lim va tarbiyani uzviy va izchil olib borishga qaratilgan mutlaqo yangi tizim yaratildi. Umumta'lim muassasalari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish, ularning kasb-hunarni ongli ravishda va to'g'ri tanlashiga ko'maklashish masalasi ta'lim sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham, musulmon dunyosining muqaddas kitobi “Qur'oni Karim”da ham, hadis-shariflarda ham, din va tasavvuf asoschilariyu, davomchilari o'git va asarlarida ham, xullas, mumtoz-fan va madaniyat arboblarning madaniy-ma'rifiy meroslarida ham ta'lim-tarbiya, xususan bolalarga kasb-kor o'rgatish masalasi birinchi o'ringa qo'yiladi. Eng asosiysi, hukumatimiz olib borayotgan bugungi siyosatning negizi ham shu muammo bilan bevosita bog'liqdir.

Har bir oilada ota-ona sevimli farzandlari tarbiyasi bilan mashg'ul ekan, ulardan albatta ertaga sog'lom, komil inson, yaxshi kasb kor egalari chiqishini hohlaydi. Chunki bolaning bilimli, ilimli va yaxshi kasb egasi bo'lishidan avvalo oila manfaatdor, qolaversa solih farzand tarbiyalab borish ota-onaning burchidir.

Shunday ekan bola ulg'ayib borishi bilan uni biror kasb-hunarga yo'naltirib borishda bosh-qosh bo'lish, maslahatlar berib borish, mazkur yo'nalish bo'yicha shart- sharoit va imkoniyatlar yaratib berish ota-ona tarbiyasining muhim bir qismi hisoblanadi.

Dunyoda minglab kasblar bor. Mana shu rang-barang kasblar olamida bola qanday qilib mo'ljal olishi kerak?

Hayot yo'lini, mehnat faoliyatini to'g'ri boshlash uchun qaysi kasbni tanlagan ma'qul? Bolaning ichki dunyosida shu kabi savollar g'ujg'on o'ynar ekan, shu asnoda albatta, birinchi yordam sevimli oilasidan, ya'ni ota-onasidan bo'lmog'i lozim. Ota-ona esa o'z navbatida albatta bolaning qiziqishlari, mayllari va qobiliyatlariga tayangan holda ish ko'rishlari muhim ahamiyatga ega.

Xo'sh bular nima? U bolada qanday aks etadi?

Qiziqish- bu odamning muayyan mehnat sohasidagi ijobiy munosabatlari bo'lib, uning bilishga va faoliyat ko'rsatishga bo'lgan intilishidir. Qiziqishlarning mazmuni va ko'lamini bolaning bilim darajasini hamda muayyan narsaga qiziquvchanligini aks ettiradi. Bunday qiziqishlar ko'pincha o'sib-ulg'aya borib, maylga, bolaning muayyan faoliyat bilan shug'ullanishga bo'lgan intilishiga hamda mazkur faoliyat turiga muvofiq keladigan mahorat va malakalarni takomillashtirib doimiy ravishda o'z bilimini oshirib borishi uchun intilishiga aylanadi. Qobiliyat esa odamning biror faoliyat sohasida muvaffaqiyat qozanishiga yordam beradigan individual psixologik xususiyatdir. Demak, ota-ona shularning barchasini hisobga olgan holda bu masalaga to'g'ri yondoshishi kerak bo'ladi, chunki boshlang'ich tarbiyani bola oilada oladi.

Buning uchun ishni nimadan boshlagan ma'qul?

Bizningcha bolaga juda erta vaqtlardan oq turli kasb-hunarlar haqida baholi-qudrat ma'lumot va tushunchalar berib borish joiz. Sababiki ular o'zlarini qiziqtirgan kasb sirlariga, ularning yaxshi-yomon tomonlariga barvaqt e'tibor bilan qaraydigan bo'lishadi. Har bir kasbga a'lo o'qish orqali erishish mumkinligini bolaga alohida ta'kidlash zarur. Vaholanki yoshlikda olingan puxta bilim faqat kasb-hunardagina kerak bo'lmay, balki insonning butun hayot faoliyatini, kelajagini belgilaydi. Busiz komil inson bo'lib yetishish yoki mukammallik darajasi sari borish mumkin emas.

Yana shuniyam bilish joizki, bola qancha o'qimishli bo'lsa, undan shunchalik madaniyatli, manaviyati yuksak shahs tarkib topadi.

Bola kasb tanlayotgan vaqtda oila va maktab hamkorligi katta ahamiyat kasb etadi. Bola oilada olgan tarbiyasi va maktabda olgan ta'limi uning kasbni to'g'ri tanlashiga yordam beradi. Maktabdagi o'quv-tarbiya jarayonining ajralmas qismi hisoblangan kasb-hunarga yo'naltirish ishlariga ham innovatsion tus berish, uning samaradorligini oshirish uchun ilmiy asoslangan zamonaviy pedagogik-psixologik, axborot texnologiyalarini keng joriy etish, ilmiy-uslubiy ta'minot va kadrlar salohiyatini yaxshilash, jarayonga jamoatchilik hamda ota-onalarni faol jalb etish zarurati mavjud.

O'quvchi kasbni to'g'ri tanlashida kasb-hunarga yo'naltirishga doir ilmiy-ommabop adabiyotlar, audiyo, video, multimedia materiallarini yaratish, ko'paytirish va tarqatish

ishlarini, tuman va viloyatda mavjud professional ta'lim muassasalari haqidagi ma'lumotlar bankini yaratib qo'yish, texnologiya darslarida o'qituvchi o'quvchining qiziqishlari asosidagi savollarga yetarlicha javob bera olishi va o'quvchini kasb –hunarga to'g'ri yo'naltira bilishi muhim ahamiyatga ega.

O'quvchi ta'limning keyingi bosqichini qayerda davom ettirishini aniqlashga ikkilanayotgan bo'lsa, bunday vaqtda maktab psixologi, maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi, sinf rahbari va ota –onalar hamkorligi yordamga keladi. Bunda ota-onaning farzandining qiziqishlari haqidagi ma'lumotlari, maktab psixologi o'tkazgan metodikalar natijalari va o'quvchining bevosita qiziqishlari asosida unga yo'l yo'riq ko'rsatiladi.

Agar bolasining qiziqishlariga qarshi chiqayotgan ota-onalar bo'lsa, maktab psixologi va kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi ota-onalarga kasbiy maslahatlar berib borishi kerak.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, har bir inson bo'lg'usi kasbini mustaqil o'zi tanlasagina sevib tanlagan kasbiga mehr qo'yadi. Uning zahmati qanchalar og'ir bo'lsada, charchamaydi, nolimaydi. O'zi va boshqa hunarmadlar yaratgan mahsulotlarning qadriga yetadi. Halol mehnat evaziga topgan mablag'larini o'ylab, tejamkorlik bilan sarflaydi. Hayotda shunday ota-onalar ham uchraydiki, ular farzandining hohish-irodasi, qobiliyatlarini hisobga olmasdan, o'zlariga qulay bo'lgan kasb- hunarni egallashga majbur qiladilar. Natijada, ota-onaning qistovi bilan o'qishga kirgan farzand, o'quv dargohini bitirib chiqqach mutaxassislikka emas, shunchaki diplomga ega bo'ladi. Tabiiyki, bunday mutaxassislikdan na o'zi, na jamiyat naf ko'radi.

Oilada ota-onalarning o'z kasbiga bo'lgan sadoqati, bir-biriga do'stona munosabati, mehribonligi, g'amho'rliqi, o'z navbatida oilada farzandlarning kasbga, hayotga bo'lgan munosabatining to'g'ri shakllanishiga yordam beradi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarni qaysi kasb hunarga layoqatlilikini aniqlashda oila shifokorining maslahati ham muhim ro'l o'ynaydi. Bolalar va o'smirlar shifokori sog'lom o'quvchilarga kasb-hunar tanlash yuzasidan tavsiya berar ekan, albatta, tanlangan kasbning o'smir o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi, balki, uni barkamol shaxs bo'lib shakllanishiga imkon berishini hisobga olishlari shart.

Farzandini to'g'ri kasb hunarga yo'naltirish borasidagi ota-onaning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: yoshligidan farzandining ta'lim tarbiya olishiga befarq qaramasdan, uning qiziqish, mayli va qobiliyatini kuzatib borishi;

har bir ota-ona farzandi o'qiyotgan sinf ahbari, maktab amaliyotchi psixologi, yoshlar yetakchisi, shifokori bilan yaqin aloqada bo'lib farzandini qaysi fanlarga qiziqishi, qaysi fan va sport to'garaklariga qatnashayot-ganligini bilib borishi;

ota-ona o'z kasblari haqida farzandiga to'liq ma'lumotlar berib borishi, unda qiziqish uyg'otishi va boshqa kasblar haqida ma'lumotlar berib borishi;

faqat farzandining qiziqishiga qarab kasb tanlash va unda o'rganishiga imkoniyat yaratishi.

Shunday qilib, farzandlarni ularning qiziqishi, qobiliyati, iqtidori va qiziqqan kasbiga sog'ligi to'g'ri kelishini, yashayotgan manzilida tanlangan kasbiga talabning mavjudligini, hunarmandlar sulolasi an'analariga sodiqligini e'tiborga olib kasb-hunarga yo'naltirish barqaror rivojlanishining muhim omilidir. Bunday hamkorlik o'sib kelayotgan yosh avlodga ongli kasb tanlash, o'z kasbiy istiqbolini belgilash hamda jamiyat ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkonini beradi.

O'QUVCHILARNING IJODIY-TANQIDIY FIKRLASH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

Kenjayev Sherzod Mammatjumayevich

*Xorazm viloyati PYMO'MM "Amaliy fanlar va
maktabdan tashqari ta'lim" kafedrasini mudiri*

Bugungi tez o'zgaruvchan hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlangan davrda yosh avlodni yuksak ma'naviyatli va intellektual rivojlangan shaxs qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlariga asoslangan jamiyatda yashash har bir insondan keng bilimlarga ega bo'lishni talab qiladi. Shunday ekan, voyaga yetayotgan yosh avlodni oilada va ta'lim-tarbiya muassasalarida ijodiy mushohada qilishga o'rgatib borish zarurdir.

Buning uchun, avvalambor ta'lim mazmuni va uning tarkibini kengaytirish va chuqurlashtirish, xususan bu mazmunga nafaqat bilim, ko'nikma va malaka, balki umuminsoniy madaniyatni tashkil etuvchi ijodiy faoliyat tajribasi, tevarak-atrofga munosabat madaniyatini ham kiritish g'oyasi kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'yiladi.

Umumta'lim maktablarida o'quvchilarning o'quv jarayonida fanga qiziqishlarini orttirish, ularning mustaqilligi va faolligini ta'minlash, tanqidiy tafakkurni shakllantirishga qaratilgan bilish jarayonini tarkib toptirish muhim ahamiyatga ega. Mustaqil ijodiy tafakkurning rivojlanishi o'quv jarayonida o'quvchini izlanishga undaydi. Bunda o'quvchi fikrlash faoliyatining eng muhim jihatlari namoyon bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchi o'qituvchi bilan birgalikda faol izlanishda bo'ladi. Maktab o'quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlash darajasini o'rganishda ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarining ijodiy-tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati katta. Ushbu jarayonda o'qituvchi ta'limiy o'yinlardan o'z o'rnida foydalana olishi o'quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. Ta'lim jarayonida ijodiy, rolli o'yinlar bilish materiallarini o'zlashtirishga undovchi, hordiq chiqartirishga xizmat qiladigan usul emas, balki o'yinlar juda katta evristik va ishontiruvchi quvvatga egadir. O'yinlar yagona yaxlit tarzda ko'ringan hodisalarni bo'lib-bo'lib, qismlarga ajratib idrok qilish imkonini beradi. Shu asosda o'rganilayotgan hodisalarni qiyoslash, o'zaro farqlash va bir butun tarzda idrok etish imkonini beradi.

O'quvchilarning tasavvurlari va ijodiy faoliyatlarini kengaytirishda turli korxonalar va tabiatga sayohat o'yinlari alohida pedagogik ahamiyatga ega. Bunday o'yinlar kitoblar, xaritalar va turli hujjatlar yordamida amalga oshiriladi. Bunday o'yinlar o'quvchilarning tasavvur qilish layoqatlariga tayanadi. Barcha xarakter va kechinmalar o'yindagi rollar yordamida aniqlanadi. O'quvchilar kundaliklar, xatlar yozadilar, bilish xarakteriga ega bo'lgan turli-tuman materiallarni to'playdilar. Mazkur yozma hujjatlarda materiallarni

ishchan bayon qilish ularning fikrlash jarayonlarini jadallashtiradi. Mazkur o'yinlarning o'ziga xos jihatlari o'quvchilar idrokining faollashuvi hamda o'ziga xos faoliyat shaklining yaratilishi, ular orasidagi do'stlik va hamkorlik muhitining vujudga kelishi bilan belgilanadi. Bunday o'yinlar o'quvchilar tasavvurining amaliy faoliyatini kengaytiradi. Bunday faoliyat tashqi harakatlar yordamida amalga oshiriladi. Shuning uchun ham, bevosita doimiy harakatga aylanadi. Shunga ko'ra, o'yin natijasida o'quvchilarda tasavvurning ijodiy faoliyatga aylanish jarayoni amalga oshadi. Buning natijasida ular muayyan narsaning loyihasini tuzib, uni tashqi harakatlar yordamida amalga oshiradilar. Natijada o'quvchilar orasida hamkorlikdagi o'yin, mehnat va o'qish faoliyatlari amalga oshiriladi. Bu jarayonda o'quvchilar ko'p mehnat qiladilar, mavzuga oid kitoblar, ma'lumotnomalar va xaritalarni tahlil qiladilar. Ma'lumki, har bir shaxs muayyan ijodiy quvvatga ega. Mazkur ijodiy quvvatning asosini esa yangi narsalarni yaratish tashkil etadi. O'quvchilarning tasavvurlari ijodiy hamda yaratuvchanlik xarakteriga ega bo'ladi. O'quv yoki badiiy adabiyotlarni o'qish jarayonida o'quvchilar ushbu kitoblarda bayon qilingan voqelikni o'z xotiralarida qayta jonlantirishlari talab etiladi.

O'qituvchi o'quvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun darslarning mazmun va sifatiga e'tibor beradi. Buning uchun bolalarni fikrlashga, ularni faollashtirishga harakat qiladi. O'quvchini tayyor bilim qabul qiluvchi emas, balki sinfda o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish uchun munozara qilishga yo'llaydi. O'quvchilarda ijodiy-tanqidiy fikrlashni shakllantirishda muammoli o'qitish metodlari samarali natijalarni beradi.

O'quv jarayonida o'quvchilar faolligini oshiruvchi o'qitish metodlaridan biri "Kichik guruhlarda ishlash" metodidir. Bunda o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib ishlaydilar va bu jarayonda har bir guruh bir-biridan o'rganishga, o'rganganlarini o'z salohiyatlari doirasida baholashga, turli vaziyatlarda bilimlarni qadrlab, xulosa chiqarishlariga imkon yaratiladi. Qolaversa o'quvchilarni hamkorlikda ishlab qo'yilgan muammolarni xal qilishga o'rgatadi.

O'quvchilarning tanqidiy tafakkurini o'stirishda quyidagi tartibda ish olib borish lozim.

1. O'quvchilar guruhi oldiga muammoli topshiriqlar va savollar qo'yiladi hamda ularni fikrlashga undovchi savollar beriladi: Siz nima deb o'ylaysiz? Sizning fikringizcha qanday va qanaqa bo'lishi kerak? Kabi savollar.

2. O'quvchilar o'zaro fikrlab olishlari uchun ma'lum bir vaqt beriladi.

3. O'quvchilar o'z fikrlarini bayon qilishlariga imkon beriladi va fikrlarini asosligini tekshirish uchun nega bunday deb o'ylaysiz? Nimaga bunday xulosaga keldingiz? Kabi savollarni berish mumkin.

4. Bildirilgan fikrlar bo'yicha guruhdagi boshqa o'quvchilarning fikrlari borligi va kim aytilgan fikrlarni ma'qullamasligi bo'yicha savollar bilan murojat qilinadi.

5. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgaldikda guruhlar tomonidan bildirilgan fikrlarni muhokama qiladi va fikrlarni umumlashtiradi.

6. Qabul qilingan, umumlashtirilgan fikrlarga o'quvchilarning munosabati o'rganiladi va fikrlar tinglanadi.

O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi metod va usullarni tanlab, ta'lim jarayonida qo'llay olishi, o'quvchilarda ijodiy faoliyatni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini e'tiborga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero pedagogning dars jarayonida moxirlik bilan qo'llayotgan dars berish usullari o'quvchilarning ijodiy-tanqidiy fikrlashlarini tarkib toptirish uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardayev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. –T.: 2008 y.
2. "Uzluksiz ta'lim" ilmiy-uslubiy jurnal. 2015 y. 6-son.

ЁШ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ЕТУК ИНСОН ҚИЛИБ ТАРБИЯЛАШ ДАВР ТАЛАБИ

С.Э.Қазақова

*Ўқитувчи, (Хоразм вилояти педагогларни янги методикаларга
ўргатиш миллий марказ)*

Фарзандлар камоли истиқболни кўзлаб, эзгу ниятлар билан яшаш ҳалқимизга хос улуғ фазилат. Авлоддан-авладга ўтиб, сайқал топиб келаётган бу азалий қадрият мустақиллик йилларида янада бойиб, ҳеч кимдан кам бўлмаган баркамол авлодни тарбиялаш давлат сиёсати даражасига кўтарилди. Ҳар қандай мамлакатнинг қудратини белгилайдиган омиллар кўп. Энг асосийларидан бири шу юртда вояга етаётган юксак маънавиятли, жисмонан соғлом, эртаги куннинг ҳақиқий эгалари бўлган баркамол авлоддир. Бугунги кунда ёшларнинг ижтимоий ҳаётдаги фаоллигини ошириш, бозор муносабатлари шароитида уларнинг меҳнат ва касб кўникмаларини шакллантириш муҳим вазифа ҳисобланади. Чунки ҳар бир юртнинг келажаги, эртаги куни эркин ва фаровон ҳаёти, мамлакатимизнинг ҳалқаро доирадаги нуфузи, авваламбор, униб ўсиб келаётган ёшларнинг етук инсонлар бўлиб вояга етишига боғлиқдир. Мамлакатимизда ривожланиб, такомиллашиб бораётган бозор муносабатлари шароитида меҳнат ва касб кўникмаларини шакллантириш мазмуни фан, техника, ишлаб чиқариш ва маданиятнинг тараққиёти билан узвий боғлиқ равишда модернизация қилиниши лозим. Умумий ўрта таълим мактаблари технология фани дарсларида ўқувчиларнинг бозор муносабатлари шароитида меҳнат ва касб кўникмаларини шакллантириш жараёнида бир қатор долзарб педагогика муаммоларни ҳал қилиш зарур.

Асосий муаммолар :

1. Ўқувчиларда меҳнат ва касб кўникмаларини шакллантириш.
2. Ўқувчиларни касбга йўналтириш асосида меҳнат ва касбга тайёрлаш
3. Замонавий меҳнат ва касб турлари билан ўқувчиларни таништириш.
4. Ўқувчиларнинг меҳнат ва касб турларини шакллантиришда фан-техника, технологиялар ва ишлаб чиқаришдаги янгиликлардан самарали фойдаланиш.
5. Ишлаб чиқариш корхоналарига экскурсиялар ташкил қилиш.

Ушбу муаммоларни узлуксиз таълим тизимининг умумий ўрта таълим босқичида ҳал қилиш орқали таълим тизимининг кейинги босқичларида ҳар томонлама интеллектуал, билимли мутахассисларни тайёрлашга эришилади. Касб танлашда муҳим омиллар бу-қобият, маҳорат ва малакадир. Инсон бирор ишга қўл урушда айниқса касб танлашда хатога йўл қўймаслиги учун айнан ўз қобилиятини ҳисобга олиши муҳим. Қобилиятлар – шахсдаги шундай индивидуал, турғун сифатларки, улар одамнинг турли хил фаолиятдаги кўрсаткичлари, ютуқлари ва қийинчиликлари сабабларини тушунтириб беради.

Касбий маҳорат фақат билим, юксак малака ва тинимсиз меҳнат ҳисобига ривожланади. Ишлаб чиқариш жараёнида мутахассисдан аввало ишга қобилиятлиги, лаёқати ва касбий хусусиятлари талаб этилади. Буларни бир сўз билан касбий маҳорат деб атаймиз. Бизга маълум, ёшларимиз касб танлашида баъзан ота-онанинг хоҳишларига қарашса, айрим ҳолларда таваккал қилишади. Лекин ҳаёт давомида бундай йўл тутганларнинг баъзилари афсус чекканлари, бирор ишнинг бошини тута олмай юрганларига гувоҳ бўлганмиз. Касб – бу ҳар бир инсоннинг ҳаёт йўлини бошқарувчи катта бир кучдир. Ёшларимиз энг аввало касб танлашда унинг муҳим ва ўта нозик масала эканлигини чуқур англамоқлари лозим. Мамлакатимизда амалга оширилаётган ижтимоий – иқтисодий ислоҳотлар ва тобора такомиллашиб бораётган таълим жараёни ўқувчи-ёшларни юксак билимли, замонавий касб эгалари қилиб тарбиялашда муҳим аҳамият касб этмоқда. Яратилаётган мавжуд имкониятлардан фойдаланган ҳолда касб – ҳунарга тўғри йўналтириш, бу жараённинг узлуксизлиги ва узвийлигини таъминлаш учун ҳар бир ўқитувчининг индивидуал хусусиятлари, интеллектуал қобилиятини ва интилишларини эътиборга олиш зарур.

Ҳозирги замон ўқувчиси ўта қизиқувчан ва талабчандирлар. У эгаллаётган билимлари натижасини, танлаган касбининг келажаги бор йўқлиги билишни истайди. Шундай экан, бу жараён бугунги кун педагоги ва психологидан давр билан ҳамнафас бўлишни, кириб келаётган ахборот оқимларидан тўғри, ўз ўрнида фойдаланишни, ўқувчиларни касбга йўналтиришнинг инновацион таълим технологияларини ишлаб чиқишни, шакллантиришни талаб қилмоқда.

Хулоса сифатида шунини айтиш мумкинки, мактаб ўқувчиларини касбга йўналтиришда ўқитувчи ижодий маҳоратини шакллантириш, ўқувчилар касб портфолиоси ва касблар каталогини ишлаб чиқиш ва амалиётга жорий этиш самарали бўлиб, буларнинг барчаси таълим босқичларидаги узвийликнинг натижавийлигини кафолатлай олади. Бу эса, ўз навбатида, ёшларимизнинг замонавий касб ҳунарларни эгаллашига, ҳаётда ўз ўрнини топишга хизмат қилади.

MOBIL GURUHLAR FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Beknazarova Moxira Ergashevna

*Sirdaryo viloyati Sardoba tumani 11- sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti
tarbiyachi metodisti*

Annotatsiya: *Ushbu maqola "Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, aholiga maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning yangi innovatsion muqobil shakllarni joriy etish haqida".*

Kalitso'zlar: *Estetik, tarbiyachi, mahorat, kommunikativ, malaka, sahnalashtirish, ijodi*

Key words: *Aesthetic, educator, skill, communicative, small
axe, staging, creating, creating novelty.*

Ключовие слова: *Этический, воспитатель, мастерство, коммуникативный,
квалификация, постановка, творческий.*

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishini kengaytirish, aholiga maktabgacha ta'lim xizmatlari ko'rsatishni tashkil etish, shuningdek, maktabgacha ta'lim va tarbiyaning yangi innovatsion muqobil shakllarni joriy etish maqsadida tashkil etiladi.

Ilg'or xorijiy tajriba inobatga olgan holda, ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinmagan bolalarning har tomonlma yetuk, intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratiladi.

Bolalarning sog'lig'ini muhofaza qilish va mustahkamlab borish. Bolalarni milliy madaniyat va umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiyaning samarali shakllari va usullarni joriy etib borish. Bola shaxsining asoslarini shakllantirish, uning bilim orttirish bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirish. Maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash va ularni boshlang'ich ta'limiga tayyorlash. Ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko'rsatib borish.

Mobil` guruhlar zamonaviy talablarga javob beradigan va qayta jihozlangan avtobuslar bazasida tashkil etiladi. Mobil guruhlarda ta'lim-tarbiyani tashkil etish uchun sanitariya normalari va qoidalari hamda gigiena normativlariga muvofiq faqat fanlarni rivojlantiruvchi muhit va o'yin faoliyatini tashkil etish maqsadida ajratilgan xar bir xududlarda foydalaniladigan yer maydonlari ajratiladi.

Mobil` guruxlar davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga tegishli tuman (shaxar) maktabgacha ta'lim bo'limining buyrug'iga asosan birlashtiriladi.

Mobil guruxlarda faoliyat ko'rasatayotgan tarbiyachi, tarbiyachining yordamchisi va xaydovchisi birlashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbariga hisobot beradi.

Mobil guruxlar xodimlari mobil` guruhlari birlashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotining shtatida hisobda turadi.

Mobil guruxlarga maktabgacha ta'lim tashkilotiga bormaydigan 3-7 yoshli bolalar qabul qilinadi.

Mobil guruxlarga bolalar bo'sh o'rinlar mavjud bo'lgan taqdirda, ota-onalarning (qonuniy vakilning) arizasi va bolaning salomatligi to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma, ota-onalarning (qonuniy vakilning) fuqarolik pasporti nusxasi, bolaning tug'ilganligi to'g'risidagi guvohnoma nusxasi, bolaning 2 dona fotosuratilari asosida qabul qilinadi.

Bolalar mobil` guruxlarga birlashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbarining buyrug'i asosida qabul qilinadi.

Bolalarni bir guruhdan ikkinchi guruhga o'quv yili davomida ota-onalarning (qonuniy vakilning) arizasi asosida bo'sh o'rin bo'lgan taqdirda o'tkaziladi. Mobil guruxlarda davlat maktabgacha ta'lim xizmatlari bepul ko'rsatiladi.

Mobil` guruxlarga ta'lim –tarbiya jarayoni ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari hamda “Ilk qadam” davlat o'quv dasturi asosida tashkil etiladi va ovqatlantirishni majburiy tashkil etmagan holda, har bir guruxda bir xaftada 7,5 soatdan (bir kunda 3-4 soat) kam bo'lmagan ta'lim berish nazarda tutiladi.

Mobil guruxlar ta'lim faoliyati 2 smenada, bir haftada 6 kun ish faoliyat olib boradi.

Mobil guruxlarda o'quv yili 2 sentyabrdan boshlanib 31 mayda yakunlanadi, yozgi sog'lomlashtirish davri 1 iyundan 31 avgustga qadar xisoblanadi.

Guruxlarda bir xil yoki aralash yosh printsipi bo'yicha to'ldiriladi. Bir guruxda bolalar soni 16 nafardan ortiq bo'lmasligi lozim. Mobil guruxlardagi ta'lim-tarbiya jarayoni o'ziga xos alohida xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etiladi.

O'quv-uslubiy, didaktik materiallar, rivojlantiruvchi o'yin va o'yinchoqlar, badiiy adabiyotlar bilan byujet mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Minimallashtirilgan alohida kantselyariya anjomlari to'plami bilan esa ota-onalar hisobidan ta'minlanadi.

Avtobusda bolalar bo'lgan vaqtda uning xarakatlanishiga yo'l qo'yilmaydi.

Tegishli kasbiy ma'lumotga, tayyorgarlikka, yuksak axloqiy va ma'naviy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar mobil` guruhlarda pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish xuquqiga egadir. Mobil guruxlar pedagog xodimlari, yordamchi tarbiyachilari va xaydovchilarining ish haqi davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun belgilangan tartibda to'lanadi.

Birlashtirilgan avtobus hududlardagi ajratilgan maydonchalarga jadval asosida bir xaftada ikki marotaba borib, ta'lim- tarbiya jarayonlari olib boriladi.

Turli yoshdagi mobil guruhlarda ta'lim jarayonini tashkil qilish quyidagi shakllarda olib boriladi:

Bolalar bilan har kuni ishimiz kundalik reja asosida amalga oshiriladi. Kunlik rejalashtirilayotganda, biz dasturning muhim nuqtalarni belgilaymiz. Masalan bolalar

tuplanishi, individual mashg'ulotlar , jismoniy o'yinlar, pedagog tomonidan erkin o'yinlar, yig'ishtirish ishlari, teatrlashtirilgan tomosha, sayr, xikoya aytish, yoki kitob o'qish kabalar bilan birgalikda o'tkaziladigan asosiy mashg'ulot vaqtidir. Mobil` guruhlarda kun davomida yanada tarkiblashgan xarakterlar, bola o'z xarakterini erkin yarata olish mumkin bo'lgan xarakterlar bilan navbatma-navbat o'yg'unlikda keladi pedagoglarga yordam va ko'mak beradi.

Bolalar bilan ish olib borayotgan biz maktabgacha ta'lim metodikalaridan yaxshi biladigan shakl va metodlarni qo'laymiz. Biroq biz aralash yoshdagi bolalar guruhida o'qitish va tarbiyalash jarayonida yosh xususiyatlarni e'tiborga olgan xolda ish faoliyatlarni shakllantirishimiz kerak.

Turli yoshdagi bolalar guruhi bilan ishlash kontseptsiyasi quydagilarni nazarda tutadi.

Bir xal mavzu doirasidagi ish, talablar darajasining differentsiatsiyasi hamda bajariladigan, xamkorlik va birgalikdagi xarakter qilishga o'rgatadigan, bolalar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydigan o'zaro yordam, barcha uchun teng imkoniyatlar, individuallashtirish har bir bola individual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash. Bolalar bog'chasini hayotga, bolalar tajribasiga yaqinlashtirish orqali olib borish.

Dasturning asosi tarbiyachining ishi bolani xar tomonlama va uyg'unlikda rivojlanishga yo'naltirilganligini belgilaydi. Bolaga shaxsni shakllantirishda yordam berish maqsadida uning ehtiyojlari va imkoniyatlari, faoliyati va faolligini o'ziga xosligini aniqlash, su'bektivlik tamoillaridan foydalanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Su'bektivlik shakllantirish bu:

Bolani qadir-qimmatini hurmat qilish. Individuallashtirish va guruhda hamkorlik qilishga o'rgatish, bolaning ehtiyojini qondirish, bolaning imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlash, insonparvarlik qadiriylarni qo'llash. Turli yoshdagi guruh bolalarni o'yinlar, sayr ekskursiyalar birgalikda o'tkazilsa bevosita ta'lim faoliyatni tashkil qilishda kichik guruxlarga bo'lish amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlarni rejalashtirishda pedagog hech bo'lmasa ikkita kichik guruxga bo'lishni xisobga olish kerak. Masalan kichik bolalar 3 yoshdan 4 yoshgacha, katta bolalar 5 yoshdan 6 yoshgacha bo'linishi shart. Agar mavzu oson bo'lsa o'rta gurux bolalar katta gurux bolalari bilan birga ishlashlari mumkin lekin mavzu murakkab bo'lsa kichik guruxchalarga bo'lib ishlanadi. Xar bir bolaning individual qobiliyatlari xisobga olinadi. Qaysi bir bola bilimlarni osonroq o'zlashtiradigan bo'lsa katta guruhga o'tirish mumkin. Bilimni o'zlashtirishga qiynaladigan bolalar esa kichik guruxga o'tishga imkoniyat beradi.

Pedagog mashg'ulotni tashkil qilayotgan vaqtda kungilli yordamchi ota-onalar ishtirokidan foydalanib. Bolalar uchun barcha kerakli materiallar va qo'llanmalarni tayyorlaydi. Mashg'ulot tarbiyachini topshiriqlari va bolalar ehtiyojidan kelib chiqib shakllantiriladi. Biz ishtirok etayotgan bolalar soni, joy mavjudligiga qarab tartibga solamiz. Biz ko'proq butun guruh bilan ishlaymiz va har bir bolalarning yosh xususiyatiga qarab mashg'ulot davomida topshiriqlar beramiz. Bir xil guruxdagi yoshdagi guruxlarga

nisbatan, turli yoshdagi gurux bolalari tezroq rivojladilar, chunki kichik yoshdagi bolalar katta yoshdagi bolalarga taxlid qilgan xolda faoliyatlarda ishtirok etadilar.

Mobil` guruhlarning afzallik tomonlari:

davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti yo'q hududlarda maktabgacha yoshdagi bo'lgan bolalarni maktabgacha ta'limga qamrab olish;

bolalarning maktabgacha ta'limga qamrab olishni kengaytirish,;

maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bormaydigan bolalarga ta'lim xizmatlari ko'rsatish;

- bolalarni har tomonlama yetuk intellektual, ma'naviy-estetik, jismoniy kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanish, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordamlar ko'rsatish.

mobil` guruhlarda maktabgacha ta'lim tashkilotiga qatnamaydigan bolalarning ijtimoiy moslashuvini taminlash va ularni boshlang'ich ta'limga tayyorlash asosiy maqsadlaridan biridir.

-Hududlardagi mobil` guruxga qatnayotgan bolalar ota-onalaridan mobil` guruxlari faoliyati haqida so'rovnomalar o'tkazildi. Ushbu so'rovnomalarda mobil` guruxlar faoliyatini yanada rivojlantirish uchun quydagi takliflar kiritildi.

mobil` gurux bolalari uchun ikkinchi til mashg'ulotlarini tashkil etish;

aqilvoylar sonini ko'paytirish,;

musiqa va jismoniy tarbiya yo'riqchisi shtatlarini tashkil etish;

hududdagi bolalarni to'liq qamrab olish maqsadida qo'shimcha 3-smenani tashkil etish;

- mobil` guruxga qatnayotgan bolalarning ota-onalari farzandlarining ijobiy tomonga o'zgarganidan minador bo'lishdi. Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan ota-onalarga bolalarning ilk rivojlanishi, ularga ta'lim-tarbiya berish masalasida maslahat va uslubiy yordam ko'rsatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 dekabrda 802-son qaroriga Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat stahdarti.

2. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan

3. Davlat talablari Maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturi.

4. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ilk qadam jurnalining 2021 yildagi 7-8 sonlaridan.

5. Internet resuslari.

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИММУНОТЕРАПИИ В КОМПЛЕКСНОМ ЛЕЧЕНИИ ОСТРЫХ ПНЕВМОНИЙ У ДЕТЕЙ

Рахимова Дилором Орифжоновна

к.м.н., доцент.

Хасанова Барно Жалолоудиновна

старший преподаватель.,

Абдуллаева Мунира Убайдуллаевна

к.ф.н., старший преподаватель

Ташкентский фармацевтический институт

Резюме: *Острые пневмонии среди заболеваемости детского возраста занимают одно из первых мест, хотя анализ данных официальной статистики показывает некоторое снижение заболеваемости в последние десятилетия. Однако вызывает опасения факт нарастания число больных детей с вяло текущими, затяжными и рецидивирующими вариантами пневмоний. Такие дети, впоследствии пополняют группу часто болеющих детей. Именно поэтому, в последние годы, большая значения в комплексном лечении неблагоприятно протекающих форм острых пневмоний, придается восстановлению нарушенного иммунного гомеостаза, то есть иммунокоррекции.*

Ключевые слова: *острая пневмония; часто болеющие дети; иммуномодулятор.*

Актуальность: *Инфекционная заболеваемость респираторного тракта в детском возрасте является наиболее серьезной проблемой отечественного здравоохранения. Это связано с широкой распространённостью инфекций среди детского населения вне зависимости от возраста, пола и региона проживания. Большое число возбудителей бронхолегочной патологии обуславливает отсутствие тенденции к снижению заболеваемости. Несмотря на большой арсенал имеющихся лекарственных средств, профилактического, этиотропного и патогенетического воздействия, не снижается потребность в создании и внедрении в практику новых препаратов в комплексной терапии данной патологии.*

Острые пневмонии в структуре общей заболеваемости детей раннего возраста занимают одно из первых мест в Центрально-Азиатском регионе, хотя анализ данных официальной статистики показывает некоторое снижение заболеваемости в последние десятилетия. Однако вызывает опасения факт нарастания число больных детей с вяло текущими, затяжными и рецидивирующими вариантами пневмоний, с частичной эрадикацией возбудителей и отсутствием полного клинко-рентгенологического завершения воспалительного процесса в легких. Такие дети, впоследствии пополняют группу часто болеющих детей, которая по данным различных авторов, составляет от 20 до 45% детской популяции, причем

наибольшая часть представлена детьми первых трех лет жизни, имеющих возрастные особенности или транзиторные отклонения в иммунной системе.

Многочисленными научными исследованиями, посвященными проблеме пневмоний у детей, убедительно показано, что в основе этой патологии лежат вторичные, приобретённые в ходе течения инфекционного процесса в легких, нарушения иммунного гомеостаза, причем, как правило, транзиторного характера. Именно поэтому, в последние годы, большая значения в комплексном лечении неблагоприятно протекающих форм острых пневмоний, придается восстановлению нарушенного иммунного гомеостаза, то есть иммунокоррекции.

Наиболее часто в современной терапии неблагоприятно протекающих острых пневмоний у детей, с целью иммунокоррекции, назначают иммуномодуляторы - лекарственные средства, обладающие иммуностропной активностью, которые в терапевтических дозах восстанавливают функции иммунной системы, т.е. повышают иммунную защиту детского организма.

Цель исследования.

Нами в качестве иммунокорректирующего средства системного действия был выбран препарат Генферон Лайт и введен в состав комплексной терапии острых пневмоний у детей.

Материалы и методы исследования.

Под наблюдение мы отобрали детей (20 контрольная группа и 20 группа сравнения) в возрасте 1-3 лет, получивших лечение в отделении пульмонологии ОДММЦ г. Андижана.

Ректальные суппозитории Генферон Лайт (в 1 свече - 125000 МЕ) был назначен 2 раза в сутки с интервалом 12 часов. Курс лечения составил 5 суток.

Эффективность действия препарата проводилась на основе оценке имеющих проявлений острой пневмонии.

Результаты исследования.

Как показала анализ, у 90% детей, получавших Генферон Лайт на вторые сутки, а у 10% на 3 сутки отмечалось нормализация температурной реакции; у всех детей на 4-5 сутки отмечалось уменьшения кашля, который стал более продуктивным, значительно улучшились физикальные данные и рентгенологическая картина в легких. Для сокращения сроков выздоровления, всем детям через 5 дней был назначен второй курс иммунокорректирующей терапии.

Продолжительность пребывания на стационарной лечении детей, получивших два курса Генферон Лайт, была на 5-7 дней короче, чем у детей, не получивших иммунокорректирующего лечения.

Выводы.

The scientific heritage of our great ancestors is of special importance in the development of modern medicine. Our great compatriot Abu Ali ibn Sina is one of those nobles. This great breed, who started scientific research at the age of 16, created more than 450 works in the fields of medicine, philosophy, logic, chemistry, physics, astronomy, mathematics, music, literature and linguistics. 242 of them have reached us. These masterpieces, which made an important contribution to the development of world science, have not lost their importance. Abu Ali ibn Sina defined the main directions of the development of medicine in his "Laws of Medicine". In this work, the great scientist laid the foundation for the most important methods in the fields of applied medicine and pharmacology. Ibn Sina's main medical works "The Law of Medical Science" ("Book of Medicine") is an encyclopedic work, reworking the instructions and achievements of ancient physicians. "Medicines" ("Al-Adviyat al-kalbiya") about heart diseases and their treatment. *fazail ash-sharab va manofi'ikh va mazorikh*) — Ibn Sina's shortest treatise. "Treatise on the Vascular War" ("Treatise Nabziya") "Provisions for Travelers" ("Fi tadbir al-musofirin") "Treatise on Sexual Power" ("Risola fil-l-box") - disease, its prevention and the treatment of lust disorders is expressed. "Epic about medicine" ("Urdjusa fit-tib"). "Treatise about vinegar and honey" ("Treatise fi-s-sikandjubin") - the preparation of vinegar and honey with different composition and consumption in diseases is described. "Treatise about Sachartqi" ("Ristola fil-khindabo"). "Blood vessels in blood collection" ("Risola fil-uruk al-mafsuda") "Risola-yi judiya" - ear, stomach, dental diseases are described. In addition, hygiene problems are listed in it. Our great grandfather Abu Ali ibn Sina not only continued the ancient traditions, but also created new methods of treatment and founded the science of medicine. In particular, the information recorded

in the rare book "Medical Laws", which has become a favorite work of the peoples of the world and a program in the activities of medical workers, has not lost its importance at all, on the contrary, its value has increased even more. Their wider use is a vital necessity. Therefore, folk medicine, its unique traditions, have passed many tests in terms of quality, safety and efficiency in the provision of public health, medical and sanitary assistance, in particular, prevention of chronic diseases and their treatment. That is the reason why the development of folk medicine in our country is being paid a lot of attention. The Association of Folk Medicine of Uzbekistan, the Academy of Medicine was established, and as a result of consistent efforts at the front, it began to develop. consistent integration into the healthcare system, mutual harmonization, training of qualified specialists was required by life itself. In this sense, it is noteworthy that the above-mentioned decision defines a clear mechanism for the systematic resolution of such issues. The scientific-practical center of national medicine and its territorial structures are being established. Using the historical traditions and unique heritage of Uzbek folk medicine, prevention, diagnosis and treatment of diseases, as well as analysis and study of the efficiency of providing other medical services are defined as its main task. For this purpose, the development of the main directions of folk medicine such as phytotherapy, acupuncture, ayurveda, homeopathy, yoga, moxa therapy, naturopathy, osteopathy, thermal medicine, chiropractic, and sigun, their wide application in practice, educational support for the healthy lifestyle of the population. will be involved in the preparation of methodical literature. In addition, he will be an initiator in the cultivation of medicinal plants, preparation of raw materials based on them, organization of scientific research, localization of rare medicinal herbs. Therefore, all conditions are being created for cooperation with China, Japan, India, Vietnam, France, and Russia, which are leaders in this field, including extensive study. In this regard, it is gratifying that more recourse is being made to Chinese medicine, which is capable of miracles in the treatment of pain.

Summary. In the decision "On additional measures for the development of folk medicine in the Republic of Uzbekistan" adopted by our honorable President on April 10 of this year, clear and systematic tasks were defined for the solutions of these problems, their implementation will certainly be the basis for the elimination of pain points and problems in this direction. With the involvement of experts from the World Health Organization, the Association of Folk Medicine of Uzbekistan, the Academy of "Medicine" and other interested organizations were assigned to develop the project "Concept for the Development of Folk Medicine in Uzbekistan in 2021-2025" the tasks defined in the concept undoubtedly serve to ensure the perspective of the system. References:

1. Abu Ali ibn Sina. About medicinal plants
2. Abu Ali ibn Sina "Mysterious Medicine" 2015 Nasaf publishing house.

**MATBUOT KONFERENSIYASI DARSİ MISOLIDA G'O'ZA GENETİKASI VA SELEKSIYASI
MAVZUSI DOIRASIDA O'QUVCHILARNI BILIM VA KO'NIKALARINI SHAKLLANTIRISH
USLUBLARI**

Mirzaxalilov Mirabbos Mirzakarim o'g'li
Yoqubov Abutolib Axmadali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti, zoologiya va umumiy biologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada g'o'za genetikasi va seleksiyasi mavzusi doirasida matbuot konferensiya darsining mohiyati va o'quvchilar erishishi mumkin bo'lgan yutuqlar to'g'risida fikr yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *matbuot konferensiya, kolleksiya, genetika, seleksiya, genetik obyekt, g'o'za.*

Аннотация. *В данной статье рассматривается суть урока пресс-конференции на тему генетики и селекции хлопчатника и достижения, которых могут достичь учащиеся.*

Ключевые слова: *пресс-конференция, коллекция, генетика, селекция, генетический объект, хлопок.*

Abstract. *This article discusses the essence of the press conference lesson on the topic of cotton genetics and selection and the achievements that students can achieve.*

Key words: *press conference, collection, genetics, selection, genetic object, cotton.*

KIRISH

G'o'za tolasi uchun ekiladigan texnik ekin hisoblanadi. (Shayxov E.T va boshqalar 1990, Shleyxer 1978 va boshqalar.) Genetika va seleksiya asoslarini o'qitishda g'o'zadan genetik obyekt sifatida foydalanish imkoniyatlari beqiyos katta. (Musayev va boshqalar 2000, G'ofurov va boshqalar 2010, Turabekov, Atajiyeva 2010.)

G'o'zada G. Mendelni har uchala qonunlari to'liq yuzaga chiqadi. (G'ofurov 2010, Musayev va boshqalar 2012.) Go'zani nihoyatda ko'p navlari chatishtirish, eksperiment mutagenез hisobiga yaratilgan bo'lib hozirda fermer xo'jaliklarida keng ekiladi. (Umumiy biologiya 1995, 2010-yil hosili uchun 2010.) [3,4,6,7,8,9]

G'o'za genetikasini va seleksiyasini o'rganishga munosib hissa qo'shgan olimlar benihoyat ko'p. (Biologiya 1984.) G'o'za genetikasi va seleksiyasini rivojlanishida munosib hissa qo'shgan o'zbek olimlari benihoyat ko'p. Ular g'o'za genetikasi, g'o'zadagi sifat va miqdor belgilarini o'rganishda munosib hissa qo'shganlar. Ular qatoriga Musayev D.A, Abdullayev A.A, Zaytsev V.S, Mauer F.M, Kanash S.G, Avtonomov A,I, Miraxmedov S.S, Navrotskiy Y.L, Nazirov N.N, Maxmadaliyev K.M, Afzalov M.F, Simongulyan va boshqalarni kiritish mumkin. (Ter-Avansyan 1973, Abdullayev 1974, Simongulyan 1974, Biologiya, sitologiya va genetika asoslari 2006, Musayev va boshqalar) [1,2,5,10,11,12,13]

Material va metodika. Tadqiqot obyektini sifatida respublikamizda keng maydonlarda ekiladigan texnik ekin sifatida g'ozga tanlab olindi. Tadqiqot obyektini sifatida g'ozdagi miqdor va sifat belgilarini irsiylanishini G.Mendel qonuniyati asosida amalga oshirildi. Farg'ona davlat universiteti akademik litseyi va ixtisoslashtirilgan maktab internatlarida tadqiqot va kuzatuv ishlari amalga oshirildi.

Natijalar va muxokama. Gossipium avlodining 4 ta madaniy turdan tashqari yovvoyi va yarim yovvoyi turlari ham qisman o'zining vatanida yetishtirib kelinmoqda.

Dunyo miqyosida hozirgi kunda 5 ta mintaqada jami 87 ta mamlakatda g'ozga navlarini yetishtirish va ularda xosil olish ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Ulardan, 10 tasi Yevropada, 26 tasi Osiyo va Okeaniya, 32 tasi Afrika, 10 tasi Shimoliy va Markaziy Amerika hamda 9 tasi Janubiy Amerika hududida joylashgan mamlakatlardir.

AQSH, Xitoy, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Misr, Turkiya, Meksika kabi davlatlar dunyodagi yetakchi paxta yetishtiruvchi mamlakatlardir.

Tadqiqot davomida mavzuni o'qitishda yangi pedtexnologiyalar sifatida masalalar ishlash, aqliy hujum, o'tkir zehnlilarni mushoira darsi, matbuot konferensiya darsi kabilardan foydalanildi. Ular orasidan matbuot konferensiya darsini borish jarayoni tushuntiriladi. [14,15,16,17,18,19]

Matbuot konferensiya darsi. Darsga o'qituvchi va o'quvchilar kamida 10-15 kun tayyorgarlik qiladilar. Buning uchun Akademik litsey va kasb hunar kollejlarning o'quvchilari 10 tadan yoki 8 tadan uch guruhga bo'linadi, birinchi guruh o'quvchilari matbuot organlari (jurnalistlar) sifatida, ikkinchi guruh o'quvchilar paxtachilik bo'yicha ishlaydigan olimlar, uchinchi guruh fermer xo'jaligi xodimlari sifatida ajratiladi. Matbuot organlari, olimlarga, paxtachilik fermer xo'jaligi xodimlariga 10 tadan ortiq savol tayyorlaydi. O'qituvchi savollarni o'z nazoratidan o'tkazadi. O'qituvchi darsga kirib bugun mashg'ulotimizda yangi pedtexnologiya sifatida matbuot konferensiya darsini o'tkazish rejalashtirilganligini aytib har uchala guruh: matbuot organlari (jurnalistlar), olimlar va paxtachilik fermer xo'jaligi xodimlarini alohida qatorlarga bo'linib o'tirishlarini aytadi.

Ommaviy axborot organlari xodimlari – jurnalistlar, olimlar va fermer xo'jaligi xodimlariga paxtachilik, g'ozga genetikasi va seleksiyasiga oid birin – ketin savollarni beradilar va savollarga olimlar, fermer xo'jaligi xodimlari javob beradilar. Darsni o'qituvchi nazorat qilib boradi, dars oxirida mashg'ulot muxokama qilinadi, faol ishtirok etgan o'quvchilar baholanadi. Jurnalistlarni olim va fermer xo'jaligi xodimlariga beradigan savollari taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. G'ozni qanday xayot shakllari mavjud?
2. Dunyoda nechta davlat g'ozga ekadi?
3. G'ozni qancha turi mavjud?
4. G'ozni dunyo bo'yicha nechta turi ekiladi?
5. O'zbekistonda g'ozni qaysi turlari ekiladi va xromosoma to'plami qanday?
6. Nima sababdan o'rta va ingichka tolali g'ozga allopoliploid deb ataladi?
7. G'ozni qanday mutatsiyalari bor?

8. Tuksiz chigit qanday irsiylanadi?

9. G'ozadagi gossypiumni ahamiyati va uni irsiylanishi?

10. Go'zani Toshkent 1, 2, 3 navlari kim tomonidan qanday yaratilgan?

Yangi pedtexnologiyalardan foydalanish o'quvchilarni mustaqil fikrlashga tafakkurlarini ortishiga, o'zlashtirishlarini yaxshilanishiga, fikr doirasini kengayishiga va qolaversa kasb tanlashlarida o'zini munosib xissasini qo'shadi.

Pedagogik texnologiyalarning o'ziga xos xususiyatlari, mohiyati va mazmuniga ko'ra ikki guruhga ajratildi:

1. Pedagogik jarayonning xarakteri, borishi va mazmunini o'zgartirishida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar.

2. Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar.

Pedagogik jarayonning borishi, xarakteri va mazmunini o'zgartirishda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalar guruhiga:

- Ta'lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish texnologiyasi;
- Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar;
- Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari;
- Ta'limni differensiallashtirish va individuallashtirish.

Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiga:

- Didaktik o'yin texnologiyalari
- Muammoli ta'lim texnologiyalari
- Modulli ta'lim texnologiyalari
- Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari
- Loyihalash texnologiyasi
- An'anaviy ta'lim texnologiyalari kiradi.

Xulosa. Genetika asoslarini o'qitishda g'ozadan genetik obyekt sifatida foydalanish o'quvchilarni fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va o'zlashtirishlarini yanada yaxshilanishiga olib keladi. Akademik litsey va ixtisoslashgan maktab internatlarida genetika asoslarini o'qitishda g'ozadan genetik obyekt sifatida foydalanish irsiyat qonunlarini barcha organizmlarga daxldorligini yana bir bor tasdiqlaydi. Mavzuni o'qitishda yangi pedtexnologiyalardan foydalanish nutq, tafakkurlari va fanga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi. Mavzuni o'qitishda g'ozadan genetik obyekt sifatida foydalanish dunyodagi muhim texnik ekin g'ozaga haqida chuqur ma'lumotlarga ega bo'lish imkoniyatini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Tolipova J.O. Biologiya o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish. T.2010.
2. Биология и современности. Просвещение.М.1990.
3. Simongulyan N.P va boshqalar. G'o'za genetikasi, seleksiyasi va urug'chiligi. T.O'qituvchi 1974
4. Mirzahalilov M. M. Et al. Hydrochemical indexes and phytoplankton composition of different types of water bodies in the fergana valley //O 'zbekiston biologiya jurnali. – 2006. – С. 36.
5. Муқимов М. К. А., Мирзахалилов М. М., Назаров М. Ш. Качественный и количественный анализ некультивируемых рыб в выростных прудах рыбхоза «Наманган балык» //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 726-733.
6. Mukimov M. K. A., Mirzakhililov M. M., Nazarov M. S. Assessment Of Hydrochemical Analysis And Phytoplankton Community Of Different Ponds Of A Fish Farm //The American Journal of Applied sciences. – 2021. – Т. 3. – №. 05. – С. 140-047.
7. Муқимов Мухаммад Карим Адхамович, Мирзахалилов Мираббос Мирзакарим Ўғли, Назаров Мухаммадрасул Шаропович, Шарипова Барно Салимовна Сравнительная оценка морфобиологических показателей амурского чебачка (*Pseudorasbora parva*) как инвазивного вида // SAI. 2022. №D2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sravnitel'naya-otsenka-morfobiologicheskikh-pokazateley-amurskogo-chebachka-pseudorasbora-parva-kak-invazivnogo-vida> (дата обращения: 15.10.2022).
8. Юнусов Мирзакарим Мирзахалилович, Сабирова Гулрух Хасановна, Хабибуллаев Файзулла Набибуллаевич Проблема здоровья в воспитании детей // SAI. 2022. №D3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/problema-zdorovya-v-vospitanii-detey> (дата обращения: 02.11.2022).
9. Юнусов Мирзакарим Мирзахалилович, Сабирова Гулрух Хасановна, Абдурахимов Искандар Нодиржон Угли Инфекционные заболевания и их профилактика // SAI. 2022. №D3. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/infektsionnye-zabolevaniya-i-ih-profilaktika> (дата обращения: 02.11.2022).
10. Мустафакулов Х. и др. Роль сорной растительности при формировании полезной энтомофауны агробиогеоценозов Ферганской долины //Аграрный вестник Урала. – 2013. – №. 3 (109). – С. 12.
11. Мустафакулов Х. и др. Некоторые экологические особенности озимой совки в Ферганской долине //Аграрный вестник Урала. – 2012. – №. 12 (104). – С. 37-38.
12. Marupov A. A. Biology and harmfulness of long-beetled beetles (Coleoptera: Cerambycidae) flowing on poplars //Scientific Bulletin of Namangan State University. – 2021. – Т. 3. – №. 1. – С. 56-61.

13. Зокиров И. И. и др. Узунмўйлов қўнғизларнинг (Coleoptera: Cerambycidae) озуқа ўсимликлари билан биоценодик алоқалари //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 5. – С. 349-355.

14. Mamatyusuf o'g'li M. A. et al. Taxonomic and Ecological Description of Some Coccinellides //Eurasian Scientific Herald. – 2022. – Т. 8. – С. 273-276.

15. Maxmudov M. U. O. x2 metodi asosida F2 dagi belgilarning ajralishini statistik usulda tekshirish //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 12. – С. 556-564.

16. Yoqubov A. A. O. G. L., Mirmuxsin M. U. O. G. L. KOMPLEMENTAR IRSIYLANISHGA DOIR MASALALARNI YECHISHDA x2 METODI ASOSIDA F2 DAGI AJRALISHNI STATISTIK USULDA TEKSHIRISH //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 1. – С. 270-284.

17. Акбарова М. Х., Ёкубов А. А., Махмудов М. У. Состояние ценопопуляций *Scutellaria adenostegia* (Lamiaceae) Ферганской долины //Advances in Science and Technology. – 2020. – С. 21-22.

18. Халматова Ш., Усманова Т., Акрамов А. Экологические последствия воздействия человека на растительный и животный мир //theory and analytical aspects of recent research. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 547-554.

19. Abarjon o'g'li AA Sho 'rlangan erlarda dukkakli don ekinlarini ekishning afzalligi //Zamonaviy ta'lim tiziminda innovation. – 2022. – Т. 2. – №. 18. – С. 351-354.

SHAXSLARARO KOMMUNIKATSIYANING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Islamov Kamoldin Komiljon og'li

Egamberganov Firdavs Maqsud og'li

Jamoat Xavfsizligi Universiteti: Xizmat faoliyatini psixologik taminlash yo'nalishi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shaxslararo kommunikativ muloqot madaniyatini rivojlantirishning asoslari, kommunikatsiya haqida ma'lumot va tushunchalar berilgan. Kommunikatsiyaning bu turini o'rganishda psixologiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya fanlarining ham ahamiyati katta. Zero, biror voqea haqida fikr bildirishda odamlar avvalo o'z dunyoqarashi, jamiyatdagi mavqei va o'zi yashab kelayotgan muhitdan kelib chiqqan holda yondoshadi, bu esa yuqoridagi fanlarning tilshunoslik bilan uzviy bog'liqligidan darak beradi. Bizga ma'lumki, tilshunoslik bir qancha bo'limlardan iborat va har bir bo'lim nutqning aynan bir jarayondagi tuzilishini o'rganish bilan shug'ullanadi.*

Kalit so'zlar: *paralingvistika, nonverbal kommunikatsiya, intonatsiya, pauza, akustika, ovoz tembri, fonatsion, kinetik, grafik, proksemik, visual, takesik, deontologiya, muloqot, psixologiya, ta'lim, axloq.*

SPECIFIC ASPECTS OF INTERPERSONAL COMMUNICATION

Abstract: *This article presents the basics of developing interpersonal communication culture, information and concepts about communication. In studying this type of communication, the sciences of psychology, cultural studies, and sociology are also important. After all, when expressing an opinion about an event, people first approach based on their worldview, their position in society, and the environment in which they live, which indicates that the above disciplines are inextricably linked with linguistics. We know that linguistics consists of several departments, and each department deals with the study of the structure of speech in a specific process.*

Key words: *paralinguistics, non-verbal communication, intonation, pause, acoustics, voice timbre, phonation, kinetic, graphic, proxemic, visual, taxic, deontology, communication, psychology, education, ethics.*

KIRISH

Insonning uning o'rab turgan olamga o'zaro ta'siri ob'ektiv munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi, ob'ektiv munosabat va aloqalar so'zsiz har qanday real guruhlarda paydo bo'ladi. Guruh a'zolarining bu ob'ektiv o'zaro munosabatlari sub'ektiv shaxslararo munosabatlarda aks etadi. Har qanday ishlab chiqarish odamlarning o'zaro birlashishini talab qiladi. Hech bir kishilik jamiyati agar unda odamlar bilan munosabat o'rnatilmasa, ular bir - birini to'g'ri tushunmasdan to'laqonli, birgalikdagi faoliyatni tashkil eta olmaydi.

Masalan, o`qituvchi o`quvchilarga biror narsani o`rgatish uchun ular bilan munosabatga kirishishi kerak.

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati ehtiyojlari asosida tug`iladigan ular o`rtasidagi aloqa rivojlanishining ko`p qirrali jarayonidir. Muloqot hamkorlikdagi faoliyat qatnashchilari o`rtasida axborot almashinishni o`z ichiga oladi, bu muloqotning kommunikativ tomonini ifodalaydi. Odamlar bir - biri bilan munosabatga kirishishda tildan muomala vositasi sifatida foydalanadilar. Muloqotning ikkinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning o`zaro ta`siridir. Bunda faqat so`zlar emas, balki harakat va holatlar ham almashinadi. Muloqotning uchinchi tomoni muomalaga kirishuvchilarning bir - birini idrok qilishidir. Muomalaga kirishuvchilarning bir -birini to`g`ri tushunishi muhim ahamiyatga ega. Shunday qilib, muloqotning shartli uch tomonini ajratish mumkin: kommunikativ (axborot berish), interaktiv (o`zaro ta`sir) va pertseptiv (o`zaro idrok qilish). Muloqotning bu uch tomonining birligi muomalaga kirishuvchi kishilarning o`zaro munosabati va hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etish usuli sifatida namoyon bo`ladi. Muloqotning qonuniyatlarini, malaka va qobiliyatlarining shakllanishi bilish pedagog uchun g`oyat muhimdir. Bu to`laqonli pedagogik muloqotni yoki muomalani yo`lga qo`yishini ta`minlaydi. Pedagogik muloqot-pedagog va o`quvchilarning o`zaro ta`sir etish usullari yig`indisidir. Muloqotning mazmuni - axborot almashish, o`qituvchi tomonidan turli kommunikativ vositalar yordamida o`quvchilar bilan o`zaro tushunish va o`zaro munosabatlarni tashkil etishdir.

METODOLOGIYA

Muloqot (munosabat) birgalikda faoliyat ko`rsatuvchilar o`rtasida axborot ayiriboshlashni o`z ichiga oladi. Bunda munosabatning kommunikativ (o`zaro aloqaga doir) jihati hisobga olinadi. Muloqot tushunchasini kommunikatsiyadan farqlash kerak. Kommunikatsiya – tirik va o`lik tabiatdagi tizimlar o`rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o`rtasidagi signallar almashinuvi, insonning texnik vositalar bilan aloqa qilishi – bularning barchasi kommunikatsiya. Muloqot esa faqat insonlar o`rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o`zaro birgalikdagi harakati – nutq jarayonida faqat so`zlar bilan emas, balki harakatlar bilan ham muloqot yuritishdan iborat. Munosabatning keyingi jihati muloqotga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishidadir. Muloqotning funksiyalari xilma-xil bo`lib, eng keng tarqalgan B.F. Lomov taklif etgan tasnifga ko`ra ular quyidagilardan iborat:

1. Informatsion-kommunikativ funksiya – axborot almashinuvini ta`minlash vazifasi. Axborot almashinuvi turli belgilar, tizimlar orqali amalga oshiriladi. Odatda verbal (unda belgilar tizimi sifatida nutq ishlatiladi) va noverbal (unda nolisoniy belgilar tizimi ishlatiladi) kommunikatsiya farqlanadi. Noverbal kommunikatsiya bir necha shakldan iborat: - Kinetika (imo-ishora, mimika, pantomima) - Paralingvistika (ovoz lokalizatsiyalari, pauzalar) - Proksemika (masofa va vaqt me`yorlari) - Vizual aloqa (ko`zlar orqali) - Takesika (jismoniy aloqa)

2. Kishilar muloqot jarayonida verbal, jismoniy, noverbal yo'llar bilan bir-birining motivlariga, maqsadlariga, qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazishi, biror harakatga undashi va harakatini nazorat qilishi, bir-birining xulq-atvoriga stimullashtiruvchi va korreksiyalovchi tarzda ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3. Affektiv-kommunikativ funksiya – inson emotsional sohasining regulyatsiya (boshqarish) qilinishini ta'minlash vazifasi. Muloqot inson emotsional holatlarining eng muhim determinantidir. Chunki turli-tuman emotsional holatlar muloqot jarayonida paydo bo'ladi va o'zgaradi.

Hamkorlikdagi faoliyatda zaruriyat tufayli inson boshqa kishilar bilan birlashishi, ular bilan munosabatga kirishishi, aloqa o'rnatishi, o'zaro tushunishga erishishi va kerakli axborotni olishi, shunga mos javobni berishi kerak. Bunda muloqot faoliyatning bir tomoni, uning axborot aspekti-kommunikatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Biroq predmet yasash bilan birga inson o'zi yasagan predmetda o'zini "translyatsiya" qiladi, ya'ni o'zini boshqalarda davom ettiradi. Hosil qilingan predmet (ko'rilgan bino, yozilgan qatorlar, o'tkazilgan daraxt) bir tomonidan faoliyat predmeti, ikkinchi tomondan inson o'zini ko'rsatadigan vositadir. Chunki bu boshqa kishilar uchun hosil qilingan. Shunday qilib, faoliyat muloqotning bir qismi, uning tomoni; muloqot faoliyatning bir qismi va tomonidir. Lekin muloqot va faoliyat barcha hollarda yaxlit (buzilmas) birlikni tashkil etadi.

Muloqot, odatda, beshta: shaxslararo, kognitiv, kommunikativ-axborotli, emotiv va konativ tomonlarining birligida namoyon bo'ladi.

Muloqotning **shaxslararo** tomoni insonning bevosita atrof-muhiti: boshqa odamlar va o'z hayotida bog'liq bo'ladigan umumiyliklar bilan o'zaro ta'sirini aks ettiradi.

Muloqotning **kognitiv** tomoni suhbatdoshning kim, qanday odam ekanligi, unlan nima kutish mumkinligi haqidagi, shuningdek, sherikning shaxsi bilan bog'liq bo'lgan boshqa ko'pgina savollarga javob berish imkonini beradi.

Muloqotning **kommunikativ-axborotli** tomoni tasavvurlar, g'oyalar, qiziqishlar, hissiyotlar, mayllari turlicha bo'lgan odamlar o'rtasidagi almashinuvdan iborat.

Muloqotning **emotiv** tomoni sheriklarning shaxsiy aloqalaridagi his-tuyg'ular, kayfiyatning vazifa bajarishlari bilan bog'liq.

Muloqotning **konativ** (hulq-atvor tomondan) tomoni sheriklar qarashlaridagi ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Inson muloqotda shakllanadi, rivojlanadi va shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy muloqotda ruhiyat taraqqiy etadi va individ o'zini hayotga joriy etadi. Ruhiy jihatdan rivojlangan odamlar bilan muloqotda bo'lish orqali, ilm olishga bo'lgan keng imkoniyatlar evaziga inson o'zining barcha yuksak qobiliyat va sifatlarini egallab borib, shaxsga aylanadi.

Kommunikatsiya – bu o'zaro hamfikrlilikka boshlovchi, ikki tomonlama axborot almashinuvi jarayoni. Gap tor ma'nodagi kommunikatsiya haqida ketganida, odamlarning hamkorlikdagi faoliyati davomida ularning o'zaro turli taassurotlar, g'oyalar, qiziqishlar,

kayfiyatlar, hissiyotlar, mayllar va h.klar bilan almashinuvi ko'zda tutiladi. Lekin kommunikativ jarayonda ma'lumotlarning oddiy almashinuvi emas, balki, kamida ularning faol almashinuvi sodir bo'ladi.

“Muloqot” tushunchasini “kommunikatsiya” tushunchasidan farqlash lozim. Kommunikatsiya jonli va jonsiz tabiatdagi tizimlar o'rtasida axborot almashinuvini anglatadi. Hayvonlar o'rtasidagi signallar almashinuvi, daraxtlardagi irsiy belgilarning uzatilishi, insonning turli-tuman texnik vositalar bilan aloqaga kirishishi – bularning barchasi kommunikatsiya hisoblanadi. Muloqot faqat insonlar o'rtasidagina amalga oshirilishi mumkin. Inson bolasi aynan boshqalar bilan muloqotda, munosabatda bo'lish jarayonida ijtimoiylashib, shaxsga aylanib boradi. Muloqot tufayli inson ijtimoiy tajriba va madaniyatni egallaydi. Umuman olganda, muloqot fenomeni psixologiya fanida atroflicha o'rganilgan. B.F.Lomov , L.A.Karpenko va boshqalar muloqotning funksiyalari, ichki tuzilishi, xususiyatlari borasida jiddiy tadqiqotlar e'lon qilishgan.

4. Muloqot axborot almashinuvi sifatida

Odamlar o'rtasidagi axborot almashinuvining xususiyati sheriklarning belgili tizim vositasida bir-birlariga o'zaro ta'sir ko'rsatishlari bilan belgilanadi, boshqacha aytganda, bunday axborot almashinuvi sherikning holati, hissiyoti va hulq-atvoriga ta'sir ko'rsatishini taxmin qiladi. Bunday vaziyatda muloqot belgisi mehnat quroliga o'xshash vazifani bajaradi.

Shunday qilib, kommunikativ ta'sir bir kommunikantning boshqasiga uning hulq-atvorini o'zgartirish maqsadida ko'rsatadigan psixologik ta'siridan o'zga narsa emas. Kommunikatsiya samaradorligi bu ta'sirning, aynan, qanchalik ro'yobga chiqqanligi bilan o'lchanadi.

Istalgan axborot belgili tizimlar vositasida yetkazilishi mumkin. Psixologiyada verbal (nutq) va noverbal (nutqiy bo'lmagan vositalar) kommunikatsiya mavjud. Nutq kommunikatsiyaning universal vositasidir. Nutq insonning boshqalar bilan tabiiy til vositasida amalga shiriladigan muloqot jarayoni demakdir. Muloqot samaradorligi muloqotdagilar uchun umumiy tilni, shuningdek, ta'lim, umumiy madaniyat va nutq madaniyati kabi muhim bo'lgan omillarni belgilab beradi. Verbal nutq muloqotning noverbal vositalaridan foydalanish bilan to'ldiriladi.

REFERENCES :

1. M. A. Maxsudova. MULOQOT PSIXOLOGIYASI. TOSHKENT «TURONIQBOL» 2006.
2. <https://peskiadmin.ru/uz/ponyatie-kultury-obshcheniya-kultura-obshcheniya-ikultura.html>
3. E. G'oziyev. Muomala psixologiyasi. T. 2001 .

PISTIYA O'SIMLIGI YORDAMIDA OQOVA SUVLARNI TOZALASH

Kamolov Nurbek Aspiya o'g'li

“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”

No'mon Egamberdiyev

Milliy tadqiqot universiteti 2-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: t.f.n. professor

Annotatsiya: *Suv tabiatda sodir bo'ladigan asosiy jarayonlarda, shuningdek, inson hayotida muhim ahamiyat kasb etadi. Sanoatda suv xomashyo va energiya manbayi, sovutuvchi yoki isituvchi, erituvchi, ekstragent, xomashyo va materiallarni tashuvchi vosita sifatida va boshqa qator ehtiyojlar uchun ishlatiladi.*

Kalit so'zlar: *Suvning kimyoviy xususiyati, suvning fizikaviy xususiyati, suvning ifloslanishi, suvning isrof qilinishi, chuchuk suv muammosi, mexanik tozalash usuli, kimyoviy tozalash usuli, fizikaviy tozalash usuli, biologik tozalash usuli.*

WASTEWATER CLEANING WITH THE HELP OF THE PISTIA PLANT

Abstract: *Water plays an important role in the main processes occurring in nature, as well as in human life. In industry, water is used as a raw material and energy source, as a cooling or heating agent, as a solvent, as an extractant, as a medium for transporting raw materials and materials, and for a number of other purposes.*

Key words: *chemical properties of water, physical properties of water, water pollution, water wastage, fresh water problem, mechanical cleaning method, chemical cleaning method, physical cleaning method, biological cleaning method.*

KIRISH

Ekologik, biologik xavfsizlik muammosi milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylanganiga yarim asrdan oshdi. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo'larkan, bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas falokatlarni insoniyat boshiga solishi hozirgi kunda aslo sir bo'lmay qoldi. Dunyoning qaysi burchagiga nazar tashlamang, turli xil ekologik muammolarga duch kelish tabiiy holga aylanib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasini ham ekologik muammolardan xoli zona deb bo'lmaydi. Prezidentimiz I.A.Karimov global ekologik tahdid va muammolar haqida to'xtalib, «Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir, uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, sivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir» deb ta'kidlagan edi.

Shu sababli ham ekologik muammolarni hal qilish maqsadida davlatimiz tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturda aholi salomatligi uchun xavfli bo'lgan moddalarni atmosfera havosiga va suv havzalariga iloji boricha chiqarmaslik, Respublikada ekologik ahvolni tubdan yaxshilash, ishlab chiqarishda kam chiqindili va chiqindisiz texnologiyaga o'tish,

tabiiy resurslarni tejamkorlik bilan ishlatish chora-tadbirlarini ishlab chiqish kabi masalalar o'z aksini topgan.

METODOLOGIYA

Oqova suvlar hosil bo'lishi sharoitiga qarab maishiy, fekal, atmosfera va sanoat oqova suvlariga bo'linadi. Xo'jalik-maishiy oqova suvlari — bu dush, yuvinish, hammom, kirxona, ovqatlanish xonalari, hojatxona, polni yuvishdan hosil bo'ladigan suvlar hisoblanadi. Bu suvlarning tarkibida taxminan 58% organik va 42% mineral moddadan iborat aralashmalar hosil bo'ladi. Atmosfera oqova suvlari — yomg'ir va qor erishidan paydo bo'ladigan va korxonada hududidan oqib chiqndigan suvlar. Ular organik hamda mineral qo'shimchalar bilan ifloslangan bo'ladi.

Oqova suvlarning zararlilik darajasi undagi ifloslantiruvchi moddalarning (zaharlilik) xususiyati va tarkibiga bog'liq. Og'ir metal tuzlari, sianidlar, fenollar, vodorod sulfid, kanserogen moddalar va boshqa shu kabi moddalar oqova suvning yuqori darajada zaharlanishiga va hidi o'zgarishiga olib keladi.

Quyosh radiatsiyasi va iflos suvga toza suv kelib quyilishi natijasida suv qaytadan tozalanadi. Turli bakteriya, zamburug' va suv o'tlari suvni qayta tozalashda faol agentlardan hisoblanadi. Suv turli iflos moddalarga haddan tashqari to'yingan bo'lsa, u holda uni tozalash uchun turli mustaqil yoki kompleks usullardan foydalaniladi. Suv ta'minotining yopiq tizimini hosil qilish uchun sanoat oqova suvlari mexanik, kimyoviy, fizik-kimyoviy, biologik va termik tozalash usullari orqali korxonada turiga qarab suvning zarur sifatiga qadar tozalanadi. Bundan tashqari, qayd qilingan usullar rekuperatsion va destruktiv usullarga bo'tinadi. Rekuperatsion usullar oqova suv tarkibidagi barcha qimmatbaho moddalarni ajratib olib, so'ngra qayta ishlatishga qaratilgan. Destruktiv usulda suvni ifloslantiruvchi moddalardan oksidlash yoki qaytarish usullari yordamida parchalantiriladi. Parchalash mahsulotlari suvdan gaz yoki cho'kma ko'rinishida ajratib olinadi. Tozalash usullarini tanlash quyidagi omillarni hisobga olgan holda olib boriladi. Obodonlashtirish maydoni. Bu bir vaqtda oqova suvni tozalash va agrosanoat maqsadlari uchun foydalaniladigan maxsus tayyorlangan yer uchastkasidir. Bunday sharoitda oqova suvlarni tozalash quyosh va havo harakati, o'simliklarning hayot faoliyati ta'sirida boradi. Obodonlashtirish maydonlarida bakteriya, aktinomisetalar, achitqilar, suv o'tlari, sodda va umurtqasiz hayvonlar bo'ladi. Oqova suv tarkibida asosan bakteriyalar uchraydi. Tuproqning faol qatlamidagi aralashgan biosenozlarida simbiotik va raqobat tartibdagi mikroorganizmlarning o'zaro murakkab ta'siri vujudga keladi. Mikroorganizmlarning miqdori yil fasllariga bog'liq. Ular qishda yozdagiga qaraganda kamroq bo'ladi. Agar yer maydoniga qishloq xo'jalik ekinlari ekilmasa va ular oqova suvni biologik tozalash uchun mo'ljallangan bo'lsa, bunday maydonlar filtrlash maydonlari deyiladi. Obodonlashtirish maydonidagi yerlarning oqova suvi biologik tozalangandan so'ng o'g'itlari boshqoqli o'simliklar, turli xil sabzavotlar, shuningdek, daraxtlar ko'kartirish maqsadlarida ishlatiladi.

Gidrokimyoviy va mikrobiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, turli oqova suvlarni 12-15 sutkada to'liq biologik tozalashi mumkin. Oqova suvlarni biologik

tozalashning ekologik xavfsiz va iqtisodiy arzon hamda samarali usullarini yaratish suv resurslarini muhofaza qilishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Oqova suvlarni tozalashning turli metodlari mavjud. Hozirgi davrda oqova suvlarni tozalashning biologik metodi, ya'ni, yuksak suv va suv-botqoq o'simliklari yordamida tozalash tavsiya qilinadi.

Ko'p yillik ilmiy tadqiqotlarimiz natijasida qishloq xo'jaligi korxonalari (qoramollarni bo'rdoqiga boqish komplekslari, parrandachilik) va sanoat korxonalari (kanopni qayta ishlash, mineral o'g'itlar ishlab chiqarish, biokimyoy, yog'-moy korxonalari, pillachilik korxonalari, to'qimachilik sanoati) va kommunal-xo'jalik oqova suvlarini organo-mineral moddalardan, og'ir metallardan, sianidlardan, neft mahsulotlaridan hamda patogen mikroorganizmlardan yuksak suv o'simliklari — pistiya, eyxorniya va azolla yordamida biologik tozalashning yangi samarali biotexnologiyasi yaratilgan.

Pistiya (*Pistia stratiotes* L., Araceae), eyxorniya (*Eichhorpia crassipes* Solms., Poptederiaceae) va azolla (*Azolla carolipiapa* Willd., sem. Azollaceae) suv betida qalqib o'suvchi, ko'p yillik o'simliklar bo'lib, tropik va subtropik mintaqalarda keng tarqalgan. Hozirgi paytda mazkur o'simliklar O'zbekiston sharoitiga muvaffaqiyatli introduksiya qilingan.

Olib borilgan gidrokimyoviy va mikrobiologik tadqiqotlarimiz natijalariga ko'ra, turli oqova suvlarni 12-15 sutkada to'liq biologik tozalashi mumkin. Bu vaqt ichida saprofit mikroorganizmlar soni ming martagacha, ichak tayoqchalari guruhi bakteriyalari esa uch-to'rt kundan keyin umuman uchramaydi. Suv tarkibidagi mikrofloraning miqdori keskin kamayib, o'simlik va hayvonlar uchun patogen hisoblangan mikroskopik zamburug'lar yo'qolib ketadi. Suvning fizikaviy va kimyoviy ko'rsatkichlari yaxshilanadi, ya'ni suvning oksidlanishi darajasi kamayadi, suvdagi azot va fosfor ionlari o'simliklar tomonidan deyarli to'la o'zlashtiriladi, suvda erigan kislorod miqdori ko'payadi, oqova suv tiniqlashadi va qo'lansa hidi yo'qoladi.

Pistiya, eyxorniya va azolla yordamida tozalagan suvni texnik maqsadlarda, ya'ni molxonalarni yuvishda, qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orishda, kanop poyasini ivitishda yoki baliqchilik hovuzlariga va ochiq suv havzalariga chiqarib yuborish mumkin.

Pistiya suv yuzasida qalqib o'suvchi, qisqargan poyali, barglari yassi eshkaksimon o'simlikdir. Introduksiya sharoitida bo'yi 20-40 sm gacha yetadi. Ildiz bo'g'zidan chiqqan barglari qalin bog'lam hosil qilib, yuqori qismi yashil, bo'ylamada chiziqsimon chuqur izlar mavjud. Barglarining butun sathi qalin, ko'p hujayrali, shaffof tukchalar bilan qoplangan. O'simlik barglarida aerenxima to'qimalari yaxshi rivojlanganligi sababli, suv yuzasida qalqib o'sadi. Pistiyaning ildiz tizimi popuksimon, uzunligi 50-60 sm bo'lib, ko'p tukchalar bilan qoplangan.

Eyxorniya suv yuzasida qalqib o'suvchi o'simlik bo'lib, bo'yi 30-40 sm. Qoshiqsimon; silliq, yashil, yaltiroq tUSDagi barg yaproqlari ovalsimon shaklda; chetlari tekis, simmetrik bo'ylamasiga parallel joylashgan va tomirlari aniq ko'rinib turadi. Barg bandlari asosida, havo bilan to'lgan sharsimon etdor qismi aerenxima — o'simlikni suv yuzasida qalqib turishini ta'minlaydi. Popuksimon ildiz tizimi tukchalari yaxshi

shoxlangan. Qisqargan poyasining asosidan 15-20 tagacha barg g'ilofi bilan qo'shilib, o'suvchi birinchi tartib yon ildizlar rivojlangan. Uzunligi 2,5 sm gacha bo'lgan ikkinchi tartib yon ildizlari suvda gorizontal joylashadi

Azolla suv yuzasida qalqib o'sib, uzunligi 0,7-1,8 sm gacha yetadi. Sporafitining yuqori qismida 2 qator mayda bargcha, ustma-ust joylashgan tangachalar kabi shoxchani qoplab oladi, tanasining pastki qismida esa 2,0-2,5 sm uzunlikda ildizcha shakllangan. Barg tuzilishiga ko'ra, u yuqori darajada rivojlangan, ya'ni har bir barg ikki segmentdan iborat: yuqori segmenti yashil rangli, suv sathining yuza qismida joylashadi; pastki segmenti esa suvning ostki qismida joylashib, suvda erigan moddalarni o'ziga tortib olish uchun xizmat qiladi.

Azolla yalpi ko'payishining optimal davri iyul-sentyabr oylari bo'lib, bu davrda sutkasiga 250-300 g/m² biomassa hosil qiladi.

Oqova suvlarda o'stirilgan azolla 1 gektar suv yuzasidan bir kecha-kunduzda 1500-2000 kg gacha ho'l biomassa; pistiya va eyxorniya esa 1800-2700 kg gacha ho'l yoki 90-135 kg gacha mutlaq quruq biomassa berishi mumkin (iyun-oktabr oylarida).

Yuksak suv o'simliklarining biomassalarini ko'chat sifatida oqova suvlarni tozalash inshootlarining biologik hovuzlariga ekish yoki issiqlik yordamida (AVM-0,65, AVM-1,5) ishlov berib, vitaminli un tayyorlab, oqsil – vitaminli va mineral ozuqa sifatida qishloq xo'jalik hayvonlari va parrandalarini boqishda ularning ratsioniga qo'shimcha ozuqa sifatida foydalanish mumkin.

Shuningdek, azollani sholichilikda «yashil o'g'it» sifatida ishlatish natijasida sholi hosildorligi nazorat variantiga nisbatan 20-25% ga oshganligi va 1 gektar sholi maydonidan olingan iqtisodiy samaradorlik 2008 yilda 500 000 (besh yuz ming) so'mni tashkil etgan. Angren «Suvoqova» tozalash inshootida oqova suvlarni pistiya, eyxorniya va azolla yordamida tozalash natijasida elektroenergiya va oqova suvlarini zararsizlantirishda ishlatiladigan xlor va uning birikmalarini tejash hisobiga olingan iqtisodiy samaradorlik 2012 yilda 306 mln (uch yuz olti million) so'mni tashkil qilgan.

Yuksak suv o'simliklarini manzarali o'simliklar xilma-xilligini oshirish uchun hovuzlarni bezashda ham foydalanish mumkin

Korxonalar va davlat idoralariga suvni tozalash va qayta ishlatish uchun mazkur suv o'simliklaridan foydalanishni tavsiya etamiz.

XULOSA

Suvlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilish, oqova suvlarni tozalab qayta ishlashni ta'minlashni respublika miqyosida yaxshi yo'lga qo'yish mutasaddi kishilarning birinchi galdagi vazifasidir. Xilma-xil ifloslovchi manbalar tufayli, insonlar o'rtasida turli xil yuqumli va yuqumsiz kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Bular: oshqozon-ichak, sariq kasalligi, ichburug', qorin tifi, para tif kabi xavfli yuqumli kasalliklardir. Suv tarkibida 65 ga yaqin mikroelementlar borligi aniqlangan. Shulardan 20 dan ortig'i organizm ehtiyoji uchun juda zarur bo'lgan yod, ftor, molibden, mis, temir va

boshqalardir. Shu elementlarning ko'payib yoki kamayib ketishidan har xil yuqumli kasalliklar kelib chiqadi. Masalan: buqoq, kareis, felyuaroz.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash muhim ahamiyatga egadir. Ichimlik suvi maxsus davlat standartlari talabiga javob berishi va doimiy sog'liqni saqlash muassasalarining diqqat markazida bo'lishi shart. Asosan suvni har xil kasallik tarqatuvchi bakteriyalardan tozalashda xlorlash yoki hozirgi vaqtda ko'pchilik mamlakatlardagi singari ozonlash orqali tozalash usulidan foydalanish zarur.

Biz hozirgi kunda oldingi avlodlar yo'l qo'ygan xatolarning jabrini tortmoqdamiz. Bugungi kunga kelib esa, bu borada yo'l qo'yilgan xatolarni to'xtatmasak, kelajak avlodning ahvoli bundan ham tang bo'lishi mumkin.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. I. A. Karimov. « O 'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» T.: O 'zbekiston,. 1997.
2. A. Ergashev, Sh. Otaboyev, R. Sharipov, T. Ergashyev. Suvning inson hayotidagi ekologik mohiyati. T.: Fan, 2009.
3. S. Qosimova, Sh. Shokirova. Atrof-muhit muhofazasi, T.: 2005.
4. Очистка сточных вод. Опыт зарубежного строительства. Москва. 2002.

TALABALAR YANGI O'QUV MUHITIGA MOSLASHISHNING IJTIMOY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Boliyeva Ozoda Sharofiddin qizi

Samarqand davlat Universiteti Kattaqo'rgon filiali. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

Annotatsiya: *Talabalarni oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun moslashtirish hozirgi zamonning dolzarb muammosidir, chunki kelajakdagi mutaxassisning kasbiy faoliyati va shaxsiy rivojlanishi moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli kechishiga bog'liq. Ko'plab zamonaviy talabalar o'zini o'zi rivojlantirishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Ushbu muammoni hal qilish uchun talabalarining ta'lim jarayoniga moslashishini amaliy va nazariy bilimlarga tayangan holda o'rganish muhimdir. Bunday moslashish psixologik to'siqlarni yengishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *adaptatsiya, psixologik omil, shaxs, mutaxassis, kasbiy faoliyat, ta'lim jarayoni.*

SOCIO-PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF STUDENT ADAPTATION TO A NEW LEARNING ENVIRONMENT

Abstract: *Adaptation of students to study in higher education is a topical issue of our time, because the professional activity and personal development of the future specialist depends on the success of the adaptation process. Many modern students face difficulties in self-development. To solve this problem, it is important to study the adaptation of students to the educational process based on practical and theoretical knowledge. Such adaptation helps to overcome psychological barriers.*

Keywords: *adaptation, psychological factor, personality, specialist, professional activity, educational process.*

KIRISH

Moslashish (adaptatsiya) - bu munosabatlarning tabiatini o'zgartirish, o'quvchining ta'lim muassasasidagi o'quv jarayonining mazmuni va uni tashkil etilishiga munosabatidir. Aqliy moslashuv inson yoki guruhning faoliyati bilan bog'liq bo'lib, atrof-muhitga moslashish yoki o'ziga atrof-muhitni moslashtirish jarayonlarining o'zaro ta'siri sifatida tushiniladi.

Psixologiyada "moslashish" atamasi obyektiv atrof-muhit omillari ta'siri ostida shaxsning psixikasini qayta tuzishni, shuningdek, insonning turli xil atrof-muhit talablariga ichki noqulaylik sezmasdan va atrof-muhit bilan ziddiyatsiz moslasha olish qobiliyatini anglatadi. Bu moslashuv hodisasining protsessual tomonini, hayvonlarning moslashuvidan farqli o'laroq, qiyinchiliklarni yengib o'tish yoki ma'lum shaxsiy xususiyatlarning shakllanishi, masalan, kasbiy fazilatlarining yuzaga kelishida namoyon bo'ladi. Oliy o'quv

yurti talabalarining yangi o'quv muhitiga moslashishi, undagi ijtimoiy-psixologik jihatlar Povalyova.M.A., Pean A.A., Kudashev A.R., Baranov A.A., Vsevolodova N.A., Babaxan Yu.S., Dubovitskaya T.D asarlarida va ilmiy ishlarida yetarlicha asoslanib o'rganilgan. Universitetga kirish va o'qish talabalarni yangi madaniy, ta'lim muhitiga jalb qilish bilan birga kechadi, bu moslashish jarayonining boshlang'ich mexanizmi hisoblanadi. Moslashuvning muvaffaqiyati talabalarining zahira imkoniyatlarini yangilash va o'quv jarayonida duch keladigan turli xil qiyinchiliklarni yengishga tayyorligini o'z ichiga oladi.

Yangi o'quv muhitga moslashishda quyidagi qiyinchiliklarga duch kelinadi:

- Eski qadriyatlar tizimiga amal qilish;
- Assimilyatsiya;
- Yangi turar-joy sharoitlariga moslashish;
- Yangi kursdoshlari bilan muloqot;
- O'qituvchi shaxsi;

➤ Tabiiy sharoit va boshqalar. Moslashuv samaradorligining mezonlari qanday? Uning muvaffaqiyatini qanday ta'minlash mumkin? degan savollar hozirda ko'plab uchramoqda. Mezonlar orasida, birinchi navbatda, kuzatilishi oson bo'lgan obyektiv mezonlarni ta'kidlaymiz. Bu akademik ko'rsatkichlar, jamoat hayotining turli shakllarida ishtirok etish darajasi, salomatlik holati (ham psixologik, ham jismoniy salomatlik), ilmiy faoliyat darajasi bo'lishi mumkin. Shuningdek, obyektiv faktorlar bilan bir qatorda subyektiv mezonlar mavjud, ular faoliyatdan qoniqish (atrof-muhit, vaziyat va boshqalar), o'zini takomillashtirish va o'zini o'zi anglash istagi, yetakchi qiymat yo'nalishlari, o'z-o'zini hurmat qilish, hissiy barqarorlikni o'z ichiga oladi.

Moslashish talabalarga nafaqat yangi sharoitlarga ko'nikishni, balki xatti-harakatlarning yangi shakllari va yangi ijtimoiy rollarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu jarayon tufayli shaxsning yangi muhitda eng yaxshi faoliyati uchun sharoitlar yaratilmoqda. Agar moslashuv ro'y bermasa, talabada mavzuni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelish hollari ham yuz beradi. Universitetda talabalarni moslashtirish masalasi haligacha dolzarb bo'lib qolmoqda. Talabalarining oliy ta'lim jarayoniga moslashishi ijtimoiy, psixologik, pedagogik va boshqa jihatlarni qamrab oluvchi hodisadir.

Korovina.I.V fikriga ko'ra esa, universitetdagi talabalarining psixologik moslashuvida quyidagilarni yaqqol ajralib ko'rsatish mumkin deb hisoblaydi: o'quv faoliyati sharoitlariga moslashish (o'qitishning yangi shakllariga moslashish, bilimlarni nazorat qilish va o'zlashtirish, boshqa ish va dam olish rejimiga, mustaqil hayot tarziga va shunga o'xshashlar kabiga moslashishda namoyon bo'ladi);

- guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an'analarini o'zlashtirish);

- kelajakdagi kasbga moslashish (kasbiy bilim, ko'nikma va fazilatlarini o'zlashtirish) guruhga moslashish (hamkasblarni jamoaga kiritish, uning qoidalari, an'analarini o'zlashtirish) kabilar.

Shaxsni shakllantirishning eng muhim sohalariga asoslanib, birinchi kurs talabalarining moslashuv jarayonining asosiy mazmunini quyidagicha aniqlash mumkin:

- yangi ta'lim standartlarini, ta'lim jarayonidagi qoidalarni o'zlashtirish - talabalarda kasbga tayyorgarlik, kasb layoqatini o'qishning dastlabki yillaridan shakllantirishga e'tibor qaratishga doir chora-tadbirlarni qo'llash;

- ilmiy faoliyatning yangi soha va turlariga o'qitish;

- talabalar turar joyidagi yangi yashash sharoitiga moslashish va boshqalar.

Tadqiqotdan xulosa qilib shuni aytish mukinki, quyida keltiriladigan chora-tadbirlar talaba yoshlardagi o'quv muhitiga moslashish jarayonini yengillashtiradi :

- Talabalarni yangi o'quv muhitiga moslashtirish uchun pedagoglar tomonidan alohida chora-tadbirlar qo'llash lozim;

- O'quv yilining dastlabki kunlaridanoq OTM amaliy psixologi tomonidan yangi kelgan talabaning o'quv motivlarini aniqlashga qaratilgan so'rovnomalar o'tkazishilishi kerak, shu orqali talabani keyingi o'quv faoliyatidagi samaradorligini ta'minlash mumkin;

- Talaba uchun yangi bo'lgan o'quv muassasa haqida unga to'liq ma'lumot berish, ya'ni, oldindagi hodisalarga nisbatan ustanovka hosil qilish lozim.

Xulosa

Xulosa o'rnida shuni aytish mukinki, talabalarni yangi o'quv sharoitlariga moslashtirish pedagogik va psixologik jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Birinchidan, hozirgi kunda talabalarda uchraydigan depressiya, stress, o'quv materiallarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar tom ma'noda yangi muhitga moslashishning negativ oqibatlaridir. I

kkinchidan, talabalarga bu kabi salbiy holatlarni yengishda ularning individual psixologik xususiyatlari bilan bir qatorda, ular ta'lim olayotgan oliy o'quv yurtidagi mahoratli pedagoglarning tavsiyalari, guruh jamoasidagi qo'llab-quvvatlashlar ham yordam beradi. Uchinchidan, shaxsning yangi madaniy muhitga moslashishi albatta, ma'lum qiyinchiliklarsiz o'tmasligi yuqoridagi tadqiqotlardan ma'lum.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Shaykhislamov, N. (2020). The Role of Lingvoculturology in Speech Culture. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 136-140.

2. Shaykhislamov, N. (2020). In the Field of Modern Linguistics – Linguoculturology. Мировая наука, 8(41), 33-36.

3. Shaykhislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, (2), 186-188.

4. Shayxislamov, N. (2020). Proverb as an object of linguistic analysis. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari, 31-33.

5. Shayxislamov, N. (2020). Ona tili darslarini o'qitishda kakografiya usulini qo'llash. Янги Ўзбекистонни қуриш ва ривожлантиришда ёшларнинг фаоллиги, 317-320.

УДК 617.546.616.8-009.7

**ПЛЕКСОПАТИИ И ТУННЕЛЬНЫЕ СИНДРОМЫ ВЕРХНИХ КОНЕЧНОСТЕЙ
ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ХРОНИЗАЦИИ**

Абдукадирова Д. Т

Салахитдинова Н

Тухтасинов Х

Андижанский государственный медицинский институт.

Кафедра неврологии

Не менее 78% населения хотя бы раз в жизни испытывают боль в шее и верхних конечностей. Тот факт, что пациенты с болями в позвоночнике и конечностях – это преимущественно люди трудоспособного возраста, переводит проблему в разряд не только медицинских, но и социально-экономических.

Ma'lumki, har bir o'qituvchi-tarbiyachi, o'quvchi o'z ona yurti tarixini bilishi, vatanparvar bo'lishi lozim. Ta'lim-tarbiya tarixi, pedagogika tarixi fanidan xabardor bo'lmay turib, o'qituvchilik qilishi mumkin emas. Pedagogika nazariyasini chuqurroq anglash uchun uning o'tmishdagi taraqqiyotini bilish kerak. Masalan, pedagogika tarixi o'tmishda ta'lim-tarbiya borasida qanday kurashlar bo'lga ni va qanday qilib ijobiy yoki salbiy yakunlangani, ijtimoiy iqtisodiy va siyosiy sharoitlarning o'zgarishi tufayli pedagogik g'oyalar, tarbiya muassasalaridagi ishlarning mazmuni va metodlari qanday o'zgarib borganini, tarixda ijod etgan olimlarning pedagogik g'oyalari va ularning faoliyatlari bilan tanishtiradi.

REFERENCES:

1. Ortiqov N. Milliy va umuminsoniy kadriyatlar asosida o'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirish: Pedagogika fanlari doktori. -diss.-T., 2000.-298 b.
2. Otamurodov S. Ma'naviyat va ma'rifat asoslari. — T.: o'qituvchi, 1991.-200b.
3. Ochilov.M. Muallim — qalb me'mori. — T: O'qituvchi, 2001.-429b.
4. Rizayev.O. Pedagogika tarixi-T.: «Cho'lpon», 1993yil.
5. Hasanboyeva va b. "Pedagogika tarixi" Toshkent 2004.4-bet
6. Usmonov R. Saodatnoma.-T.: «O'qituvchi», 1995yil.
7. Umarov E. Estetika: (Nafosatshunoslik). — T.: O_zbekiston, 1995. - 246
8. O.<https://uza.uz/oz/posts/shavkat-mirziyoyev-yoshlar-tarbiyasi-eng-muhim-masalalardan-16-06-2017>
9. <https://hozir.org/soli-akademiyasi.html?page=19>

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA KO'NGILOCHAR TADBIRLAR

Naziraxon Abdurahimova

Farg'ona viloyati O'zbekiston tumani

13-DMTT tarbiyachisi

Annotatsiya: *Barcha ota-onalar o'z farzandlarini yoshligidan rivojlantirishlari kerakligini biladilar va o'z farzandlarini tengdoshlaridan ko'ra yaxshiroq, aqli, kuchli bo'lishlarini xohlashadi. Holbuki, onalar va onalar doimo o'yin-kulgi va dam olish ssenariylarini kashf qilishga tayyor emaslar. Shuning uchun bolalarning o'yin-kulgisi (bog'chada) eng ishonchli va organik hisoblanadi.*

Kalit so'zlar: *Bog'cha, bolalar, o'yinlar, his hayajonlo daqiqalar, kundalik dasturlar, musiqiy va badiiy faoliyat.*

Bolalar bog'chasida bolalar uchun o'yin-kulgilar chaqaloqlarni hayratga solish, ularga quvonch, kulgili va kulgi berishdir. O'yin-kulgi va bayramlarni o'tkazishning yana bir muhim jihati - bu aqliy rivojlanish va bolalarning ma'lum mahoratini shakllantirishdir. Axir, bolalar bu dunyoni o'yin va kulgili his qilishadi va axloqiy ta'limotlar va zerikarli hikoyalar bolalar rivojlanishi uchun hech qanday yordam bermaydi.

Bolalar bog'chasida bolalarning o'yin-kulgi turlari asosiy turlarga bo'linadi:

Kundalik dastur;

Dam olish stsenariyalari.

Shu bilan birga, bolalar bog'chasi o'qituvchisi faoliyatining ikkala shakli guruh faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ular to'g'ri tashkil etilgan holda bolalar taraqqiyotiga katta hissa qo'shadi.

BOLALAR BOG'CHASIDA FAOLIYAT TURLARI

Bolalar bog'chasidagi tadbirlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin:

- 1) Bolalar bog'chasida kundalik bolalar o'yin-kulgisi.
- 2) dam olish.
- 3) anik bayramlar.
- 4) Musiqiy va badiiy faoliyat.



Ko'pincha, amaliyotga ko'ra, musiqa direktori, jismoniy tarbiya o'qituvchisi va o'qituvchilari faqat bayramlarga tayyorgarlik ko'rishadi. Ular ssenariy tayyorlaydilar, rollarni berib, ularni bolalar bilan o'rganadilar. Sentyabr oyida guruh kuz yoki yig'im-terim bayramiga tayyorgarlik ko'rmoqda. Bolalar bog'chasida o'tkaziladigan barcha ko'ngilochar tadbirlar Yangi yilga tayyorgarlik ko'rishga, so'ngra sakkizinchi marotaba va boshqalarga qisqartirildi.

Tabiiyki, bayramlar, matnlar va ularga tayyorgarlik bolalar jamoasining hayotining muhim qismidir. Shuning uchun o'qituvchi ishi har xil bo'lishi kerak va dam olish stsenariylari bolalarning uzoq va og'riqli tayyorgarliklari yo'qligi uchun o'ylab topiladi.

Dam olish turlari

Bolalar bog'chasida dam olish ham faol va passiv bo'lishi mumkin. Passiv dam olish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Umumiy tabiatning muskullu yengilligi (uyqu, tasodifiy suhbat);

Suratlar, tabiat, chiroyli narsalar haqida o'ylash;

Oddiy suhbatlar.

Dam olish ham faol xususiyatga ega bo'lishi mumkin:

Gimnastika mashqlari;

Bolalar bog'chasining hovlisida ishlash;

Ochiq o'yinlar.

Dam olishning asosiy mohiyati shundaki, u o'z faoliyatining turini mustaqil ravishda tanlashi, o'z istaklarini va ehtiyojlarini o'z manfaatlariga muvofiq amalga oshirishi kerak.

BOLALAR BOG'CHASIDA BAYRAM VA KO'NGIL OCHISH SSENARI

Bolalar bog'chasida o'yin-kulgi mavzusi:

- 1) Uy-joy: hosil bayrami, Yangi yil bayrami, bolalarning maktabga chiqarilishi.
- 2) Jamoa: 8 mart, G'alaba kuni, Pasxa bayrami.
- 3) Mavsumiy: kuzda, qish kunlarini, qushlar kunini, yozgi ta'tilni ko'rish.



Bolalar bog'chasidagi eng keng tarqalgan bayramlardan biri - " Oltin Kuz bayrami". Misol uchun, "Kuz shovqinli mehmon to'pi o'zi", uning tayyorlashga quyidagilar kiradi:

Matn materiallari va musiqiy qo'shiqlarni tanlash;

Senariy ishlab chiqish;

Dam olish uchun matn va qo'shiqlarni o'rganish;

Bolalarni oldindan tayyorlang: kuzning belgilarini va qish uchun kuzda qanday qilib hayvonlarni tayyorlashni tushuntiring;

Xonani havo bezaklari, plakatlar bilan bezatish;

Bolalar uchun liboslar va boshqa xususiyatlarni tayyorlash.

Belgilar: etakchi, qo'ziqorin, quyon, chanterelle, ayiq, tit, qushlar, shuningdek sabzavotlar: sarimsoq, pomidor, sabzi, karam, bodring va boshqalar.

Musiqqa tovushi ostida bolalar zalga kirib, yarim doira bo'lishadi. Taqdimotchi nutqini boshlaydi, keyin har bir sabzavot sabzavot haqida she'rlar aytadi. Shundan so'ng siz "Kuz keldi" qo'shig'ini, "Kema vinli" qo'shig'ini va kuz mavzusiga bag'ishlangan boshqa qo'shiqlarni kuylashingiz mumkin.

BOLALAR BOG'CHASIDA KUZGI TA'TIL VA O'YIN-KULGI

Kuz yomg'irli mavsumdir, ammo bolalar bog'chasi bolalari uchun emas, chunki pedagoglar bolalar bog'chasida bolalar uchun eng qiziqarli va qiziqarli o'yin-kulgi stsensariylarini topishga harakat qilishadi.

Shunday qilib, musiqiy teatr tomoshasi "Ko'ngilni kuzga aylaning". Bunday ko'ngilocharlarning asosiy belgisi: kuz, sabzavot, sincap, quyon, ayiq, mushuk, qush. Kuz va etakchi o'rni kattalar tomonidan amalga oshiriladi, qolganlari esa eski guruhlarining farzandlari.

Oyatlardagi bolalar kuzni so'rashadi, nega u sovuq kechalar bilan tez-tez yomg'ir bilan kelgan? Nima uchun kuz juda xushbo'y va issiq yozni oldi? "Qishda yaxshiroq bo'lardi!" Kuz, o'z navbatida, bolaning talabini bajarishga va ularga qor bardoshlarini berishga harakat qiladi va u juda baxtli bo'lgan mamlakatlarga boradi.

Keyin barcha bolalar daraxtlar, sincaplar, qushlar, qushlar va sabzavotlar kabi musiqaga chiqadi. Ular nima bo'layotganini tushunmaydilar, chunki daraxtlar barglarini tashlash uchun vaqt topa olmadilar, mo'ynali kiyimlarini almashtirish uchun quyonlar bor

edi va ular qordan qora paltolarda yashira olmaydilar, chunki ular bo'rdan qochib qutulolmadilar. Proteinlar uni to'kmasliklarini va qush uchun qo'ziqorinlar bilan to'ldirishga vaqtlari yo'qligini aytishadi. Va shunga o'xshab, Alyork tozalanishga boradi, u uyqudan uyg'onish uchun vaqt topolmasligi va o'rmondan qo'rqqan hayvonlarni kezib yurmasligi uchun u hayratda qoladi. Va qushlar janubdagi iliq hududlarga uchib ketish uchun vaqt topa olmagan va endi to'liq muzlatilgan. Sabzavotlar yozda shunchalik qattiq harakat qilardiki, ular ushlab turishdi, lekin faqat odamlar ularni to'plamadi. Hammasi birgalikda - hayvonlar, qushlar, sabzavotlar bolalarni kuzgacha olib kelishlarini so'rashadi, va bolalar uni qidirmoqdalar.

Bu erda kuz qayta qaytib keldi, lekin o'zi emas, balki sovg'alar bilan. U bir sabzavot va meva savatiga ega va bolalarga shirin shakar beradi.

YANGI YIL KO'NGILOCHAR SENARIYLARI

Yangi yil nafaqat bolalar uchun, balki ularning ota-onalari uchun ham eng sevimli bayram ekanligi ma'lum. Shuning uchun bu bayramni tashkil qilish har bir kishi uchun juda muhim va tayyorgarlik juda ko'p vaqtni oladi. Yangi yil o'yinlari uchun ssenariylar juda ko'p, masalan:

- "Santa Klaus, Qorqiz va butun dunyo bo'ylab sayohat". Bu hikoyaning qahramonlari - "Boba Yaga", "Santa Claus", "Qorqizma". Ularning roli kattalar tomonidan amalga oshiriladi. Harlequin, Malvina, Zolushka va boshqa bolalarning ertaklari qahramonlaridir.



Bolalar birinchi navbatda Yangi yil tabiatiga kiradilar. Bolalar "Yangi yil" deb nomlangan ajoyib bayram haqida she'rlar aytadilar. Rahbariyat barcha bolalarni Rojdestvo daraxti atrofida raqsga tushirishga chaqiradi va yashil Yangi yil go'zalligiga kelayotgan eng ezgu orzularni amalga oshiradi. Keyin bolalar daraxt haqidagi she'rlar yoki birgalikda qo'shiq aytishadi.

Qorqiz qiz chiqadi va qo'shiq ijro etadi. Keyin Ota Yoga paydo bo'lib, u Santa Klausni sehrlaydi. Unga ishonmaydigan bolalar va kattalar hammasi uni chaqiradi. Va nihoyat, barcha odamlarga sovg'alar beruvchi Santa Claus keladi. Bu bolalar uchun, ayniqsa, bunday sehrli dam olish kuni uchun eng muhimi.

BOLALAR BOG'CHASIDA BAHOR QUVONCHLARI

Bahor, hayotning hamma narsaga kelish vaqti. Biz voqealarni unutmasligimiz kerak. Masalan, bolalar bog'chasida «Qushlarning kuni» kabi bolalarning ko'ngilochar tadbirlarini

tashkil qilishingiz mumkin. Bunday holatda siz turli xil qushlar haqida jumboq va so'zlarni ishlatishingiz, qanotli do'stlaringiz tomonidan chop etiladigan turli tovushlarga o'xshash ovozni taqlid qilishingiz kerak. O'qituvchi chumchuq, bo'rilik, yog'ochdan yasalgan ziravor haqida: "chik-chirik, kar-kar, tuk-tuk" deb o'ylaydi.

Siz shuningdek, "Qushlar" deb nomlangan o'yin-kulgilarda bolalar o'ynashni taklif qilishingiz mumkin. Uning mohiyati shundaki, siz katta doira chizishingiz kerak - bu qushlar uchadigan samo. O'yin boshida har bir bola o'zi uchun bir sevimli qushni tanlaydi va bolalaridan biri tulkiga tasvirlanadi. Qushlarning bolalari aylana bo'ylab, bolalar o'rtasida tulki bor. Misol uchun, quchoq haqida qushlardan biri haqida bir she'rni aytganda, o'yinning boshida bo'lishni tanlagan kishi tezda aylana ichiga uchib, tulkining uni qo'lga olish uchun vaqti yo'q. O'yin oxirida, aylana qochib ketgan qushlar va tulkiga qaragan tirnoqlarga tushganlar arqonni yoki tayoqni tortib, raqobatlashadilar, ularning jamoasi g'alaba qozonadi.

Eng muhimi, bolalar bog'chasida bayram va ko'ngil ochish stsenariyalari yorqin va xilma-xil bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.

3. O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarga qo'yiladigan "Davlat talablari". 2018-yil 3-iyul, ro'yxat raqami 3032.

4. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2018-yil 7-iyuldagi 4-sonli hay'at yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan va nashr etilgan dasturi.

5. Maktabgacha ta'lim muassasalarida qisqa muddatli guruhlar faoliyatini tashkil etishda tarbiyachilarni tayyorlash bo'yicha trening moduli. T.: 2017-y

6. "Bolangiz maktabga tayyormi?" O'zb Res. Xalq ta'limi vazirligi Respublika ta'lim markazi, Ma'rifat-Madadkor nashriyoti.

ЎҚУВ ЛУҒАТИ ТУЗИШ ТАҲЛИЛИ

Бабаева Васи́ла Ташпулатовна

*БухДУ Факультетлараро чет тили кафедраси
катта ўқитувчиси*

Шарипова Гулшан

БухДУ Факультетлараро чет тили кафедраси ўқитувчиси

Жаҳон лексикографияси тарихига эътибор берилса, ўқув луғатларини тузиш, мазкур соҳа бўйича илмий тадқиқотлар олиб бориш 1960 йилдан бошланган бўлса, ҳозиргача катта ютуқларни қўлга киритилгани аён бўлади. П.Н.Денисов, Л.А.Новиков, Н.А.Баскаков, Н.К.Суханов, В.В.Морсков сингари лексикограф олимларнинг ўқув луғатлари бўйича қилган ишлари ибратлидир. Л.В.Шчерба, Х.Касори, А.М.Бабкин, В.А.Берков, А.П.Ступин,

С.Г.Бархударов, В.В.Виноградов, Ю.Н.Караулов, Д.Б.Буранов, А.М.Буший,

М.И.Умархўжаев, Х.М.Тўхтаўжаева ва бошқаларнинг тадқиқотлари ҳам эътиборга моликдир.

Қўйида кўп тилли ўқув луғатчилиги хусусида фикр юритамиз. Ўтган асрнинг 80-йилларидаёқ немисча-ўзбекча ўқув луғатлари яратиш ишлари бошланган бўлиб, бу луғатлар немис тилини ўқитиш ишларида катта хизмат қилди. «Немисча-ўзбекча луғат», «Немисча-ўзбекча ўқув луғат» ва бошқалар. Бу луғатларда 15000 дан 25000 гача сўз ва бирикмалар киритилган бўлиб, уларда кейинги йиллар ичида ўзбек адабиётида мавжуд бўлган ва мактаб ўқувчиларининг ўқиш амалиётида фойдаланиш учун керакли тил бирликлари ўз ифодасини топган. Бундан ташқари «Немисча –ўзбекча грамматик атамалар изоҳли луғати» яратилиб, чоп эттирилди. Грамматик изоҳли луғат республикамиздаги олий таълим ва ўрта мактаб немис тили ўқитувчи ва талабаларига, кенг ўқувчилар оммасига, тилшунослар, таржимонларга мўлжалланган бўлиб 800 га яқин грамматик терминлар икки тилда изоҳланади. Луғатга немис тили назарий ва амалий грамматикасида кенг қўлланадиган терминлар киритилган. Ундан ташқари луғатда немис тили тарихи, роман–герман филологияси, қиёсий типология, умумий тилшунослик фанларига оид ва немис тили грамматикасига алоқаси бўлган умумий терминлар ҳам киритилган. Луғатда грамматик терминларнинг олдин немисча шакли ҳамда уларнинг муқобил вариантлари ва таърифлари қисқа изоҳланиб сўнг уларнинг ўзбекча таржимаси келтирилган. Грамматик терминларнинг родлари *der-m*, *das-n*, *die-f* белгилари орқали кўрсатилиб, улар шу терминни *m*–мужской род, *n*–средний род, *f*–женский родга мансублигини англатади. Бу белгилар оддан олдин қўшиб ўқилади: *der Ablaut*, *das Adverb*, *die Kopula*.

1994 йилда уч тилли «Немисча–русча-ўзбекча луғат» ҳамда «Немисча –русча -ўзбекча фразеологик луғат» лар чоп этилди.

«Немисча –ўзбекча ўқув луғат» ҳар иккала тилга доир бўлган 16 минг сўз ва ибораларни ўз ичига олган. Луғатга киритилган сўз ва ибораларнинг 60 % мактаб ва олий ўқув юрти ҳаёти ўқиш, ўқитиш улардаги ижтимоий ташкилотлар, мактаб ва олий ўқув юрти ислохотлари ва улардан келиб чиқадиган талаб ҳамда вазифалар, спорт, ёшлар ҳаракатлари ишлари ва бошқа шунга ўхшаш масалалар билан боғлиқ. Ўқувчиларга осон бўлиши учун сўзларнинг 90 % га яқини мисоллар билан берилган, аммо бу ҳолатда ҳам «Немисча–ўзбекча луғат»га таянилган, мисоллар ўзгартирилмаган. Мисолсиз, фақат таржимаси берилган сўзлар эса ўқувчиларга қийинчилик туғдирмайди. Китобхоннинг ўзи бемалол улар ёрдамида мисоллар тузиши мумкин. Луғатнинг ҳажм жиҳатдан чегараланганлигидан, сўзларнинг кўчма маънода қўлланиши деярли берилмаган. Аммо ижобий томони деб шуни айтиш мумкинки, немисча-ўзбекча сўз ва ибораларнинг муқобил эквивалентларини танлаб олишга алоҳида эътибор берилган. Баъзи бир сўзларнинг маъносини кенгроқ очиб бериш мақсадида ҳар иккала тилда ҳам уларнинг бир неча вариантлари берилган.

«Немисча –ўзбекча луғат» кенг кўламли бўлиб, у «Немисча –ўзбекча ўқув луғат»ига бевосита таъсир кўрсатган. Унинг матн чегара структураси айнан қуйида айтиб ўтиладиган элементларни ўз ичига олади.

Отлар алмашинадиган жой ва сўнги жой.

Алмаштириладиган отлар бевосита қуйидаги текст конструкциясидан иборат.

- Сарлавҳа жой
- Орқага қайтиш саҳифа
- муқаддима
- фойдаланиш кўрсатмалари
- кирилл алфавитининг талаффузи учун жадвал

Сўнги қатор бевосита қуйидагиларни ўз ичига олади:

- Алфавит тарзида «Географик номлар».
- Кучли ва нотўғри тусланадиган феъллар жадвали.
- Фойдаланилган луғат китоблар рўйхати.

Алфавит тарзида сўзлар чап томондан қўйилган. Биринчи сўз типография белгиси « ~ » билан боғланади. Бу мисол тарзида пойма-пой берилган.

Preis *m* 1. нарх, наво 2. мукофот, соврин

~**bestimmung** *f* баҳолаш, нарх қўйиш

~**erhöhung** *f* нархнинг кўтарилиши

~**ermäßigung** *f* нархнинг пасайиши

~**kontrolle** *f* нархни назорат қилиш

Preispolitik *f* нарх – наво сиёсати

Preistreiber *m* олиб сотар, чайқовчи

Бу ерда қўйиладиган савол шундайки: Нима учун «**Preispolitik**» ва «**Preistreiber**» сўзлари ярим сўз ~ **politik** ва ~ **treiber** шаклида эмас тўла сўз

сифатида бериляпти. Сўзларни қўшишда тез-тез хатоликларга йўл қўйилган. Солиштириб кўрамиз.

Pflaume *f* бот. олхўри

~ **baum** *m* олхўри дарахти

~ **kern** *m* олхўри данаги

~ **kompott** *n* олхўри компоти [1:144]

Учала сўз қўшилишида ҳам масалан: ~ **n baum** тушиб қолган.

Худди шундай хатолар «Немисча –ўзбекча ўқув луғати» да [2:206] кўриш мумкин. «Немисча –ўзбекча луғат»да ҳозирги замон немис тили лексик бирликларига 7 % (ҳаттоки ундан ҳам юқориқ 10%) эътибор қаратилган. Барча отларда турланиш белгиси ёки турланиш намуна белгиси кўрсатиб берувчи восита сифатидаги белгилар тушиб қолган. Ўзбек тилида бирлик ва кўплик учун фақат битта турланиш системаси бўлгани немис тилини ўрганаётган талабага отларнинг турланиши қийинчилик олиб келади. Яна шуни айтиб ўтиш жоизки, ушбу луғатда феълларнинг қабул қилинган (кучли ва кучсиз) морфологик классификацияси эмас, балки синтактик классификацияси кўпгина феълларда (ўтимли ва ўтимсизлик белгилари) тушиб қолган.

Ижобий томондан қайд этилганда ушбу «Немисча –ўзбекча луғат»да предлоглар ва уларнинг бошқаруви кетма-кет жойлаштирилганлиги «Немисча – ўзбекча ўқув луғати»га қараганда нисбатан тўғри берилган. Аммо фразеологизмлар кам берилган, мисоллар аралаштириб юборилган ва таҳлил этилмаган ҳамда кўрсатилмаган.

Маълумки, Ўзбекистон немис тилини чет тили сифатида ўрганадиган мамлакатлар орасида етакчи ўринни эгаллайди. Немис тилини ўрганадиганлар сони жиҳатдан Ўзбекистон Россия, Украина, Полшадан кейин тўртинчи ўринни эгаллайди. Луғатшунослик соҳасида эса, тан олиш лозимки, мақтовга сазавор ютуқларга эришилмаган. Ўзбек германистикасида эса бир қатор ўз ечимини кутаётган муаммолар йиғилиб қолган. Афсуски, ҳозир ҳам изланишлар кам. Бизнинг назаримизда 50 минг ва ундан ортиқ сўзни ўзида жамлаган «Немисча - ўзбекча луғат», «Ўзбекча – немисча луғат» яратиш вақти келди. Бундан ташқари ҳар икки тилга оид турли соҳа луғатлари, атамашунослик луғатлари ва электрон луғатлар яратиш давр талабига айланган. Бунинг учун салоҳиятли мутахассислар ҳам, иқтидорли ёшлар ҳам, имкониятлар ҳам етарли. Ушбу имкониятлардан самарали фойдаланиш ва замонавий луғатлар яратишга ҳисса қўшиш барчамизнинг вазифамиздир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1.Беняминов Я.Р.Мирсоатов Т.З.,Саидов.С.С.Рустамбекова М. Р. «Немисча – ўзбекча луғат»,- Т.: Ўқитувчи, 1985.-248 б.

2.Беняминов Я.Р.,Саидов С.С., «Немисча–ўзбекча ўқув луғат»,- Т.: Ўқитувчи, 1991.- 396 б.

3.Мирсоатов Т.З., Сатторо .М. «Немисча –ўзбекча грамматик атамалар изоҳли луғати», - Т.: Ўқитувчи, 1992 – 150 б.

4.Рашидова Д.,Ҳасанчанова.С.,Т.А. Юркова «Немисча–русча- ўзбекча луғат»,- Т.: «Қомуслар бош таҳририяти»,1994 -284 б.

5. Умархўжаев М.Назаров. Қ. «Немисча –русча - ўзбекча фразеологик луғат» - Т.: Ўқитувчи ,1994 -356 б.

МОДЕЛИРОВАНИЕ СОЛНЕЧНОГО ЭЛЕМЕНТА НА ОСНОВЕ СТАНДАРТНОГО УСЛОВИЯ ТЕСТИРОВАНИЯ

Мамасалиев Ортик

Хйдаров Анвар

*Джизакского политехнического института ассистент
Магистрант Джизакского политехнического института*

Ключевые слова: солнце, панель, моделирование, мощность, напряжение, схема

В настоящее время растущий спрос на энергию в наиболее развитых странах мира и развивающихся странах приводит к увеличению спроса на электроэнергию. Из этого видно, что в настоящее время одним из современных видов энергии являются альтернативные виды энергии.

Простейшая эквивалентная схема солнечного элемента представляет собой источник тока, подключенный параллельно с диодом, как показано на рисунке 1. Выход источника тока прямо пропорционален свету, падающему на элемент. В темное время суток солнечный элемент не является активным устройством и работает как диод. Он не производит ни тока, ни напряжения. Однако, если свет падает на солнечный элемент, он генерирует ток диода. Диод D определяет характеристики ввода-вывода элемента. Последовательное сопротивление R_s представляет собой сопротивление внутри каждой ячейки, в то время как сопротивлением шунта R_{SH} , пренебрегают, поскольку оно имеет большое значение.




Рисунок 1. Эквивалентная схема солнечного элемента

В идеальном солнечном элементе предполагается, что R_s бесконечная. Суммарный ток элемента представляет собой разницу между фототоком I_L и нормальным током диода, который определяется

$$I = I_L - I_0 \left(e^{\frac{q(V+IR_s)}{nkT}} - 1 \right) - \frac{V + IR_s}{R_p} \quad (1)$$

Фототок I_L зависит от эталонных первой и второй температур T_1 и T_2 соответственно, и это задается по следующими формулами:

$$I_L = I_L(T_1) + K_o(T - T_1)$$

$$I_L(T_1) = I_{scT_1, \text{nom}} \left(\frac{G}{G_{\text{nom}}} \right)$$

$$K_o = \frac{I_{scT_2} - I_{scT_1}}{T_2 - T_1} \quad (2)$$




Рисунок 2. I–V характеристическая кривая солнечного элемента

где G - текущее солнечное излучение I_o , $G_{\text{ном}}$ - солнечное излучение в контрольном тесте.

Ток насыщения диода ввод –вывод задается по следующей формуле:

$$R_s = -\frac{dV}{dI_{V_{oc}}} - \frac{1}{X_V}$$

$$X_V = I_{oT_1} \frac{q}{nkT_1} e^{\frac{qV_{ocT_1}}{nkT_1}} \quad (3)$$

Типичная V–I характеристика солнечного элемента при определенном освещении окружающей среды, G и фиксированной температуре элемента показана на рисунке 2. Для резистивной нагрузки характеристика нагрузки представляет собой прямую линию с наклоном $I/V=1/R$. Отмечается, что мощность, подаваемая на нагрузку, зависит от величины сопротивления.

Из рисунка 2 видно, что при небольшой нагрузке элемент работает в областях M–N кривой, где элемент ведет себя как источник постоянного тока, который почти равен току короткого замыкания. С другой стороны, если нагрузка велика, ячейка работает в области P–S кривой, и ячейка ведет себя как источник постоянного напряжения, которое почти равно напряжению разомкнутой цепи.

Ток короткого замыкания I_{sc} , является наибольшим значением тока, генерируемого солнечным элементом. Это происходит при коротком замыкании, когда $V = 0$. Напряжение разомкнутой цепи соответствует падению напряжения на диоде, когда фототок равен нулю. Он отражает напряжение элемента при отсутствии освещения и может быть математически выражен как:

$$V_{oc} = \frac{nkT}{q} \ln\left(\frac{I_L}{I_o}\right) = V_t \ln\left(\frac{I_L}{I_o}\right) \quad (4)$$

где ($V_t = nkT/q$) известно как тепловое напряжение, а T - абсолютная температура ячейки.

Максимальное значение находится в рабочей точке A , в которой мощность, рассеиваемая в резистивной нагрузке, имеет максимальное значение и определяется по следующему:

$$P_{max} = V_{max} I_{max} \quad (5)$$

Максимальная эффективность солнечного элемента представляет собой соотношение между максимальной мощностью и мощностью падающего света и выражается как:

$$\eta = \frac{P_{max}}{P_{in}} = \frac{I_{max} V_{max}}{AG_a} \quad (6)$$

где A - площадь фотоэлектрического модуля, а G_a - излучение.

Коэффициент заполнения (FF) является мерой реальной характеристики ввода-вывода. Для эффективных солнечных элементов это значение должно быть больше 0,7. FF уменьшается с повышением температуры ячейки, и она выражается как:

$$FF = \frac{I_{sc} V_{oc}}{I_{max} V_{max}} \quad (7)$$




Рисунок 3. Двухдиодная электрическая эквивалентная схема солнечного элемента

Модель с одним диодом обеспечивает удовлетворительное поведение при нормальных условиях эксплуатации, но часто ухудшает его при низкой солнечной радиации. Однако некоторые исследователи выразили эффект потерь на

рекомбинацию носителей заряда в области обеднения дополнительным диодом. Эта модель называется двухдиодной фотоэлектрической моделью. На рисунке 3 показана эквивалентная схема с двумя диодами.

Выходной ток солнечного элемента, основанного на двухдиодной эквивалентной схеме, описывается

$$I = I_{\text{Ph}} - I_{\text{D1}} \left[\exp\left(\frac{V + IR_s}{V_{t1}}\right) - 1 \right] - I_{\text{D2}} \left[\exp\left(\frac{V + IR_s}{V_{t2}}\right) - 1 \right] - \frac{V + IR_s}{R_p} \quad (8)$$

где I_{D1} и I_{D2} - это токи насыщения диодов первого и второго диодов соответственно, V_{t1} и V_{t2} - тепловые напряжения диодов, и они могут быть заданы с помощью следующих формул:

$$V_{t1} = \frac{a_1 K T_c}{q}$$
$$V_{t2} = \frac{a_2 K T_c}{q} \quad (9)$$

где a_1 и a_2 - идеальные коэффициенты диода, представляющие составляющие токов диффузии и рекомбинации соответственно. Хотя двухдиодная модель более точна, чем однодиодная, она требует больших вычислительных усилий и является гораздо более экономичным методом.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

- [1]. Arun, P., Banerjee, R., Bandyopadhyay, S. 2009. Optimum sizing of photovoltaic battery systems incorporating uncertainty through design space approach. *Solar Energy*. 83: 1013–1025.
- [2]. Dufo-López, R., Bernal-Agustín, J. 2005. Design and control strategies of PV-diesel systems using genetic algorithms. *Solar Energy*. 79: 33–46.
- [3]. Fragaki, A., Markvart, T. 2008. Stand-alone PV system design: Results using a new sizing approach. *Renewable Energy*. 33: 162–167.
- [4]. Khatib, T., Mohamed, A., Sopian, K. 2012. Optimization of a PV/wind micro-grid for rural housing electrification using a hybrid iterative/genetic algorithm: Case study of KualaTerengganu, Malaysia. *Energy and Buildings*. 47: 321–331.
- [6]. Khatib, T., Mohamed, A., Sopian, K. 2013. A review of photovoltaic systems size optimization techniques. *Renewable and Sustainable Energy Reviews*. 22: 454–465.
- [7]. Khatib, T., Mohamed, A., Sopian, K., Mahmoud, M. 2011. Optimal sizing of building integrated hybrid PV/diesel generator system for zero load rejection for Malaysia. *Energy and Buildings*. 43: 3430–3435.

[8]. Mellit, A., Kalogirou, S. 2008. Artificial intelligence techniques for photovoltaic applications: A review. *Progress in Energy and Combustion Science*. 34: 574–632.

[9]. Sidrach-de-Cardona, M., Lopez, L. 1998. A simple model for sizing stand alone photovoltaic systems. *Solar Energy Materials and Solar Cells*. 55: 199–214. [10]. O

Mamasaliev Theoretical Foundations of Energy Saving International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS)

[11]. O Mamasaliev. Technological Innovation and Energy Saving in Light Industry International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS) ISSN

CALCULATION OF WIRES FOR MECHANICAL STRENGTH [12]. O Mamasaliev, U Sarimsoqov. Студенческий вестник, 15-19 ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ

[13]. MC Саъдуллаев, ЖФ Холлиев, ШШ Абдуллаев, ОК Мамасалиев. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА МОДЕРНИЗАЦИИ НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ ...2020

PSIXIKANING NERV-FIZIOLOGIK ASOSLARI

Abdurasulova Mokhirakhon Akmaljonovna

*Termez Davlat pedagogika instituti "Maktabgacha ta'lim" talabasi, bakalavr.
Surkhandaryya, Uzbekistan*

Mazkur maqolada: *Miya va psixika, miya, uning tuzilishi va psixik hayotda tutgan o'рни hamda miyaning reflektorlik faoliyati va katta yarim sharlar po'stlog'idagi nerv jarayonlari, birinchi va ikkinchi signallar sistemasi hamda ularning ozaro bir-biriga bogliqligi haqida keltirib otilgan.*

In the article: *the article refers to the brain and psyche, the brain, its structure and role in mental life, the reflex activity of the brain and nerve processes in the Big Hemispheres, the first and second signaling systems and their interdependence.*

В статье: *В статье упоминаются мозг и психика, мозг, его строение и роль в психической жизни, рефлекторная деятельность головного мозга и нервные процессы в коре больших полушарий, первая и вторая сигнальные системы и их взаимозависимость.*

Kalit sozlar: *Dinamik stereotip, miyaning yoshga ko'ra ulg'ayishi, maktabgacha yoshdagi bolalar nerv sistemasining o'sishi, qo'zg'alish va tormozlanish jarayonlarining o'zaro mutanosibligi.:*

Key words: *dynamic stereotype, age-related growth of the brain, growth of the nervous system of preschool children, interrelationship of excitation and inhibition processes.*

Ключевые слова: *динамический стереотип, возрастной рост мозга, рост нервной системы дошкольников, взаимосвязь процессов возбуждения и торможения.*

Psixik faoliyatni to'g'ri tushunish uchun odam va hayvonlar psixikasining asosi bo'lmish nerv faoliyatining xususiyatlarini bilish zarur. Nerv sistemasi markaziy va periferik nerv sistemasi- ga ajraladi. Miya (bosh va orqa miya) markaziy nerv sistemasi hisoblanadi. Periferik nerv sistemasi bu nervlardir, ya'ni bosh va orqa miyadan tananing barcha tomonlariga tarqaluvchi nerv tolalaridir. Miya ham nerv hujayralaridan iborat. Ular o'zaro bir-birlari bilan shoxchalari orqali bog'langan. Miya bir necha qismlardan tuzilgan. Bosh miyaning katta yarimsharlari bosh miyaning po'stloq osti tugunlari va po'stlog'idan iborat bo'lib odamning barcha psixikasini boshqaradi. Po'stloqning pesho- na qismlari muhim o'rin egallaydi. Odam miyasining og'irligi o'rtacha 1400 g (maymunda — 500 g, otda — 650 g, ho'kizda — 500 g, kitda — 2800 g, filda — 4000 g) og'irlikka ega.

Miya gavda og'irligining 2% ini tashkil etadi, organizm qabul qiluvchi kislorodning 18% i miyaning oziqlanishiga sarf qilinadi. Bu organizmning hayot faoliyatida miya ishi faoliyati qanchalik murakkab ekanligini ko'rsatadi. Hayvonlar va inson miyasini tanasiga

nisbatini oladigan bo'lsak, masalan, kitning miyasi tanalining 1/20000 qismini, filda — 1/400, maymun- da — 1/100, odamda esa 1/46 qismini tashkil etadi. Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'i organizm hayotida muhim rol egallaydi. Odamda u o'rtacha 14—15 mlrd neyronlardan tashkil topgan. Peshona qismlari ayniqsa ahamiyatlidir. Hayvon qan- chalik taraqqiy etgan bo'lsa miyaning shunchalik katta qismini peshona tashkil etadi. Mushukda — 3%, itda — 7%, maymun- da — 16%, odamda — 29% ni tashkil qiladi.

Individning psixik hayotida miya og'irligi va tuzili- shi alohida ahamiyatga ega. Kishining aqli haqida mi- ya og'irligiga qarab hukm chiqarish noto'g'ridir. Masalan, I.S. Turgenevning miyasi 2012 gr, I.P. Pavlovning miyasi 1653 gr, D.I. Mendeleevning miyasi 1571 gr, Anatol Frans- ning miyasi 1017 gr. Bosh miya og'irligining ma'lum bir chegarasi ham borki, odamda undan kam bo'lsa, aqliy qo- biliyat ancha pasayadi. Bu chegara erkaklarda 1000 gr ni, ayollarda 900 grammni, yangi tug'ilgan bolalarda 380—400 gr ni tashkil etadi. Miyaning oliy bo'limlari — katta yarim- sharlar har xil turdagi hayvonlarda qanday ahamiyatga ega ekanligini quyidagi faktlarda ko'rish mumkin. Baliqlardagi mavjud yarimsharlar kurtagi olib tashlansa ham, ular xatti- harakatida kam o'zgarish yuz beradi. Agar kaplarning yarimsharlari olib tashlansa u ucha olmaydigan, ovqatni o'zi topa olmaydigan bo'lib qoladi. Yarimsharlaridan mahrum etilgan it batamom majruh bo'lib qoladi. Katta yarimsharlarsiz tug'ilgan bola tezda nobud bo'ladi. Demak, miya katta yarimsharlarisiz odam yashay olmaydi.

Miyaning reflektor faoliyati. Tashqi olam doimo odamning nerv sistemasiga, sezgi a'zolari orqali miyasiga ta'sir ko'rsatib turadi. Organizmning tashqi ta'sirotlarni nerv sistemasi va mi- yasiga ta'siri natijasida qabul qilishi va ularga javoban harakatga kelishi refleks (lot. reflexus — aks ettirish) deb ataladi. Refleks nazariyasi birinchi marta fransuz olimi Dekart tomonidan, keyinchalik I.M. Sechenov va yana keyinroq I. P. Pavlov tomonidan rivojlantirildi, shartli va shartsiz reflekslar atalib o'rganildi. Shartsiz reflekslar tug'ma yo'l bilan berilsa, shartli reflekslar hayot davomida orttiriladi. Bola miyasining ko'rish markazida ham (dorini ko'rgan paytda), ta'm-maza bilish markazida ham (og'zida taxirlikni sezgan paytda) qo'zg'alishlar ketma-ket vujudga keladi, bordi-yu bu qo'zg'alish yana takrorlansa, miya po'stlog'ida, ya'ni shu ikki markaz o'rtasida bog'lanish vujudga keladi. Agar shu bog'lanish mustahkamlanib borilmasa, ya'ni bolaga dori ko'rsatilsayu ammo ichirilmasa, u kuchsizlanib butunlay uzilib ketadi. Shunday qilib shartli refleks hayot davomida hosil qilinibgina qolmay, vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketishi ham mumkin. Shu sababdan I.P. Pavlov shartli reflek ni muvaqqat nerv bog'lanishi deb aytgan.

Yarimsharlar po'stlog'idagi nerv jarayonlari. Odam va hayvonlarning katta yarimsharlari po'stlog'ida ikki qarama-qarshi nerv jarayonlari, qo'zg'alish va tormozlanish sodir bo'ladi. Bi- ron-bir narsa yoki hodisalar sezgi organlariga ta'sir etib ularni qo'zg'atadi, qo'zg'alish esa miyaga o'tkaziladi, shundagina yarimsharlarda qo'zg'alish (jonlanish) vujudga keladi. Bu qo'zg'alish o'chog'i o'zgarmasdan va harakatsiz qolmaydi. Odatda qo'zg'alish katta yarimsharlar po'stlog'ida irradiatsiyaladi (yoyiladi) va bir joydan ikkinchi joyga o'tadi. Po'stloqda qo'zg'alish bilan bir vaqtning o'zida unga zid jarayon

tormozlanish ham maydonga keladi, tormozlanish miyada qo'zg'alish uchastkasini aktiv ravishda to'xtatib turadi, tormoz- laydi yoki cheklab qo'yadi, qo'zg'alish uchastkasini markazlashtiradi, tor doiraga to'planishga olib keladi. Qo'zg'alish bilan tormozlanish o'zaro chambarchas bog'liqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Y. Almatov K.T., Allamuratov Sh.I. Odam va hayvonlar fiziologiyasi. Toshkent: Universitet, 2004
2. Anoxin P.K. Oчерки по физиологии функrsity Press, 1959.
3. Rajamurodov Z.T., Rajabov A.I. "Odam va hayvonlar fiziologiyasi" Toshkent: 'Tib kitob' nashriyoti, 2010.
4. Roffwarg H.P., Muzio J.N., Dement W.C.

ДИПЛОМАТИЯ И ИСТОРИЯ ДИПЛОМАТИИ

Набиев Хасанбой

студент Андижанского государственного педагогического института

Аннотация: В статье даются понятия о видах дипломатии и Венской конвенции о дипломатических сношениях и истории дипломатии

Ключевые слова: дипломатия, философия, Венская конвенция, история, медиаплощадки, государства, технология

Дипломатия-эта деятельность глав государств, правительств и специальных органов внешних сношений по осуществлению целей и задач внешней политики государств за границей. Дипломатия является средством осуществления внешней политики государств. Представляет собой совокупность практических мероприятий, приёмов и методов, применяемых с учетом конкретных условий и характера решаемых задач. Дипломатия является чрезвычайно кодифицированной и формализованной деятельностью, осуществляемой на основании Венской конвенции о дипломатических сношениях 1961-года.

Существуют виды дипломатии: “Дипломатия канонерок” Суть дипломатии канонерок состоит в демонстрации силы для достижения своих внешнеполитических целей.Получила своё наименование от слова «канонерка» небольшого корабля с серьёзным артиллерийским вооружением.Примером данной политики является применение Соединёнными Штатами Америки канонерок в Китае в начале XX века, а также в Латинской Америке. “Челночная дипломатия”-одно из средств мирного разрешения споров между государствами путём серии переговоров с участием третьего государства (посредника) на основе выдвинутых им условий. “Гражданская дипломатия” –это термин,обозначающий альтернативную классическому представлению о государственной дипломатии деятельность на международной арене, направленная на выполнение совпадающих с официальной государственной дипломатией целей внешней политики государственной дипломатией, целей внешней политики государства посредством инструментов, каналов, институтов, отличных от классических. “Дипломатия доллара”-данная разновидность дипломатии предполагает использование экономических методов (например,кредитов) для достижения своих целей. “Публичная дипломатия” Под публичной дипломатией понимаются действия,направленные на достижение целей национальной внешней политики путём установления долгосрочных отношений,изучения общественного мнения за рубежом,информирования зарубежных ценностей и институтов собственного государства за рубежом. “Народная дипломатия”-Под народной дипломатией в широком смысле этого слова понимается

исторически непрерывный процесс общения, взаимного познания народов, взаимообогащения культур. “Экономическая дипломатия”, или торговая дипломатия – это направление дипломатической работы, в основе которых лежат торгово-экономические отношения. “Цифровая электронная дипломатия” – использование возможностей сети Интернет и информационно-коммуникационных технологий (ИКТ) для решения дипломатических задач. В рамках цифровой дипломатии используются новые медиа, социальные сети, блоги и тому подобные медиаплощадки в глобальной сети.

Дипломату надо быть хорошим коммуникатором, переговорщиком, аналитиком, лоббистом, уметь достойно представлять свою страну на международной арене и защищать ее интересы, обладать большими знаниями, опытом, проницательностью, владеть иностранными языками.

Считается, что слово «дипломатия» происходит от греческого слова *díplōma*, которым в Древней Греции называли сдвоенные дощечки с нанесёнными на них письменами, выдававшиеся посланцам в качестве верительных грамот и документов, подтверждавших их полномочия.

Дипломатические отношения – основная форма поддержания официальных отношений между государствами в соответствии с нормами международного права и практикой международного общения. Дипломатические отношения призваны способствовать развитию дружественных отношений между государствами, поддержанию международного мира и безопасности.

Дипломатические отношения — основная форма поддержания официальных отношений между суверенными государствами, а также между государствами и другими субъектами международного публичного права в соответствии с нормами международного права и практикой международного общения.

Дипломатия появилась с возникновением родового общества, первого обмена продуктами, товарами, первыми проблемами, связанными с территориями для охоты, земледелием, рыболовством и их границами

Первый случай употребления слова «дипломатия» в Англии относимся к 1645 году, 16 век в Европе ознаменован бурным ростом дипломатической активности, ставшей к тому времени очевидной необходимостью

В начале 20 века произошёл реальный переход от старого к новой форме дипломатии тем не менее крепло осознание той реальности, когда дружеские отношения между государствами могло быть достигнуто не военно-силовым, а дипломатическим путём

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

- 1 Истори Дипломатие 2005.

BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISH MEZONLARI

Qiyomov Yusuf To'xtasin o'g'li

Xalqaro Innovatsion Universiteti
Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasini mudiri

Ergashev Ozodbek talaba
Toshpulatov Shaxriyor Anvar o'g'li
talaba

Annotatsiya: *Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi, pedagogik ta'lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, O'qituvchining shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda faolligi, maqsadga intilishi talabaniing ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashishi va o'z-o'zini baholashiga yordam berishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *Inson, shaxs, pedagog, ta'lim, talaba, yoshlar, faol, tadqiqot, individual. Insonning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun nasl-irsiyat (inson – biologik mavjudod sifatida), ijtimoiy muhit (ijtimoiy-iqtisodiy hayot) hamda maqsadga muvofiq tashkil etilgan tarbiya va uning faoliyati kabilari ta'sir etadi.*

Shuning uchun ham pedagogik ta'lim jarayonida talaba-yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishi qonuniyatlari, shaxs kamolotiga ta'sir etuvchi omillar o'rganiladi. Oliy pedagogik ta'limning asosiy maqsadi ham shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy rivojlanishi, talabalar yosh va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ijodiy imkoniyatlarini har tomonlama ro'yobga chiqarish, insonparvarlik munosabatlarini shakllantirishdan iboratdir. Tarbiya qonuniyatiga ko'ra shaxsning kamolga yetishi jamiyat rivojlanishidan orqada qolsa, ijtimoiy maqsadni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratilmagan bo'lsa, uni amalga oshirish qiyin. Sh.Majitova o'qituvchi kadrlar tayyorlashda bir butun, yaxlit shaxsni rivojlantirish muammosini tadqiq etar ekan, shaxsning ijtimoiy munosabatlar va ongli faoliyat sub'ekti sifatida talqin etadi. Shuningdek, shaxsning yaxlitligi atrof-olamni anglash hamda ijtimoiy muhit sharoitida aniqlanadi. O'qituvchining shaxs sifatida o'z-o'zini anglashi hamda faolligi, maqsadga intilishi talabaniing ijtimoiy-pedagogik muhitga moslashishi va o'z-o'zini baholashiga yordam beradi degan g'oyani ilgari suradi ..

Muallif B.G.Ananayev, A.N.Leontev, L.S.Vigotskiylarning fikrlariga tayangan holda o'qituvchi shaxsi tarbiya va ijtimoiylashuv sharoitida shakllanadi, degan xulosaga keladi. Tadqiqotda bo'lajak o'qituvchini yaxlit shaxs sifatida rivojlantirishning pedagogik asoslari ishlab chiqilib, ular quyidagilardan iborat deb ko'rsatiladi:

rag'batlantirish (motivatsiya);

- yaxlit shaxsni shakllantirish mezonlarini aniqlash;
- pedagogik tizimga ega bo'lish;
- shaxsni shakllantirish mazmuni, bosqichlari, jihatlari, unga qo'yiladigan talablar;
- pedagogik jarayon;
- talabalarning shaxslik-kasbiy yo'nalishi;
- talabalarga qo'yiladigan talablar;

- kommunikativ vositalar va ularga qo' yiladigan talablar

Tadqiqotchilarning fikrlariga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, talabalarni barkamol shaxs sifatida shakllantirishda quyidagi talablarga rioya etish muhimdir:

- yoshlarning bilimlarni o' zlashtirishga bo' lgan qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirish;

- ta'lim jarayonida talabalar faoliyatini pedagogik jihatdan to' g' ri tashkil etish;

- talaba-yoshlarning har biriga individual yoshdashish;

- pedagogik nazokatni shakllantirish;

- kasb-hunarga tayyorlash;

- noqulay vaziyatlardan to' g' ri yo' l topib chiqib keta olish qobiliyatiga ega bo' lishlariga erishish;

- ijtimoiy faollik, fuqarolik rolini shakllantirish va hokazolar.

Yuqoridagi talablarni amalga oshirishda barkamol shaxsni shakllantirishga xizmat qiluvchi quyidagi mezonlar asos bo' lib xizmat qiladi.

Barkamol shaxsni shakllantirish mezonlar:

- shaxsni aqliy, ma'naviy-axloqiy, hissiy-estetik, jismoniy rivojlantirish;

- ijodiy imkoniyatlarini namoyon etishga yo' llash;

- insonparvarlik munosabatlarini shakllantirish;

- yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda shaxsning individual o' ziga xosligini namoyon etishga sharoit yaratish;

- fuqarolik nuqtai nazarining tarkib topishiga erishish;

- hayotga, mehnatga, ijtimoiy ijodkorlikka tayyorlash;

- o' z-o' zini boshqarish, demokratik tamoyillarni anglash, Vatani va xalq oldida o' zmas'uliyati va burchini his etish.

Barkamol shaxsni axloqiy tarbiyalashda, avvalo, jamiyat talabiga mos holda axloqiy tushunchalar, qoidalar, his-tuyg' ular, e'tiqod va xulqiga doir ko' niktalar va malakalarni shakllantirish muhim vazifa sanaladi.

Ma'naviyatli inson bilimli, kasb-hunar egasi, Vatanning sodiq fuqarosidir. U o' z davlati qonunlarini biladigan va ularga amal qiladigan, o' z yurtidan g' ururlana oladigan, o' z Vatani boyliklarini saqlash bilan birga uni yanada boyitadigan, go' zalliklaridan bahramand bo' ladigan shaxs. U har qanday zararli illatlarga qarshi kurashadi, xalq boyligini avaylab asraydi.

Axloq esa shaxsning xatti-harakatlari, yurish turishi, turmush tarzi, hayot kechirish tamoyillari, qoidalari, ijtimoiy munosabatlar mazmunini ifodalaydi. Axloq ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat ma'naviy-ruhiy hayotida o' ziga xos o' rin tutadi. U jamiyat tomonidan tan olingan tartib-qoidalar bo' lib, kishilarning xatti-harakatlarini tartibga soladigan tamoyil sanaladi.

Axloq – ma'naviyatning tarkibiy qismi sifatida shaxs rivojlanishining yuqori bosqichi sanaladi. Zero, axloqsiz, axloqiy me'yorlarsiz shaxsning ruhiy, jismoniy va ma'naviy yetukligi shakllanmaydi. Shuning uchun ham ma'naviy-axloqiy tarbiyada uzviylik,

aloqadorlik dialektik xarakterga ega bo' lib, shaxsning ma'naviy-axloqiy shakllanishida muhim sanaladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalari:

- 1) ma'naviy-axloqiy ongini shakllantirish;
- 2) ma'naviy-axloqiy xulq-atvor, ko'nikma va odatlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya mohiyatiga ko' ra insonning jamiyat oldida burchliligi, o' z xulq-atvorining jamiyat taraqqiyoti darajasi bilan uyg' unligi, shuningdek, ma'naviy-axloqiy xulq-atvorning insonning kishilarga bo' lgan hurmat-e'tiborini namoyon etuvchi mezonlardan ekanligini tushunishi, axloqiy ideallarining to' g' riligiga ishonch hosil qilishi, ma'naviy-axloqiy bilimlarining e'tiqodga aylanishi va e'tiqodning tizimli bo' lishini ta'minlash va ma'naviy-axloqiy odatlarning shakllanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Estetik (nafosat) tarbiya talabalar tomonidan estetik bilimlarning egallanishi, ularda estetik madaniyatni tarkib toptirish, voqelikka estetik munosabatlarni shakllantirish, estetik his-tuyg' uni rivojlantirish, hayot go'zalliklari, tabiat va mehnatga muhabbatni tarbiyalash; estetik idealni shakllantirish hamda hayotiy faoliyatni tashkil etishda estetik qonuniyatlariga rioya etish ko' niktalarini shakllantirishga xizmat qiladi

Shaxsda sog' lom turmush tarzi ko' niktalarini shakllantirishda uning jismonan to'g'ri rivojlanishi, o'z salomatligini mustahkamlashi; aqliy va jismoniy faoliyatning yuqori darajada bo' lishiga erishish; gigienik malaka va ko'nikmaga ega bo' lishi; turmush tarzini mavjud axloqiy talablarga muvofiq tashkil etish; jismonan sog' lom bo' lib, o'ziga va o'zgalarga quvonch baxsh etish, zararli odatlardan saqlanish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi. Talabalar o' rtaida mehnat tarbiyasini tashkil etishda milliy va umumbashariy an'analarga tayanish, ustoz-shogird, oilaviy mehnat va hunarmandchilikning eng samarali metod va usullaridan foydalanish, zamonaviy kasb-hunarlar asoslarini o' zlashtirish, ular tomonidan mehnatning shaxs rivojlanishida asosiy omillaridan ekanligini anglanishiga erishish muhim sanaladi.

Shuningdek, barkamol shaxsning shakllanishida ekologik, iqtisodiy, huquqiy tarbiyalar ham o'ziga xos ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, barkamol shaxs individ – shaxs – inson tizimida o'z dunyoqarashi, nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z haq-huquqini hurmat qilishga o'rganish, shaxslik xislatlarini tushunish, shuningdek, o'z bilim, qobiliyat va ko' niktalarini namoyon etib, o'z "Men"ini qaror toptirish asosida shakllanadi. Insonning shaxs sifatida rivojlanishi uning qiziqishlari, xarakteri, qobiliyati, aqliy rivojlanganligi, ehtiyojlari, mehnat faoliyatiga munosabati bilan belgilanadi. Insonda yuqorida ko' rsatilgan xususiyatlar rivojlanib, uning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo'lgan munosabati muayyan bosqichga yetgandagina u barkamol shaxs darajasiga ko' tariladi.

Milliy ta'lim-tarbiya tarixida barkamol shaxs tarbiyasi tajribalari

Jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida ham barkamol shaxsni tarbiyalash dolzarb muammo bo' lib kelgan. O'zbek xalqi yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs qilib

tarbiyalashda boy tarixiy tajribaga ega. Bu tajribani o'rganish va mazkur tajribadan zamon tarablariga muvofiq barkamol shaxsni shakllantirishda samarali foydalanish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Sharq mutafakkirlarning asarlarida yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish, ularni barkamol shaxs bo'lib voyaga yetkazishga oid pedagogik g'oyalar, barkamol shaxs tarbiyasining mazmun, shakl va metodlari o'z aksini topgan bo'lib, ular bugungi kunda ham muhim pedagogik qiymatga ega. Ushbu asarlarda inson tafakkurini rivojlantirish, aqliy-axloqiy yetuklik va jismoniy barkamollik, estetik madaniyatni shakllantirish masalalari ham ilmiy, ham amaliy jihatdan o'z yechimiga ega bo'lgan.

Xalq og'zaki ijodi namunalari bo'lgan doston, ertak, maqol va xalq qo'shiqlarida, shuningdek, Yusuf xos Hojib, Kaykovus, Ahmad Yugnakiy, Muslihiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy va boshqa mutafakkirlarning barkamol shaxsni tarbiyalashga oid qarashlari o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'zbek xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishish chog'ida yosh avlodda barkamol shaxsga xos fazilatlarini tarbiyalashga juda qadimdan alohida e'tibor berib kelinayotganligining guvohi bo'lish mumkin. Jumladan, xalq maqollarida yoshlarda yuksak insoniy fazilatlarini shakllantirishga oid qarashlardan samarali foydalanilgan bo'lib, buholat ayniqsa, pand-nasihat mazmunidagi maqollarda maslahat, nasihat, istak, buyruq shakllarida qo'llanilgan tarbiyaviy mazmunga ega pand-nasihatlarni xalq og'zaki ijodining ertak, doston, aytishuv, topishmoq kabi janrlarida ko'plab uchratish mumkin. Pand-nasihat metodi xalq og'zaki ijodi namunalari bilan birga ta'limiy-axloqiy asarlarda ham samarali qo'llanilgan.

Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari pand-nasihat uslubida yozilgan asar sanaladi, unda pand-nasihat tarkibida qiyoslash uslubidan ham samarali foydalangan. Asarda yaxshilik bilan yomonlikni, rostlik bilan yolg' onchilikni, yorug'lik bilan qorong'ulikni, samimiylik bilan quvlikni, kamtarlik bilan takabburlikni, bilimlilik bilan johillikni, saxiylik bilan baxillikni o'zaro qiyoslash asosida ularning mohiyati ochib berilgan. Yusuf Xos Hojib kishilarga munosabatda o'rtamiyona yo'l tutishni maslahat beradi va "Agar kishilarga o'rtamiyona munosabatda bo'lsang, do'st dushmanga aylanmaydi", - deydi.

"Qutadg'u bilig" asarining pedagogik qiymatini belgilovchi jihatlardan biri unda muammo usulining maqsadga muvofiq qo'llanilganligidir. Milliy pedagogik merosda jumboq – muammoli ta'limga alohida o'rin ajratilgan bo'lib, u o'ziga xos ahamiyatga ega. Didaktik asarlarda munozaraga keng o'rin ajratilgan bo'lib, munozara asosida jumboq – muammo yechiladi. Chunonchi, "Qutadg'u bilig" asarida Kuntug' mish (Elig) va Oyto'ldi o'rtasidagi munozara quyidagi mazmunga ega: Elig Oyto'ldini ilgiga chaqirib, uni yonimga o'tir, deb taklif qiladi. Lekin Oyto'ldi o'tirmaydi. Elig unga boqib, taajublansa, Oyto'ldi ko'zini yumib oladi va yuzini yashiradi. Xonning yoniga o'tirmay, yerga koptok qo'yib unga o'tiradi.

Eligning jahli chiqib sababini so'raganda, unga quyidagilarni tushuntiradi: Elig Oyto'ldiga o'rin berganda uning yoniga o'tirmagani "Xon yonida menga o'rin yo'q",

degani; yerga ko'ptok qo'yib, unga o'tirgani – davlat ko'ptok kabi barqaror emas, qo'ldan chiqib ketadi, degani, Elig boqqanda ko'zini yumib olgani – davlat ko'r kishiga o'xshaydi, kimga ilahsa, unga yopishib oladi; yuzini yashirgani esa, davlat jafo, unga ishonib g'ururlanib ketma, deganim edi, deydi. Ko'rinib turibdiki, Yusuf Xos Hojib asarning mazkur lavhasida birdaniga uchta metod – munozara, muammoli ta'lim, pand-nasihatdan foydalangan. Demak, anglanadiki, o'z davrida mutafakkir asarlarida zamonaviy pedagogik texnologiyaning elementlaridan unumli foydalangan.

Asrlar davomida yosh avlod tarbiyasini muvaffaqiyatli tashkil etishda qo'llanib kelinayotgan pandnomalardan biri Unsurul-Ma'aliy Kaykovusning "Qobusnoma" asaridir. "Qobusnoma" boshidan oxirigacha pand-nasihatdan iborat asar. Ayniqsa, sakkizinchi bob "Anushiravon pandlarini yod olmoq zikrida" bobi bunga yaqqon misoldir. Pand-nasihati qiyosiy taqqoslash tahlili orqali olib boriladi. Kaykovus "Qobusnoma" asarida barkamol inson (shaxs) tarbiyasi haqidagi qarashlarni bayon etar ekan, ayniqsa, jismoniy tarbiyani tashkil etish masalasiga katta e'tibor beradi. Buni asarning "SHikorga chiqmoq zikrida", "Chavgon o'ynamoq zikrida", "Sipohsolarlik shartlari va odatlari zikrida" kabi boblarida ko'rish mumkin. Ularda mutafakkir barkamol inson (shaxs) avvalo sog'lom bo'lishi zarurligini, shuningdek, bilimlarni o'zlashtirishda mushohada yuritish, fikrni dalillar asosida ifodalash lozimligini alohida uqtiradi. Xususan, asarning "Ilm talabi va qozichilik zikrida" bobida quyidagilar alohida ta'kidlanadi:

Ulug' mutafakkir Alisher Navoiy o'qituvchilarni talabchan va o'z kasbining bilimdoni bo'lishga undagan, tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor bergan. Mutafakkirning fikricha, bilim olishda uzluksizlik ma'qullab, bilim beruvchi ustoz – murabbiylarning o'zlari ham ma'lumotli, o'qitish usullarini chuqur egallagan bo'lishlarini talab etadi. Johil, mutaasib, nodon domlarni qoralab, o'qituvchi mehnatining og'irligini alohida ta'kidlaydi. Madrasa mudarrislarining fozil, dono, kamtar, ma'naviy pok insonlar bo'lishini istaydi va shunday bo'lishi uchun kurashadi

Mashhur mutafakkirlar inson aqliy qobiliyatini, ilmiy quvvatini, iste'dodini takomillashtirish uchun o'zida zukkolik, fahm tezligi, zehn o'tkirligi, bilimlarni tez egallash, qo'yilgan muammoni tez anglash, ilgari his etgan va tasavvur qilgan barcha narsalarni esda saqlash, xotira kabilarni rivojlantirishi lozimligiga alohida urg'u berib o'tganlar.

Ta'lim-tarbiya samaradorligiga erishish maqsadida maktab va madrasalarda ana shu talablarga rioya etilgan, talabalarda yuqorida ta'kidlab o'tilgan jihatlarni tarbiyalash uchun "Tarbiyai fikriya", "Tarbiyai tafakkuriya", "Tarbiyai ixlosiya" kabi metodlar qo'llanilgan, ular talabalarni fikrlashga o'rgatib, tafakkurlarini rivojlantirib, bilimlarni egallashga bo'lgan qiziqishlarini oshirgan. Shuningdek, tafakkurni rivojlantirishda samarali bo'lgan ilmiy munozara, sharhli o'rganish, muammolarni hal etish, kuzatish, savol-javob, bilimlarni sinash, ko'rgazmali tajriba kabi uslublar qo'llanilgan.

Iqtidorli bolalarga beriladigan bilimlar hajmi ko'paytirilib, ularning adabiyotlar bilan mustaqil shug'ullanishiga ko'proq e'tibor berilgan. Iqtidorli talabalar maktab yoki

madrasalarda talab etiladigan bilim hajmini o'zlashtirib, ma'lum sinovdan o'tgach, o'qishni muddatidan oldin bitirish imkoniyatiga ega bo'lganlar.

Har bir o'qituvchi talabalarga umumiy bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni san'at va muammoli masalalarni yechish sirlari bilan ham tanishtirib borganlar

O'tmishda muallimlar va madrasa mudarrisleri ko'proq muhokama va munozaralar uyushtirib, matnni sharhli-izohli o'rganish metodlariga katta e'tibor qaratganlar.

Talabalarda zehnni tarbiyalash, ularning bilimlarini mustahkamlash, tafakkur qobiliyatlarini mustahkamlash, ma'lumotlarni uzoq vaqt esda saqlab qolishlariga erishish maqsadida chiston (topishmoq)larni yechish, muvashshahlar yozish, o'rganilayotgan muammoni sharhlash va izohlash kabi usullardan foydalanilgan.

Bu usullar talabalarni rag'batlantirgan, o'qishga, ilm olishga bo'lgan qiziqishlarini oshirgan. Chunonchi, mashhur shoira va mohir muallima Uvaysiy (Jahon otin) o'zi tashkil qilgan darslarda qizlarning zehnni tarbiyalashda chistonlardan samarali foydalangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000, 25-b.

2. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi //O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish /Tuzuvchilar: J.Fozilov, R.Sultonov, H.Saidov. – T.: “Ma’rifat-Madadkor”, 2000. 20-b.

3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. 56–57- b.

4 Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A., Quronov M. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” asosida). – T.: Akademiya, 2002. – 50 b.

5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yohud ahloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 15 b.

6 Dmitriev G.D. Teoretiko-prakticheskie aspekti mnogokulturnogo obrazovaniya v SShA // J. Pedagogika, 1999. №7. – s. 55.

7.Internet saytlari

**PEDAGOGIK TURKUM FANLARINING BARKAMOL SHAXSNI SHAKLLANTIRISHDAGI
IMKONIYATLAR**

Qiyomov Yusuf To'xtasin o'g'li

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasini mudiri

Qo'ziyev Jahongir Sirojiddin o'g'li

talaba

Bekmurodov Elbek G'olib o'g'li

talaba

Annotatsiya: *Maqolada Oliy ta'limda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi, turkum fanlari nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlar, pedagogika fanining mazmuni, "Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Pedagogik mahorat" hamda "Pedagogik texnologiya" kabi tushunchalarning mazmun mohiyati yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, uzluksiz ta'lim, tizim, bosqich, turkum, ta'lim-tarbiya, o'qituvchi, o'quvchilar, kadr, pedagog, standart.*

Oliy ta'limda uzluksiz ta'lim tizimining muhim bosqichi bo'lish bilan birga, ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rin tutadi. Bugungi kunda oliy ta'lim bosqichida pedagogik yo'nalishda faoliyat yurituvchi oliy ta'lim muassasalari salmoqli o'rinni egallaydi va jamiyatning malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojini qondirishda asosiy rol o'ynaydi. Kadrlar tayyorlash milliy modeli tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan shaxsni har tomonlama kamolga yetkazish, yuksak ma'naviy va axloqiy sifatlarni tarbiyalash, unda kasbiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishda pedagogik turkum fanlarining imkoniyatlaridan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik turkum fanlari nafaqat ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini ta'minlashda, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi munosabatlarni qaror toptirishda, balki talabalarda barkamollik sifatlarini shakllantirish borasida ham katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlar quyidagilar bilan tavsiflanadi:

har tomonlama rivojlangan, barkamol shaxsni shakllantirish pedagogika fanining ham asosiy maqsadi ekanligi;

pedagogika fanining mazmuni ham har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda uning aqliy, nafosat va jismoniy rivojlanishi, ijodiy qobiliyatlarining namoyon bo'lishi, unda insonparvarlik munosabatlarini tarkib toptirishga yordam beruvchi zarur shart-sharoitlar yarata olishi;- ta'lim va tarbiya qonuniyatlari hamda tamoyillari birligi, o'zaro uyg'unligini ta'minlash asosida barkamol shaxsni shakllantirishdek ijtimoiy maqsadni to'la amalga oshirish mumkinligi.

Pedagogik turkum fanlari bo' yicha ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida barkamol shaxsni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limga qo'yiluvchi talablar belgilab berilgan. Mazkur standart talablariga muvofiq "Pedagogika", "Pedagogika tarixi", "Pedagogik texnologiyalar" va "Pedagogik mahorat" o'quv fanlari bo' yicha yaratilgan dastur va darsliklar barkamol shaxsni shakllantirishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq barkamol shaxsni shakllantirish borasida o'qituvchilarning muayyan tayyorgarlikka, talabalarning esa tasavvur va nazariy bilimlarga ega emasliklari bois pedagogik amaliyotda bu imkoniyatlardan samarali foydalanilmayapti. Shu sababli pedagogik ta'lim jarayonini davr talablari va mavjud ijtimoiy-ta'limiy ehtiyoj asosida tashkil etish uchun asosiy yo'nalishlarni belgilab olish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Eng avvalo, ijodiy yondashuv asosida o'zlashtirilishiga erishish hamda ularni o'ylashga, fikr yuritishga, ijodiy faoliyat yuritishga undashda samarali bo'lgan ta'lim metodlarini tanlash, pedagogik ta'lim jarayonini maqsadga muvofiq loyihalashtirish talab etiladi. Ta'lim jarayonini loyihalashda milliy ta'lim bilan birga xorijiy ta'lim tajribalaridan ham izchil foydalanish kutilgan natijalarni qo'lga kiritishga yordam beradi.

"Pedagogika nazariyasi va tarixi", "Pedagogik mahorat" hamda "Pedagogik texnologiya" o'quv fanlari bo' yicha mashg'ulotlar maxsus loyihalar asosida ilg'or pedagogik texnologiyalar yordamida tashkil etilganda kutilgan natijani beradi. Mashg'ulotlarda asosiy e'tibor talabalarning ichki imkoniyatlari va qobiliyatlarini ularning amaliy faoliyatlarida to'la namoyon bo'lishini kafolatlovchi rivojlantiruvchi ta'lim xarakterini kasb etishiga qaratilishi lozim.

Barkamol shaxsni shakllantirishda samarali tashkiliy-pedagogik shakl, metod va vositalarni qo'llash boy milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslanadi. Shuningdek, tarbiya jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash samarali natijalarga erishishga imkon beradi. Innovatsion metodlar talabalarda voqealar rivojini oldindan ko'ra bilish, o'zini real voqelikda anglash, kelgusi hayot yo'lini to'g'ri belgilash, axloq, e'tiqod, ishonch va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to'g'ri anglash, turli ijtimoiy vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Talabalarni kuzatish, bahslashish, ishontirish, mulohazalarni umumlashtirish, xulq-odob ko'nikmalarini o'zlashtirishga imkon beruvchi treninglar jumladan, "Tanqid qilish madaniyati", "Konsensus va konfrantatsiya" ("Kelishuv va ziddiyat") treninglari, o'yin, shuningdek, ma'naviy-axloqiy tarbiyada hamkorlik texnologiyasi kabilar pedagogik jarayonga yangicha yondashishni ta'minlaydi.

"Pedagogika nazariyasi bo' yicha amaliy mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", "5x5", "Klaster", "Qarorlar qabul qilish texnologiyasi", "Tafakkur cho'qqisi" va "Qora quti" kabi interfaol metodlar, rolli va ish o'yinlaridan maqsadga muvofiq foydalanish kutilgan natijalarni beradi. "Pedagogika nazariyasi va tarixi" o'quv kursi bo'yicha amaliy mashg'ulotlarning birida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asari asosida kadrlar tayyorlash milliy modelida barkamol shaxsni shakllantirishga qo'yiluvchi talablar va ularga muvofiq ta'lim jarayonini

tashkil etish masalalari muhokama etilishi mumkin. “Mustaqil, erkin fikrli barkamol shaxsni shakllantirish – ijtimoiy-ta’limiy ehtiyoj” mavzusida uyushtirilgan muhokamada esa talabalarning ijtimoiy tarbiya jarayoni maqsadi va vazifalari, mazmuni haqidagi nazariy-pedagogik bilimlarini mustahkamlashga asosiy e’tibor qaratiladi. Muhokama chog’ida Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, Unsurul Ma’aliy Kaykovus, Abudrahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy kabi Sharq mutafakkirlarining barkamol shaxs tarbiyasi borasidagi qarashlari umumlashtiriladi, barkamol shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda juda samarali sanaluvchi omillar – oila, ta’lim mazmuni (shu jumladan, ta’lim muassasalari), milliy qadriyatlar, ommaviy axborot vositalarining barkamol shaxs kamolotidagi muhim o’rni va roli tahlil etiladi. Shuningdek, “Shaxsning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantirish” mavzusida amaliy trening tashkil etish mumkin. Treningda talabalarga shaxs qiyofasida aks etuvchi fuqarolik hamda kasbiy sifat (xislat)larning ro’yxatini tuzish va ularni ahamiyatlilik darajasiga ko’ra tartiblash (raqamlash) vazifasi topshiriladi. Javoblar tahlilida, talabalar tomonidan quyidagi sifat (xislat)larning barkamol shaxs qiyofasida aks etishi muhimligiga e’tibor qaratiladi

- vatanparvarlik va milliy g’urur, iftixor tuyg’usiga egalik;

- davlat ramzlari (gerb, bayroq, madhiya)ga nisbatan chuqur hurmat bildirish

- millat va jamiyat taraqqiyoti yo’lida mehnat qilish hamda ularning taqdiri uchun mas’uliyatli bo’lish;

- maishiy turmush madaniyatiga ega bo’lish;

- milliy qadriyatlarni ijtimoiy-milliy ahamiyatini chuqur anglash va ularni asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga yetkazishga g’amxo’rlik qilish;- halol, rostgo’y, mehr-shafqatli bo’lish

- g’ayratli, tashkilotchi va tashabbuskor bo’lish;- faoliyatda qat’iyatli, xushmuomala va tartibli bo’lish;

- mustaqil va o’z nuqtai nazarini erkin ifodalay olish;- muomala madaniyatini egallay olish;

- vaqtdan unumli foydalana bilish.

Talabalar tomonidan topshiriq bajarilgach, ularga barkamol shaxs qiyofasida aks etuvchi va talabalar tomonidan ikkinchi darajali deb baholanuvchi sifat (xislat)larni belgilash vazifasi topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish jarayonida talabalar tomonidan quyidagi sifat (xislat)lar qayd etilishiga e’tibor qaratiladi: insonparvarlik, adolatlilik, iymon-e’tiqodlilik, qanoatlilik, donolik, saxiylik, mehr-oqibat, yaxshilik, nafs me’yori, do’stlik, vijdonlilik, intizomlilik, iltifotlilik, to’g’rilik, kamtarlik, hayo va iffat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азизходжаева Н.Н. Педагогические технологии в подготовке учителя. Ташкент, 2000.
2. Аллаёров И.А. Дидактические основы активного обучения управленческим дисциплинам. — Ташкент: Фан, 1994.
3. Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения. - М., 1995.
4. Беспалько В.П. Слагаемые педагогической технологии. — М., 1989.
5. Бордовский Г.А., Извозчиков В.А. Новые технологии обучения: Вопросы терминологии// Педагогика. — 1993.-№5.
6. Гальперин П.К. К теории программированного обучения. — М., 1967.
7. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике. — Рига, 1995

MOLIYAVIY BARQARORLIK TAHLILI

Qiyomov Yusuf To'xtasin o'g'li

Xalqaro Innovatsion Universiteti

Iqtisodiyot va aniq fanlar kafedrasini mudiri

Shamdamov Bahodir Mansur o'g'li

talaba

Fayzullayev Xurshid Burxon o'g'li

talaba

Anotatsiya: *O'zbekiston bank tizimi, O'zbekistonda kreditlar hajmi keskin oshishi hamda kreditlarning o'sish sur'ati, O'zbekistonning muammoli kreditlar ulushi, O'zbekistonda banklarning konsentratsiyalashuvi, O'zbekistonning iqtisodiy o'sish, Moliyaviy barqarorlik.*

Kalit so'zlar: *bank, tizim, iqtisod, Bank, aktiv, talab, nisbat, kredit, tarmoq, garov, kapital, indeks,*

O'zbekiston bank tizimi Kovid-19 pandemiyasi va tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishlaridan kelib chiqadigan shoklarga yaxshi bardosh bermoqda. 2022-yilning I yarim yilligida bank tizimining moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari Bazeli III minimal talablaridan yuqori bo'ldi. Regulyativ kapitalning hamda birinchi darajali kapitalning monandlilik koeffitsiyentlari minimal talablardan 1,3 baravar yuqoriligini ko'rsatdi. Bank aktivlariga nisbatan talabning qat'iylashtirilishiga qaramay, likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) minimal talabga (100 foiz) nisbatan yuqori shakllandi. 2017 yildan boshlab O'zbekistonda jami kreditlarning YaIMga nisbati sezilarli darajada oshib, MDH va daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar darajasiga yetdi. 2017–2020 yillarda O'zbekistonda kreditlar hajmi keskin oshishi hamda kreditlarning o'sish sur'ati YaIMning o'sish sur'atidan yuqori bo'ldi. 2021 yilda O'zbekistonda jami kreditlarning YaIMga nisbati (44 foiz) MDH davlatlari bo'yicha mediana ko'rsatkichidan (30 foiz) baland bo'lib, uning yuqori darajasi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekiston qisqa vaqt ichida jami kreditlarning YaIMga nisbati ko'rsatkichi bo'yicha daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar bo'yicha mediana ko'rsatkichiga yetib oldi. Pandemiya sababli banklardagi muammoli kreditlarning (NPL) jami kreditlardagi ulushi 5-6 foizgacha keskin ko'tarildi. Pandemiya bilan bir qatorda davlat dasturlari asosida kreditlash va banklar tomonidan muammoli kreditlar hisobini yuritishning takomillashtirilishi natijasida muammoli kreditlar miqdori sezilarli o'sdi. 2022-yil 1-iyul holatiga ko'ra, O'zbekistonning muammoli kreditlar ulushi (4,9 foiz) Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari (5,9 foiz) hamda Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari (5,2 foiz) bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan pastroq bo'ldi. Tarmoqlar qirqimida muammoli kreditlar sanoat va qishloq xo'jaligida sezilarli oshgan. Kredit to'lovining daromadga nisbati (PTI) 51 foizdan yuqori hamda kredit

miqdorini garov qiymatiga nisbati (LTV) 76–90 foiz oralig'ida bo'lgan ipoteka kreditlari jami ipoteka kreditlarda yuqori ulushni tashkil etmoqda. 2018-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda kredit to'lovining daromadga nisbati 51 foizdan yuqori bo'lgan ipoteka kreditlarining ulushi dinamikasida pasayish kuzatildi. Moliyaviy barqarorlik sharhi 8 2022-yil I yarim yillik kreditlarining 60–70 foizini kredit to'lovining daromadga nisbati 51 foizdan yuqori bo'lgan ipoteka kreditlari tashkil etmoqda. Qarz oluvchilarning ortiqcha qarz yukini cheklash maqsadida 2020-yilda Markaziy bank kredit to'lovining daromadga nisbati 50 foizdan yuqori bo'lgan jismoniy shaxslarga kreditlar berish cheklovini joriy etdi. Kredit miqdorining garov qiymatiga nisbati 76–90 foiz oralig'ida bo'lgan ipoteka kreditlari ulushi taxminan 90 foizni tashkil etmoqda. O'zbekistonda tizimli ahamiyatga molik banklar uchun qo'shimcha bufer qo'llash zarurati yuzaga kelmoqda. Bazel qo'mitasining uzoq muddatli iqtisodiy ta'sir yondashuviga (LEI) ko'ra O'zbekistonda birinchi darajali asosiy kapital (CET1) uchun o'rnatilgan me'yor (8 foiz) uning eng maqbul ko'rsatkichidan past darajada shakllangan. Shuningdek, bank tizimining konsentratsiya indeksi (HH indeksi)ga ko'ra, O'zbekistonda banklarning konsentratsiyalashuvi o'rta darajada bo'lmoqda. LEI hamda HH indeksi bo'yicha tahlil natijalari O'zbekistonning tizimli ahamiyatga molik banklari uchun birinchi darajali asosiy kapitalga nisbatan 2 foiz qo'shimcha bufer o'rnatishni taqozo etadi. Shuningdek, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib kapitalga qo'yilgan minimal talablar bilan bufer talablarini muvofiqlashtirish tizimli ahamiyatga molik banklar uchun bufer joriy qilishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Makro stress-testning dastlabki natijalari bank tizimining barqaror ekanligini ko'rsatdi. 2024-yil oxiriga kelib, asosiy va mo'tadil ssenariylarda banklarning kapital yetarlilik darajasi minimal regulyativ kapital me'yoridan (13 foiz) yuqori bo'lishini hamda turli xil shoklarga yaxshi bardosh bera olishini namoyon qilmoqda. Biroq, xatarli ssenariyda, ya'ni iqtisodiyotning keskin yomonlashuvi va valyuta kursining sezilarli darajada qadrsizlanishi holatida bank tizimi regulyativ kapitalning monandlilik koeffitsiyenti 13 foizlik me'yoriy chegaradan tushib ketish ehtimoli yuqoridir. Bunda sezilarli kredit yo'qotishlar va riskka tortilgan aktivlarning o'sishi banklarni regulyativ kapitalga nisbatan qo'yilgan minimal talabni bajara olmaslikka sabab bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, bank kapitali yetishmovchiligi natijasida yuzaga keladigan yo'qotishlar jiddiy xavf tug'dirmaydi va bank tizimi ushbu yo'qotishlar o'rnini qoplash uchun yetarli himoyaga ega bo'ladi.

Moliyaviy barqarorlik sharhi 2022-yil I yarim yillik I. Makromoliyaviy sharoitlar Xalqaro moliya tashkilotlari va markaziy banklar tomonidan moliyaviy tahlil va siyosatni ishlab chiqishda moliyaviy sharoitlar indeksi (Financial Conditions Index, FCI) muhim ma'lumot beruvchi makromoliyaviy ko'rsatkichlardan biri hisoblanib, mamlakatlar iqtisodiyotidagi o'zgarishlarni umumlashtirilgan moliyaviy barqarorlik holatini ifoda etadi (1-ilova). Joriy yilda rivojlangan davlatlarda kuzatilayotgan moliyaviy sharoitlarning qat'iy lashishini aksiyalar bahosining tushishi, davlat obligatsiyalari daromadliligining oshishi va pul-kredit siyosati qat'iy lashtirilib borilishining kutilayotganligi bilan izohlash

mumkin1 . 1-chizma. Rivojlangan davlatlarda moliyaviy sharoitlar indeksi (o'rtacha ko'rsatkichdan standart og'ish2) 2-chizma. Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda moliyaviy sharoitlar indeksi (o'rtacha ko'rsatkichdan standart og'ish) Manba: Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ). Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan va rivojlanayotgan davlatlar qat'iylashgan moliyaviy sharoitlar va kapital oqimini chetga chiqib ketishining yuqori xavfiga duch kelishmoqda. Tashqi qarz olish xarajatlarining keskin ko'tarilishi va milliy valyuta kurslarining oshishi Rossiya bilan yaqin aloqada bo'lgan Sharqiy Yevropa mamlakatlarining moliyaviy sharoitlariga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Inflyatsiyani jilovlash uchun foiz stavkalarining oshirilishi, aksiyalar qiymatining pasayishi va tashqi qarz olish xarajatlarining yuqoriligi boshqa ko'plab bozor iqtisodiyoti Indeks ko'rsatkichi o'rtacha qiymatidan standart og'ishning necha barobariga farq qilishini ifodalaydi. Moliyaviy barqarorlik sharhi 2022-yil I yarim yillik shakllanayotgan davlatlarda moliyaviy sharoitlar qat'iylashishiga sabab bo'ldi . Kovid-19 pandemiyasi tufayli yuzaga kelgan global iqtisodiy pasayishdan so'ng karantin choralarining bekor qilinishi va vaksinatsiyalash jarayonining tezlashishi natijasida yalpi talab tiklandi va past daromadli rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiyotini 2021-yilda 4,1 foizga o'sishiga olib keldi. Dunyodagi geosiyosiy vaziyat va global inflyatsiya tufayli vujudga kelgan noaniqliklarga qaramay, XVJ 2022 va 2023-yillarda past daromadli rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o'sish mos ravishda 4,8 va 4,9 foiz bo'lishini prognoz qilmoqda . O'zbekistonning iqtisodiy o'sish sur'ati 2012–2019-yillar davomida (2017 va 2018-yillarni hisobga olmaganda) asosiy savdo hamkorlarning o'rtacha tortilgan o'sish sur'atidan yuqori bo'lgan. 2017 va 2018-yillarda real o'sish sur'atlari mos ravishda 4,4 va 5,4 foizlarni tashkil etgan. O'zbekiston iqtisodiyoti 2020-yilda pandemiya davrida pul-kredit siyosatining yumshatilishi hamda hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlovchi siyosatning yuritilishi natijasida 1,9 foizga, 2021-yilda esa 7,4 foizga o'sgan. Tashqi iqtisodiy sharoitlar o'zgarishining ta'siri kutilganidan kuchsizroq bo'lishi, iqtisodiyot tarmoqlarida faollikning oshishi, tashqi Moliyaviy barqarorlik sharhi 12 2022-yil I yarim yillik savdo aylanmasi hajmining yuqori sur'atlarda o'sishini inobatga olgan holda Markaziy bank 2022-yil uchun YaIMning real o'sish sur'atini 5,0–5,5 foiz atrofida prognoz qilmoqda. Markaziy banklar jahon iqtisodiyoti istiqbollari bo'yicha noaniqliklar ortgan bir davrda yuqori darajadagi inflyatsiyani jilovlash hamda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanishni ta'minlash o'rtasidagi qiyin tanlovga duch kelishmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. International Monetary Fund, Global Financial Stability Report, April 2022, pp. 3-4. <https://www.imf.org/en/Publications/GFSR/Issues/2022/04/19/globalfinancial-stability-report-april-2022>

2. Karimov LA. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida». T.; «O'zbekiston» 1996.

3. Vahobov AV., Ibroximov AT., Ishonqulov N.F. «Moliyaviy va boshqaruv tahlili». Darslik. T.; «Sharq», 2005 y.

4. Karimov A va boshq. Buxgalteriya hisobi. Darslik. - T.: «Sharq» nashriyot -matbaa akdiyadorlik kompaniyasi . 2004, 592

5. Internet saytlari

<http://wwwJex.uz>

<http://www.Ziyo.NET.uz>

<http://www.stat.uz>

<http://www.tfi.uz>

ОНКОЛОГИК КАСАЛЛИКЛАРДА ШАХС ПСИХОЛОГИЯСИНИНГ ЎЗИГА ХОС НАМОЁН БЎЛИШИ

Уразбаева Дилбар Абдуллаевна

Урганч давлат университети PhD, доцент

Аннотация: *Мазкур мақолада онкологик касалликларда бемор шахсининг ўзига хос хусусиятлари намоён бўлиши ҳақидаги масалалар изоҳланган.*

Аннотация: *В данной статье разъясняются вопросы проявления специфических особенностей личности пациента при онкологических заболеваниях.*

Annotation: *This article explains the issues of the manifestation of specific features of the patient's personality in oncological diseases.*

Калит сўзлар: *Онкология, психология, психоонкология, онкологик бемор, психоэмоционал ҳолат*

Ключевые слова: *Онкология, психология, психоонкология, онкологический пациент, психоэмоциональное состояние*

Key words: *Oncology, psychology, psychooncology, oncological patient, psychoemotional state*

Бугунги кунда онкологик касалликларни эрта аниқлаш ва даволаш чора тадбирлари бўйича жаҳонда ижобий натижаларга эришилмоқда.

Онкологик касалликлар инсон организмида соматик ўзгаришлар билан бир вақтда психик соҳада ҳам ўзгаришларни келтириб чиқаради. Айниқса, шахс фаолиятини ҳаракатга келтирувчи куч ҳисобланадиган қадриятли-мотивацион соҳа беморларнинг даволаниш, реабилитация жараёнларида касалликка муносабат ҳамда касаллик билан курашиш учун стимул вазифасини ўтайди. Онкологик беморларнинг психологик жиҳатларини ўрганиш зарурати ва реабилитацион дастурда психологнинг иштироки муҳимлиги ўтган асрнинг 70-80 йилларида рус онкологлари томонидан таъкидланган (Б.Н.Блохин, 1977; В.Н.Герасименко, 1977; Д.Амбрози, 1981). Онкобеморлар реабилитациясида психологнинг иштироки нафақат қандайдир психик ўзгаришларни, бузилишларни ўрганиш, балки шахсининг касалликдан кейинги ривожланадиган ижтимоий ва психологик мавқеи қайта тикланишида кўмаклашувчи позицияда ҳам намоён бўлади. Шу нуқтаи назардан онкобеморнинг шахслараро муносабатлар тизимида ўзининг позициясини, ўрнини аниқлаб ва ўрнатиб олишда уларнинг бу вазиятда қадриятли-мотивацион тизимини ҳисобга олиш муҳим.

Онкологик касалликларда шахс психологиясининг ўзига хос хусусиятлари бўйича рус олимлари томонидан амалга оширилган ишлар салмоқли, жумладан, М.П. Ершованинг “Онкопатологиядаги ремиссиянинг турли муддатларида ўспирин

йигит ва қизлар шахсий ривожланишининг хусусиятлари” мавзусида олиб борган тадқиқотида онкологик касаллик ташхиси қўйилган ўспирин йигит ва қизларда когнитив, шахслик, аффектив соҳалардаги ўзига хос психологик ўзгаришларни тадқиқ қилган [4]. Мазкур тадқиқотда касалликка муносабат ва таъсирланишда гендер ўзига хосликлар ҳам алоҳида ўрганилган.

Г.А Ткаченко ва И.М.Шестопаловалар томонидан олиб борилган сўт беши саратони беморларида қадриятли-мотивацион соҳани ўрганиш тадқиқотлари натижаларига кўра, касаллик бошланган вақт билан солиштирганда алоҳида ҳолатларда мавжуд ўзгаришлар вужудга келган. Юқори аҳамиятли қадриятлардан ривожланиш, ўзига ишонч, муҳаббат, садоқатли дўстлар бўлиши, фаол ҳаётий фаолият кабилар кузатилган [3].

Онкологик беморларга психологик ёрдам беришнинг мазмунини тушунишда Е.В.Пестереванинг “Ҳавfli лимфома билан даволанаётган беморларда даволанишнинг турли босқичларида касалликка мослашишнинг психологик хусусиятлари” мавзусидаги тадқиқот иши муҳим аҳамият касб этади [2]. Мазкур тадқиқотда ҳавfli лимфома ташхиси билан даволанаётган беморларда саратоннинг бошқа турларига қараганда алоҳида психологик мослашиш хусусиятлари таҳлил қилинган.

Соматик даражада жисмоний заифлик, жисмоний зўриқиш, томоқда нимадир тиқилиб қолиш ҳисси, ҳаво етишмаслигидаги ҳансираш ҳисси, тўхтаб-тўхтаб нафас олиш ҳисси кабилар вужудга келади.

Шундай қилиб, касаллик инсон борлиғининг барча даражаларида пайдо бўлади:

- соматик - аъзолар ва тизим фаолиятида бузилишлар;
- эмоционал - қўрқув, хавотир, нафрат, алам, жаҳл ва бошқа негатив эмоциялар;
- психологик - ўзига ва атрофдагиларга нисбатан муносабатнинг бузилиши;
- ижтимоий - ижтимоий мавқе ва алоқлар ўзгариши;
- маънавий - ҳаёт мазмуни, масъулият, ёлғизлик, ҳаёт якуниланаётгани кечинмаси.

Касаллик инсонни тўлиқ қамраб олади ва кўрсатилган даражалар бир-бирига ўтади (бемор оғриқдан арз қилади, бу фақат жисмоний оғриқ эмас, балки эмоционал ва маънавий кечинма қатнашадиган умумий оғриқ) [5].

Онкологик беморлар учун психологик реабилитация шундай йўналган бўлиши керакки, онкологик касаллик келтириб чиқарган психологик оқибатларни бартараф қилиши ва касаллик вазиятига мослашиш ёрдам бериши керак.

Бугунги кунда ривожланган давлатларда онкология соҳасида психологик коррекцияни қўллаш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Натижада, таъсирли ҳисобланган стрессни бартараф қилиш ва копинг-механизмлар назарий моделлари ёритилган ишлар вужудга келган, ўзининг самарадорлигини исботлаган

ва кенг тарқалган психологик аралашувнинг когнитив-хулқий стратегиялари ишлаб чиқилган.

Соғлом турмуш тарзи ва ўсмали патология ривожланиши ҳавфи билан боғлиқ психологларнинг тадқиқотлари онкологик касалликлар профилактикаси учун психологик ёрдам тизимини шакллантирган. Бундан ташқари бугунги кунда дунёда саратонни даволашда қўлланиладиган воситалар нафақат ремиссиянинг давомийлигига таъсир қилишига кўра, беморларнинг ҳаёт сифатини махсус ишлаб чиқилган методикалар ёрдамида баҳолаш асосида ҳам қабул қилинмоқда [1].

Демак, юқоридагилардан келиб чиқиб, шундай хулоса қилишимиз мумкинки, онкологик касалликларда бемор организмда жисмоний ўзгаришлардан ташқари тенг кучга эга бўлган психоэмоционал ўзгаришлар ҳам содир бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Беляев А.М. Онкопсихология для врачей-онкологов и медицинских психологов. Руководство. Издание 2-ое, дополненное // А.М.Беляев и коллегия авторов/ Ред.А.М.Беляев, В.А.Чулкова, Т.Ю.Семиглазова, М.В.Рогачев.- СПб: Изд-во АНО “Вопросы онкологии”, 2018.- 436 с

2. Пестерева Е.В. Психологические особенности адаптации к болезни у больных лимфомами опасного качества на разных этапах лечения. Автореф... канд.пс.наук. СПб. 2011.23.с

3. Ткаченко Г.А., Шестопалова И.М. Особенности личности больных раком молочной железы в отдаленном периоде. Вестник психотерапии. 2007; 21 (26). -С. 66-78.

4. Эршова М.П. Особенности личностного развития юношей и девушек с онкопатологией с разными сроками ремиссии: Автореф.дис. ...канд.психол.наук.-М.: Ростов-на-Дону, 2005.- 22 с.

5. Jacobsen P.B., Sadler I.J., Booth-Jones M., Soety E., Weitzner M.A., Fields K.K. Predictors of posttraumatic stress disorder symptomatology following bone marrow transplantation for cancer. J. Consult. Clin. Psychol. 2002; 70 (1). – P. 235-240.

BUGUNGI KUNDAGI TA'LIM TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR

Togaymurodova Feruza Muqadirovna

Chirchiq Pedagogika Universiteti

Annotatsiya: *Bugun Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylangan. Bu jarayonda ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimidagi o'zgarishlar haqida to'lqinlanib so'zlamalikning iloji yo'q. Mamlakatimizda so'nggi yillarda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etish bo'yicha amaliy ishlar hal qiluvchi bosqichga kirdi.*

Kalit so'zlar: *Ta'lim, maktab fidoiylilik, iqtisod, texnologiya, maktab, ijtimoiy.*

Prezidentimiz ta'kidlaganidek: “Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi, ko'plab ijtimoiy muammolarni echish imkoni tug'iladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi desam, o'ylaymanki, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi”.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy qismini, albatta, oliy ta'lim tizimidagi islohotlar tashkil etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, oliy ta'limni modernizatsiya qilish, ilg'or ta'lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida davlatimiz rahbarining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi sohadagi yangi islohotlar uchun debocha vazifasini bajarib bermoqda.

Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi.

Kontseptsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Bugungi kunda jahondagi nufuzli oliy ta'lim muassasalari ilm-fanning yirik o'choqlari hisoblanishi hech kimga sir emas. Hozirda yangi-yangi oliy o'quv yurtlari, dunyodagi etakchi universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Misol uchun, so'nggi 5 yilda

mamlakatimizda 47 ta yangi oliy ta'lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, oliy o'quv yurtlarining soni 125 taga etdi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi asosida nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyati yo'lga qo'yilmoqda. Aholi fikrini o'rgangan holda, sirtqi va kechki ta'lim shakllari qayta tiklandi, qabul kvotalari oshirilmogda. Maktab bitiruvchilarini oliy ta'limga qamrab olish darajasi 2016 yilgi 9 foizdan 2020 yilda 25 foizga etdi.

Professor-o'qituvchilarning xorijdagi oliy ta'lim hamda ilmiy-tadqiqot maskanlarida malaka oshirishi va stajirovka o'tashini ta'minlaydigan mexanizm yaratildi. Ularning oylik ish haqi miqdori

2018 yilga nisbatan o'rtacha 2,5 barobar oshirildi. Bu yildan boshlab 10 ta oliy ta'lim muassasasi o'zini-o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazildi.

Oliy ta'limga ajratiladigan davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshirilganligi, oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ehtiyojmand oilalar qizlari uchun grantlar sonini 2 barobarga ko'paytirib, 2 mingtaga etkazilishi oliy ta'limga qamrab olish ko'lamini yanada kengaytirdi.

Ta'lim tizimidagi eng muhim yangiliklardan biri oliygohlar va ta'lim tizimining quyi bo'g'inlari o'rtasidagi uzviylikni kuchaytirish maqsadida 65 ta akademik litsey oliy o'quv yurtlari tasarrufiga o'tkazilishi, shuningdek, 187 ta texnikum ham o'z yo'nalishi bo'yicha turdosh oliygoh va tarmoq korxonalariga biriktirilishi bo'ldi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar, o'zining dolzarbligi hamda amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan aslo qolishmaydi. Chunki ushbu sohadagi islohotlarni yanada keng ko'lamda davom ettirish davr talabidir.

Axborot texnologiyalar asri deb nom olgan XXI asrda hayotning barcha jabhalarida – sanoat, qurilish, kimyo, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, mashinasozlik va boshqa sohalarda yuksak taraqqiyotni yuzaga keltirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, bu borada yangiliklar yaratish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon endilikda dunyoda taraqqiyot yo'lini tutgan barcha mamlakatlarda e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ana shu jarayonga alohida e'tibor berilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti, rahbar sifatidagi faoliyatini yurtimiz akademiklari, etakchi olimlari, umuman, ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlaganligi, yurtimizda ilm-fan rivojini ishlab chiqarish taraqqiyoti bilan uyg'unlantirishga qaratganligi bejiz emas.

Davlatimiz rahbarining shundan keyin sog'liqni saqlash tizimi faoliyatini yaxshilash, kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlikni kuchaytirish, respublikada yangi erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi" ishlab chiqilishi, Imom Termiziy xalqaro markazini tashkil qilish borasida va shu kabi boshqa ko'plab qabul qilingan qarorlari, farmonlari, farmoyishlarida ilm-fanni yuksaltirish asosiy masalalardan biri sifatida belgilanishi ham ana shu e'tiborning amaliy ifodasi edi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning yutuqlarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotga aylantirish jarayonida intellektual mulkning ishonchli himoya qilinishi alohida ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumotlarga ko'ra, intellektual mulk ulushi Evropada yalpi ichki mahsulotning 45, Xitoyda 12, Rossiyada 7 foizini tashkil etadi. 2020 yilning 12 oktyabr` kuni Prezidentimiz raisligida bo'lib o'tgan yig'ilish ham "Intellektual mulkni himoya qilish – Uchinchi uyg'onish davri uchun ishonchli poydevor bo'lib xizmat qiladi" mavzusiga bag'ishlangan edi. O'shanda davlatimiz rahbari patent egalari va tadbirkorlar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlash zarurligiga alohida e'tibor qaratdi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'ldi. Mazkur qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy printsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

Shuningdek, qonunga ko'ra, davlat oliy ta'lim, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari va ularning filiallari, davlat ishtirokidagi oliy, o'rta maxsus, professional ta'lim tashkilotlari va ularning filiallari Prezident yoki hukumat qarorlari bilan tashkil etiladigan bo'ldi. Nodavlat ta'lim muassasalarini tashkil etish ularning ta'sischilari tomonidan amalga oshirilishi belgilandi. Nodavlat ta'lim tashkilotlariga litsenziya Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan beriladigan bo'ldi.

Shunga ko'ra, mazkur Qonunning qabul qilinishi hamda amaliyotga joriy etilishi ham ta'lim sohasida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bo'ldi deyishimiz mumkin.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Namangan davlat universitetida ham izchil amalga oshirib kelinmoqda. Binobarin keyingi uch yil ichida fakul'tetlar soni 9 tadan 15 taga, mutaxassislik kafedralari soni 27 tadan 46 taga, ta'lim yo'nalishlari soni 31 tadan 52 taga, magistratura mutaxassisliklari soni esa 12 tadan 26 taga etkazildi. Bunga mos ravishda ilm istagida bo'lgan universitet talaba yoshlari soni 5100 nafardan qariyb 21000 nafarga etdi.

Professor-o'qituvchilar soni 470 nafardan 710 nafarga etdi. Universitetda 2018-2019 o'quv yiliga qadar ilmiy salohiyat 26 fizni tashkil etib, bironta ixtisoslik bo'yicha ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormagan. Keyingi yillarda ilmiy pedagog kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor qaratilib, ilmiy salohiyat 37 foizdan oshdi, ta'lim sifatini ta'minlash yo'lida bugungi kunda 12 ta ixtisoslik bo'yicha 9 ta ixtisoslashgan kengash faoliyat olib bormoqda. Albatta, bu borada 17 ta tayanch doktoranturada tahsil olayotgan doktorantlar hisobidan universitet ilmiy-pedagog kadrlari saflarini salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish maqsadi belgilab olingan.

Yaqin-yaqingacha universitet asosan pedagogik soha uchun mutaxassislar tayyorlar edi. Bugungi kunda universitetda Arxeologiya, Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish, Sotsiologiya, YUrisprudentsiya (faoliyat turlari bo'yicha), Kutubxona-axborot faoliyati (faoliyat turlari bo'yicha), Zootsiologiya: baliqchilik, Mevachilik va uzumchilik, Dorivor o'simliklarni etishtirish va qayta ishlash texnologiyasi, Sabzavotchilik, polizchilik va kartoshkachilik, Issiqxona xo'jaligini tashkil etish va yuritish,

Ijtimoiy ish (faoliyatning turli sohalari bo'yicha), Mehmonxona xo'jaligini tashkil etish va boshqarish, Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha), 2021 yildan boshlab esa Davolash ishi, Pediatriya ishi kabi yo'nalishlarda kadrlar tayyorlashni boshlaganligi oliygohimizni haqiqiy ma'noda viloyatimizning aql markaziga aylanayotganligidan dalolat beradi.

Universitet yirik ilmiy-tadqiqot markazi sifatida Namangan davlat universitetida media markaz tashkil etish, Akvakul'tura bo'yicha o'quv-amaliy trenajer tashkil etish, "Dorivor o'simliklardan shifobaxsh ichimliklar tayyorlash", shifobaxsh profilaktik sumalak ishlab chiqarish texnologiyasi, Farg'ona vodiysida tarqalgan kamyob va yo'qolib borayotgan hamda endem turlarning tirik kolleksiyasi, elektron fotoal'bomi va raqamlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasini yaratish kabi yirik xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etmoqda.

Prezidentimiz tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada hukumatimiz tomonidan berilgan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ta'lim va tarbiya jarayonida ulug' mutafakkirlarning axloq va odobga oid ilmiy merosidan foydalanishning o'ziga xos jihatlari.
2. Sharq allomalari merosida inson falsafasi masalalari.
3. Dars jarayonlarida badiiy adabiyotlardan foydalanishning ahamiyati.
4. Huquqiy ong va huquqiy madaniyat tushuichalarining mazmun-mohiyati.
5. Inson huquqlari.
6. Yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini shakllantirish, ularning huquqiy tarbiyasini rivojlantirish, qonunga itoatkorlik ruhini shakllantirish.
7. O'zbek milliy tarbiya texnologiyalari.
8. O'zbek tarbiyashunosligida vorisiylik va qadriyatlar ustivorligi.
9. Ajdodlar o'g'itlari va an'analar.
10. Zamonaviy o'zbek tarbiyashunosligida o'tmish va zamonaviylik transformatsiyasi.

ЯЗИК-КЛЮЧ К ДУШЕ НАРОДА

Абдурахмонова Мавлудахон Абдувахобовна

Учитель русского языка и литературы 17-й средней школы Байсунского района Сурхандарьинской области

Аннотация: В статье рассматриваются основные направления, сложившиеся в лингвистике в конце XX – начале XXI веков, и взаимодействие лингвокультурологии с логикой, философией, этнолингвистикой и когнитивной лингвистикой.

Ключевые слова: антропоцентрическая парадигма, лингвокультурология, концепт.

LANGUAGE IS THE KEY TO THE SOUL OF THE PEOPLE

Abstract: *The article deals with the major directions in the linguistics of the late XXth and early XXIst centuries, and the interaction of linguaculturology with logic, philosophy, ethno linguistics and cognitive linguistics.*

Key words: *anthropocentric paradigm, linguaculturology, concept.*

Лингвистика XXI века активно разрабатывает направление, в котором язык рассматривается как культурный код нации, а не просто как орудие коммуникации и познания. Фундаментальные основы такого подхода были заложены трудами В.фон Гумбольдта, А.Потебни, Ф.Боаса, Э.Сепира, Л.Вейсгербера, Б.Уорфа, Н.Толстого и других исследователей.

История каждого языка отражает историю и культуру народа – его носителя. Изучая древние корни и культурные памятники, мы узнаем, какие предметы, явления и действия были самыми важными для народа в период формирования языка на том или ином этапе развития человечества. Лексический фонд языка показывает, что реально окружает человека и составляет предмет его мыслей и забот, а также уровень культурного развития; синтаксический же строй – каким образом осуществляется мышление. Язык не только отражает действительность, но и интерпретирует ее, создавая особую реальность, в которой живет человек. Поскольку культура неотделима от закрепленной в языке картины мира, отражающей мировоззрение человека, то информация о культуре находит отражение в структуре языковых номинаций.

Как справедливо отмечает В.В.Воробьев, в качестве коррелята языка и (национальной) личности культура «должна пониматься в ее исторической ценности, традициях, новаторстве и новизне. Всесторонний учет и сохранение в

культуре важнейших ценностей и развитие в ней новых ценностей дает гарантию для адекватного понимания жизни нации как она отражается в ее языке».

С философской точки зрения культура понимается не просто как некоторая сумма идей и вещей, которые можно выделить, отделить друг от друга и описать. Весь мир человека – это мир его культуры, и проблема культуры – проблема самого человека, человеческого способа бытия, отношения к самому себе. Поэтому содержанием культуры оказывается развитие человека как социального существа, развертывание его творческих способностей, форм общения и познания. Обычно исследователи выделяют следующие функции культуры: человекотворческую, информативную, гносеологическую, коммуникативную, регулятивную, аксиологическую, сигнификативную и праксиологическую. К основным закономерностям функционирования и развития культуры относят преемственность, устойчивость в передаче культурных традиций, самобытность и уникальность, единство национального и общечеловеческого.

Вся культура пронизана антиномиями на самых различных уровнях, как социальном, так и биологическом. Исследования по лингвокультурологии часто предполагают исследование бинарных оппозиций, реализованных на материале того или иного языка (материальное и идеальное, добро и зло, душа и тело, встреча и расставание и т.п.).

Уже не вызывает сомнения, что целесообразно изучать формы естественного языка с выраженным этими формами языковым содержанием на фоне обширного социокультурного контекста.

В этой связи следует подчеркнуть, что в последнее время усилились тенденции к логическому анализу языка, включающие исследование лингвистических, логических, культурологических понятий, общих для научных теорий и обыденного сознания. Одним из результатов логического анализа языка является предварительное определение семантической модели основных мировоззренческих понятий, реализуемых в языке. Дальнейшие перспективы логического анализа языка состоят в отработке: 1) набора атрибутов, указывающих на принадлежность тому или иному концептуальному полю; 2) определений, обусловленных местом в системе ценностей; 3) указаний на функции в жизни человека .

Как свидетельствуют многочисленные исследования о языке, в современной лингвистике акцент с «объективных» данных системноструктурной парадигмы, наиболее зримо представленных в разных модификациях структурализма, сместился на субъект, который различными способами моделирует, объективирует и структурирует в языковых средствах свой «жизненный мир».

Проблема взаимоотношения языка и логики традиционно привлекала исследователей. Взаимосвязь языка и логики может быть выражена следующим образом: языковые и логические формы нельзя отделять друг от друга, логические

формы интегрированы в формах языка, в языковых формах интегрированы логические формы, в целом же язык – это интегрированный «сплав» языковых и логических форм. Так, среди философских направлений XX века, фокусирувавших внимание на данной проблеме, следует отметить аналитическую философию и так называемый «лингвистический анализ».

В отличие от логического позитивизма, аналитическая философия, которая активно развивается в 40 – 50-е годы XX века, отказывается от тезиса о взаимно-однозначном соответствии языка и действительности. Язык предстает как средство конструирования, а не отражения мира. Объектом внимания лингвистической философии становится разговорный, естественный язык, поскольку ее представители считали, что нельзя исчерпывающе выразить богатство реального языка в схемах языка идеального. Существенных результатов представители лингвистической философии добились в анализе логической структуры естественного языка и изучении его семантических возможностей.

Аналитическая философия, на первый взгляд невероятно далекая от лингвокультурологии, постулирует положения, которые становятся базовыми для формирования новой научной дисциплины, интегрирующей язык и культуру: поднимается идея о том, что нельзя более говорить о независимости языковых дистинкций и вещей, которые являются эпистемологически независимыми. «...Центральная идея так называемых языковых игр предполагает включенность языка в «речевые акты, в которых лингвистические выражения, задачи и объекты так формируют горизонт, что размывается само различие между языком и действительностью». У Л.Витгенштейна язык рассматривается как внутренне неотделимый от его использования. Язык понимается в свете языковых игр – разнообразных лингвистических контекстов, в которых язык и его использование образуют неразрывное единство.

Тесная связь логических категорий с формами языка обуславливает необходимость изучения логической структуры естественного языка, что позволяет выявить латентные семантические особенности языковых конструкций. «Только логический анализ дает возможность увидеть, вскрыть, как в объекте лингвистики – в современном языке – обнаруживает себя наше человеческое абстрактное мышление». Таким образом, взаимоотношения языка и логики имеют фундаментальное значение как для развития языкознания в целом, так и лингвокультурологии в частности.

При этом для современного уровня лингвистических исследований уже недостаточно выявления и описания отдельных характеристик языковой системы без учета своеобразных национально-языковых «матриц», по которым оформляются и эксплицируются рассматриваемые характеристики.

Язык в современных исследованиях предстает как уникальное по своей сложности и многомерности явление, это одновременно нечто жестко

структурированное и ломающее такую структуру, а также процесс, деятельность и ее результат; это сплав социального и индивидуального, универсального и лингвоспецифического, нормы и отклонения от нормы; это объективация и оболочка мышления и то, что в значительной мере детерминирует само мышление. Язык рассматривается как ключ к культуре всего человечества и ключ к культурам отдельных этносов.

Концептуальная направленность современной лингвистики, вновь актуализировавшая ведущую роль связи языка с мышлением при анализе стратегий и механизмов номинации и речи, способствовала прежде всего ее обращению к человеку как к субъекту наименования и коммуникации, а также носителю когниции. Когниция определяется как «совокупность психических процессов восприятия мира, простого наблюдения за окружающим, категоризации, мышления, служащих обработке и переработке информации, поступающей человеку либо извне по разным чувственноперцептуальным каналам, либо уже интериоризированной и реинтерпретируемой человеком». Когниция выступает как способность человека к осознанию окружающей действительности и самого себя и построению концептуальной картины мира.

Natijada, ushbu tadqiqot investorlar tomonidan investitsion fondlarni tanlashda qanday mezonlardan foydalanish kerakligini tahlil qildi. Investitsiya fondlari investorlari boshqa muhim omillarni hisobga olmaganda, o'tgan natijalarga eng ko'p e'tibor berishadi. Bu, masalan, o'zaro fondlar, boshqaruv masalalari yoki o'zaro fondlarning faol ulushi bilan bog'liq xarajatlar. Xarajatlar va to'lovlarni kamligini baholash qiziqish uyg'otadi. Chunki bu xarajatlar investorlarning daromadlariga bevosita salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'zaro fondlarni, ayniqsa, chakana investorlarni tanlashda boshqaruv mezonlari ahamiyatsiz bo'lib chiqadi, bu esa ushbu mezonlarning ahamiyatini tushunmasligidan dalolat beradi. Shunga qaramay, so'nggi janjallar chakana investorlar orasida ham ushbu mezonlarga nisbatan xabardorlikni oshiradi. Yevropada o'zaro fondlarning aksariyati banklar orqali taqsimlanadi, shuning uchun banklar bilan bog'liq mablag'lar banklar bilan bog'liq bo'lmaganlarga nisbatan ancha zaif natijalar oqimini ko'rsatadi. Yana bir haqiqat shundaki, Evropada investitsiya fondlari ko'pincha banklar bilan bog'liq bo'lmagan investitsion fondlarga qaraganda qimmatroq. Yuqoridagi modellar ayrim investorlar o'zaro fondlarning asosiy funksiyalarini tushunishmaydi va faqat bankirlarning maslahatiga amal qilishadi. Bundan tashqari, ayniqsa, mukammal ishlash manbalariga nisbatan ko'plab tadqiqotlar o'tkazish kerak. Buning sababi, adabiyotda odatda boshqa jihatlarni qo'shmasdan "faqat" kichik jihatni aks ettiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.A.Mamatov Investitsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish.Toshkent-2007.[1]
- 2.Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boshqarish.qo'llanma.[2]
- 3.M S.Qosimov Investitsiya loyihalarini tahlili Toshkent-2011[3]
- 4.www.ziyonet.uz.[4]
- 5.www.liblary.uz[5]
- 6.Иголина И.И «Инвестиции» Учебник. 2-изд. М.: Магистр 2008[6]

7. Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие КНОРУС М.: 2009. 258-450 стр.[7]

8. Джеральд Аппель «Эффективность инвестиции» СПб.: Питер 209 стр.[8]

9. Кольмыкова Т.С «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М.: ИНФРА-М 2009. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова[9]

10. Кравченко Н.А. Инвестиционный анализ Изд. «ДЕЛО» М.: 2007 стр. 219-233[10]

11. Сухарев О.С., Шманов С.В., Курьянов А.М. «Экономическая оценка инвестиций» М.: Альфа-пресс. 2008 стр. 9-137[11]

RIVOJLANGAN MAMLAKATLADA INVESTORLAR UCHUN SOLIQ IMTIYOZLARI

Shodmonov Davron Mamatmurod o'g'li

Toshkent davlat yuridikuniversiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada dunyo mamlakatlarida chet ellik investorlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, harakatlar va soliqlar imtiyozlari haqida, undagi kamchiliklar va rivojlanish istiqbollari va kelajakdagi ushbu soha bo'yicha rejaları haqida izchil tahlil qilingan. Ushbu chet el mamlakatlarining investorlarga yaratilgan soliq imtiyozlari bo'yicha imtiyozlarini biz rivojlangan mamlakatlar misolida tahlil qilindi. Soliq imtiyozlarini rivojlangan mamlakatlar hisoblangan Buyuk Britaniya va Yaponiya misolida tahlil qildik. Ushbu tahlil davomida ushbu davlatlardagi kamchiliklarga va ularning yutuqlarini izchillik bilan tahlil qilindi, bu yutuqlarning sababi, harakatlari turli ma'lumotlar va statistik jadvallar ochib berilgan va shu bilan bir qatorda ushbu mamlakatlarning soliq imtiyozchilik yutuqlarini esa O'zbekiston respublikasida joriy qilish va o'zlashtirish masalalari ham ko'rib chiqildi. Keltirilgan mavzuni o'rganish va tahlil qilish mobaynida esa chet el olimlarining fikrlari, chet el qonunchiligi, maqolalar va keng foydalanildi. Shuningdek, mavzuni to'liq ochib berish uchun boshqa manbalardan ham havolalar keltirilgan. Maqolada chet el sarmoyadorlari uchun turli yengilliklar yaratish imkoniyatlari, soliq imtiyozlarini yaratish va soliq imtiyozlariga ixtisoslashtirilgan erkin iqtisodiy zonalar haqida ham o'rganilgan va ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Mavzuni ochib berish davomida faqatgina yutuq va kamchiliklarga to'xtalmasdan davlatlarning kelajakdagi reja va maqsadlari ham o'rganilgan.

Annotation: *This article provides a coherent analysis of the opportunities, actions and tax incentives created for foreign investors in the countries of the world, its shortcomings and development prospects, and future plans in this field. Tax incentives of these foreign countries for investors were analyzed on the example of our developed countries. We have analyzed the tax benefits in the case of Great Britain and Japan, which are considered developed countries. During this analysis, the shortcomings of these countries and their achievements were consistently analyzed, the reasons for these achievements, the actions of various data and statistical tables were disclosed, and at the same time, the issues of introducing and absorbing the achievements of these countries in the Republic of Uzbekistan were also considered. During the study and analysis of the cited topic, the opinions of foreign scientists, foreign legislation, articles were widely used. References from other sources are also provided to cover the subject in more detail. The article also explores and provides information on the possibilities of creating various reliefs for foreign investors, creation of tax incentives and free economic zones specialized in tax incentives.*

During the presentation of the topic, the future plans and goals of the countries were also studied, not only on achievements and shortcomings.

Абстрактный : *В данной статье проводится последовательный анализ возможностей, действий и налоговых льгот, созданных для иностранных инвесторов в странах мира, его недостатков и перспектив развития, а также планов на будущее в этой области. На примере наших развитых стран были проанализированы налоговые льготы этих зарубежных стран для инвесторов. Мы проанализировали налоговые льготы в случае Великобритании и Японии, которые считаются развитыми странами. В ходе этого анализа были последовательно проанализированы недостатки этих стран и их достижения, раскрыты причины этих достижений, действия различных данных и статистических таблиц, и в то же время вопросы внедрения и усвоения достижений этих стран. В Республике Узбекистан. При изучении и анализе цитируемой темы широко использовались мнения зарубежных ученых, зарубежное законодательство, статьи. Также приводятся ссылки из других источников для более подробного освещения темы. В статье также исследуются и даются сведения о возможностях создания различных льгот для иностранных инвесторов, создания налоговых льгот и свободных экономических зон, специализирующихся на налоговых льготах.*

В ходе презентации темы также были изучены дальнейшие планы и цели стран, не только по достижениям и недостаткам.

Kalit soʻzlar: *solliq imtiyozlari , SEIS, JETRO, KOʻK, erkin iqtisodiy zona, NISA, investitsiya, logistika, axborot va kommunikatsiya.*

Keywords: *tax benefits, SEIS, JETRO, SME, free economic zone, NISA, investment, logistics, information and communication.*

Ключевые слова: *налоговые льготы, SEIS, JETRO, МСП, свободная экономическая зона, NISA, инвестиции, логистика, информация и коммуникации.*

Har bir davlatda soliqlar mavjud bu soliqlar mamlakatni moliyalashtirish, rivojlantirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va boshqa turli xil maqsadlarda ishlatiladi. Har bir mamlakatda koʻplab solliq turlari mavjud. Bu soliqlar fuqarolarning qaysi sohada faoliyat yuritishi, uning maqomidan kelib chiqib undiriladi. Solliqlarni undirishda davlatlar baʼzi bir qiyinchiliklarga duch keladilar. **Birinchidan**, barcha ishlaydigan fuqarolar ham rasmiy ishda ishlamasdan, oylik maoshini ogʻzaki asosda kelishib olishadi va bu orqali daromad soligʻini toʻlashmaydi. Baʼzi korxonalarda esa **“qora hujjatlar”** yuritilib, unda oylik ish haqlari amaldagi berilayotgan summadan kam koʻrsatilib, soliqlardan qochiladi. **Ikkinchidan**, mamlakat boʻylab turli xil noqonuniy va davlat roʻyxatidan oʻtmagan korxonalar va tashkilotlar mavjud boʻlib, ular solliq toʻlamasdan daromad olishadi va bu orqali juda koʻp davlatga berilishi kerak boʻlgan summalar toʻlanmasdan qoladi. Baʼzi hollarda esa

fuqarolar rasmiy davlatga soliq to'laydigan katta do'konlar va bozorlarga bormasdan kichik va norasmiy do'konlardan savdo qilishadi va bu esa davlatning soliq siyosatiga putur yetkazadi, buning natijasida tadbirkor har bir sotgan mahsulotidan ko'proq foyda ko'radi. Fuqarolarga esa shaxsan buning yomon joyi yo'q ammo, bu soliq pullari davlat tomonidan ularning ijtimoiy ta'minoti va iqtisodiy rivojlanishiga sarflanishi haqida o'ylab ham ko'rishmaydi va hattoki bu rasmiy bozorlardan olingan narsalardan ularga soliq bonuslari haqida ham o'ylashmaydi. **Uchinchi**dan, davlat o'zining iqtisodiyoti va siyosatini yuksaltirish maqsadida chet ellik investorlarga turli xil soliq imtiyozlari beradi va bojxona to'lovlaridan ozod qiladi. Investorlar uchun soliq imtiyozlari borasida ham turli dunyoqarash va fikrlash mavjud. Ba'zi iqtisodchilar bu kabi harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi va bu kabi harakatlar davlat iqtisodi va rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonishadi. Bunda ular chet ellik tadbirkorlarga soliqlar kamaytiradi va amaliy yordamlar ko'rsatish yo'llari bilan ularni jalb qilishga harakat qiladilar. Ammo bu kabi harakatlar doimo natija beravermagan. Bundan tashqari ko'pgina fikrlarga ko'ra, asosan soliq imtiyozlari investorlarni jalb qilish uchun yagona yo'l emas, sarmoyadorlar sarmoya kiritayotgan davlatining boshqa ko'plab omillariga jumladan, iqtisodiyoti, siyosiy barqarorlik yoki demokratik shaffoflik, logistika jihatdan joylashuv va aholiga qarab ham baholashadi. Shu sababdan, soliq joriy etilishining o'zigina sarmoyadorlarni jalb qilmasligi ham mumkin[1]. Agarda ma'lum bir davlat hududida chet ellik shaxslar uchun soliqlar baland bo'lishi va imtiyozlar mavjud bo'lmasligi va bu holat esa soliqlardan qochish uchun qonun buzilishlar holatlari kuzatilishi ehtimollari ham mavjud. Buning oldini olish uchun soliqlarning kamaytirish yoki ba'zi imtiyozlarni berish bu kabi qonun buzilishlarning oldini olishga yordam bergan bo'lardi. Ammo soliq imtiyozlarining mavjudligi ham ba'zi hollarda investitsiyalarning oqimini ko'paytirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Endigi navbatda, biz investorlar uchun qulay soliq tizimi va foydali shart-sharoitlar yaratgan mamalakatlarni tahliliy muhokama qilamiz.

Hozirgi kunda dunyo mamlakatlari o'z iqtisodiyoti va ijtimoiy salohiyati oshirish maqsadida chet ellik investorlarga turli xil soliq va harakat imtiyozlarini joriy qiladi. Bu harakatlar esa mamlakatning biznes va ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi. Hozirgi kunda dunyo mamalkatlari ichida buyuk Britaniya o'z hududida biznes sohasi va davlatga investorlarni jalb qilish uchun katta harakatlar amalga oshirmoqda va shu sababli hozirgi kunda biznes olib borish uchun juda qulay mamlakatlardan biriga aylanib turibdi.

Britaniya o'z hududida investorlar uchun qulay imtiyozlar sharoitlarini yaratgan. Bu sharoitlar asosida investorlar oqimi ham kengaygan. Bundan yuqori sarmoyadorlarning oqimiga mamlakatdagi yuqori demokratik erkinliklar, yaxshi siyosiy vaziyat, qulay logistik imkoniyatlarni misol qilsak bo'ladi. Chunki yuqorida aytib o'tganimizdek investorlar uchun faqatgina soliq imtiyozlari muhim emas balki, ushbu davlatning siyosiy tuzumi, joylashgan hududi va boshqa imkoniyatlariga ham e'tibor beriladi. Investorlar investitsiya kiritayotgan mamlakatdagi biznes faoliyatining kafolatiga, ertangi kunining ishonchligiga qarab pul tikishadi. Shu sababli davlatlar soliq imtiyozlariga va investitsiyaning kafolatini

ta'minlashga harakat qiladi. Chunki, investitsiya shu mamlakat kelajagining rivoji va fuqarolarining farovonligi uchun amal qiladi.

Hozirgi kunda Britaniyada investorlar uchun asosan investorlar foyda olishi mumkin bo'lgan ikki xil sxemalar mavjud; Enterprise [EIS- korxonalar investitsiya tizimi] va Seed Enterprise Investment Scheme [SEIS- urug'lik korxonalarining investitsiya tizimi].

Korxonalar investitsiya tizimi[EIS]

Ushbu tizim Britaniyada 1994-yilda tashkil qilingan bu soliq tizimi yangi tashkil qilingan va korxonalar va kompaniyalarni qo'llab quvvatlash va amaliy yordam ko'rsatish kabi asosiy maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Ushbu tizimga ko'ra, investitsiya kiritgan sarmoyador birinchi yildanoq daromad solig'ining aksiyalar qiymatiga binoan 30 foiz miqdorida soliqlardan yengilliklar ega bo'lgan [2]. IES lar investorlar uchun birinchi yilgi investitsiyalari uchun 30 foizgacha berilgan imtiyozlari o'z davri uchun juda katta imtiyoz hisoblangan. Agarda ushbu holatda investorlar 1 million funt sterling miqdorida investitsiya kiritadigan bo'lsalar, ushbu holatda kompaniya yuqori texnologiya va yuqori bilim talab qilinadigan kompaniya bo'lsa, yuqoridagi 30 foizlik soliq imtiyozlari yarim baravargacha ko'tarilishi ham mumkin, bu qoida esa katta miqdordagi investitsiyalar va yuqori texnologik kompaniyalarni Britaniya bozoriga kirishi qulay va daromadli sohaga aylantirdi.

Korxonalar investitsiyalari sxemasi va Urug'lik kompaniyalarining investitsiya tizimi va ijtimoiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlari to'g'risidagi 2018 yil may oyida tuzilgan investitsiya mablag'larini qo'lga kiritgan sohalar haqida statistika va tahliliy ma'lumotlar keltirilib o'tilgan.


Korxonalar investitsiyalari sxemasi

- **EIS tatbiq qilingan 1994-yildan beri 2016-2017-yilga qadar 27 905 ta korxonalar chet el sarmoyasini olgan va bu mablag'lar 18 milliard funt qilgan;**
- **2016-2017-yillarga kelib esa 3 470 ta korxonalar sarmoyalarga ega chiqqan va kiritilgan mablag'larning jami 1.797 milliard funt sterlingga yetadi;**
- **2015-2016 yillarda esa 3545 ta kompaniya 1.954 milliard funt sterling mablag'larni o'z rivoji hisobida qabul qilgan;**
- **2016-17 yillarda axborot va kommunikatsiya sohasidagi kompaniyalar EIS tizimi bo'yicha 669 million funt sterling miqdorida investitsiyani o'zlashtirgan va bu ko'rsatkichlar ushbu yildagi sarmoyalarning 37 foizini o'z ichiga oladi [3].**


Bu davrdagi tashkil qilingan korxonalarining 67 foizi London va Janubi-Sharqiy hududlarda tashkil qilingan. Bundan ko'rinadiki ushbu hududlar biznes qilish uchun qulay va shu sababli investorlarni shu hududlar ko'proq jalb qilgan. Yuqorida berilgan hisobotga EIS ishga tushgan davrdan boshlab yangi tashkil qilingan korxonalar deyarli 28 mingtani tashkil qilganligini kuzatishimiz mumkin. Bu raqamlar juda katta raqamlardir va birgina shu raqamlarga tayanib EIS orqali ko'plab korxonalar tashkil topgani, mamlakat iqtisodiyotiga katta hissa qo'shilganligini bilib olishimiz mumkin.

Quyidagi beriladigan a jadvalga ko'ra 1994-1994-yildan 2016-2017-yilgacha EIS tizimi bo'yicha qabul qilingan sarmoya miqdorlarini ko'rishimiz mumkin

Keltirilgan raqamlar funt sterling miqdorida keltirilgan.



Endigi beriladigan b jadvalga ko'ra, 1993-1994-yildan 2016-2017-yillar oralig'idagi har yilgi sarmoya kiritilgan korxonalar raqami keltirilgan.



Yuqoridagi berilgan grafiklarga ko'ra, EIS tizimi davlat iqtisodiga katta hissa qo'shgan. Natijalar 2010 yildan boshlab muttasil ko'tarilib borgan. 2016-2017-yillada investitsiyalar miqdori biroz pastlagan bo'lishiga qaramasdan, natijalar iqtisodiy o'sishni ta'minlab bera olishini ko'rishimiz mumkin.

Britaniya soliq imtiyozlari tizimida yana bir tizim bo'lib, u ham o'ziga xos afzalliklarga ega. **Seed Enterprise Investment Scheme, yoki SEIS tizimi ham mavjud bo'lib, u 2012-yilda hukumat tomonidan Britaniyada soliq to'laydigan subyektlar uchun dastlabki bosqichda tashkil qilingan korxonalariga sarmoya kiritish uchun rag'bat sifatida tashkil qilingan [4].** SEIS o'zining tarkibiga soliq imtiyozlari, kompaniya aksiyalariga ega chiqish, soliqlarni to'lashni bir yil oldinga yoki bir yil keyinga to'lash va boshqa imtiyozlarni qamrab oladi. SEIS EIS ga qaraganda kattaroq kompaniyalarni o'z ichiga oladi. EIS soliq tizimi ham

yangi korxonalarni qo'llab quvvatlashga qaratilgan va imtiyozlari EIS ga qaraganda nisbatan ko'proq. SEISga munosib bo'lish uchun investorlar individual ravishga tegishli organga murojaat qilishi va agarda osha kompaniya loyiq deb topilsa unga SEIS imtiyozlari beriladi, agarda unga loyiq deb topilmasa investorlar imtiyozsiz qolishlari mumkin.

SEISga ega chiqish uchun quyida bir qancha davlat tomonidan qo'yilgan talablar keltirilgan.

- Korxonalar yoki kompaniyalar ishchilari 25 tadan ko'p bo'lmasligi;
- Kompaniya yoki korxonaning yalpi aktivlarining miqdori 200 000 funt sterling ortiq bo'lmasligi;
- Korxonalar yoki kompaniyalar SEIS bo'yicha 150 000 mingdan ko'p sarmoya olmagan bo'lishligi lozim bo'lgan [5].

Investorlarning soliq imtiyozlari 50 foizgacha yetishi mumkin. Bu degani agarda siz SEIS bo'yicha 100 ming funt sterling sarmoya qilgan bo'lsangiz 50 ming funt imtiyoz olishingiz mumkin degani, agarda siz qayta investitsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirsangiz 50 foizlik imtiyozga 14 foizlik imtiyoz qo'shiladi va natijada sizning soliq imtiyozlaringiz 64 foizli natijaga yetadi. Bu qoida esa sarmoyadorlarni bitta sarmoya bilan cheklanmasdan va qayta sarmoya kiritishga undaydi va rivojlanishni ham ta'minlaydi.

SEIS bo'yicha investorlarga ham ba'zi cheklovlar o'rnatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat;

- Siz sarmoya kiritgan korxonaga 100 ming funt sterlingdan ortiq sarmoya kiritishingiz mumkin emas;
- Siz o'zingiz sarmoya kiritgan kompaniyaga xodim, ta'sischisi, menedjer va boshqa holatlar bilan aloqador bo'la olmaysiz;
- Siz investitsiya kiritgan korxonangizning faqatgina 30 foizlik ulushiga ega chiqishingiz mumkin;
- Kompaniya aktivlariga faqatgina 3 yilgacha o'zingizda saqlab qolishingiz mumkin.


Yuqorida keltirilgan ba'zi cheklovlar investorlar uchun cheklov sifatida qabul qilinishi mumkin ammo, bu kabi cheklovlar davlatning o'z bozorini himoya qilish, kompaniya boshqaruvini mahalliy lashtirishni tezlashtirish uchun qilingan to'g'ri va oqilona harakatlardir.

2016-2017-yillarda SEIS tizimi orqali 2260 ta korxonalar moliyalashtirgan. Tizim orqali 175 million funt sterling miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilgan. Ammo ushbu natijalar 2015-2016-yillardagi natijalardan biroz past hisoblanadi. Ushbu yillarda 2405 korxonalar jami hisobda 182 million funt sterling mablag' yig'gan. Bu mablag' va natijalar kelgusida yuqorilashi ehtimoli katta chunki rivojlanishlar davomiy tarzda amalga oshirilmoqda [6]. 2016-2017-yillarda ushbu kompaniyalarning ichidan 1700 dan ko'prog'i ilk marotaba SEIS tizimi bo'yicha daromad oldi, buning natijasida esa kompaniyalar 148 million funt sarmoya olishdi. Sarmoyalar asosan London va Janubi-Sharqiy hududlarga to'g'ri keladi, 2016-2017-yillardagi investitsiyalarning 63 foizini ushbu hududlardagi kompaniyalar

olgan. Investitsiyalarning asosiy 1ismi **axborot va kommunikatsiya** texnologiyalariga yo'naltirilmoqda. Birgina 2016-2017-yillard SEIS bo'yicha sarmoyalarning 39%i ushbu sohaga yo'naltirilgan, bu raqamlar esa 68 million funtni tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda 2016-2017-yillarda qaysi sohaga sarmoyalar kiritilganligi keltirilib qo'yilgan:

Yuqoridagi berilgan grafikga binoan, SEIS tizimi bo'yicha ham EIS tizimidagi kabi



axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga kiritiladigan sarmoyalarning miqdori boshqa sohalarga nisbatan ko'proq hisoblanadi.

O'zbekistonda ham chet el investorlari uchun turli imtiyozlar belgilangan. Misol uchun, To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi prezident farmoniga ko'ra;

- 300 ming AQSh dollaridan 3 milliongacha bo'lgan summaga 3 yil muddatgacha;
- 3 million AQSh dollardan ortiq va 10 milliongacha bo'lgan summaga 5 yil muddatgacha;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lgan summalar va esa 7 yil muddatgacha soliq imtiyozlari berilishi belgilangan [7].

Ammo, O'zbekiston qonunchiligiga binoan Buyuk Britaniyadagi kabi imtiyozli soliq tizimlari mavjud emas, iqtisodiy holatlar ham qoniqarli darajada ham emas. O'zbekiston agarda Britaniyaning tajribasi qo'llasa, bu albatta juda yaxshi natija berishi mumkin. Agarda chet el sarmoyasi uchun aniq tartibdagi va aniq belgilangan soliq imtiyozlari aniq ishlab chiqilsa va turli dasturlar tatbiq qilinsa, investitsiya oqimlarini yanada takomillashtira olishi mumkin.

Dunyo davlatlari doirasida investorlarga yaratilgan imtiyozlar bo'yicha Osiyo davlatlari ham ancha qulay bo'lgan soliq imtiyozlarini taklif qilishadi. Bunday davlatlardan biri rivojlangan, dunyoning uchinchi iqtisodi hisoblangan Yaponiyadir. Yaponiyada

yaratilgan sarmoyalar uchun qulay takliflar va imtiyozlar, ilg'or texnologiyalarni qo'llab quvvatlash, ularga katta mablag'lar ajratish, yaxshi tashkil qilingan soliq siyosati, demokratik jamiyat va korrupsiya darajasining pastligi, 130 millionga yaqin iste'molchilar, qulay logistik joylashuv investorlarni Yaponiya bozoriga kirishga undaydi.

Yaponiya iqtisodiyoti ancha yillardan buyon barqaror rivojlanish tendensiyasi va ega **Jahon bankining 2021-yilgi ma'lumotlarigako'ra** Yaponiya 5 trillion AQSh dollarlik YAIMga ega va bu dunyo bo'yicha AQSh va Xitoydan keyingi natijadir [8]. Yaponiyaning 2017-yildagi tashqi to'g'ridan to'g'ri sarmoyalari 10 milliard dollarni tashkil qilgan. Bu natija YAIMga va boshqa davlatlarga nisbatan ancha sust harakatlarning omili hisoblanadi. Hattoki BMT Yaponiyani 2017-yilga eng ko'p sarmoya kiritiladigan davlatlar 20 qatoridan ham chiqarib yubordi. Bu holatlar sarmoya kiritilishiga nisbatan e'tiborning kamayishi va qonunchilikdagi imtiyozlarning kamligi bilan izohlanadi. 2007-2008-yillarda Yaponiya rekord darajadagi investitsiyalarni qabul qilib oldi ammo, 2008-yildagi inqirozdan so'ng esa investitsiya miqdori sezilarli darajada kamaydi. **Yaponiyada faoliyat olib borayotgan kompaniyalar turli to'siqlarga ham duch kelishadi. Ularning fikriga ko'ra, biznes uchun bo'lgan yuqori harajatlar, qat'iy litsenziyalash tartibi, yuqori soliq stavkalari va tartibga solish tizimlari og'irligidan aziyat chekishadi. Qo'shimchasiga madaniyat umuman boshqaligi va tilning og'irligi ham ularga qiyinchiliklar tug'diradi [9].** Ushbu belgilar esa sarmoyadorlarning harakatlarini cheklaydigan va qiyinchilik tug'diradigan omillardir. Ushbu harakatlardan so'ng Yaponiya iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga kirishdi, investitsiyalarni qo'llab quvvatlash uchun harakatlarni amalga oshirdi. Ushbu harakatlardan so'ng 2018-yilning o'zidayoqyillik iqtisodiyot miqdori 6 trillion dollardan oshdi. Ushbu raqamlar orasida albatta investitsiyalar ham katta rol o'ynaydi.

JETRO tashkiloti Yaponiyaning tashqi savdo tashkiloti hisoblanib, Yaponiyaga investitsiya kiritish va olib kelish bilan ham shug'ullanadi. Bu tashkilot Amerika va Yevropa davlatlarida Yaponiyadagi imkoniyatlar va investorlarga beriladigan imkoniyat va imtiyozlarni tanishtiradi va investitsiyalarni jalb etishga mas'uldir. Yaponiyada iqtisodining asosiy qismini **KO'K(kichik va o'rta korxonalar)**lartashkilot etadi. Ular Yaponiya bo'ylab 3,5 milliontani tashkil etib, umumiy kompaniyalarning 99,7 foizini tashkil etadi. Ushbu korxonalarga sarmoya kiritish usuli ham qulay tashkillashtirilgan va imtiyozlarga ega. **KO'Kning ishlab chiqarishi uchun sarmoya kiritayotgan kompaniyalar ma'lum toifadagi texnika vositalari va vositalarini sotib olishi uchun imtiyozlar beriladi. Ular 30 foizlik amortizatsiya stavkasi yoki 7 foizlik soliq krediti, korporativ soliq majburiyatlarining 20 foizigacha bo'lgan miqdordagi soliqlardan ozod bo'lishi mumkin [10].** Yuqoridagi imtiyozlar esa sarmoyadorlarni KO'Klarga sarmoya kiritishni qulay qiladi va korxonalarining texnik jihatdan yangilanishiga ham olib keladi. Yaponiya ilg'or texnologiyalarni ham qo'llabquvvatlaydi. Yaponiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha soliq imtiyozlari rejimi esa kompaniyaning korporativ solig'ini 6-14% gacha kamaytirishga imkon beradi [11]. Bu kabi imkoniyatlar ham investorlarni o'ziga jalb etadi. Shu sababli

ham Yaponiyada ilg'or texnologiyalar bo'yicha yangiliklar ko'p amalga oshiriladi va qo'llab quvvatlanadi.

Yaponiyaning investorlarga yaratilgan afzalliklaridan biri bu **erkin iqtisodiy zonalaridir**. Shu kabi hududlar Yaponiyada 22 ta bo'lib, ular aeroportlar, vokzallar va portlar oldida joylashgan bo'lib, mahsulotni tashish, olib kelish, eksport qilish uchun qulay hududlarda tashkil qilingan. Bu zonalar turli ishlab chiqaril bosqichlari uchun imtiyozlar mavjud jumladan tashqi investorlar uchun quyidagi imtiyozlar mavjuddir;

• **Yaponiyaning erkin iqtisodiy zonalariga qo'shilgan investorlar ishlab chiqarishdagi import qilinadigan maxsulotlari va reeksport qilinadigan tovarlar uchun tariflar o'ng 100 foizigacha va shu bilan birga ichki iste'mol soliqlaridan 100 foizigacha**

• **Omonatga iqtisodiy zonasida faoliyat yuritadigan kompaniyalar uchun esa olinadigan daromad solig'ining 30 foizi 10 yillik muddatga korporativ soliqlardan ozod qilinadi [12] .**

Bundan tashqari qo'shimcha bir qancha imtiyozlar ham mavjud. Jumladan, past foiz miqdordagi kreditlar, ko'chmas mulk sotib olish va mulk solig'idan ozod bo'lish va boshqa davlat mablag'lari hisobidan turli xil imtiyozlarga ega chiqish kabi imtiyozlardir. Bu kabi imtiyozlar sanoat zonalariga chet el sarmoyalarini va tadbirkorlarini jalb etishini tezlashtiradi va iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelajakdagi rejalar.

Yaponiyada **NISA**(NISA Nippon Individual Savings Account) soliq tizimi mavjud bo'lib, Yaponiya moliya institutlarida xorijiy investitsiyalarni 2042-yilgacha olingan daromadlaridan undiriladigan soliqlardan ozod qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek Yaponiya bosh vaziri Kishida 2022-yildagi NewYork fond birjasida so'zga chiqdi va unda mamlakatga investorlarni jalb qilish va bunda NewYork fond birjasi muhim rol o'ynashi haqida so'z yuritdi. Uning ta'kidlashicha kelajakda Kishida shuningdek, Yaponiya boshlang'ich biznes uchun muhitni yaxshilash uchun soliq imtiyozlarini kengaytirishini aytdi [13] . Bu esa yangi tashkil etilayotgan KO'klar va kompaniyalar uchun sarmoya kiritishni yanada qulaylashtiradi.

Chet el investorlarini jalb qilish va ularning sarmoyalarini o'zlashtirish sohasidagi Yaponiyaning tajribasini O'zbekistonda ham joriy qilish mamlakatning iqtisodiyotiga juda katta ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Yaponiyadagi kabi tashqi savdo tashkiloti JETRO kabi tuzilma tashkil qilish va shu tashkilot investitsiya makonlarini topilish va investorlarni jalb qilish sohasida harakatlari olib borilishi O'zbekistonda ham katta natija berishi mumkin. Sanoat zonalarini ko'paytirish va tashkil qilish ulardagi soliq, logistika qonunchilik sohasini ham takomillashtirish va unda Yaponiya tajribasini o'zlashtirish ham davlatimizga ancha foyda bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida, ushbu maqolada chet el mamlakatlarida investorlar uchun yaratilgan soliq imtiyozlari haqida muhokama qilingan. Soliq imtiyozlari nima, uning maqsadi, vazifalari haqida so'z yuritilgan. Soliq imtiyozlariga bog'liq masalalar, soliq imtiyozlarini

rivojiga hissa qo'shadigan olmillar muhokama qilingan. Soliq imtiyozlarini hozirgi kundagi tendensiyasi, tariflarini Buyuk Britaniya va Yaponiyaning investorlar uchun yaratilgan soliq tizimlarini o'rganish orqali tahlil qilingan. Ushbu maqola ma'lumot va mutaxassislarining fikri va dalillariga asoslangan va maqola o'z sohasida o'ziga xos muhim jihatlarga ega. **Birinchi**dan, maqolada investorlarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari bilan bir qatorda rivojlantirilishi lozim bo'lgan soha va harakatlar haqida muhokama qilingan, ushbu harakatlarni amalga oshirish orqali soliq imtiyozlari yanada foydaliroq bo'lishi, sarmoyadorlar uchun yanada foydali bo'lishi haqida tahlil qilingan. **Ikkinchi**dan, tegishli davlatlardagi soliq tariflari va investorlarga berilgan imtiyozlar, ularning amal qilish muddatlari, darajalari, foydali va salbiy tomonlari muhokama qilingan. Erkin iqtisodiy zonalar va ularning qulayligi va undagi imkoniyatlar ham muhokama qilingan. **Uchinchi**dan, yuqorida keltirilgan soliq imtiyozlarini g istiqbollari va kelajagi, tegishli davlatlarning kelajakdagi rejaları shuningdek, chet el tajribasini O'zbekistonda ham joriy qilish o'zlashtirish masalalari ham keng miqyosda tahlil qilingan. Ushbu maqola chet ellik investorlarga yaratilgan soliq imtiyozlari va ularni qilish, ushbu sohani rivojlantirish uchun katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. International Monetary Found. Tax Policy for Developing Countries. Vito Tanzi, Howell Zee. © 2001 International Monetary Fund. March 2001
Available at: <https://www.imf.org/external/pubs/ft/issues/issues27/>
2. **GCV .What tax reliefs area available when investing in UK startups?** Craig Peterson . 9 Oct 2018 · 4 min read · Updated on 31 Aug 2022
Available at : <https://www.growthcapitalventures.co.uk/insights/blog/what-tax-reliefs-are-available-when-investing-in-uk-startups>
3. Seed Enterprise Investment. Scheme And Social Investment Tax Relief. May 2018. Statistics on Companies raising funds
Available at : https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/710986/May_2018_Commentary_EIS_SEIS_SITR_National_Statistics.pdf
4. ANGELS DEN. Seed Enterprise Investment Scheme (SEIS) Tax Relief
Available at: <https://www.angelsden.com/seis-tax-relief/>
5. ALGELS DEN. Seed Enterprise Investment Scheme (SEIS) Tax Relief
Available at: <https://www.angelsden.com/seis-tax-relief/>
6. Seed Enterprise Investment . Scheme And Social Investment Tax Relief. May 2018. Statistics on Companies raising funds

Available at :
https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/710986/May_2018_Commentary_EIS_SEIS_SITR_National_Statistics.pdf

7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTININGFARMONI. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XUSUSIY XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI RAG‘BATLANTIRISH BORASIDAGI QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA qonunchilik milliy bazasi:
<https://lex.uz/docs/-555778>

8. THE WORLD BANK. All Countries and Economies
Available at :
https://data.worldbank.org/indicator/Ny.Gdp.Mktp.Cd?most_recent_value_desc=true

9. Investing in Japan. ByShinyaTagoandYuukiMutou, IwataGodoLaw Office (First Law International Board Member Firm) .Law state dasat 01 Feb 2019 • Japan
Available at : [https://content.next.westlaw.com/practical-law/document/Ic736bc47ad2311e498db8b09b4f043e0/Investing-in-Japan?viewType=FullText&transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&firstPage=true](https://content.next.westlaw.com/practical-law/document/Ic736bc47ad2311e498db8b09b4f043e0/Investing-in-Japan?viewType=FullText&transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&firstPage=true)

10. Start Your Business In Europe. Japanforeign Investment incentives
Available at: <https://www.worldwide-tax.com/japan/japan-investment.asp>

11. Building better working world.BrayanSmit. How jurisdictions in Asia-Pacific invite businesses from around theworld
Availableat: https://www.ey.com/en_gl/tax/how-jurisdictions-in-asia-pacific-invite-businesses-from-around-the-world

12. Healthy consultants. Global business setup experts
Available at:<https://www.healyconsultants.com/japan-company-registration/free-zones/>

13. The Manichi. PM Kishida pitches Japan’s permanent investment tax break at N.Y. bourse. September 23, 2022 (MainichiJapan)
Available at:
<https://mainichi.jp/english/articles/20220923/p2g/00m/0bu/011000c>

XALQARO SUD ISHLARIDA MUSTAQILLIK VA HOLISLIK

Yoqubov Jasurbek Salimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya: *Odil sudlovga bo'lgan huquqning elementlari sifatida qaraladi, sudning mustaqilligi va holisligi San'atda bevosita mustahkamlangan. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konventsiyaning 6-moddasi, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudining sud amaliyotida sudning mustaqilligi va holisligini tushunishga bo'lgan yondashuvlarini tahlil qiladi.*

Kalit so'zlar: *Adolatli sudlov huquqi; Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi; Yevropa konventsiyasi; sud hokimiyatining mustaqilligi; sudning holisligi.*

Аннотация *Рассмотренные как элементы права на справедливое судебное разбирательство независимость и беспристрастность суда прямо закреплены в ст. В статье 6 Конвенции о защите прав человека и основных свобод также анализируются подходы к пониманию судебной независимости и беспристрастности в судебной практике Европейского суда по правам человека.*

Ключевые слова: *Право на справедливое судебное разбирательство; Европейский суд по правам человека; Европейская конвенция; независимость судебной власти; беспристрастность суда.*

Annotation: *Considered as elements of the right to a fair trial, the independence and impartiality of the court are directly enshrined in Art. Article 6 of the Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms also analyzes approaches to understanding judicial independence and impartiality in the jurisprudence of the European Court of Human Rights.*

Keywords: *Right to a fair trial; European Court of Human Rights; European Convention; independence of the judiciary; impartiality of the court.*

KIRISH

Sud-huquq tizimining samarali faoliyati zamonaviy demokratik davlatning hal qiluvchi omilidir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyaviy sudi odil sudlov o'zining tabiatiga ko'ra, adolat talablariga javob beradigan va huquqlarning samarali tiklanishini ta'minlagan taqdirdagina tan olinishi mumkinligini bir necha bor ta'kidlagan. Qonunchiligida adolatli sudlovning mazmunini ochib beradigan normalar yo'q. Biroq, adolatli sudlov talabi xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Evropa konventsiyasida (*keyingi o'rinlarda Konvensiya, Yevropa konvetsiyasi deb yuritiladi*) ratifikatsiya qilingan holda mavjud. Rossiya Federatsiyasi uni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Konvensiyadagi asosiy inson huquqlaridan biri bu adolatli sudlov huquqi bo'lib, uning mazmuni San'atda ochib berilgan. 6-modda va quyidagi tahrirda bayon etilsin: "Har kim

o'z fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilashda qonun hujjatlarida belgilangan mustaqil va holis sud tomonidan oqilona muddatlarda adolatli va oshkora ko'rib chiqilishiga haqli".

Mustaqil va xolis sudga bo'lgan huquq - Konvensiyada aniq e'lon qilingan adolatli sudlovning asosiy tamoyillaridan biridir. Sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligining kafolatlari uzviy bog'liqdir. Qoidaga ko'ra, Yevropa sudi adolatli sudlov huquqi buzilgan yoki yo'qligini aniqlashda ularni birgalikda ko'rib chiqadi. Shunga qaramay, amaliyotda 1-bandi buzilishini aniqlaydigan mezonlarni ishlab chiqdi. Konvensiyaning 6-bandi ham mustaqillik, ham xolislik nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Rossiya fuqarolik protsessual huquqi fanida sudning mustaqilligi an'anaviy ravishda konstitutsiyaviy tamoyil sifatida qaraladi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 120-moddasi va "Rossiya Federatsiyasining sud tizimi to'g'risida" Federal qonunining 5-moddasida sudlar mustaqildir va faqat Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va federal qonunlarga bo'ysunadi. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda *Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksi* deb yuritiladi) 8-modda sudyalarning mustaqilligining konstitutsiyaviy ta'rifining mazmunini kengaytiradi va ushbu konsepsiyaga ishlarni ularga tashqi ta'sirni istisno qiladigan sharoitlarda ko'rib chiqish va hal qilishni va sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatiga har qanday aralashishni taqiqlashni ham o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, Rossiya qonunchiligida e'lon qilingan shakldagi mustaqillik printsipli San'atning umumiy talablariga javob beradi. Konvensiyaning 6-moddasi, ya'ni u sud hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan va sud muhokamasi ishtirokchilaridan mustaqilligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (keyingi o'rinlarda *Yevropa sudi* deb yuritiladi) o'zining sud amaliyotiga asoslanib, mustaqillikning kengroq talqinini beradi. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasiga qarshi ishi bo'yicha, Konvensiyaning 1-bandi maqsadlarida sud mustaqil deb hisoblanishi mumkinligini aniqlash uchun ko'rsatdi. Konvensiyaning 6-moddasida, xususan, uning a'zolarini tayinlash tartibi va ularning vakolat muddati, tashqi bosim kafolatlari mavjudligi va uning mustaqil bo'lib ko'rinishini hisobga olish kerak. O'z navbatida, **M. de Salvia** ta'kidlaydiki, sud tomonidan qabul qilingan mustaqillik sudyalarni tayinlashning milliy usulini, ularning faoliyat yuritish muddatlarini, har qanday tashqi bosimdan himoyalanishning mavjudligini qamrab oladi.

Konvensiyaning adolatli sudlovga bo'lgan huquqi nuqtai nazaridan sudyalarning mustaqilligi masalasini ko'rib chiqsak, Evropa darajasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat - Vazirlar Qo'mitasining 12-sonli tavsiyasini ta'kidlash kerak. Evropa Kengashining "Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risida" (keyingi o'rinlarda - Tavsiya) sud hokimiyatining mustaqilligiga qo'yiladigan talablarni batafsil tartibga soladi: mustaqillik kafolatlari konstitutsiyaviy normalarda e'lon qilinishi kerak; sudyalarning hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan, shuningdek ishda ishtirok etuvchi har qanday tarafdin mustaqil bo'lishi kerak; sudyalarga keng vakolatlar berilishi

kerak; Sudyalarga umrbod xizmat qilish, shuningdek, tegishli mehnat sharoitlari kafolatlanadi.

Tavsiya qoidalariga asoslanib, T.N.Neshataeva milliy qonunchilikda mustaqillik kafolatlarining ikki turi belgilanishi kerakligini ta'kidlaydi:

- mustaqillikning tashqi belgilarini ta'minlash: sudyalarni tayinlash usuli va muddatlari, ular qarorlarining ijro etilishi;
- mustaqillikning ichki mexanizmlarini shakllantirish: sudyalarning moddiy mukofotlari va martaba o'sishi, ishni tashkil etishda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik.

Konvensiyada sudning holisligi adolatli sudlovning sharti sifatida nomlanadi. Konvensiyaning 6-moddasi, umuman olganda, holislikni noto'g'ri fikr va noto'g'ri qarashlarning yo'qligi deb tushunadi. Sud amaliyotini tahlil qilish xolislikni ob'ektiv va sub'ektivga bo'lish kerakligini ko'rsatdi. **Ob'ektiv mezonga** ko'ra, alohida sudyaning shaxsiy e'tiqodi va xatti-harakatiga, ya'ni sudyaning ushbu ishda shaxsiy noto'g'ri qarashlari yoki noto'g'ri qarashlariga e'tibor qaratish lozim. **Subyektivi me'zonda** sudning o'zi, shuningdek, uning tarkibi ularning holisligiga har qanday asosli shubhalarni istisno qilish uchun etarli kafolatlar berganligini aniqlaydi. Shu bilan birga, sub'ektiv va ob'ektiv xolislik o'rtasida qat'iy ajratish yo'q, chunki sudyaning xatti-harakati nafaqat tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan holislikka nisbatan ob'ektiv shubhalarni keltirib chiqarishi, balki uning ishiga ham tegishli bo'lishi mumkin shaxsiy ishonch. Shunday qilib, Yevropa sudi xolislikning yo'qligi yoki mavjudligini ikki jihatda ko'rib chiqadi: **birinchisi** funktsional xususiyatga ega va masalan, bir shaxs tomonidan sud jarayoni doirasida turli funktsiyalarni bajarish; **ikkinchi** jihat shaxsiy xususiyatga ega va bu ishda sudyalarning xatti-harakati bilan bog'liq.

Amalda, sudya bir ishni ko'rishda bir necha bor qatnashib, turli funktsiyalarni bajarganida muammolar paydo bo'ladi (masalan, bir shaxsning maslahat va sud funktsiyalarini bajarishi, ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sudning harakatlari da'voni, sudyaning ish yuritishdagi ikki tomonlama rolini ta'minlash choralarini ko'rish; u ishtirok etgan ikki ish o'rtasida o'tgan vaqt; sudda ishtirok etish darajasi.

Shu bilan birga, quyidagilarni ta'kidlash joiz: agar sudya sudgacha bo'lgan qarorlar qabul qilgan bo'lsa, unda bu uning xolisligiga shubha sifatida qaralishi mumkin emas. Bu ishda sudya tomonidan sud muhokamasigacha ko'rilgan choralarning ko'lami va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sudyaning ish materiallarini batafsil o'rganganligi uning xolisligiga nisbatan biron-bir noto'g'ri qarashga olib kelishini anglatmaydi. Ish materiallaridagi mavjud ma'lumotlarni dastlabki tahlil qilish yakuniy tahlil allaqachon oldindan aytib bo'lingan xulosa degani emas. Qaror qabul qilishda bunday tahlil o'tkazilishi va sud muhokamasida keltirilgan dalillar va dalillarga asoslanishi kerak. Sudyaning xolisligiga shubhalar, agar sudya bir xil faktlar bo'yicha ikki xil sud muhokamasida ishtirok etgan bo'lsa ham paydo bo'lishi mumkin. Indra Slovakiyaga qarshi ishi bo'yicha arizachining ishdan bo'shatilganligi haqidagi shikoyatini o'zaro ko'rib chiqishda ishtirok etgan sudya rad etilgan, arizachining rehabilitatsiya tartib-qoidalarini

qo'llash to'g'risidagi boshqa shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etdi. bu ishdan bo'shatish. Garchi nizo predmeti dastlabki da'vodan farq qilsada, sud dastlabki ishdan bo'shatish to'g'risidagi ish va ikkinchi rehabilitatsiya ishi bir xil faktlarga tegishli ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari, ishdan bo'shatish to'g'risidagi ish bo'yicha tekshirilgan dalillar, qayta ko'rib chiqilganda, sud qarorini qayta ko'rib chiqishga olib keladi, shu sababli ariza beruvchida sudyaning ishga zarur xolislik bilan yondashishiga shubha paydo bo'ladi.

Kassatsiya sudida ish yuritishning ushbu bosqichida faqat kassatsiya shikoyatini kassatsiya instansiyasi sudining sud majlisida ko'rish uchun o'tkazish imkoniyati to'g'risidagi masala hal qilinganligi sababli, kassatsiya shikoyatini ko'rib chiqqan sudyaning ishtiroki. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 380.1-moddasining ko'rsatmalari asosida ushbu shikoyatni ko'rib chiqadigan kassatsiya sudining majlisida sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi mustaqilligi va xolisligi tamoyillarini buzgan deb e'tirof etilishi mumkin emas."

Zamonaviy konstitutsiyaviy davlatlarda sud hokimiyati mustaqilligi hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslanib, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari hokimiyatning uchta alohida tarmog'ini o'zida namoyon qiladi. Hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan o'zaro tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimini hosil qiladi. **Mustaqillik prinsipi** - sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qila yotgan sudyalar esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi. Faqat mustaqil sud hokimiyatigina xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Bu vazifa samarali hal qilinishi uchun jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va xolis amalga oshirish qobiliyatiga to'liq ishonishi lozim. Qachonki, ishonch yo'qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalar bu muhim vazifani hal qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balkim hokimiyatning suiste'mol qilinishidan insonlari himoya qilishga xizmat qiladi. Shuning uchun, sudyalar kelib tushgan ishlarni ko'rib chiqishda, o'zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib o'z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning burchi faqat qonunni qo'llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalar har bir tegishli holatda inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro normalarni qo'llash uchun javob beradi.

Mustaqillik va xolislik tushunchalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ayrim xalqaro nazorat organlari ularni birgalikda ko'rib chiqishadi. Ushbu tushunchalarning har biri o'zining aniq ma'nosiga va maxsus talablariga ega. Mustaqillik tushunchasi sud hokimiyati mustaqilligini ifodalovchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi. Sud hokimiyati mustaqilligi inson huquqlari bo'yicha, xalqaro huquq bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat bilan xolis shartlar va kafolatlar asosida "xohish-iroda", balki maqom" yoki "boshqalar bilan munosabatni" bildiradi. Sud hokimiyati mustaqilligi maqomi yoki munosabati Individual

va institutsional munosabatlarni nazarda tutadi. Sudyaning individual mustaqilligi kafolatlangan vakolat muddatida ifodalansa, sudning institutsional mustaqilligi ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar bilan institutsional va ma'muriy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga ko'ra xolislik tushunchasi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt 14-moddasi 1-bandiga muvofiq sudyalarning ishlarni ko'rishda noxolis va bir taraf manfaatlariga ko'zlab ishlamasliklari lozim. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga ko'ra xolislik tushunchasi sub'ektiv va xolis elementlarni o'z ichiga oladi. Sud nafaqat xolis bo'lishi, balkim sudning hech bir a'zosi qandaydir shaxsiy adovatli yoki noxolis bo'lishi hamda xolislik nuqtai nazaridan ham xolis bo'lishi lozim. Institutsional mustaqillik bu sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlar - ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishini anglatadi. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 1-prinsipiga asosan "Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat konstitutsiyasi yoki qonunlarida mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart", deb belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shart"ligi qayd qilingan. Boshqa hokimiyat tarmoqlaridan sud organlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida bu mustaqillikni Konstitutsiyada agar u bo'lmasa, boshqa huquqiy hujjatda kafolatlab qo'yish lozim.

Konstitutsiyada belgilangan mustaqillikni amaliyotda qo'llash masalasini xalqaro huquqda aniq ko'rsatilmagan bo'lsada, sud hokimiyati o'z funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ma'muriy masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi tushuniladi. Bu sudlarda sudyalarning o'rtasida ishlarni taqsimlash va boshqa malalalarda o'z ifodasini topadi, "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 14-prinsipida ko'rsatilgani kabi bu masala sud tizimining ichki ishi hisoblanadi. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shartligi belgilangan. O'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan vositalarsiz sud sudyalari va sud xodimlari o'z vazifalarini yetarli darajada bajara olishmaydi, tashqi bosimlarga bardosh beraolmaydi, korrupsiyaga moyilligi oshadi. Ma'muriy va moliyaviy masalalar haqida gap ketganda mustaqillik har doim ham mutlaq bo'lmasligi mumkin, hokimiyatning uchta tarmog'i bir biridan mustaqil hisoblansada, ayrim masalalarda, jumladan, resurslarni taqsimlashda o'z xarakteri bilan bir biriga bog'liq hisoblanadi. Bu hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslangan ichki keskinlik hisoblanib, bu tizimda bo'lishi muqarrar bo'lsada, misol uchun, parlament sud hokimiyati byudjetini nazorat qilish orqali sud hokimiyatining samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Xalqaro huquqda sudyalarning qanday tayinlanishi lozimligi to'g'risida imperativ norma mavjud emas, deklarativ tUSDagi tavsiyalar mavjud. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari"da sudyalar tayinlanishi yoki saylanishi to'g'risida holat ko'rsatib o'tilmagan. Faqatgina "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 10-prinsipida "Sud lavozimlariga tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy xislat va qobiliyat, shuningdek huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishlari lozim. Sudyalarni tanlashning har qanday usuli g'ayriqonuniy sabablar bo'yicha sudyalarning tayinlanishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlashi kerak. Sudyalarni tanlaganda ular irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa ahvoli bo'yicha ajratilmasligi kerak, biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi kerakligi haqidagi talabga ajratish sifatida qaralmasligi lozim" ligi qayd qilingan. Sudyalarni tanlab olishning usullaridan qat'i nazar ularning professional tayyorgarlik darajasi va axloqiy sifati tanlab olish uchun yagona mezon sifatida xizmat qilishi lozim. Agar sudyalar lavozimida uzoq kafolatlangan muddatda bo'lishmasa, ularning mustaqilligiga jiddiy xavf mavjud, ular qarorlar chiqarayotganida bosimga uchrashlari mumkin. Shuning uchun "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 11-prinsipida "Sudyalarni vakolat muddati, mustaqilligi, xavfsizligi, tegishli tarzda mukofotlanishi, xizmat sharoitlari, pensiyasi va pensiyaga chiqish yoshi qonunda belgilangan tarzda kafolatlanishi kerak"ligi belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 12-prinsipiga ko'ra "Tayinlanadigan yoki saylanadigan sudyalar pensiyaga chiqqaniga qadar yoki vakolat muddati belgilangan mamlakatlarda ushbu muddat o'tganiga qadar kafolatlangan vakolat muddatiga egadir deb qayd qilingan kafolatlangan lavozimda bo'lish muddatisiz yoki qisqa kafolatlangan muddatga sudyalarni tayinlash yoki saylash 11 va 12 prinsiplarning buzilishi hisoblanadi. Sudyalarga doimiy mandatni taqdim qilish

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, so'nggi o'n yilliklarda qayta-qayta amalga oshirilgan sud islohotlari ta'sirida shakllangan xalqaro qonunchiligida mustahkamlangan va e'lon qilingan sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligi kafolatlari sekin, lekin ishonchli tarzda Evropa huquqiy standartlariga yaqinlashmoqda. Biroq, ushbu qonun qoidalarining barchasi amalda qanday amalga oshirilmoqda, degan savolni javobsiz qoldiramiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Нешатаева Т. Н. Решения Европейского суда по правам человека: новеллы и влияние на законодательство и правоприменительную практику : монография. - М. : Норма : ИНРФА-М, 2013. - С. 88.
2. Афанасьев С. Ф. Право на справедливое судебное разбирательство и его реализация в российском гражданском судопроизводстве. -М., 2009. - С. 28-30.
3. Ле Конт, Ван Левен и Де Мейер против Бельгии : Постановление ЕСПЧ от 23 июня 1981 г. (жалобы № 6878/75, 7238/75). - П. 57-58. -URL: <http://european-court>.

ru/resheniy a-evropejskogo-suda-na-russkom-yazyke/le-kont-van-leven-i-de-mejer-protiv-belgii-postanovlenie-evropejskogo-suda/ (дата обращения: 20.01.2016).

4. Luka v. Romania : Judgment ECHR of 21 July 2009 (Application № 34197/02). - P. 44. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/> (дата обращения: 20.01.2016).

5. Компания «Совтрансавто Холдинг» (Sovtrans-avto Holding) против Украины : Постановление ЕСПЧ от 25 июля 2002 г. (жалоба № 48553/99). - Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс».

6. Agrokompleks v. Ukraine : Judgment ECHR of 6 October 2011 (Application № 23465/03). -P. 137. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-122696> (дата обращения: 20.01.2016).

7. Sacilor-Lormines v. France : Decision ECHR of 9 November 2006 (Application № 65411/01). -P. 63. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-77947> (дата обращения: 20.01.2016).

8. Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. / Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.

9. BMTning Sudyalari va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayanning O'zbekistonga rasmiy tashrif natijalari bo'yicha dastlabki mulohazalar.// <http://www.un.uz/uzb/news/display/348>

GEOGRAFIK XARITALAR

Rasulova Saodatxon Qaxorjonovna

Andijon Viloyati Izboskan tumani

12-umumiy o`rta ta`lim maktabi Geografiya o`qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada geografik xaritalat haqida, yer yuzasidagi geografik iqlim haqida, xaritani kashf qilgan olimlar haqida va xaritalarning nomlari haqida so`z boradi.*

Kalit so`zlar: *geografiya, xrita, iqlim, mintaqa, olimlar, shartli belgi, element, joy, aholi.*

Yer yuzasining tabiat va jamiyatdagi voqea va hodisalarning ma'lum bir vaqtdagi holati umumlashtirib, kichraytirib ko'rsatilgan tekislikdagi tasviri. G. x. uchun xaritagrafik proyeksiyalar, shartli belgilar va haritagrafik generalizatsiya (saralash) xos. G. x. o'zining mazmuni, tasviri, ko'rgazmaliligi va zamonaviyligi bo'yicha haritagrafik model hisoblanadi.

Mavzuli xaritalar birorta mavzuga bag'ishlangan bo'ladi. Mavzu to'liq tasvirlanadi, lekin geografik asosini umumgeografik xaritalarning elementlari tashkil qiladi, ya'ni mavzuga mos qilib geografik asos yaratiladi. Mavzuli geografik haritalar ikki sinfga — tabiiy geografik xaritalar va ijtimoiy-iqtisodiy geografik haritalarga bo'linadi. Tabiiy geografik xaritalarga geol, tektonika, geofizika, seysmologiya, yer osti suvlari (gidrogeologiya), geomorfologiya, iqlim, gidrologiya, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi, ekologiya va b. sohalarga bag'ishlangan haritalar kiradi. G. x. tasvirlangan xududiga kura, dunyo, materik, okean, alohida mamlakatlar, regionlar, viloyat va tuman xaritalariga bo'linadi. Vazifasiga ko'ra, maxsus xaritalar (o'quv, turistik, navigatsiya, loyiha va h. k.)ga ajratiladi.

Mavzusi tor xaritalarga soha xaritalari (mas, iqlimning bir sohasiga bag'ishlangan xaritalar), iqlimga to'la harakteristika berilgan bulsa umumiy iqlim xaritalari deyiladi. Xaritalarda tasvirlanayotgan mazmun ko'p ma'lumotli bo'lib, ular orasidagi o'zaro bog'liqlikni tasvirlab, ulardagi qonuniyatlarni ochib bersa kompleks haritalar deb ataladi.

Tabiatiing ayrim elementlari (mas, shamollar), muayyan joyning aholisi (mas, tug'ilish), iqtisodiyoti (mas, paxta hosildorligi) va madaniyati (mas, teatrlar), ularning xususiyatlari va alomatlari ko'rsatilsa analitik xaritalar deyiladi. Bir qancha sohalarni qo'shib, ko'p mazmun bitta xaritada tasvirlansa sintetik xaritalar deyiladi.

Geografik xaritalar g'oyat ko'p va xilma-xildir. Xaritalar — o'rganish, hisobga olish, saqlash va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Xaritalar tasvirlangan hududning katta-kichikligiga, masshtabiga, mazmuniga va ko'zda tutilgan maqsadiga qarab guruhlarga ajratiladi. Tasvirlangan hududning katta-kichikligiga ko'ra, xaritalar: dunyo va yarimsharlar, materiklar va okeanlar, tabiiy o'lkalar, mamlakatlar, viloyatlar va boshqa ma'muriy birliklar xaritalariga bo'linadi. Masshtabiga ko'ra: yirik

masshtabli (1 : 10 000 dan 1 : 200 000 gacha), o'рта masshtabli (1 : 200 000 dan 1 : 1 000 000 gacha), mayda masshtabli (1 : 1 000 000 va undan mayda) xaritalar bo'ladi. Joy planini tuzishda ham muayyan masshtabdan (1 : 5000 va undan yirik) foydalaniladi. Lekin plan kichik hududlar uchun tuziladi. Mazmuniga ko'ra, xaritalar: umumgeografik va mavzuli xaritalarga bo'linadi. Umumgeografik xaritalar hududlarning umumiy ko'rinishi va geografik xususiyatlarini aks ettiradi. Bularga, asosan, tabiiy va siyosiy xaritalar kiradi. Mavzuli tabiiy xaritalarda ayrim tabiat komponentlari nisbatan aniq va mukammal tasvirlanadi. Bunday xaritalarga 6- sinf atlasidagi Yer po'stining tuzilishi, tabiat zonalari, iqlim va boshqa xaritalarni misol qilib ko'rsatish mumkin. Ba'zan mavzuli xaritalarda bitta yoki ikkita emas, balki birbiri bilan bog'langan bir qancha komponentlar ko'rsatilgan bo'ladi. Bunday xaritalarga kompleks xaritalar deyiladi. Xaritalarning qo'llanilish maqsadularning masshtabiga, mazmuniga va jihozlash usuliga katta ta'sir ko'rsatadi. Buni bitta hududning bir xil masshtabli va mazmunli, lekin har xil maqsadli xaritalarini bir-biriga taqqoslab, yaqqol ko'rish mumkin. Maqsadiga ko'ra, xaritalarni: o'quv, ilmiy, turistik, targ'ibot tashviqot kabi turlarga bo'lish mumkin.

Globus— Yer sharining kichraytirilgan modeli bo'lib, Yerning tashqi qiyofasini hamda uning yirik qismlari (materiklar, okeanlar, ularning bo'laklari) nisbatini eng to'g'ri va ko'rgazmali tasvirlaydi. Globusda kartografik tasvirning xatoliklari bo'lmaydi. Maktab o'quv globuslari 1 : 83 000 000, 1 : 50 000 000, 1 : 40 000 000, 1 : 30 000 000 masshtabda tayyorlanadi. Mashhur vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048- y.) XI asrda birinchi bo'lib shimoliy yarimsharning globusini yasagan. Butun Yer sharini tasvirlagan birinchi mukammalroq globusni 1492- yilda Martin Bexaym yasagan.

Foydali qazilmalar xaritalarida ko'mir, neft, gaz, temir rudasi va Yerning boshqa mineral boyliklari qayerlarda joylashganligi shartli belgilar bilan aks ettiriladi.

Iqlim xaritalarida Yer yuzining qaysi nuqtasida qancha yog'in yog'ishi, havo haroratining qanday bo'lishi, shamollar yo'nalishi tasvirlanadi.

Bu sanab o'tilgan barcha xaritalarda ma'lum mavzuga oid geografik predmet va hodisalar tasvirlangan bo'ladi. Shuning uchun bunday xaritalar mavzuli xaritalar deb ataladi.

Geografik xaritalar Dunyo xaritasi, materik va okeanlar xaritasi hamda alohida o'lkalar, davlatlar xaritalariga bo'linadi.

Mavzuli xaritalardan tashqari umumiy geografik xaritalar ham bo'ladi. Ularda hududning umumiy ko'rinishi, ya'ni relyef, daryolar, ko'llar, dengizlar, shaharlar, okeanlardagi yirik oqimlar va boshqalar ko'rsatiladi. Bunday xaritalar tabiiy xaritalar deb ataladi. Tabiiy xaritalar ham har xil bo'ladi: Dunyo (Yarimsharlar) tabiiy xaritalari, alohida materiklarning tabiiy xaritalari, ayrim davlat va o'lkalarning tabiiy xaritalari.

Shunday qilib, geografik xaritalar Yer yuzining umumiy yoki ayrim jihatlarini tasvirlovchi xaritalar bo'lishi mumkin. Mazmuniga ko'ra esa umumiy geografik va mavzuli xaritalar bo'ladi. Tasvirlangan hududining kattaligiga ko'ra Dunyo xaritasi, alohida materiklar, alohida davlat yoki o'lkalar xaritalari bo'ladi.

Xaritalarning shartli belgilari. Xaritalarda turli predmet va hodisalarni tasvirlash uchun xaritaning o'ziga xos tili hisoblangan shartli belgilardan foydalaniladi.

Yer yuzining relyefi masalan, ustma-ust rang berish bilan tasvirlanadi. Bunda, 0 m dan 200 m gacha baland bo'lgan pasttekisliklar yashil rangga, 200 dan 500 m gacha baland bo'lgan qirlar och jigarrangga bo'yaladi. Har bir rang qanday balandlikni bildirishi xaritaning pastki qismidagi jadvalda beriladi. Bunday jadval **balandliklar shkalasi** deb ataladi.

ADABIYOTLAR:

1. T.V.Vlasova «materiklar tabiiy geografiyasi». Toshkent «O'qituvchi» nashriyoti 1983 y. 2 tom (209-216) betlar. .
2. T.V.Vlasova «Fizichiskaya geografiya materikov» Chast-1, chast-2, Toshkent Izdatelstvo «Prosvesheniye» 1986 g.
3. M.P.Zabrodskeya A.G.Chikishev, «Praktikum po fizicheskoy geografii materikov i okeanov» Moskva Izdatelstvo «Prosvesheniye» 1989 goda.
4. A.Qozoqov, H.Ma'sudov «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursidan amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ishlar» Toshkent «O'qituvchi» nashriyoti 1992 yil.

KIMYO FANINING PREDMETI MAQSAD VAZIFALARI

Hamidova Zarnigor Sharifjonovna

Andijon viloyati Izboskan tumani

12-umumiy o'rta ta'lim maktabi kimyo fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada kimyo fanining maqsad vazifalari haqida, Kimyoni ajoyib o'zgarishlar industriyasi deyish mumkinligi haqida, Molekulalar to'xtovsiz harakatda bo'lishi haqida va bir qancha qiziqarli hodisalar haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *kimyo, maqsad, fan, xossa, tarkib, moddalar, jism, minerologiya, tuzilish.*

Kimyo -tabiat haqidagi fan bo'lib, u fizika, biologiya, minerologiya fanlari kabi moddiy jismlar to'g'risida atroflicha ma'lumot berildi: Ximiya moddalar, ularning tarkibi, xossalari, tuzilishi va ularda bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi fandır.

Kimyaviy o'zgarishlarda (reaktsiyalarda) dastlabki moddalardan, ya'ni xom ashyodan boshqa tarkibga va boshqa xossalarga ega bo'lgan mahsulotlar olinadi.

Kimyaviy o'zgarishlarda, albatta, dastlabki moddalarning tarkibi o'zgaradi, fizik o'zgarishlarda esa bu xol kuzatilmaydi.

Kimyaviy protsesslarning borishi reaktsiyada ishtirok etadigan moddalarning tarkibiga, ularni tashkil etuvchi zarrachalarning tuzilishiga bog'lik. Shuning uchun moddalarning tuzilishi bilan ularning reaktsiyaga kirishish qobiliyati orasidagi boglanishni urganish muxim ahamiyatga ega.

Odamlar bundan bir necha ming yil ilgari rudalardan metallar ajratib olishda, metall qotishmalar tayyorlashda, shisha pishirish va shunga o'xshash protsesslarni amalga oshirishda ximiyaviy xodisalardan keng foydalanib kelganlar. Rus olimi M.V. Lomonosov o'zining 1751 yilda nashr etilgan "Ximiyaning foydasi haqida ikki og'iz so'z ("Slovo o polze ximiya") nomli asarida "Ximiya o'z qullarini inson ehtiyoji bilan bog'lik bo'lgan hamma ishlarga cho'zmoqda. Qayerga qaramaylik, qayerga nazar solmaylik, hamma erda bizning ko'z oldimizda ximiyaning tatbiq etilishidan qo'lga kiritilgan yutuqlar gavdalanadi", degan edi.

Mamlakatimizda ximiya sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo neft, toshko'mir, tabiiy gaz, mineral tuz va rudalarning mo'l-ko'lligi turli xil yangi ximiyaviy mahsulotlar yaratishga katta imkon beradi.

Boshqa respublikalar kabi O'zbekistonda ham ximiya va ximiya sanoati rivoj topdi. Respublikamizdagi ilmiy tadqiqot institutnining barcha tarmoqlari (anorganik, organik, analitik, fizik ximiya) taraqqiy etdi, yuqori malakali mutaxassislar etishib chiqdi. Chirchiq "Elektroximprom" birlashmasi, Qo'qon, Samarqand, Farg'ona, Navoiy, va Olmaliq ximiya zavodlari xalq xo'jaligini zarur o'g'itlar bilan ta'minlab kelmoqda.

Kimyoni ajoyib o'zgarishlar industriyasi deyish mumkin. U tabiatda bulmaydigan materiallarni sintez qilishga ulardan turli-tuman mashina va asboblari yaratish uchun, turar joy binolari qurish va xalq iste'mol mollari ishlab chiqarish uchun foydalanishga imkon beradi.

Kimyo sanoati sintetik kauchuk, plastik massalar, sun'iy tola, sun'iy yokilg'i bo'yoqlar, dori-darmonlar va boshqa juda ko'p moddalar ishlab chiqaradi. Ko'plab miqdorda asosiy kimyo sanoatining mahsulotlari-kislotalar, ishqorlar, tuzlar ishlab chiqariladi. Qishloq xo'jaligida mineral o'g'itlar o'simliklarni himoya qilishning kimyoviy vositalari, ularning o'sishini tartibga soluvchi moddalar, hayvonlar ozuqasiga qo'shiladigan kimyoviy moddalar, ko'pchilik polimer materiallar keng ko'lamda ishlatiladi.

Mamlakatimizni industrialashning asosi bo'lgan metallar, kimyoviy usullardan foydalanib olinadi va ularning karroziyalanishi ximiyaviy usullar bilan muhofaza qilinadi. Kimyoning ilmiy texnika taraqqiyotining rivojlanishidagi ahamiyati shundan iboratki. Raketalarni harakatga keltiradigan yoqilg'i, raketalar yasashda qotishma va metallarni, skafandrlar kabilarni kimyo fanisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keyingi vaqtlarda atrof muhitni muhofaza qilish insoniyat oldida turgan eng muhim masalalardan biri bo'lib qolgan ya'ni oqar suvlarni tozalash, suv va havoning tozaligini nazorat qilib turish va hokazo massalarni kimyo fani hal qiladi.

Ximiya-fani moddalar va ularda boradigan o'zgarishlarni o'rganadi. Bu o'zgarishlarni o'rganishda va ular tug'risida to'g'ri tasavvur qilishda M.V. Lomonosovning atom-molekulyar ta'limoti katta yordam beradi. (1741) yil Atom molekulyar ta'limot moddalarning ichki tuzilishini o'rganadi. Atom molekulyar ta'limotning mohiyati quyidagilardan iborat. Barcha moddalar molekulalardan iborat.

Molekulalar to'xtovsiz harakatda bo'ladi. Molekulalar atomlardan iborat, atomlar ham molekulalar singari to'xtovsiz harakatda bo'ladi.

Atomlarning muayyan (va) massa o'lchamlari Oddiy moddalar molekulalari 1 xil atomlardan, murakkab moddalarniki esa har xil atomlardan tuzilgan. Ximiya fanida atom molekulyar ta'limot 1860 yilda ximiklarning xalqaro s'ezdida qabul qilindi va u quyidagicha ta'riflandi.

Molekula-Muayyan moddaning ximiyaviy xossalarini o'zida saqlab qoladigan eng kichik zarrachadir.

Atom-Ximiyaviy elementning tarkibiga kiruvchi eng kichik zarrachasidir.

Atomning ximiyaviy xossasi uning tuzilishi bilan aniqlanadi. Molekulaning ximiyaviy xossasi uning tarkibi va ximiyaviy tuzilishi bilan aniqlanadi. Ximiyaning asosiy tushunchalarini ko'rib chiqaylik. Ximiyaviy element - Atom molekulyar nukta nazaridan qaraganda atomlarning alohida xar bir turi element deyiladi yoki ximiyaviy xossalari bir xil bo'lgan atomlar yig'indisidir.

ADABIYOTLAR RO`YHATI:

1. Tilavoldievna A. M. KIMYO FANINING FANLARARO ALOQADORLIGI //Conferencea. – 2022. – С. 196-199.
2. Tilavoldievna, Akbarova Muattarxon. "KIMYO FANINING FANLARARO ALOQADORLIGI." *Conferencea* (2022): 196-199.
3. Tilavoldievna, A. M. (2022). KIMYO FANINING FANLARARO ALOQADORLIGI. *Conferencea*, 196-199.

BUGUNGI KUNDA INSON ORGANIZMIDA YUZ BERADIGAN PROSTATIT KASALLIKLARNING SABABLARI, TURLARI, BELGILARI VA DAVOLASH USULLARI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

Kilichev Jasurbek Fayzullayevich

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

Qobulov Boburbek Dilshodbek o'g'li

Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali davolash fakulteti talabasi

Ahatov Mahmud Xolto'rayevich

Annotatsiya: *Bugungi kunda inson organizmida uchraydigan turli xil prostatic jarayonlar inson organizmiga juda ham salbiy tasir ko'rsatib kelmoqda. Prostatit kasalligi bu qanday kasallik? Bosh og'rishimi, ko'ngilaynishimi yoki oshqozon og'rish. Bu kasallikni qanday oldini olsak bo'ladi? Kasallikni oldini olish uchun qancha mablag' va qancha vaqt ketadi bu savollarga hamma javobni manashu maqoladan olsak bo'ladi.*

Kalit so'zlar: *Prostatit, Prostatitning sabablari, Prostata bezi funksiyasi, Prostatitni boshlanishi, Turlari, Surunkali prostatit, Profilaktikasi*

Maqsadi: Prostatit kasalligini oldini olish va davolash.

Kirish: Prostatit — prostata bezining yallig'lanishidir. Prostata bezi erkak jinsiy a'zolarining ikkinchi darajali qismidir. Bez qovuq ostida, uning bo'yni atrofida joylashgan. Siydik chiqarish kanali (uretra) prostatadan o'tadi, ya'ni prostata siydik chiqarish nayini o'rab turadi. Aynan shu sababli, prostata kattalashganida, siydik yo'llarini siqib qo'yadi va siydik o'tishiga to'sqinlik qiladi.

35 yoshdan oshgan erkaklarda prostata kattalashishi tez-tez kuzatiladi. Bu odatiy hodisa. 50 yoshdan katta erkaklarda kasallik siydik-tanosil tizimi faoliyatining buzilishi oqibati hisoblanadi, ya'ni prostata bezining yallig'lanishi natijasida. Yodda tutish kerak, prostata bezi qancha kattalashsa, siydik shuncha ko'proq to'siladi va shu tariqa organizm tobora siydik bilan zaharlanib boradi. Kasallik yetarlicha keng tarqalgan va jinsiy yetuk erkaklarning 80 foizidan ko'prog'ida tashxis qo'yilgan, ularning qariyb 30 foizi 20 dan 40 yoshgacha bo'lgan yosh guruhida aniqlangan. Agar biz statistik tadqiqotlarga murojaat qiladigan bo'lsak, har 10 ta bemorda prostatit aniqlanadi.

• **Prostatitning sabablari:** Prostatitning asosiy sababi qon aylanishining buzilishi bo'lib, bu prostata bezining kattalashishiga olib keladi. Qon aylanishi buzilishining sababi esa — o'troq va kamharakat hayot tarzi, shuningdek, katta vazn. Prostatitning yana bir sababi infeksiya tushishidir. Ko'pincha infeksiya gonoreya yoki uretrit natijasida tushadi, kamroq holatlarda — angina, gripp, sil kasalligining asoratlari natijasida. Prostataning bakterial tabiatli yallig'lanishi prostata beziga bakterial kontragentlarning qon, limfa, himoyalangan jinsiy aloqa orqali tushganida boshlanadi, boshqacha so'z bilan aytganda organizmning biologik suyuqliklari bilan o'tgach. Odam terisida doimiy ravishda

mavjud bo'lgan turli mikroorganizmlar, hatto qorin bo'shlig'i a'zolaridagi, masalan, ichakda, muayyan sharoitlarda kasallik rivojlanishiga sabab bo'lishi mumkin. Kichik tos a'zolari va yumshoq to'qimalarining jarohatlari, ularning qon aylanishi buzilishi ko'pincha prostatitga olib keladi. Qoida tariqasida, bu ko'pincha kasbiy xavf-xatarlar bilan bog'liq bo'lgan haydovchilarga tegishlidir — doimiy vibratsiya, silkinish, mushaklarga ortiqcha yuk tushishi. Shuningdek kasallikning rivojlanishiga tez-tez sovqotish va kam jismoniy faoliyat, surunkali siydik-tanosil kasalliklari yoki gormonal muvozanat buzilishi, siydik tutilishi va nomuntazam jinsiy hayot ham hissa qo'shadi. To'g'ri ichakda yoki siydik chiqarish kanalida mavjud yallig'lanish ko'pincha prostata bezining ikkilamchi infeksiyalanishiga sabab bo'ladi. Prostatitning sabablari orasida urologik infeksiyalar va ba'zi boshdan kechirilgan venerologik kasalliklari, masalan, gonoreya yoki uretrit ham bor. [Bronxit](#), [tonzillit](#), davolanmagan [tish kariesi](#) kabi surunkali kasalliklar ham bu kasallikni keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu kasallikning rivojlanishida immunitet tizimining roli ham mavjud. Chunki zararli odatlar, hissiy tashvishlar, to'yib ovqatlanmaslik, jismoniy charchoq natijasida immunitet zailashadi va inson organizmi turli xil infeksiyon agentlarga qarshi kurashishga qiynaladi, shu jumladan prostata bezi yallig'lanishini chiqaradiganlarga ham.

Prostata bezi funksiyalari:

1. Sperma bir qismini tashkil qiladigan suyuqlik ishlab chiqaradi
2. Testasteronni uning faol shakli digidrotesteronga aylantiradi
3. Qovuq bo'yni mushaklari bilan birgalikda ichki sfinkterini hosil qiladi bu o'z o'rnida siyish jarayonini boshqaradi.
4. Organizm hissiyotini boshqarishda ishtirok etadi

Prostatitni belgilari (boshlanishi): O'tkir prostatitning belgilari tana haroratining ko'tarilishi va tez-tez siyish bo'lib, siydik chiqarish achishish va zaif bosim bilan kechadi. Bundan tashqari, prostatitning belgilari — defekatsiya paytida to'g'ri ichakdagi og'riq va oraliqdagi noqulaylik hissi bo'lishi mumkin. Yiringli yallig'lanish bosqichida, abstsess o'z-o'zidan yorilishi va siydik yoki to'g'ri ichakdan yiring chiqishi ehtimoldan yiroq emas.

Surunkali prostatit belgilari uretra va oraliqdagi achishish, defakatsiya yoki siyish oxirida yiring ajralishi, organizmning tez charchashi va ta'sirlanishi kabi namoyon bo'ladi. Prostatitda qiynalib siyish juda xavflidir, u o'z vaqtida davolanmasa, siydikni o'tkir ushlanib qolishiga olib kelishi mumkin. Erkaklar jinsiy qiziqishning to'liq yoki qisman yo'qolishi, tez urug' chiqarish, ba'zan kechalari og'riqli, uzoq muddatli erektsiya kabi prostatit rivojlanishining bilvosita belgilarini e'tiborsiz qoldirmasliklari kerak. Bu alomatlarining barchasi hali asoratlanmagan va nisbatan oson davolansa bo'ladigan bosqichdagi prostata bezining yallig'lanishi uchun xosdir. Agar mutaxassis bo'lmagan kishilar uchun ham ma'lum bo'ladigan namoyonlar haqida gapiradigan bo'lsak, ko'p hollarda, bemorlar ertalab uretradan shaffof va ba'zan yiringli ajralmalar chiqishi va siydikda oq nuqtachalar va tolalar aniqlanishini qayd qilishadi.

Prostatit turlari: Bakterial prostatit- Prostata bezini kasallik keltirib chiqaruvchi mikroorganizmlar: **Ichak tayoqchasi, ko'k yiring tayoqchasi, protey, klebsella, tillarang stafilakokk.**

Bu bakteriyalarning ko'pchiligi- inson organizmining normal mikroflorasi bo'lib, ular ichakda va terida yashaydi. Bu bakteriyalar prostate bezining tarkibiga kirib olgach yallig'lanish keltirib chiqaradi va inson organizmiga juda katta salbiy tasir olib klisi mumkin. Ko'pincha bu bakteriyalar prostate beziga qovuq va siydik kanali orqali, ichaklardan qon tomirlar orqali kirishi mumkin.

Surunkali shakl. O'tkir shaklidan farqli o'laroq, surunkali prostatit alomatlarisiz tabiatga ega va latent kechadi (ya'ni, sezilari xarakterli belgilarsiz holda). Klinik tasvir ko'pincha xira bo'ladi, bemorlar jiddiy bezovtalikka yetarli e'tibor bermaydilar va shifokorga murojaat qilish zarur emas deb hisoblashadi, prostatit alomatlarini prostata bezi adenomasi bilan adashtirishadi. Ushbu ikki kasallikni davolash tamoyillari mutlaqoq farq qiladi, shuningdek asoratlari va oqibatlar ham. Ko'pincha, o'zini yomon his qilish, jinsiy quvvat bilan bog'liq muammolar va erkakning asabiyligi charchoq va dam olmaslikka yo'yiladi, ya'ni kishi kasal ekanligi va tibbiy yordamga muhtojligini tan olmaydi. Ushbu kasallikning o'z vaqtida aniqlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan har yillik profilaktik tekshiruvlar kasallikni dastlabki bosqichlarda tashxislash imkonini beradi. Yallig'lanish jarayonining surunkali shakli oraliq, chov va qov sohasida yaqqol sezilmaydigan, tezda o'tib ketadigan og'riqlar bilan namyon bo'ladi. Odatda jinsiy aloqaning davomiyligi o'zgaradi, u uzayishi yoki aksincha, kamayishi mumkin, jinsiy hissiyotlarning yorqinligi ham o'zgaradi. Siydik chiqarish kanalidan ajralmalar chiqishi kuzatiladi, ayniqsa ertalablar, yoki siydikda oq-oq moddalar bo'lishi qayq qilinadi. Yallig'lanish jarayoni siydik chiqarish kanali bo'shlig'ining siqilib qolishga olib kelishi tufayli siydik chiqarish buzilishlari sodir bo'ladi va erkaklar birinchi o'rinda bunga ahamiyat berishlari kerak: siydik oqimi zaif bo'ladi, tomchilab chiqishi kuzatiladi va siydik chiqarish boshi yoki oxirida qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Ko'pgina bemorlar siydik pufagining to'liq bo'shalmasligi yoki siydikning nazoratsiz oqishini kuzatishganini qayd qilishadi. Yallig'lanish jarayoni nerv oxirlariga qo'zg'atuvchi ta'sir ko'rsatadi va natijada tez-tez siydik chiqarishga chaqiriqlar yuzaga keladi, ayniqsa kechqurun, bunda siydik chiqarish kichik miqdorlarda bo'ladi. Bu alomatlar patologik jarayonning rivojlanishi haqida gapiradi va darhol shifokorga murojaat qilishni talab qiladi. Faqatgina mutaxassis to'g'ri tashxis qo'yishi va kerakli davolanishni belgilashi mumkin. Afsuski, bu alomatlar ortida prostata saratoni kabi dahshatli kasallik yashiringan bo'lishi ham mumkin. Prostata bezining yallig'lanish jarayoni o'z vaqtida davolay boshlansa, jinsiy sohada sezilarli buzilishiga olib kelmaydi. Biroq, davolash bo'lmasa, ko'pincha reproduktiv yoshdagi erkaklarda jinsiy istakning yo'qolishi va bepustlik rivojlanadi. Davolanilmagan prostatitning asoratlari orasida tez-tez uchrab turadiganlari siydik yo'li ikkilamchi infeksiyalari va buyrak yetishmovchiligi rivojlanishidir. Qovuq toshlari va siydikning ushlanib qolishi ham undan kamroq xavfli emas. Kasallik rivojlanadi va siydik pufagini qamrab oladi — qon aylanish yomonlashishi tufayli siydik

ajralishi buziladi va devorlarining sklerozlanishi sodir bo'ladi, bu patologik o'zgarishlar tiklanmas hisoblanadi.

Prostatit kasalligi profilaktikasi Agar bemor vaqtida shifokorga murojaat etmasa, keyinchalik prostata bezida yiringlash paydo bo'lishi mumkin. Bunday hollarda tana harorati 39-40 darajagacha ko'tarilib, siydik yo'llarida qattiq og'riq seziladi.

Shuni unutmaslik kerakki, kasallikning surunkali turi murakkab kechishi bilan xavflidir. Bu kasallik ko'p yillar mobaynida inson tanasida yashirin kechgani bois o'zini sezdirmaydi. Shuning uchun ham ko'p erkaklar o'zlarida prostata bezi borligini bilishmaydi. Vaqt o'tgan sari bezning yallig'lanishi hisobiga vaziyat yanada murakkablashib boraveradi. Erkak organizmida kechayotgan bu jarayon keyinchalik siydik yo'liga o'tib, quyidagi kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin:

- ✓ [sistit](#) (qovuqning yallig'lanishi);
- ✓ piyelonefrit (buyrak va buyrak jomchasi
- ✓ shilliq pardasining yuqoridan pastga qon
- ✓ orqali tushuvchi yoki pastdan siydik yo'lidan yuqoriga ko'tariluvchi
- ✓ infeksiya orqali yallig'lanishi);
- ✓ vezikulit (urug' pufakchalarining yallig'lanishi);
- ✓ epididimoorxit (moyaklar va ularning ortiqlari (pridatkalari)ning yallig'lanishi).

O'TKIR VA SURUNKALI PROSTATITNI DAVOLASH

Prostatit kasalligi uzoq vaqtlardan buyon ma'lum va har qanday yoshdagi erkaklar orasida keng tarqalgan bo'lsa-da, uni davolash qiyin bo'lishi mumkin. O'tkir prostatitni davolashda odatda hech qanday qiyinchiliklar tug'ilmaydi, biroq surunkali prostatitni har doim ham tuzatishning imkoni bo'lmaydi. Olimlarning prostata bezining surunkali yallig'lanishini qanday davolash kerakligi haqida ko'plab nuqtai nazarlari mavjud.

Biroq, quyidagi paragraflarda mutaxassislar o'rtasida kelishmovchiliklar mavjud emas:

- ✓ Davolash samaradorligi bevosita o'z vaqtida boshlanishiga bog'liq;
- ✓ Davolash alohida bemorning barcha o'ziga xos sog'liq holatlarini inobatga olgan holda kompleks tarzda amalga oshirilishi kerak. Patologiyaning rivojlanishga olib kelgan sababni aniqlash juda muhimdir;
- ✓ Hech qanday yagona dori-darmon va davolash usullari yo'q. Birinchi bemorga yordam bergan narsa ikkinchisiga zarar yetkazishi mumkin;
- ✓ Mustaqil ravishda tashxis qo'yish va davolanish qat'iyon taqiqlanadi.

Prostatit kasalligini davolashning zamonaviy usullari

Hozirgi kunga kelib, prostatitdan aziyat chekayotgan bemorlar og'riqsiz va samarali davolash usullari yordamida shifo topmoqdalar. Buning uchun avval ularni quyidagi tekshiruvlardan o'tkazish lozim:

- kompyuter orqali skaner qilish;
- uch tomonlama ultratovush tashxisi;

- Immunofermentli muolaja – [PSA](#) (prostata maxsus antigeni).

• Bemorning yakuniy natijalarini o'rganib chiqqach, unga prostatit, adenoma, ya'ni giperplaziya (bez to'qimadan vujudga kelgan o'sma) yoki prostata bezi saratoni deb aniq tashxis qo'yish mumkin.

Xulosa: Ushbu kasallik tashxisi qo'yilgan bemorlarning tushkunlikka tushishlariga hojat yo'q. Chunki olimlar allaqachon bunday bemorlarning dardiga ham shifo topish usulini ishlab chiqishgan. Prostata bezi saratoni kasalligini boshlang'ich davrida davolash ijobiy natija beradi. Lekin xavfli o'sma hujayralarining boshlang'ich o'chog'idan boshqa a'zolarga qon yoki lifa oqimi bilan o'tishi natijasida hosil bo'ladigan ikkilamchi o'sma (metastaz) paydo bo'lgan bo'lsa, kasallikni davolash mushkul kechadi. Shuning uchun erkaklarga vaqti-vaqti bilan shifokor ko'rigidan o'tib turishni maslahat beraman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://avitsenna.uz/>
2. <https://mymedic.uz/kasalliklar/urologiya/prostatit>
3. [Prostatit kasalligining sabablari, belgilari va turlari – DNK.UZ surgery.med.tma.uz](#)

SHAHARLAR VA BOSHQA AHOLI PUNKTLARIDA OBODONLASHTIRISH QOIDALARINI BUZISH HUQUQBUZARLIGINI OLDINI OLISH

Sayfullayev G`iyosiddin Xoldor o`g`li
IIV Akademiyasi 3-kurs kursanti, safdor

Annotatsiya: *Ushbu maqola orqali siz, ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olish faoliyatini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va metodologik asoslari, faoliyatni tartibga soluvchi huquqiy asoslari va ularning amaliyotdagi tahlili va ularga nisbatan rasmiylashtirilgan hujjatlar, shuningdek muammolar va kamchiliklar, hamda ularning bartaraf etish bo'yicha bir qator takliflar haqida bilib olishingiz mumkin. Ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olish faoliyatini tashkil etish, hamda yuqorida keltirib o'tilgan jihatlardan foydalangan holda ushbu faoliyatni takomillashtirish yo'nalishlari ushbu maqolaning asosini tashkil etadi.*

Kalit so'zlar: *obodonlashtirish, shahar, profilaktika, metodik tavsiya, aholi punktlari, chiqindi, takomillashtirish.*

ПРЕДУПРЕЖДЕНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЯ НАРУШЕНИЯ ПРАВИЛ ЗАСТРОЙКИ В ГОРОДАХ И ДРУГИХ НАСЕЛЕННЫХ ПУНКТАХ

Аннотация: *Благодаря данной статье Вам, органам внутренних дел, будут представлены научные исследования и основы обеспечения здорового образа жизни при нарушении благоустройства городов и других населенных пунктов, анализ правовых основ и методов, регламентирующих их деятельность и формализованные документы, проблемы и ошибки в отношении к ним и вы можете узнать о ряде предложений по их устранению. В основу данной статьи положена организация деятельности органов внутренних дел по предупреждению нарушения правил благоустройства городов и других населенных пунктов, а также направления совершенствования этой деятельности с использованием указанных выше аспектов.*

Ключевые слова: *благоустройство, город, профилактика, методические рекомендации, населенные пункты, отходы, благоустройство.*

PREVENTING THE CRIME OF VIOLATING THE RULES OF DEVELOPMENT IN CITIES AND OTHER POPULATION POINTS

Annotation: *Through this article, you, the internal affairs bodies, the scientific research and basis of ensuring the healthy violation of improvement works in cities and other settlements, the analysis of the legal bases and methods regulating their activities and formalized documents, problems and errors in relation to them and you can learn about a number of proposals for their elimination. The basis of this article is the organization of the activities of the internal affairs bodies to prevent the violation of the rules of landscaping in cities and other settlements, as well as the directions for improving these activities using the aspects mentioned above.*

Key words: *beautification, city, prevention, methodical recommendation, settlements, waste, improvement.*

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalarda mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti sog'lig'i, qadr-qimmatini va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvor masalalardan biri etib belgilandi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash - bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

“Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jamoat tartibini saqlash, shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasi bo'yicha respublikada yaxlit huquqiy tizim yaratilgan bo'lib, unda ichki ishlar organlari muhim o'rin egallaydi”⁶⁸

Ichki ishlar organlari aholining tinch va farovon hayot kechirishini ta'minlash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, shuningdek boshqa hayotiy muhim vazifalarni amalga oshirishda alohida o'rin egallaydi. Mustaqillik yillarida ichki ishlar organlarini jazolovchi, nazorat qiluvchi organdan xalq, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qiladigan tuzilmaga aylantirish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni “Xalq manfaatlariga xizmat qilish” tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi.

⁶⁸O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmoni 5005-sonli 2017-yil 10-aprel. // URL: <http://www.lex.uz>.

Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini "Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun" degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: "Jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash — amalga oshirilayotgan barcha islohotlar samaradorligiga erishish, aholi turmush darajasini oshirish, mamlakatda tinchlik, totuvlik va barqaror vaziyatni ta'minlashning asosiy kafolatidir"⁶⁹, deb – takidlab, barcha islohotlar eng avvalo inson mafaatlari xizmat qilish uchun qaratilganligiga alohida urg'u berib kelmoqdalar.

O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi qonunining 2-moddasida Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishdan, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashdan, shuningdek huquqbuzarliklarning oldini olish va profilaktikasidan iborat ekanligi belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi profilaktikasi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, davlat organlari va jamoat tashkilotlari tomonidan huquqbuzarliklar faktlari hamda huquqbuzarliklar bilan bog'liq boshqa holatlar haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tartiblari belgilangan.

Profilaktika inspektorining, shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olish bo'yicha jamoat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi quyidagicha:

– "profilaktika inspektorlari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyalar bilan o'zaro hamkorlik qiladilar:

– aholining ekologik madaniyatini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish choralarini ko'rish;

– tabiiy ofatlar bilan kurashishga va ularning oqibatlarini bartaraf etishga fuqarolarni jalb etish";

– birlashtirilgan xududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining fuqarolar yig'inida atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya holati va obodonlashtirish yuzasidan hisobotlarni eshitish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

– atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish;

⁶⁹Mirziyoev Sh.M. "Demokratik islohotlarni izchil davom ettirish, xalqimiz uchun tinch va osoyishta, munosib hayot darajasini yaratish — barqaror taraqqiyot kafolatidir" // Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal demokratik partiyasi.

³Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati: Huquqbuzarliklar profilaktikasi fvoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi / A.S.Tursunov, I.Ismoilov, I.Yu.Fozilov, B.F.Alimov, S

– ekologiya va atrof muhit muhofazasi, obodonlashtirish masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash.

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish tartibini belgilash nazarda tutilgan.

– qonunchilikda belgilangan tartibda aholini atrof muhitning holati va uni sog'lomlashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarga doir ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

– «Toza hudud», «Maxsustrans» davlat unitar korxonalari va «Chiqindilarni qayta yuklash va utilizatsiya qilish» davlat korxonasi, shuningdek, sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar faoliyatida chiqindi to'plash shoxobchalarini ishga tushirish, chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqish, poligonlarni boshqarish bo'yicha hamkorlik qiladilar;

– chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

– chiqindilarni yig'ish, saralash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqishni tashkillashtiradi;

– chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish sohasida hamkorlikni amalga oshiradi;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shahar va tumanlardagi sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati yuzasidan chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etishi bo'yicha davlat nazoratini ta'minlaydi;

– chiqindi to'plash shoxobchalarini tashkil etish, chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqib ketish, ruxsat etilmagan chiqindixonalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, poligonlarni boshqarish, chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilishni belgilangan tartibda nazoratga olishni tashkil etadi;

– chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, ularni ko'mish va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'playdi hamda tahlil qiladi;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda yordam ko'rsatadi;

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan joylardagi ruxsat etilmagan chiqindixonalarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishi yuzasidan hamkorlikni tashkillashtiradi;

– ifloslantiruvchi moddalarni atrof muhitga chiqarib tashlashning va oqizishning, chiqindilar hosil bo'lishi va joylashtirilishining belgilangan ekologik normativlariga, shuningdek, bunday ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlashni, oqizishni va chiqindilarni belgilangan normativlargacha kamaytirishga doir kelishilgan tadbirlarni amalga oshiradilar.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Obodonlashtirish ishlarini tashkil qilish, atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish sohasida:

– qonun buzilishlari profilaktikasi bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktikani amalga oshiradi, shuningdek mazkur huquqbuzarliklarni aniqlaydi, bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni va ularning oqibatlarini bartaraf etadi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritadi va mazkur ma'lumotlar tahlilini amalga oshiradi;

– huquqbuzarliklar profilaktikasida bevosita ishtirok etuvchi va uni amalga oshiruvchi boshqa organ hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunning 19¹ – moddasida tabiatni muhofaza qilishda va ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishda jamoatchi inspektorlarning roli hamda jamoatchi inspektorlarning ekologik huquqbuzarliklarning oldini olishdagi aniq vakolatlari bilan to'ldirilsa maqsadga muvofiq bo'lardi, deb hisoblaymiz.

Birinchidan, ekologik nazoratning jamoatchi inspektori oddiy fuqarolar jamoat ekologik nazorati sohasida amalga oshirishi mumkin bo'lgan uchta huquq va vakolatga (atrof-muhitni muhofaza qilishni, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash masalalari bo'yicha qarorlar tayyorlash va qabul qilishda, shuningdek davlatning boshqa ekologik dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish; ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining o'zi tomonidan aniqlangan fakti to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xabardor qilish) ega emas;

Ikkinchidan, fuqarolar shaxsan amalga oshirishi mumkin bshlgan bitta huquq va vakolatni (atrof-muhitning holati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mazkur sohadagi qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan aniqlangan fakti bartaraf etish bo'yicha

ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga murojaat qilish va axborot olish) bevosita realizatsiya qilolmaydi, ya'ni jamoatchi inspektor qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida axborot olish uchun tegishli davlat organlariga, fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organi va nodavlat notijorat tashkilotining murojaatini tayyorlashda ishtirok etishi mumkin xolos;

Uchinchidan, ekologik nazoratning jamoatchi inspektori fuqarolar amalga oshira olmaydigan uchta huquq va vakolatni (davlat, idoraviy va ishlab chiqarish ekologik nazoratini amalga oshirishda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish; yuridik va jismoniy shaxslardan jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlar va axborotni olish ; aholining ekologik madaniyatini oshirish, ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirishga doir ishda ishtirok etish)ni ham oladi.

Shu ma'noda, ekologik nazorat jamoatchi inspektorning jamoat ekologik nazorati sub'ekti sifatidagi huquqiy holatini takomillashtirish maqsadida uning huquqlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Xususan, ekologik nazoratning jamoatchi inspektori ekologik huquqbuzarliklar sohasida fuqarolar amalga oshirishi mumkin bo'lgan huquqlarga (atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash masalalari bo'yicha qarorlar tayyorlash va qabul qilishda, shuningdek davlat ekologik dasturlari va boshqa ekologik dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish; ekologik nazorat sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda qatnashish; atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishining o'zi tomonidan aniqlangan fakti to'g'risida maxsus vakolatli davlat organlarini, mahalliy davlat hokimiyati organlarini, davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarini, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini xabardor qilish) ega bo'lishi, shuningdek, mazkur sohadagi qonun hujjatlari buzilishi yuzasidan aniqlangan faktni bartaraf etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida tegishli davlat organlariga shaxsan murojaat qilish va axborot olish huquqiga ega bo'lishi hamda ekologiya sohasida o'zlarining tashabbuslari orqali hududlarda huquqbuzarlik profilaktikasini yuritishda O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar organlari organlarining xodimlari bilan birga reydlar va boshqa huquqiy ta'sir choralari qo'llashda ishtirok etishini kafolatlash lozim.

Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish profilaktika inspektorlari oldiga quyidagi vazifalarni yuklaydi.

Birinchi: *Sodir etilgan ma'muriy huquqbuzarlik bo'yicha ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama va to'la aniqlab chiqish*. Bunda profilaktika inspektorlari sodir etilgan qilmishda haqiqatdan ham ma'muriy huquqbuzarlik alomati bor yoki yo'qligini aniqlashi lozimdir. Buning uchun profilaktika inspektori voqea joyiga borib, sodir bo'lgan holat bilan yaqindan tanishib chiqishi maqsadga muvofiq. Agar sodir etilgan qilmishda ma'muriy huquqbuzarlik alomatlari mavjud bo'lsa, uni sodir etgan shaxsning shu qilmishda aybdorlik darajasini aniqlashi lozimdir. Bunda profilaktika inspektori har qanday

huquqbuzarlik qasd yoki ehtiyotsizlik natijasida sodir etilishini unutmazligi zarur. Shuningdek, profilaktika inspektori ma'muriy huquqbuzarlik ma'muriy javobgarlikni yuzaga keltirishini inobatga olishi lozim, chunki ayrim sodir etilgan huquqbuzarliklar ma'muriy javobgarlikni yuzaga keltirmaydi. Masalan, shaxs tomonidan sodir etilgan qilmish aqli norasolik xolatida yoki ruhiy kasallikka chalingan shaxs tomonidan sodir etilgan bo'lsa. Biroq yuqori darajada mastlik holatida, ya'ni shaxs o'z xatti-harakatlarini anglamagan holda sodir etilsa, javobgarlikka sazovor bo'ladi va qonunga binoan shaxsning bu qilmishi og'irlashtiruvchi holat sifatida baholanadi. Bundan tashqari profilaktika inspektori huquqbuzarlik sodir etgan shaxs hamda ishga aloqador boshqa shaxslar guvoh va jabrlanuvchilarning ko'rsatuvlari, dalillar chuqur o'rganishi hamda yengilashtiruvchi holatlarning bor yoki yo'qligini, huquqbuzar to'g'risidagi, shuningdek ish uchun ahamiyatli bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, ishni to'xtatishga olib kelishi mumkin bo'lgan holatlarning mavjudligini aniqlash lozimdir.

Yangi soliq yoki jarimalar taklif etilsa, to'lamaganimiz endi toza havo uchun soliq qoldi, deb kinoya qilib qo'yamiz: "Havoni ham pullik qilib qo'yishsin!"

Aslida toza havo, yo'g'-e, ifloslangan havo allaqachon bizga qimmatga tushyapti. Cho'ntakdan naqd pul to'lamasak ham, o'z salomatligimiz, kasallikka chalinish, erta vafot etish ehtimoli oshishi va boshqa bilvosita yo'llar orqali yaxshigina tovon to'layapmiz. Ayniqsa, bechora poytaxtliklar, otning kallasiday ijara haqini to'lab yurgani yetmaganday, bugun tabiatga yaxshigina hisob berishga majbur. Negaki, Toshkent havosi yana keskin ifloslandi. 12-oktabr kuni O'zbekiston poytaxti havosi eng ifloslangan shaharlar qatoridan o'rin oldi.

Aytilishicha, havoda mayda PM-2,5 dispers zarrachasining me'yoriy qiymatlaridan ortishi havoning sifat darajasi "qoniqarsiz" bo'lishini ta'minladi. Shifokorlarga ma'lumki, soch tolasidan 40 barobar kichkina, deyarli ko'rinmas PM-2,5 mayda dispers zarrachalarining havoda me'yordan ko'p bo'lishi kishilar nafas olganda hech qanday to'siqlarsiz, o'pka to'qimalariga urilib, to'g'ridan-to'g'ri qon orqali yurakka yetib borish xususiyatiga ega. Va bu, tabiiyki, inson salomatligi uchun o'ta xavfli.

Bundan tashqari, iflos havo ta'sirida nafas yo'llari qichishib, yo'tal va nafas olish qiyinlashuvi, astma kuchayishi, o'pka saratoni, buyrak kasalligi, surunkali bronxit va bu kasalliklardan azob chekayotgan odamlarda bevaqt o'lim kabi holatlar kuzatiladi. Bunday havo yoshi kattalar, bolalar, homilador ayollar va immunitet tanqisligi bo'lgan aholi uchun katta xavfga ega.

Albatta, bu gaplar biroz vahimali tuyulishi mumkin, lekin shoshilmang. Chunki har yili dunyo bo'yicha 7 milliondan oshiqroq odam havoning ifloslanishi oqibatida hayotdan ko'z yumar ekan. Bu taxminan har 8 o'limning 1 tasi aynan havoning ifloslanishi oqibatida sodir bo'ladi, deganidir.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bosh direktori Tedros Adhanomga ko'ra, havoning ifloslanishi insonning butun tana a'zolaridan tortib, ona qornidagi chaqaloq rivojlanishigacha salbiy ta'sir o'tkazayapti. Bunga misol qilib, 2021-yilda Hindistonda to'rt

qo'li va to'rt oyog'i bor chaqaloqning tug'ilishini aytish mumkin. U yerda sanoat chiqindilari bilan havo, tuproq va suvning yuqori darajada ifloslanishi fonida mutatsiyaga uchragan bolalar va hayvonlarning tug'ilishi ko'p kuzatiladi. Bundan tashqari, dunyo bo'yicha havo zaharlanishi qurbonlarining 9 foizi yosh bolalar hisoblanadi: 5 yoshdan kichik vafot etgan bolalar soni 543 ming nafarni tashkil etadi. 52 ming nafardan oshiqroq qurbonlar esa 5-15 yosh oralig'ida.

Afsuski, bugun yurtimizda ham ahvol achinarli tus olmoqda. Mashinalarning haddan tashqari ko'pligi, rejasiz qurilayotgan binolar, vahshiylarcha kesilayotgan daraxtlar poytaxtning ko'rinishini butunlay o'zgartirib yuborgan. Havo shu qadar ifloski, havodagi zahar hatto jigarrang tusda ko'zga ko'rinib turadi. Uni nafas yo'llaringda va ta'm qabul qilgichlaringda sezasan. Pala-partish quruvchi kompaniyalardan chiquvchi tutun, chang-to'zon, mashinalardan chiqqan karbonat angidrid, azot oksidi va metan bilan qo'shilib o'pkani yemiradi.

Toshkent shahri havo iflosligi bo'yicha 180 ta mamlakat orasida 12-o'rindan 1-o'ringa chiqdi. Ammo bu deyarli hech kimni tashvishga solayotgani yo'q, shekilli. Balki mutasaddilar "Xalqaro reytingda yuqoriladik", deb quvonayotgandir...



Ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha har bir holatni o'z vaqtida aniqlash bevosita ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Ikkinchi: *Profilaktika inspektorlari tomonidan ma'muriy huquqbuzarliklar ishlarini qonun hujjatlariga binoan hal etilishi* ushbu faoliyatda qonuniylikni ta'minlashning asosiy qoidalardan biri hisoblanadi. Mazkur qoidalarning mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi⁷⁰ning 15-moddasidan kelib chiqadi, ya'ni profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va hal etishda avvalo O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga asoslanishi, shuningdek

⁷⁰ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi T. 2022 // URL: <http://www.lex.uz>.

ma'muriy huquqbuzarlikni sodir etgan shaxs, faqatgina qonun hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan asoslarda va tartibda ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin;

Uchinchi: *ma'muriy huquqbuzarlik ishlari bo'yicha chiqarilgan qarorlarni ijro etish ish yuritishning asosiy vazifalaridan biri sifatida huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi.* Ma'muriy javobgarlikka tortish bo'yicha qarorlarni ijro etmaganlik, huquqbuzarliklarga qarshi kurashishning samarasini pasaytiradi, qonuniylik prinsipiga putur yetkazadi. Shuning uchun profilaktika inspektori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etgan shaxsga nisbatan jarima jazosini qo'llash to'g'risida qaror qabul qilgandan so'ng, uni ijroga qaratishi lozimdir. Huquqbuzarlik sodir etgan shaxs 15 kunlik muddat ichida jarimani to'lashi va to'langanlik haqida to'lov talonini profilaktika inspektoriga taqdim etishi shart.

To'rtinchi: *ma'muriy huquqbuzarlik ishlarini ko'rib chiqishda ma'muriy huquqbuzarliklarni sodir etish sabab va shart-sharoitlarini aniqlash* – bu ma'muriy-yurisdiksiyaviy faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari va mansabdor shaxslar nafaqat huquqbuzarlik sabablarini aniqlashlari, balki ushbu sabab va sharoitlarni bartaraf etish choralarini ham ko'rishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasi MJTKning 313-moddasiga binoan, ishni ko'rib chiquvchi organ yoki mansabdor shaxs ma'muriy huquqbuzarliklar sodir etish sabablari va ularga olib kelgan shart-sharoitlarni aniqlaganda, bu sabab va shart-sharoitlarni bartaraf qilish yuzasidan choralar ko'rish to'g'risidagi taqdimnomani tegishli korxonaga, muassasa, tashkilot rahbariga kiritadi. Rahbar esa taqdimnoma kelib tushgan kundan boshlab bir oy ichida uni kiritgan organga ko'rilgan choralar haqida ma'lum qilishi shart;

Beshinchi: *ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish va ko'rib chiqishda profilaktika inspektorlari oldida turgan asosiy vazifalardan biri huquqbuzarlikning oldini olishdir.* Bu vazifani amalga oshirishda profilaktika inspektori huquqbuzarliklar profilaktikasining ishtirak usulining ustuvorligi hamda yakka tartibda yondashish prinsipiga qat'iy amal qiladi. Shuningdek, shaxs tomonidan huquqbuzarlik sodir etilishini oldini olish maqsadida yakka tartibdagi profilaktik chora-tadbirlarni qonun talablari asoslariga binoan qo'llaydi.

Oltinchi: *Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish chog'ida profilaktika inspektori ishda ishtirok etuvchilarni jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor normalari va qoidalariga rioya etishga zarurligini, g'ayriijtimoiy xulq-atvorning ijtimoiy va huquqiy oqibatlarini hamda huquqbuzarlik sodir etganlik uchun qonunda belgilangan javobgarlikni tushuntiradi.* Shuningdek, fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining mazmun va mohiyatini tushuntirish orqali ularning huquqiy ongini oshirish orqali ularga og'ishmay rioya etish ruhida tarbiyalaydi.

Yettinchi: *qonunchilikni mustahkamlash.*

Profilaktika inspektorlari ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishda ushbu faoliyatning qat'iy prinsiplarga amal qilishlari lozimdir.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishda qonunchilikni takomillashtirish, chiqindini belgilanmagan joyga tashlanishining oldini olish uchun jarimalarni oshirish va ularni nazorat qilish zarur. Belgilanmagan joylarga chiqindi tashlaganlarni qattiq jazoga tortish (kameralar orqali aniqlash tizimini joriy etish), aholini chiqindini saralashga o'rgatish, ularni qayta ishlashni yo'lga qo'yish, sog'lom turmush tarzini yaxshilash, ekologiya sohasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish va bartaraf etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarda umume'tirof etilgan xalqaro huquqiy normalarda mustahkamlangan inson huquq va erkinliklarini ta'minlash, uning hayoti sog'lig'i, qadr-qimmati va boshqa qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari ustuvor masalalardan biri etib belgilandi. Qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlarini muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash - bu rivojlangan bozor iqtisodiyotiga asoslangan chinakam demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyati qurishning nafaqat maqsadi, balki uning vositasi, eng muhim sharti hisoblanadi.

Shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishda ichki ishlar organlari jamoat tashkilotlari va fuqarolarni o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorligi quyidagicha:

– “profilaktika inspektorlari obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish bo'yicha komissiyalar bilan o'zaro hamkorlik qiladilar:

– aholining ekologik madaniyatini rivojlantirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish choralarini ko'rish;

– tabiiy ofatlar bilan kurashishga va ularning oqibatlarini bartaraf etishga fuqarolarni jalb etish”;

– birlashtirilgan xududda joylashgan tashkilotlar rahbarlarining fuqarolar yig'inida atrof-muhitni muhofaza qilish, sanitariya holati va obodonlashtirish yuzasidan hisobotlarni eshitish bo'yicha takliflarni tayyorlash;

– atrof muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish;

– ekologiya va atrof muhit muhofazasi masalalarida jamoatchilik va fuqarolik jamiyati institutlari bilan mustahkam hamkorlikni, qulay atrof muhitga bo'lgan fuqarolar huquqini ta'minlash.

– muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish bo'yicha rejalarni ishlab chiqish tartibini belgilash nazarda tutilgan.

– qonunchilikda belgilangan tartibda aholini atrof muhitning holati va uni sog'lomlashtirish bo'yicha ko'rilayotgan choralarga doir ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

– chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan hamkorlikni muvofiqlashtirishni amalga oshiradi;

– chiqindilarni yig'ish, saralash, saqlash, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilish tizimini samarali tashkil etish bo'yicha tadbirlarning ishlab chiqishni tashkillashtiradi;

– chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etilishi yuzasidan davlat ekologik nazoratini amalga oshirish, mahalliy davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan mustahkam hamkorlikda maishiy chiqindilarni yig'ish, tashish, utilizatsiya qilish, qayta ishlash va ko'mish borasida ta'sirchan tizimni tashkil etish sohasida hamkorlikni amalga oshiradi;

– davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, shahar va tumanlardagi sanitariya jihatidan tozalashga ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslarning faoliyati yuzasidan chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi qonunchilikka rioya etishi bo'yicha davlat nazoratini ta'minlaydi;

– chiqindi to'plash shoxobchalarini tashkil etish, chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqib ketish, ruxsat etilmagan chiqindixonalarning paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, poligonlarni boshqarish, chiqindilarni utilizatsiya qilish, qayta ishlash, ko'mish va realizatsiya qilishni belgilangan tartibda nazoratga olishni tashkil etadi;

– chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish, ularni ko'mish va utilizatsiya qilish joylarining davlat kadastrini yuritish bilan bog'liq ma'lumotlarni to'playdi hamda tahlil qiladi;

– fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va nodavlat notijorat tashkilotlariga jamoatchilik ekologik nazoratini amalga oshirishda yordam ko'rsatadi;

– davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan joylardagi ruxsat etilmagan chiqindixonalarni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilishi va ularning amalga oshirilishi yuzasidan hamkorlikni tashkillashtiradi;

– ifloslantiruvchi moddalarni atrof muhitga chiqarib tashlashning va oqizishning, chiqindilar hosil bo'lishi va joylashtirilishining belgilangan ekologik normativlariga, shuningdek, bunday ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlashni, oqizishni va chiqindilarni belgilangan normativlargacha kamaytirishga doir kelishilgan tadbirlarni amalga oshiradilar;

Atrof-muhitni muhofaza qilish, obodonlashtirish ishlarini tashkil qilish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktika o'tkazish sohasida:

– qonun buzilishlari, profilaktikasi bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarliklar bo'yicha profilaktikani amalga oshiradi, shuningdek mazkur huquqbuzarliklarni aniqlaydi, bunga imkon beruvchi shart-sharoitlarni va ularning oqibatlarini bartaraf etadi;

– atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasida huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning hisobini yuritadi va mazkur ma'lumotlar tahlilini amalga oshiradi;

– huquqbuzarliklar profilaktikasida bevosita ishtirok etuvchi va uni amalga oshiruvchi boshqa organ hamda muassasalar bilan hamkorlik qiladi.

Ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olish faoliyatining dolzarbligi shundan iboratki, ushbu mavzu bo'yicha yangi tartibdagi qonunlar asosida kamchiliklar keltirib o'tilgan. Hozirgi kunda asosiy muammolar fuqarolarning atrof-muhitga bo'lgan e'tiborsizliklari, tozalik sanitariya qoidalariga rioya etmayotganligi ya'ni yurtimizda boshqa sohalar qatori ekologik barqarorlikni ta'minlash, aholining qulay tabiiy muhitga ega bo'lishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, chiqindilarni yig'ish va qayta ishlash, obodonlashtirish qoidalarini buzish holatlarini hamda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarning oldini olish va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha jiddiy muammolar mavjud;

▶ ichki ishlar organlarining jamoat tashkilotlari va obodonlashtirish boshqarmalari o'rtasida hamkorlik qonun hujjatlari bilan yetarli darajada tartibga solinmaganligi, o'zaro hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmaganligi;

▶ shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishga hech bir davlat tashkiloti jiddiy qaramasligi ;

▶ ichki ishlar organlarining aholi punktlarini doimiy nazorat qilib borishining iloji yo'qligi ;

▶ fuqarolar o'rtasida atrof-muhit muhofazasi bo'yicha targ'ibot tadbirlarining o'tkazib turilmasligi.

XULOSA

Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rildi.

Fuqarolarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va kambag'allikni qisqartirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilanib, aholini yangi ish o'rinlari va kafolatli daromad manbai, malakali tibbiy va ta'lim xizmatlari, munosib yashash sharoitlari bilan ta'minlash sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi.

So'nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslari yaratildi.

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda "Inson qadri uchun" tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

Keng jamoatchilik muhokamasi natijasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari" tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo'nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi 60-sonli Farmoni qabul qilindi.

Ushbu islohotlar zamirida davlat organlari faoliyatda tub o'zgarishlar olib borildi. Ushbu o'zgarishlarni asosiy maqsadi jinoyatchilik hamda huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan.

Ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olish faoliyatini tashkil etishda mahalla huquq-tartibot maskanlari(tayanch punktlari) muhim ahamiyat kasb etadi. Mahalla huquq-tartibot maskanlari(tayanch punktlari) profilaktika(katta) inspektorlari shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishda ma'muriy hududda o'z vakolatlari doirasida to'g'ridan-to'g'ri O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 161-moddasiga asosan (fuqarolarga nisbatan) jarima solishlari mumkin bo'ladi.

Hozirda mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar zamirida, ichki ishlar organlari tuzilmalari o'rtasida xizmat faoliyatining to'g'ri taqsimlanishiga va aniq vazifalar belgilanishiga erishildi. Shu bilan bir qatorda huquqbuzarliklarni oldini olish va uni yanada takomillashtirish borasidagi masalalar bo'yicha alohida vazifalar belgilab berildi.

Huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasidagi siyosatni amalga oshirish, huquqbuzarliklarni barvaqt oldini olishda ichki ishlar organlarining o'ziga xos o'rni bo'lib, ular keng ko'lamli ishlarni amalga oshiradi. Jumladan, jamoat tartibini saqlash va xavsizlikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, voyaga yetmagan va yoshlarni turli salbiy ta'sirlar, diniy ekstremizm va terrorizm, giyohvandlik va surunkali ichkilikbozlik, ommaviy madaniyat va boshqalardan asrash, jinoyatchilikka qarshi kurash, fuqarolarni huquqiy madaniyatini yuksaltirish, huquqbuzarliklarni oldini olish va profilaktikasini ta'minlash o'ta muhim vazifalardan biridir.

Shu boisdan bugungi kunda ichki ishlar organlarining barcha tizimlarida sifat jihatdan butunlay yangicha asosda shakllantirildi, huquqbuzarliklarning profilaktikasida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash chora-tadbirlari ko'rilib, yangi usul va shakllarda ishni olib borilishi belgilandi va amalga oshirilmoqda. Shu bilan bir qatorda ichki ishlar organlarining kasbiy tayyorgarligi va malakasini shakllantirish borasida ham

alohida vazifalar belgilandiki, bular barchasi ichki ishlar organlari oldida turgan vazifalarni to'liq bajarilishini ta'minlaydi.

Ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarligini oldini olishda quyidagi *kamchilik va muammolar* kuzatilmoqda:

- ❖ qishloq aholi punktlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlar yetarli darajada ta'minlanmagan va mazkur xizmatlar olis qishloq aholi yashash punktlarida deyarli mavjud emas;

- ❖ maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun aholining to'lov intizomi past darajada;

- ❖ aholining ekologik madaniyati yetarli darajada rivojlanmagan.

- ❖ korxonalar, muassasa tashkilotlar va fuqarolar tomonidan huquqbuzarliklar faktlari haqida ichki ishlar organlariga xabar berilmayotganligi;

- ❖ aholi punktlarida, hatto aholi eng ko'p yig'iladigan hiyobonlar, istirohat bog'larida ham urnalar, axlat qutilarining yetarli emasligi;

- ❖ Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 82-, 91-, 123-,161-moddalarida chiqindini tashlash bo'yicha normalar belgilab qo'yilgan bo'lib, belgilangan jarimalarning ta'sirchanligi sezilmayotganligi ;

- ❖ hududlarni nazorat qilishning ta'sirchan tizimini joriy etish;

- ❖ ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha normativ- huquqiy hujjatning mavjud emasligi;

Ushbu holatlardan kelib chiqib ularni hamkorlikda muammolarni o'rganib chiqib quyidagi *takliflarni* berib o'tish kerak:

- aholi punktlarida maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha xizmatlarni yetarli darajada yo'lga qo'yish, olis qishloq aholi yashash punktlarida ham chiqindilarni olib chiqib ketish tizimini namunali darajada yo'lga qo'yish;

- maishiy chiqindilarni to'plash va olib chiqib ketish bo'yicha ko'rsatilayotgan xizmatlar uchun aholining to'lov intizomiga doir qonunchilikka aniq norma kiritish;

- OAV, ijtimoiy tarmoqlarda obodonlashtirish qoidalarini keng yoritish orqali aholining ekologik madaniyatini shakllantirish;

- korxonalar, muassasa tashkilotlar va fuqarolar tomonidan huquqbuzarliklar faktlari haqida ichki ishlar organlariga xabar qilish tizimini joriy etish;

- aholi punktlarida, aholi eng ko'p yig'iladigan hiyobonlar, istirohat bog'larida urnalar, axlat qutilarining normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan tartibda, aholi punktlari bo'ylab juda qulay joylarga joylashtirish orqali qonunni buzishga motiv qoldirmaslik;

- Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 82-, 91-, 123-,161-moddalarida chiqindini tashlash bo'yicha normalar belgilangan jarimalar miqdorini oshirish orqali ushbu normalar ta'sirchanligini oshirish;

➤ belgilanmagan joylarga chiqindi tashlaganlarni qattiq jazoga tortish, belgilanmagan joylarga chiqindi tashlaganlarni kameralar orqali aniqlash tizimini joriy etish;

➤ ichki ishlar organlarining shaharlar va boshqa aholi punktlarida obodonlashtirish qoidalarini buzish huquqbuzarliklarini oldini olish bo'yicha doimiy profilaktik chora tadbirlar amalga oshirilishga doir huquqiy asos shakllantirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. — T.: «O'zbekiston», 2017. — 488 b.

2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — T.: «O'zbekiston», 2017. — 104

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 243-m.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi PQ-2833-son «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori // URL: <http://www.lex.uz>.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bulinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>.

6. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2021 yil 26-martdagi «Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida Ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6196-sonli farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-apreldagi «Ichki ishlar organlarining jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurash sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-5050-sonli qarori // URL: <http://www.lex.uz>.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-27-sonli farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni // URL: <http://www.lex.uz>.

10. B.A. Matlyubov, O'.X. Muxamedov, A.S.Tursunov, Z.A.Amirov, B.F.Alimov. Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov. Ichki ishlar organlarining profilaktik faoliyatini boshqarish://Darslik., T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. – 295 b.

11. A.S. Tursunov, I. Ismailov, I.Yu. Fozilov, B.F. Alimov, Z.A. Amirov, S.B. Xo'jaqulov, Q.A. Saitqulov, Sh.R. G'ofurov. Ichki ishlar organlari profilaktik faoliyati://Huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyati mutaxassisligi uchun: Ma'ruzalar kursi.,– T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018.– 489 b.

12. A.S. Tursunov va boshqalar. O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonuniga ilmiy-amaliy sharh: Qonunga ilmiy-amaliy sharh / Mualliflar jamoasi. Mas'ul muharrir B.A. Matlyubov. T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2018. B. 158.

ШАХСДАГИ ҒАЙРИИЖТИМОЙ ХУЛҚ-АТВОРНИ АНИКЛАШ ВА УНИНГ ПРОФИЛАКТИКАСИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЧОРА ТАДБИРЛАРИ

Муроджонов Нурбек Отабек ўғли
ИИВ Академияси 3-босқич курсанти, сафдор

Аннотация Ушбу мақола орқали сиз, шахсинг ғайриижтимоий хулқ-атворни аниклаш ва унинг профилактикаси фаолияти, унинг тушунчаси, асосий йўналишлари, ўзига хос хусусиятлари, ташкилий-ҳуқуқий асослари, ушбу йўналишдаги хорижий давлатларнинг илғор иш тажрибалари ёритилган, шахсдаги ғайриижтимоий хулқ-атворни аниклаш ва унинг профилактикаси ташкил этишги мавжуд муаммолар таҳлил қилинган ҳамда уларнинг ечимлари юзасидан таклиф ва тавсияларни билиб олишингиз мумкин.

Калит сўзлар: шахс, ғайриижтимоий хулқ-атвор, профилактика, муаммолар, асосий йўналишлар, ташкилий-ҳуқуқий асослар.

МЕРЫ ВЫЯВЛЕНИЯ АСОЦИАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ ЛИЦ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЕГО ПРОФИЛАКТИКИ

Аннотация: Благодаря данной статье вы узнаете о выявлении асоциального поведения личности и его предупреждении, его понятии, основных направлениях, особенностях, организационно-правовых основах, передовом опыте работы зарубежных стран в этом направлении, выявлении асоциального поведения в человек и его профилактика. Вы можете ознакомиться с анализируемыми существующими проблемами и предложениями и рекомендациями относительно их решения.

Ключевые слова: личность, антиобщественное поведение, профилактика, проблемы, основные направления, организационно-правовые основы.

MEASURES FOR IDENTIFYING ANTISOCIAL BEHAVIOR IN PERSONS AND ORGANIZING ITS PREVENTION

Annotation: Through this article, you will learn about the identification of antisocial behavior of a person and its prevention, its concept, main directions, specific features, organizational and legal bases, advanced work experiences of foreign countries in this direction, identification of antisocial behavior in a person and its prevention. You can find out the existing problems analyzed and suggestions and recommendations regarding their solutions.

Key words: person, antisocial behavior, prevention, problems, main directions, organizational and legal bases.

Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида шахснинг ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш борасида улкан ислохотлар олиб борилмоқда. Шунингдек, инсоннинг асосий ҳуқуқ ва эркинликларини муҳофаза қилинишини таъминлаш фуқаролик жамияти қуриш йўлини танлаган ҳар қандай давлатнинг ажралмас белгиси ҳисобланади. Унинг амалга оширилиши, шахснинг, ҳуқуқ-тартибот ҳамда жиноятчиликка карши кураш соҳасида давлат ва унинг органлари билан вужудга келадиган муносабатларини, инсоннинг ҳаёти учун жуда муҳим бўлган соҳаларига аралашувлардан сақланишини таъминлашга қаратилган. Бундан ташқари, давлат ва ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари зиммасига уларнинг ўзидаги мавжуд восита ва усуллар орқали инсон ва фуқаронинг ҳуқуқ ва эркинликларини кафолатлаш вазифасини юклайди. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев Миромонович айтиб ўтган *“Ҳалқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари ҳалққа хизмат қилиши керак”*⁷¹ шиорини ўз олдига мақсад қилиб олган ҳолда, ҳуқуқни муҳофаза қилиш органлари юқорида келтириб ўтилган вазифани масъулият билан амалга ошириб келмоқда.

Ҳозирги кунда юртимизда олиб борилаётган ислохотлар қаторида ҳуқуқбузарликлар профилактикаси фаолияти соҳасида ҳам бир қатор ислохотлар ўтказилмоқда, ушбу ислохотларнинг энг муҳим томони шундан иборатки, ушбу – қонун устуворлиги ва қонунийликни мустаҳкамлаш, шахс ҳуқуқи, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашга қаратилгандир ва шунинг билан бир қаторда профилактика инспекторларининг фаолиятига бир қанча кўзга кўринарли муҳим аҳамиятга эгалигидир, бунга яққол мисол профилактика инспекторининг кунлик иш соати аниқ тартибда белгиланганлиги ва иш хажмининг тартибга солинганлигидир. Ғайриижтимоий ҳуқуқ атворли шахс ҳақида гапирганда дотцент Р.Х.Душановнинг 2017-йилда чиққан *Ҳуқуқбузар ва жабрланувчи шахс психологияси: Ўқув-амалий қўлланма*⁷² сига ҳам таянишимиз мумкин. Мазкур қўлланмада «жиноий ҳуқуқ», «нормадан четга чиқиш» тушунчалари, ички ишлар органлари тизимида уларни билишнинг аҳамияти, жиноятчи шахс, алоҳида тоифадаги ҳуқуқбузар шахсларнинг психологик хусусиятлари ва типологияси, рецидив жиноятчилар ҳамда жабрланувчи шахс психологияси борасида батафсил фикр юритилган.

Юриспуденция ва юридик психология соҳаларида жиноятчи ҳамда жабрланувчи шахслар психологиясини ўрганаётган тадқиқотчилар, тингловчи ва

⁷¹ Ш. М. Мирзиёевнинг Ўзбекистон Либерал-демократик партиясининг VIII съездидаги ўз сайловолди дастурининг асосий йўналишлари ҳақидаги маърузаси. 2016-йил 22-октябр. Тошкент

⁷² Душанов Р. Х. Ҳуқуқбузар ва жабрланувчи шахс психологияси: Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017. – 95 б.

талабалар, шунингдек, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг амалиётчи ходимларига мўлжалланган.

МУХОКАМА ВА НАТИЖАЛАР

Инсон хулқи мураккаб ва кўп қиррали ҳодиса бўлиб, уни ўрганишда тизимли ёндашув ва эҳтимол тутилган жараёнлар ҳақидаги замонавий тасаввурларга эга бўлиш талаб қилинади. Ҳар бир ахлоқий ҳодисанинг моҳияти шахс хулқи билан бевосита боғлиқ.⁷³

Анъанага кўра, ғайриижтимоий хулқ сабаблари икки гуруҳга – ижтимоий ва биологик сабабларга ажратилади. Бироқ, ахлоқ-одоб меъёрлари (қоида)дан оғувчи хулқнинг кўплаб кўринишларини таҳлил қилиш мазкур муаммони бошқачароқ, яъни тизимли-интеграциялашган (бирлашган) ҳолда ўрганиш зарур деган хулосага олиб келади.

Ижтимоийлик ёки биологиклик омилларига «руҳийлик» номли тизим ҳосил қилувчи омилни киритиш ҳамда инсон хулқининг сабабий боғланишлари (детерминацияси) билан боғлиқ барча муаммолар мажмуини ижтимоий-психологик-биологик сабаблар деб аташ зарур. Бунда «психологик» жиҳатнинг ўртада жойлашгани унинг ҳам ижтимоий, ҳам биологик омил учун бирлаштирувчи функцияга эгаллигини англатади.

Ғайриижтимоий хулқ сабаблари ҳақида сўз борар экан, аввало, муаммони таҳлил қилишнинг асосий принципларини келтириб ўтамиз.

1. Ғайриижтимоий хулқ, нормадаги хулқ каби, кўп омилдир, у бир ёки ҳатто бир қанча сабабларнинг оқибати эмас. Бироқ, алоҳида олинган индивидуал ахлоқий кўринишнинг кўп омиллар билан боғлиқлиги ва эҳтимолли хусусияти уни ўрганиб бўлмаслигини билдирмайди. Бу ўринда шахснинг типик индивидуал-психологик хусусиятлари ва ахлоқий қарашларини аниқлаш устун аҳамиятга эга. Ижтимоий ва биологик омиллар ўз-ўзича эмас, балки жиноятчи хулқининг типини ҳосил қилувчи унинг шахсий-психологик хислатларида бирлашган ҳолда ғайриижтимоий хулқнинг аниқловчиларига айланади.

2. Ғайриижтимоий хулқ ижтимоий ижобий хулқдан йўналишининг мазмуни бўйича ҳам, психорегуляцион хусусиятлари бўйича ҳам ажралиб туради. Шахс хулқи унинг эҳтиёжлари, анланган ва анланмаган майллари тизими, олдига мақсад қўйиш ва унга эришиш хусусиятлари билан ажралиб туради. Агар уни схема тарзида тасвирлайдиган бўлсак, қуйидагича кўриниш ҳосил қилади.

Аксарият ҳуқуқбузар шахсларнинг хулқига ижтимоий қадриятларга мослаша олмаслик (дезадаптация) ва ўзини ўзи бошқаришдаги нуқсонлар хосдир. Индивиднинг ўзини ўзи бошқариш имкониятлари паст даражада бўлганида, ғайри-ижтимоий майллари, одатлари нафақат назорат қилинмайди, балки уларнинг ўзлари хулқнинг мақсад ҳосил қилувчи механизмларига айланади.

⁷³Душанов Р. Х. Ҳуқуқбузар ва жабрланувчи шахс психологияси: Ўқув-амалий қўлланма. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2017.

3. Ғайриижтимоий хулқ индивиднинг ўз ижтимоий масъулиятини ҳимоя қилиш (ўзини оқлаш) мотивацияси, умум қабул қилинган ижтимоий қадриятларнинг қадрсизланиши асосида амалга оширилади. Инсон хулқи унинг эҳтиёжлари ва йўналганлик соҳаси, қабул қилган қадриятлар тизими, умум-инсоний маданиятдан баҳрамандлик даражаси билан боғлиқдир. Инсон ҳайвондан фарқли равишда қандайдир ягона хулқ тизимига маҳкум эмас, у кўп функциялидир. Унинг хулқини аниқ инстинктив (туғма) майллари эмас, балки ижтимоийлашув даражаси юзага келтиради.

4. Ғайриижтимоий хулқ можароли хулқ бўлиб, доимо жамиятда, ижтимоий гуруҳларда, шахс билан ижтимоий гуруҳ, айрим шахслар ўртасида ва ниҳоят, шахснинг ўзидаги ички зиддиятларга асосланади. Инсон хулқидаги ташқи ҳолатлар тизими унда шаклланган ички руҳий шарт-шароитлар тизими орқали намоён бўлади. Ушбу ички руҳий шарт-шароитларга қуйидагилар киради:

- қадриятлар тизими;
- ахлоқий йўналганлик;
- хатти-ҳаракатнинг умумлашган усуллари;
- ўзини ўзи тартибга солишнинг психодинамик хусусиятлари.

5. Инсон хулқида на объектив, на субъектив омилларни алоҳида ажратиш мумкин. Ижтимоий омиллар одамлар хулқида бевосита ички шахсий, индивидуал-психологик ҳодисалар орқали таъсир кўрсатади (ва бу баъзан «жиноий табиат» иллюзиясини юзага келтиради).

6. Шахс қанчалик кам ижтимоийлашган бўлса (бу, одатда, ҳуқуқбузар шахснинг ўзига хос хусусиятидир), биологик омилларнинг устун (доминанта) бўлиш эҳтимоли шунчалик юқори бўлади. Инсон онгининг ривожланиши қанчалик чекланган бўлса, унинг хулқида иерархик жиҳатдан қўйи турадиган мотивация даражалари шунчалик катта роль ўйнайди. Ҳар бир жиноят ғайриижтимоий йўналишдаги бошқарув механизмларга эга хулқ натижасидир.

Албатта, руҳий омиллар жиноят содир этилишида биринчи ўринга чиқади ва бу уларнинг биринчи сабаби эканлиги хусусидаги фикрни юзага келтиради. Аслида, руҳий омилларнинг ўзи жиноятчи шахси шаклланишининг ҳақиқий шароитларида юзага келади.

Инсон хулқида ташқи омиллар тизими ички шарт-шароитлар тизими билан белгиланади. Шу боис ҳар бир жиноятда объектив ва субъектив омилларнинг бирлиги кўринади. Ҳеч бир ташқи омил ҳам, ҳеч бир ички ҳолат ҳам ўз-ўзича ахлоқий актни юзага келтирмайди.

Профилактика инспекторининг ғайриижтимоий хулқ-атворга эга бўлган шахслар ишлаш фаолияти ҳозирги кундаги долзарб масалалардан бўлиб Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонуннинг 3-моддасида қуйидаги тушунчалар келтириб ўтилган.

ижтимоий реабилитация қилиш ва ижтимоий мослаштириш — ҳуқуқбузарликдан жабрланувчига, ғайриижтимоий хулқ-атворли, ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган, ҳуқуқбузарлик содир этган шахсларга ҳуқуқий, ижтимоий, психологик, тиббий, педагогик ва бошқа турдаги ёрдам кўрсатишга, шунингдек уларга жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларини сингдиришга қаратилган чора-тадбирлар мажмуи;

2014-йил 14-майдаги Ҳуқуқбузарликлар профилактикасининг 3-моддасида ғайриижтимоий хулқ атворга таъриф берилган⁷⁴

ғайриижтимоий хулқ-атвор — шахсининг жамиятда қабул қилинган хулқ-атвор нормалари ва қоидаларини бузувчи турмуш тарзи, ҳаракати ёки ҳаракатсизлиги;

ҳуқуқбузарлик — содир этилганлиги учун маъмурий ёки жиноий жавобгарлик назарда тутилган айбли ғайриҳуқуқий қилмиш (ҳаракат ёки ҳаракатсизлик);

ҳуқуқбузарликдан жабрланувчи — жисмоний, маънавий ёки мулкий зарар етказилганлиги оқибатида ҳуқуқбузарликдан жабрланган шахс;

ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган шахс — ўзининг ғайриижтимоий хулқ-атвори хавфлилиги туфайли ҳуқуқбузарлик содир этиш эҳтимоли ҳолатида бўлган жисмоний шахс.

Профилактика инспекторининг ғайриижтимоий хулқ-атворга эга бўлган шахслар ишлаш фаолияти кўплаб томфадаги шахслар билан ишлаши мумкин

Булар

1-Алкоголни махсулотлари истеъмол қилувчи шахслар ,

Мунтазам равишда спиртли ичимликлар истеъмол қилувчи ва шу алкоголь махсулотларга тобе бўлиб қолган шахслар , ушбу тоифадаги шахсларнинг иродаси бўш бўлиб ўз хатти-ҳаракатларини хар доим хам назорат қила олишмайди .

2-Енгил табиатли аёллар

Ўзининг хулқ-атвори билан одоб ахлоқ қоидаларини бузувчи , шунингдек моддий манфаатни кўзлаган ёки кўзламаган холда ўз танасини сотувчи аёл .

3-Илгари судланган аммо тузалиш йўлига кирмаганлар

Суд томонидан жазо тайинланиб ижро этилган бўлишига қарамай бундан ўзига тегишли хулоса чиқармаган шахслар⁷⁵

4-Оилавий жанжалкашлар

юқори даражада нотинч , ўзига ишонмаган , жаҳли тез чиқувчи ва тез хулоса қилувчи, маънавий-ахлоқий тарбиянинг етарли бўлмаган , ҳуқуқий билим савиясининг паст бўлган инсонлар .

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирлигининг 2014-йил 14-майдаги Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонуни

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси ички ишлар вазирлигининг 2014-йил 14-майдаги Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисидаги қонуни

5-Ўзининг ғайриижтимоий хулқ атвори билан ажралиб турувчи шахслар

Ўзининг хатти-харакатлари билан ҳуқуқбузарлик содир этмаса ҳам аммо ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган ёки ҳуқуқбузарлик ҳолатини келтириб чиқарувчи шахслар .

6-ғиёҳвандлик воситаларини, психотроп моддаларни истеъмол қилувчи шахслар

ғиёҳвандлик воситаларини, психотроп моддаларни истеъмол қилувчи ва ушбу ююрида кўрсатиб ўтилган моддаларга қарам бўлиб қолган , иродаси заиф бўлган шахслар

7-ўзига нисбатан суднинг жазо тайинланмаган айблов ҳукми қонуний кучга кирган аммо очиқда юришлари белгиланган шахслар

ўзига нисбатан суднинг жазо тайинланмаган айблов ҳукми қонуний кучга кирган шахслар аммо шахсий кафиллик ёки бошқа турдаги сабабга кўра очиқда юришлари тайинланган шахслар .

8-Маъмурий ҳуқуқбузарлар

Ўзининг хатти-харакатлари билан у ёки бу турдаги маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар .

9-Вояга етмаган ҳуқуқбузарлар

Хали маъмурий жавобгарлик ёшига тўлмаган аммо у ёки бу турдаги маъмурий ҳуқуқбузарлик содир этган шахслар

Профилактика инспектори сурункали ичкиликбозлик, ғиёҳвандлик ва заҳарвандликка мубтало бўлган шахслар билан фаолиятини ташкил этишда таъкидланган психологик жиҳатларига диққатини қаратмоғи зарур. Сабаби, ушбу салбий иллатлар домига дучор бўлган шахслар руҳиятига кескин ўзгаришлар юзага келади: хулқидаги юқори агрессивлик, яккаланиш, ёлғизликка интилиш, инсонлар билан муносабатларга киришишдан қочиш, ҳиссиётларга тез берилиш, тушкунлик кайфиятининг доимийлиги, ўз-ўзини назорат қила олишнинг етарли эмаслиги, ўзига ишончсизлик, юқори даражада руҳий озорланиш ва бошқалар.

Профилактика инспекторлари ичкиликбозлик, ғиёҳвандлик ва заҳарвандликнинг салбий оқибатлари ҳақида фуқаролар ўртасида тарғибот-ташвиқот ишларини амалга ошириш жараёнида муомала қонуниятларига риоя этиш лозим.

Шунингдек, оилада содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш профилактика инспекторининг хизмат мажбуриятларига киради. Профилактика инспекторларининг жамоат тузилмалари билан оила-турмуш соҳасидаги ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, аниқлаш, умумий ва яқка тартибда профилактика ишларини ташкил этишда улар билан ҳамкорликни амалга ошириш муҳим аҳамият касб этади.

Маълумки, профилактика инспекторлари нотинч оилаларни аниқлаш, уларда содир этиладиган ҳуқуқбузарликларнинг олдини олиш, ҳисобга қўйиш, тегишли

жазо чораларини қўллаш ҳамда улар билан якка тартибда тарбиявий ишларни амалга оширишда жамоат тузилмалари билан ҳамкорликда фаолият олиб боради, хусусан:

- 1) фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлари;
- 2) диний маърифат ва маънавий-ахлоқий тарбия масалалари бўйича маслаҳатчилар;
- 3) маҳалла жамоат посбони.

Профилактика инспектори жамоат тузилмалари билан ўзаро ҳамкорликда: нотинч оилаларни аниқлаб, оила аъзолари ўртасида бузилган муносабатларни тиклаш, оила-турмуш муносабатлари доирасида ҳуқуқбузарлик содир этувчи шахсларнинг хулқ-атворини жамоатчилик иштирокида муҳокама қилиш; фарзанд тарбияси билан шуғулланмайдиган ота-оналарни аниқлаш, улар билан тарбиявий профилактик суҳбатлар олиб бориш; оилавий жанжалкашларни аниқлаш ва улар билан профилактик ишларни ташкил этиш; илгари судланган шахсларнинг фаолиятини назорат қилиш; содир этилган жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг сабаб ва шароитларини аниқлаш ҳамда уларни бартараф қилишга доир қатор тадбирларни амалга оширади.⁷⁶

Профилактика инспектори ҳуқуқбузарлик содир этишга мойил бўлган, ҳуқуқбузарлик содир этган ҳамда профилактик ҳисобга олинган шахслар билан мулоқотга киришиш мақсадида мулоқот жараёнининг психологик жиҳатларини ўрганиши хизмат фаолиятида қўл келади. Шу сабабли, ходим профилактик, педагогик ҳамда руҳий таъсир этиш жараёнида муомаланинг усул ва воситаларидан фойдаланиши лозим.

Мулоқот ҳар қандай фаолиятнинг зарур муҳим жиҳатидир. Айнан мулоқот жараёнида ва фақат у орқали инсоннинг моҳияти намоён бўлади, бир-бирини тушунишга интилади, ишни бажариш чоғида уйғунликка эришилади, у ёки бу ҳолатларда ўзаро хатти-ҳаракатларини башорат қилиш қобилияти шаклланади ёки аксинча, низолар ва ахлоқий зиддиятлар, ишда келишмовчиликлар юзага келади, мулоқотда шеригининг хатти-ҳаракатига олдиндан кўзи етмайди, қобилиятсизлиги намоён бўлади.⁷⁷

Шуни унутмаслик керакки, профилактика инспектори давлат бошқарув органи ходими, унинг адолатли ва одил ҳимоячиси ҳисобланади. У қўполлик ва дағалликка худди шундай муносабатда бўлишга ҳақли эмас ва тарбиясизга тарбиясизларча муносабатда бўлиши мумкин эмас. У ҳар ерда ўзининг хулқ-атвори билан ибрат бўлиши, ўзининг маънавий ва маърифий етуклиги, юксак сиёсий онги, маданияти,

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 14 февралдаги “Тошкент шаҳрида жамоат тартибини сақлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишнинг сифат жиҳатидан янги тизимини жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-3528-сон қарори

⁷⁷

юриш туриши, кийиниши, муомаласи, ахлоқ-одоби билан ёш авлод қалбида ўзларига нисбатан ҳавас уйғотишга интилиши керак¹.

Маълумки, суҳбат жараёнида одамларнинг бири гапиради, иккинчиси тинглайди, эшитади. Мулоқотнинг самарадорлиги ана шу икки қирранинг қанчалик ўзаро мослиги, бир-бирини тўлдиришига боғлиқ. Нотўғри тасаввурлардан бири шуки, одамни муомала ёки мулоқотга ўргатганда, уни фақат гапиришга, мантиқий асосланган сўзлардан фойдаланиб, таъсирчан гапиришга ўргатишади. Унинг иккинчи томони тинглаш қобилиятига эса деярли эътибор берилмайди. Машҳур америкалик нотик, психолог Дейл Карнеги «Яхши суҳбатдош яхши гапиришни биладиган эмас, балки яхши тинглашни биладиган суҳбатдошдир» деганда айнан шу қобилиятларнинг инсонларда ривожланган бўлишини назарда тутган эди¹

Профилактика инспекторинг ғайриижтимоийхулқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлаш жараёри жуда хам мураккаб жараёндир, сабаби уларнинг хар бири ўзига хос индивидуал хислатларга эгадирлар, бири иккинчисини такрорламайди, уларнинг хар бири билан ишлаш жараёнида турди хил усул ва воситалардан фойдаланилади, айнан шунинг учун уларнинг хар бирига аллохида тарзда таъриф берилди ва ўзига хос хусусичтлари юкорида кўрсатиб ўтилди бу бекорга эмас, зероки хар қандай шахс ҳуқуқбузар бўлишидан қатъий назар биринчи ўринда инсондир, бизнинг конунларимизнинг қўлланилишидан асосий мақсад ҳуқуқбузар ёки ғайриидтимоий хулқ атвор эгаларини биринчи ўринда жазолаш эмас балким аксинча тарбиялаш, унда ва унинг атрофидагиларда қонунга нисбатан ҳурмат рухида тарбиялашдир.

Ғайриижтимоий хулқ атворга эга шахсларнинг содир этган ҳуқуқбузарликларига ахамият берадиган бўлсак жорий йилда ушбу тоифадаги шахслар харакатлари оқибатида содир этилган ҳуқуқбузарликлардан етказилган тан жарохатларининг 84- фоизи эркаклар хисобига , қолган 14-фоизи эса аёллар томонидан содир этилган ҳуқуқбузарликлар миқдорига тўғри келади , бундан ташқари ғайриижтимоий хулқ атворга эга бўлган шаслар миқдор нисбати бўйича бир бирларига етказган тан жарохатлари фоизда қуйидагича тавсифланади.⁷⁸

Булар

Нотанишлар ўртасида 18%

Эр хотинлар ўртасида 9.1%

Бирга яшовчилар ўртасида 6.1%

Қариндошлар орасида 5.8%

Хамкасблар орасида 7.9%

¹ Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларининг касб маданияти ҳақида қўлланма. – Т., 2011. – Б.4.

⁷⁸ www.statistika.uz

Жиноят содир этилишига туртки берувчи ғайриижтимой хулқ атворга эга шахс ўз харакатлари билан криминологик вазиятни келтириб чиқаради , бунда ушбу холат 2 хил кўринишда бўлади

Актив харакат

Пассив харакат

Ғайриижтимой хулқ атворга эга бўлган шахс айнан шу тоифадаги шахсга айланишининг ўзига яраша сабаблари хам бўлиши мумкин , унинг ўзи хам бирор турдаги ҳуқуқбузарликдан жабрланган бўлиши ва айнан шунинг оқибатида аламзада бўлиши мумкин , кўп холларда қонунбузарлар қўлга тушганларидан сўнг содир этган қилмишларида бошқа бировларни айблайдилар ва бошқа сабаб кўрсатиб иложи борича ўзларини оқлайдилар тўғри ушбу холатлар юз берганида Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексининг 55 ва 56 моддаларида қўлланиладиган қонун нормалари қўрсатилган аммо нима бўлган тақдирда хам хамма инсон , биз бунда хозирги кунда иложи борича ёшлар билан кўпроқ ишлашимиз керак.

ХУЛОСА

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда шахс ҳуқуқлари ва эркинликлари дахлсизлигини таъминлаш олиб борилаётган ислохотларнинг муҳим жихатларидан биридир. Ушбу жараёнда ички ишлар органлари бошқа давлат органлари ва ташкилотлар билан ўзаро ҳамкорлик янада ривожлантириши муҳим аҳамиятга эгадир. Ҳозирги кундаги бўлиб ўтаётган туб ўзгаришлар ички ишлар фаолиятини янада юксалишига олиб келмоқда. Ўзбекистон Республикасининг «Ички ишлар органлари тўғрисида»ги 2016 йил 16 сентябрь қонуни, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 14 мартдаги «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-2833-сонли Қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 10 апрелдаги «Ички ишлар органларининг фаолияти самарадорлигини тубдан ошириш, жамоат тартибини, фуқаролар ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини ишончли ҳимоя қилишни таъминлашда уларнинг масъулиятини кучайтириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5005-сонли фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 26 мартдаги «Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-6196-сон [Фармони](#) Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 12 апрелдаги «Ички ишлар органлари фаолиятини янада такомиллаштиришга доир ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-2883-сонли Қарори, Ўзбекстон Республикаси Президентининг 2017 йил 18 апрелдаги “Ички ишлар органларининг ҳуқуқбузарликлар профилактикаси бўлинмалари фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-2896-сонли Қарор,

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 15 февралдаги “Тошкент шаҳарда жамоат тартибни сақлаш, ҳуқуқбузарликлар профилактикаси ва жиноятчиликка қарши курашишнинг сифат жиҳатдан янги тизимни жорий этиш тўғрисида”ги ПҚ-3528-сонли Қарорлар асосида ички ишлар фаолияти янада ривожланиб бори. Ушбу ислохотлар замирида давлат органлари билан ҳамкорликдаги фаолиятда туб ўзгаришлар олиб борилди. Ушбу ўзгаришларни асосий мақсади жиноятчиликни олдини олишга қаратилган.

Хулоса қилиб айтганда ҳозирги кунда ички ишлар органлари ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлашда нафақат ўзини ўзи боўқариш органи бўлмиш маҳалла билан бошқа орган ва ташкилотлар билан ҳам кенг қамровли ҳамкорликни амалга оширомоқда. Бу борада мисолни фуқаролар йиғини ҳузуридаги вояга етмаганлар, ёшлар ва спорт масалалари бўйича комиссия билан спорт соҳасида ҳамкорликда ишларини ҳамда меҳнат органлари билан олиб бораётган ҳамкорлигини мисол тарзида келтира оламиз. Профилактика инспекторлари ва маҳалла йиғини ташаббуси билан турли спорт тадбирлари уюштириш орқали ҳам соғлом муҳит ва уюлмаган ёшларни спортга жалб қилиш каби ҳаракатларни олиб бормоқда.

Ички ишлар органларининг ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятини ривожлантириш учун уларнинг маҳалла ўзини ўзи бошқариш органи билан ҳамкорлигини янада такомиллаштириш лозим. Бунга сабаб сир эмаски Ўзбекистонла фуқаролар билан ишлашда маҳалланинг рўли катта, юртимизда аҳолининг жуда катта қисми маҳаллаларда истиқомат қилишади. Ҳозирги кунда ички ишлар органларининг ғайриижтимоий ҳуқ-эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятида қўйидаги *камчилик ва муаммолар* кузатилмоқда:

- ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлашда уларга етарлича аҳамият берилмаётганлиги;
- ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахсларнинг иш билан таъминлаш соҳасида масаласида учраётган муаммолар ;
- ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлашда ички ишлар органларининг бошқа давлат органлари ва ташкилотлари билан етарли даражада ҳамкорлиги йўлга қўйилмаганлиги;
- ички ишлар органларининг ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлаш вазифалари норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда етарли даражада ёритилмаганлиги;
- ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлашда жойларда кўз бўямачаликка йўл қўйилаётганлиги, уларни текшируви фақат рўйхат кўришдан иборат бўлиб қолётганлиги натижасида уларни назорат қилиш тўлиқ тарзда ўз натижасини бермаётганлиги;
- ғайриижтимоий ҳуқ-атворга эга бўлган шахслар билан ишлашда профилактика инспекторлари керакли даражада зарур жиҳозлар билан

таъминланмаганлиги;

Ушбу ҳолатлардан келиб чиқиб уларни ҳамкорликда муаммоларни ўрганиб чиқиб қўйдаги таклифларни бериб ўтиш керак:

➤ ички ишлар органларининг ғайриижтимоий хулқ-эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятини ривожлантириш учун профилактика инспекторлари иш хажмини тартибга солиш ҳамда ушбу тоифадаги шахслар билан ишлаши учун қонун билан белгилаб ҳафтанинг муаян кунини белгилаш ва ҳафтанинг ушбу кунда профилактика инспекторларини зиммасига бошқа вазифалар юкламаслик;

➤ ички ишлар органларининг ғайриижтимоий хулқ-эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятини ривожлантириш учун профилактика инспекторлари ваколатларини кенгайтириш ҳамда айнан профилактика инспекторлари шахсан кўриб чиқиб қарор чиқарадиган ваколати доирасидаги моддаларни кўпайтириш;

➤ ички ишлар органларининг ғайриижтимоий хулқ-эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятини ривожлантириш учун профилактика инспекторлари бошқа орган ва ташкилотларга киритадиган тақдимномаларини асоссиз мансабдор шахслар томонидан бажарилмаганлиги учун жавобгарликни миқдорини кучайтириш орқали таъсирини кучайтириш;

➤ ғайриижтимоий хулқ-эга бўлган ишсиз шахсларнинг иш билан таъминлаш ва бандлигини таъминлашга доир олиб борилаётган ишларни қайтаттан кўриб чиқиш ва камчиликларни бартараф этиш;

➤ профилактика инспекторлари ғайриижтимоий хулқ-эга бўлган шахслар билан ишлаш фаолиятига доир ортиқча қоғозбозликларга чек қўйиш ва электрон база яратиш орқали ушбу фаолиятни ривожлантириш.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. [Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., «Ўзбекистон», 2016. – 56 б.](#)

2. [Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.–Т,«Ўзбекистон»,2017.–48 б.](#)

3. [Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги – инсон мафаатларини таъминлашнинг муҳим омилидир. – Ҳалқ сўзи. – Т., 2017. 8 янв.](#)

4. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрлар тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида”ги 1997 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. –1997. –№ 11–12. –295 -м.

Ўзбекистон Республикасининг “Таълим тўғрисида”ги 1997 йил 29 август қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг ахборотномаси. –1997. –№ 9. –225-м.

5. Ўзбекистон Республикасининг “Бола ҳуқуқларининг кафолатлари тўғрисида”ги 2008 йил 7 январь қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг ахборотномаси.–2008. – № 1.–1-м.

6. Ўзбекистон Республикасининг “Вояга етмаганлар ўртасида назоратсизлик ва ҳуқуқбузарликларнинг профилактикаси тўғрисида”ги 2010 йил 29 сентябрь қонун // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами.– 2010. –№ 39. –341-м.

7. Ўзбекистон Республикасининг «Давлат ҳокимияти ва бошқаруви органлари фаолиятининг очиқлиги тўғрисида»ги 2014 йил 5 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –Т.,2014. – № 19.–209-м.

8. Ўзбекистон Республикасининг «Ҳуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги 2014 йил 14 май қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2014. – № 20. – 221-м.

9. Ўзбекистон Республикасининг «[Ички ишлар органлари тўғрисида](#)»ги 2016 йил 16 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. – Т., 2016. – № 38. – 438-м.

10. Ўзбекистон Республикасининг «Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида»ги 2016 йил 14 сентябрь қонуни // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. –Т., 2016 й., 37-сон.

ЭКСТРЕМИЗМ БИЛАН БОҒЛИҚ ҲУҚУҚБУЗАРЛИКЛАРНИНГ ТУШУНЧАСИ, ТУРЛАРИ ВА УЛАРНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ ЖАМИЯТГА СОЛАЁТГАН ХАВФ- ХАТАРЛАРИ

Убайдуллаев Шерзод Музаффарович

ИИВ Академияси Ўқув саф қисми отряд командири, майор

Аннотация: Ушбу мақола орқали сиз дунё миқёсида содир бўлаётган экстремизм билан боғлиқ бўлган жиноят ва ҳуқуқбузарликларнинг тушунчаси, турлари, юзага келиши, ривожланиши, тарқалиши, бугунги кунда юртимизга ва бошқа давлатларга солаётган хавф-хатарлари ҳамда олдини олиш йўллари ҳақида билиб олишингиз мумкин.

Калит сўзлар: экстремизм, экстремизм турлари, хавф-хатар, миссионерлик, экстремизмни молиялаштириш, диний экстремизм, экстремистик материал, ақидапарастлик, ёт ғоялар, фундаментализм, экстремистик ғоялар, радикализм.

ПОНЯТИЕ, ВИДЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ЭКСТРЕМИЗМОМ, И ИХ ОПАСНОСТЬ ДЛЯ ОБЩЕСТВА СЕГОДНЯ

43. The official website: Roskomnadzor (Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati), the government of The Russian federation regulation no. 228 of march 16, 2009 on the federal service for supervision of communications, information technology, and mass media // Available at: <https://eng.rkn.gov.ru/about/> [Accessed on: 10.11.2022]

44. The official website: GovInfo, TITLE 18—Crimes And Criminal Procedure // Available at: <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title18/pdf/USCODE-2011-title18.pdf> [Accessed on: 10.11.2022]

45. The official website: Congress.gov H.R.4718 - Computer Fraud and Abuse Act of 1986 // Available at: <https://www.congress.gov/bill/99th-congress/house-bill/4718/text> [Accessed on: 10.11.2022]

46. The official website: Legislation.gov.uk (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi qonunchilik ma'lumotlari bazasi) The Computer Misuse Act of

1990, as amended (in English) // Available at:
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/18/contents> [Accessed on:10.11.2022]

«**TEKNOLOGIYA FANIDA ILMIY TADQIQOT METODLAR**»

To'laganov Dilmurod Mirjalolovich

*Toshkent viloyati Qibray tumani
39-umumiy o'rta ta'lim maktabining
"Texnologiya" fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnologiya fani darslarida interfaol metodlardan biri grafikli organayzerlardan foydalanish metodikasi "Klaster", "Venna diagrammasi", "Konseptual jadval" misolida ishlab chiqilgan. Ushbu metodlarning afzallik va kamchiliklari ham yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Grafikli organayzerlar, "Klaster", "Venna diagrammasi", "Konseptual jadval"*

Abstract: *This article has developed one of the interactive methods in technology lessons using the method of graphic organizers using the example of "Cluster", "Venn Diagram", "Conceptual Table". The advantages and disadvantages of these methods are also highlighted.*

Keywords: *Graphic organizers, "Cluster", "Venn diagram", "Conceptual table".*

Yangicha dunyoqarash xalq ta'limida ilgari surilgan uzluksiz ta'lim va shaxs xislatlarini ijodkorlik ta'limi orqali rivojlantirishda ta'lim nazariy asioldiga yangi vazifalarni qo'yadi. Xalq ta'limi tizimini tubdan o'zgartirish, uning rivoji uchun pedagogik, uslubiy, psixologik sharoitlarni yaratish talab etiladi. Amaliyotdan shu narsa aniq ravshanki, har qanday ilmiy xulosa tajriba va ilmiy tadqiqotlarga asoslanadi. Pedagogikada, xususan ta'lim va tarbiyada ilmiy tadqiqotlar hech qachon to'xtamaydi va uzluksiz davom etaveradi. Pedagogik tadqiqotlarning fani sifatida maktab va boshqa o'quv yurtlarining faoliyati, uning maqsadi, dasturiy ma'nosi, o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati, tashkiliy shakl hamda ijtimoiy sharoitlar xizmat qiladi. Didaktik faoliyat o'qituvchi va o'quvchilarning hatti-harakatlaridan iborat. Bunday faoliyat natijasida o'quvchilar bilim, iqtidor va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, o'z dunyo qarashini, shaxsiy qadriyatlar tizimini shakllantiradilar. Taxsil natijasida o'quvchi shaxsining turli xislatlari shakllantiriladi. Bunday o'zgarishlarni kuzatish, hisobga olish pedagogik tadqiqotlarning asoslaridan hisoblanadi. Yuqoridagi o'zgarishlar, o'qituvchining didaktik faoliyati ta'siridagi va o'z shaxsiy hatti-harakatlari ta'siridagi o'zgarishlar orasidagi qonuniyatlarni ochishga, ularni taxlil qilishga imkon beradi. O'quvchilar va o'qituvchilarning o'quvishlari sharoitlari, harakatlari, ta'lim mazmuni, metod va vositalari orasidagi bog'liqliklar, tabiat qonuniyatlari qanday ob'ektiv xarakterga ega bo'lsa, shunday ob'ektiv xarakterga egadir. Ta'lim va tarbiyaga taalluqli hatti-harakatlarni tafakkurga asoslanib taxlil qilish pedagogika va didaktika da yagona usul hisoblanishini Yan Amos Komenskiyning «Buyuk didaktika», K.D.Ushinskiyning «Inson tarbiya fanisifatida» asarlarida ko'rish

mumkin. O'quv-tarbiya jarayoni haqida jiddiy xulosalar chiqarish uchun muntazam ravishda olib borilgan kuzatishlar, tajriba, faktlarga asoslangan empirik tadqiqotlar natijalariga asoslanish zarur. 2. Mehnat ta'limida qo'llaniladigan ilmiy tadqiqot metodlari. Mehnat ta'limi muammolariga aratilgan ilmiy izlanishlar o'tkazishdan maqsad talim va tarbiya xususiyatlari, samarali metodlarni ishlab chiqish va amaliy qo'llash, texnik vositalarini qo'llashga doir masalalarni yechishdan iboratdir. Ilmiy pedagogik izlanishlar jarayonini shartli ravishda quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. O'qituvchining adabiyotlarni o'rganishi va amaliy ishlari asosida muammoni aniqlashi.

2. Gipoteza qurish, ya'ni o'qitishni bosqichma-bosqich tashkil etish. O'qituvchining faktlar va ularni taqqoslash orqali izlanuvchi asoslangan taklifni berishi.

3. Izlanish natijalarini rasmiylashtirishi va o'quv jarayoniga qo'llashi. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasida ilmiy izlanishlarning umumilmiy va maxsus metodlari qo'llaniladi. Umumilmiy metodlarga : nazariy izlanish, kuzatish, suhbat va eksperimentlar kiradi. Nazariy metod – adabiyotlardan o'rganish va tahlil qilish, hamda pedagogik tajribalar asosida olib boriladigan izlanishlar kiradi. Adabiyotlar ustida ishlashda kitob va jurnallar, maqolalar va patentlar, ilmiy ishlanmalar to'plamlar va kataloglar, internet tizimidan olingan ma'lumotlardan foydalaniladi. Kuzatish - odatda tabiiy kuzatish orqali o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirishlari, ularning xulq-atvori va muomalalaridagi o'zgarishlarni hisobga olish va tegishli ta'limiy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish yo'llarini belgilash uchun qo'llaniladi. Bu metod o'qituvchining pedagogik tajribaning muayyan bir tomoni va hodisalarini biror maqsadni ko'zda tutib idrok etish tashkil etadi. Bunda kuzatishlar tezligi va soni, kuzatish ob'ekti, vaqti, pedagogik vaziyatlarni kuzatish uchun ajratiladigan xarakteristika va hokozolar hisobga olinadi.

Shuningdek, kuzatish metodi ta'lim-tarbiyaning mazkur vaktdagi holatini aniqlash imkonini beradi. Kuzatish metodining maqsadi bor faktlarni yoritishdangina iborat bo'lmay, oldindan qo'yilgan maqsad bo'yicha aniqlanishi lozim bo'lgan faktlarni qidirish va aniqlashdan iboratdir.

Kuzatish jarayonida o'qituvchini qiziqtiruvchi muammo va vazifalar kuzatishni tanlab o'tkazishni taqozo etadi. O'qituvchi muayyan tanlangan muammoni hisobga olib, nimani kuzatish kerakligini tanlab oladi. Shuning uchun hamu kuzatish natijasida yechilishi kerak bo'lgan muammoni hali kuzatishni boshlamasdan oldinroq biladi.

Natijada o'qituvchining kuzatish natijalarini umumlashtirishi birmuncha osonlashadi. Kuzatishga asoslangan tasniflashlari uch ko'rinishga ega:

- 1) obzor tadqiqotlari;
- 2) ta'lim-tarbiya unsurlari orasidagi bog'liqlikni aniqlash;
- 3) izlanish tadqiqotlari.

Bunday sharoitda kuzatish to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita amalga oshiriladi. To'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita kuzatish faktlarni qabul qilib olish, tushunib yetish va o'lchashdan iborat, ya'ni:

- qabul qilib olish – sezish organlari yordamida tekshiruvchi ob’ekt aniq joyda turganligini qayd qilish;

- tushunib yetish tanlab olingan, qayd qilingan ob’ekt oldindan aniq yoki noaniqligini aniqlash;

- o’lchash – shu ob’ektning sonini aniqlash. Bilvosita kuzatish ob’ektning bevosita kuzatish imkoniyati bo’lmaganda amalga oshiriladi. Shunday ob’ektdagi shaxsning tug’ma qobiliyati, imkoniyatlari, intizomlilik, rostlik, kamtarlik, kamsuqumlik kabi xislatlari kirishi mumkin. Bunday xislatlarni bevosita kuzatish natijasida aniqlash qiyin. Shuning uchun ham o’qituvchi o’ziga qulay ko’rsatkichlardan foydalanadi. Bevosita va bilvosita kuzatish bilan bir qatorda faol kuzatish ham qo’llaniladi. Faol kuzatishda didaktik jarayonda bevosita o’qituvchining o’zi ham qatnashadi va jarayonning borishigata’siretadi. Bunda ishtirok etishning ijobiy tomoni shundan iboratki, o’qituvchi bo’lib o’tayotgan jarayonning ikir-chikirlarini tushunib yetadi, bu esa o’quv jarayonini tadqiqot talablariga yo’naltirish imkonini beradi.

Bunday usul ayrim kamchiliklariga qaramasdan, ijodkor-o’qituvchilar tomonidan o’quvchilar faoliyatini faollashtirishda keng qo’llaniladi. Bilvosita kuzatish o’qituvchini hodisalarni o’rganishga ko’proq jalb etishga imkoniyat yaratadi. Mashg’ulotlar stenogrammalari, uchinchi odam tomonida tayyorlangan kuzatish bayonlari, foto-kinolavhalar, rasmlar, diagrammalar, statistic mashg’ulotlar shular jumlasidandir. Bu hujjatlar pedagogik faoliyatning natijalarini hamda ijtimoiy muhit, xususan o’qituvchi faoliyatining o’quvchi shaxsida uyg’otadigan o’zgarishlarni kuzatish imkonini beradi. Ilmiy-tekshirish maqsadlarini aniqlash o’qituvchini qiziqtirib qolgan muammoli holatni taxlil qilish ehtiyojidan kelib chiqadi. Bunday holatni tahlil qilish va unda ma’lum va noma’lumlarni aniqlash, qo’shimcha adabiyotlarni o’rganish, tajribali shaxslarning bu masalaga bergan bahosi o’qituvchining asosiy va qo’shimcha muammolarni aniqlash imkonini beradi. Suhbat metodi - so’rashning birturib o’lgani holda o’qituvchining jiddiy tayyorgarlik ko’rishini talab etadi, chunki u tekshirayotgan o’quvchi bilan bevosita aloqada bo’lish vaqtida og’zaki suhbat tarzida, suhbatdoshining javoblarini yozmasdan erkin muomala formasida qo’llaniladi. Pedagogik so’rash metodi – o’qituvchining boshqa hamkasblaridan pedagogik tajribaning biror tomoni yoki hodisalari haqida axborot olish jarayoni bu metodning asosini tashkil qiladi. So’rash savollarning mantiqiy o’ylangan tizimi, ularning aniq ifodalanishi, nisbatan kamchiligi (3-5ta) nazarda tutiladi. Shuningdek, qat’iy formadagi javobni ("ha", "yo’q") ham taqozo etishi mumkin. Test, so’rovnoma – bu so’rovnoma, ya’ni anketa usuli qo’llanganda yaratilgan ilmiy farazning yangiligini bilish, aniqlash, o’quvchilarning yakka yoki guruhli fikrlarini, qarashlarini, qanday kasblarga qizishlarini, kelajak orzu-istaklarini bilish va tegishli xulosalar chiqarish, tavsiyalar berish maqsadida o’tkaziladi. Test savollaridan ko’zlangan maqsad qisqa vaqt ichida o’quvchilarning bilimlarini, qiziqishlarini, kasblar haqidagi fikrlarini yoppasiga baholashdir. O’quvchilarning bilimini va saviyasini aniqlash uslublaridan biri – bu test

yordamida gisino'vdir. Test sinovlar metodi – bu yozma javoblarning ommaviy ravishda yig'ib olish metodidir. Test sinovlarini (anketalarini) ishlab chiqish murakkab ilmiy jarayon.

Venn» diagrammasining afzalliklari: grafik organayzer sifatida tizimli fikrlash, solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uning yordamida o'tilgan mavzu yana bir bor takrorlanib, o'zlashtirilgan bilimlar talabalar yodidasaqlanib qoladi. Uning yana bir afzalligi sifatida kam vaqt talab qilinishini aytib o'tish mumkin. U kichik guruhlarni shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi.

«Venn» diagrammasining kamchiligi: diagrammaning kamchiligi shundaki, belgilangan aylana ichiga katta sig'imdagi ma'lumotni joylashtirishda qiyinchilik yuzaga keladi. Agar har bir keltirilgan ma'lumotning tartib raqami ko'rsatilmasa, o'xshash jihatlarni aylanalarning kesishgan qismida to'liq yozish shart. Ajratilgan joyesa (aylanalarning kesishidan hosil bo'lgan qismi) barcha ma'lumotlarni sig'dirishimkonini bermaydi.

Konseptual jadval - o'rganilayotgan hodisa, tushuncha, fikrlarni ikki va undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslashni ta'minlaydi. Tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Konseptual jadval quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi.

1. Konseptual jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Taqqoslanadiganlarni aniqlaydilar, olib boriladigan taqqoslanishlar bo'yicha, xususiyatlarni ajratadilar.

2. Alohida yoki kichik guruhlarda konseptual jadvalni to'ldiradilar.

- Uzunlik bo'yicha taqqoslanadigan (fikir, nazariyalar) joylashtiriladi;

- Yotig'i bo'yicha taqqoslanish bo'yicha olib boriladigan turli tavsiflar yoziladi

XULOSA

Ta'kidlash joizki, bugungi kun ta'limida eng dolzarb bo'lgan texnologiya fani darslarida interfaol usullarni qo'llash o'quvchilarda bilimlarni faollashtirishni tezlashtiradi, fikrlash jarayoniga mavzu bo'yicha yangi o'zaro bog'lanishli tasavvurlarni erkin va ochiq jalb qilishga yordam beradi. Shuningdek, kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirib, kasbiy sifatlar hamda ma'naviy dunyoqarashni rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muhidova, O. N. Methods and tools used in the teaching of technology to children // ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), (2020), 957-960.

2. O. N. Muxidova Kompetentnostnyy podhod k razvitiyu professional'noy deyatel'nosti uchitelya // Vestnik nauki i obrazovaniya 97(№ 19 (97).Chast' 2), S 88-91

3. O. N. Muxidova Elektronnoye obucheniye v vysshem obrazovanii // Vestnik magistratury, 1-5 (100) 2020 S 43-44

4. Halimovna, K. S., Nurilloevna, M. O., Radzhabovna, K. D., Shavkatovna, R. G., Hamidovna The role of modern pedagogical technologies in the formation of students'

communicative competence. // Religación. Revista De Ciencias Sociales Y Humanidades 4 No. 15 (2019): Special Issue May 261-265.

5. Uzokov O.Kh., Muhidova O.N. Factor determining the efficiency of innovative activities of a teacher // INTERNATIONAL JOURNAL OF DISCOURSE ON INNOVATION, INTEGRATION AND EDUCATION. Vol. 2 No. 1 (2021), 81-

О КАТЕГОРИИ «ГЕНДЕР» И ГЕНДЕРНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Буранова Мадина Жасуровна

Уктамова Умидабегим Шерзодмирзо кизи

Чирчикский государственный педагогический университет

“Факультет Гуманитарных наук”

«Гендер» – актуальный термин, являющийся одним из основных определений современной науки, служащий объектом особого и фундаментального осмысления, который непрерывно развивается и обогащается. Его эволюция и функционирование были рассмотрены большим объёмом статей и научных работ. Данное понятие активно функционирует в философии, литературоведении, в лингвистике, психологии и др. Эта значимость понятия обусловлена, во-первых, тем, что термин возник относительно недавно; во-вторых, его многогранностью.

«В 1958 психоаналитик университета Калифорнии (Лос-Анжелес, США) Роберт Столлер ввел в науку термин «гендер», под которым понимал социальные проявления принадлежности к полу или «социальный пол». В 1963, выступая на конгрессе психоаналитиков в Стокгольме, он говорил о понятии социополового (то есть - гендерного) самоосознания. Его концепция строилась на разделении «биологического» и «культурного». Изучение пола (англ. – sex) Р.Столлер считал задачами биологии и физиологии, а анализ гендера (англ. – gender) – рассматривал как предметную область исследований психологов, социологов, культурологов. Предложение Р. Столлера о разведении биологической и культурной составляющих в изучении вопросов, связанных с полом, и дало толчок формированию особого направления в современном гуманитарном знании – гендерным исследованиям»⁸⁶. Из этого можно сделать вывод, что гендер присваивает или фиксирует какому-либо объекту или индивиду местоположение внутри класса, а следовательно, и местоположение относительно остальных, уже созданных классов. Ссылаясь на множество исследований в данной области можно сказать, что в русском языке нет равного эквивалента понятию «гендер». Такой вывод был сделан в 2006 году заведующим лабораторией прикладной и экспериментальной лингвистики Волгоградского педагогического университета Геннадием Слышкиным: «Дело в том, что принятое в русском языке слово "пол" не является эквивалентом «гендера». Пол — это физиологическая категория. Гендер же — это категория социальная, категория конструируемая, это своего рода надстройка над полом. Если раньше это слово всегда сопровождалось определением «гендер — это...» или некой иронической ремаркой, типа «как сейчас принято выражаться, гендер, а в

⁸⁶ Пушкарева Н. Л. Гендерный подход в исторических исследованиях // Вопросы истории. – 1998. – № 6. - С. 125

просторечье — пол», то теперь подобных дефиниций, как правило, нет. То есть автор исходит из того, что нормальный средний адресат текста СМИ будет знать, что такое гендер, объяснять не надо»⁸⁷.

В гендерных исследованиях объектом фундаментальных исследований выступает теоретическая основа понятий «мужское» и «женское». Следуя теме нашей работы, рассмотрим понятие «феминизм», давший толчок развитию нового направления в литературоведении. Феминизм (от femina - женщина) – женское движение, возникшее в XVIII веке, выступавшее за искоренение ограничений женщин и уравнивание прав с мужчинами. «Радикальные феминистки вводят в оборот противопоставление «патриархального» современного общества, построенного по закону господства силы, по принципам властного доминирования - по мужским принципам - обществу идеальному, не иерархичному... В понимании возможности достижения такого общества радикальные феминистки расходятся, однако все они считают, что именно женщины должны реализовать свое видение общества будет ли это вместе с мужчинами, или отдельно от них»⁸⁸. Данное движение выступило теоретической основой гендерных исканий. На данную тему были написаны монографии такими исследователями как Д. Батлер, И.В. Костиковой, Ю. Кристековой, Ш. Берн и О. Ворониной.

Обратимся к изучению темы гендера в России: вслед за зарубежными исследователями данная тема была затронута многими учеными. Одни из самых ранних работ представила О.А. Воронина – кандидат философских наук, заведующая лабораторией гендерных исследований. В ее знаменитой работе «Гендерная экспертиза законодательства РФ о средствах массовой информации» автор опирается на труды западных гендерологов, дифференцирует социальную и культурно-символическую теории понятия гендер. «В теории и методологии гендерных исследований существует несколько концепций гендера. В данном исследовании мы будем опираться на две концепции — теорию социального конструирования гендера и культурно-символическую интерпретацию гендера. Базовым положением в обеих концепциях является различие понятий пол и гендер. При этом гендерные роли и нормы не имеют универсального содержания и значительно различаются в разных обществах. Однако помимо биологического и социального аспектов в анализе проблемы пола обнаруживается и третий, символический, или собственно культурный его аспект. В человеческой ментальности мужское и женское существуют как элементы следующих культурно-символических рядов:

мужское - рациональное - духовное - божественное -... - культурное;

⁸⁷ <https://trepo.tuni.fi/bitstream/handle/10024/83029/gradu05458.pdf?sequence=1&isAllowed=y>

⁸⁸ Костикова И.В. Проблемы гендерной информации // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 1999. - С.

женское - чувственное - телесное - греховное -... - природное.

Многие не связанные с полом феномены и понятия (природа и культура, чувственность и рациональность, божественное и земное и многое другое) через существующий культурно-символический ряд отождествляются с «мужским» или «женским». Таким образом создается иерархия, соподчинение внутри уже этих — внеполовых — пар понятий. При этом многие явления и понятия приобретают специфическую гендерную окраску»⁸⁹.

Исследователь основательно рассматривает процесс формирования гендера, на своеобразии мужских и женских ролей в социуме, внутренних эмоциональных и психических особенностях мужчин и женщин. В социальных и гуманитарных исследованиях современности это понятие не трактуется с точки зрения неизменной и универсальной конструкции. Оно обозначает не определенный предмет, и не множество предметов, а изучение совокупного сочетания отношений и эволюции. По Ворониной важно умение «мыслить отношениями», чтобы из дедуктивной сферы гендера вывести культурные реалии.

Обратимся к трудам А.В.Кирилинной, которая конкретизирует сущность понятия «гендер» и анализирует взаимосвязь понятий «пол» и «гендер». Ведущее место в трудах автора занимает анализ своеобразия женской и мужской речи: «Вместе с тем, сегодня считается, что существуют определенные различия в мужской и женской речи, существуют они как тенденция. Чем выше уровень образования, тем меньше различия в речи. Есть исследования, которые показывают, что в профессиональной коммуникации гендерный фактор играет определенную роль. Эти вопросы очень слабо осознаются, их только начали исследовать. Тем не менее, они влияют на результат коммуникации, они влияют на признание человека профессионалом»⁹⁰. Проводимые по сей день гендерные исследования протекают в поисках соотношения женского и мужского миропонимания и мироощущения не только в половом, но и психологическом и социокультурном аспекте. Благодаря современной теории гендера появляется возможность анализировать литературные произведения с новой точки зрения, которая воплощает женский взгляд на мир (гендерная картина мира), на отношения полов, вместе с этим позволяет внести новое в толкование женской прозы, а также заметно увеличивает историческую значимость женского творчества.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

⁸⁹ Воронина О.А. Гендерная экспертиза законодательства РФ о средствах массовой информации. – М., 1998.- С. 98

⁹⁰ Кирилина А. В. Проблемы гендерного подхода в изучении межкультурной коммуникации. // Гендер как интрига познания (альманах). – М.: Рудомино, 2002.- С. 216

1. Пушкарева Н. Л. Гендерный подход в исторических исследованиях // Вопросы истории. – 1998. – № 6. С. 125
2. <https://trepo.tuni.fi/bitstream/handle/10024/83029/gradu05458.pdf?sequence=1&isAllowed=y>
3. Костикова И.В. Проблемы гендерной информации // Гендер: язык, культура, коммуникация. – М., 1999 С. 67
4. Воронина О.А. Гендерная экспертиза законодательства РФ о средствах массовой информации. – М., 1998 С. 98
5. Кирилина А. В. Проблемы гендерного подхода в изучении межкультурной коммуникации. // Гендер как интрига познания (альманах). – М.: Рудомино, 2002 С. 216

АЛКОГОЛЛИ ГЕПАТИТ БИЛАН КАСАЛЛАНГАН БЕМОРЛАРДА ДАВОЛАШ САМАРАДОРЛИГИНИ ДИНАМИК БАХОЛАШДА ЖИГАР ЭЛАСТОГРАФИЯСИНИ ҚЎЛЛАШ

Qodirjonov Mirzohid

Axmadiyeva Umida

Ilmiy rahbar

Мавзунинг долзарблиги. Замонавий гастроэнтерология ва гепатологиянинг энг долзарб ва эътиборни талаб қиладиган муаммоларидан бири бу асосан спиртнинг гепатотоксик таъсиридан келиб чиқадиган токсик жигар шикастланиши. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти (ЖССТ) маълумотларига кўра, дунё аҳолисининг ҳар йили 3,7% алкоголь билан боғлиқ касалликлардан вафот этади ва 140 million одам алкогольга боғлиқликдан вафот этади ва уларнинг ярми жигар касалликларига чалинади.

Спиртли ичимликлар истеъмолининг доимий равишда 1,4 мартага кўпайиши туфайли, 21-асрнинг бошларига келиб, Россия истеъмол қилинадиган ичимликларнинг ўта ноқулай тузилиши билан дунёда спиртли ичимликларни истеъмол қилишда етакчи ўринни эгаллаб турибди [20]. Алкоголли гепатит (АГ) нинг ривожланиши жигар фиброзининг (ЖФ) ривожланишига, сўнгра жигар циррозига (ЖЦ) ўтишга олиб келади; бундан ташқари, гепатоцеллюляр карцинома (ГЦК) ривожланиш хавфи сезиларли даражада ошади. Шунини инобатга олган ҳолда, эрта ташхис қўйиш жуда муҳим аҳамиятга эга, у ёки бу даражада, жигар паренхимасида некроз жараёнларнинг оғирлигини ва ЖФ нинг дастлабки босқичларини аниқлашга имкон беради.

Умумий баҳолаш мезонлари йўқлиги сабабли жигар фибрози даражасини аниқлаш учун ултратовуш, магнит-резонанс томография ва жигар томографиясини (КТ) натижаларини талқин қилиш қийин. Бир қатор диагностик тестлар мавжуд: биокимёвий кўрсаткичлар (трансаминазалар - АСТ, АЖИТ, гаммаглутамил транспептидаза - ГТПП ва бошқалар), ўткир фаза оқсиллари кўрсаткичлари (алфа-2-макроглобулин, гаптоглобин ва бошқалар), шунингдек фиброгенез воситачилари ва ҳужайрадан ташқари матрицанинг таркибий қисмлари. Ушбу усулларнинг ночорлиги жигарда фиброгенез жараёнларининг ўзига хослиги пастлиги уларни спиртли ичимликлар таъсирида, айниқса циррозгача бўлган босқичда қўллаш самарасизлигини кўрсатди.

Ҳозирги вақтда жигар зарарланиш табиати ва унинг ҳолати тўғрисида тўлиқ маълумот жигарни морфологик текшируви билан таъминланиши мумкин, аммо пункцион жигар биопсиясини кенг жорий етиш бир нечта муаммоларнинг мавжудлиги билан чекланади: меъёрий ҳужжатларнинг етишмаслиги, малакали морфологларнинг етишмаслиги, асоратларнинг юзага келиш хавфи ва бошқалар.

Замонавий инвазив бўлмаган диагностиканинг жигар биопсиясига нисбатан муҳим афзалликлари соддалиги, арзонлиги, ахборот таркиби, жараён динамикасини кузатиб бориш қобилияти, хавф гуруҳидаги беморлар учун скрининг усули сифатида фойдаланиш қулайлиги билвосита ултратовушли жигар эластографияси усули энг катта қизиқиш уйғотмоқда.

Ушбу тадқиқотда жигар паренхимасининг эхозичлигининг ўртача даражаси тўқима текшируви ҳажми билан белгиланади, бу жигар пункцион биопсиясидан бир неча баравар юқори.

Тадқиқот мақсади.

Давом этаётган терапия фонида алкогольли гепатитда ултратовушли эластография орқали жигар фиброзининг динамикасини аниқлаш ва гепатопротекторлар самарадорлигини қиёсий баҳолаш.

Тадқиқот вазифалари.

1. Жигар фибрози билан алкогольли гепатитнинг клиник кечишини тавсифлаш.
2. Жигар фиброзини аниқлаш ва унинг динамикасини баҳолаш учун ултратовушли жигар эластографияси усулидан фойдаланиш имкониятларини баҳолаш.
3. Адеметионин, Урсодезоксисхоли кислотаси ва муҳим фосфолипид дориларининг самарадорлигини қиёсий баҳолаш, уларнинг антифибротик таъсирга эга эканлигини аниқлаш.

Тадқиқот объекти ва материаллари

Тадқиқот объекти АДТИ клиникаси гастроэнтерология ва гепатология бўлимида ва поликлиникасига стационар ва амбулатор даволанишга мурожат қилган тасодиқий намуна олиш йўли билан танланган эркаклар бўлади.

Тадқиқот материаллари – алкогольли гепатитлар, гепатопротекторларнинг терапевтик самарадорлиги ва жигар эластографиясини динамик баҳолаш.

Текширув усуллари

1. Паспорт маълумотларини, клиник ташхисни, лаборатория ва биокимёвий маълумотларни ўз ичига олган анкетани таҳлил қилиш: умумий қон, умумий сийдик тахлили, Умумий билирубин, АлАТ, АсАТ, мочевино, қолдиқ азот, креатинин, Иммунофермент анализда (ИФА) – HbsAg, HCV, HDV маркерлари манфий натижаси ва бошқалар.

2. Инструментал текширувлар: Ултратовуш текшируви, ЕКГ, қисқа муддатли эластография ва клиник ташхисни тасдиқловчи бошқа тадқиқотлар.

3. Олинган натижаларни статистик қайта ишлаш Statistica 6.0 дастурий пакетининг стандарт вазифалари, Стюдента–Фишер ишонч мезони ёрдамида амалга оширилади.

Истисно мезонлари: HbsAg ва HCV учун ижобий тестлар;

Ҳар қандай этиологияли жигар циррозлари, шу жумладан жигар зичлигининг юқори қийматлари Скрининг ултратовушли жигар эластографияси (12.4 КПА дан юқори) аниқланиши;

Ультратовушли жигар эластографияси (5.8 КПА дан жигар эхозичлиги камроқ).

“QUR’ON QISSALARI” YO’NALISHIDAGI ASARLAR TAHLILI

Tursunov Muxiddin Dovudovich

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi Islomshunoslik yo‘nalishi 2-kurs magistranti

“Qur’on qissalari” yo‘nalishidagi ilk asarlar qatoriga mashhur tarixchi, hadisshunos, Qur’on tafsiri va islom huquqshunosligi bilimdoni Ibn Kasirning “Al-bidoyat va an-nihoyat” (arabcha “البداية والنهاية” o‘zbekcha “Boshlanish va nihoya”) nomli asarini qayd etish lozim. Ushbu asar o‘n to‘rt tomndan iborat bo‘lib, islom tarixshunosligiga oid eng taniqli ishlardan hisoblanadi. Kitob dunyoning yaratilishidan oxirigacha bo‘lgan „universal“ tarix va islom esxatologiyasini o‘z ichiga oladi. Kitobda payg‘ambarlar va oldingi xalqlar haqida qissalar, Payg‘ambarning siyrati va uning davrigacha bo‘lgan islom tarixi haqida gapirilgan. Ushbu asardan mashhur “Qisas al-anbiyya (“Payg‘ambarlar qissalari) ham olingan bo‘lib, unda payg‘ambarlar hayotidan qissalar keltirilgan va asosan, Qur’on oyatlari va hadislarga asoslangan.

Arabiston va Yaqin Sharqning islomgacha bo‘lgan tarix haqidagi qissalar Qur’on mazmunining muhim qismi bo‘lib, uning matnida juda ko‘p funksiyalarni bajaradi. Qissalarning o‘zlari ko‘pincha qat‘iy vaqt oralig‘iga ega emas, shu bilan birga, ko‘plab mualliflar tomonidan voqealarning eng yorqin epizodlari eslatib o‘tiladi va shuning uchun ba‘zi paytlarda Qur’on sharhining bir qismi sifatida amalga oshiriladigan maxsus izohlar tushunmovchiliklarga olib keladi.

Rossiyada yozilgan va 1883-yilda Tojiddin Ibn Jalchigul tomonidan Qur’onning yettidan bir qismiga teng shaklda nashr etilgan talqinida tarixiy qissalar nafaqat ma’rifiy, balki tarbiyaviy funksiyani ham bajaradi, o‘quvchilarga bag‘rikenglik va mehribonlik ideallarini singdiradi, bu ko‘pincha klassik ekzetik asarlardan sezilarli darajada farq qiladi.

Musulmon ilohiyoti nuqtayi nazaridan, Qur’on qissalari tarixiy jihatdan ishonchlidir. Ushbu hukm boshqa Qur’on bayonotlari singari qissalarning to‘g‘riligini ko‘rsatadigan oyatlarga asoslanadi (masalan, 18-sura “Al-Kahf”, 13-oyat⁹¹ va 28-sura “Al-Qasos”, 3-oyat⁹²). Musulmon muhitida qarama-qarshi pozitsiya XX asrning o‘rtalarida keng tarqaldi. Misrlik tadqiqotchi Muhammad Xallofallahning “Al-fan al-qasasi fil-Qur’an al-karim” (“Qur’onda qissalar janri”) kitobi katta bir harakatga sabab bo‘ldi. Asarda “Qur’ondagi qissalar Muhammad payg‘ambarning zamondoshlariga ma’lum bo‘lgan, badiiy qayta ishlangan ma’lumotlarga asoslangan” degan faraz ilgari surilgan

Ushbu asardagi jihatlarning aslida noto‘g‘ri ekanligini isbotlab beruvchi bir qancha dalillar mavjud:

⁹¹ نَحْنُ نَقُصُّ عَلَيْكَ نَبَأَهُم بِالْحَقِّ إِنَّهُمْ فِتْنَةٌ آمَنُوا بِرَبِّهِمْ وَرُدَّنَاهُمْ هُدًى 18:13. Biz senga ularning xabarlarini haq ila qissa etib berurmiz. Albatta, ular Robbilariga iymon keltirgan yigitlardir. Va Biz ularga yanada ziyoda hidoyat berdik.

⁹² تَتْلُوا عَلَيْكَ مِن نَّبَأِ مُوسَىٰ وَفِرْعَوْنَ بِالْحَقِّ لِقَوْمٍ يُؤْمِنُونَ 28:3. Iymon keltiradigan qavm uchun senga Muso va Fir’avning xabaridan haq ila tilovat qilib beramiz.

Birinchidan, Qur'onni qissalar bilan taqqoslaganlar uchun qattiq jazo bilan ogohlantiradi (16-sura "An-Nahl", 25-oyat)⁹³.

Ikkinchidan, Qur'onni nozil qilgan Alloh osmonda va yerda nima bo'layotganini bilishi bir necha bor ta'kidlangan (25-sura "Al-Furqon"⁹⁴, 4-6-oyatlar)⁹⁵. Agar qissalar "haqiqiy qissalar" deb nomlangan bo'lsa, unda ularda tasvirlangan voqealar haqiqatan ham sodir bo'lgan.

Uchinchidan, Qur'on qissalarida tasvirlangan mo'jizakor voqealarning birortasiga Muhammad (s.a.v) guvoh bo'lmaganligi izohlanadi (3-sura "Oli Imron", 44-oyat)⁹⁶ va agar ular xayoliy bo'lsa, bunday tushuntirishlar hech qanday ma'noga ega bo'lmaydi.

To'rtinchidan, oyatlardan birida qissalarning o'ylab topilganligi haqidagi fikrlarga qarshi "bu hayoliy qissa emas, balki ilgari nima bo'lganini tasdiqlash, hamma narsani tushuntirish, imonlilar uchun to'g'ri yo'l-yo'riq va rahm-shafqatdir" (12-sura "Yusuf", 111-oyat)⁹⁷ deb keltiriladi.

Qur'on qissalarining haqiqat ekanligiga qarshi fikrlarni misrlik yozuvchi va adabiyotshunos Toha Husaynning (1973-yilda vafot etgan) "Fi-sh-shi'r al-jāhili ("Islomgacha bo'lgan she'riyat haqida") nomli kitobida ham uchratish mumkin. Muallif Qur'on va boshqa muqaddas kitoblarda tilga olingan belgilar diniy yoki siyosiy maqsadlarga erishish uchun uydirilganligini ilgari suradi. Masalan, yozuvchi Ibrohim va uning o'g'illari haqidagi Qur'on qissasini "arablar va yahudiylar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlash, yahudiylik va islom o'rtasidagi uzluksizlikni asoslash istagi bilan o'ylab topilgan" deb izohlaydi. Ushbu fikrning asosi bir qator sharqshunoslarning "Ismoilning arablar bilan qarindoshligi haqidagi eslatma "Eski Ahd"da yahudiylar Rim hukmronligi

⁹³ 16:25. Shunday qilib, ular qiyomat kuni o'zlarining gunohini to'liq bo'yniga oladi, hamda ilmsizlik qilib adashtirgan kishilarining gunohlaridan ham (bir qismini) bo'yniga oladi. Bo'yniga olayotgan narsasi qanday ham yomon!

⁹⁴ Suraning nomi bo'lgan "Furqon" kalimasi – haqni nohaqdan ajratib beruvchi degan ma'noni bildiradi.

⁹⁵ 25:4

{4} وَقَالَ الَّذِينَ كَفَرُوا إِنَّ هَذَا إِلَّا إِفْكُ افْتَرَاهُ وَأَعَانَهُ عَلَيْهِ قَوْمٌ آخَرُونَ فَقَدْ جَاءُوا ظُلْمًا وَزُورًا (Qur'onga ishonmagan) kofirlar: "Bu uydirmadan boshqa narsa emas; uni Muhammadning o'zi to'qidi, unga boshqa kishilar yordam berdi", dedilar. Shu tariqa, ular nohaqlik qildilar, noto'g'ri ish qildilar.

25:5

{5} وَقَالُوا أَسَاطِيرُ الْأَوَّلِينَ اكْتَتَبَهَا فَهِيَ تُمْلَى عَلَيْهِ بُكْرَةً وَأَصِيلًا Yana: "Bu avvalgilarning qissalaridir, (Muhammad) uni o'shalardan tuzib olyapti. Unga kechasi-yu kunduzi (boshqasi tarafidan) yozdirib turilibdi", dedilar.

25:6

{6} قُلْ أَنْزَلَهُ الَّذِي يَعْلَمُ السِّرَّ فِي السَّمَاوَاتِ وَالْأَرْضِ إِنَّهُ كَانَ غَفُورًا رَحِيمًا Ayt: "U (Qur'on)ni osmonlar-u yerdagi sirni biladigan zot tushirdi. U juda kechirimlidir, ezgulik va ne'mat ulashuvchidir".

⁹⁶ 3:44

(44) Bu – Biz senga bildirgan g'ayb xabarlaridandir. (Holbuki) Maryamning ta'minotini kim bo'yniga oladi deb (qura tashlash uchun) tayoqlarini otayotganida sen ularni yonlarida emas eding. O'zaro tortishayotganlarida ham ularni yonlarida emas eding.

⁹⁷ 12:111. Shubhasizki, ularning qissalarida aql-u vijdoni sof kishilar uchun ibrat bor. Bu (kitob) to'qib chiqarilgan so'z emas. Aksincha, bu o'zidan avvalgi kitoblarning tasdiqi, har narsani ochiqlab beruvchi, (bunga) ishonganlarga yo'l ko'rsatuvchi (ilohiy) qo'llanma – rahbar va rahmatdir.

ostida bo'lganidan va arablarning qo'llab-quvvatlashiga muhtoj bo'lganidan keyin paydo bo'lgan" degan taxmin edi⁹⁸.

Toha Husaynning qarashlari musulmon dunyosida ham salbiy qabul qilinganligi tabiiydir. Bir qator tadqiqotchilar, shu jumladan, Farid Vajdi, Muhammad Al-Xadir Husayn, Abd Al-Muta'ali al-Sa'di uning qarashlarini tahlil qilishga qaratilgan alohida asarlar yozdilar. Bizning fikrimizcha, taniqli yozuvchi nafaqat o'z xulosalarini shubhali dalillar bilan asoslab beradi, balki uning vaziyatini zaiflashtiradigan holatlarni ham e'tiborsiz qoldiradi. Shunga qaramay, Toha Husayn va Muhammad Xalifa Allohning kitobida mavjud musulmon an'analari qayta ko'rib chiqishda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan yangi uslubiy tamoyillarni taqdim etadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Qur'on qissalarining ishonchliligiga tanqidiy munosabat bildirgan sharqshunoslarning asarlaridan ilhomlangan J.Trimingem, V.Sent-Kler Tisdall, "bu muqaddas kitob arab milliy an'analari va urf-odatlarida mavjud qadimiy qissalarni "o'zlashtirish" natijasida paydo bo'lgan" degan tushunchani ilgari surishgan⁹⁹. Shuni tan olishimiz kerakki, islomgacha bo'lgan davrda Markaziy va Janubiy Arabistonda qanday qissalar bo'lganligi to'g'risida tarixiy va arxeologik dalillar juda kam. Ushbu hududlarda yashagan yahudiy-nasroniy jamoalarining diniy g'oyalari to'g'risidagi ma'lumotlar ham juda cheklangan. Bundan tashqari, bu borada mavjud bo'lgan ma'lumotlarning katta qismi G'arb ilmi ma'lum ehtiyotkorlik bilan murojaat qiladigan islom dini davri manbalariga asoslanadi. Mahalliy sharqshunos E.Rezvanning "Qur'on syujetlari va qissalari "o'zlashtirilgan" ligi to'g'risidagi farazlarni isbotlaydigan to'g'ridan-to'g'ri manbalari topilmaganligini tan olishi kerak" ekanligini aytgani bejiz emas¹⁰⁰.

Bizning fikrimizcha, Qur'on qissalari va ularning belgilariga bo'lgan munosabat tarix fani emas, balki imon mavzusidir. Qur'on, qissalarning haqiqiylikini tarixiy hujjatlar va ilmiy dalillar bilan tasdiqlashni da'vo qilmaydi. Aksincha, bu qissalar odamlar faqat Xudoning elchilari orqali o'rganadigan ichki bilimlarning bir qismi hisoblanadi: "Holbuki, sen bu uchun ulardan haq so'ramayapsan. Qur'on insoniyatga faqatgina eslatma – nasihatdir, xolos"¹⁰¹.

Ushbu yo'nalishda yozilgan yana bir asar – "Рассказы из Корана" ("Stories from the Qur'an") 1940-1950-yillarda hind ilohiyotchisi Muhammad Xifzurahmon Seoharvi (1901-1962) tomonidan yozilgan. Bu uning eng mashhur asari hisoblanadi hamda 2015-yilda rus tiliga tarjima qilingan. Ushbu asarning boshidanoq din tarixida mavjud qirq bitta payg'ambarning nomlari alohida qayd etilib, ularning har bittasiga alohida murojaat qilingan.

Mashhur rus olimi M.B. Piotrovskiyning 1991-yilda Moskvada nashr qilingan "Коранические сказания" nomli asari islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimda

⁹⁸ Э.Р. Кулиев, Рассказы в Коране // Корановедение: Учебное пособие. — М. : Изд-во МИУ, 2010. — С. 191.

⁹⁹ Э.Р. Кулиев, Рассказы в Коране // Корановедение: Учебное пособие. — М. : Изд-во МИУ, 2010. — С. 192.

¹⁰⁰ <https://e-minbar.com/quranic-studies/rasskazy-korane/koranicheskie-rasskazy-pravda-vymysel>

¹⁰¹ "Yusuf" surasi, 102-oyat.

mavjud bo'lgan "tarixiy" an'analar haqida so'zlaydi. Tarixiy qissalar asar matnining muhim qismini tashkil etadi, asosiy g'oyalarining aksariyatini, badiiy tilining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida jamlaydi. Zero, "tarixiy Qur'on qissalarini tahlil qilish islom dinida diniy va madaniy vaziyatning ba'zi xususiyatlarini bayon qilishga imkon beradi"¹⁰². Ushbu shaklda Qur'on qissalari birinchi marta rus tilida bayon etilgan. Shuningdek, muallif ushbu asarni yaratish davomida juda ko'p mutaxassislarga murojaat qiladi, chunki u butun qissalar to'plamiga yangi yondashuvni taklif qiladi. Ular, birinchi navbatda, qissalarning Qur'on va'zidagi o'rni va arab madaniy muhiti bilan aloqasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Shuningdek, o'n yillik tadqiqot davomida erishilgan yutuqlar dunyodagi mashhur ensiklopediyalardan ham joy olgan¹⁰³. Sharqshunos, islomshunos, Ermitaj muzeyi direktori Mixail Piotrovskiyning kitobi shunchaki tarjima emas, balki Qur'onni his qilish uchun o'ziga xos qo'llanma. Qur'on qissalarining ajoyib tasodiflarini kashf etish, islom dinining paydo bo'lishi va tarqalishining sabablarini tushunish uchun katta yordam beradi.

Iroqlik mashhur mutafakkir Muhammad Rizo Husayn Sheroziyning ham aynan "Коранические сказания" nomli kitobi biografiya va memuar yo'nalishda yozilgan bo'lib, 2010-yilda "Sadra" nashriyoti tomonidan rus tilida nashr qilingan. Ushbu asar Qur'on qissalariga asoslangan payg'ambarlar va solihlar hayotidan qissalar to'plamidir. Asarda Muso (Moisey), Ibrohim (Avraam), Maryam (Mariya), Iso (Iusus), Nuh (Noy), Yusuf (Iosif) hayotidan qissalar keltirilgan hamda "yosh avlodning tarixiy-diniy qiyofasini anglashga bo'lgan chanqog'ining kuchayishi ushbu kitobning yozilishiga olib keldi..."¹⁰⁴.

Bundan tashqari, Mahmud Ibn Ahmad al-Dosariyning 2017-yilda ingliz tilida nashr qilingan "The Magnificence Of The Qur'an Stories" ("Qur'on qissarining ulug'vorligi") asarida Qur'on qissalarida ulug'vorlik holatlari, qissalarning maqsad va ta'sir yo'nalishlari borasida Qur'on oyatlari asosida tahlil amalga oshirilgan. Mazkur asarda muallif Qur'onni o'rganish metodologiyasidan tortib, uning xususiyatlari, fazilatlar va unga yaqinlashish odob-axloqiga qadar hamma narsani muhokama qiladi. Bu Qur'on haqidagi bilim va faktlar dunyosini ochadigan foydalanuvchi qo'llanmasiga o'xshaydi. Barcha kitobxon va tadqiqotchilar uchun ushbu kitob Qur'onning bebaho hamrohi bo'lib, uning ulug'vorligi va boshqa barcha kitoblardan ustunligini eslatishga xizmat qiladi. Turli xil ko'rinadigan bir qator mavzularni muhokama qilish orqali muallif Qur'onning butun chizmasini yaratishga muvaffaq bo'ldi hamda bu asar ushbu akademik xarakterdagi boshqa har qanday qo'llanmadan ustun deya baholanadi¹⁰⁵.

Yana bir sharqshunos Ingrid Mattsonning "The Story of the Qur'an: Its History and Place in Muslim Life" ("Qur'on qissasi, uning tarixi va musulmon hayotidagi o'rni") deb

¹⁰² <http://kronk.spb.ru/library/piotrovsky-mb-1991.htm>

¹⁰³ Qarang: «Мифы народов мира» (М., 1980, 1982; 2-е изд. М., 1987, 1988), «Ислам» (М., 1990), «Ислам» (М., 1983; 2-е изд. М., 1986) и «Ислам» (М., 1989).

¹⁰⁴ <https://litportal.ru/avtory/reza-shirazi/kniga-koranicheskie-skazaniya-135709.html>

¹⁰⁵ https://books.google.co.uz/books/about/The_Magnificence_of_the_Qur_an.html?id=IxdApQwZfXwC&redir_esc=y

nomlangan kitobi 2008-yilda nashr qilingan. Olti bobdan iborat bu ilmiy asarda Qur'on va undagi qissalarning tarixiy ildizlariga boblar aro bosqichma-bosqich yondashib boriladi.

Birinchi bobda Qur'on, shuningdek islom dini paydo bo'lgungacha bo'lgan davrdagi Arabiston yarim oroli va payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hayotlari haqida umumiy ma'lumot berilgan.

Ikkinchi bobda Qur'oni Karim nozil bo'lgan yillar davomida musulmonlar jamoasining diniy-axloqiy rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, u hadis adabiyoti va ilmlarini muhokama qilishni, shuningdek, Qur'onning o'qilish uslublari va asosiy mavzularini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Qur'onning og'zaki va yozma tarjimasi bilan bog'liq uchinchi bob yuqori darajada shuhrat qozongan va kitobning eng katta muvaffaqiyatli qismi bo'lib shakllangan.

To'rtinchi bobda Qur'on qissalarining musulmonlar hayoti va madaniyatidagi ko'rinishlari keltirilgan. Bu arxitektura namunalari muhokamasini ham o'z ichiga oladi.

Beshinchi bobda Qur'onni tushunish bilan bog'liq muammolar tahlil qilinadi. Shuningdek, intellektual muammolarni ko'rib chiqib, Qur'onga zamonaviy yondashuvlar qanday rivojlanganligi muhokama qilinadi.

Oltinchi bobda Qur'on qissalarini tushunish uchun ma'naviy muammolar ta'riflanadi hamda bunday muammolarga e'tibor qaratish o'quvchiga bunday muammolarni jiddiy qabul qilishda foyda olishga imkon beradi.

МАМЛАКАТДА ФУҚАРОЛИК ЖАМИЯТИ ИНСТИТУТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МИЛЛИЙ ҒОЯ ВА МАЪНАВИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Шатураева Севара

Мирзо Улуғбек номидаги

Ўзбекистон Миллий университети 2 босқич магистранти

Тараққиётимизнинг янги босқичида жамиятимиз маънавияти, маърифати юксалтириш борасида мамлакатимизда эзгу ишлар амалга оширилмоқда. Чунки маънавият ва маърифат тараққиёт, юксалиш омилидир. Улар тараққиёт, такомил йўлларида доимо бир-бирини такозо қилади. Зеро, маънавиятсиз маърифатга, маърифатсиз маънавий камолотга етиб бўлмас. Ҳар иккиси уйғунлигини ўзида ифодалаган ғоялар фақат эзгуликка хизмат қилиши айна ҳақиқатдир. Бизнинг миллий ғоямиз том маънода маънавият ва маърифат зиёси нури билан суғорилгандир. Унида ўз ифодасини топган Юрт тинчлиги, Ватан равнақи, халқ фаровонлиги, комил инсон, ижтимоий ҳамкорлик, миллатлараро тотувлик, диний бағрикенглик каби миллий ва умуминсоний кадриятлар ҳаётимиз ва фаолиятимиз маъно мазмунидир. Умуман олганда, Юксак кадриятларни ўзида ифодалаган миллий ғоя ва мафкурамиз Ўзбекистонда озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаётни барпо этишга қаратилган умуммиллий ходисадир.¹⁰⁶

Фуқаролик жамияти тараққиётида миллий ғоя ва маънавий маърифий кадриятлар муҳим ўрин тутди. Шу нуқтаи назардан биринчидан, юксак маънавият ва маърифатга таянмасдан фуқаролик жамиятини барпо этиб бўлмайди, иккинчидан, фуқаролик жамияти тараққиётида унинг келажак идеалларини ўзида ёркин ифодалаган эзгуликка йўғрилган бунёдкор ғоя муҳим аҳамият касб этади. Бизнинг миллий ғоямиз шундай ғоя бўлиб, унда халқимизнинг мақсад ва муддаолари, эзгу асрий орзу-истаклари, эркинлик, демократия, мустақиллик, тараққиёт, фаровонлик, тинчлик-тотувлик, кабилар ўз мужассамини топган бўлиб, фуқароларнинг ҳақ-ҳуқуқларини, манфаатларини ўзида ифода этади; учинчидан, фуқаролик жамияти ўзининг ғоявий-мафкуравий, маънавий-маърифий асосларига эга бўлиши, бунда миллий ғоя етакчи аҳамият касб этмоғи керак. Чунки унда халқнинг ишонч-эътиқоди, фуқаролик жамиятини барпо этишда маънавий-руҳий қувват бўлиб, уларни сафарбар қилади, ўзаро жипслаштиради ва уюштиради; тўртинчидан, фуқаролик жамияти кишиларини Ватан равнақи, халқ фаровонлиги таъминлаш йўлида уларни маънавий-руҳий рағбат ва мадад бўлади. бешинчидан, фуқаролик жамиятининг негизи албатта миллий ғоя билан чамбарчас алоқададир. Фуқаролик жамиятини ривожлантиришда миллий ғоя устувор аҳамият касб этади.

¹⁰⁶ Қаранг: Раффоров Р. "Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар" фанидан Бакалавр таълими йуналиши буйича электрон версияда маърузалар матни. -Т.: 2006. -Б.7.

Фуқаролик жамиятини қуриш кучли давлатдан - кучли жамиятга босқичма-босқич ўтиш оркали рўй беради. “Балик сув билан тирик” деганларидек, жамият ўз маънавияти, маърифати, эзгу ғоялари билан ҳамиша мукамалдир. Зеро, маънавият, маърифат ва уларнинг энг муҳим жиҳатларини ўзида ифодалаган ғоялар жамиятни эзгуликка етакловчи кучдир. Инсонийлик жамияти ҳозирги кунгача канчадан канча машаққат ва мураккабликларни юксак маънавият маърифатга таянган эзгу ғоялари ва уларга амал қилиши оркали етиб келганлиги ва айна ҳақиқатдир. Кўринадики, фуқаролик жамият тараққиётида маънавий-маърифий омиллар ва уларга таянган эзгу ғоялар муҳим аҳамиятга эгадир. Ўзбекистонда фуқаролик жамияти институтларини ривожлантиришнинг миллий маънавий асосларида миллий ғоя ва маърифий кадриятлар муҳим ўрни тутди. Шу ўринда институт сўзига изоҳ берадиган бўлсак, у (лот. institum муассаса) кенг маънода - тартибот, ижтимоий турмушни ташкил этувчи ва тартибга солиб турувчи ижтимоий тузилмалардир....¹⁰⁷

Фуқаролик жамияти эса, ҳуқуқ ва демократияга асосланган ижтимоий ҳаётнинг зарур оқилона усули; инсонга унинг иктисодий, сиёсий ва маданий ҳаёти шакллари эркин кафолатланадиган, қонун устуворлиги ва инсон ҳуқуқлари, эркинликлари қарор топадиган, кўп партиявийлик, сиёсий институтлар, мафкура ва фикрларнинг хилма-хиллиги таъминланадиган ҳамда ўзини-ўзи бошқариш органларининг мавқеи баланд бўлган ижтимоий тузумдир. Фуқаролик жамияти институтлари тизимида ўзини ўзи бошқариш органлари (маҳалла)нинг ўрни бекиёсдир. “...Фуқаролик жамиятининг асосларини ташкил этувчи пойдевор мана шу органдир...”¹⁰⁸ Зеро, маҳалла бошқарув тизими бизда жуда қадимий илдизга эгалиги билан характерланади. У фуқаролик жамиятининг ячейкаси дир. Мустакиллик йилларида маҳалла ҳаёти билан боғлиқ кўплаб кадриятлар, удум ва анъаналаримиз кайта тикланиб, замон талаблари асосида бойиб бормоқда. Шу билан бирга, маҳалланинг ҳуқуқ ва ваколатлари кенгайтирилмоқда, улар бугун ўзини ўзи бошқариш идораси, хақиқий демократия дарсхонаси сифатида кенг кўламли фаолият олиб бормоқда.”¹⁰⁹ Бугун мамлакатимизда фуқаролик жамиятини шакллантириш учун турли сиёсий партия фаолият юритмоқда.

Чинакам манавий-маърифий кадрияларга таянган фуқаролик жамияти - шахс эрки, қонун олдида барчаннинг тенглиги, ижтимоий адолат, фуқароларнинг ижодий салоҳияти ва истеъдоди кабиларни бевосита рўёбга чиқаради. Умуман олганда фуқаролик жамияти тараққиётида миллий ғоя ва маънавий-маърифий кадриятлар

¹⁰⁷ Каранг: www.ziyouz.com куту бхонаси. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси И харфи. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. -Б.10

¹⁰⁸ “Karimov I.A. "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'uldirmiz". Т. 9. -Т.: “O'zbekiston”. -В. 317-318.

¹⁰⁹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Т.: “Ma'naviyat”, 2008. - В. 87.

хал қилувчи аҳамият касб этади. Маънавият, маърифат ва эзгу ғоялар уйғунлигига таянган жамиятнинг эртаси порлоқдир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Раффоров Р. “Миллий истиклол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” фанидан Бакалавр таълими йуналиши буйича электрон версияда маърузалар матни. -Т.: 2006. -Б.7.

2. www.ziyouz.com куту бхонаси. Узбекистон Миллий Энциклопедияси И харфи. -Т.: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти. -Б.10

3. “Karimov I.A. "Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'uldirmiz". Т. 9. -Т.: “O'zbekiston”. -Б. 317-318.

4. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -Т.: “Ma'naviyat”, 2008. - В. 87.

ДАВЛАТ БОШҚАРУВИНИ ДЕМОКРАТЛАШТИРИШ ЖАРАЁНЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ-МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

Хайдарова Анора

Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон Миллий университети
2 босқич магистранти

Аннотация: Маълумки, ҳар қандай фаолият тури бошқарув асосида қурилади, чунки шу фаолиятни амалга оширишда кўзланган мақсадга эришиш, бажариладиган вазифаларни тақсимлаш, ижросини назорат қилиш, шунингдек, самарадорликка эришиш учун шу фаолиятда иштирок этувчилар манфаатларини ҳимоя қилиш, рағбатлантириш чора тадбирлари бошқарув жараёнида ташкил этилади ва мувофиқлаштирилади. Бунда бошқарувга иқтисодиётда мавжуд тизим ҳам ўз таъсирини ўтказади. Мустақиллигимизни қўлга киритмасимиздан олдинги тизимда, иқтисодиётда маъмурий – буйруқбозликка, ҳамда марказий режалаштиришга асосланган тизим ҳукмрон эди. Ўзбекистон жаҳон тажрибасига асосланиб, мулкчиликнинг турли шакллари тенглиги таъминланган, ишлаб чиқаришнинг замонавий миллий манфаатларга мос тузилмасини яратиш кўзда тутилган, эркин нарх-наво ва бозор қонунлари асосида бошқариладиган ижтимоий йўналтирилган бозор иқтисодиётига ўтиш йўлини танлади.

Калит сўзлар: Давлат бошқаруви, мулкчилик, ислоҳот, демократия, иқтисодиёт, қонун, миллий манфаат, давлат.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев давлат бошқаруви тизимининг самандорлигини оширишга қаратилгани билан ҳам алоҳида аҳамиятга эга. Яқин истиқболдаги инновацион тараққиётимизнинг дастуриламали бўлган Ҳаракатлар стратегиясининг биринчи йўналиши ҳам айнан давлат бошқаруви тизими ва жамият қурилиши соҳасидаги ислоҳотларга бағишлангани бежиз эмас. Янги Ўзбекистонда демократик давлат бошқаруви тизимини ислоҳ қилиш “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халққа хизмат қилиши керак”, деган юксак ғояга асосланган ҳолда амалга оширишмоқда. Ислоҳотларнинг биринчи босқичиданоқ бошқарув тизимини ислоҳ қилишга алоҳида эътибор қаратилди. Олиб борилган ислоҳотлар институционал ўзгаришларни амалга оширишга, иқтисодиёт тармоқлари ва соҳаларини бошқариш борасида уларнинг хусусиятига мос келадиган ташкилий ҳуқуқий шакллар вужудга келишига қаратилган. Бошқарув тушунчаси тор маънода бирор бир ташкилот мақсадини аниқлаш ва унга эришиш учун зарур бўлган режалаштириш, ташкил этиш ва назорат жараёнларини фойда келтириши, самара бериши қанчалик фаолият йўналишини тўғри танлай билиш, қарорлар қабул қила олишга ҳамда унинг бошқарилишини назорат қилишга ва бу жараён боришига боғлиқ бўлади.

Бошқарув кенг маъноли тушунча сифатида жаҳондаги бошқарув ва уни ташкил этишнинг назариётчиларидан бири Питер Ф. Друкер айтганидек, “Бошқарув алоҳида фаолият тури бўлиб, ташкил этилмаган бетартиб оммани, бир мақсадга йўналтирилган самарали ва унумли гуруҳга, жамиятга айлантирадиган, ижтимоий ўзгаришларни рағбатлантирувчи элемент ҳисобланади”. Дэвид Б. Херц таъкидлашича: “Раҳбар мавжуд энг яхши альтернативани ўз ресурсларини тақсимлаш, ўзи ва бошқалар учун ҳаракатлар навбатини белгилашга, янги одамлар ва материал ресурсларни жалб этиш учун танлаб олиши керак”.¹¹⁰ Бунинг учун у қисқа ва узоқ муддатли келажақда қарорларнинг оқибатлари пайдо бўладиган муҳит хусусиятлари ва барқарорлиги таърифига ишониши керак. У бундай бир пайтнинг ўзида муқаррар ва олдиндан айтиб бўлмайдиган муҳитнинг бутун ноаниқлигини тасаввур қилиши керак.

Investorlarning soliq imtiyozlari 50 foizgacha yetishi mumkin. Bu degani agarda siz SEIS bo'yicha 100 ming funt sterling sarmoya qilgan bo'lsangiz 50 ming funt imtiyoz olishingiz mumkin degani, agarda siz qayta investitsiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirsangiz 50 foizlik imtiyozga 14 foizlik imtiyoz qo'shiladi va natijada sizning soliq imtiyozlaringiz 64 foizli natijaga yetadi. Bu qoida esa sarmoyadorlarni bitta sarmoya bilan cheklanmasdan va qayta sarmoya kiritishga undaydi va rivojlanishni ham ta'minlaydi.

SEIS bo'yicha investorlarga ham ba'zi cheklovlar o'rnatilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat;

- Siz sarmoya kiritgan korxonaga 100 ming funt sterlingdan ortiq sarmoya kiritishingiz mumkin emas;
- Siz o'zingiz sarmoya kiritgan kompaniyaga xodim, ta'sischisi, menedjer va boshqa holatlar bilan aloqador bo'la olmaysiz;
- Siz investitsiya kiritgan korxonangizning faqatgina 30 foizlik ulushiga ega chiqishingiz mumkin;
- Kompaniya aktivlariga faqatgina 3 yilgacha o'zingizda saqlab qolishingiz mumkin.


Yuqorida keltirilgan ba'zi cheklovlar investorlar uchun cheklov sifatida qabul qilinishi mumkin ammo, bu kabi cheklovlar davlatning o'z bozorini himoya qilish, kompaniya boshqaruvini mahalliyashtirishni tezlashtirish uchun qilingan to'g'ri va oqilona harakatlardir.

2016-2017-yillarda SEIS tizimi orqali 2260 ta korxonalar moliyalashtirgan. Tizim orqali 175 million funt sterling miqdorida investitsiyalar o'zlashtirilgan. Ammo ushbu natijalar 2015-2016-yillardagi natijalardan biroz past hisoblanadi. Ushbu yillarda 2405 korxonalar jami hisobda 182 million funt sterling mablag' yig'gan. Bu mablag' va natijalar kelgusida yuqorilashi ehtimoli katta chunki rivojlanishlar davomiy tarzda amalga oshirilmoqda [6]. 2016-2017-yillarda ushbu kompaniyalarning ichidan 1700 dan ko'prog'i ilk marotaba SEIS tizimi bo'yicha daromad oldi, buning natijasida esa kompaniyalar 148 million funt sarmoya olishdi. Sarmoyalar asosan London va Janubi-Sharqiy hududlarga to'g'ri keladi, 2016-2017-yillardagi investitsiyalarning 63 foizini ushbu hududlardagi kompaniyalar olgan. Investitsiyalarning asosiy 1ismi **axborot va kommunikatsiya** texnologiyalariga

yo'naltirilmoqda. Birgina 2016-2017-yillard SEIS bo'yicha sarmoyalarning 39%i ushbu sohaga yo'naltirilgan, bu raqamlar esa 68 million funtni tashkil etadi.

Quyidagi jadvalda 2016-2017-yillarda qaysi sohaga sarmoyalar kiritilganligi keltirilib qo'yilgan:

Yuqoridagi berilgan grafikga binoan, SEIS tizimi bo'yicha ham EIS tizimidagi kabi



axborot va kommunikatsiya texnologiyalariga kiritiladigan sarmoyalarning miqdori boshqa sohalarga nisbatan ko'proq hisoblanadi.

O'zbekistonda ham chet el investorlari uchun turli imtiyozlar belgilangan. Misol uchun, To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi prezident farmoniga ko'ra;

- 300 ming AQSh dollaridan 3 milliongacha bo'lgan summaga 3 yil muddatgacha;
- 3 million AQSh dollardan ortiq va 10 milliongacha bo'lgan summaga 5 yil muddatgacha;
- 10 million AQSh dollaridan ortiq bo'lgan summalar va esa 7 yil muddatgacha soliq imtiyozlari berilishi belgilangan [7].

Ammo, O'zbekiston qonunchiligiga binoan Buyuk Britaniyadagi kabi imtiyozli soliq tizimlari mavjud emas, iqtisodiy holatlar ham qoniqarli darajada ham emas. O'zbekiston agarda Britaniyaning tajribasi qo'llasa, bu albatta juda yaxshi natija berishi mumkin. Agarda chet el sarmoyasi uchun aniq tartibdagi va aniq belgilangan soliq imtiyozlari aniq ishlab chiqilsa va turli dasturlar tatbiq qilinsa, investitsiya oqimlarini yanada takomillashtira olishi mumkin.

Dunyo davlatlari doirasida investorlarga yaratilgan imtiyozlar bo'yicha Osiyo davlatlari ham ancha qulay bo'lgan soliq imtiyozlarini taklif qilishadi. Bunday davlatlardan biri rivojlangan, dunyoning uchinchi iqtisodi hisoblangan Yaponiyadir. Yaponiyada yaratilgan sarmoyalar uchun qulay takliflar va imtiyozlar, ilg'or texnologiyalarni qo'llab

quvvatlash, ularga katta mablag'lar ajratish, yaxshi tashkil qilingan soliq siyosati, demokratik jamiyat va korrupsiya darajasining pastligi, 130 millionga yaqin iste'molchilar, qulay logistik joylashuv investorlarni Yaponiya bozoriga kirishga undaydi.

Yaponiya iqtisodiyoti ancha yillardan buyon barqaror rivojlanish tendensiyasi va ega **Jahon banking** 2021-yilgi ma'lumotlarigako'ra Yaponiya 5 trillion AQSh dollarlik YAIMga ega va bu dunyo bo'yicha AQSh va Xitoydan keyingi natijadir [8]. Yaponiyaning 2017-yildagi tashqi to'g'ridan to'g'ri sarmoyalari 10 milliard dollarni tashkil qilgan. Bu natija YAIMga va boshqa davlatlarga nisbatan ancha sust harakatlarning omili hisoblanadi. Hattoki BMT Yaponiyani 2017-yilga eng ko'p sarmoya kiritiladigan davlatlar 20 qatoridan ham chiqarib yubordi. Bu holatlar sarmoya kiritilishiga nisbatan e'tiborning kamayishi va qonunchilikdagi imtiyozlarning kamligi bilan izohlanadi. 2007-2008-yillarda Yaponiya rekord darajadagi investitsiyalarni qabul qilib oldi ammo, 2008-yildagi inqirozdan so'ng esa investitsiya miqdori sezilarli darajada kamaydi. **Yaponiyada faoliyat olib borayotgan kompaniyalar turli to'siqlarga ham duch kelishadi. Ularning fikriga ko'ra, biznes uchun bo'lgan yuqori harajatlar, qat'iy litsenziyalash tartibi, yuqori soliq stavkalari va tartibga solish tizimlari og'irligidan aziyat chekishadi. Qo'shimchasiga madaniyat umuman boshqaligi va tilning og'irligi ham ularga qiyinchiliklar tug'diradi [9].** Ushbu belgilar esa sarmoyadorlarning harakatlarini cheklaydigan va qiyinchilik tug'diradigan omillardir. Ushbu harakatlardan so'ng Yaponiya iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga kirishdi, investitsiyalarni qo'llab quvvatlash uchun harakatlarni amalga oshirdi. Ushbu harakatlardan so'ng 2018-yilning o'zidayoqyillik iqtisodiyot miqdori 6 trillion dollardan oshdi. Ushbu raqamlar orasida albatta investitsiyalar ham katta rol o'ynaydi.

JETRO tashkiloti Yaponiyaning tashqi savdo tashkiloti hisoblanib, Yaponiyaga investitsiya kiritish va olib kelish bilan ham shug'ullanadi. Bu tashkilot Amerika va Yevropa davlatlarida Yaponiyadagi imkoniyatlar va investorlarga beriladigan imkoniyat va imtiyozlarni tanishtiradi va investitsiyalarni jalb etishga mas'uldir. Yaponiyada iqtisodining asosiy qismini **KO'K(kichik va o'rta korxonalar)**lartashkilot etadi. Ular Yaponiya bo'ylab 3,5 milliontani tashkil etib, umumiy kompaniyalarning 99,7 foizini tashkil etadi. Ushbu korxonalariga sarmoya kiritish usuli ham qulay tashkillashtirilgan va imtiyozlarga ega. **KO'Kning ishlab chiqarishi uchun sarmoya kiritayotgan kompaniyalar ma'lum toifadagi texnika vositalari va vositalarini sotib olishi uchun imtiyozlar beriladi. Ular 30 foizlik amortizatsiya stavkasi yoki 7 foizlik soliq krediti, korporativ soliq majburiyatlarining 20 foizigacha bo'lgan miqdordagi soliqlardan ozod bo'lishi mumkin [10].** Yuqoridagi imtiyozlar esa sarmoyadorlarni KO'Klarga sarmoya kiritishni qulay qiladi va korxonalarining texnik jihatdan yangilanishiga ham olib keladi. Yaponiya ilg'or texnologiyalarni ham qo'llabquvvatlaydi. Yaponiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari bo'yicha soliq imtiyozlari rejimi esa kompaniyaning korporativ solig'ini 6-14% gacha kamaytirishga imkon beradi [11]. Bu kabi imkoniyatlar ham investorlarni o'ziga jalb etadi. Shu sababli ham Yaponiyada ilg'or texnologiyalar bo'yicha yangiliklar ko'p amalga oshiriladi va qo'llab quvvatlanadi.

Yaponiyaning investorlarga yaratilgan afzalliklaridan biri bu **erkin iqtisodiy zonalaridir**. Shu kabi hududlar Yaponiyada 22 ta bo'lib, ular aeroportlar, vokzallar va portlar oldida joylashgan bo'lib, mahsulotni tashish, olib kelish, eksport qilish uchun qulay hududlarda tashkil qilingan. Bu zonalar turli ishlab chiqaril bosqichlari uchun imtiyozlar mavjud jumladan tashqi investorlar uchun quyidagi imtiyozlar mavjuddir;

- **Yaponiyaning erkin iqtisodiy zonalariga qo'shilgan investorlar ishlab chiqarishdagi import qilinadigan maxsulotlari va reeksport qilinadigan tovarlar uchun tariflar o'ng 100 foizigacha va shu bilan birga ichki iste'mol soliqlaridan 100 foizigacha**

- **Omonatga iqtisodiy zonasida faoliyat yuritadigan kompaniyalar uchun esa olinadigan daromad solig'ining 30 foizi 10 yillik muddatga korporativ soliqlardan ozod qilinadi [12] .**

Bundan tashqari qo'shimcha bir qancha imtiyozlar ham mavjud. Jumladan, past foiz miqdordagi kreditlar, ko'chmas mulk sotib olish va mulk solig'idan ozod bo'lish va boshqa davlat mablag'lari hisobidan turli xil imtiyozlarga ega chiqish kabi imtiyozlardir. Bu kabi imtiyozlar sanoat zonalariga chet el sarmoyalarini va tadbirkorlarini jalb etishini tezlashtiradi va iqtisodiy o'sishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kelajakdagi rejalar.

Yaponiyada **NISA**(NISA Nippon Individual Savings Account) soliq tizimi mavjud bo'lib, Yaponiya moliya institutlarida xorijiy investitsiyalarni 2042-yilgacha olingan daromadlaridan undiriladigan soliqlardan ozod qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek Yaponiya bosh vaziri Kishida 2022-yildagi NewYork fond birjasida so'zga chiqdi va unda mamlakatga investorlarni jalb qilish va bunda NewYork fond birjasi muhim rol o'ynashi haqida so'z yuritdi. Uning ta'kidlashicha kelajakda Kishida shuningdek, Yaponiya boshlang'ich biznes uchun muhitni yaxshilash uchun soliq imtiyozlarini kengaytirishini aytdi [13] . Bu esa yangi tashkil etilayotgan KO'klar va kompaniyalar uchun sarmoya kiritishni yanada qulaylashtiradi.

Chet el investorlarini jalb qilish va ularning sarmoyalarini o'zlashtirish sohasidagi Yaponiyaning tajribasini O'zbekistonda ham joriy qilish mamlakatning iqtisodiyotiga juda katta ijobiy ta'sir qilishi mumkin. Yaponiyadagi kabi tashqi savdo tashkiloti JETRO kabi tuzilma tashkil qilish va shu tashkilot investitsiya makonlarini topilish va investorlarni jalb qilish sohasida harakatlari olib borilishi O'zbekistonda ham katta natija berishi mumkin. Sanoat zonalarini ko'paytirish va tashkil qilish ulardagi soliq, logistika qonunchilik sohasini ham takomillashtirish va unda Yaponiya tajribasini o'zlashtirish ham davlatimizga ancha foyda bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida, ushbu maqolada chet el mamlakatlarida investorlar uchun yaratilgan soliq imtiyozlari haqida muhokama qilingan. Soliq imtiyozlari nima, uning maqsadi, vazifalari haqida so'z yuritilgan. Soliq imtiyozlariga bog'liq masalalar, soliq imtiyozlarini rivojiga hissa qo'shadigan olmillar muhokama qilingan. Soliq imtiyozlarini hozirgi kundagi tendensiyasi, tariflarini Buyuk Britaniya va Yaponiyaning investorlar uchun yaratilgan soliq

tizimlarini o'rganish orqali tahlil qilingan. Ushbu maqola ma'lumot va mutaxassislarining fikri va dalillariga asoslangan va maqola o'z sohasida o'ziga xos muhim jihatlarga ega. **Birinchi**dan, maqolada investorlarni jalb qilish uchun soliq imtiyozlari bilan bir qatorda rivojlantirilishi lozim bo'lgan soha va harakatlar haqida muhokama qilingan, ushbu harakatlarni amalga oshirish orqali soliq imtiyozlari yanada foydaliroq bo'lishi, sarmoyadorlar uchun yanada foydali bo'lishi haqida tahlil qilingan. **Ikkinchi**dan, tegishli davlatlardagi soliq tariflari va investorlarga berilgan imtiyozlar, ularning amal qilish muddatlari, darajalari, foydali va salbiy tomonlari muhokama qilingan. Erkin iqtisodiy zonalar va ularning qulayligi va undagi imkoniyatlar ham muhokama qilingan. **Uchinchi**dan, yuqorida keltirilgan soliq imtiyozlarini g istiqbollari va kelajagi, tegishli davlatlarning kelajakdagi rejaları shuningdek, chet el tajribasini O'zbekistonda ham joriy qilish o'zlashtirish masalalari ham keng miqyosda tahlil qilingan. Ushbu maqola chet ellik investorlarga yaratilgan soliq imtiyozlari va ularni qilish, ushbu sohani rivojlantirish uchun katta ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. International Monetary Found. Tax Policyfor Developing Countries. Vito Tanzi, Howell Zee. © 2001 International Monetary Fund. March 2001

Available at:<https://www.imf.org/external/pubs/ft/issues/issues27/>

2. GCV .What tax reliefs area available when investing in UK startups?Craig Peterson . 9 Oct 2018 · 4 min read · *Updated on 31 Aug 2022*

Available at : <https://www.growthcapitalventures.co.uk/insights/blog/what-tax-reliefs-are-available-when-investing-in-uk-startups>

3. Seed Enterprise Investment. Scheme And Social Investment Tax Relief.May 2018. Statistics on Companies raising funds

Available at : https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/710986/May_2018_Commentary_EIS_SEIS_SITR_National_Statistics.pdf

4. ANGELS DEN. Seed Enterprise Investment Scheme (SEIS) Tax Relief

Available at: <https://www.angelsden.com/seis-tax-relief/>

5. ALGELS DEN. Seed Enterprise Investment Scheme (SEIS) Tax Relief

Available at: <https://www.angelsden.com/seis-tax-relief/>

6. Seed Enterprise Investment . Scheme And Social Investment Tax Relief.May 2018. Statistics on Companies raising funds

Available at : https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/710986/May_2018_Commentary_EIS_SEIS_SITR_National_Statistics.pdf

7. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTININGFARMONI. TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI XUSUSIY XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNI RAG‘BATLANTIRISH BORASIDAGI QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA qonunchilik milliy bazasi: <https://lex.uz/docs/-555778>

8. THE WORLD BANK. All Countries and Economies Available at : [https://data.worldbank.org/indicator/Ny.Gdp.Mktp.Cd?most recent value desc=true](https://data.worldbank.org/indicator/Ny.Gdp.Mktp.Cd?most+recent+value+desc=true)

9. Investing in Japan. ByShinyaTagoandYuukiMutou, IwataGodolaw Office (First Law International Board Member Firm) .Law state dasat 01 Feb 2019 • Japan

Available at : [https://content.next.westlaw.com/practical-law/document/lc736bc47ad2311e498db8b09b4f043e0/Investing-in-Japan?viewType=FullText&transitionType=Default&contextData=\(sc.Default\)&firstPage=true](https://content.next.westlaw.com/practical-law/document/lc736bc47ad2311e498db8b09b4f043e0/Investing-in-Japan?viewType=FullText&transitionType=Default&contextData=(sc.Default)&firstPage=true)

10. Start Your Business In Europe. Japanforeign Investment incentives

Available at: <https://www.worldwide-tax.com/japan/japan-investment.asp>

11. Building better working world.BrayanSmit. How jurisdictions in Asia-Pacific invite businesses from around theworld

Availableat: https://www.ey.com/en_gl/tax/how-jurisdictions-in-asia-pacific-invite-businesses-from-around-the-world

12. Healthy consultants. Global business setup experts

Available at:<https://www.healyconsultants.com/japan-company-registration/free-zones/>

13. The Manichi. PM Kishida pitches Japan’s permanent investment tax break at N.Y. bourse. September 23, 2022 (MainichiJapan)

Available at: <https://mainichi.jp/english/articles/20220923/p2g/00m/0bu/011000c>

XALQARO SUD ISHLARIDA MUSTAQILLIK VA HOLISLIK

Yoqubov Jasurbek Salimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

Annotatsiya

Odil sudlovga bo'lgan huquqning elementlari sifatida qaraladi, sudning mustaqilligi va holisligi San'atda bevosita mustahkamlangan. Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konventsiyaning 6-moddasi, shuningdek, Inson huquqlari bo'yicha Evropa sudining sud amaliyotida sudning mustaqilligi va holisligini tushunishga bo'lgan yondashuvlarini tahlil qiladi.

Kalit so'zlar: Adolatli sudlov huquqi; Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi; Yevropa konventsiyasi; sud hokimiyatining mustaqilligi; sudning holisligi.

Аннотация

Рассмотренные как элементы права на справедливое судебное разбирательство независимость и беспристрастность суда прямо закреплены в ст. В статье 6 Конвенции о защите прав человека и основных свобод также анализируются подходы к пониманию судебной независимости и беспристрастности в судебной практике Европейского суда по правам человека.

Ключевые слова: Право на справедливое судебное разбирательство; Европейский суд по правам человека; Европейская конвенция; независимость судебной власти; беспристрастность суда.

Annotation Considered as elements of the right to a fair trial, the independence and impartiality of the court are directly enshrined in Art. Article 6 of the Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms also analyzes approaches to understanding judicial independence and impartiality in the jurisprudence of the European Court of Human Rights.

Keywords: Right to a fair trial; European Court of Human Rights; European Convention; independence of the judiciary; impartiality of the court.

KIRISH

Sud-huquq tizimining samarali faoliyati zamonaviy demokratik davlatning hal qiluvchi omilidir. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasining Konstitutsiyaviy sudi odil sudlov o'zining tabiatiga ko'ra, adolat talablariga javob beradigan va huquqlarning samarali tiklanishini ta'minlagan taqdirdagina tan olinishi mumkinligini bir necha bor ta'kidlagan. Qonunchiligida adolatli sudlovning mazmunini ochib beradigan normalar yo'q. Biroq, adolatli sudlov talabi xalqaro huquqiy hujjatlarda, xususan, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi Evropa konventsiyasida (*keyingi o'rinlarda Konvensiya, Yevropa konvetsiyasi deb yuritiladi*) ratifikatsiya qilingan holda mavjud. Rossiya Federatsiyasi uni amalga oshirish bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan.

Konvensiyadagi asosiy inson huquqlaridan biri bu adolatli sudlov huquqi bo'lib, uning mazmuni San'atda ochib berilgan. 6-modda va quyidagi tahrirda bayon etilsin: "Har kim o'z fuqarolik huquq va majburiyatlarini belgilashda qonun hujjatlarida belgilangan mustaqil va holis sud tomonidan oqilona muddatlarda adolatli va oshkora ko'rib chiqilishiga haqli".

Mustaqil va xolis sudga bo'lgan huquq - Konvensiyada aniq e'lon qilingan adolatli sudlovning asosiy tamoyillaridan biridir. Sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligining kafolatlari uzviy bog'liqdir. Qoidaga ko'ra, Yevropa sudi adolatli sudlov huquqi buzilgan yoki yo'qligini aniqlashda ularni birgalikda ko'rib chiqadi. Shunga qaramay, amaliyotda 1-bandi buzilishini aniqlaydigan mezonlarni ishlab chiqdi. Konvensiyaning 6-bandi ham mustaqillik, ham xolislik nuqtai nazaridan o'rganiladi.

Rossiya fuqarolik protsessual huquqi fanida sudning mustaqilligi an'anaviy ravishda konstitutsiyaviy tamoyil sifatida qaraladi. Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasining 120-moddasi va "Rossiya Federatsiyasining sud tizimi to'g'risida" Federal qonunining 5-moddasida sudlar mustaqildir va faqat Rossiya Federatsiyasi Konstitutsiyasi va federal qonunlarga bo'ysunadi. Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik protsessual kodeksi (bundan buyon matnda *Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksi* deb yuritiladi) 8-modda sudyalarning mustaqilligining konstitutsiyaviy ta'rifining mazmunini kengaytiradi va ushbu konsepsiyaga ishlarni ularga tashqi ta'sirni istisno qiladigan sharoitlarda ko'rib chiqish va hal qilishni va sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi faoliyatiga har qanday aralashishni taqiqlashni ham o'z ichiga oladi.

Umuman olganda, Rossiya qonunchiligida e'lon qilingan shakldagi mustaqillik printsipli San'atning umumiy talablariga javob beradi. Konvensiyaning 6-moddasi, ya'ni u sud hokimiyatning boshqa tarmoqlaridan va sud muhokamasi ishtirokchilaridan mustaqilligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudi (keyingi o'rinlarda *Yevropa sudi* deb yuritiladi) o'zining sud amaliyotiga asoslanib, mustaqillikning kengroq talqinini beradi. Shunday qilib, Rossiya Federatsiyasiga qarshi ishi bo'yicha, Konvensiyaning 1-bandi maqsadlarida sud mustaqil deb hisoblanishi mumkinligini aniqlash uchun ko'rsatdi. Konvensiyaning 6-moddasida, xususan, uning a'zolarini tayinlash tartibi va ularning vakolat muddati, tashqi bosim kafolatlari mavjudligi va uning mustaqil bo'lib ko'rinishini hisobga olish kerak. O'z navbatida, **M. de Salvia** ta'kidlaydiki, sud tomonidan qabul qilingan mustaqillik sudyalarni tayinlashning milliy usulini, ularning faoliyat yuritish muddatlarini, har qanday tashqi bosimdan himoyalanishning mavjudligini qamrab oladi.

Konvensiyaning adolatli sudlovga bo'lgan huquqi nuqtai nazaridan sudyalarning mustaqilligi masalasini ko'rib chiqsak, Evropa darajasida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjat - Vazirlar Qo'mitasining 12-sonli tavsiyasini ta'kidlash kerak. Evropa Kengashining "Sudyalarning mustaqilligi, samaradorligi va roli to'g'risida" (keyingi o'rinlarda - Tavsiya) sud hokimiyatining mustaqilligiga qo'yiladigan talablarni batafsil tartibga soladi: mustaqillik kafolatlari konstitutsiyaviy normalarda e'lon qilinishi kerak; sudyalarning

hokimiyatning qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi tarmoqlaridan, shuningdek ishda ishtirok etuvchi har qanday tarafdin mustaqil bo'lishi kerak; sudyalarga keng vakolatlar berilishi kerak; Sudyalarga umrbod xizmat qilish, shuningdek, tegishli mehnat sharoitlari kafolatlanadi.

Tavsiya qoidalariga asoslanib, T.N.Neshataeva milliy qonunchilikda mustaqillik kafolatlarining ikki turi belgilanishi kerakligini ta'kidlaydi:

➤ mustaqillikning tashqi belgilarini ta'minlash: sudyalarni tayinlash usuli va muddatlari, ular qarorlarining ijro etilishi;

➤ mustaqillikning ichki mexanizmlarini shakllantirish: sudyalarning moddiy mukofotlari va martaba o'sishi, ishni tashkil etishda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslik.

Konvensiyada sudning holisligi adolatli sudlovning sharti sifatida nomlanadi. Konvensiyaning 6-moddasi, umuman olganda, holislikni noto'g'ri fikr va noto'g'ri qarashlarning yo'qligi deb tushunadi. Sud amaliyotini tahlil qilish xolislikni ob'ektiv va sub'ektivga bo'lish kerakligini ko'rsatdi. **Ob'ektiv mezonga** ko'ra, alohida sudyaning shaxsiy e'tiqodi va xatti-harakatiga, ya'ni sudyaning ushbu ishda shaxsiy noto'g'ri qarashlari yoki noto'g'ri qarashlariga e'tibor qaratish lozim. **Subyektiv me'zonda** sudning o'zi, shuningdek, uning tarkibi ularning holisligiga har qanday asosli shubhalarni istisno qilish uchun etarli kafolatlar berganligini aniqlaydi. Shu bilan birga, sub'ektiv va ob'ektiv xolislik o'rtasida qat'iy ajratish yo'q, chunki sudyaning xatti-harakati nafaqat tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan holislikka nisbatan ob'ektiv shubhalarni keltirib chiqarishi, balki uning ishiga ham tegishli bo'lishi mumkin shaxsiy ishonch. Shunday qilib, Yevropa sudi xolislikning yo'qligi yoki mavjudligini ikki jihatda ko'rib chiqadi: **birinchisi** funktsional xususiyatga ega va masalan, bir shaxs tomonidan sud jarayoni doirasida turli funktsiyalarni bajarish; **ikkinchi** jihat shaxsiy xususiyatga ega va bu ishda sudyalarning xatti-harakati bilan bog'liq.

Amalda, sudya bir ishni ko'rishda bir necha bor qatnashib, turli funktsiyalarni bajarganida muammolar paydo bo'ladi (masalan, bir shaxsning maslahat va sud funktsiyalarini bajarishi, ishni sud muhokamasiga tayyorlashda sudning harakatlari da'voni, sudyaning ish yuritishdagi ikki tomonlama rolini ta'minlash choralarini ko'rish; u ishtirok etgan ikki ish o'rtasida o'tgan vaqt; sudda ishtirok etish darajasi.

Shu bilan birga, quyidagilarni ta'kidlash joiz: agar sudya sudgacha bo'lgan qarorlar qabul qilgan bo'lsa, unda bu uning xolisligiga shubha sifatida qaralishi mumkin emas. Bu ishda sudya tomonidan sud muhokamasigacha ko'rilgan choralarning ko'lami va xususiyati muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, sudyaning ish materiallarini batafsil o'rganganligi uning xolisligiga nisbatan biron-bir noto'g'ri qarashga olib kelishini anglatmaydi. Ish materiallaridagi mavjud ma'lumotlarni dastlabki tahlil qilish yakuniy tahlil allaqachon oldindan aytib bo'lingan xulosa degani emas. Qaror qabul qilishda bunday tahlil o'tkazilishi va sud muhokamasida keltirilgan dalillar va dalillarga asoslanishi kerak. Sudyaning xolisligiga shubhalar, agar sudya bir xil faktlar bo'yicha ikki xil sud muhokamasida ishtirok etgan bo'lsa ham paydo bo'lishi mumkin. Indra Slovakiyaga qarshi

ishi bo'yicha arizachining ishdan bo'shatilganligi haqidagi shikoyatini o'zaro ko'rib chiqishda ishtirok etgan sudya rad etilgan, arizachining rehabilitatsiya tartib-qoidalarini qo'llash to'g'risidagi boshqa shikoyatini ko'rib chiqishda ishtirok etdi. bu ishdan bo'shatish. Garchi nizo predmeti dastlabki da'vodan farq qilsada, sud dastlabki ishdan bo'shatish to'g'risidagi ish va ikkinchi rehabilitatsiya ishi bir xil faktlarga tegishli ekanligini ta'kidladi. Bundan tashqari, ishdan bo'shatish to'g'risidagi ish bo'yicha tekshirilgan dalillar, qayta ko'rib chiqilganda, sud qarorini qayta ko'rib chiqishga olib keladi, shu sababli ariza beruvchida sudyaning ishga zarur xolislik bilan yondashishiga shubha paydo bo'ladi.

Kassatsiya sudida ish yuritishning ushbu bosqichida faqat kassatsiya shikoyatini kassatsiya instansiyasi sudining sud majlisida ko'rish uchun o'tkazish imkoniyati to'g'risidagi masala hal qilinganligi sababli, kassatsiya shikoyatini ko'rib chiqqan sudyaning ishtiroki. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik protsessual kodeksining 380.1-moddasining ko'rsatmalari asosida ushbu shikoyatni ko'rib chiqadigan kassatsiya sudining majlisida sudyalarning odil sudlovni amalga oshirishdagi mustaqilligi va xolisligi tamoyillarini buzgan deb e'tirof etilishi mumkin emas."

Zamonaviy konstitutsiyaviy davlatlarda sud hokimiyati mustaqilligi hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslanib, ijro etuvchi, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyatlari hokimiyatning uchta alohida tarmog'ini o'zida namoyon qiladi. Hokimiyatni suiste'mol qilishning oldini olishga qaratilgan o'zaro tiyib turish va muvozanatda saqlash tizimini hosil qiladi. **Mustaqillik prinsipi** - sud hokimiyati konstitutsiyaviy institut sifatida, aniq bir ish bo'yicha qaror qabul qila yotgan sudyalar esa ijro, qonun chiqaruvchi hokimiyatlar va boshqa organlar tomonidan hech qanday tashqi ta'sirsiz o'zlarining professional vazifalarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishlari lozimligini anglatadi. Faqat mustaqil sud hokimiyatigina xolis, qonunga asoslanib, inson huquqlari va shaxsning asosiy erkinliklarini himoya qilgan holda odil sudlovni amalga oshira oladi. Bu vazifa samarali hal qilinishi uchun jamoatchilik sud organlari o'z funksiyalarini mustaqil va xolis amalga oshirish qobiliyatiga to'liq ishonishi lozim. Qachonki, ishonch yo'qolishni boshlasa, na sud hokimiyati institut sifatida, na alohida sudyalar bu muhim vazifani hal qila olishadi yoki ularning bu vazifani ado etayotganiga shubha bilan qarashadi. Sud hokimiyati mustaqilligi prinsipi sudyalarning shaxsiy foydasiga emas, balkim hokimiyatning suiste'mol qilinishidan insonlari himoya qilishga xizmat qiladi. Shuning uchun, sudyalar kelib tushgan ishlarni ko'rib chiqishda, o'zining shaxsiy hohishidan kelib chiqib o'z bilganlaricha harakat qila olishmaydi, ularning burchi faqat qonunni qo'llash hisoblanadi. Shaxs huquqlarini himoya qilish sohasida, sudyalar har bir tegishli holatda inson huquqlari bo'yicha milliy va xalqaro normalarni qo'llash uchun javob beradi.

Mustaqillik va xolislik tushunchalari bir-biri bilan o'zaro bog'liq va ayrim xalqaro nazorat organlari ularni birgalikda ko'rib chiqishadi. Ushbu tushunchalarning har biri o'zining aniq ma'nosiga va maxsus talablariga ega. Mustaqillik tushunchasi sud hokimiyati mustaqilligini ifodalovchi konstitutsiyaviy prinsip hisoblanadi. Sud hokimiyati mustaqilligi inson huquqlari bo'yicha, xalqaro huquq bo'yicha ijro etuvchi hokimiyat bilan xolis

shartlar va kafolatlar asosida "xohish-iroda", balki maqom" yoki "boshqalar bilan munosabatni" bildiradi. Sud hokimiyati mustaqilligi maqomi yoki munosabati Individual va institutsional munosabatlarni nazarda tutadi. Sudyaning individual mustaqilligi kafolatlangan vakolat muddatida ifodalansa, sudning institutsional mustaqilligi ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlar bilan institusional va ma'muriy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

BMT Inson huquqlari bo'yicha qo'mitasiga ko'ra xolislik tushunchasi "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro pakt 14-moddasi 1-bandiga muvofiq sudyalarning ishlarni ko'rishda noxolis va bir taraf manfaatlariga ko'zlab ishlamasliklari lozim. Inson huquqlari bo'yicha Yevropa sudiga ko'ra xolislik tushunchasi sub'ektiv va xolis elementlarni o'z ichiga oladi. Sud nafaqat xolis bo'lishi, balkim sudning hech bir a'zosi qandaydir shaxsiy adovatli yoki noxolis bo'lishi hamda xolislik nuqtai nazaridan ham xolis bo'lishi lozim. Institutsional mustaqillik bu sud hokimiyatining boshqa hokimiyatlar - ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyatlardan mustaqil bo'lishini anglatadi. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 1-prinsipiga asosan "Sud organlarining mustaqilligi davlat tomonidan kafolatlanadi va mamlakat konstitutsiyasi yoki qonunlarida mustahkamlanadi. Barcha davlat organlari va boshqa muassasalar sud organlari mustaqilligini hurmat qilishlari va bunga rioya qilishlari shart", deb belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shart"ligi qayd qilingan. Boshqa hokimiyat tarmoqlaridan sud organlari mustaqilligini ta'minlash maqsadida bu mustaqillikni Konstitutsiyada agar u bo'lmasa, boshqa huquqiy hujjatda kafolatlab qo'yish lozim.

Konstitutsiyada belgilangan mustaqillikni amaliyotda qo'llash masalasini xalqaro huquqda aniq ko'rsatilmagan bo'lsada, sud hokimiyati o'z funksiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq ma'muriy masalalarini hal qilish imkoniyatiga ega bo'lishi lozimligi tushuniladi. Bu sudlarda sudyalarning o'rtasida ishlarni taqsimlash va boshqa malalalarda o'z ifodasini topadi, "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 14-prinsipida ko'rsatilgani kabi bu masala sud tizimining ichki ishi hisoblanadi. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 7-prinsipiga asosan "Har bir a'zo davlat sud organlariga o'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan tegishli vositalarni taqdim etishi shartligi belgilangan. O'z funksiyalarini lozim darajada bajarish imkonini beradigan vositalarsiz sud sudyalari va sud xodimlari o'z vazifalarini yetarli darajada bajara olishmaydi, tashqi bosimlarga bardosh beraolmaydi, korrupsiyaga moyilligi oshadi. Ma'muriy va moliyaviy masalalar haqida gap ketganda mustaqillik har doim ham mutlaq bo'lmasligi mumkin, hokimiyatning uchta tarmog'i bir biridan mustaqil hisoblanada, ayrim masalalarda, jumladan, resurslarni taqsimlashda o'z xarakteri bilan bir biriga bog'liq hisoblanadi. Bu hokimiyatlar taqsimlanish prinsipiga asoslangan ichki keskinlik hisoblanib, bu tizimda bo'lishi muqarrar bo'lsada, misol uchun, parlament sud hokimiyati byudjetini

nazorat qilish orqali sud hokimiyatining samarali faoliyat ko'rsatishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

Xalqaro huquqda sudyalarning qanday tayinlanishi lozimligi to'g'risida imperativ norma mavjud emas, deklarativ tUSDagi tavsiyalar mavjud. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari"da sudyalarning tayinlanishi yoki saylanishi to'g'risida holat ko'rsatib o'tilmagan. Faqatgina "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 10-prinsipida "Sud lavozimlariga tanlab olingan shaxslar yuksak axloqiy xislat va qobiliyat, shuningdek huquq sohasida tegishli tayyorgarlik va malakaga ega bo'lishlari lozim. Sudyalarni tanlashning har qanday usuli g'ayriqonuniy sabablar bo'yicha sudyalarning tayinlanishiga yo'l qo'ymasligini kafolatlashi kerak. Sudyalarni tanlaganda ular irqi, tana rangi, jinsi, dini, siyosiy yoki boshqa e'tiqodlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy, tabaqaviy yoki boshqa ahvoli bo'yicha ajratilmasligi kerak, biroq yuridik lavozimga nomzod tegishli mamlakatning fuqarosi bo'lishi kerakligi haqidagi talabga ajratish sifatida qaralmasligi lozim" ligi qayd qilingan. Sudyalarni tanlab olishning usullaridan qat'i nazar ularning professional tayyorgarlik darajasi va axloqiy sifati tanlab olish uchun yagona mezon sifatida xizmat qilishi lozim. Agar sudyalarning lavozimida uzoq kafolatlangan muddatda bo'lishmasa, ularning mustaqilligiga jiddiy xavf mavjud, ular qarorlar chiqarayotganida bosimga uchrashlari mumkin. Shuning uchun "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 11-prinsipida "Sudyalarning vakolat muddati, mustaqilligi, xavfsizligi, tegishli tarzda mukofotlanishi, xizmat sharoitlari, pensiyasi va pensiyaga chiqish yoshi qonunda belgilangan tarzda kafolatlanishi kerak"ligi belgilangan. "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" 12-prinsipiga ko'ra "Tayinlanadigan yoki saylanadigan sudyalarning pensiyaga chiqqaniga qadar yoki vakolat muddati belgilangan mamlakatlarda ushbu muddat o'tganiga qadar kafolatlangan vakolat muddatiga egadir deb qayd qilingan kafolatlangan lavozimda bo'lish muddatisiz yoki qisqa kafolatlangan muddatga sudyalarni tayinlash yoki saylash 11 va 12 prinsiplarning buzilishi hisoblanadi. Sudyalarga doimiy mandatni taqdim qilish

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, so'nggi o'n yilliklarda qayta-qayta amalga oshirilgan sud islohotlari ta'sirida shakllangan xalqaro qonunchiligida mustahkamlangan va e'lon qilingan sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligi kafollatlari sekin, lekin ishonchli tarzda Evropa huquqiy standartlariga yaqinlashmoqda. Biroq, ushbu qonun qoidalarining barchasi amalda qanday amalga oshirilmoqda, degan savolni javobsiz qoldiramiz.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Нешатаева Т. Н. Решения Европейского суда по правам человека: новеллы и влияние на законодательство и правоприменительную практику : монография. - М. : Норма : ИНРФА-М, 2013. - С. 88.

2. Афанасьев С. Ф. Право на справедливое судебное разбирательство и его реализация в российском гражданском судопроизводстве. -М., 2009. - С. 28-30.

3. Ле Конт, Ван Левен и Де Мейер против Бельгии : Постановление ЕСПЧ от 23 июня 1981 г. (жалобы № 6878/75, 7238/75). - П. 57-58. -URL: <http://europeancourt.ru/resheniya-evropejskogo-suda-na-russkom-yazyke/le-kont-van-leven-i-de-mejer-protiv-belgii-postanovlenie-evropejskogo-suda/> (дата обращения: 20.01.2016).

4. Luka v. Romania : Judgment ECHR of 21 July 2009 (Application № 34197/02). - P. 44. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/> (дата обращения: 20.01.2016).

5. Компания «Совтрансавто Холдинг» (Sovtrans-avto Holding) против Украины : Постановление ЕСПЧ от 25 июля 2002 г. (жалоба № 48553/99). - Доступ из справ.-правовой системы «КонсультантПлюс».

6. Agrokompleks v. Ukraine : Judgment ECHR of 6 October 2011 (Application № 23465/03). -P. 137. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-122696> (дата обращения: 20.01.2016).

7. Sacilor-Lormines v. France : Decision ECHR of 9 November 2006 (Application № 65411/01). -P. 63. - URL: <http://hudoc.echr.coe.int/eng?i=001-77947> (дата обращения: 20.01.2016).

8. Sulaymanov O.R. Sud hokimiyati mustaqilligiga oid xalqaro standartlar. / Monografiya -T.: «Tafakkur qanoti», 2020.

9. BMTning Sudyalar va advokatlar mustaqilligi bo'yicha maxsus ma'ruzachisi Diego Garsiya-Sayanning O'zbekistonga rasmiy tashrif natijalari bo'yicha dastlabki mulohazalar.// <http://www.un.uz/uzb/news/display/348>

KIBERMAKONDA SHAXSIY DAXLSIZLIK HUQUQI

Ismoilov Mavludbek Muqimjon o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti

“Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik” fakulteti 3-kurs talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada kibermakonda shaxsga doir bo'lgan ma'lumotlarning daxlsizligi hamda shaxs daxlsizligi, ushbu huquq buzilishi oqibatida vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlar va unga nisbatan qo'llanadigan javobgarlik masalasi izchil tahlil qilingan. Ushbu maqolaning dolzarbligi butun dunyoda axborot texnologiyasi rivojlanishi va globallashuvi bilan vujudga kelgan axborot xavfsizligi kuchayishi bilan bog'liqdir. Ushbu ma'lumotlarni aniqligini oshirish maqsadida turli xil statistikalar va qonun hujjatlaridan keng foydalanildi. Mavzu doirasida xorijiy va milliy olimlarning fikrlaridan, ilmiy ishlaridan, qilgan tadqiqot natijalaridan, gazeta va jurnallardan, xorij mamlakatlari qonun hujjatlaridan maqsadli havolalar berildi. Shuningdek jadvallar bilan kreativ yondashish maqola mazmun mohiyatini yanada teranroq ochib berishga yordam bergan. Shaxsga doir ma'lumotlar xavfsizligi qay darajada muhimligi va ularning daxlsizligini ta'minlash orqali avvalo shaxsni va uning xavfsizligini ta'minlash mumkinligi haqida mavzu doirasida yoritildi.

Kalit so'zlar: shaxsga doir ma'lumot, shaxs daxlsizligi, Kibermakon, kiberhujum, axborot, axborot xavfsizligi, Qonun

Ikkinchi jahon urushi yakunlangandan so'ng yuzaga kelgan texnologiyalar inqilobi natijasida kompyuterlar keyinchalik, internet asri boshlandi. Texnologiyaning tez sur'atlar bilan o'sishi natijasida ma'lum bir huquqiy masala va muammolarni keltirib chiqardi. Ulardan biri shaxsga doir ma'lumotlarning daxlsizligi hisoblanadi. Hozirgi internet hamda axborot almashinuvi o'sayotgan davrda har bir inson ma'lum bir ijtimoiy tarmoqdan kundalik hayotida foydalanmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar insonlar uchun ma'lumot almashish uchun qulay bo'lishiga qaramay, foydalanuvchilarning shaxsga doir ma'lumotlari saqlanadigan ulkan bazaga aylanib qolmoqda. Bunday vaziyatda shaxs ma'lumotlari orqali unga tahdid qilinishi yoki undan o'z maqsadi yo'lida foydalanilishi mumkin. Ushbu holatlarda shaxsga doir malumotlar daxlsizligi muhim hisoblanadi.

2021-yil holatiga ko'ra, internet foydalanuvchilarining butun dunyo bo'ylab yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi ko'radigan bo'lsak, Dunyo aholisini 22,8 %i 18-24 yosh, 33,8 % i 25-34yoshdagi, 18,6 %i 35-44 yosh atrofidagi, 11,9% 45-54 yosh vaillari, 7,3 %i esa 55-64 yoshdagi hamda atigi 5,5 %i 65 yoshdan oshgan insonlarga to'g'ri kelmoqda [1]. Ushbu ko'rsatkichdan ko'rishimiz ham mumkinki, deyarli dunyoning 50 foizidan ortiq insonlar 34 yoshgacha bo'lgan shaxslar hisoblanadi. Bu internetda ularning shaxsiy ma'lumotlari daxlsizligi muammosini vujudga keltirib hozirgi Kiberzamonda shaxs daxlsizligi huquqini dolzarbligini oshiradi.

Kiberxavfsizlik bo'yicha global reytinglarda hozirgi kun sarhisobiga ko'ra O'zbekiston Milliy kiberxavfsizlik indeksi (National Cyber Security Index) da 88-o'rinda, Global kiberxavfsizlik indeksi (Global Cybersecurity Index) da 70-o'rinda, AKT rivojlanganlik indeksi (ICT Development Index) da 95-o'rinni egallab kelmoqda [2]. Yuqorida sanab o'tilgan amaliyotlar barchasi milliy xavfsizlikni ta'minlashdan iborat. Chunki, mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy, ma'daniy rivojlanishining statistik ko'rsatkichlarining haqqoniyliigi, ishonchliligi va konfedentsialligini ta'minlash bugungi kundagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga to'xtaladigan bo'lsak, bu eng avvalo, shaxl daxlsizligi huquqlaridan biri hisoblanadi. Shaxs daxlsizligi deganda har bir fuqaroning tug'ilganidan boshlab tan olinadigan uzviy huquqi tushuniladi [3]. Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi – insonning asosiy konstitusiyaviy huquqlaridan biri hisoblanib, shaxsning roziligisiz uning shaxsiy hayoti to'g'risida axborot to'plash, saqlash, foydalanish va tarqatish taqiqlanadi. Ba'zida shaxsning o'zi to'g'risidagi ro'yhatga olingan ma'lumotlar bilan tanishib chiqish, ulardan foydalanish, noaniqliklari bo'lsa, tuzatishlar kiritish tarzidagi qo'shimcha vakolatlarni belgilaydi. Yozishmalar va boshqa axborot almashish siri ham alohida konstitusiyaviy huquqni tashkil qilib, shaxsiy hayot daxlsiligi kafolatlaridan biri hisoblanadi [4].

Shaxsiy ma'lumotlarni daxlsizligi ta'minlashdan avval buning uchun aynan qanday ma'lumotlar shaxsiy ma'lumotlar toifasiga kirishini aniqlab olishimiz kerak. Bu bo'yicha **M. Ismoilov** tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida shaxsiy ma'lumotlarga aynan qanday ma'lumotlar kirishini ko'rsatib o'tgan [5].

O'zbek olimlaridan ushbu mavzuyimiz yuzasidan olib borgan tadqiqot hamda ilmiy izlanishlariga to'xtaladigan bo'lsak, **S. Gulyamov** hamda **I. Rustambekov**larning yozishicha, Kiber-huquqning huquqiy tartibga solish predmetiga kibermakonda yuzaga keladigan va turli huquq sohalarining normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar majmui yoki yigindisi kirishini hamda buning natijasida vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish kerakligini [6], **I. Rasulov**ning fikricha, Ma'lumotlarni samarali shifrlash va uni ochish kibermakonda ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlashning kaliti ekanligini hamda bu bo'yicha RSA algoritmidan foydalanish kerakligini [7], **D.N. Qosimov** internet tarmog'idan kiberhujum maqsadida foydalanish natijasida nafaqat insonning shaxsiy ma'lumotlari xavfsizligi balki, shaxsning mafkurasini, dunyoqarashini o'zgartirib yuboruvchi turli xil hujumlarni yoshlarga ta'sirini [8], **A.K. Rasulev** va **G.A. Sadullayev**lar kiber jinoyatlarga qarshi kurashish masalalarini tahlil qilgan holda, xalqaro hamda milliy qonunchiliklarni o'rganib axborot xavfsizligini ta'minlash muhimligini [9] ta'kidlab o'tishgan.

H.P. Hasanov va **O.P. Ahmedovalarning** yozishicha hozirgi kunda axborot xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan vositalarning aksariyati xorij davlatlaridan sotib olingani bois, axborot xavfsizligini ta'minlovchi vositalarni mamlakatimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, yangi texnologiyalar yaratishimiz kerakligini aytib o'tgan [10]. Ushbu fikrlarda

nazarda tutilgan masalalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 3-apreldagi "O'zbekiston Respublikasida axborot kriptografik muhofazasini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" [11] gi PQ-614-sonli Qarorda belgilab qo'yilgan.

Ushbu olimlar asosan axborot xavfsizlik masalalariga to'xtalgan bo'lib, shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga to'xtalib o'tilmagan. Axborot xavfsizligi masalalarini keng yoritilgan bo'lishiga qaramay, ushbu masalalar keng qamrovda bo'lib, aynan shaxsning shaxsga doir ma'lumotlari himoyasi yoritilmagan.

Xorij olimlarining ushbu masaladagi fikrlariga to'xtaladigan bo'lsak, axborot xavfsizligini himoya qilishda xorijiy tajribani o'rgangan olimlardan biri **M.A.Yefremova** va **P.V.Agapov** qator davlatlarning shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligiga oid qonunchilik tizimini [12], **Chestermann**ing maxfiylikni himoya qilish harakatlari har doim yangi tahdidlar va texnologiyalarga javob berishga majbur bo'lganligini [13], **A. Bradley, Areheart, L.Jessisa Roberts**lar Genetic Information Nondiscrimination Act (GINA) va xodimlarning shaxsga doir ma'lumotlari ish beruvchilar tomonidan buzilishi yoki himoya qilinishiga oid [14], **Ye.I.Juk** axborot xavfsizligining konseptual jihatlari, jumladan axborot xavfsizligini tizimlarining dasturlashtirilgan va apparatlashtirilgan vositalariga doir izlanishlar olib borib, axborotni hozirgi zamondagi eng qimmatbaho obyektligini [15], **N.Kshetri** ma'lumotlar potensial qiymatga ega, ulardan qo'shimcha daromad olmoqchi bo'lganlar foydalanish mumkinligini [16] **Paul Bernal** Digital texnologiyalarining nafaqat inson shaxsiy hayotiga, balki so'z erkinligi va yig'ilishlar erkinligidan tortib, kamsitishdan himoyalanihgacha bo'lgan boshqa inson huquqlariga ta'siri bo'yicha katta qizig'ish uyg'otganligini [17] ta'kidlab o'tgan.

Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi bir qator normativ-huquqiy hujjatlar orqali himoya qilinadi. Shu jumladan, "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi"ning 3-moddasida shaxsiy daxlsizlik huquqi, 12-moddasida belgilangan shaxs nomusi va sha'ni daxlsizligi [18], shuningdek, "Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risida"gi xalqaro Pakt (1966-yil 19-dekabr) ning 17-moddasi 1-qismida "Hech kimning shaxsiy va oilaviy hayotiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda aralashish, uning uy-joyi daxlsizligiga yoki yozishmalari sirlari daxlsizligiga o'zboshimchalik yoki noqonuniy tarzda tajovuz qilish va uning or-nomusi va sha'niga tajovuz qilishi mumkin emas" [19].

Ommaviy kuzatuv va millionlab odamlarning ma'lumotlarini saqlash va qayta ishlash texnologiyalari 1950-yilda ishlab chiqilgan Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to'g'risidagi konventsianing 8-moddasida kafolatlangan shaxsiy daxlsizlik huquqiga jiddiy tahdid soladi (EHM, Konventsiya) [20]

2018 yil 25 maydan barcha Yevropa ittifoqiga a'zo davlatlar uchun kuchga kirgan Ma'lumotlarni himoya qilishning umumiy qoidalari (General Data Protection Regulation (bundan keyin matnda GDPR)) [21], Telekommunikatsiya sohasida shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlash va maxfiylikni himoya qilish bo'yicha Yevropa Parlamenti va Kengashning 1997 yil 15 dekabrda 97/66/EC direktivasi [22], Yevropa Ittifoqining asosiy huquqlari xartiyasining 8-moddasi [23], Yevropa Kengashi 2001-yilda kiberjinoyatchilikka qarshi

konventsiyani (Budapesht konventsiyasi) [24], u 108-konventsiya bilan bir qatorda kibermakondagi davlatlarning faoliyatini tartibga soladi. Evropa Kengashi 2001 yilda kibernetika qarshi konventsiyani (Budapesht konventsiyasi) qabul qildi, u 108-konventsiya bilan bir qatorda kibermakondagi davlatlarning faoliyatini tartibga soladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, 108-sonli konventsiya va Budapesht konventsiyasi mintaqaviy Evropa hujjatlari sifatida qabul qilingan, ammo oxir-oqibat universal bo'lmada, xalqaro maqomga ega bo'lgan, chunki ular Evropadan bo'lmagan davlatlarga qo'shilish imkonini beradi. Budapesht konventsiyasini 56 davlat, shu jumladan uni imzolagan Evropa Ittifoqiga a'zo bo'lmagan davlatlar (AQSh, Kanada, Japan va Janubiy Afrika) ratifikatsiya qilgan [25]. Xuddi shunday, 108-sonli Konventsiya [26] ham o'z ko'lamini kengaytirdi, unga Yevropa Kengashiga a'zo 47 davlatdan tashqari Mavrikiy, Senegal, Tunis va Urugvay ham qo'shildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida Axborot xavfsizligi yo'nalishini rivojlantirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning yaqqol misoli sifatida quyidagi normativ-huquqiy hujatlarni ko'rishimiz mumkin. Eng avvalo, O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi [27], O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 15-apreldagi O'zbekiston Respublikasining "Kiberxavfsizlik to'g'risida" gi O'RQ-764-sonli Qonuni. [28], Shaxs daxlsizlik huquqini buzganlik uchun Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 46¹-moddasiga [29] binoan javobgarlikka tortilishi, Agar ma'muriy jazo qo'llanilgandan keyin yana sodir etilgan hollarda, Jinoyat kodeksining 141¹ -moddasiga [30] asosan javobgarlikka tortiladi.

Yuqoridagi qonunlarda shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlashga xizmat qiladigan normalar keltirilgan bo'lsada aynan qanday ma'lumotlar shaxsga doir ma'lumotlar ekanligi ko'rsatilmagan.

Bundan tashqari, Kiberxavfsizlik bo'yicha davlatlarning ichki qonunchiligida mustahkamlashi kerak bo'lmoqda. Kibernetika rivojlanishning barcha darajasidagi mamlakatlarni tashvishga solmoqda va xaridorlarga ham, sotuvchilarga ham ta'sir qiladi. 156 ta davlat (80 foiz) kibernetika qonunchiligini qabul qilgan bo'lsa-da, bu ko'rsatkich mintaqaga qarab farq qiladi: eng ko'p darajasi Yevropada (91 foiz), Afrikada esa eng past (72 foiz).ni tashkil qilmoqda. Dunyoning 80% davlati buni qonun bilan mustahkamlagan bo'lsa, 5 % davlatlarda bu bo'yicha qonun loyihalari ishlab chiqilmoqda. 13% davlatlarda esa bunday jiddiy muammo uchun haligacha qonun ishlab chiqilmagan [31].

Qiyosiy yuridik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, xorijiy davlatlarning huquq tizimida kibernetika qarshi qoidalar ularning Jinoyat Kodeksi yoki shu kabi Kodekslar bilan bo'lsa ba'zilar qonun bilan himoyalangan. Lekin, shunday bo'lsa-da bunday jiddiy muammoni hal etish uchun tizimli yondashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi. Biroq, ba'zi mamlakatlarda ma'lumotlar qonun bilan himoyalangan. Buni quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Jadval №1

Davlatlar	Ma'lumotlar daxlsizligiga oid normalar
Koreya	2016-yil 22-martdagi Axborot va aloqa tarmoqidan foydalanish va axborotni himoya qilishni tarqashtirish to'g'risidagi 14080-son Qonuni [32], Axborot va kommunikatsiya infratuzilmasini himoya qilish to'g'risidagi qonun [33]
Germaniya	1986-yilda qabul qilinib, 2015-yilda tahrir qilingan 202-band [34], Tarmoqni qo'llash to'g'risidagi qonun [35]
Yaponiya	2013-yilda qayta tahrirlangan "Kompyuterga ruxsatsiz kirishni taqiqlash to'g'risidagi" 28-sonli Qonuni [36], 1907-yildagi 45-sonli Qonun bilan qabul qilingan Jinoyat kodeksida [37]
Qatar	2006-yilda qabul qilinga hamda 2017-yilda qayta tahrirlangan "Telekommunikatsiyalar qonuni" (34-son) [38] 2004-yildagi Jinoyat kodeksida [39], "Kiberjinoyatlarning oldini olish to'g'risida"gi qonun (2014 yil 14-son Qonuni) [40]
Rossiya Federativ Respublikasi	2017-yil 26-iyuldagi "Rossiya Federatsiyasining muhim axborot infratuzilmasi xavfsizligi to'g'risida" 187-FZ-sonli Federal Qonuni [41], Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi (2021-yil 1-iyuldagi so'nggi o'zgartirishlar bilan) ning 28-bobida Kompyuter axboroti sohasidagi jinoyatlarga bag'ishlangan, [42] va Rossiya Federatsiyasi Hukumatining 2009-yil 16-martdagi 228-sonli "Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati to'g'risidagi" Nizomi qabul qilingan [43].
Amerika Qo'shma Shtatlar	Jinoyat va jinoyat protsessual kodeksini 18-sarlavhasi [44], 1986-yilgi Kompyuterda firibgarlik va suiiste'mollik qonuni [45]
Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi	1990 yildagi qayta tahrirlangan "Kompyuterni noto'g'ri ishlatish to'g'risidagi qonun" [46]

Solishtirma tahlillar shuni ko'rsatdiki, ko'plab xorijiy davlatlarning milliy qonunchiligida kiberjinoyatchilik hamda axborot xavfsizligini jinoyiy-huquqiy himoyalashga

tizimli yondashuv mavjud emas. Ammo, ba'zi davlatlarning qonunchiligida, qonun bilan himoya qilinadigan axborotlar ma'lum bir tur sifatida belgilab qo'yilgan. Ba'zi bir davlatlarda kiberhujumlar hamda internetdan to'g'ri maqsadlarda foydalanish undagi ma'lumotlarning daxlsizligi ichki Jinoyat kodeksida hamda boshqa bu bo'yicha alohida qonunlar bilan tartibga solingan.

Yuqoridagi holatlarni o'rganib chiqqan holda xulosa qiladigan bo'lsak, kibermakonda shaxs daxlsizligi huquqini keng qamrovda o'rgangan holda, Shaxs daxlsizligi insonning asosiy huquqlaridan biriligi, shaxsning ruxsatisiz uning shaxsiy ma'lumotlarini o'g'rilash, buzish yoki o'zgartirish orqali uning huquqlarini poymol qilish holatlari hozirgi kunda ko'p uchramoqdaligi aniqlandi. Ushbu masalalar maqola davomida keng qamrovda o'rganib chiqilib, shaxs daxlsizligiga oid mualliflar jamoasi shakllantirildi. Hozirgi internet rivojlanga zamonda shaxs daxlsizligini ta'minlash uchun milliy va xorij mamlakatlari qonunchiligi o'rganib chiqildi. Ushbu izlanishlar davomida barcha davlatlarda ham kiberjinoyatchilik hamda internetdagi firibgarliklarni oldini oluvchi normalar yagona qonunchiliklarida berilmaganligi aniqlandi.

REFERENCE

47. The official website: Statista, Distribution of internet users worldwide as of 2021, by age group // Available at: <https://www.statista.com/statistics/272365/age-distribution-of-internet-users-worldwide/> [Accessed on: 10.11.2022]
48. The official website: NSCI (National cyber security index) // Available at: <https://ncsi.ega.ee/country/uz/> [Accessed on: 10.11.2022]
49. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Sh harfi – T.: – 2000-2005. – B.65.
50. R.A. Muhitdinov, O'zbekiston yuridik ensiklopediyasi "Adolat", –Toshkent: – 2009. – B. 528
51. Ismoilov M.M. Shaxsga doir ma'lumotlar daxlsizligi tushunchasining nazariy-huquqiy tahlili Science and innovation, vol. 1, no. C3, 2022, pp. 62-71 // Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/shahsga-doir-malumotlar-dahlsizligi-tushunchasining-nazariy-u-u-iy-ta-lili> [Accessed on: 11.11.2022]
52. Гулямов С. «Кибер-хуқуқ»-янги комплекс хуқуқ соҳаси сифатида //Гулямов Саид Саидахарарович. – 2020. – №. 1.
53. Rasulov I.J., Axborot xavfsizligi va uning tashkil etuvchilari. RSA algoritmi //Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 181-184.Available at: <https://cyberleninka.ru/article/n/axborot-xavfsizligi-va-uning-tashkiletuvchilari-rsa-algoritmi> [Accessed on: 09.11.2022]
54. Kosimov D.N. KIBERMAKONDA AXBOROT ISTEMOLI MADANIYATI //E Conference Zone. –2022. –С.118-120. Available at: <http://www.econferencezone.org/index.php/ecz/article/view/1333/1213> [Accessed on: 09.11.2022]
55. Rasulev A.K., Sadullayev G.A. Kiber jinoyatchilik va axborot xavfsizligi: kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash masalalari, O'zbekiston Respublikasi IIV

Akademiyasining axborotnomasi. — 2021. — № 1 (48) Available at:
<https://akadmvd.uz/oz/nauchniy?year=2021> [Accessed on:09.11.2022]

56. Hasanov H.P., Ahmedova O.P., “Axborot xavfsizligini ta’minlashning kriptografik vositalari” // – T.: Jamiyat va boshqaruv, – 2015. 2-son. – B. 46.

57. “O‘zbekiston Respublikasida axborotni kriptografik muhofaza qilishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-614-sonli qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.11.2018-y., 06/20/5578/0984-son.

58. Efremova M.A., Agapov P.V. Crimes against Information Security: International Legal Aspects of Fighting and Experience of Some States, “Journal of Internet Banking and Commerce”, April 2016, vol. 21, no. S3

59. Chesterman S., After Privacy: The Rise of Facebook, the Fall of Wikileaks, and Singapore’s Personal Data Protection Act 2012 SSRN Electronic Journal // Available at: https://www.researchgate.net/publication/256060245_After_Privacy_The_Rise_of_Facebook_the_Fall_of_Wikileaks_and_Singapore's_Personal_Data_Protection_Act_2012 [Accessed on: 09.11.2022]

60. Bradley A. Areheart, Jessica L. Roberts, GINA, Big Data, and the Future of Employee Privacy, The Yale Law Journal. – 2019. – B. 710-783

61. Жук Е.И. Концептуальные основы информационной безопасности // Машиностроение и компьютерные технологии. №04.– 2010. – Б.35

62. Nir Kshetri, Big data’s impact on privacy, security and consumer welfare, Telecommunications Policy 38(11), November 2014

63. P.Bernal, Data gathering, surveillance and human rights: recasting the debate, Journal of Cyber Policy 1(2):1-22 // Available at: https://www.researchgate.net/publication/308274013_Data_gathering_surveillance_and_human_rights_recasting_the_debate [Accessed on: 10.11.2022]

64. The official website: United Nations Organization, Universal Declaration of Human Rights (Birlashgan millatlar tashkiloti, inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi) 24.10.1948. Available at: <https://www.un.org/en/about-us/universal-declaration-of-human-rights>

65. Саидов А.Х., Ўзбекистон Республикаси ва инсон ҳуқуқлари бўйича халқаро шартномалар – Т.: Адолат, – 2002. – Б. 61.

66. The official website: Council of Europe, Convention for the Protection of Human Rights and Fundamental Freedoms, as amended by Protocols No. 11 and 14 // Available at: https://www.eods.eu/library/CoE_European%20Convention%20for%20the%20Protection%20of%20Human%20Rights%20and%20Fundamental%20Freedoms_1950_EN.pdf [Accessed on: 10.11.2022]

67. The official website: GDPR (General Data Protection Regulation) // Available at: <https://gdpr-info.eu/> [Accessed on:10.11.2022]

68. The official website: Refworld, European Union, Directive 97/66/EC of 15 December 1997 of the European Parliament and of the Council Concerning the Processing

of Personal Data and the Protection of Privacy in the Telecommunications Sector, 15 December 1997, FXAL98024ENC/0001/01/00, available at: <https://www.refworld.org/docid/3ddcc6364.html> [accessed on:10.11.2022]

69. The Official website: EUR_Lex (Europe Union Law), Charter of fundamental rights of the european union (2012/C 326/02) // Available at: <https://eur-lex.europa.eu/legal-content/EN/TXT/PDF/?uri=CELEX:12012P/TXT&from=EN> [Accessed on: 10.11.2022]

70. The official website: Council of Europe, Convention on Cybercrime Budapest, 23.XI.2001 // Available at: <https://rm.coe.int/1680081561> [Accessed on: 10.11.2022]

71. The official website: Council of Europe Chart of signatures and ratifications of Treaty 185 // Available at: <https://www.coe.int/en/web/conventions/full-list?module=signatures-by-treaty&treatyenum=185> [Accessed on: 10.11.2022]

72. The official website: Council of Europe, Convention for the Protection of Individuals with regard to Automatic Processing of Personal Data // Available at: <https://rm.coe.int/1680078b37> [Accessed on: 10.11.2022]

73. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi /Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.02.2021-y., 03/21/671/0093-son

74. Kiberxavfsizlik to'g'risidagi Qonun / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 6.04.2022-y., 03/22/764/0313-son

75. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi / Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 17.09.2021y., 03/21/716/0877-son

76. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi / Qonunchilik malumotlari milliy bazasi, 05.10.2021 y., 03/21/719/0929-son

77. The official website: UNCTAD (United Nations Conference on Trade and Development) Cybercrime Legislation Worldwide // Availble at: <https://unctad.org/page/cybercrime-legislation-worldwide> [Accessed on: 10.11.2022]

78. The official website: KLRI (Korea legislation research institute) Act on promotion of information and communications network utilization and information protection Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=38422&lang=ENG [Accessed on: 10.11.2022]

79. The official website: KLT (Korea Law translation center) Act on the protection of information and communications infrastructure // Available at: https://elaw.klri.re.kr/eng_mobile/viewer.do?hseq=28812&type=part&key=43 [Accessed on: 11.11.2022]

80. The official website: Federal Ministry of Justice, German Criminal Code // Available at: https://www.gesetze-im-internet.de/englisch_stgb/englisch_stgb.html [11.11.2022]

81. The official website: German Law Archive, Network Enforcement Act 2017. // Available at: <https://germanlawarchive.iuscomp.org/?p=1245> [Accessed on: 11.11.2022]
82. The Official website: NPA (National Police Agency) Act on Prohibition of Unauthorized Computer Access(Tentative translation) // Available at: https://www.npa.go.jp/cyber/english/legislation/uca_Tentative.pdf [Accessed on: 10.11.2022]
83. The official website: CAS (Cabinet secretariat) Penal Code (Act No.45 of 1907) // Available at: <https://www.cas.go.jp/jp/seisaku/hourei/data/PC.pdf> [Accessed on: 10.11.2022]
84. The official website: CRA (The Communications Regulatory Authority) Telecommunications Law No. (34) of 2006 // Available at: <https://www.cra.gov.qa/en/document/telecommunications-law-no-34-of-2006> [Accessed on: 10.11.2022]
85. The official website: OHCHR's Database, Law No. 11 of 2004 Issuing the Penal Code 11 / 2004 // Available at: [https://adsdatabase.ohchr.org/IssueLibrary/QATAR %20Penal%20Code.pdf](https://adsdatabase.ohchr.org/IssueLibrary/QATAR%20Penal%20Code.pdf) [Accessed on:10.11.2022]
86. The official website: ILO (International Labour Organization) Cybercrime Prevention Law (Law No. 14 of 2014) // Available at: https://www.ilo.org/dyn/natlex/natlex4.detail?p_lang=en&p_isn=100242 [Accessed on: 10.11.2022]
87. The official website: CIS Legislation, About safety of critical information infrastructure of the Russian Federation July 26, 2017 No. 187-FZ // Available at: <https://cis-legislation.com/document.fwx?rgn=98928> [Accessed on: 10.11.2022]
88. Criminal Code of the Russian Federation (with the latest amendments of 1 July 2021), Chapter 28. Crimes in the Sphere of Computer Information (in Russian) // Available at: <http://www.russian-criminalcode.com/PartII/SectionIX/Chapter28.html> [Accessed on: 10.11.2022]
89. The official website: Roskomnadzor (Aloqa, axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarini nazorat qilish federal xizmati), the government of The Russian federation regulation no. 228 of march 16, 2009 on the federal service for supervision of communications, information technology, and mass media // Available at: <https://eng.rkn.gov.ru/about/> [Accessed on: 10.11.2022]
90. The official website: GovInfo, TITLE 18—Crimes And Criminal Procedure // Available at: <https://www.govinfo.gov/content/pkg/USCODE-2011-title18/pdf/USCODE-2011-title18.pdf> [Accessed on: 10.11.2022]
91. The official website: Congress.gov H.R.4718 - Computer Fraud and Abuse Act of 1986 // Available at: <https://www.congress.gov/bill/99th-congress/house-bill/4718/text> [Accessed on: 10.11.2022]
92. The official website: Legislation.gov.uk (Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya birlashgan qirolligi qonunchilik ma'lumotlari bazasi) The Computer Misuse Act of

1990, as amended (in English) // Available at:
<https://www.legislation.gov.uk/ukpga/1990/18/contents> [Accessed on:10.11.2022]

MATRITSA TUSHUNCHASI. MATRITSALAR USTIDA AMALLAR. TESKARI MATRITSA.

To'rayev Mirjalol Mirza o'g'li

Termiz davlat pedagogika institute

“Matematika va Informatika” fakulteti

Matematika va Informatika ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotasiya: Maqola Oliy ta'limda Oliy Matematikadan Matritsalar ustida amallarni bajarishga hamda Teskari Matritsalarini topishning sodda usuliga bag'ishlangan.

АННОТАЦИЯ: Статья в Высшие учебные заведения е по высшему математике исполнять выполнение и используется найти обратных матрицы простому методу

Annotation: The article is devoted to performing operations on matrices in higher education higher mathematics and a simple way to find inverse matrices.

Kalit so'zlar: Matritsa, Oliy matematika, satr, ustun, uchburchak, to'rtburchak, nol matritsa, birlik matritsa, kvadrat, qo'shish, ayirish, ko'paytirish, detirminant, Teskari matritsa.

Sonlarning m ta satr va n ta ustundan tashkil topgan to'g'ri to'rtburchak jadvaliga

$$(a_{ij}) = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

$m \times n$ o'lchamli **matritsa** deyiladi, bu yerda a_{ij} ($i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$) – matritsaning i -satr j -ustunda joylashgan elementi. Matritsa tushunchasidan foydalanib, chiziqli tenglamalar sistemasining yechimlarini topishda foydalanamiz.

Matritsaning ko'rinishlari

$1 \times n$ o'lchamli matritsa satr matritsa yoki **satr – vektor** deyiladi.

$1 \times m$ o'lchamli matritsa ustun matritsa yoki **ustun – vektor** deyiladi.

$n \times n$ o'lchamli matritsa n -tartibli **kvadrat matritsa** deyiladi.

Bosh diagonalidan bir tomonda yotuvchi barcha elementlari nolga teng bo'lgan kvadrat matritsa **Uchburchak matritsa** deyiladi.

Bosh diagonali elementlarida boshqa barcha elementlari nolga teng bo'lgan kvadrat matritsa **diagonal matritsa** deyiladi.

Barcha elementlari birga teng bo'lgan kvadrat matritsa **Birlik matritsa** deyiladi va E harfi bilan belgilanadi.

Barcha elementlari nolga teng bo'lgan matritsa **Nol matritsa** deyiladi va Q harfi bilan belgilanadi.

Bir xil o'lchamli $A = (a_{ij})$ va $B = (b_{ij})$ matritsalarining barcha mos elementlari teng ya'ni $a_{ij} = b_{ij}$ bo'lsa bu matritsalariga **teng matritsalar** deyiladi va $A=B$ deb yoziladi.

Bir xil o'lchamdagi $A=(a_{ij})$ va $B=(b_{ij})$ matritsalarining yig'indisi deb mos elementlar

$c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}$ kabi aniqlanadigan shu o'lchamdagi $C=A+B$ matritsaga aytiladi.

$A=(a_{ij})$ matritsaning $\lambda \neq 0$ songa ko'paytmasi deb, elementlari $C= \lambda * a_{ij}$ kabi aniqlanadigan shu o'lchamdagi $C= \lambda * A$ matritsaga aytiladi.

MATRITSALAR USTIDA AMALLAR.

QO'SHISH AYIRISH KO'PAYTIRISH

P maydon ustuda istalgan ikki nomdosh matritsani qo'shish quyidagicha bo'ladi

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix} \quad B = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & \dots & b_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ b_{n1} & b_{n2} & \dots & b_{nn} \end{pmatrix}$$

$$A+B = \begin{pmatrix} a_{11} + b_{11} & a_{12} + b_{12} & \dots & a_{1n} + b_{1n} \\ a_{21} + b_{21} & a_{22} + b_{21} & \dots & a_{2n} + b_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ a_{n1} + b_{n1} & a_{n2} + b_{n2} & \dots & a_{nn} + b_{nn} \end{pmatrix}$$

Demak, yig'indi matritsaning $a_{ij} + b_{ij}$ elementlari qo'shiluvchi matritsalarining mos

a_{ij} va b_{ij} elementlar yig'indilariga teng.

Ravshanki matritsalarini qo'shish kommutativ va assositiv ekanligi kelib chiqadi.

Istalgan matritsalar uchun

$$A+B = B+A, \quad A+(B+C) = (A+B)+C$$

tengliklar o'rinalidir.

A va B matritsalar ustida Ayirishni ko'ramiz

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{pmatrix} \quad B = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & \dots & b_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ b_{n1} & b_{n2} & \dots & b_{nn} \end{pmatrix}$$

$$A+B = \begin{pmatrix} a_{11} - b_{11} & a_{12} - b_{12} & \dots & a_{1n} - b_{1n} \\ a_{21} - b_{21} & a_{22} - b_{21} & \dots & a_{2n} - b_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ a_{n1} - b_{n1} & a_{n2} - b_{n2} & \dots & a_{nn} - b_{nn} \end{pmatrix}$$

kelib chiqadi

Xususiy holda $A - A = 0$, $A - Q = A$, $Q - A = 0$

Natija. Nomdosh matritsalar to'plami additiv guruppa bo'ladi.

MATRITSANI MATRITSAGA KO'PAYTIRISH

$m = 3$ $n = 3$ $k = 3$

$$A_{m*n} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} \quad B_{n*k} = \begin{pmatrix} b_{11} & b_{12} & b_{13} \\ b_{21} & b_{22} & b_{23} \\ b_{31} & b_{32} & b_{33} \end{pmatrix}$$

A_{m*n} va B_{n*k} matritsalarini ko'paytirish qoidasi quyidagidan iborat:

$$A_{m \times n} * B_{n \times k} = C_{m \times k}$$

ko'paytmasining har C_{ij} elementlarini hosil qilish uchun $A_{m \times n}$ ning i – satridagi elementlarni $B_{n \times k}$ ning j – ustunidagi mos elementlarga ko'paytirib natijalar qo'shiladi, ya'ni:

$$C_{ij} = a_{i1} * b_{1j} + a_{i2} * b_{2j} + a_{i3} * b_{3j} \text{ ko'rinishga keladi.}$$

TESKARI MATRITSA

A kvadrat matritsa uchun $A * A^{-1} = A^{-1} * A = E$ tenglik bajarilsa A^{-1} matritsa A matritsaga **teskari matritsa** deyiladi.

Har qanday $|A| \neq 0$ (Detirminanti) 0 dan farqli A matritsa uchun A^{-1} matritsa mavjud va yagona bo'ladi.

A MATRITSANING TESKARI MATRITSASI

$$A^{-1} = \frac{1}{A} * \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & \dots & A_{1n} \\ A_{21} & A_{22} & \dots & A_{2n} \\ \vdots & \vdots & & \vdots \\ A_{n1} & A_{n2} & \dots & A_{nn} \end{pmatrix} \quad (1)$$

formula bilan aniqlanadi.

1-Misol:

$$A = \begin{pmatrix} 1 & -3 \\ 4 & 5 \end{pmatrix} \quad \text{va} \quad B = \begin{pmatrix} 2 & 1 \\ -6 & 0 \end{pmatrix}$$

Matritsalar ustida **A+B** ifodalang

$$A+B = \begin{pmatrix} 1+2 & -3+1 \\ 4+(-6) & 5+0 \end{pmatrix}$$

$$A+B = \begin{pmatrix} 3 & -2 \\ -2 & 5 \end{pmatrix}$$

2-Misol:

$$A = \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 2 & 4 \end{pmatrix} \quad B = \begin{pmatrix} 4 & 5 \\ 2 & 6 \end{pmatrix} \quad C = \begin{pmatrix} -1 & 4 \\ 5 & 3 \end{pmatrix}$$

A, B va C matritsalar berilgan. **3A – B – C** matritsani toping:

$$3A - B - C = 3 * \begin{pmatrix} 3 & -1 \\ 2 & 4 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} 4 & 5 \\ 2 & 6 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} -1 & 4 \\ 5 & 3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 9 & -3 \\ 2 & 4 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} 4 & 5 \\ 2 & 6 \end{pmatrix} - \begin{pmatrix} -1 & 4 \\ 5 & 3 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 9-4-(-1) & -3-5-4 \\ 2-2-5 & 4-6-3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 6 & -12 \\ -5 & -5 \end{pmatrix}$$

$$3A - B - C = \begin{pmatrix} 6 & -12 \\ -5 & -5 \end{pmatrix}$$

Matritsalarini ko'paytirishda $A_{m \times n}$ va $B_{n \times k}$ $A_{m \times n}$ matritsaning satrlar soni $B_{n \times k}$ matritsaning ustunlar soniga teng bo'lishi yetalidir. **A * Q = Q**

3-misol

$$A_{3 \times 3} \begin{pmatrix} 1 & -1 & 2 \\ 3 & -3 & 7 \\ 2 & -3 & 5 \end{pmatrix} \quad B_{3 \times 1} \begin{pmatrix} 2 \\ 9 \\ 2 \end{pmatrix} \quad 3=3$$

$$A_{3 \times 3} * B_{3 \times 1} = \begin{pmatrix} 1 & -1 & 2 \\ 3 & -3 & 7 \\ 2 & -3 & 5 \end{pmatrix} * \begin{pmatrix} 2 \\ 9 \\ 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 * 2 + ((-1) * 9) + 2 * 2 \\ 3 * 2 + ((-3) * 9) + 7 * 2 \\ 2 * 2 + ((-3) * 9) + 5 * 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 - 9 + 4 \\ 6 - 27 + 14 \\ 4 - 27 + 10 \end{pmatrix}$$

$$= \begin{pmatrix} -3 \\ -7 \\ -13 \end{pmatrix} \quad C_{3 \times 1} = \begin{pmatrix} -3 \\ -7 \\ -13 \end{pmatrix}$$

4-misol

$$A_{3 \times 3} = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -1 & 4 & -2 \\ 2 & -2 & 7 \end{pmatrix} \quad B_{3 \times 3} = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & -2 & 1 \\ 2 & 2 & 4 \end{pmatrix}$$

$$A_{3 \times 3} * B_{3 \times 3} = \begin{pmatrix} 1 & -2 & 3 \\ -1 & 4 & -2 \\ 2 & -2 & 7 \end{pmatrix} * \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & -2 & 1 \\ 2 & 2 & 4 \end{pmatrix}$$

$$\begin{pmatrix} 1 * 1 + (-2) * 1 + 3 * 2 & 1 * 1 + (-2) * (-1) + 3 * 4 & 1 * 1 + (-2) * (-1) + 3 * 4 \\ (-1) * 1 + 4 * 1 + (-2) * 2 & (-1) * 1 + 4 * 2 + (-2) * 2 & (-1) * 1 + 4 * (-1) + (-2) * 4 \\ 2 * 1 + (-2) * 1 + 7 * 2 & 2 * 1 + (-2) * 2 + 7 * 2 & 2 * 1 + (-2) * (-1) + 7 * 4 \end{pmatrix}$$

$$= \begin{pmatrix} 5 & 3 & 15 \\ -1 & 3 & -13 \\ 14 & 12 & 32 \end{pmatrix} = C_{3 \times 3}$$

$$A_{3 \times 3} * B_{3 \times 3} = C_{3 \times 3}$$

5-Misol.

A matritsaga teng matritsani toping.

$$A = \begin{pmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & -1 \end{pmatrix}$$

Matritsani **determinant**ini hisoblaymiz

$$\Delta = \begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ -1 & 1 & 3 \\ 1 & 2 & -1 \end{vmatrix} = -16 \neq 0$$

Demak, A^{-1} mavjud. Δ ning algebraik to'ldiruvchilarini hisoblaymiz

$$A_{11} = \begin{vmatrix} 1 & 3 \\ 2 & -1 \end{vmatrix} = -7$$

$$A_{12} = - \begin{vmatrix} -1 & 3 \\ 1 & -1 \end{vmatrix} = 2$$

$$A_{13} = \begin{vmatrix} -1 & 1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} = 3$$

$$A_{21} = \begin{vmatrix} -1 & 0 \\ 2 & -1 \end{vmatrix} = -1$$

$$A_{22} = \begin{vmatrix} 2 & 0 \\ 1 & -1 \end{vmatrix} = -2$$

$$A_{23} = - \begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} = -5$$

$$A_{31} = \begin{vmatrix} -1 & 0 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = -3$$

$$A_{32} = - \begin{vmatrix} 2 & 0 \\ -1 & 3 \end{vmatrix} = -6$$

$$A_{33} = \begin{vmatrix} 2 & -1 \\ -1 & 1 \end{vmatrix} = 1$$

Teskari matritsani (1) formuladan topamiz

$$A^{-1} = \frac{-1}{16} * \begin{pmatrix} -7 & -1 & -3 \\ 2 & -2 & -6 \\ -3 & -5 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \frac{7}{16} & \frac{1}{16} & \frac{3}{16} \\ \frac{-1}{8} & \frac{1}{8} & \frac{3}{8} \\ \frac{3}{16} & \frac{5}{16} & -\frac{1}{16} \end{pmatrix}$$

Bunday ko'rinishlarga ega bo'lgan matritsalarini qo'shish, ayirish va ko'paytirishda Oliy ta'limdagi talabalariga qo'shimcha material sifatida tavsiya etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. M. Ucmonov, Matematika malumotnoma, Toshkent "Navro'z" 2017
2. Sh.R.Xurramov, Oliy matematika, Toshkent 2015
3. R.N.Nazarov, B.T.Toshpo'latov, A.D.Do'sumbetov, Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent "o'qituvchi" 1993
4. Sh.A.Ayupov, Algebra va sonlar nazariyasi kursi, Toshkent 2019
5. D.I.Yunusova, A.S. Yunusov, Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent "Ilm-Ziyo" 2009
6. I.Allakov, Sonlar nazariyasidam misol va masalalar "surxon-Nashr" nashriyoti 2020
7. www.google.uz
8. www.ziyonet.uz
9. www.uzedu.uz
10. www.ziyouz.com

CULTURE SHOCK

Kamariddinova Bakhora Gayratjon kizi

Student of Samarkand state University(Kattakurgan branch)

Annotation: ☒ Culture shock occurs when an individual confronts another culture. Culture shock is a perfectly normal, emotional reaction that may include feelings of depression, anxiety, or disorientation and that may even manifest itself physically by affecting an individual's health or their sleeping or eating habits.

☒ Культурный шок возникает, когда человек сталкивается с другой культурой. Культурный шок — это совершенно нормальная эмоциональная реакция, которая может включать чувство депрессии, беспокойства или дезориентации и может даже проявляться физически, влияя на здоровье человека, его привычки сна или питания.

☒ Madaniyat zarbasi inson boshqa madaniyatga duch kelganida sodir bo'ladi. Madaniy shok - bu mutlaqo normal hissiy reaksiya bo'lib, u ruhiy tushkunlik, tashvish yoki orientatsiyani o'z ichiga olishi mumkin va hatto jismoniy jihatdan namoyon bo'lishi mumkin, bu odamning sog'lig'i, uyqusi yoki ovqatlanish odatlariga ta'sir qiladi.

1.Positive impact.

Положительное влияние.

Ijobiy ta'sirlar.

2.Breaks the routine.

Ломает рутину.

Tartibni buzadi.

Key words; Cultural, experience, interact, mindset, unpleasant, process, unfamiliar, opportunity.

Culture shock gives you the opportunity to try new things.

New cultures usually bring you the opportunity to experience entirely different things, which can be both unique and exciting. Over time, it can have a powerful and positive impact on a person's life. Exposure to a new culture is a very positive thing, especially for young people. It gives the opportunity to learn how to adapt, interact and present yourself within an entirely new culture, and thus develop a global mindset.

Cultural shock disrupts the order of your life.

Whether you are deciding to travel around the world or living abroad in another country, you have to bear in mind that culture shock is an "unpleasant" experience you must go through. Since culture shock may cause people to have negative experiences, everyone tries to avoid it, but they fail to see that they should embrace it instead. So, when living abroad in culturally different country, it becomes nearly impossible to avoid culture shock easily - despite how positive your attitude might be since it is a natural and an enriching process a person must go through so as to grow as an individual.

In the early stages of Culture shock, it may sum very difficult to adjust to daily life in your new community. But with time you become comfortable with your new routine and the company of other people in your community. The fear of facing unfamiliar situations holds many people from stepping out of their comfort zone.

Appendix ;

- 1. Opportunity** - a possibility due to a favorable combination of circumstances.
- 2. Interact** - act together or towards others or with others.
- 3. Unpleasant** - disagreeable to the senses to the mind, or feelings.
- 4. Process** - a particular course of action intended to achieve a result.
- 5. Unfamiliar** - not known.
- 6. Mindset** - a habitual or characteristic mental attitude that determines how you will inteepret and respond to situations.

USED LETARATURES:

1. Akarowhe, K. (2018). Effects and Remedies to Cultural Shock on the Adolescent Students. *Sociology International Journal*, 2, 306-309. <https://doi.org/10.15406/sij.2018.02.00063>
2. Austin, Z. (2007). Geographical Migration, Psychological Adjustment, and Re-Formation of Professional Identity: The Double Culture Shock Experience of International Pharmacy Graduates in Ontario (Canada). *Globalisation, Societies and Education*, 5, 239-255.
3. <https://doi.org/10.1080/14767720701427145>

WOMEN SHOULD RULE THE WORLD

Khamrayeva Dilfuza Zarif kizi

Student of Samarkand State University (Kattakurgan branch)

Annotation: *In this article it is talked about the role of women in the world through this article. It is known to everyone that woman play important role in society and family. I think this article is useful for all women and people.*

Keywords: *Victim, leader ,decision, discriminate, freedom, supremacy, nuance, rightful.*

If women ruled the world, politics would be more collegial, businesses would be more productive, and communities would be healthier. More women should lead-not because they are the same as men, but precisely because they are different . We do not know what the world would look like if women ruled it, but something's not working at the moment. While we can't say for certain that women would make a better fist of it, or behave any better, what we do know is that when women are in leadership positions, or involved in decisions making societies work better. There is less violence and instability and more peace.

It is true that women dislike conflict more than men, but that is stereotype, a lot of women enjoy conflict and victory and being better than others so they can feel smug. They say this even if they don't know what its like to be a leader which they don't, I for one am not a leader of any large government or country so I can only hardly imagine the pressure someone is put under when they have to decide whether to go to war or not , I do not think it matters what gender you are ,you want to do what is best for your country and your people, it is the instinct for survival and survival of our children.

If women ruled the world, they would be more aggressive or businesslike than men. But some female ladders can always be overwhelmed by strong emotions. This causes the workers to turn against him.

If the world were ruled by women, men's rights would be weaker than women's that is more attention would be paid to women than to men. This leads to the fact that women are far superior to men ,only women make decisions, and men depend on them. I do not agree with this opinion. Men tent to be stronger and tougher than women. Because men are responsible towards women, they also make good leaders.

Appendix:

Discriminate- make an unjust or prejudicial distinction in the treatment of different categories of people, especially on the grounds of ethnicity, sex, age, or disability:

existing employment policies discriminate against women.

freedom-the power or right to act, speak, or think as one wants: we do have some freedom of choice he talked of revoking some of the freedoms.

decision-conclusion or resolution reached after consideration: I'll make the decision on my own the editor's decision is final.

leader-the person who leads or commands a group, organization, or country: the leader of a protest group a natural leader.

USED LITERATURE:

- 1.Kathrine West Scheil 2012
- 2.Literary World; 743 page.
- 3.Loie Kerschen 1998 Besides, What a woman has to say above a whisper isn't worth listening to....
- 4.Shirley Anne Warshouf: American Proverbs about
5. Women : A reference guide 82 page.
- 6.[https://www. amazon.com](https://www.amazon.com)>Why Women should Rule

TIL VA JAMIYAT

Bobomurotova Mahfuza Turobovna

Til jamiyatning aloqa-aralashuv quroli sifatida jamiyat bilan uzviy aloqadadir. Chunki jamiyatda ro'y har bir o'zgarish shu jamiyatning tilida o'zining ma'lum izini qoldiradi. Shuning uchun ham jamiyat tarixining muayyan jihatlarini yoritishda tarixiy hujjatlar, yozma yodgorliklar ojizlik qilib qolgan joyda lingvistik materiallar yordamga kelishi mumkin. Til ijtimoiy xarakterga ega, chunki u jamiyat taraqqiyoti, mehnat faoliyati jarayonida yuzaga keladi. Til faqat jamiyatda, odamlar orasida mavjud bo'ladigan ijtimoiy quroldir. Tilning taqdiri, uning yashashi, rivojlanishi faqat shu tilda gaplashuvchi jamiyatga bo'liq.

Til deb murakkab [muloqot](#) tizimiga yoki shu tizimni o'rganish va ishlatish qobiliyatiga aytiladi. Til asosan muloqot vositasi hisoblanadi. Tilni o'rganuvchi sohaga [tilshunoslik](#) deyiladi. Jahon tillari miqdorini aniqlash uchun til va [sheva](#) orasida farq o'rnatish zarur. Tabiiy til so'zlashuv yoki imo- ishora orqali tarqaladi, biroq har qanday til eshitish, ko'rish, sezish [stimullari](#) yordamida [yozuv](#), [braille](#) yoki [hushtak](#) kabi ikkilamchi vositaga kodlanishi mumkin. Bu odam tili modallikdan mustaqil bo'lgani uchun ilojli. Keng ma'noda til atamasi ostida biror muloqot tizimining tayinli qoidalari majmuasi tushuniladi. Barcha tillar [semiozisga](#), ya'ni [belgilarni](#) tegishli [ma'nolarga](#) bog'lash jarayoniga tayanadi. [Og'zaki](#) va imo-ishora tillari ramzlar ketma-ketligini so'z yoki [morfema](#) qilib shakllantiruvchi [fonologik](#) tizim hamda so'z va morfemalar ketma-ketligidan ibora va [gaplarni](#) hosil qiluvchi [sintaktik](#) tizimni o'z ichiga oladi. Odam tili [unumdorlik](#), [rekursivlik](#) va [siljuvchanlik](#) xususiyatlariga ega ekanligi hamda ijtimoiy kelishuv va o'rganishga butunlay asoslangani uchun unikaldir. Binobarin, uning murakkab tuzilishi [hayvonlar muloqotiga](#) nisbatan juda keng ifoda va qo'llanishlar ko'lamini beradi.

Tilshunoslar til tuzilishini tegishli muloqot va ijtimoiy vazifalarga xizmat qilish uchun evolutsiyalangan, deb qarashadi. Til [odam miyasining](#) turli, xususan [Broca](#) va [Wernicke sohalarida](#) ishlanadi. Odamlar tilni yosh bolalik paytidagi ijtimoiy o'zaro munosabat orqali [o'zlashtiradilar](#) va o'rtacha uch yoshga kelib ravon gapira oladilar. Til ishlatish odam [madaniyatiga](#) chuqur singgan. Binobarin, til faqatgina muloqot vositasi bo'lib qolmay, balki [individuallik](#), [ijtimoiy stratifikatsiya](#), [parvarish](#) va [ermak](#) kabi ijtimoiy va madaniy rollarga ham ega.

Tillar vaqt o'tishi bilan [o'zgaradi](#), ularning evolutsiyasini qadimgi tillar keyingi bosqichlar sodir bo'lishi uchun qanday belgilarga ega bo'lganini aniqlovchi va ularni zamonaviy tillarga taqqoslovchi [tarixiy tilshunoslik](#) o'rganadi. Umumiy ajdoddan keluvchi tillar guruhiga [tillar oilasi](#) deyiladi Tilshunoslar fikriga ko'ra bugun mavjud tillarning 50 dan 90 foizigachasi 2100-yilga kelib [yo'qolib](#) ketadi.

Hozirgi davrda turli millat, elat va qabilalarga tegishli 2500 dan 5000 tagacha (ba'zi manbalarda 3000—7000 oralig'ida) jonli til borligi ma'lum. Ularning har birida barcha tillar uchun umumiy bo'lgan ba'zi universal struktur xususiyatlar ko'zga tashlanadi.

Tilning tafakkur, ijtimoiy ong bilan aloqasi nihoyatda uzviy, chambarchasdir. Shunday kilib, til nafaqat fikrni ifodalash yoki fikr almashish vositasi, balki ijtimoiy ongda fikrlarni shakllantirish va mustahkamlash vositasi ham hisoblanadi. Til — jamiyat boyligi, u jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasini amalga oshiradi, insonning moddiy va ma'naviy turmushida ro'y beradigan barcha voqea hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi va ulardan xabardor qiladi; til ayni ma'noda asrlar mobaynida shakllanadi va mavjud bo'ladi.

Xullas, til – jamiyatning asosiy tayanchi, insoniy muloqot-munosabatlarning birlamchi vositasi, millat ruhi va davlatchilik taqdiridir. Har bir xalq va millat, davlat va jamiyatning o'tmishi, buguni va kelajagini, uning mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi. Til – muloqot zarurati tufayli yaralgan, muloqot jarayonida insoniyat yaratgan barcha yangiliklarni, tafakkur mevalarini anglatib, avloddan-avlodga yetkazib, avaylab-asrab keladi.

Shunday ekan, tilimizni e'zozlash, uning davlat tili sifatidagi maqomi, jamiyatdagi mavqeini yuksaltirish, yosh avlodni ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash hamisha dolzarb ma'naviy burchimiz bo'lib qoladi. O'zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro'-e'tiborini yuksaltirish, uni milliy va umumbashariy tushunchalar asosida taraqqiy etgan tillar safiga qo'shish har birimizdan milliy tilga chuqur hurmat bilan yondashishni talab etadi. Zero, til bor ekan, millat barhayotdir.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING NUTQINI O'STIRISHDA ILG'OR PEDAGOGIK METODLARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

Kuchkarova Xumrinisa Shermatovna

Toshkent viloyati Angren shahri

73-sonli ixtisoslashtirilgan maktab-internati

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili o'quv dasturidagi mavzularni o'zlashtirish hamda mashqlar tizimini ishlab chiqish xususida fikrlar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *Nutq, nutq o'stirish, so'z, so'z birikmasi, gap, interfaol o'yinlar, ona tili darsi, o'quvchi, pedagog.*

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limining bosh vazifasi o'quvchilar nutqini o'stirish hisoblanadi. O'quvchilarni o'z fikrlarini erkin, to'g'ri ifodalashga o'rgatish jamiyat uchun ham, psixologik va metodik jihatdan ham juda muhim bo'lib, hozirgi kunning dolzarb masalalaridan hisoblanadi.

O'quvchilarning nutqini o'stirish ishlari dars jarayonida amalga oshiriladi. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldiga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradi. Bola berilgan topshiriqlarni bajarib o'rgangani sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllanadi.

Shuning uchun ham boshlang'ich sinfning ona tili darsligida o'quvchining yozma nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bois ona tili darsligiga kiritilgan har bir mavzu va topshiriq, avvalo shu maqsadga qaratilgan bo'lishi lozim. Jumladan, zamonaviy ta'lim konsepsiyasiga asoslanib, davr talabiga mos dastur va darsliklar yaratildi, bilim sifatini to'g'ri nazorat etish maqsadida Davlat ta'lim standarti joriy etildi. Mazkur dasturda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili ta'limi sohasi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar quyidagi uch parametrlil

standart o'lchovi orqali aks ettirildi: o'qish texnikasi, o'zgarlar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi.

Fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi: – fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;

- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va h.k.);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.

Nutq – inson faoliyatining turi, til vositalari (soʻz, soʻz birikmasi, gap) asosida tafakkurni ishga solishdir. Nutq oʻzaro aloqa va xabar, oʻz fikrini his-hayajon bilan ifodalash va boshqalarga taʼsir etish vazifasini bajaradi. Yaxshi rivojlangan nutq jamiyatda kishi faoliyatining muhim vositalaridan biri sifatida xizmat qiladi. Oʻquvchi uchun esa nutq maktabda muvaffaqiyatli taʼlim olish qurolidir.

Nutqni oʻstirishda uch yoʻnalish aniq ajratiladi: 1) soʻz ustida ishlash; 2) soʻz birikmasi va gap ustida ishlash; 3) bogʻlanishli nutq ustida ishlash. Koʻrsatilgan uch yoʻnalish parallel olib boriladi: lugʻat ishi gap uchun material beradi; soʻz, soʻz birikmasi va gap ustida ishlash bogʻlanishli nutqqa tayyorlaydi.

Oʻquvchilarning yoshi va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ona tili oʻquv dasturidagi mavzularni puxta oʻzlashtirilishiga yordam beradigan, mustaqil fikr yuritish, oʻz fikrini erkin ifodalash, boshqalar fikrini tinglash, mulohaza yuritish, oʻz fikrini ilgari surish, umumlashtirish va xulosalashga oʻrgatish, bundan tashqari oʻquvchilarda til materialidan foydalanishga qiziqish uygʻotadigan, ona tili taʼlimi samaradorligini oshirishning omili sifatida eʼtirof etilayotgan ilgʻor oʻqitish usullari va mashqlar tizimini ishlab chiqish davr talabidir. Ushbu talabdan kelib chiqib, ona tili taʼlimiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

a) taʼlim jarayonini tashkil etuvchi oʻquvchi va oʻqituvchi shaxsiga oʻquv faoliyati subyektlari sifatida yondashuv;

b) oʻqituvchi va oʻquvchining taʼlim jarayoniga ijodiy yondashuvini taʼminlash;

d) oʻqituvchilar ona tili fanini oʻqitishda takomillashtirilgan anʼanaviy va noanʼanaviy shakl, metod va vositalaridan foydalanish;

e) ona tili darslari loyihasining har bir bosqichiga til birliklari ustida ishlashni singdirish;

f) oʻquvchilarning tilni amaliy oʻzlashtirishlari uchun leksik-grammatik mashq topshiriqlarini va tashkil etish usullarini takomillashtirib borish;

g) oʻquvchilar faoliyatini, oʻzlashtirish darajasini doimiy oʻrganib borish, natijalarini tahlil qilish, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini belgilay olish.

Ona tili darslarini “muammoli” tashkil etishda, “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Kichik guruhlarda ishlash”, “6x6x6”, “Lahzada aql charhi”, “Qarorlar mojarosi” kabi interfaol usullaridan hamda oʻyinlaridan foydalanish oʻquvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini jamoa bilan maslahatlashishga oʻrgatadi, muammolarni hal qilishda ishtirok etish maylini yuzaga keltiradi.

Taʼlim sohasida ilgʻor texnologiyalarning joriy qilinishi oʻqish sifatini koʻtarishga yordam bermoqda. Oʻquvchi maktabga kelgan kundan boshlab, maxsus metod va usullar, ish turlari vositasida oʻz lugʻatini boyitib boradi. Oʻquvchining lugʻatini boyishi birinchi navbatda uni oʻrab olgan muhit, tabiat, kishilarning hayoti, ijodiy va oʻqish faoliyati, kattalar va tengdoshlari bilan boʻlgan munosabati asosiy manba hisoblanadi.

Dars oʻtish jarayonida oʻyinning turli bosqichlaridan foydalanish mumkin, ammo ular shunday rejalashtirilishi kerakki, oʻquvchi ogʻir aqliy mehnatdan soʻng oʻyindan oʻziga

emotsional quvvat olsin, o'zining harakatini o'rtoqlarining harakatiga solishtirsin va unda tashabbuskorlik paydo bo'lsin. Quyida boshlang'ich sinf ona tili darslarida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin namunalarini keltiramiz.

“Kim ko'p so'z tuzadi?” o'yini. Kartochkalarga bosma harflar tarqoqlikda yozib qo'yiladi. O'quvchilar shu harflar ishtirok etgan so'zlarni tuzadilar.

“O'yla, izla, top” o'yini. Berilgan matn ichidan ma'nodosh so'zlarni topib, ularni guruhlab yozadilar va nima uchun ma'nodosh ekanini izohlaydilar. Matn “O'qish kitobi” dan olinishi yoki ona tili darsligidagi matndan berilishi mumkin.

“Zanjir” o'yini. O'qituvchi ma'nodoshi bor bo'lgan so'z aytadi, o'quvchilar parta ketma-ketligida unga ma'nodosh bo'lgan so'zni topib aytadilar. Ma'nodoshi qolmagandan so'ng, navbatdagi o'quvchining o'zi boshqa ma'nodoshli so'z aytib, o'yinni davom etishiga yordam beradi. Bir qator partada o'tirgan o'quvchilar bir necha ma'nodosh so'zlar guruhini tuzishlari mumkin. O'yinni o'quvchilar ketma-ket tarzda davom ettirishadi. Masalan, bir qatorda 10 ta o'quvchi o'tirgan bo'lsa uchta, to'rtta ma'nodosh so'z guruhini tuzishi mumkin. 4-sinf darsligidagi 304-mashq bajarilib bo'lingach bu o'yindan foydalanish mumkin.

“Iztopar” o'yini. O'qituvchi harflari tushirilgan ma'nodosh so'zlarni doskaga yoki kartochkaga yozib o'quvchilarga so'zni topishlarini va ularning ma'nolarini izohlashlarini topshiriq qilib beradi. Masalan, bu o'yin 4-sinf darsligidagi 224-mashqni va 236-mashqni bajarish jarayonida o'tkazilishi mumkin.

1. Be.or, be.ob, no.ob, no.og', xa.ta, og'.iq.

2. O . to . , q . yo . , q . ma . , k . n, sha . s.

“Alifbo bilimdoni” o'yini. O'quvchilar alifbodagi tartib raqamiga ko'ra sonlar o'rniga harflarni qo'yib, tartibsiz berilgan so'zlardan maqollar tuzadi. Maqollar mazmunini o'qish darsida o'qigan asarlari asosida izohlashlari so'raladi.

1-guruh

1) 18, 25, 24 27, 8, 17, 8, 13 27, 8, 17, 8, 13 2, 14, 11, 3, 1, 13.

2-guruh

2) 23, 14, 17, 8, 19, 1, 17 14, 23 8, 18, 8, 19, 12, 1, 23, 3, 8 2, 8, 17, 14, 16.

3-guruh

3) 23, 1, 22, 27, 8 3, 25, 18, 19 23, 25, 16 10, 8, 19, 14, 2, 2, 1, 13

4-guruh 4) 2, 4, 3, 1, 13, 1 10, 25, 15 25, 19, 11, 14, 16, 3, 1. 2, 1, 7, 14, 13, 1 –

3, 1, 13, 6, 1, 18, 1, 3, 1.

Javoblari:

1. Shirin so'z boldan shirin. 2. Oy yoritadi, biroq isitmaydi. 3. kitobdan yaxshi do'st yo'q. 4. O'tloqda bedana ko'p, Dangasada – bahona.

Ma'lumki, fikrlash jarayoni, ya'ni o'rganilayotgan hodisaning muhim belgilarini aniqlash, ularni taqqoslash, guruhlash, umumlashtirish va xulosalash jarayoni ichki va tashqi nutq vositasida amalga oshiriladi. Umumlashma xulosalar ham nutq orqali reallashadi, ya'ni yuzaga kelgan fikr nutq vositasida tinglovchiga yetkaziladi. Bu

jarayonlarning hammasida o'quvchi til birliklariga ehtiyoj sezadi. Bunda o'quvchining til materiallarini o'zlashtirishi uchun darslik material, o'qituvchi nutqi namuna vazifasini bajaradi. Shuning uchun darslikdagi o'quv materiallarining tili, o'qituvchining nutqi til birliklariga boy bo'lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh., Ona tili o'qitish metodikasi, – T.: Noshir, 2014, 352-b.
2. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik). – T.: O'qituvchi, 2013. 190-b
3. www.arxiv.uz

FIZIKA FANIDAN DARS O'TISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METODLARDAN FOYDALANISHNING MUHIM JIHATLARI

Berdiboyeva Chamangul

*Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
biologiya fani o'qituvchisi*

Eshniyazova Manzura

*Xorazm viloyati Yangibozor tumanining 17-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
fizika fani o'qituvchisi*

Annontatsiya; *Ushbu maqolada fizika fanidan dars o'tish jarayonida zamonaviy metodlardan foydalanishning muhim jihatlari haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Fizika, jarayon, dars, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik, nazariya, tajriba, zamonaviy.*

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonida o'qitishning zamonaviy metodlari keng qo'llanilmoqda. O'qitishning zamonaviy metodlarini qo'llash o'qitish jarayonida yuqori samaradorlikka erishishga olib keladi. Bu metodlarni har bir darsning didaktik vazifasidan kelib chiqib tanlash maqsadga muvofiq. An'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda uni ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiradigan turli-tuman metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasi o'sishiga olib keladi.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Interfaol ta'lim metodlari hozirda eng ko'p tarqalgan va barcha turdagi ta'lim muassasalarida keng qo'llanayotgan metodlardan hisoblanadi. Shu bilan birga, interfaol ta'lim metodlarining turlari ko'p bo'lib, ta'lim-tarbiya jarayonining deyarlik hamma vazifalarini amalga oshirish maqsadlari uchun moslari hozirda mavjud. Amaliyotda ulardan muayyan maqsadlar uchun moslarini ajratib tegishlicha qo'llash mumkin. Bu holat hozirda interfaol ta'lim metodlarini ma'lum maqsadlarni amalga oshirish uchun to'g'ri tanlash muammosini keltirib chiqargan.

Buning uchun dars jarayoni oqilona tashkil qilinishi, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonida faolligi muttasil rag'batlantirib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning mazmunini ochishda aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, bahs-munozara, muammoli vaziyat, yo'naltiruvchi matn, loyiha, rolli o'yinlar kabi metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi.

Metodika ta'lim-tarbiyaning turli xususiy masalalarini hal qilish zarurati natijasida kelib chiqqan va ta'lim-tarbiya metodikasi asosida ijodkor o'qituvchilarning ilg'or tajribalariga suyanib rivojlanadi. Bir muallifning ilg'or pedagogik ish tajribasini hamma

pedagoglar aynan qo'llayolmaydilar, Bunda natijalar har kimda har xil bo'ladi. Oldindan belgilangan maqsadga har bir o'qituvchi o'z imkoniyatlariga muvofiq turli darajada erishadi. Shu sababli talab darajasidagi natija kafolatlanmaydi. Asosan ijodkor o'qituvchilargina yaxshi natijalarga erishailar. Texnologiya metodikalardan o'zining qayta tiklanuvchanligi, natijalarining turg'unligi ko'plab "agar"lar (agar o'qituvchi iste'dodli bo'lsa, agar bolalar qobiliyatli bo'lsa, agar yaxshi ota-onalar bo'lsa ...) yo'qligi bilan farq qiladi.

Ya'ni texnologiya tegishli tayyorgarlikka ega bo'lgan hamma mutaxassislar tomonidan qayta tiklash va qo'llash mumkinligi bilan juda ham individual bo'lgan metoddan farq qiladi. Shu bilan bir qatorda metodika pedagogik texnologiyaning tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatimizda innovatsion va ilmiy salohiyatni rivojlantirish yo'lida harakat shiddat bilan ortib borayotgan bir davrda yosh avlodning tarbiyaviy, ma'naviy- axloqiy, innovatsion, ilmiy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, o'quv jarayonlariga yangi-yangi o'qitish metodlari, texnologiyalari va innovatsiyalarni tatbiq qilish asosiy burchimizdir.

Ta'lim, bir so'z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta'minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli ilmiy tadqiqot metodlarini fizika fanini o'qitish jarayonida qo'llash ta'lim samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma va malakalarini shakllantiradi.

STEAM texnologiyasi haqida. STEAM ta'lim texnologiyasi maktab o'quvchilarini yangicha o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish metodikasidan farqli metodika hisoblanadi. U o'quvchilarni bir vaqtning o'zida beshta – fan (Science), texnologiya (Technology), muhandislik, (Engineering), tasviriy san'at (Art), matematika (Math) bo'yicha o'qitishga mo'ljallangan. STEAM fan bo'yicha emas, balki mavzular bo'yicha integratsiyalashgan o'qitish tizimidir. STEAM ta'limi deganda amaliy mashg'ulotlar yordamida ilmiy-texnik bilimlarni real hayotda qo'llash tushuniladi. STEAM texnologiyasida foydalaniladigan metodlardan biri Evristik ta'lim metodi hisoblanadi. Evristik degan so'zning ma'nosi savol javobga asosan "topaman" demakdir. Evristik metod bilan o'qitish maktablarda asosan XIX asr boshlaridan boshlab qo'llanila boshladi. Fizikada mashg'ulotlar qiziqarli bo'lishi uchun, bu mashg'ulotlardagi har bir masala yoki topshiriq so'zma so'z quruq yodlash uchun emas, balki ularning oliy faoliyatlarini ishga soladigan xarakteri bo'lishi kerak. Amerikalik olim D. Poya evristik ta'lim metodi to'g'risida shunday degan edi: "Evristikani maqsadi yangiliklarga olib boruvchi metod va qoidalarni izlash demakdir". U evristik metod mohiyatini quyidagidek izchillikda tuzilgan reja orqali amalga oshirishni tavsiya qiladi:

1. Masala yoki amaliy topshiriqning qo'yilishini tushunish.
2. Masalaning yechish rejasini tuzish.
3. Tuzilgan rejani amalga oshirish.

4. Orqaga nazar tashlash (hosil qilingan yechimni tekshirish). Bu rejani amalga oshirish jarayonida o`qituvchilar quyidagi savollarga javob topadilar.

1. Masalada nima noma'lum?

2. Masalada nimalar ma'lum?

3. Masalaning sharti nimalardan iborat?

4. Ilgari shunga o`xshagan masalalar yechilganmi?

5. Agar shunga o`xshagan masalalar yechilgan bo`lsa, undan foydalanib qo`yilayotgan masalani yecha oladimi? Albatta yuqoridagi reja-sxema o`quvchilarning ijodiy fikrlash faoliyatlarini shakllantiradi, ammo bu reja sxema o`quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi birdan bir yo`l bo`la olmaydi. Xulosa o`rnida aytish mumkinki, umumta`lim maktablarida ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanish, ta`lim jarayonlariga STEAM texnologiyasini keng joriy etish, tahsil olayotgan yosh avlodning nazariy bilimlarinigina oshiribgina qolmasdan, ularni tezroq amaliy va kasbiy jarayonlarga kirishga undaydi. Bu esa mamlakatimiz zamonaviy ta`limining yutuqlaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi

2. Ishmuhamedov R.J., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – T.: - Nihol nashriyoti, 2016

3. Berdiyeva O.B., Mirsaburov M. Matematika fanini o`qitish metodikasi moduli bo'yicha o`quv uslubiy majmua. – Termiz-2020.

4. <https://pm.piima.uz/steam-ta-lim/>